

ISSN 3030-3710
E-ISSN 3030-3095

ILMIY AXBOROTNOMA * SCIENTIFIC BULLETIN * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

№ 5, 2025

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 5, 2025

http://buxpxti.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№ 5, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
С-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувохнома № 064916

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Ҳудуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI ilmiy-amaliy jurnal 5-son Buxoro - 2025. - 400 b. **Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков** научно-практический журнал Выпуск 5. Бухара - 2025. - 400 с.	Jurnal Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti muassisligidagi nashr hisoblanadi. **Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.** OBUNA INDEKSI 3062	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi 05.06.2025 Qog'oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 24.75. Buyurtma № 139. Adadi - 60 Bahosi kelishilgan narxda. «Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy. Tel: 0(365) 222-46-46

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№ 5, 2025

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

BOSH MUHARRIR:
Baratov Sharif Ramazanovich
psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:
Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)
Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI
PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Kadirov K.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Djurayev B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Raximova I.I. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ibaydullayeva U.R. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sobirov A.A. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Dilova N.G. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor
Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Haydarov A.A. - filologiya fanlari doktori, professor
Astanova G.A. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Murodov G.N. - filologiya fanlari doktori, professor
Eshbekov T.U. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Saidov X.Sh. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific reports of Bukhara institute of psychology and foreign languages"
scientific-theoretical journal
EDITOR-IN-CHIEF:
Baratov Sharif Ramazanovich
doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences
Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
EDITORIAL BOARD MEMBERS
Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor
FOREIGN SCIENTISTS
Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)
SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES
Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Kadirov K.B. - doctor of psychology (DSc), professor
Abdurasulov R.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), professor
Djurayev B. - doctor of Psychology (DSc), professor
Ayrapetova A.G. - doctor of Psychology (DSc), associate professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Raximova I.I. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Ibaydullayeva U.R. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Sobirov A.A. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
PEDAGOGICAL SCIENCES
Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
Dilova N.G. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor
PHILOLOGY SCIENCES
Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Haydarov A.A. - doctor of Philology, professor
Astanova G.A. - doctor of Philology (DSc), professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Murodov G.N. - doctor of Philology (DSc), professor
Eshbekov T.U. - doctor of Philology (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Saidov X.Sh. - doctor of philosophy in philology (PhD
EDITORS:
Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Abdullayeva Zeboxon Odoljonovna
Farg'ona Davlat Universisteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti

JON BOULBI NAZARIYASI VA BOLANING RUHIY SALOMATLIK MUAMMOSI

Annotatsiya. *Jon Boulbining bog'lanib qolish nazariyasi, bolalarning ota-ona yoki parvarishlovchilar bilan xavfsiz va muntazam bog'lanish o'rnatishi zarurligini ta'kidlaydi. Nazariyasiga ko'ra, bolalar o'zlarini xavfsiz his qilishlari, o'ziga bo'lgan ishonchni rivojlantirishlari va ijtimoiy dunyoda muvaffaqiyatli yashashlari uchun o'zining birinchi parvarishlovchisi bilan mustahkam bog'lanish o'rnatishi muhimdir. Ushbu nazariyaning ijtimoiy-psixologik aspektlari bola ruhiy salomatligiga ta'sir ko'rsatadi, chunki xavfsiz bog'lanishning shakllanishi bolalar o'ziga bo'lgan ishonch, emotsional barqarorlik va jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Ushbu ilmiy tahlil Boulbining bog'lanib qolish nazariyasining bola ruhiy salomatligidagi ahamiyatini o'rganishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar*: Jon Boulbi, bog'lanib qolish nazariyasi, bola ruhiy salomatligi, ijtimoiy-psixologik aspektlar, xavfsiz bog'lanish, emotsional barqarorlik, psixologik xavfsizlik, ruhiy kasallik, bog'lanish, qo'rquv, xavotirlanish, ishonch, stress, nevroz.*

ТЕОРИЯ ДЖОНА БОУЛБИ И ПРОБЛМЫ ПСИХИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ДЕТЕЙ

Аннотация. *Теория привязанности Джона Боулби подчеркивает необходимость установления детьми безопасной и устойчивой связи с родителями или опекунами. Согласно его теории, для того чтобы дети чувствовали себя в безопасности, развивали уверенность в себе и успешно взаимодействовали с окружающим миром, им важно сформировать прочную привязанность к своему первичному опекуну. Социально-психологические аспекты этой теории влияют на психическое здоровье ребенка, поскольку формирование безопасной привязанности способствует развитию уверенности в себе, эмоциональной стабильности и успешной интеграции в общество. Данный научный анализ направлен на изучение значимости теории привязанности Боулби в контексте психического здоровья детей.*

Ключевые слова: *Джон Боулби, теория привязанности, психическое здоровье ребенка, социально-психологические аспекты, безопасная привязанность, эмоциональная стабильность, психологическая безопасность, психическое заболевание, привязанность, страх, тревожность, доверие, стресс, невроз.*

JOHN BOWLBY THEORY AND THE MENTAL HEALTH ISSUES OF CHILDREN

Annotation. *John Bowl's attachment theory emphasizes the necessity for children to establish a secure and consistent bond with their parents or caregivers. According to his theory, it is crucial for children to form a strong attachment with their primary caregiver to feel secure, develop self-confidence, and successfully navigate the social world. The socio-psychological aspects of this theory influence a child's mental health, as the formation of secure attachment fosters self-confidence, emotional stability, and successful integration into society. This scientific analysis focuses on exploring the significance of Bowl's attachment theory in relation to children's mental health.*

Key words*: John Bowl by, attachment theory, child mental health, socio-psychological aspects, secure attachment, emotional stability, psychological security, mental illness, attachment, fear, anxiety, trust, stress, neurosis.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda oilaviy, ijtimoiy va ekologik omillarning bolalar ruhiyatiga ta'siri ortib bormoqda. Ayniqsa, uch yoshgacha bo'lgan bolalar ongining rivojlanishida psixologik muhit va ijtimoiy ta'sirlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Erta yoshdagi psixologik salomatlik buzilishlari

kelgusida nevroz, stress va boshqa psixologik muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, ushbu masalani chuqur ilmiy o'rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ruhiy salomatlikni tushunish va uning shakllanishida Jon Boulbining "Attachment and Loss" kitobi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu asar uch qismdan iborat bo'lib, unda insonning bog'lanish (attachment) xususiyatlari, ajralish (separation) va yo'qotish (loss) natijasida yuzaga keladigan psixologik jarayonlar o'rganilgan [1]. Jon Boulbi (1907–1990) britaniyalik psixiatr, psixolog va psixoanalitik bo'lib, u bog'lanish nazariyasini ishlab chiqqan. Bu ishlab chiqilgan bog'lanib qolish nazariyasi (Attachment Theory) bolalar va ularning parvarishlovchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning bola rivojlanishiga ta'sirini o'rganuvchi konsepsiyadir. Bu nazariya bolaning ona yoki asosiy parvarishlovchi shaxs bilan uzviy emotiv va jismoniy bog'lanishi uning kelgusi hayotidagi psixologik va ijtimoiy munosabatlariga qanday ta'sir qilishini tushuntiradi.

Boulbi o'z tadqiqotlarida shaxsning ruhiy salomatligi dastlabki bolalik davridagi tajribalar bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, uch yoshgacha bo'lgan bolalar uchun asosiy ruhiy barqarorlik manbai – ularning ona yoki asosiy parvarishlovchi shaxs bilan shakllantirgan bog'lanishidir. U bolalar ruhiyatining barqarorligi va kelajakdagi psixologik muammolarni oldini olish uchun erta yoshda ishonchli va mehribon munosabatlarning ahamiyatini qayd etadi.

Boulbi tadqiqotlarida ruhiy salomatlik va psixologik salomatlik tushunchalari bog'lanish nazariyasi doirasida yoritiladi. Unga ko'ra, bola va onaning o'zaro munosabatlari bolaning kelajakdagi ruhiy farovonligi va psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar bola erta yoshda yaqin parvarishlovchidan ajratilsa yoki emotsional jihatdan e'tiborsiz qolsa, bu kelajakda ruhiy salomatlik buzilishlariga, jumladan, depressiya, tashvish, o'ziga past baho berish va ijtimoiy moslashuvning qiyinlashishiga olib kelishi mumkin.

Jon Boulbining "Attachment" (1969) asari inson ruhiy salomatligi, ayniqsa, bolalik davrida shakllanuvchi emotsional bog'lanish tizimi haqida fundamental nazariyalarni ilgari surgan. Ushbu nazariya bolalar va ularning asosiy parvarishlovchi shaxslar o'rtasidagi bog'lanish jarayonining bola ruhiyatiga ta'sirini, ajralish va yo'qotishning natijalarini hamda bolalik davrida olingan travmalarning uzoq muddatli oqibatlarini o'rganadi. Uning tadqiqotlari ruhiy salomatlikning barqarorligi va keyingi hayot bosqichlarida psixologik holatning shakllanishida erta yoshdagi tajribalar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi [2].

Uning tadqiqotlari bola va ona o'rtasidagi aloqaning ilmiy modelini yaratishga asoslangan. Boulbining asosiy g'oyasi shundaki, bolalar tug'ma xususiyat sifatida o'zlari uchun asosiy bog'lanish figuralarini (odatda onani) izlashga moyil bo'lishadi, chunki bu ularning omon qolishini ta'minlaydi.

Nazariyaning asosiy qoidalari quyidagicha bo'lib, u bog'lanish evolutsion jihatdan zarurdir – uning ta'kidlashicha, chaqaloqlar biologik jihatdan yaqinlik aloqasini o'rnatishga dasturlangan. Bunday aloqa bolaning hayotda omon qolishiga yordam beradi. Boulbi bolaning 2-3 yoshgacha bo'lgan davri bog'lanish uchun juda muhim ekanligini ta'kidlaydi. Agar bu davrda bola asosiy g'amxo'r shaxs bilan bog'lanmasa, keyinchalik bu aloqa shakllanmasligi mumkin. Keyinchalik bu davrni 5 yoshgacha kengaytirgan.

Boulbi etologiya (hayvonlarning xulq-atvorini o'rganish) tadqiqotlaridan ham ilhomlangan. Masalan, Konrad Lorensning 1935-yilgi tadqiqotlari (g'ozlar bilan olib borilgan imprinting tadqiqotlari) bog'lanishning tug'ma ekanligini ko'rsatgan. Boulbi ta'kidlaydiki, odam bolasida ham shunga o'xshash jarayon mavjud.

Bola tug'ilgandan boshlab onasi yoki asosiy g'amxo'r shaxs bilan yaqin aloqani saqlash uchun maxsus xulq-atvor shakllarini namoyon qiladi:

–Ko'z bilan aloqa qilish
–Yoqimli kulish
–Yig'lash
–Qo'llarini uzatish va tutib olish
–Onani kuzatish va ergashish

Ushbu xulq-atvor shakllari bolaning tirik qolishiga yordam beradi, chunki ular kattalar tomonidan parvarish ko'rsatishga turtki bo'ladi. Boulbi nazariyasiga ko'ra, agar bola doimiy holda onasining g'amxo'rligidan mahrum bo'lsa, quyidagi oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:

–Kognitiv rivojlanishdagi sustlik

–Ijtimoiy ko'nikmalarning pastligi

–Hissiy beqarorlik va depressiya

–Antisotsial xulq-atvor (masalan, jinoyatchilik)

–Boshqalar bilan yaqin munosabat o'rnatishdagi qiyinchiliklar

Mary Ainsworth tomonidan ishlab chiqilgan tadqiqotlar Boulbining nazariyasini yanada kengaytirdi va quyidagi bog'lanish turlarini ajratdi:

Ishonchli bog'lanish (Secure Attachment) – Bola onasi borligida o'zini xotirjam tutadi, lekin u ketganida tashvishga tushadi. Onasi qaytganda esa quvonib, u bilan aloqani tiklaydi.

Beqaror-qat'iy bog'lanish (Avoidant Attachment) – Bola onasi borligida unga unchalik yaqinlashmaydi, ketganida esa deyarli javob qaytarmaydi.

Tashvishli-ambivalent bog'lanish (Anxious-ambivalent Attachment) – Bola onasi ketganida juda tashvishga tushadi va qaytgandan keyin ham o'zini xotirjam tutmaydi.

Tashvishli-izolyatsiyalangan bog'lanish (Disorganized Attachment) – Bola onasi bilan tushunarsiz va ziddiyatli munosabatda bo'ladi[3].

Jon Boulbining evolutsion bog'lanish nazariyasi bolaning onasi yoki asosiy g'amxo'r shaxs bilan bo'lgan bog'lanishi uning butun hayoti davomida ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishida muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Onadan ajralish yoki g'amxo'rlik yetishmovchiligi bolaning kelajakdagi ruhiy va ijtimoiy holatiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu nazariya bolalarni tarbiyalash va psixologik terapiyada keng qo'llaniladi.

Bog'lanish tizimining rivojlanishi : Boulbining nazariyasiga ko'ra, bog'lanish tizimi bolaning ruhiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy psixologik mexanizmlardan biri hisoblanadi. Tug'ilgan paytdan boshlab, chaqaloq biologik jihatdan himoyaga va parvarishga muhtoj bo'lib, u o'z hayotini davom ettirish uchun ona yoki asosiy parvarishlovchi shaxs bilan yaqin aloqada bo'lishga intiladi.

Boulbi chaqaloq va parvarishlovchi o'rtasidagi bog'lanishning uchta asosiy jihatini ajratib ko'rsatgan:

Xavfsiz bog'lanish (Secure Attachment): Bola onaning doimiy ravishda mehr va g'amxo'rlik ko'rsatishini his qilganda, u o'zini himoyalangan deb biladi. Bu turdagi bolalar stress holatiga tushganda, onalariga murojaat qilish orqali taskin topishadi. Xavfsiz bog'langan bolalar kelajakda ijtimoiy munosabatlarni osonlikcha o'rnatadi va ruhiy salomatliklari barqaror bo'ladi.

Tashvishli bog'lanish (Anxious Attachment): Agar bola ona yoki parvarishlovchi shaxs tomonidan yetarli mehr olmasa yoki parvarish doimiy bo'lmasa, u tashvishli va ishonchsiz bo'lib qoladi. Bunday bolalar kelajakda o'z munosabatlarida haddan tashqari bog'lanish yoki tashvish hissini kuchaytirishi mumkin.

Beqaror-befarq bog'lanish (Avoidant Attachment): Agar bola ko'p marotaba rad etilgan yoki e'tiborsiz qoldirilgan bo'lsa, u boshqalarga ishonchsizlik bilan qaraydi va emotsional yaqinlikdan qochadi. Ushbu bolalar kelajakda ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarga ko'proq duch kelishlari mumkin.

Boulbining tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bog'lanish shakllari bolaning kelajakdagi psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Chaqaloqlik va bolalik davridagi barqaror emotsional bog'lanish bolaning ruhiy salomatligi uchun poydevor yaratadi va uning keyingi hayotda stressga chidamliligi, ijtimoiy moslashuvi hamda psixologik barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ajralish va yo'qotishning: Boulbi ajralish (separation) va yo'qotish (loss) jarayonlari bolaning ruhiy salomatligiga chuqur ta'sir qilishi mumkinligini o'z tadqiqotlarida batafsil yoritgan. Onasi yoki asosiy parvarishlovchi shaxs bilan doimiy yaqinlik va ishonchli munosabat shakllantirgan bola ajralish vaqtida jiddiy stress va emotsional iztirobni boshidan kechiradi.

Boulbi ajralish jarayonini uch bosqichda tasniflagan:

Norozilik (Protest bosqichi): Bola ajralishning dastlabki bosqichida o'z onasini chaqiradi, yig'laydi va uni qayta topishga harakat qiladi. Bu bosqichda bola o'ziga e'tibor qaratish uchun harakat qiladi.

Umidsizlik bosqichi (Despair): Bola onaning yo'qligiga moslashishga harakat qilsa-da, ruhiy tushkunlikka tushishi, yig'lamasligi, tushkun va befarq holatda bo'lishi mumkin.

Ajralishga moslashish (Detachment): Agar bola uzoq vaqt davomida parvarishlovchidan ajralgan bo'lsa va unga yetarlicha e'tibor berilmasa, u yaqinlik va mehr ko'rsatish qobiliyatini yo'qotishi mumkin.

Ushbu bosqichlar bola ruhiyatiga salbiy ta'sir etishi va kelajakda depressiya, tashvish, ijtimoiy moslashish qiyinchiliklari va boshqa ruhiy buzilishlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Boulbi tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli ajralish yoki yo'qotish bolaning ruhiy salomatligiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Ular onalarini yo'qotgan yoki parvarishdan mahrum bo'lgan bolalar kelajakda psixologik muammolarga duch kelish ehtimoli yuqori ekanligini aniqlagan.

Oiladagi munosabatlar – bolaning asosiy bog'lanish shakli uning oiladagi hissiy muhiti bilan bevosita bog'liq. Mehribon va barqaror muhitda o'sgan bolalar ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatliroq bo'ladi.

Ruhiy salomatlik – ona va oilaning boshqa yaqinlari bilan bog'lanish me'yorida bo'lmagan bolalarda xavotir, depressiya va boshqa ruhiy kasalliklar rivojlanishi kuzatilishi mumkin.

Jamiyatga moslashuv – ishonchli bog'langan bolalar o'zini ijtimoiy muhitda erkin his qiladi, yaqinlari bilan muvaffaqiyatli bog'lanmagan bolalar esa yolg'izlik yoki ijtimoiy cheklanish muammolariga duch kelishlari mumkin.

Jon Boulbi nazariyasi psixologiya, ta'lim va bolalarni tarbiyalash sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolalarning emotiv rivojlanishini yaxshilash uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa. Jon Boulbining bog'lanib qolish nazariyasi bolalar psixologiyasida muhim o'rin tutadi va bola ruhiy salomatligi bilan chambarchas bog'liqdir. Unga ko'ra, bolalar o'zining asosiy parvarishlovchisi bilan xavfsiz va ishonchli bog'lanish o'rnatish orqali o'zlarini xavfsiz his qilishadi va emotsional barqarorlikka erishadilar. Bu esa, o'z navbatida, bolalarning kelajakdagi ijtimoiy hayotida muvaffaqiyatli bo'lishlariga, o'ziga bo'lgan ishonch va o'zaro munosabatlarni to'g'ri o'rnatishlariga yordam beradi. Boulbi nazariyasiga ko'ra, bolalar o'zlarining birinchi hayot yillarida ota-onalari yoki parvarishlovchilari bilan o'rganadigan ijtimoiy tajribalar, ularning psixologik salomatligi va jamiyatda muvaffaqiyatli yashashiga ta'sir qiladi. Agar bolaning ota-onasi yoki parvarishlovchi shaxslar bolalar xavfsiz bog'lanishni o'rnatish imkoniga ega bo'lsalar, bolalar o'ziga ishongan, emotsional jihatdan barqaror va ijtimoiy moslashuvchan shaxslar sifatida o'sishadi. Aksincha, xavfsiz bog'lanishning yo'qligi, bola uchun psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa uning kelajakdagi hayoti va jamiyat bilan munosabatlarida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, bola ruhiy salomatligini ta'minlashda, uning ota-onalari yoki parvarishlovchilari bilan mustahkam va ishonchli bog'lanish o'rnatilishi juda muhimdir. Bu nafaqat bolaning ruhiy salomatligini, balki jamiyatga to'g'ri moslashishini, o'zini qadrlashini va o'zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli qurishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bowlby, J. (1969). Attachment and loss (No. 79). Random House
2. Bretherton, I. (l985). Attachment theory: Retrospect and prospect. In I. Bretherton and E. Waters (Eds.), Growing points of attachment theory and research. Monographs of the Society for Research in Child Development, 50, Serial No. 209 (1-2), 3-35.
3. Bowlby, J., Ainsworth, M., & Bretherton, I. (1992). The origins of attachment theory. *Developmental Psychology*, *28*(5), 759-775.

UO'K: UO'K: 163.924-053.(087.4)

Abduraximova Shaxnoza Raxmonjonovna
Andijom davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: Shaxnozaabduraximova93@mail.ru

O'QUV FAOLIYATIDA TALABALARNING STRESSGA BARDOSHLILIKNI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning o'quv faoliyatida stressga bardoshlilikning ijtimoiy-psixologik omillari aniqlash asosida psixologik usul va vositalari, o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Talabalarni o'quv faoliyatida stressga bardoshlilikni psixologik qo'llab-quvvatlash jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy vaziyat, stressga bardoshlilik, bardoshlilik darajasining namoyon bo'lishini aniqlash, stressga chidamlilik, eustress va distress va jismoniy va tabiiy stressorlar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СТРЕССОУСТОЙЧИВОСТИ УЧАЩИХСЯ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В статье рассмотрены психологические методы и средства, специфика на основе выявления социально-психологических факторов стрессоустойчивости в учебной деятельности учащихся. Исследованы методы и средства, которые могут быть использованы в процессе психологического сопровождения стрессоустойчивости учащихся в учебной деятельности, приведены эффективные рекомендации.*

Ключевые слова: *социальная ситуация, стрессоустойчивость, определение проявлений уровня устойчивости, стрессоустойчивости, эустресса и дистресса, а также физических и природных стрессоров.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF STUDENT STRESS TOLERANCE IN EDUCATIONAL ACTIVITIES

Annotation. *The article explores psychological methods and tools, specific features based on the identification of socio-psychological factors of stress tolerance in the educational activities of students. Methods and tools that can be used in the process of psychological support of stress tolerance in the educational activities of students have been researched and effective recommendations are presented.*

Keywords: *social situation, stress stability, determination of the manifestation of the level of stability, stress resistance, eustress and distress and physical and natural stressors.*

Kirish. Mamlakatimizda yoshlarning faolligini oshirish, ularni har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz xotin-qizlarni qo'llab- quvvatlash sohasining yangi tizimini belgilab berdi va shu jumladan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida bejizga belgilamadik. "Farzandlarimiz tarbiyasida nuroniylarimizning bilimlari va hayotiy tajribasidan keng foydalanishimiz zarur"[2], dedi. Bu vazifa yoshlarni har tomonlama sog'lom o'stirish bilan birgalikda ularning psixologik savodxonligini oshirish va aynan stressga nisbatan bardoshliligini oshirish chora- tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bundan tashqari davlatimiz prezidenti ham o'z nutqida shunday deydi: «Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda sizlarning g'ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko'nglim tog'day ko'tariladi.

Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman»[3]

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, talabalarning o'quv faoliyatida uchraydigan stress holatlarining salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida, ularning stressga bardoshliligini ta'minlash masalasi bugungi kun uchun dolzarbdir.

Stressga bardoshlilikni tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari xorij va rus tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida yaratilgan bo'lib, xorij tadqiqotchilari orasida stressga bardoshlilik borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar qatorida bir qancha olimlarni sanab o'tish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. O'quv faoliyatida talabalarning stressga bardoshlilikni ijtimoiy-psixologik jihatlarini xorij tadqiqotchilaridan S.Folkman, R.Mak Kray, R.Kosta, S.R.Maddi, R.Lyuis, R.Moos, P.Toys hayotiy qiyin vaziyatlarda paydo bo'ladigan shaxs reaksiyalariga ta'sir etuvchi shaxs xulq-atvoridagi o'ziga xos jihatlar, xususan koping-strategiya koping xulq kabi jihatlarni ham alohida qiziqish bilan o'rganganlar. Stressga bardoshlilik muammosi rus tadqiqotchilari tomonidan ham katta qiziqish bilan o'rganilgan bo'lib, bu borada ish olib borgan olimlardan: L.M.Abolin, A.A.Andreeva, A.L.Juravlev, P.B.Zilberman, A.P.Katunin, T.L.Kryukova, A.V.Libina, Sh.E.Melnik, A.A.Rean, S.V.Subbotin, K.V.Sudakov, Yu.V.Sherbatix va boshqalarni sanash mumkin.

O'zbek psixolog olimlaridan stressga bardoshlilik muammosi ham bir qancha ishlar olib borganlar. Xususan, M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, N.Z.Ismoilova, D.S.Qarshiyeva, N.A.Sog'inov, S.A.Axunjanova, Z.F.Kamalitdinova, B.M.Umarov, Z.Nishonova, E.Z.Usmanova, E.Usmanov, R.Sunnatova, R.Samarov, B.Sirliev, N.Kamilova, L.Nazirova, F.E.Gaziyeva, J.Sh.Ostonov, D.U.Mamadiyarova, F.T.Shermatov, G.D.Teshabayevalarning o'ziga xos tarzda o'rganilib, ayrim tadqiqot ishlarida bu mavzuga qisman murojaat qilinganligini va yoritilganligini ko'rish mumkin. Xususan B.M.Umarov, E.Usmonov, V.M.Karimovaning, R.S.Samarovning ishlarida ham stress bilan bog'liq bir qancha ma'lumotlar tahlil qilinganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quv faoliyatida talabalarning stressga bardoshlilikni ijtimoiy-psixologik jihatlari muammosining xorij psixologiyasida o'rganilganligini tahlil qilish. O'zbek olimlari tomonidan talabalarning stressga bardoshlilikni ijtimoiy-psixologik jihatlari borasida olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish. Talabalarning o'quv faoliyatida stressga bardoshlilik darajasining namoyon bo'lishini aniqlash. Talabalarning o'quv faoliyatida stressga bardoshlilik va o'ziga baho o'zaro aloqadorligini aniqlash. Talabalarning o'quv faoliyatining stressga chidamlilik sifatlarini shakllantirishda psixologik trening dasturlari tuzish.

Tadqiqotning metodologik asosi yondashuv hisoblanadi shunday ekan R.Lazarus [4] stressni fiziologik va psixologik tushunchalar sifatida turlarga ajratishga birinchi bor uringan olimligini ko'rishimiz mumkun. U ilgari surgan konsepsiyadagi g'oyaga ko'ra, "Fiziologik stress real qo'zg'atuvchilar ta'sirida yuzaga keladi, psixologik stress esa mavjud vaziyatni inson o'z individual bilim va tajribalaridan kelib chiqqan holda xavfli va qiyin deb baholashi natijasida kelib chiqadi" degan g'oyani ilgari suradi. Bundan tashqari B.X.Vardanyanning [5] fikriga ko'ra, "Stressga bardoshlilik – emotsiogen vaziyatlarda shaxsning barcha psixik komponentlari o'rtasida garmonik munosabatni saqlab turuvchi va faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beruvchi shaxs xususiyatidir" deydi.

"Stress" tushunchasining qo'llanilishi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, V.I.Petrushinning ma'lumotiga ko'ra, mazkur atama ilk marotaba 1303-yilda shoir R.Man tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u bu atamani o'z she'rida ishlatgan. She'rda ushbu atama "Bu uqubat olloh tomonidan qirq yil qishni sahroda o'tagan va katta stressni boshidan kechirayotgan odamlarga yuborilgan" tarzida ifodalangan.

Stressni ilmiy atama sifatida ilk bor o'rganilishi esa kanadalik olim G.Selega tegishlidir. O'sha vaqtlarda nashr etiladigan "Nature" jurnalining 1936-yil 4-iyuldagi sonida G.Selening "Turli shikastlovchi omillar chaqiruvchi sindrom" deb nomlangan maqolasi chop etilgan va unda organizmning turli xil kasalliklarni qo'zg'atuvchi omillar ta'sirida yuzaga keladigan standart

reaksiyalari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar stress haqidagi ta'limotning boshlanishiga asos bo'lgan. Stress muammosi dastlab G.Sele tomonidan maxsus ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganilgan bo'lsa, bugungi kungacha bo'lgan davrda ushbu muammo yuzasidan juda ko'p ishlar amalga oshirildi. Jumladan, stress tushunchasi, uning turlari, rivojlanish bosqichlari va unga nisbatan bardoshli munosabatda bo'lish masalalari ko'plab tadqiqotchilar uchun izlanish manbaasiga aylangan. Mazkur muammo doirasida xorij olimlaridan G.Sele, D.Richardson, F.Milman, R.Lazarus, S.Folkman, V.S.Merlin, Dj.V.Rotter, R.Mak-Kray, Dj.D.Parker, B.X.Vardanyan, P.B.Zilberman, rus psixologiyasida L.M.Abolin, A.Yu.Malenova, L.V.Kulikov, A.V.Libina, Yu.G.Chirkov, Dj.Vyatkin, L.A.Kitaev-Smik, L.I.Bojovich, V.V.Suvorova, Yu.M.Gubcheva, A.A.Rean, S.V.Subbotin kabi juda ko'plab tadqiqotchilar ish olib borganlar, shuningdek, o'zbek ilmiy jamoatchiligi ham ushbu muammoga yaqin masalalar ustida M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, E.G.Goziyev, V.M.Karimova, N.Z.Ismoilova, D.S.Qarshiyeva, Z.T.Nishonova J.Sh.Ostonov, D.U.Mamadiyarova, F.T.Shermatov, G.D.Teshabayeva kabi yetuk olimlar va ularning shogirdlari bir qancha ishlarni amalga oshirganlar. Agar bugun psixologik adabiyotlar tahliliga nazar tashlansa, "stress" va "stressga bardoshlilik" tushunchalarining juda ko'p va turli xil izohlari uchraydi.

Empirik tadqiqot natijalari. Ma'lumki, ko'pchilik odamlar har kuni stress omillarining ta'siriga uchrab turadi. Masalan, ishga yoki o'qishga kechikish, pul yoqotib qo'yish, imtihonlardan past baho olish, kishilarning jismoniy va aqliy tabiatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi stress omillardan bo'lib hisoblanadi. Agar odam har kuni shu ahvolda hayot kechirsa aytilgan stress omillarning kuchli ta'sirdan boshqa stress omillarga ham tez beriluvchan bo'lib qoladi. Stress omillar uzoq yillar davomida tibbiyotchilar, biolog va psixolog olimlar tomonidan har tomonlama o'rganilib kelindi va bugungi kunda mehnat qilish sharoitining noqulayliklari havo harorati, shovqin, vibratsiya-tebranish, turli–tuman hidlar va boshqalar, shaxsiy, ruhiy kechinmalar maqsadning noaniq bo'lishi, ertangi kunga ishonchsizlik, istiqbolning yo'qligi va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, jamoa ichida shaxslararo kelishmovchiliklar, o'zaro janjal, uyushqoqlikning yo'qligi, jamoadan ajralib qolish, o'zaro qo'llab-quvvatlashning sustligi yoki butunlay bo'lmasligi tez-tez stress holatlariga olib keladi. Qayt qilingan holatlar baxtga qarshi juda ko'pchilik jamoalarda uchrab turadi.

Tahlil va natijalar. Ushbu metodika o'quv faoliyatida talabalarning stressga bardoshlilikni ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganish maqsadida Toshkent shahar Andijon mashinasozlik institutidagi hamda Andijon davlat universiteti talabalarda tadqiqot ishini olib bordik. Tadqiqotning metodikasi sifatida "O'z-o'ziga baho" metodikasidan foydalanildi.

Mazkur metodika jami 60 nafarlik davridagi talabalarda o'tkazildi. Har bir sinaluvchiga metodikalar to'plangan tayyor tarqatma banki berildi.

O'z-o'ziga baho metodikasi 33 ta ta'kiddan iborat bo'lib, talabalar mazkur ta'kidlar ya'ni holatlar o'zlarida qay darajada kuzatilishiga qarab "har doim", "ba'zan" va "hech qachon" javoblaridan birini tanlagan holda ta'kidga munosabatlarini bildiradilar.

Ushbu metodika orqali olingan ma`lumotlar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi, uning natijalari quyidagi jadval va diagramma shaklida keltirildi:

1-jadval

O'z-o'ziga baho metodikasining ko'rsatkichlari

O'z-o'ziga baho darajalari:	***Foiz ko'rsatkichida***
Yuqori	70%
O'rta	17%
Past	13%

Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlardan ko'rib turibdiki, sinaluvchi sifatida tanlab olingan talabalarimizning 17%ida o'z-o'ziga bahoning o'rta ya'ni adekvat baholash darajada ekanligi namoyon bo'ldi. O'z-o'ziga bahoning past darajasi bo'yicha natija 13% qayd etildi.

Bundan tashqari, o`smir talabalarning 70%ida o'ziga bahoning yuqori darajasi aniqlandi.

Shaxsning o'zini baholash darajasi o'z imkoniyatlarini tezkor baholash uchun qo'llaniladi. Inson o'zida mavjud bo'lgan o'z-o'ziga baho asosida har kuni o'zini qanday tutish kerakligini

tanlaydi, demak, o'ziga baho shaxsning nisbiy bardoshliligini ta'minlaydi va shaxsning rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin. O'ziga nisbatan adekvat baho (munosabat) shaxsning o'ziga nisbatan oqilona ishonchni ta'minlovchi ruhning uyg'unligiga olib kelsa, aksincha, o'ziga nisbatan noto'g'ri (yuqori yoki past) baho esa doimiy ravishda ichki yoki shaxslararo ziddiyatga olib keladi.

Bundan tashqari, o'zini baholashda hududlar bo'yicha ham tahlili olib borilishi natijasida ikkita hududning ham alohida-alohida tahlili ko'rib chiqildi va uning natijalari quyidagi jadval shakliga keltirildi:

2-jadval

O'z-o'ziga baho metodikasining hududlar bo'yicha ko'rsatkichlari

O'quv yurti	O'z-o'ziga baho darajasi			
	Yuqori	O'rta	Past	Jami
Andijon mashinasozlik instituti	56.7% (17 ta)	23.3 % (7 ta)	20 % (6 ta)	100%
Andijon davlat universiteti	83.3 % (25 ta)	10 % (3 ta)	6.7 % (2 ta)	100%

Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlardan ko'rib turibdiki, sinaluvchi sifatida tanlab olingan Andijon shahar Andijon mashinasozlik institutidagi talabalarimizning o'zini yuqori baholash darajasi Andijon mashinasozlik institutida 83.3%ni tashkil etdi, Andijon davlat universitetida esa 56.7% darajasi namoyon bo'ldi. Bundan tashqari, sinaluvchilarning o'zini baholashning o'rta darajasi Andijon mashinasozlik institutida 10%ni tashkil etsa, Andijon davlat universitetida esa 23.3% darajasi qayd etildi. Sinaluvchilarning o'zini baholashning past darajasi Andijon mashinasozlik institutida 6.7%ni tashkil etdi, Andijon davlat universitetida esa 20% darajasi namoyon bo'ldi. Natijalardan ko'rishimiz mumkunki, Andijon mashinasozlik institutidagi talabalarning o'z-o'ziga bahosiga nisbatan Andijon davlat universitetidagi talabalarning bahosi past ekanligi asosiy sabablaridan biri sifatida shuni ko'rishimiz mumkinki, odamlarni zich joylashgani, bundan tashqari yoshdagi talabalarni ta'sirlaydigan, bezovta qiladigan har qanday narsa bo'lishi mumkin. Misol uchun, tashqi sabablarga biron nima tufayli paydo bo'lgan bezovtalikni kiritsa bo'ladi (o'qish joyini o'zgartirish, qarindoshning yoki yaqin kishining o'limi).

O'z-o'ziga bahoning tushib ketishining ichki sabablari hayotiy qadriyatlar va e'tiqodlarni o'z ichiga oladi. O'z-o'ziga baho yoshdagi talabalarda taxminan teng darajada uchrashi mumkin. Biroq, har bir organizm o'z xususiyatlariga ega. Agar ular o'zlarida o'ziga nisbatan bahosining pastligi haqida alomatlarni sezsa, birinchi navbatda holat sabablarini aniqlash kerak. O'z-o'ziga bahoning oqibatlaridan ko'ra sabablarini bartaraf etish ancha osonroq. Insonning psixologik holatini tadqiq qilish ustida ish olib borgan olimlar ko'pincha o'ziga xos uslubiy ko'rsatmaga amal qilinishi lozimligini ta'kidlaydilar. Jumladan, S.V.Manoylov[6] insonning funksional holatini diagnostika qilish juda keng ko'lamdagi metodikalar to'plami orqali amalga oshirilishi lozimligini alohida qayd etadi va bunday diagnostikaning maqsadi olinadigan natijalarning o'zaro umumlashmasi shaxsning holatini umumiy integral baholashga olib kelishi lozimligini uqtiradi. Muallifning o'zi o'tkazgan tadqiqotlarining natijalarini 49 ta guruhga ajratgan va ularni alohida-alohida tahlil qilgan. Uning bunday yondashuviga nisbatan Yu.E.Sosnovikova[7] "bunday yo'nalish to'g'ri bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiy jihatdan chiqimlarga ham sabab bo'ladi", deya unga qarshi munosabat bildirgan va u ushbu muammoni yorituvchi hamda uning yechimiga mansub o'ziga xos yana ikki xil fikrni ham ilgari suradi. Unga ko'ra, birinchidan, inson psixik holatini balki kam sonli metodikalar bilan ham aniqlashning imkoni bor bo'lishi mumkinligini o'ylab ko'rishga undasa, ikkinchidan, ko'p sonli metodikalarning natijalarni umumlashtirgan holda integral baholash qanday amalga oshiriladi?- degan savolni ham o'rtaga tashlaydi. Adabiyotlar tahlili jarayonida shuni guvohi bo'lish mumkin, psixologik holatlarni o'rganishga kompleks yondashuv g'oyasi yangi g'oya emas. Bu sohada faoliyat olib borgan rus olimi A.P.Nechayev [8] 1929-yildayoq xuddi shunday g'oyani ilgari surgan.

Xulosa va tavsiyalar. O'rganilgan adabiyotlar va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga muvofiq quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1. Stressga bardoshlilik hodisasi xorij psixologiyasida, rus psixologiyasi va o'zbek olimlarini asarlarida stressga bardoshlilikka yondosh bo'lgan bir qancha sifatlar, jumladan, insonni har qanday qiyin vaziyatlarda ham aql bilan ish tutish, o'z hissiyotlarini boshqara olish, g'azabini bosish, stressli vaziyatda o'ziga nisbatan ishonchni yo'qotmasligi, o'ziga nisbatan bahoning tushib ketmasligi kabi sifatlar talqinida bayon qilingan.

2. Tadqiqot ishini bajarish jarayonida stressga bardoshlilikni oshirish uchun yoshdagi talabalarning o'z-o'ziga bo'lgan bahosini adekvat bo'lishiga yordam beruvchi va stressga nisbatan bardoshliligini yuqori bo'lishiga yordam beruvchi bir qancha mashqlar bilan ta'sir o'tkazish muhim ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilindi.

Olingan natijalar, tahlillar va xulosalarga tayangan holda talabalar uchun stressga bardoshliligini oshirish yuzasidan quyidagicha tavsiyalar beriladi:

- dastlabki kunlardanoq talabalar stressga nisbatan bardoshlilikni oshirish uchun o'z ustilarida ishlab, o'ziga nisbatan adekvat baholash darajasini shakllantirish borishlari va kun tartibiga rioya qilish;
- kun davomida bir necha marotaba stressdan chiqib ketuvchi nafas mashqlardan foydalanish;
- kun tartibini to'g'ri rejalashtirish va dars mashg'ulotlaridan so'ng o'z ustida ishlash;
- bir kunlik aqliy mehnatdan so'ng albatta jismoniy mashqlar bilan organizmdagi charchoq hissidan xalos bo'lish;
- do'stlari va ota-onasi bilan munosabatini yaxshilash;
- talabalarning o'zi haqida yomon o'ylashiga yo'l qo'ymaslik;

Oilaning turli xil sayrlar uyishtirish, dam olishga borish vazifalaridan unumli foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. American Psychological Association. www.unicef.org - YUNISEFning sayti ma'lumotlari (murojaat holati 29.10.2019).

2.https://review.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev-raisligida-xotin-talabalarni-qollab-quvvatlashga-bagishlangan-yigilishda-ayollar-uchun-qanday-engilliklar-kiritildi.

3. https://www.gazeta.uz/oz/2020/12/25/forum/

4. Лазарус Р.С., Фолкман С. Стресс, аппраисал, анд сопинг. Hew Уогк. Спрингер, 2004.

5. Варданян Б.Х. Механизмы регулятсии эмотсионалной устойчивости

6. //Категории, принципы и методы психологии. Психические протсессы. – М. Дело, 2011. – 194

7. http://lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

8. https://cyberleninka.ru/article/n/kasbiy-kompetentlikning-asosiy-tarkibiy- ismlari-loyi-aviy/viewer.

Ibodullayev Ibodullo Fazliddin o'g'li
Buxoro xalqaro universiteti, Psixalogiya fakulteti talabasi

BEMORLARGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHDA GIPNOTERAPIYANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bemorlarga psixologik xizmat ko'rsatishda gipnoterapiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Gipnoterapiya turli xil psixologik muammolarni, jumladan, og'riq, tashvish, depressiya va travma kabi muammolarni davolashda samarali usul ekanligi isbotlangan. Tadqiqotda gipnoterapiyaning bemorlarning ijtimoiy va psixologik farovonligiga ta'siri, shuningdek, gipnoterapiyaning bemorlarning hayot sifatini yaxshilashdagi roli ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *gipnoterapiya, psixologik yordam, ijtimoiy psixologiya, terapevtik munosabatlar, suggestiya, gipnoz holati.*

ПРЕДОСТАВЛЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСЛУГ ПАЦИЕНТАМ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГИПНОТЕРАПИИ

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению социально-психологических особенностей гипнотерапии в оказании психологической помощи пациентам. Доказано, что гипнотерапия является эффективным методом лечения различных психологических проблем, включая боль, тревогу, депрессию и травмы. В исследовании рассматривается влияние гипнотерапии на социальноє и психологическое благополучие пациентов, а также роль гипнотерапии в улучшении качества жизни пациентов.*

Ключевые слова*: гипнотерапия, психологическая помощь, социальная психология, терапевтические отношения, внушение, гипнотическое состояние.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF HYPNOTHERAPY IN PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICES TO PATIENTS

Abstract. *This article aims to examine the socio-psychological aspects of hypnotherapy in the provision of psychological services to patients. Hypnotherapy has been shown to be an effective method for treating a variety of psychological problems, including pain, anxiety, depression, and trauma. The study examines the impact of hypnotherapy on patients' social and psychological well-being, as well as the role of hypnotherapy in improving patients' quality of life.*

Keywords: *hypnotherapy, psychological care, social psychology, therapeutic relationships, suggestion, hypnotic state.*

Kirish. Bugungi kunda psixologik salomatlikka e'tibor tobora ortib bormoqda. Turli xil ruhiy muammolar va stress holatlari insonlarning hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Psixologik yordamning turli xil usullari mavjud bo'lib, ulardan biri gipnoterapiya hisoblanadi. Gipnoterapiya - bu mijozning ongsiz holatiga yo'naltirilgan terapevtik usul bo'lib, turli xil psixologik muammolarni hal qilishda samarali bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada bemorlarga psixologik xizmat ko'rsatishda gipnoterapiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Metodologiya. Gipnoterapiya sohasida ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borishgan, ulardan ba'zilari quyidagilar: Frans Mesmer Gipnozning dastlabki kashfiyotchilaridan biri hisoblanadi. U "hayvoniy magnetizm" deb atalgan nazariyani ishlab chiqqan va bu orqali bemorlarni davolashga harakat qilgan.Jeyms Breyd "Gipnoz" atamasini kiritgan shotland jarrohi. U gipnozning fiziologik asoslarini o'rgangan va uni jarrohlik amaliyotlarida og'riqni kamaytirish uchun qo'llagan.Jan-Marten Sharko Fransuz nevrologi va psixiatr. U gipnozning isteriya bilan bog'liqligini o'rgangan va uni

nevrologik kasalliklarni davolashda qo'llagan. Zigmund Freyd Avstriyalik psixoanalitik. U gipnozdan o'zining psixoanalitik nazariyasini ishlab chiqishda foydalangan. Freyd gipnoz orqali bemorlarning ong osti xotiralari va hissiyotlarini ochish mumkinligini ta'kidlagan.Milton Erikson Amerikalik psixoterapevt. U gipnozning zamonaviy shakllaridan birini – Erikson gipnozini ishlab chiqqan. Erikson gipnozi bemorning ong osti resurslaridan foydalanishga qaratilgan.Jeyms Esdeyl Hindistonda 3000 dan oshiq jarrohlik amaliyotlarini gipnoz orqali amalga oshirgan.Ushbu olimlarning ishlari gipnoterapiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va bugungi kunda ham gipnoz turli xil tibbiy va psixologik muammolarni davolashda qo'llaniladi

Gipnoterapiyaning mohiyati va asosiy tushunchalari

Gipnoterapiya - bu gipnoz holatidan terapevtik maqsadlarda foydalanishdir. Gipnoz - bu odamning diqqati toraygan, tashqi ta'sirlarga nisbatan sezgirligi oshgan va ichki tajribalarga yo'nalgan o'zgargan ong holati. Gipnoz holatida terapevt mijozning ongsiz qismiga murojaat qilib, uning fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi.

Gipnoterapiyaning asosiy tushunchalariga quyidagilar kiradi:

Induksiyalash (gipnozga kiritish): Mijozni gipnoz holatiga olib kirish jarayoni. Bu turli xil texnikalar yordamida amalga oshirilishi mumkin (masalan, ovoz toni, nafas olishga e'tibor qaratish, vizualizatsiya).

Chuqurlashtirish: Mijozning gipnoz holatini yanada chuqurlashtirish, uning ongsiziga ta'sir o'tkazish imkoniyatini oshirish.

Terapiya (suggesiya va boshqalar): Gipnoz holatida mijozga kerakli takliflar (suggesiyalar) berish, uning muammosini hal qilishga qaratilgan metaforalar, tasvirlar va boshqa terapevtik texnikalardan foydalanish.

Deinduksiyalash (gipnozdan chiqarish): Mijozni normal ong holatiga qaytarish jarayoni.

Gipnoterapiyaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari

Gipnoterapiya nafaqat individual psixologik jarayon, balki ijtimoiy-psixologik jihatlarga ham ega. Bemorga psixologik xizmat ko'rsatishda gipnoterapiyaning quyidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

Terapevtik munosabatlarning ahamiyati: Gipnoterapiya muvaffaqiyati terapevt va mijoz o'rtasidagi ishonchli va hamkorlikka asoslangan munosabatlarga bog'liq. Terapevtning empatiyasi, tushunishi va qo'llab-quvvatlashi mijozning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va gipnoz holatiga kirishini osonlashtiradi. Ijobiy terapevtik munosabatlar mijozning o'zgarishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

Suggesiyaning ijtimoiy ta'siri: Gipnoz holatida berilgan takliflar (suggesiyalar) mijozning fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlariga kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Terapevtning so'zlari va ko'rsatmalari mijoz tomonidan qabul qilinadi va uning ichki dunyosida o'zgarishlarga olib keladi. Bu jarayon ijtimoiy ta'sirning bir shakli sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, bunda avtoritar figura (terapevt) tomonidan berilgan ma'lumot mijoz tomonidan tanqidiy baholanmasdan qabul qilinadi.

Ongsizning ijtimoiy-madaniy shartlanganligi: Insonning ongsizligi uning ijtimoiy va madaniy muhiti ta'sirida shakllanadi. Gipnoterapiya jarayonida terapevt mijozning ongsizidagi ijtimoiy-madaniy stereotiplar, e'tiqodlar va qadriyatlarni hisobga olishi kerak. Ba'zi hollarda, muammolarning ildizi aynan shu ijtimoiy-madaniy omillarga borib taqalishi mumkin.

Guruhli gipnoterapiyaning ijtimoiy dinamikasi: Gipnoterapiya individual tarzda o'tkazilishidan tashqari, guruhli shaklda ham qo'llanilishi mumkin. Guruhli gipnoterapiya ishtirokchilar o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlash, tajriba almashish va umumiy muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini yaratadi. Guruh dinamikasi har bir ishtirokchining terapevtik jarayondan foyda olishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Stigma va ijtimoiy munosabatlar: Ruhiy salomatlik muammolari va psixologik yordamga murojaat qilish bilan bog'liq stigma jamiyatda mavjud bo'lishi mumkin. Gipnoterapiya, boshqa psixoterapevtik usullar kabi, ba'zan noto'g'ri tushunilishi yoki salbiy baholanishi mumkin. Terapevtlar bu stigmani kamaytirish va gipnoterapiyaning afzalliklari haqida jamiyatni xabardor qilish bo'yicha ish olib borishlari muhimdir.

Gipnoterapiyaning bemorlarga psixologik xizmat ko'rsatishdagi afzalliklari

Gipnoterapiya turli xil psixologik muammolarni hal qilishda samarali usul bo'lishi mumkin, jumladan:

Anksiyete va stress: Gipnoz holati dam olishga yordam beradi va stressni kamaytiradi. Suggesiyalar orqali xavotirli fikrlarni o'zgartirish mumkin.

Depressiya: Gipnoterapiya kayfiyatni yaxshilashga, umidsizlik hissini kamaytirishga va o'ziga bo'lgan ishonchni oshirishga yordam berishi mumkin.

Og'riqni boshqarish: Gipnoz og'riqni sezishni kamaytirish va surunkali og'riq bilan bog'liq noqulaylikni bartaraf etishda qo'llaniladi.

Uyqu buzilishlari: Gipnoterapiya uyqu sifatini yaxshilashga va uyqusizlikni bartaraf etishga yordam beradi.

Fobiyalar va qo'rquvlar: Gipnoz holatida qo'rquv ob'ektiga yoki vaziyatiga asta-sekin ta'sir qilish orqali fobiyalarni yengish mumkin.

Zararli odatlar: Gipnoterapiya chekish, ortiqcha ovqatlanish kabi zararli odatlardan voz kechishga yordam berishi mumkin.

Travmatik xotiralar: Gipnoz travmatik xotiralarni qayta ishlash va ular bilan bog'liq emotsional reaktsiyalarni kamaytirishda qo'llanilishi mumkin.

Xulosa o’rnida shuni aytmoqchimanki, bemorlarga psixologik xizmat ko'rsatishda gipnoterapiya nafaqat individual psixologik jarayon, balki muhim ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan samarali usuldir. Terapevtik munosabatlar, suggeriyaning ijtimoiy ta'siri, ongsizning ijtimoiy-madaniy shartlanganligi, guruhli dinamika va stigma kabi omillarni hisobga olish gipnoterapiyaning muvaffaqiyatini oshirishga yordam beradi. Gipnoterapiya turli xil psixologik muammolarni hal qilishda qo'llanilishi mumkin va bemorlarning ruhiy salomatligini yaxshilashga katta hissa qo'shishi mumkin. Kelgusida gipnoterapiyaning ijtimoiy-psixologik jihatlarini chuqurroq o'rganish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. “Trance-Formation: Neuro-Linguistic Programming and the Structure of Hypnosis” Richard Bandler va John Grinder: 1981-yil
2. “My Voice Will Go With You: The Teaching Tales of Milton H. Erickson” Milton H. Erickson: 1982-yil
3. “The Induction of Hypnosis” William C. Kroger va William D. Fezler: 1976-yil

Soliyev Farxodjon Sodikovich
Psixolgiya fanlari bo'yicha PhD
Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi,
Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti magistri

INDIVIDUAL MUNOSABATLARDA NOVERBAL KOMMUNIKATSIYA ELEMENTLARINING KO'RINISHLARI

Annotatsiya. *Individual munosabatlardagi noverbal reaktsiyalar va ularning shaxslarga ta'sir doirasining ilmiy tahlili qilingan. Noverbal reaktsiyalarni bilish individual munosabatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovi va individual munosabatlarda shaxsning o'ziga xosligi, tiplari noverbal reaktsiyalarning turlicha namoyon bo'lishiga asos bo'lishi mumkinligi isbotlangan.*

Kalit so'zlar*: noverbal, individual, muloqot, tafakkur, professional, kommunikatsiya, simpatiya, attraktsiya.*

ВИДЫ ЭЛЕМЕНТОВ НЕВЕРБАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ В ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация. *Проведен научный анализ невербальных реакций в индивидуальных отношениях и сферы их влияния на личностей. Доказано, что знание невербальных реакций является залогом успешной реализации индивидуальных отношений, а индивидуальные особенности и типы личности в индивидуальных отношениях могут быть основой для различных проявлений невербальных реакций.*

Ключевые слова: *невербальный, индивидуальный, общение, мышление, профессиональный, коммуникация, симпатия, аттракция.*

MANIFESTATIONS OF ELEMENTS OF NONVERBAL COMMUNICATION IN INDIVIDUAL RELATIONS

Abstract. *Scientific analysis of nonverbal reactions in individual relationships and their sphere of influence on individuals. It has been proven that knowledge of nonverbal reactions is the key to the successful implementation of individual relationships, and the uniqueness and types of personality in individual relationships can be the basis for the different manifestations of nonverbal reactions.*

Keywords*: nonverbal, individual, communication, thinking, professional, communication, sympathy, attraction.*

Tub islohotlar amalga oshirilayotgan mamlakatimizda iqtisodiy, siyosiy islohotlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri yoshlarimizning ma'naviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga bog'liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy munosabatlarda demokratik tamoyillarni ongga to'la singdirishni taqozo etadi. Bunda oilaviy munosabatlardan tortib jamoalardagi munosabatlarda inson shaxsi, individualligi, betakrorligini hurmat qilish, uning muomala, tafakkuri o'sishiga ta'sir etish usullarini qo'llashda eng samarali muomala shakllarini amaliyotga tatbiq etish zarur.

Jamiyatimizning bugungi ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan tub islohotlarning mohiyati haqida fikr yuritilar ekan, eng noyob milliy qadriyatlarni yosh avlod ruhiga va ma'naviy dunyoqarashiga singdirish va undan umuminsoniy manfaatlar yo'lida foydalanishning yagona yo'llaridan biri – bu ularda bilimdonlikni etarli darajada rivojlantirishdir.

XXI asrda odamning eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga bo'lgan intilishi yanada oshdi. Chunki, axborotlar tig'iz bo'lgan sharoitda insoniy munosabatlarda shaxslardan professional, bilimdonlik asosidagi muloqot

talab qilinmoqda. Shaxsning bilimdonligi uning atrof-muhit, tabiat va jamiyatda ro'y berayotgan murakkab hodisalarni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni anglash, baholash o'zi haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish negizida hayotda, kundalik turmush va ongli faoliyatda namunali ishlarni bajarish, insoniy fazilatlarga amal qilishni taqozo etadi.[1] Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslararo va individual munosabatlar shakllanadi hamda namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasida munosabatlar tajribasi ortgan sari ularda umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladi, natijada bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki "yarimta jumla"dan ham fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi. Bu, ayniqsa, oilada amalga oshadigan individual munosabatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar bir qarashda emotsional hissiyotlarga asoslanganga o'xshasa-da, aslida bir insonning ikkinchisiga ko'ngil qo'yishi, tanlashi, birgalikda umr kechirishi jarayoni ijtimoiy psixologik qonuniyatlarga to'la bo'ysunadi. Unda birlamchi guruhga xos bo'lgan emotsionallilik, munosabatlarda rasmiylik va norasmiylikning uyg'unlashuvi, ijtimoiy psixologik muhitning insoniy munosabatlarga bog'liqligi ro'y beradi.

Inson evolyutsiyasining million yildan ortiq vaqt davomida o'zaro munosabatlarda qo'llagan noverbal kommunikatsiyasi faqat o'tgan asrning 60-yillarida o'rganila boshlandi va bu haqida jamiyatga, ya'ni keng ommaga Yuliy Fast tomonidan chop etilgan nashrdan so'ng ma'lum qilindi. Yuliy Fastning kitobi 1970-yilda nashr etilgan. Kitobda 1970-yilga qadar bixeviorist olimlar tomonidan o'rganilgan noverbal kommunikatsiya haqida ma'lumotlar jamlangan, lekin bugungi kunga qadar ham ko'pchilik ularning hayotida muhim rol o'ynaydigan tana tili mavjudligi haqida tasavvurga ega emaslar. Bunga misol qilib ovozsiz kino namoyondalari Charli Chaplin va boshqa aktyorlar noverbal kommunikatsiyani o'rganishning dastlabki namoyondalari edi, chunki ekran orqali muloqot qilishning yagona yo'li shundan iborat edi. Har bir aktyorning imo-ishora va harakatlardan foydalanishiga qarab ularni yaxshi va yomon aktyorlarga bo'lishgan. Ovozli filmlar paydo bo'lgandan so'ng aktyorning noverbal kommunikatsiya bo'yicha mahorati ikkinchi darajali bo'lib qoldi, endi ularning o'rnini yaxshi yo'lga qo'yilgan verbal kommunikasiya mahoratiga ega aktyorlar egalladilar.

Odam o'zi egallagan holati, imo-ishorasi va harakatlari uning so'zlarini aksi ekanligini kamdan-kam holatlarda anglab yetadi. Bunga misol qilib, idrok etish, intuitsiya va oldindan sezishni olish mumkin. Biron bir kishini juda sezgir va intuitsiya qobiliyatiga ega deb ta'kidlaganda uning noverbal signallarni o'qiy olish qobiliyatiga egaligi nazarda tutiladi. Yanada boshqacharoq qilib aytganda uning "oltinchi sezgi"si yuqori darajada rivojlangan bo'ladi.

Nemis olimi Aybl Aybesfeldtning tasdig'iga ko'ra kar va ko'r tug'ilgan bolalarda kulish qobiliyati hech qanday o'rgatishlar va taqlidlarsiz namoyon bo'ladi. Bu esa tug'ma imo-ishoralarning mavjudligini yana bir bor isbotlaydi. Ekman Frizen va Zorenzai Darvin tomonidan ilgari surilgan taxmin, ya'ni tug'ma imo-ishoralar mavjudligini o'z tadqiqotlarida isbotlab berdilar. Ular bir-birlaridan tubdan farq qiluvchi madaniyat vakillarini yuz ifodalarini o'rganish orqali ma'lum emotsiyalar bir xil namoyon bo'lishligini isbotlab berdilar.


Individual munosabatlar bir qarashda emotsional hissiyotlarga asoslanganga o'xshasa-da, aslida bir insonning ikkinchisiga ko'ngil qo'yishi, tanlashi, birgalikda umr kechirishi jarayoni ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarga to'la bo'ysunadi. Individual munosabatlarning ijtimoiy voqelik sifatidagi qonuniyatlarini rus olimi L.Ya.Gozman attraktsiya tushunchasi asosida tahlil etgan. Attraktsiya inglizcha attraction – tortilish, intilish so'zlaridan olingan bo'lib, u bir insonning ikkinchi bir insonga nisbatan his qiladigan ijobiy munosabatini anglatadi. Har qanday ana shu zayldagi diadik, ya'ni, diada – ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning boshlanishi simpatiya, yoqtirish yoki attraktsiya bilan bog'liqdir.

Gozmanning ta'kidlashicha, juftlik munosabatlarida attraktsiyaga turtki bo'luvchi omillarning eng muhimi – bu sherikning tashqi, jismoniy jihatdan yoqimtoyligi va uning ijtimoiy-demografik xususiyatlaridir. Ya'ni bir ko'rishda yoqtirib qolish, uning husniga rom bo'lish kabilar attraktsiyaning

[1] Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. -T.: "Universitet", 1999.-34-b.

dastlabki bosqichi bo'lib, bu aslida odamlar ongidagi bir bid'atga, ya'ni chiroyli odam aqlli va axloqli bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlarga bog'liqdir. Ayniqsa, bunday tasavvur xotin-qizlarga nisbatan qo'llanilishi isbotlangan. Buni muallif grafik shaklida U - simon egrilik tarzida tasavvur etadi. (1-rasm)

1-rasm. Yoqtirib qolishning tashqi yoqimtoylikka bog'liqligi.




Yoqtirib qolishga turtki bo'luvchi ijtimoiy-demografik xususiyatlarga eng avvalo insonning jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy maqomi, ma'lumoti darajasi, kasb-kori, moddiy ta'minlanganligi, millati va diniy e'tiqodi, qayerda, kimlar bilan yashashi kabilar kiradi. Ko'pincha ayni shu belgilar yoki xususiyatlar bilan yaqin bo'lgan insonlar o'zaro bir-birlarini tezroq yoqtirib qoladilar, chunki o'xshash belgilar yoki ko'ngildagi sifatlarning sherikda, tanishda mavjudligi unga nisbatan ijobiy fikr mulohazalarning shakllanishiga, steriotiplarning yaxshi ma'noda uyg'unlashishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, yoqtirib qolishga shaxsning qadriyatlari tizimi, hayotdagi maqsadlarning mushtarakligi, bajarayotgan ijtimoiy rollarining yaqinligi, omadlilik kabi qator jiddiy sifatlar ham turtki bo'ladi. Shuning uchun talabaning talabani yoqtirib qolishi, tibbiyot xodimining aynan shu sohada ishlaydigan odamni bir ko'rishda "sevib qolishi", safarda birga bo'lganlarning yoki dam olish maskanlarida tanishib qolganlar o'rtasida romantik munosabatlarning uyg'onishi ehtimoli ko'proqdir.

Bir ko'rishda yoqtirib qolish jarayonining jiddiyroq munosabatlarga aylanishini tushuntirish uchun olimlar "uch filtr" nazariyasini ilgari surdilar. (2-rasm).

2-rasm. Sheriklik munosabatlarining dinamikasini ifodalovchi "uch filtr" nazariyasi.



1-filtr bir insonning boshqa bir insonni bevosita o'ziga qaratishi bilan bog'liq jarayon bo'lib, bunda yangi tanishning tashqi jozibasi, bir qarashda ko'zga tashlanadigan sifatlari asosiy rol o'ynaydi. Bunday munosabatlar ko'pchilikka xos, ya'ni aksariyat odamlar turli vaziyatlarda boshqa

bir odamni yoqtirib qolaveradi. Agar bir-birini o'zaro yoki bir tomonlama yoqtirish mobaynida sherikning ijtimoiy-demografik xususiyatlari ham kutishlarga mos, ma'qul kelib qolsa, munosabatlar 2-filtrga o'tadi. Agar yangi tanishlarning ijtimoiy-psixologik, shaxsiy xususiyatlari va hayotiy maqsadlari ham bir-birlariga ma'qul kelsa, uyg'un munosabatlar 3-filtrga ham o'tadi. Har bir filtrdan o'tishda sheriklar bir-birlari uchun o'zlarining yangidan-yangi qirralarini ochaveradilar. Ya'ni yangidan topishgan, bir-birini yoqtirib qolgan odamlar uchun muhim bo'lgan asosiy narsa o'xshashlikni qidirish va ularni inobatga olgan holda o'z munosabatini bildirishga intilishdir. Boshqa bir yo'nalish – bu sherigida o'zida etishmayotgan, o'zida mavjud bo'lmagan sifatni topish va uni o'zidagi sifat bilan uyg'unlashtirishga intilish. Masalan, o'zi o'ta tortinchoq bo'lgan qizga dadil, gapga chechan yigitning yoqib qolishi ko'p kuzatilgan.

Uchinchi yo'nalish ikkinchiga yaqin, ya'ni yangi tanishda o'zidagi mavjud sifatlarning qarama-qarshisini izlash, masalan, yigit kamgap bo'lsa, shaddot, sergap qizni yoqtirib qoladi. Bu kabi kemtiklarni sherigi orqali to'ldirishga intilish, ularga kelajakdagi munosabatlarda anchagina egiluvchan bo'lish va har biridagi yaxshi sifatlarni qadrlashni o'rgatadi.

Yangi tanishlarning bir-birlariga noverbal belgilar orqali qiziqishi borligini bildiradigan o'ziga jalb etishga odamning aql-zakovati, qo'li ochiqligi, yumor hissi, dadillik, qizlardagi ibo kabi sifatlar kiradi. Bu sifatlar hammaga yoqadigan sifatlar bo'lgani uchun ham yangi tanishlar o'zlarida aynan sherigiga yoqadigan shu sifatlarni namoyon etishga intiladilar.

Er-xotin o'rtasida mavjud bo'lgan individual munosabatlardan tashqari oilaviy munosabatlarda yana bir muhim munosabat borki, bu ona va bola o'rtasidagi munosabat sanalib, undagi noverbal reaktsiyalar har ikki tomonga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Navbatdagi paragrafda xuddi shunga oid ma'lumotlar keltiriladi.

Jadval-1

Kommunikabel (kirishimli)misiz? testining natijalari

Ko'rsatkichlar	Yigitlar		Qizlar	
	Son	Foiz	Son	Foiz
3 va undan oz ball	-	-	-	-
4-8 ball	-	-	1	4
9-13 ball	6	24	9	36
14-18 ball	14	56	13	52
19-24 ball	3	12	2	8
25-29 ball	2	8	-	-
30-32 ball	-	-	-	-

Jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra sinaluvchi qizlarning 4 foizi 4-8 ball oralig'ida to'plab, o'zlarining dali-g'uli, ko'ngli ochiq ekanliklarini namoyon etishdi. Kirishimlilik ularning joni-dili, ular hamma narsadan xabardor insonlar hisoblanadi. Har qanday munozarada qatnashishni yaxshi ko'rishadi, shu bilan birga har qanday jiddiy masala ularning xunobini oshiradi. Ular yuzaki tasavvurga ega bo'lsa ham har qanday masala yuzasidan so'z olishni yoqtirishadi. Hamma yerda o'zini yaxshi his qiladi, oxirigacha muvaffaqiyatli hal qila olmasa ham har qanday ishni zimmasiga olaveradi. Shuning uchun ham atrofidagilar ularga nisbatan ma'lum darajada xavfsirab va ishonqiramay munosabatda bo'lishadi.

9-13 ballni sinaluvchi yigitlardan 24 foiz, qizlardan esa 36 foizi to'plashdi. Bular anchagina kirishimliliklari, qiziquvchan, so'zamol, har xil masalalar bo'yicha o'z fikrini bildirishni yaxshi ko'radigan tipga mosliklari bilan ajralib turadilar. Ular yangi odamlar bilan jon-jon deb tanishadigan, diqqat markazida bo'lishni yaxshi ko'radigan, har doim bajara olmasa ham birovning iltimosini qaytarmaydigan insonlar hisoblanishadi. Ularda qunt, toqat va yangi odamlar bilan to'qnashganda jur'at etishmaydi.

Respondentlar ichida 14-18 ballni to'plagan yigitlar 56 foizni, qizlar esa 52 foizni tashkil etishdi. Ularda me'yordagi kirishimlilik mavjud bo'lib, qiziquvchanlik, qiziqarli suhbatdoshni jon-jon deb eshitishga moyillik kuchli. Ular boshqalar bilan muloqotda yetarlicha toqatli, qiziqqonlik qilmasdan o'z fikrini himoya qila oladi. Ko'ngilsiz o'y-hayollarsiz notanish odamlar bilan

uchrashuvga tayyorlana olishadi. Shu bilan birga g'ala-g'ovur o'tirishlarni yoqtirmaydi, oliftalik va laqmalik ularning jahlini chiqaradi.

19-24 ball oralig'ida ball yiqqan respondentlar yigitlar o'rtasida 12 foizni, qizlar orasida esa 8 foizni tashkil etishdi. Ular ma'lum darajada kirishimli va notanish vaziyatda o'zini dadil tutadigan shaxslardir. Yangi muammolar ularni qo'rqitmaydi. Lekin yangi odamlar bilan xavfsirab munosabatga kirishadi. Tortishuv va munozaralarda og'rinib ishtirok etadilar. Ularning mulohazalarida asossiz kinoyalar ko'p bo'ladi.

25-29 ball oralig'ida ball to'plagan respondentlar faqat yigitlar orasida uchradi. Ular 8 foizni tashkil etishdi. Kamgaplik, odamovilik ularga xos. Ular yolg'izlikni yoqtiradi, shuning uchun do'stlari ham oz, yangi ish va yangi odamlar bilan aloqa qilish zarurati ularni vahimaga solmasa ham, har holda ancha vaqtgacha muvozanatdan chiqaradi. Ular xarakteridagi bu xususiyatni bilishadi va o'z taqdiridan norozi bo'lishadi. Lekin faqat narozilik bilan cheklanib bo'lmaydi, balki xarakter xususiyatini o'zgartirish kerak bo'ladi. Bu ularning qo'lidan keladi, chunki ba'zan biror ishga ishtiyoq bilan kirishganida juda kirishimli bo'lib ketishadi. Shuning uchun ular ozgina o'z ustida ishlashlari, shug'ullanishlari lozim.

Biz o'z tadqiqotlarimiz davomida sinaluvchilarda "Men odamlarni qanchalik yaxshi tushunaman" testini o'tkazdik. Test natijalari quyidagi jadvalda berilgan:

Jadval-2

"Men odamlarni qanchalik yaxshi tushunaman" testi natijalari

Ko'rsatkichlar	Yigitlar		Qizlar	
	Son	Foiz	Son	Foiz
60 ball	-	-	2	8
40dan 59ballgacha	11	44	20	80
20 dan 39ballgacha	11	44	3	12
0 dan 19ballgacha	3	12	-	-

Test natijalariga ko'ra 60 ballgacha to'plagan sinaluvchilar faqat qizlar ichida 8 foizni tashkil etishi aniqlandi. Bu esa ularning odamlarni juda yaxshi tushunishini va o'zlarini a'lo darajada bilishlarini bildiradi. Shu bilan birga atroflarida ularni o'rab turgan odamlarni va dunyoni ham yaxshi bilishlarini bildiradi. Ular kamdan-kam hollarda odamlarni anglashda yanglishadilar va odatda hamma narsani to'g'ri hal qiladilar. Ular o'z odatlarida qattiq turadilar va boshqalarga befarq emas. Odamlar haqida shunchaki yengillik bilan fikrlamaydilar, balki ular haqida to'g'ri mulohaza yuritishga harakat qilishadi. Ular sezgir va qiziquvchanlar, bo'layotgan voqealarni ichiga kirishga va odamlarni qanday bo'lsalar shundayligicha qabul qilishga harakat qilishadi. Natijalar bo'yicha ular - liderdirlar va jamiyatga yetarli darajada foyda keltira oladilar.

Xulosa qilib aytganada har ikkala tipga mansub bo'lgan shaxslar esa ekstrovert ya'ni o'ta muloqotga kirishuvchan ekanliklarini namoyon etadilar. Shu bilan birga ular boshqalarni o'z ta'siriga bo'ysundirish, ishontirish va insonlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lib hisoblanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Gosudarev N.A. "Treugolniy chelovek". M. Mol.gvar. 1991-270 s.
2. Goffmon Effekt "Predstavlenie sebya drugim // Sovremennaya sotsialnaya psixologiya zarubejom" (Teksti) M.:1984.-188-197 s.
3. Grimak L.P. "Obshenie sama soboy": M.: «Polit», 1991,-319 s.
4. Davletshin M.G "Odamlarni qanday farqlash va muloqatga kirishish mumkin". T.: Niz.TDPI. 1997.-30 b.
5. Zufarova M.Mirzajonova. "Insonlarda o'z-o'ziga munosabatning tarkib topishi" // O'zbek xarakterining ijtimoiy – psixologik xususiyatlari ilmiy – amaliy konferensiya tezislari. T.: 1999.-22-23 b.

Axadova Sabina Qo'shmurod qizi
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

O'QUVCHILAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'quvchilar nutqini rivojlantirish jarayonida muloqotni shakllantirish usullarining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Til o'rganish jarayonida faol muloqot o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirib, ularning og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Maqolada dialog, munozara, rolli o'yinlar, guruhli ishlar kabi interaktiv usullar orqali muloqotni yo'lga qo'yishning samarali yo'llari ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *nutqni rivojlantirish, muloqot, interaktiv usullar, til o'rgatish, o'quvchilar faolligi, og'zaki nutq*

МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОБЩЕНИЯ В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются методы формирования общения как важного компонента в развитии речи учащихся. Активное общение в процессе изучения языка способствует повышению мыслительной активности и развитию навыков устной и письменной речи. В статье приведены эффективные методы стимулирования общения, такие как диалог, дискуссия, ролевые игры и групповая работа.*

Ключевые слова: *развитие речи, общение, интерактивные методы, обучение языку, активность учащихся, устная речь*

METHODS OF DEVELOPING COMMUNICATION IN ENHANCING STUDENTS' SPEECH

Annotation. *This article explores the methods of developing communication skills as a crucial aspect of enhancing students' speech. Active communication in language learning increases cognitive engagement and plays a key role in shaping both oral and written language proficiency. The article outlines effective strategies such as dialogues, discussions, role-playing, and group work to foster communicative competence.*

Keywords*: speech development, communication, interactive methods, language teaching, student engagement, oral speech*

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo'lib, u faqat bolaning eshitgan nutqiga taqlid qilishidan iborat emas. Bu jarayon bolalarda umuman muloqot faoliyatini rivojlantirish va birinchi navbatda, muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir. Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish yangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi[1]. Bola leksikasini kengaytirish, uning o'z kechinmalarini yanada keng va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishi uchun imkoniyat yaratadi. Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik bolaning muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur. Bolalarning nutqni egallab olishlarining sababi ularning muloqot asosini faoliyatlarining ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir. Verbal bosqichda bolada sust nutq shakllanadi. Ushbu bosqichga bo'lgan davrning asosiy ahamiyati shundan

[1] Dursunov S., Axtamova N. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish // Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2023 Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions. – B.1040-1045.

iboratki, uning ichida navbatdagi bosqich – faol nutq paydo bo'lishi bosqichiga o'tish uchun zarur bo'lgan sharoit vujudga keladi. Bolaning faol nutqni o'zlashtirishining ikkinchi bosqichida uchta asosiy jihat ajralib chiqadi: emotsional munosabatlar; birgalikda faoliyat (hamkorlik) davomidagi munosabatlar; tovushli munosabatlar. Bolaning kattalar bilan muloqot qilishining ko'rib chiqilayotgan har bir jihati uning oldiga kattalar tomonidan qo'yilayotgan va so'zdan jamiyatda o'zaro birbirini tushunish uchun shartli ravishda qabul qilingan vosita sifatida foydalanishni talab qilishdan iborat bo'lgan kommunikativ vazifani qabul qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ omilning ko'rib chiqilayotgan har bir jihati u yoki bu darajada va o'z holicha bolalarning kommunikativ vazifani hal etishlariga, ya'ni nutqdan foydalanishlariga yordam beradi. Nutqni rivojlantirishning uchinchi bosqichida-uning materiyasi (leksika va grammatika) bolaning muloqot vazifasini o'zgartirgan holda kattalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojiga va uning tarkibiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bu bola nutqining yangi, yanada murakkab va keng qamrovli jihatlarini o'zlashtirishiga olib keladi. Bolaning ruhan shakllanishida nutqning hal qiluvchi o'rinni egallashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Nutq rivojini harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi masala ular shiddat bilan va to'satdan amalga oshirilishi tufayli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar nutqini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi yoki uni sekinlashtiruvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonda aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik sa'yharakatlarni uyushtirish kalitidir. «Haqiqatdan ham, til bilan tafakkur bir-birisiz yashamaydi, - deb yozadi A. M. Borodich - Garchi til bilan tafakkur bir-birisiz yashay olmasa ham ular o'zida aynan bir hodisani ifodalamaydi. Tafakkur- obyektiv borliqning intihosi, til esa- fikrni boshqa kishilarga yetqazish va mustahkamlash vositasi. So'z bilan tushuncha dialogik tarzda bir-birini taqozo etadi». Ma'lumki, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish faoliyatning har xil turlarida amalga oshiriladi: tabiat obyektlari bilan tanishtirish mashg'ulotlarida; savod o'rgatishda; o'yin faoliyatida; ijtimoiy foydali mehnat jarayonida turli ishlarning bajarilishida. Biroq A.M.Borodich, F.A.Soxin, YE. I. Tixeyeva, O.S. Ushakova, A.P.Usova, A.P.Fedorenko va boshqa tadqiqotchilar ko'rsatib o'tganlaridek, nutqni rivojlantirish mahsus rejalashtirilgan va tashqil etilgan mashg'ulotlarda amalga oshirilishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, mashg'ulotlarni tashqil etishda eng ma'qul natijalarga erishish uchun quyidagi talablarga rioya qilish zarur bo'ladi: mashg'ulotlarni ularning maqsadi, mazmuni va o'tqazilish muddatini hisobga olgan holla rejalashtirish; bolalarning analitik-sintetik xarakterdagi nutqiy vazifalarni yechish mashg'ulotlarida mustaqil faoliyatlarini aniq belgilash, predmetlar o'rtasida aloqalar o'rnatish, o'xshashliklarini ajratish; tarbiyaviy xarakterdagi aniq masalalarni hal etish mashg'ulot mazmuni, vaqti va o'tkazish metodini aniq belgilash; bolalarda nutqni shakllantirishga oid mashg'ulotlarga qiziqish o'yg'otish; rejalashtirilgan mashg'ulotlar o'rtasida izchillikka rioya qilish. Ma'lumki, nutqda belgilarni qo'llash an'anasi hech kim tomonidan boshqarilmaydi. Vujudga kelgan an'anani eslash va undan foydalanish kerak. Shuning uchun ham, nutqqa ega bo'lish uchun til belgilaridan foydalanish an'anasini (ularning kombinatsiyalari,bir-birini almashtira olishni bilish lozim. Ana shu munosabat bilan tadqiqotchilardan L.P.Fedorenko va G.A. Fomichevalar metodik jihatdan muhim g'oyani ilgari suradi: «Bolani nutqqa o'rgatish, - deb yozadi ular, - unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) til belgilari, leksik va grammatik belgilar (intellektni mashq qildirish) ma'nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida (ehtirom va tuyg'ularni mashq qildirish) borliqni baholashni ifodalashni o'rgatish, adabiiy me'yorlarini eslashni osonlashtirishga ko'mak berish demakdir». Bola tomonidan nutqni o'zlashtirishga asosli yondashuv bilan kelishgan holda biz shunga e'tiborimizni qaratdikki, ushbu qo'llanma mualliflari tez-tez «yordam berish», «mashq qildirish» va boshqa iboralarni qo'llaydilar-u, biroq qay tarzda yordam berish, mashq qildirish mumkinligiga kam e'tibor qaratadilar.

Maqsad: Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shartsharoitlarni yaratish zarur. Bolalar bog'chasining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o'z xalqining badiiy tilini o'zlashtirib olishlari natijasida ularning to'g'ri og'zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalar-

dan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish, og'zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so'zga qiziqishni tarbiyalash, savod o'rgatishga tayyorlash. Bolalar nutqini rivojlantirishni tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug'at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo'lgan nutqiy mahorat va ko'nikmalar belgilangan bo'lib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, salomlilik, bosiqlik) tarbiyalashni ko'zda tutishi lozim.

Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslarga qurilgan bo'lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Nutqni rivojlantirish dasturi bola faoliyatining o'quv, o'yin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshadi. Jamoat tarbiyasi sharoitida ta'lim - bola nutqini shakllantirishning yetakchi vositasi hisoblanadi. Ona tilini o'qitish – bolalarning bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko'zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlarni va tegishli lug'atni o'zlashtirish, nutqiy mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishning asosiy shakli – mashg'ulotlardir.

Material va metodlar: Didaktik maqsadlar bo'yicha quyidagi mashg'ulotlar turlarini ajratib ko'rsatish mumkin: -yangi materialni ma'lum qilish mashg'uloti;

-bilimlar, mahorat va ko'nikmalar mustahkamlashga oid mashg'ulotlar;

-bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishga oid mashg'ulotlar;

-yakuniy mashg'ulotlar yoki hisob-tekshiruv (nazorat) mashg'ulotlari.

Bolalarga ona tilini o'qitishga doir mashg'ulotlar har bir guruhda bolalarning yosh imkoniyatlarini va har bir bolaning nutqiy rivojlanganlik darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki bilimlar mazmuni, ularning tarkibi, metod va usullarni tanlash, haftasiga o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni, har bir mashg'ulotning davomiyligi shunga bog'liq bo'ladi. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashg'ulotlarni didaktik o'yinlar, ermak o'yinlar, sahna ko'rinishlari shaklida o'tkazish tavsiya qilinadi. Ular nafaqat ko'ngilochar tusga, balki albatta ta'lim tusiga ega bo'lishi lozim. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo'lishi lozim. Bunda ko'rgazmaviylik, o'yin usullari va didaktik o'yinlarni keng qo'llash zarur. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashg'ulotlar muayyan vazifaga ega – ya'ni, u bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashni ko'zda tutadi. Mashg'ulotlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o'quv faoliyatini yo'lga qo'yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e'tiborli bo'lish, pedagog topshirig'ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr oldira olish, tengdoshining javobiga oddiy baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajaradi.

To'g'ri ta'lim berilgan taqdirda yetti yoshga kelib bola og'zaki nutqni egallaydi hamda katta yoshli yaqinlari va tengdoshlari bilan erkin muloqotga kirisha oladi; dialogda tashabbus ko'rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshi e'tiborini o'ziga jalb qilish, unga so'z, harakat va so'zsiz usullar bilan javob bera olishni biladi; fikrlarini to'liq va noto'liq oddiy gaplar, qisqa matnlar shaklida ifodalay oladi;

-tanish ertaklarni hikoya qilib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish hamda biron-bir voqeani to'qib chiqarishga qiziqa boshlaydilar;

-fikr bildirishlarda nutqning turli qismlarini, tashbehlar, qiyoslashlar va sinonimlarni qo'llaydi;

-nutqqa tanqidiy munosabat bildira boshlaydi, grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashga intiladi, shu tufayli so'z to'qish barham topadi, agrammatizmlar soni kamayadi; ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etadi. Bolalardagi ko'plab nutqiy muloqot va ko'nikmalar mashg'ulotlardan tashqarida shakllanadi. Bolalar bog'chasida bolalarning kattalar (pedagoglar, tibbiyot hamshiralari, tarbiyachi yordamchisi va boshq.) bilan muloqoti har xil faoliyat turlarida ro'y beradi.

Mehnat jarayonida – xo'jalik-maishiy, qo'l va qishloq xo'jaligi mehnatida bolalarning lug'ati boyiydi, aniqlashadi va faollashadi. O'yin faoliyati mobaynida pedagog ularda mustaqil nutqiy faoliyatni shakllantiradi. Bolalarda lug'at, mashg'ulotlarda olingan bilim mustahkamlanadi va faollashadi. O'yinlarda pedagogning ishtirok etishi lug'atning boyishiga, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi. Qurilishga oid o'yinlarni tashkil etish jarayonida tarbiyachi bolalar uchun qiyin

bo'lgan so'zlarning (sifatni, miqdorni, hajmni va narsalarning fazoda joylashuvini belgilash va boshq.) katta guruhini aniqlashtiradi, faollashtiradi. Matnli, harakatchan musiqiy o'yinlar, sahnalashtirish o'yinlari bola nutqining ifodaliligini shakllantirish, to'g'ri sur'at, nafas olish, yaxshi diksiyani mashq qilishda yordam beradi. Ko'pgina o'yinlar jarayonida bolalar badiiy matnlar bilan tanishadilar, esda saqlab qoladilar va ularni mustaqil ravishda qo'llay boshlaydilar. Didaktik o'yinlar yordamida bolalarda atrof-olam haqidagi bilimlar mustahkamlanadi, lug'at mustahkamlanadi, aniqlashtiriladi va faollashtiriladi. Didaktik o'yinlar nutqiy mahorat va ko'nikmalarni mashq qilishda (ibora tuzish, so'zni o'zgartirish, hikoya to'qish va h.q.) qo'llaniladi. Maishiy faoliyat bolaning kattalar bilan muloqoti uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. Maishiy faoliyat nutqni rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qilishi uchun pedagog uni boshqarishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan maishiy faoliyat jarayonida (ovqatlanish, kiyinish, gimnastika, sayohat va h.k.), ya'ni agarda pedagog, ayniqsa kichik guruhlar pedagogi maishiy buyumlar nomlarini, ularning qismlari, sifati, xususiyati, qo'llanish maqsadini batafsil tushuntirsa, ular bilan tegishli harakatlarni amalga oshirsa va buni sharhlab bersa, bolalarga savol bersa, ularga maishiy lug'atdan foydalanishni o'rgatsa bolalarning lug'ati boyiydi. Agarda pedagog o'z nutqida tashbeh, qiyoslash, sinonimlar, xalq og'zaki ijodi (maqollar, matallar, sanoq she'rlar)dan keng va mohirona foydalansa, uning nutqi bosiq va ifodali bo'ladi. Bolalar badiiy adabiyoti bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi, u bolalar nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Bolalar kitoblari she'riy obrazlarda bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi.

Badiiy so'z bola nutqini boyitadi, uni obrazli, ifodali qiladi, jaranglayotgan ona nutqning go'zalligini tushunishga yordam beradi. Bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy so'zdan tashqari tasviriy san'at, bayramlar va tomoshalardan foydalaniladi. Ularning qimmati shundaki, u ijobiy hissiyotlarni hosil qiladi, bu esa o'z navbatida tilni o'zlashtirish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Quvonch hissi, hayajonlanganlik, ko'tarinkilik holati, g'ayrioddiy narsani kutish bolalarning qabul qilish qobiliyatini oshiradi, materialni eslab qolishni kuchaytiradi, bolalar nutqining ifodaliligiga ta'sir ko'rsatadi. Suratlar, amaliy san'at buyumlarini tomosha qilishda bolalar ko'p savol beradilar, olgan taassurotlarini atrofdagilarga aytishga oshiqadilar. Bolalar kun bo'yi – mashg'ulotlarda, o'yinlarda, xo'jalik-maishiy va mehnat faoliyatida o'z pedagoglari bilan muloqotda bo'ladilar. O'z-o'zidan bolalar bog'chasida nutqiy muhitning rivojlantirish imkoniyatlari butunlay pedagog nutqining sifatiga bog'liq bo'ladi. Namunali nutqqa ega bo'lish – bu tarbiyachining kasbiy tayyorgarligi darajasidir. Shuning uchun o'z nutqini takomillashtirish haqida qayg'urish – bo'lajak pedagogning axloqiy va ijtimoiy burchlaridir. U o'zida barcha nutq ko'nikmalarini mukammal shakllantirishi va uni kelgusida bolalarga berishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar, atrofdagilarga taqlid qilganlari holda nafaqat to'g'ri talaffuzni, so'zni qo'llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda uchraydigan nutq nomukammalliklarini ham o'zlariga qabul qilib oladilar. Tarbiyachining bolalar bilan va bolalarning bir-birlari bilan mazmunli muloqoti, bolalar rivojini rag'batlantiruvchi qulay til muhiti, to'g'ri metodlardan foydalanish - bolalar bog'chasida nutqni rivojlantirishga oid ishlar muvaffaqiyatining garovidir.

Xulosa qilib aytganda bolalar bog'chasida pedagogik nutqni rivojlantirishning metodik tamoyillari quyidagilardir: (aqliy va nutqiy rivojlanishning o'zaro bog'liqligi tamoyili; (nutqni yaxlit bir tuzilma sifatida rivojlantirish tamoyili; (nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili; (bolalarning faol nutqiy amaliyotini ta'minlash tamoyili; (nutqni rivojlantirishga nisbatan muomalali va amaliy yondashuv tamoyili; (muloqotning ijobiy va emotsional muhitini ta'minlash tamoyili. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish – bu murakkab psixologik jarayon bo'lib, u faqat bola eshitgan nutqqa taqlid qilishidan iborat emas, balki bu bolada muloqot faoliyatini rivojlantirish va muloqotga ehtiyoj mavjudligi bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.

2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. Pedagogical skill-Bukhara, 5.

3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. Pedagogical skill-Bukhara, 2.

4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.

5. Olimov, T. (2020). Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'nalishlari. fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi, 1(1), 20-27.

6. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).

7. Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O'smirlarda stressli vaziyatlarda koping xulq-atvor strategiyalari namoyon bo'lishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).

Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education

Barotov Shuxrat Sharipovich
Buxoro xalqaro universiteti o'qituvchisi

BOJXONA XODIMLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANISHIDA INNOVATSION-PSIXOLOGIK OMILLARNING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya. *Maqolada bojxona xizmatchilarining bojxona xodimlari kasbiy kompetentligini rivojlanishida innovatsion-psixologik omillarning namoyon bo'lishi va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek ijtimoiy intellektning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri va ular orasidagi tavofutlarni ilmiy tahlili keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetentlik, psixologik bilimdonlik, bojxona xodimi, korrelyatsion bog'lanishlar, muloqot, noverbal muloqot, shaxslararo munosabat .*

ПРОЯВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СОТРУДНИКОВ ТАМОЖНИ

Аннотация. *В статье раскрыто проявление и значение инновационно-психологических факторов в повышении профессиональной квалификации таможенников. Также представлен научный анализ влияния социального интеллекта на эффективность профессиональной деятельности и рекомендации между ними.*

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, психологические знания, таможенник, корреляционные отношения, общение, невербальное общение, межличностные отношения*

MANIFESTATION OF INNOVATIVE AND PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF CUSTOMS OFFICERS' PROFESSIONAL COMPETENCE

Abstract. *The article reveals the manifestation and importance of socio-psychological factors in improving the professional skills of customs officers. A scientific analysis of the influence of social intelligence on the effectiveness of professional activity and recommendations between them are also presented.*

Keywords: *professional competence, psychological knowledge, customs officer, correlation relations, communication, non-verbal communication, interpersonal relations*

Mavzuning dolzarbligi. Dunyoda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan idora va tarmoqlardagi o'zgarishlar mamlakat rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida bojxona tizimi xam aynan shunday tub o'zgarishlarni boshidan kechiryapti. Ayni paytda, ushbu tarmog'ning bugungi kuni va kelajagi shu tizimda tayyorlanayotgan kadrlarning professional darajasi, malakasi va sifatiga bog'liqligi sir emas. Zero, bojxona tizimida faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarning ta'lim- tarbiyasi va professional tayyorgarlik darajasini oshirish har qanday mamlakatning iqtisodiy - siyosiy va ijtimoiy rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Metodologiya. O'zbekistonda ham bir qancha psixolog olimlar kasbiy kompetentlik va shaxslararo munosabatlarning faoliyat samaradorligiga ta'siri muammosining u yoki bu tomonlarini tadqiq etishgan. Jumladan, M. Voxidov, M.G. Davletshin, B.B. Shoumarov, V.A Tokareva, B.R. Kaddirov, R.S. Gaynutdinov, 3.F. Boziev, V .M. Karimova, Sh. Barotov, A. Jabborov, X.M. Alimov, B.E. Utanov, N.B. Azimov, E.A. A'zamxo'jayeva, I.R.Ergashev, X.E.Usmanova, P.S. Ergashev va boshqalar shaxslararo hamkorlik hamda muomalaning turli qirralarini ochib berish borasida psixologik tadqiqotlar olib borishgan.

Bevosita muomala jarayoni tadqiqoti bo'yicha B.G. Ananev, V.M. Myasiщev, G. M. Andreeva,

A.A. Bodalev, N.I. Shevandrin, A.A. Juravlyov singari qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Rus olimlaridan S.I. S'edin, V.A. Goryanina, N.V. Biryukova, I.I. Tarasevich, O.V. Sofronova va boshqa tadqiqotchilar bojxona xodimlarining kasbiy faoliyat bilan bog'liq muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Bevosita bojxona xodimlari faoliyatidagi muomala jarayonnning o'ziga xos tomonlari tadqiqoti bo'yicha esa A.A. Maksimov, M.A. Goryacheva, A.A. Solopovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorij olimlaridan P.A.Rudik, Yu.L.Xanin, I.Borg, M.Muller, M.Perlmutter, M.Kaplan va boshqalar o'z tadqiqotlarida kasbiy kompetentlikka ta'sir qiluvchi omillar va komponentlarni ochib berganlar.

O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimi samaradorligini oshirishda kadrlariing psixologik tayyorgarligini oshirish va va takomillashtirish masalasining hal etilishi tizim uchun malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonida ularning darajasi va sifatiga ta'sir etuvchi muhim omil bo'lib xisoblanadi. Bojxona xodimlarining O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o'tuvchi shaxslar bilan muomalaga kirishuv jarayonlari ularning faoliyatlaridagi kasbiy me'yoriylik tushunchasi bilan belgilanadi, ya'ni xodimlarga qonun talabidan kelib chiqqan holda, ular xoxish-irodasidan kat'i-nazar, muomalaga kirishish majburiyati yuklanganligini anglatadi. Bu holat muloqotning boshlang'ich bosqichida muomala jarayoni qatnashchilarida noxush his-tuyg'ular uyg'otib, ularning hatti-harakatlariga ta'sir etishida ko'zga tashlanadi. Bojxona nazorati doirasida kechadigan xodimlar va bojxona chegarasini kesib o'tuvchi fuqarolar muomalasi maqsadlar birligi va ularning bir-biriga to'la (yoki qisman) mos kelishi hamda qarama-qarshi maqsadlarning bo'lmasligi bilan harakterlanadi. O'ziga yuklatilgan majburiyatlarni ado etish, qonun talablarining bajarilishiga qatiy rioya qilish xodimlar va bojxona chegarasini kesib o'tuvchi fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikning mohiyatini belgilaydi.

Bojxona xodimi faoliyati yuqori darajadagi vaqt tanqisligi sharoitida kechadi, chegara postlaridagi qatnovning kattaligi bilan bog'liq psixologik zo'rikishlar va ayniqsa, ayrim shaxslarning moddiy manfaatdorlik evaziga bojxona qonunlarini buzishlari bilan bog'liq xatti-harakatlari muomala jarayonida jiddiy ziddiyatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bunday hollarda bojxona xodimlarining muomala taktika va strategnyasini, shaxslararo muomala malakasi va ko'nikmalarini egallashlari hamda bu sohadagi bilimlardan xabardor bo'lishlari vaziyat yechimi sifatida yuzaga chikadi. Tadqiqotlar ma'lum bir ko'tishlarning mavjud emasligi guruhda yetakchilarning mavkeini mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shaxsning yo'nalganligi strukturasida uning moti-vatsiya sohasida kerakli darajada anglanmagan xulq-atvorlar holatlaridan biri mayllardir. Ular doimo aniq anglanmagan ehtiyojlar, turli darajadagi kuchga va yo'nalishga ega bo'lgan emotsional kechin-malar bilan birga kechadigan o'ziga xos ko'tishlarni o'zida mujassam etadi. Freyd taqlid qilish, o'yin va muloqotga intilish kabilarni ajratib ko'rsatadi.

Rus Olimp N.G.Ananev psixologiya fanining muomala kategoriyasiga bag'ishlangan o'zining dastlabki maruzalarida bojxona tizimi xodimlarini muomalaning nutqli (verbal) va nutqsiz (noverbal) vositalaridan tashqari, uning ichki tomonini ham turlarga ajratadi. Uning fikricha, bojxona tizimi xodimlarining muomala qanday kechishidan katiy nazar shaxslararo munosabatlarda, inson o'z harakatini o'zi boshqarishi bilan bir paytda, uning ichki dunyosi qayta tashkillashuvi o'rtasida o'zaro aloqa hukm suradi. U shaxsning turli o'ziga xos tuzilmalari o'rtasidagi aloqalarni maxsus tadqiqot predmeti qilib tanlaydi. Shaxsning jamiyat bilan, xususan, ijtimoiy guruhlar va institutlar bilan aloqalari xilma-xilligi, uning intraindividual tuzilishini, shaxsiylik xususiyatlari takomillashuvini va ichki dunyosini aniqlaydi [2].

V.M.Myasishev bojxona tizimi xodimlarining muomala va shaxsning ruhiy tuzilishi to'g'risida so'z ketganda, inson ruxiyati yaxlit, uning vujudga kelishi esa sabab natijasi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bojxona tizimi xodimlarining dialogli muomalaning malakasi va boshqalar bilan munosabatning maxsuli sifatida namoyon bo'ladi. Muomala jarayonida bojxona tizimi xodimlarining boshqa odamlar bilan munosabatga kirishishning tashqi ahamiyatga molik bo'lgan shaxsiy tajribasi borliqqa nisbatan ichki munosabatlarini individual tanlanma xususiyatini determinatsiya qiladi.

Myasishev ta'biricha, bu munosabatlar qiziqish darajasini, xayajon kuchini, xoxish yoki extiyojni tavsiflaydi va sub'ektlarning xulk-atvorida, xatti-harakatida, kechinmalarida namoyon bo'ladi. Shaxsning munosabatlari muomalada turli darajadagi faollik,tanlovchanlik hamda ijobiy va salbiy tomonlari bilan aks etadi shaxslararo insoniy murojaat shakllari, usullari muomala yoki munosabaz deyiladi. Olim bojxona tizimi xodimlarining muomalaning muloqotda keng tarkalgan shakllarini boyitishga va tartibga keltirishga harakat qilgan. Birinchi holat kishilar o'rtasidagi munosabatga murojaat shaklining mos tushishidir. Ikkinchisi - esa muomala shakli bilan shaxslararo munosabatlar bir-birilar keskin tafovutlanuvchi holatlar kirishadi.

Shaxsga muomalani ta'siri shart-sharoitlari va ruxiy omillari muallif tadqiqotlarida alohida axamiyag kasb etadi. So'zga ta'sirchanlik ko'p jihatdan shaxsning tashqi ta'sirga berilish darajasiga, kayta ishontirish qobiliyatiga bog'liq. Moyillik shaxsnish zakovatini belgilovchi barqaror xususiyati maxsuli emas, balki odamlarning ularo munosabatlari natijasi xisoblanadi.

A.A.Bodalevning bojxona tizimi xodimlarining ijtimoiy maylning ahamiyatini ochib beruvchi eksperementlarida muomaladagi turli effektlarning idrok etilayotgan kishining muayyan ijtimoiy guruhga xos hislatlarning idrok ob'ektiga ham hos deb karalishida namoyon bo'lishi, muayyan guruh vakiliga duch kelganda kishilarning oldindan unda ushbu guruh vakillari bo'lgan kishilarga xos muayyan xislatlarni unga xam xos, deb qabul kilinishi bunday stereotipdan xalos bo'lishning murakkabligi tadqiq etilgan [51].

N.I.Shevandrin esa bojxona tizimi xodimlarining shaxslararo muomalaning 3 shakli haqida muloxaza yuritadi:

Imperativ muloqot. Bu - avtoritar, direktiv muloqot shaklidir. Muomaladagi sherik bilan uning xatti-harakatini, xayotiy ustanovkalari va fikrlarini nazorat qilish, uni ma'lum harakatlar yoki qarorlar qabul qilishga majbur etishni maqsad qilib oluvchi muloqot.

Bu holatda muloqot bo'yicha sherik ta'sir ob'ekti, passiv tomon sifatida karaladi. Ta'sir vositasi sifatida buyruklar, ko'rsatmalar va talablardan foydalaniladi. Imperativ muloqot ko'p qo'llaniladigan qator faoliyat turlarini sanab o'tish mumkin. Bunday faoliyat sohalariga harbiy - nizomiy munosabatlar, favkulotdagi vaziyatlarda, ekstremal sharoitlardagi «Boshlik-buysunuvchi» munosabatlari kiradi. Ammo, shaxslararo munosabatlarning hamma soxalariga xam imperativ muloqotning ko'llanishi o'rinli bo'lmaydi bular – shahsiy - intim va oilaviy munosabatlar xamda pelagogik faoliyat munosabatlardir.

Xulosa. Bojxonachilik kasbi tarixiga oid manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur kasbning paydo bo'lishi bevosita mamlakatlararo savdo-sotik munosabatlarining rivojlanishi, davlatlarning paydo bo'lishi kabi ijtimoiy - tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'liq. Ilk davrlardanok mazkur kasb egalari uchun muhim bo'lgan kasbiy-psixologik sifatlar jamiyatning ushbu kasb egalariga kuygan talablar asosida yuzaga kelib, bular yuqori darajadagi jismoniy va ruxiy tayyorgarlik, jangovor malakalarni egallash, adolatparvarlik, insonparvarlik, xalollik, o'z burchiga sadokat kabi sifatlardan iborat bo'lgan. Bojxona munosabatlarining vujudga kelishi, rivojlanishi va takomillashuvida Sharkda, xususan Vatanimnz hududida qadimdan to'plangan katta bilim, tajriba va amallar muhim tarixiy, ijtimoiy - psixologik rol uynagan.

Mustakil O'zbekistonda, hozirgi globallashuv sharoitida bojxona xizmatidagi isloxotlar natijasida katta o'zgarishlar yuz berdi. Hozirgi kunda bojxona tizimi kadrlarining ruxiy barkamolligi, xodimlar faoliyatida psixologik omilning ustunligi muhim ahamiyat kasb etmokda. Iktisodiy integratsiyalashuv sharoitida bojxona xodimlarining ijtimoiy mavkei yangi boskncha kutarildi, bojxona jarayonlarini amalga oshirishning psixologik shart-sharoitlarida muhim o'zgarishlar yuzaga keldi. Shaxslararo munosabatlarning xalkaro munosabatlar bilan yaqinlashuvi, uygunlashuvi tendensiyalari kuchaydi. Bojxona xodimlari faoliyatida psixologik bilimlarning, shu jumladan kasbiy muomala malakasi va ko'nikmalarga ega bo'lishning ahamiyati goyatda oshdi.

Muomala va shaxslararo munosabatlar mavzusining shark mutafakkirlari, xorij va o'zbek olimlari tomonidan urganilishi tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha olimlar mazkur masalaning kishilik jamiyati uchun ahamiyati goyatda yuqori ekanligini e'tirof etishgan. Jaxon psixologiyasida muomala muammosi muayyan darajada urganilgan. Lekin, ma'lum soxa, kasbiy faoliyat doirasida bu borada

qilinadigan ishlar talaygina. Ayniqsa, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi jamiyat tarakkiyotida kechayotgan iktisodiy - ijtimoiy isloxotlar bojxona tizimida xodimlar kasbiy muomalasi jarayonining psixologik tadqiqini dolzarb masala sifatida oldimizga kuymokda.

Foydalangan Adabiyotlar ro'yxati.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект пресс, 1996. – 178 с.
2. Бендас Т.В. Гендерная психология. СПб.: Изд-во Питер, 2006. – 431 с.
3. Гамезо М.В., Домашенко И.Н. Атлас по психологии. – М.: «Просвещение», 1986. – 112 с.
4. Леонтьев Д.А. Методика изучения ценностных ориентаций. М.: Смысл, 1992. 18 с.
5. Майерс Д. Социаьная психология/ Интенсивный курс 3-изд., «Олма Пресс» С.Петербург – Москва 2002. – 188 с..
6. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. -Toshkent: OO'MTV, 2007. 173 b.
7. Nishonaliev U.N., SHodiev N.SH., Muslimov N.A. Mehnat ta`limidan "Kasbga yo'naltirish asoslari" kursi bo'yicha metodik qo'llanma. -Toshkent, 2004. 12 b.
8. Немов Р.С. Психология: учеб. для студ. высш. пед. учеб. заведений: в 3 кн. М.: Гуманитар. Изд. Центр ВЛАДОС, 2003. Кн.3. 640с.

Haydarov Shaxriyor Shuxrat o'g'li
Buxoro xalqaro universiteti Psixologiya
kafedrasi dotsenti

O'SPIRINLAR GURUHIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING USLUBIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'spirin yoshdagilarga psixologik xizmat ko'rsatishning uslubiy asoslari yoritilgan. O'spirinlik davri — shaxs shakllanishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish va mustaqil qarorlar qabul qilish jarayoni bilan murakkablashgan davr hisoblanadi. Shuning uchun bu bosqichda ta'sirchan psixologik yondashuvlar zarur bo'ladi. Maqolada o'spirinlar bilan ishlashda qo'llaniladigan asosiy psixologik metodlar, diagnostika vositalari, profilaktika va korreksion yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maktab psixologi, ota-onalar va pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyati muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *o'spirinlar, psixologik xizmat, metodika, diagnostika, korreksiya, profilaktika, ijtimoiy moslashuv, emotsional rivojlanish*

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ГРУППЫ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются методологические основы психологического обслуживания подростков. Подростковый возраст является сложным этапом развития личности, характеризующимся формированием самостоятельности, эмоциональной нестабильностью и поиском идентичности. В связи с этим возрастом необходимо применять особые психологические подходы. В статье анализируются основные методы психологической работы с подростками, средства диагностики, профилактические и коррекционные подходы. Отдельное внимание уделяется взаимодействию школьного психолога, родителей и педагогов.*

Ключевые слова: *подростки, психологическая помощь, методика, диагностика, коррекция, профилактика, социальная адаптация, эмоциональное развитие*

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES FOR ADOLESCENT GROUPS

Abstract. *This article explores the methodological foundations of providing psychological services to adolescents. Adolescence is a critical period in personality development, marked by increased emotional sensitivity, social exploration, and the formation of independence. The study discusses key psychological methods used in working with adolescents, including diagnostic tools, preventive strategies, and corrective approaches. The article also emphasizes the importance of collaboration between school psychologists, parents, and educators.*

Keywords: *adolescents, psychological service, methodology, diagnostics, correction, prevention, social adaptation, emotional development*

Mavzuning dolzarbligi. Psixologik xizmat yo'nalishining nazariy-ilmiy va metodologik asoslari umumiy psixologiya fani shakllanishi bilan bog'liq uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Albatta, psixologik xizmat jarayoni dastlabki psixologik tushunchalarning paydo bo'lish va rivojlanish davrlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, psixologik xizmat fani haqidagi dastlabki mushohadalar eramizdan oldingi davr mutafakkirlari Fales (er.o.VII-VI asrlar), Aflotun (er.o.V-IV asrlar), Anaksimon (er.o. V asr), Geraklit (er.o. VI-V asrlar), Demokrit (er.o. V-IV asrlar), Epikur (er.o.V-IV asrlar) Galen (er.o. II asr) kabilar nazarida o'sha davr uchun muayyan ma'noda ilmiylik kashf etgan mulohazalarni o'z ichiga oladi.

Qadimgi dunyoning bir muncha keyingi rivojlanish davrlarida ham tibbiyot, fiziologiya, fizika, mantiq kabi fanlar tizimidagi yangi kashfiyotlar inson psixologik holatini addekvat tushunish va tavsif etish bo'yicha ilmiy yondashuvlarga asos solindi. Jumladan, rimlik shifokorlar Gippokrat (er.o. V asr), Galen (er.o. II asr), Demokrit (er.o. V-VI asr), Epikur (er.o. IV-III asr), Demokrit (er.o. V-IV asr), Sokrat (er.o. V-IV asr) kabi mutafakkirlarning mushohadalari dastlabki psixologik xizmat tushunchalarining shakllanishiga turtki bo'ldi. Qolaversa dastlabki "psixika", "ong" tushunchalari tibbiy fiziologik bilimlar bilan bir muncha sayqal topdi. Ayni paytda, fransuz olimi R.Dekard (1596-1650) tomonidan individ xulq atvorining reflektorlik tabiatiga xos jihatlarning ilk bor kashf etilishi va uning keyinchalik rus olimlari I.S.Sechenov va I.P.Pavlovlar tomonidan o'ziga xos ilmiy asoslar bilan rivojlantirilishi insonning psixologik ta'sir doiralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Metodologiya. Rossiyada psixologik xizmatning muvaffaqiyatli tashkil etilishiga daxldor psixologiya fanining fundamental asoslarini yaratgan olimlardan S.L.Rubinshteyn, P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, B.G.Ananev, L.I.Bojovich, I.V.Dubrovina, V.V.Davidov, N.S.Leytes, A.E.Lichko, D.B.Elkonin, V.A.Kruteskiy, L.M.Fridman, G.M.Andreyeva, R.S.Nemov kabilarning bevosita nazariy va empirik jihatdan bergan ilmiy-amaliy tavsiyalari bilan bog'liqdir. Ushbu tavsiyalar asosida Rossiya ta'lim tizimida va ko'plab mehnat jamoalarida, korxona, konsern, tashkilot va aksionerlik uyushmalarida psixologik xizmat amaliyotining keng ko'lamda tatbiq etilishi insonning psixologik tabiati, taraqqiyoti va o'ziga xos imkoniyatlarini ochib berishga yo'naltirilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, fan tarixida birinchi bo'lib ongsizlik psixikasi haqidagi tushunchani ilgari surgan XVII asrdagi yirik nemis mutafakkiri Leybnis (1646-1716)ning ta'limotiga matematika, jumladan, integral va differensial hisoblar kashf etilishi ta'sir etgan edi. Unga ko'ra psixik hayot manzarasining arifmetik yig'indi tariqasida emas, balki integral tarzida namoyon etilishi tasavvurlarning uzluksiz chegaralanishi g'oyasiga tayangan holda persepsiya (bevosita ongsiz idrok) ni appersepsiya (diqqat va xotirani o'z ichiga olgan anglanilgan idrok) dan farqlagan edi. Shu bilan birga u psixologiyaga juda ko'p yangiliklarni, eng avvalo, psixikaning faolligi, tabiati va uzluksiz rivojlanishi hamda psixikaning onglilik va ongsizlik ko'rinishlari o'rtasidagi murakkab nisbat haqidagi g'oyani olib kirish bilan insonga psixologik xizmat ko'rsatish tizimiga yangicha qarashlar mavjudligini ko'rsatdi.

Bundan tashqari ingliz faylasufi, pedagogi va empirik psixologiya asoschisi Jon Lokk (1632-1704) barcha bilimlarning tajribadan kelib chiqishi haqidagi psixologik qoidani ilgari surdi. Chunki u ruhiy hayotning muayyan omillari, oddiy hodisalardan murakkab hodisalarga o'tish yo'llarini ilmiy jihatdan izohlab berishga urindi. Lokkning fikricha, tajribaning ikkita manbai bor: biri tashqi sezgi a'zolarining faoliyati(tashqi tajriba) va ikkinchisi o'zining xususiy ishini idrok etuvchi aqlning ichki faoliyati (ichki tajriba)dir. Kishi hech qanday g'oyalarga ega bo'lmagan holda dunyoga keladi. Uning ruhi — «toza taxta» (tabula rasa) bo'lib, keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi. Tajriba oddiy va murakkab g'oyalardan tarkib topadi. Bu g'oyalar yo sezgilardan, yo ichki idrok (refleksiya)lardan hosil bo'ladi. Ikkinchi holatda ong real narsalarga emas, balki o'z xususiy mahsuliga yo'naltirilib, o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi. Jon Lokkning refleksiya ta'limoti («refleks» tushunchasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak) kishi psixologik dalillarni (fizika dalillaridan farqli o'laroq) introspektiv tarzda bilib oladi, degan taxminga asoslangan edi.

Ayni paytda mahalladagi amaliy psixologlar har bir shaxs faoliyati hamkorligini tashkil etish jarayonida ushbu imkoniyatlarni hisobga olishi orqali ijtimoiy-psixologik yutuqlarga erishishi mumkin. XX asrning oxirlariga kelib psixologik xizmat quyidagi ikki yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi belgilandi:

Birinchidan, psixologik xizmat turli xil ijtimoiy tuzilmalarga, ya'ni sog'liqni saqlash, ta'lim, ishlab chiqarish jamoalari (va hokazo) ga psixologik yordam ko'rsatishga ixtisoslashtirildi. Bu tizim amaliy psixologiyaga oid barcha topshiriqlarni – psixologik ekspertiza, psixodiagnostika, psixoprofilaktika, psixokorreksiya kabilarni o'z ichiga olgangiligi bilan ahamiyatlidir.

Ikkinchidan, turli xil yo'nalishlardagi jamoalarda faoliyat yurutuvchi shaxslarga zarur bo'lgan yuqori saviyali psixologik yordam ko'rsatish tizimi joriy etildi. Bu tizim ayni paytda mehnat jamoalaridan hamda axolining turli qatlamlaridan tushgan talablar asosida ish ko'rishi belgilab qo'yildi.

Albatta, bu davrda olimlarning ilmiy psixologik asarlari dastlabki psixologik xizmat amaliyoti uchun muayyan darajada asos bo'lib xizmat qildi. Jumladan, P.P.Blonskiy L.S.Vygotskiy va ularning shogirdlari tomonidan ilk bor bolalar psixologiyasi va psixik taraqqiyotini belgilash va shu asosda ularga individual yondashish usullari amaliyotda qo'llanildi. O'sha davrdagi psixologik yondashuvlarni bunga yaqqol misol qilib olishimiz mumkin. Bunda asosiy urg'u maktablarda tahsil oluvchi bolalar psixik taraqqiyoti bilan bog'liq jarayonlarga qaratilganligini alohida qayd etish mumkin. (Kala.U.V. Raudik.V.V Psixologicheskoe slujba v shkole. – M.: Znanie, 1986). 1960 yilga kelib Rossiyada maktab faoliyatida psixologlarning amaliy ishlari yanada jonlana boshladi.

Binobarin, Rossiya ta'lim tizimida psixologik xizmat ko'rsatilishi ilk bor Estoniyadan boshlandi (X.I.Leymest va Sierdlar rahbarligida). Bu esa Rossiyaning boshqa hududlariga ham o'ziga xos metodik yondashuvlar asosida keng miqyosda tarqala boshlanishiga sabab bo'ldi (Rabochie kniga shkolnogo psixologa /Pod. Red. I.V.Dubrovinoy. – M .:Prosvesheniya , 1991).

I.V.Dubrovina rahbarligida eksperiment tariqasida Moskvadagi №91 umumta'lim maktabida kompleks tarzda psixologik xizmat amaliyoti maxsus dastur asosida olib borildi (1982-1987). Bu jarayonda asosan psixologik xizmatning nazariy va tashkiliy masalalari hamda psixologik xizmatni maktab amaliyotida qo'llashga jiddiy e'tibor qaratildi. Eksperimentda Moskvada Pedagogika fanlar akademiyasi huzuridagi Umumiy va pedagogik psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti olimlari faol ishtirok etishdi. Ular bevosita maktabda ishlayotgan amaliyotchi psixologlarga, tuman, shahar va viloyatlar hududlaridagi psixologik xizmat markazlariga tegishli ko'rsatmalarni taqdim etib bordilar.

1988-yilda esa Rossiyadagi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maktab amaliyotchi psixologlarining huquqiy-uslubiy va ijtimoiy mavqei hamda majburiyatlariga daxldor hujjatlar rasmiylashtirildi. Mazkur hujjatga muvofiq, Rossiya ta'lim tizimida psixologik xizmat amaliyoti quyidagi 5 ta model asosida tashkil etilganligini alohida takidlash mumkin.

Birinchi model: psixolog o'z xonasi doirasida o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar bilan ish olib boradi. Ularning bevosita murojaatlarini o'rganadi va o'quv jarayoni doirasida bolalarni qiziqtirgan savollarga javob berib boradi.

Ikkinchi model: oldingi modelga qo'shimcha ravishda ta'lim muassasasi rahbarining talabiga muvofiq ravishda turli xil maktab yoshidagi bolalarning pedagogik-psixologik imkoniyatlariga baho berib boriladi. Shuningdek, har bir o'quvchining individual xususiyatlari va uning o'quv malakalarini o'zlashtirishdagi salohiyatini o'rganish bilan bog'liq pedagogik-psixologik konsiliumlar tashkil qilib tegishli tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Uchinchi model: o'qituvchilar hamda o'quvchilar bilan muntazam ravishda seminarlar va treninglar olib borilishini ta'minlaydi. Psixolog o'quvchilar xulq-atvoridagi stereotiplarni va ayrim nuqsonlarni korreksiyalash (tuzatish) vazifasini o'z zimmasiga oladi. Shuningdek, dars jarayonida o'quvchilardagi ijtimoiy malakalar va qiziqishlarni hisobga olib ularni psixologik himoya mexanizmlari bilan qurollantiradi.

To'rtinchi model: mazkur model pedagogning kasbiy faoliyatini psixologik jihatdan takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Mazkur modelning maqsadi o'qituvchilar pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish asosida o'quv jarayoniga psixologik yondashuv tizimini olib kirish va uni amaliyotda takomillashtirib borishga xizmat qiladi. Bunda psixolog o'zining yuqori darajadagi psixologik mahoratini namoyon etgan holda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati, ta'lim jarayoni hamda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan muntazam tizimga ega bo'lgan psixologik bilimlarni amaliyotda qo'llaydi.

Beshinchi model: yuqoridagi barcha modellar bo'yicha olib boriladigan ishlarni umumlashtirgan holda psixologdan mustaqil tarzda ilmiy-uslubiy hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish talab qilinadi. Shuningdek, har bir o'quvchi yoki o'qituvchi bilan eksperimental ishlar, tajribalar olib borilib, ushbu tajribalarning natijalari tahlil qilinadi. Mazkur tahlillar asosida muayyan darajadagi xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantiriladi.

Umuman, yuqorida qayd etilgan har bir model Rossiya ta'lim tizimidagi psixologik xizmat mazmuni, mohiyati, tarixi, buguni va kelajagini belgilashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa. Shunday qilib, psixologik xizmatning metodologik asoslari sifatida talqin qilingan yuqoridagi fikr-mulohazalar ijtimoiy psixologiya fanining quyidagi amaliy-tatbiqiy yo'nalishlariga bugungi kunning eng dolzarb muammolari sifatida qarashni taqozo etadi:

1.Psixologik xizmat metodologiyasi har bir shaxsning u yoki bu faoliyatdan ijtimoiy va hissiy qoniqish jarayonini ta'minlashga qaratilgan omillarni nazariy va empirik jihatdan asoslab berishga qaratilishi lozim.

2.Mahallada psixologik xizmat shaxsning faoliyat jarayonidagi o'z-o'ziga, o'zgalarga va faoliyatga bo'lgan munosabatlaridagi ierarxik tizim dinamikasini tadqiq qilishi va shu tizim asosida ijtimoiy psixologik muhitning yaratilishiga zamin hozirlay olishi bilan bog'liq izlanishlar ko'lamini o'z ichiga olishi bilan ahamiyatlidir.

3.Psixologik xizmat jarayoni bilan bog'liq ijtimoiy muhim ko'rsatkichlarning tahlili har bir shaxs faoliyati uchun xarakterli bo'lgan individual farqlanish, individual uslub va ijtimoiy ustanovkaning qaror toptirilishini o'rganish asosida amalga oshirilishi mumkin.

4.Mahallada psixologik xizmatning tashkil etilishi shu maxallada istiqomat qiluvchi aholining turli qatlamlaridagi psixologik muammolarni bartaraf etish tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotda qo'llash bilan baholanadi.

5. Muammoning ilmiy adabiyotlarda yoritilishi va metodologik asoslari bilan bog'liq yuqoridagi tahlillarning bayon etilishi maxallada psixologik xizmatning ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan vazifalarini hamda o'ziga xos ijtimoiy-psixologik istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekistonda psixologik xizmat tizimining joriy etilishi ko'p tarmoqli va keng ko'lamli jarayon ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Qolaversa, har bir ijtimoiy tizimda psixologik xizmatning joriy etilishi shu tizimda faoliyat yuritayotgan shaxs va ijtimoiy taraqqaiyot uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'ylaymizki, ushbu "ta'minot" ning qanchalik mukammal va ilmiy tarzda tashkil etilishi shu hududda istiqomat qiluvchi har bir fuqaroning alohida shaxs sifatidagi ijtimoiy-psixologik istiqbollarini belgilab berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdukarimov A.A. Psixologiya asoslari. – Toshkent: "Fan", 2019.
2. Abdullaeva M.S. Yoshlar psixologiyasi. – Samarqand: "Zarafshon", 2021.
3. Выготский Л.С. Психология развития подростка. – Москва: Айрис-пресс, 2020.
4. Зинченко В.П., Мещеряков Б.Г. Словарь по психологии. – Москва: Просвещение, 2018.
5. Santrock J.W. Adolescence. – New York: McGraw-Hill Education, 2021.
6. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton & Company, 1994.

Ibroximova Nasiba Nodir qizi
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Psixologiya ta'lim yo'nalishi magistranti
Rasulova Nilufar Tulkunovna
"Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrasi dotsenti, (PhD)

TALABALARDA EMOTSIONAL SO'NISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida uchrayotgan emotsional so'nish (burnout) holatlari tahlil qilinadi. Emotsional so'nishning psixologik sabablari, uning ta'lim jarayoniga ta'siri va oldini olish yo'llari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, emotsional intellektning shakllanishi, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va shaxsiy rivojlanishga ijobiy ta'siri haqida fikr yuritiladi. Maqola talabalarning ruhiy salomatligi va ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalarni o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *Emotsional so'nish, talabalar, ijtimoiy-psixologik omillar, stress, ruhiy holat, psixologik salomatlik, emotsional intellekt, emotsional barqarorlik, jismoniy faollik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, psixologik yordam, sog'lom turmush tarzi.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЯ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается явление эмоционального выгорания среди студентов высших учебных заведений. Анализируются психологические причины выгорания, его влияние на учебный процесс и возможные профилактические меры. Особое внимание уделяется формированию эмоционального интеллекта, развитию социальных навыков и их положительному влиянию на личностное развитие. Статья содержит рекомендации, направленные на улучшение психического здоровья студентов и повышение эффективности образования.*

Ключевые слова: *эмоциональное угасание, студенты, Социально-психологические факторы, стресс, психическое состояние, психологическое здоровье, эмоциональный интеллект, эмоциональная стабильность, физическая активность, социальная поддержка, психологическая поддержка, здоровый образ жизни.*

THE SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF EMOTIONAL BURNOUT IN STUDENTS

Annotation. *This article explores the issue of emotional burnout among students in higher education institutions. It analyzes the psychological causes of burnout, its impact on the educational process, and effective preventive measures. Special emphasis is placed on the development of emotional intelligence, the enhancement of social skills, and their positive influence on personal growth. The article provides recommendations aimed at improving students' mental well-being and increasing the effectiveness of the learning process.*

Keywords: *emotional fading, students, socio-psychological factors, stress, mental state, psychological health, emotional intelligence, emotional stability, physical activity, social support, psychological support, healthy lifestyle.*

Kirish. Hozirgi eng dolzarb muammolardan biri oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlari hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ta'lim samaradorligini keskin oshirish masalasidir. Bugungi tezkor axborot asrida insonlar, ayniqsa yoshlar, ruhiy va emotsional bosimlarga tez-tez duch kelmoqda. Bu holat, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ularda uchraydigan emotsional so'nish holatlari nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki o'quv jarayonining samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Psixologik tadqiqotlar bu holatni chuqur tahlil qilish, uning sabab va oqibatlarini aniqlash, shuningdek, samarali psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. O'qituvchi bilan talabaning hamkorlikdagi faoliyati asosida o'quv-tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish hamda talabalardagi emotsional o'zgarishlar va holatlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga e'tibor qaratish zarur.

Bu muammo oliy maktab psixologiyasida hali yetarlicha o'rganilmaganligi sababli, shu mavzuda kengroq mulohaza yuritish maqsadga muvofiqdir.

Talabalik davri — shaxsning emotsional va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bosqichdir. Bu davrda shaxs o'zini anglash, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish hamda his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Emotsional so'nish psixologik fenomen sifatida ko'plab ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. "Emotsional so'nish" atamasi 20-asrning 1980-yillarida amerikalik psixiatr Gerbert Freydenberger tomonidan fanga olib kelingan. U psixiatriya muassasalari xodimlarining hissiy holatidagi o'zgarishlarni kuzatgan.

Metodlar. "Emotsional so'nish" (inglizcha *burnout*) bu kasbiy yoki ta'limiy faoliyatdagi doimiy stress natijasida yuzaga keladigan hissiy va fiziologik charchash holatidir.[1] Bu holat insonning uzoq muddat davomida stressga duchor bo'lishi va natijada ruhiy hamda jismoniy energiyasining tugashi bilan bog'liq. Emotsional so'nish, ko'pincha, o'qish yoki ish jarayonida yuzaga keladi. Talabalarda bu holat o'quv yuklamasi, topshiriqlar, sinovlar va umumiy bosim ortishi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotlarda talabalar deganda, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ishtirok etishga tayyorlanayotgan, ijtimoiy hayotda va kasbiy faoliyatda muayyan rollarni bajarishga intilayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarga boshqa ijtimoiy guruhlar bilan (rasmiy yoki norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishish imkoniyatini yaratadi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklikning jadal sur'atlarda rivojlanishidir.

Ma'lumki, ijtimoiy yetuklik (kamolot) bu shaxsning zarur aqliy qobiliyatga ega bo'lishi, ijtimoiy hayotda turli rollarni bajara olishga tayyor bo'lishini anglatadi. Bunga oila qurish, farzand tarbiyasi, mehnatda faol ishtirok etish, mas'uliyatli vazifalarni bajarish, ijtimoiy guruhga rahbarlik qilish, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil etish kabilar kiradi.

Natijalar. Talabalik davri - o'spirinlikning ikkinchi bosqichi bo'lib, 17–22 (25) yoshlarni o'z ichiga oladi. Bu davr o'zining betakror xususiyatlari va ichki qarama-qarshiliklari bilan ajralib turadi. Shu sababli, bu pallada o'spirin o'zining ijtimoiy va kasbiy mavqeini anglay boshlaydi va o'ziga xos ruhiy inqirozlarni boshidan kechiradi.

Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra (B.G. Ananev, N.V. Kuzmina, N.F. Talizina, I.S. Kon, V.T. Vigotskiy va boshqalar), oliy ta'lim muassasalarida o'qish talabalardan yuqori darajada psixologik barqarorlikni talab etadi. Chunki bu davrda shaxsning murakkab sifatlari va fazilatlari shakllanadi[2]

Xulosa va tavsiyalar. Mazkur yosh davridagi ijtimoiy-psixologik o'sishning muhim belgisi — o'qish faoliyatining ongli motivlarining kuchayishidir. Talabalarda axloqiy jarayonlar sekinroq rivojlansada, mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik kabi xulqiy sifatlar baribir asta-sekin takomillashib boradi.

Yosh fiziologiyasi va ontogenez psixologiyasi fanlari shuni ko'rsatadiki, 17–19 yoshdagi talaba o'z xulqini va bilish faoliyatini hali to'liq ongli boshqara olmaydi. Bu esa xulq motivlarining chuqur asoslanmasligi, uzoqni ko'rolmaslik va ehtiyotsizlik kabi holatlarning yuzaga kelishiga olib keladi.

V.T. Vigotskiyning fikricha, 19–20 yoshlarda istak va xohishlar rivoji, iroda va xarakter shakllanishidan ilgarilab ketadi. Talaba hayotiy tajribaning yetishmasligi tufayli nazariya bilan amaliyotni, orzu bilan reallikni, optimizm bilan qat'iylikni farqlay olmaydi.[3]

Jahon psixologiyasida ham shaxsning emotsional hayoti uning xulq-atvori, muloqotdagi muvaffaqiyati va faoliyat samaradorligining muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, talaba hayoti va

[1] Freudenberger, H. J. Staff Burn-Out. Journal of Social Issues, 30(1), 159–165.
[2] G'oziyev E. G'.Ontogenez psixologiyasi ; NIF MSH ;2020
[3] Nurbekova, M. Psixologik barqarorlik va emotsional so'nishni oldini olish usullari. O'zbekiston Psixologiyasi, 3(1), 34–38.

faoliyatidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan emotsional holatlarga, his-tuyg'ularga va psixologik kechinmalarga bog'liq.

Bunday holatlarning oldini olish uchun talabalarda **emotsional intellekt**ni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu intellekt ularning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqalar bilan munosabatni samarali yo'lga qo'yish va stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellektga ega talabalar stressli vaziyatlarga yaxshiroq moslashadi, muammolarni samarali hal qiladi va akademik ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi. Shuningdek, bu ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.[1]

Talabalik yillarida o'zini o'zi kamolotga yetkazish jarayoni ham muhimdir. O'zini boshqarish — bu o'zini tahlil qilish, baholash, nazorat qilish va o'z ustida ishlashdan iborat. Ideal "Men"ni real "Men" bilan taqqoslash orqali shaxs o'z imkoniyatlarini to'g'ri anglay boshlaydi. Lekin bu ikki obraz o'rtasida tafovut bo'lishi talabada o'ziga ishonchsizlik va o'qishga salbiy munosabatni keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan, o'quv yili boshida talaba ko'tarinki kayfiyatda bo'lsa-da, o'qish jarayonining real sharoitlari bilan tanishgach, unda tushkunlik holati paydo bo'lishi mumkin. Bu esa ruhiy-emotsional so'nish, istiqbolga ishonchsizlik, hadiksirash kabi his-tuyg'ular bilan namoyon bo'ladi.

Shuning uchun oliy ta'lim jarayonini rejalashtirishda talabaga individual yondashuv muhim shartlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Freudenberger, H. J. (1974). Staff Burn-Out. Journal of Social Issues, 30(1), 159–165.
2. G'oziyev E. G'.Ontogenez psixologiyasi; NIF MSH, 2020.
3. Nurbekova, M. (2020). Psixologik barqarorlik va emotsional so'nishni oldini olish usullari. O'zbekiston Psixologiyasi, 3(1), 34–38.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (2023). Talabalarda psixologik salomatlikni ta'minlash bo'yicha metodik qo'llanma.
5. Ochilova M.A. Talabalarning emotsional intellekt shakllanishining psixalogik ahamiyati. // Inter education & global study. 2024. №8(1). B.482-494
6. Психогенетика: Глубины генетических корней психического развития. (2024). Педагогический кластер — Журнал педагогических разработок , 2 (4), 69-74.
7. Rasulova Nilufar Tulkunovna (2021). The religious factor in the formation of the reproductive consciousness of young people. International scientific review, (LXXXIII), 68-69.

[1] Ochilova M.A. Talabalarning emotsional intellekt shakllanishining psixalogik ahamiyati. // Inter education & global study. 2024. №8(1). B.482-494

Ishankulova Gulzoda Baxromovna
Qarshi davlat universiteti psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'ZBEK OILALARIDA GENDER MUNOSABATLAR NAMOYON BO'LISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek oilalarida gender munosabatlar namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Unda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada jahon psixologlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *jamiyat, mustaqillik, oila, gender munosabat, gender tenglik, xotin-qizlar, demokratik institutlar, psixologik yordam.*

ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены особенности проявления гендерных отношений в узбекских семьях. В нем подробно рассказывается о теоретических и практических аспектах данной проблемы, о научно-исследовательских работах, проведенных психологами мира по этому вопросу. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы и сегодня очень актуально.*

Ключевые слова: *общество, независимость, семья, гендерные отношения, гендерное равенство, женщины, демократические институты, психологическая поддержка.*

DISTINCTIVE FEATURES OF GENDER RELATIONS IN UZBEK FAMILIES

Abstract. *This article examines the peculiarities of gender relations in Uzbek families. It describes in detail the theoretical and practical aspects of this problem, as well as the research conducted by psychologists around the world on this issue. The research conducted by the author shows that the study of this problem is still very relevant today.*

Key words: *society, independence, family, gender relations, gender equality, women, democratic institutions, psychological support.*

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, butun dunyoda yigirma birinchi asrga kelib demokratik institutlar sa'y-harakatlari natijasida ayollarning jamiyatdagi mavqei oshirildi, ularning roli va missiyasini baholashda yangicha qarashlar paydo bo'ldi, endi unga oilaning davomchisi, oila o'chog'ining qo'riqchisi sifatidagina emas, balki jamiyat hayotining faol ishtirokchisi nuqtai nazaridan qarala boshlandi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ham jamiyat hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar rolini kuchaytirish va maqomini oshirish, ularning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya etish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilganligi diqqatga sazovordir. Biroq, bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalarida gender tenglikni ta'minlash va uni himoya qilish sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar va ko'rilayotgan choralarga qaramasdan jahonda oiladagi shaxslararo va oilaviy munosabatlarda gender tenglik masalalari, oila a'zolarining ixtiyori va erkinligiga zid ravishda shaxsga ruhiy, jismoniy, kuch ishlatish yoxud emotsional tazyiq o'tkazish holatlari soni ortib bormoqda. Zo'ravonlik insonlarning irqiy, madaniy, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy farqlardan qat'iy nazar har qanday oilada sodir bo'lishi mumkin. Ushbu muammo ko'p yillardan buyon nufuzli xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda, ularning tashabbusi bilan ushbu sohada muntazam konferensiyalar va ilmiy tadqiqotlar o'tkazilib, tavsiyalar va namunaviy qonunlar ishlab chiqilmoqda.

Shu nuqtai nazardan butun dunyoda oilada ayollarning o'rni, xotin-qizlarning huquq-

manfaatlarini ta'minlash, ehtiyojmand xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, tibbiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Uning bir bo'lagi bo'lgan Respublikamizda ham so'nggi yillarda o'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar ta'siridagi gender tenglikning ijtimoiy-etnopsixologik xususiyatlari muammolarini inobatga olgan holda, yordamga muhtoj oila bolalari va ayollarni reabilitatsiya qilish, maxsus moslashtirish markazlariga keltirilgan jabrlanuvchilarga hamda ularning bolalariga birlamchi ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish, ularni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek, gender tengsizlikdan jabrlanuvchilarni bepul davolash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilib kelinmoqda. Bular mustaqillik yillarida O'zbekistonda ham jamiyat hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlar rolini kuchaytirish va maqomini oshirish, ularning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya etish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilganligiga yaqqol misol bo'ladi. Ushbu jihatlarni inobatga olgan holda o'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar ta'siridagi gender tenglikning ijtimoiy-etnopsixologik xususiyatlarini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Oiladagi shaxslararo munosabatlarda gender tenglik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish o'tgan asrning so'nggi yillarida Shveytsariyada YE.Klarared, Germaniyada T.Shrayber; Fransiyada R.Jane, A.Villi, YE.Dlorkkeyt; Amerikada K.Byuler, S.Xoll, U.Djeyms, D.Dobson, Dj.Bruler, L.Morgan; Rossiya Federatsiyasida G.M.Andreyeva, B.Malinovskiy, M.Kovalevskiy, R.Sorokin, A.Xarshev, N.N.Obozov, S.I.Golod, N.N.Bogomolova, A.Adler, A.I.Antonov, L.Y.Gozman, T.M.Mishina, S.Minuxin, S.V.Kovalev; Markaziy Osiyo davlatlari psixolog olimlaridan B.Polvonova, M.Beysenova, M.Raximova va boshqalar tomonidan tadqiq etilganligi diqqatga sazovordir.

Hozirgi vaqtga qadar mamlakatimiz psixolog olimlari tomonidan o'zbek oilasining xususiyatlari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, M.M.Mamatov, N.Salayeva, R.S.Samarov, M.A.Uterbergenov, Sh.SH.Jo'rayeva, M.X.Fayziyeva, R.X.Dushanov, N.X.Lutfullayeva, T.B.Norimbetov va boshqa olimlarning tadqiqotlari shular jumlasidandir. Ularda asosan oila-nikoh munosabatlari, er-xotinning o'zaro kelishmovchilik muammolari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o'zbek oilasining o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlari, oiladagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablar, ajralishlar va ularning oqibatlari muammosi bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan va bugungi kunda ham shunga o'xshash ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

Mamlakatimizda oilaviy zo'ravonlik masalalarini samarali o'rgangan mutaxassislardan biri U.S.Uktamova hisoblanadi. Muallif o'zining ilmiy izlanishlarida oilaviy zo'ravonlik muammolarini o'rganib, uning kelib chiqishiga quyidagilarni sabab qilib keltiradi: a) zo'ravonning jismonan kuchliligi (ko'rincha erkakning ayolga, ota-onaning farzandiga nisbatan zo'ravonligi); b) zo'ravonlikning bir shaxsga nisbatan ko'pchilik bo'lib sodir etilishi (uchinchi shaxslarning aralashuvi); d) jabrlangan shaxsning muammo bilan yolg'iz qolishi (huquqiy savodsizlik, ijtimoiy yolg'izlik); e) jabrlangan shaxsga huquqiy, psixologik tibbiy yordam berish mexanizmining zaifligi; f) sabablar emas, vaziyatlar bilan shug'ullanish (vaqtinchalik yarashtirib qo'yish, muammoni lokal hal qilish, tub sabablarni o'rganmaslik); g) oila tushunchasi ta'rifning to'laqonli emasligi; g') qonunni amalga oshirishda idoralararo muvofiqlikning yo'qligi va mablag' yetishmasligi; i) turmushda, ish joylarida, ta'lim muassasalarida va boshqa joylarda xotin-qizlarga bo'lgan hurmatning yetishmasligi [1].

M.X.Fayziyevaning tadqiqotlarida ham er-xotin munosabatlari misolida oiladagi shaxslararo munosabatlar uning beqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi va bu jarayonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, er-xotinning o'zaro hurmat va ishonchi, bir-birini yaxshi tushunishi, farzandlarning muomala odobi, onglilik va ma'naviy-axloqiy mavqei, moddiy ta'minlanganligi, rollar taqsimoti oqilligi, jinsiy mosligi oilaviy munosabatlar barqarorligini belgilab beradi. Aksincha, er-xotinning xarakteri o'zaro mos kelmasligi, farzandsizlik, muhabbatning zaifligi, budjetni boshqara olmaslik asosiy omil sifatida, ro'zg'or ishlari saramjon-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta'minot kamchiliklari, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, dunyoqarash va e'tiqodning nomuvofiqligi hamda jinsiy nomutanosiblik muhim omil sifatida oilaviy nizolarga sabab bo'lishi ta'kidlanadi [4].

N.N.Shomurotovaga ko'ra, oilaviy zo'ravonlikning ijtimoiy - psixologik xatarlaridan biri oilaviy zo'ravonlik guvohi bo'lib ulg'aygan bolalar kelajakda, bu amaliyotni qo'llab takrorlovchi bo'lib qoladilar. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik va oiladagi zo'ravonlik to'g'risidagi adabiyotlarda keltirilishicha, ba'zi insonlar bolaligidan oilaviy zo'ravonlik guvohi bo'lganligi sababli zo'ravonlikka moyil bo'lishlari, har qanday zo'ravonlikni oddiy holat sifatida qabul qilishlari mumkin (masalan, bolaligida yomon munosabatda bo'lgan odamlar, o'z navbatida, o'z farzandlariga yomon munosabatda bo'lishgan; ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlar bu xatti-harakatni kattalardagi yaqin munosabatlarida takrorlashgan). Zo'ravonlik holatining avlodlararo uzatilishini ijtimoiy tajriba va kuzatuvlarda o'z tasdig'ini topgan [5].

Tahlil va natijalar. Biz ilmiy tadqiqot ishimizda o'zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar ta'siridagi gender tenglikning ijtimoiy-etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq qilish maqsadida Qashqadaryo viloyatidan 145 nafar va Surxondaryo viloyatidan 144 nafar, jami, 289 nafar respondent ustida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirdik. Tadqiqot ishimizda Bass-Darkning "Agressivlik darajasini aniqlash" metodikasidan foydalandik. Mazkur so'rovnomada agressivlik (tajovuzkorlik) va dushmanlik ko'rsatkichi tabaqalashishi yuzaga chiqishini va quyidagi tajovuzkorlik jarayonlarini aniqlash mumkin: 1) jismoniy tajovuz – o'zgaga nisbatan jismoniy kuch ishlatishni anglatadi; 2) verbal tajovuz – tajovuzning haqoratli yoki maxsus ohang bilan namoyon bo'lishi; 3) bilvosita tajovuz – qo'pollik va tajanglik; 4) negativizm –oppozitsion shakldagi fe'l-atvorga moyillik; 5) tajanglik – o'zgaga bilvosita, imkoniyat bilan qaratilgan; 6) shubhalanuvchanlik – turli holatlarda ishonchsizlikni namoyish qilish; 7) xafagarchilik – sinalayotganga dushmanona ayblov bilan qarash; 8) aybdorlik hissi – o'zini o'zi ayblashga moyillik. Bunda har bir jarayon o'ziga xos turdagi tajovuzni aniqlashga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Mazkur metodika muallifi Bassidarki har qanday tajovuzkorlikni klassifikatsiyalash mumkinligini ta'kidlab, jismoniy-verbal, faol-passiv, to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita shaklga ajratib ko'rsatadi.

1-jadval.

Bass-Darkning «Agressivlik darajasini aniqlash» metodikasini jins tafovutlari bo'yicha natijalar gender tahlili (n=289)

Shkalalar	Jinsi	M	σ	t
Jismoniy gender tengsizlik	Erkak n= 143	8,2	2,44	-4, 42*
	Ayol n=146	5,6	2,86	
Bilvosita gender tengsizlik	Erkak n= 143	4,6	1,68	-2,93*
	Ayol n=146	7,1	1,96	
Tajanglik	Erkak n= 143	8,3	1,57	-3,76*
	Ayol n=146	5,1	1,22	
Negativizm	Erkak n= 143	4,2	1,84	-2,70*
	Ayol n=146	7,9	1,97	
Xafagarchilik	Erkak n= 143	4,2	1,58	-2,32*
	Ayol n=146	7,9	1,76	
Shubhalanuvchanlik	Erkak n= 143	7,4	2,83	-2,25*
	Ayol n=146	4,1	1,33	
Verbal agressiya	Erkak n= 143	4,3	1,47	-2,63*
	Ayol n=146	6,9	1,94	
Aybdorlik hissi	Erkak n= 143	7,3	2,24	-3,23*
	Ayol n=146	4,2	1,07	

Izoh: *p≤0,05; *** p≤0,001.

Aniqlanilishicha, «jismoniy gender tengsizlik» shkalasi natijasi ayollarga qaraganda erkaklarda yuqori ko'rsatkichga ega bo'lsa, ayollarda «bilvosita gender tengsizlik» shkalasi natijasi ko'proq namoyon bo'ladi (t=-4,42*; p≤0,05). Jumladan, erkak ishtirokchilar ijtimoiy tasavvurida jismoniy gender tengsizlik yuqoriligi, ular nizolar tug'ilgan paytda faqatgina jismoniy kuch bilan uning yechimini topilishiga ishonishlari hamda jismoniy kuchga tayanish kerak degan xulosalari ustuvor

ekanligidan dalolat beradi. Oiladagi agressivlik yetuklik inqirozining eng tipik ko'rinishlaridan biridir. Aksariyat hollarda, er va xotinning agressivligi ularning agressiv xatti-harakatlarini to'xtatishga bo'lgan barcha urinishlarida yanada yaqqol namoyon bo'lib, «hayotni» mazmuniga aylandi. Demak, jismoniy gender tengsizlik erkaklarda bevosita kuch ishlatish –urish, itarish, tishlash kabi ko'rinishlarda namoyon etar ekanlar, bu vosita orqali oilada o'z «Men»ligini ko'rsatish, o'zga jins vakilining e'tiborini qozonish, hammaning diqqat markazida bo'lish, jamiyat tomonidan tan olinishga intilish bilan uyg'unlashadi, shuningdek, bu erkaklardagi o'z xulqini adekvat boshqara olmaslik, kommunikativ bilimning pastligi, o'z ehtiyojlari qondirilishini to'xtatishni bilmaslik yoki kechiktirish istagining yo'qligi bilan bog'liq bo'ladi. Ayollar agressiyasida bevosita emas, balki bilvosita agressiya ko'rinishlari – arazlash, gina saqlash, ortidan gapirish, chaqimchilik, g'iybat kabi holatlar namoyon bo'ladi.

«Bilvosita gender tengsizlik» shkalasi darajasi bo'yicha erkak va ayollar natijalari orasida ishonchli farqlar qayd etildi (t=-2,93*; p≤0,05). Natijalardan ma'lum bo'ladiki, ayollarda arazlash gina saqlash, ichidagi barcha kechinmalarni, emotsiyalarini tashqariga yoki agressatorga «otib» yubormasliklari ularda xafa bo'lish, arazlash kabi xulq-atvorning elementlarida namoyon bo'ladi. Bizningcha, ushbu jihatlar oiladagi zo'ravonlikni harakatga keltiruvchi asosiy kuchi bo'lib xizmat qilishi kuzatildi. Ayolidagi xatti-harakatlarning natijasini tushunmagan «qiziqqon erkak» alamini bevosita kuch ishlatish orqali olib, o'zini qiynayotgan savollariga javob topishga urinadi.

«Tajanglik» shkalasi darajasi bo'yicha ham tadqiqot ob'yektlari o'rtasida farqlar kuzatildi (t=-3,76*; p≤0,05). Tabiiy ravishda erkaklarning tabiatiga kuchli g'azab, rashk hissi, «lov etib yonish» kabi xislatlarning mavjudligi uchun ham achchiqlanish erkaklarda ancha katta tafovut bilan ishonch darajasidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ldi. Erkaklardagi turli xil holatlarda tez achchiqlanish holatlari muammoni, vaziyatni adekvat baholash ehtimolini kamaytirgani holda ularda zo'ravonlik motivlarining ilk «uchqunlarini» olovga aylantirishda xizmat qilishi kuzatildi.

Navbatdagi «negativizm» shkalasi bo'yicha ayollarda yuqori natija qayd etildi (t=-2,70**; p≤0,05). Ayollarning xarakter xislatlariga kundan-kun muhrlanib borayotgan jarayon bu yerining daromatidan qoniqmaslik, ehtiyojlarning ko'pligi natijasida doimiy ruhiy zo'riqish, tashvishda yurish kabilar natijasida ularda hayotda va faoliyatga nisbatan negativ fikrda, qarashda bo'lishadi. Bu o'z navbatida shaxslararo munosabatda muhim hisoblanuvchi o'zaro ijtimoiy persepsiya darajasining kamayishi tufayli destruktiv nizolar bo'lish ehtimolining ortishiga olib keladi. Bunday vaziyatlarda erkaklar ayollarning «chakagini o'chirish» uchun ham so'nggi chora sifatida kuch ishlatib «och qornim tinch qulog'im» qabilidagi pozitsiyasini saqlab qolishni ma'qul ko'rishadi. Shuningdek, «negativizm» shkalasining yuqoriligi esa, ayollarda xulq-atvorning oppozitsion, mavjud qonun-qoidalarga qarshi yo'nalgan ko'rinishini vujudga keltirgan. Biroq bunday xulq-atvor ham o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Zero, erkaklar xulq-atvoridagi agressiyaning boshqa bir ko'rinishi «shubhalanuvchanlik» shkalasining ustuvorligi buning asosiy sababi sifatida yuzaga chiqadi. Erkaklarning shubhalanuvchanligi, asosan, er-xotin o'rtasida kechadigan munosabatlar jarayonida, ayollarning erlaridan ehtiyot bo'lish sharti bo'lib, ular ziyon-zahmat yetkazishlari mumkin degan ijtimoiy tasavvurlarining mavjudligi orqali izohlanadi.

Keyingi «xafagarchilik» shkalasi bo'yicha ham ayollarda erkaklarga nisbatan yuqori natija qayd etildi (t=-2,32*, p≤0,05). Bir tomondan olib qaraganda, tez xulosa chiqarish, voqea-hodisalarni noreal baholash orqali ayollarda hamma narsadan tez xafa bo'lib qolish kabi xususiyatlarning ustun bo'lishi oqibatida ular o'zlariga nisbatan erkaklarda g'azab hissini uyg'otishga zamin yaratishsa, ikkinchi tarafdan esa xafagarchilik alamini kimdandir olish va barcha «azoblardan qutulish» uchun jahlini turmush o'rtog'i yoki farzandlariga yo'naltirishi natijasida aynan ayollarda uy zo'ravonligiga moyillikning dastlabki fazalari paydo bo'lishi mumkin.

«Shubhalanuvchanlik» shkalasi ko'rsatkichi bo'yicha esa erkaklarda yuqori natija namoyon bo'ldi (t=-2,25*, p≤0,05). Aniqlanilishicha, erkaklarda shubha, gumonga berilish darajasi yuqori bo'lgani uchun ular doimo atrofdagilariga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatida bo'lishadi. Oilaviy munosabatlarda ham shubhalanuvchanlikka haddan ortiq berilish er va xotin o'rtasida xiyonat sodir etish xavfini yuzaga keltirsa, farzandlar bilan kechadigan aloqalarda bolaga nisbatan ortiqcha talab qo'yish, uning xatti-harakatlarini keskin cheklash kabilarda yaqqol namoyon bo'lish ehtimoliga


egaligi bilan ham ahamiyatlidir.

Metodikaning «verbal agressiya» shkalasi ko'rsatkichi bo'yicha ayollarda erkaklarga nisbatan yuqori natija qayd etildi (t=-2,63*, p≤0,05). Tadqiqot natijalari orasidan e'tiborimizni tortgan muhim jihat mazkur ko'rsatkich bo'yicha ayollarda erkaklarga nisbatan ishonch darajasida ustunlik qilishi aniqlandi. Demak, ayollarning ko'p gapirib o'zining emotsiyalarini tashqari turli xil qarg'ishlar orqali chiqarib yuborishlari erkaklarning aks reaksiya bildirishlari oqibatida zo'ravonlikning qurbonlariga aylanib qolish indikatori bo'lib qolar ekan. Ayollar tomonidan «Jahl ketganda aql ketadi», «Tilni vaqtida tiyish» kabi tamoyillarga affekt holatida amal qilinmasligi, oxir-oqibatda qilmishlariga yarasha eri tarafidan jazo olish, «kaltaklash» kabilarning sodir bo'lishida va refleksiv xarakterdagi xulq-atvor omillariga aylanishida yetakchi omillardan biri bo'lib ko'zga tashlandi.

Metodikaning so'nggi «aybdorlilik hissi» yoki «afsuslanish» shkalasi ko'rsatkichi bo'yicha erkaklar yuqori natijani ko'rsatdi (t=-3,23*, p≤0,05). Bizningcha, o'z majburiyatlarini vaqtida ado etmaslik, muammolarni hal qilish, qarorlarni qabul qilishdagi kamchiliklarning mavjudligi natijasida erkaklarda o'z holatidan, moddiy ahvolidan afsuslanish holatlari yuqori bo'lishi uchun ham, ularda o'z ehtiyojlarini qondirish, nomukammallikka sababchi bo'lgan shaxsni qidirish bahonasida ayoliga, farzandiga nisbatan agressiv xarakterdagi qo'pol, oqibati psixologik, fiziologik jarohatlar bilan namoyon bo'ladigan zo'ravonliklar tez-tez uchrab turadi. Natijada esa, «qilmish qidirmish», «so'nggi pushaymon o'zingga dushman» mazmunidagi maqollarga tayanib, erkaklarda o'zini ayblash, ichki bezovtalik, afsuslanish kabilarda ayollarga qaraganda ustunlik qiladi.

Umuman olganda, erkak respondentlarda «bilvosita tajovuz» hamda «tajanglik» shkalalari o'rtasida bog'liqlik yuqori darajada bo'ladi. Ya'ni, xulq-atvorning ayrim jihatlari bilan boshqa shaxslarga (odatda ayoliga, ba'zan farzandlarga ham) bilvosita yo'naltirilgan yoki hech kimga yo'naltirilmagan tajovuz bilan arzimas narsalar (hodisa, voqea) ta'sirida salbiy hissiyotlarini namoyon qiladi. Shuningdek, mazkur toifa sinaluvchilar shubhalanish, ya'ni boshqalarga nisbatan ishonchsizliklari oqibatida begonalar bilan bo'ladigan munosabatda jismoniy kuchdan foydalanishga moyillik o'ta yuqori. Arzimas narsalarga ham (mayda-chuyda gaplar, xatti-harakatlar, qiliqlar) salbiy hissiyotlarini turli tovushlar (qiyqirish, so'kinish) bilan ifodalashga harakat qilishadi.

Tadqiqot jarayonida sinaluvchilardan «Sizningcha siz yashayotgan hudud oilalaridagi shaxslararo munosabatlarda oilaviy zo'ravonlik mavjudmi yoki yo'q?» deb so'ralganda, sinaluvchi ayollar va erkaklarning javoblari quyidagicha bo'ldi. Natijalarga ko'ra, jami 289 nafar sinaluvchilardan 252 nafar, ya'ni 87,2 foizi yashash hududlaridagi oilalarda oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida oilaviy zo'ravonlik mavjudligini tasdiqlab «ha» javobini, 28 nafar (9,7 foiz) sinaluvchi esa rad etib «yo'q» javobini, 9 nafari (3,1 foizi) ikkilanib, «javob berishga qiynalaman» javobini berishgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. IPS ning 1-savoli yuzasidan respondentlar javobi (n=289)

«Sizningcha, kim ko'proq oiladagi shaxslararo munosabatlarda oilaviy zo'ravonlikka

uchraydi»? degan savol yuzasidan, sinaluvchilarning 0,35 foizi (1 nafari) “erkaklar”ni, 177 nafari (61,25 foizi) «ayollar»ni, 111 nafari (38,40 foizi) «bolalar»ni uy zo’ravonligiga uchrashi ehtimolligini ta’kidlashgan (2-jadvalga qarang).

Jadval-2.

IPS ning 2-savoli yuzasidan respondentlar javobi (n=289)

Sinaluvchi	Absolyut tanlov soni	Absolyut foizda
Erkaklar	1	0,35
Ayollar	177	61,25
Bolalar	111	38,40
Jami	**289**	**100,0**

Tadqiqotlarimiz natijalarining ko’rsatishicha, gender munosabatning asosiy sabablari oilada bir nechta determenantlar asosida yuzaga keladi. Shu bois sinaluvchilarning ijtimoiy tasavvurlarida oilada shaxslararo munosabatlarda gender tenglikning turi ko’proq sodir etilishi o’rganildi. Bugungi kunda «Sizningcha oiladagi yuzaga keladigan gender tengsizlikning asosiy sabablari – bu ...?» savoli bilan murojaat qilinganida 101 nafar (34,9 foiz) sinaluvchi «Oilada ayolning erkakdan ko’proq pul topishi, er-xotin o’rtasida o’zaro ishonchning yo’qligi, ishonchsizlik keltirib chiqaradi» javobini qayd etishgan. 41 nafar (14,2 foiz) sinaluvchi «oila a’zolaridan qaynona va qaynota haqoratlashi muntazam ruhiy zo’riqishni keltirib chiqaradi» deb hisoblaydi. Ayniqsa, er-xotin munosabatlariga uchinchi shaxsning, ya’ni qaynona va (yoki) qaynotaning muntazam aralashuvi natijasida (odatda bu o’zbek oilalarida kelinlarga nisbatan sodir etiladi), yangi muhitga hali moslashib ulgurmagan kelin psixikasida «shaxs nevrotikizatsiyasi» sodir bo’ladi. Bu holat kun sayin ortib borishi va oilaning bir a’zosiga nisbatan zo’ravonlikning turli shakllarini (iqtisodiy, ma’naviy, jismoniy va hatto jinsiy) birvarakayiga qo’llanilishi konfrontatsiyani kuchaytirib jabrlanuvchi xulq-atvorida “individual depressiyaning maksimallashuvini” keltirib chiqaradi.

Xulosa. «O’zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar ta’siridagi gender tenglikning ijtimoiy-etnopsixologik xususiyatlari» mavzu bo’yicha olib borilgan tadqiqot natijalari nazariy-amaliy jihatdan quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Oilaviy zo’ravonlik bilan bog’liq vaziyatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini tahlil qilish asosida oilaviy qadriyatlari va rollar ko’rsatkichlari bilan bog’liq bo’lishi mumkinligi dalillandi.
2. Oiladagi nosog’lom psixologik muhit oilaviy zo’ravonlikning yuzaga keltiruvchi omil bo’lib ta’sir qilishi xususan, zo’ravonlikning eng faol agressiyali xulq shakli sifatida namoyon bo’lishi asoslandi.
3. Oilada shaxslararo munosabatlar bilan bog’liq turli xil muammolarning paydo bo’lishi ushbu jarayondagi ziddiyatli holatlarga individual munosabat motivatsiyasining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Ziddiyatli holatdan chiqish motivatsiyasi ko’rsatkichlari o’rganilganda aksariyat holatlarda «bahs munozara» va «o’zini chetga olish» mezonlari xarakterli ekani ma’lum bo’ldi. Chunki oilaviy muhitda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni yechimi ko’p hollarda «bahs munozaraga kirishish» yoki «o’zini chetga olish» motivatsiyasiga asoslanadi.
4. Tadqiqot natijalari asosida ayollarda «bilvosita gender tengsizlik», «negativizm», «xafagarchilik», «verbal agressiya» omillari ustun bo’lsa, erkaklarda esa «jismoniy gender tengsizlik», «tajanglik», «shubhalanuvchanlik» hamda «aybdorlik hisi» omillari yuqori darajada ekanligi amaliy jihatdan asoslandi.
5. Shaxslararo munosabatlar ta’siridagi gender tenglikning namoyon bo’lishi profilaktikasi va ijtimoiy-psixologik reabilitatsiyasi ishini samarali tashkil etilishiga turli tizim mutaxassislari va aholining bilimlari sayoz ekanligi targ’ib etilmaganligi ma’lum bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Uktamova U.S. Oilaviy zo’ravonlikning kelib chiqish sabablari // https://ppmedu.jdpu.uz.
2. Saidov A.I. Oilada yoshlarning sog’lom turmush tarzi to’g’risidagi tasavvurlari

shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. 19.00.05 Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasi, 2022 y. - 230 b.

3. Tovbayeva M.S. Muammoli oilalarning gender munosabatlarida psixologik despotizm profilaktikasi. 19.00.05-Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha Psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi, 2022 y. - 135 b.

4. Fayziyeva M.X. Ommaviy axborot vositalari ta'sirida talabalarda ijtimoiy tasavvurlar shakllanishining o'ziga xosligi (televidenie misolida): Psixol. fan. nomz. dis.: 19.00.05.–T.: O'zMU, 2005.–140 b.

5. Shomurotova N.N. Oilaviy zo'ravonlikning ijtimoiy psixologik xatarlari // Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba // "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent, 2021. – 224-227-betlar.

Islamova Sayara Sadikovna
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

O'SPIRINLARDA MOTIVATSION VA IRODAVIY SIFATLAR RIVOJLANISHINING YETARLI EMASLIGI PROKRASTINATSIYA SHAKLLANISHIDAGI DETERMINANT OMIL SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'spirinlik davrida prokrastinatsiya holatining yuzaga kelish omillari psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Xususan, motivatsion pasayish va irodaviy sifatlar rivojlanishining yetarli darajada emasligi kabi ichki shaxsiy omillar ushbu holatning shakllanishida qanday o'rin tutayotgani tadqiq etiladi. Maqolada motivatsiya va irodaviy sifatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning o'smirning ta'limiy faoliyati va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri, shuningdek, prokrastinatsiyaning kelib chiqish mexanizmlari nazariy asoslar va zamonaviy ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shu bilan birga, ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan psixologik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ham taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *o'spirin, prokrastinatsiya, motivatsiya, irodaviy sifatlar, shaxsiy rivojlanish, psixologik omillar, ta'limiy faoliyat, ichki motivatsiya, iroda, kechiktirish muammosi.*

НЕДОСТАТОЧНОЕ РАЗВИТИЕ МОТИВАЦИОННО-ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У ПОДРОСТКОВ КАК ОПРЕДЕЛЯЮЩИЙ ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОКРАСТИНАЦИИ

Аннотация. *В статье анализируются факторы, способствующие возникновению прокрастинации в подростковом возрасте с психологической точки зрения. В частности, рассматривается роль внутренних личностных факторов, таких как снижение мотивации и недостаточное развитие силы воли, в формировании этого состояния. В статье на основе теоретических основ и современных научных источников рассматривается взаимосвязь мотивации и силы воли, их влияние на учебную активность и личностное развитие подростка, а также механизмы прокрастинации. При этом предлагаются также психологические подходы и практические рекомендации, направленные на устранение данной проблемы.*

Ключевые слова: *подросток, прокрастинация, мотивация, волевые качества, развитие личности, психологические факторы, учебная деятельность, внутренняя мотивация, воля, проблема прокрастинации*

INSUFFICIENT DEVELOPMENT OF MOTIVATIONAL-VOLITIONAL QUALITIES IN ADOLESCENTS AS A DETERMINING FACTOR IN THE FORMATION OF PROCRASTINATION

Annotation. *The article analyzes the factors that contribute to the emergence of procrastination in adolescence from a psychological point of view. In particular, the role of internal personal factors, such as decreased motivation and insufficient development of willpower, in the formation of this condition is considered. Based on theoretical foundations and modern scientific sources, the article examines the relationship between motivation and willpower, their impact on academic activity and personal development of a teenager, as well as the mechanisms of procrastination. At the same time, psychological approaches and practical recommendations aimed at eliminating this problem are also proposed.*

Key words: *teenager, procrastination, motivation, volitional qualities, personality development, psychological factors, educational activity, internal motivation, will, procrastination problem.*

Prokrastinatsiya va uning psixologik mohiyati haqida ma`lumot olishdan oldin, prokrastinatsiya (ingl. procrastination) - shaxsning o'ziga ma'lum va muhim vazifalarni bajarishni ongli ravishda

kechiktirishi bilan xarakterlanuvchi psixologik holatdir. Bu jarayon ko'pincha empatik to'lqinlanishlar, bezovtalik, aybdorlik hissi va ijtimoiy tanqiddan qo'rqish kabi asosiy omili bilan birgalikda kechadi.

Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, prokrastinatsiya ko'p hollarda motivatsion pasayish va irodaviy nazoratning yetishmasligi bilan bog'liq. Bu holat ayniqsa o'smirlar orasida ko'proq uchraydi, chunki ularda shaxsiy mas'uliyat, o'z-o'zini boshqarish va maqsadga intiluvchanlik kabi muhim psixologik mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan bo'ladi .

Motivatsiya darajasi va uning prokrastinatsiyaga ta'siri. Ilmiy manbaalarda qayd etilishicha, prokrastinatsiyaning motivatsiya bilan bog'liq tomoni, asosan, ichki va tashqi motivatsiya farqi orqali izohlanadi. Ichki motivatsiya yuqori bo'lgan shaxslar faoliyatni faqat natija uchun emas, balki jarayonning o'zi uchun ham amalga oshiradilar. Bu holat prokrastinatsiya xavfini kamaytiradi. Ammo tashqi motivatsiyaga asoslangan o'smirlar, ya'ni faqat mukofot, tan olish yoki jazodan qochish uchun harakat qiluvchilar, ko'proq kechiktirish holatlariga moyil bo'ladilar. O'smirlik davri (11–18 yoshlar oralig'i) — bu o'zlikni anglash, mustaqillikka intilish, psixologik barqarorlikni shakllantirish davridir. Bu davrda motivatsion tizim o'zgaradi, tashqi rag'batlar ichki rag'batlarga o'rin beradi. Aynan shu bosqichda prokrastinatsiyaga moyillik yuqori bo'lishi mumkin, chunki o'smirlar hali mustaqil qaror qabul qilish, o'z vaqtini samarali rejalashtirish ko'nikmasini to'liq shakllantirmagan bo'ladi.

Olimlar tomonidan o'tkazilgan keng qamrovli tadqiqotda motivatsion omillar va irodaviy mexanizmlar prokrastinatsiyaning asosiy prediktorlari sifatida ko'rsatilgan. Akademik va professional motivatsiyaning ichki turlari (masalan, o'z-o'zini rivojlantirishga va bilimga bo'lgan qiziqish) prokrastinatsiyani kamaytiradi, eksternal motivatsiya va amotivatsiya esa uni kuchaytiradi. Shuningdek, irodaviy komponentlardan "programmalash" va "modellash" kabi samoregulyativ funksiyalar past bo'lganda, ish faoliyati kechiktirilishi ehtimoli ortadi.

Rudnova N.A. (2019) tadqiqotlari natijalari shundan dalolat beradiki, ichki motivatsiya prokrastinatsiya bilan salbiy bog'liqlikka ega ($r = -0.206$, $p<0.05$), ya'ni uning o'sishi — prokrastinatsiyaning kamayishiga olib keladi. Boshqa tomondan, amotivatsiya esa uni kuchaytiradi ($r = 0.099$, $p<0.05$).

Irodaviy sifatlar va samoregulyatsiyaning ahamiyati. O'spirinlarda irodaviy sifatlar (maqsad qo'ya bilish, o'zini boshqara bilish, intizom, uzoq muddatli rejalash) endigina shakllanish bosqichida bo'ladi. Rudnova (2019) tadqiqotida samoregulyatsiyaning 'programmalash' va 'modellash' komponentlari prokrastinatsiya darajasiga sezilarli darajada teskari ta'sir ko'rsatishi aniqlangan:

- Programmalash: $\beta = -0.359$, $p<0.001$
- Modellash: $\beta = -0.195$, $p<0.001$

Bu shuni anglatadiki, o'smir o'z maqsadini aniq belgilay olmasligi, jarayonni oldindan ko'ra olmasligi va o'zini boshqarish qobiliyati past bo'lishi natijasida kechiktirish holatlari kelib chiqadi.

Prokrastinatsiya va akademik motivatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsiya

Akademik motivatsiya turi	Prokrastinatsiya bilan bog'liqlik (r)	Izohlar
Ichki motivatsiya (vnutrennyaya)	-0.206 ($p<0.05$)	Kamaygan holda — prokrastinatsiya pasayadi
Amotivatsiya	+0.099 ($p<0.05$)	Yuqori bo'lganda — prokrastinatsiya oshib boradi
Motivatsiya samouvajeniya	-0.144 ($p<0.05$)	Ishonch va shaxsiy qadriyat hissi ortishi bilan
Eksternal motivatsiya	+0.172 ($p<0.05$)	Tashqi ta'sirlarga bog'liq motivatsiya

Prokrastinatsiya va motivatsiya yetishmovchiligi. Agar insonda motivatsiya past bo'lsa, u holda u kerakli vazifani bajarmaslik yoki uni kechiktirishga moyil bo'ladi. Motivatsiyaning pastligi ishni boshlashga bo'lgan istaksizlikka olib kelishi mumkin, bu esa prokrastinatsiyaga sabab bo'ladi.

Prokrastinatsiya va iroda sustligi. Iroda kuchining yetarli bo'lmasligi, biror ishni boshlash yoki davom ettirishda qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi. Agar iroda zaif bo'lsa, inson o'zining yengil vazifalarni kechiktirishga yo'l qo'yishi mumkin, chunki u vaqtinchalik qulayliklarni izlab, noxush ishni ortga surishga moyil bo'ladi.

O’spirinlar o’ziga xos ruhiy-emotsional va motivatsion transformatsiya jarayonini boshdan kechirishadi. Shu davrda shaxsiy identifikatsiya, mustaqil qaror qabul qilish va irodaviy nazorat tizimi shakllanib boradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, aynan ushbu davrda motivatsiyaning ichki manbaalari yetarli darajada shakllanmaganligi, ichki intizomsizlik va samoregulyatsiyaning pastligi o’spirinlarda prokrastinatsiya xavfini oshiradi.

O’spirinlarda motivatsiya ko’pincha tashqi ta’sirlarga bog’liq bo’lib, mustaqil tanlov va ichki manfaatlarga asoslanmagan bo’ladi. Bunday holatda ular o’z vazifalarini kechikish bilan bajaradi yoki umuman bajarmaslikka moyil bo’ladilar. Bundan tashqari, irodaviy sifatlar yetishmasligi ularni bir qarordan boshqasiga tez o’tish, diqqatni saqlab turishda qiynalish, hamda emotsional bezovtalikka qarshi samarali bardosh ko’rsatmaslik kabi xususiyatlar bilan tavsiflaydi. O’smirlik davrida kuzatiladigan prokrastinatsiya holatlari faqat tashqi omillar natijasi sifatida emas, balki ichki psixologik zamin — ya’ni motivatsion tizimning susayishi va irodaviy funksiyalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bevosita bog’liq. Ayniqsa, hozirgi axborotga boy, lekin emotsional jihatdan beqaror muhitda ulg’ayayotgan o’smirlar ongida "ertaga qoldirish" oddiy harakat emas, balki muayyan psixik himoya mexanizmiga aylangan.

Yoshlar o’z oldilariga maqsad qo’yish, uni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonida ko’p hollarda ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, mustahkam ichki motivatsiya va irodaviy barqarorlik yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Ular tez-tez muvaffaqiyatsizlikdan cho’chiydi, o’ziga ishonchni yo’qotadi va natijada faoliyatni boshlashdan ham qochadi. Bu holat uzoq davom etsa, prokrastinatsiya nafaqat vaqtinchalik kechiktirish, balki shaxsiy taraqqiyotning stagnatsiyasiga (to’xtashiga) olib keluvchi psixologik muammo sifatida shakllanadi. Prokrastinatsiyani o’smirlar hayotidagi oddiy odat emas, balki ularning ichki dunyosi, psixik barqarorligi va motivatsion-irodaviy salohiyatining o’ziga xos aks ettiruvchisi sifatida baholash zarur. Bu muammoni bartaraf etish uchun esa faqatgina tashqi nazorat yoki jazodan ko’ra, o’smir shaxsida maqsadga yo’naltirilgan ongli motivatsiya va mustahkam iroda sifatlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur, deb hisoblayman. Motivatsion pasayish va irodaviy sifatlarning rivojlanmasligi o’smirni tashqi nazoratdan mustaqil faoliyatga o’tishda qiynaydi. Bu esa unga yuklatilgan mas’uliyatni orqaga surish, ya’ni prokrastinatsiyani odatga aylantirish ehtimolini oshiradi. U o’z faoliyatini kechiktirish orqali vaqtinchalik taskin topadi, ammo bu doimiy ravishda salbiy natijalar keltiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Prokrastinatsiya holatining yuzaga kelishida motivatsiya va irodaviy sifatlar muhim determinant omillar sifatida namoyon bo’ladi. O’spirinlar davrida motivatsion tizimning yetarli darajada shakllanmaganligi, irodaviy nazorat va samoregulyatsiya mexanizmlarining sustligi ushbu holatning shakllanishiga zamin yaratadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, ichki motivatsiyaning past darajada bo’lishi, eksternal ta’sirlar va amotivatsiya bilan bog’liq holatlar – prokrastinatsiya xavfini oshiradi. Shu bois, ushbu muammoni bartaraf etish uchun o’spirinlarda motivatsiyani ichki manbalariga asoslanib rivojlantirish, irodaviy sifatlarni mustahkamlashga qaratilgan psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish, hamda vaqtni boshqarish va faoliyatni rejalashtirish ko’nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Руднова Н.А. Индивидуально-личностные предикторы прокрастинации в разные периоды взрослости: автореф. дис. ... канд. психол. наук. — Пермь, 2019.

2. Steel, P. (2007). The nature of procrastination: A meta-analytic and theoretical review of quintessential self-regulatory failure. *Psychological Bulletin*, 133(1), 65–94.

3. Solomon, L.J., & Rothblum, E.D. (1984). Academic procrastination: Frequency and cognitive-behavioral correlates. *Journal of Counseling Psychology*, 31(4), 503–509.

4. Lay, C.H. (1986). At last, my research article on procrastination. *Journal of Research in Personality*, 20(4), 474–495.

5. Моросанова В.И. Саморегуляция произвольной активности человека: психологическая теория и проблемы обучения. — М.: Наука, 2012.

6. Карловская Н.А., Баранова А.А. Академическая прокрастинация: психологические детерминанты и последствия. // Вестник МГППУ. 2008. №3. С. 23–31.

7. Гордеева Т.О., Осин Е.Н., Сычев О.А. Мотивация учебной деятельности: диагностика и развитие. — М.: Смысл, 2014.

8. Абдуллаева Н.Р. Психология шахс ривожланишининг назарий асослари. — Т.: Фан, 2017.

9. Леонтьев Д.А. Психология смысла. Природа, строение и динамика смысловой реальности. — М.: Смысл, 2003.

Ismoilov Nortoji Kenjayevich
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

O`ZBEK OLIMLARI VA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA OILADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR MASALALARINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sharq mutafakkirlari va o`zbek olimlari tomonidan oilada shaxslararo munosabatlarning o`rganilishi hamda ular tomonida qoldirilgan asarlarda yosh avlodni oila va shaxsiy hayotga tayyorlashdagi ko`rsatma qonun qoidalari haqida fikr yuritilgan*

***Kalit so`zlar:*** *oila, sharq mutafakkirlari, nizo, shaxs, muhit, tarbiya, munosabat, qonun, ijtimoiy muhit, ma`naviyat, kasb, bilim, mafkura, din, qadriyat.*

ИЗУЧЕНИЕ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ В ТРУДАХ УЗБЕКСКИХ УЧЕНЫХ И МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются исследования межличностных отношений в семье восточными мыслителями и узбекскими учеными и правовые нормы подготовки молодого поколения к семейной и личной жизни в оставленных ими трудах.*

Ключевые слова: *семья, восточные мыслители, конфликт, личность, среда, воспитание, отношение, право, социальная среда, духовность, профессия, знание, идеология, религия, ценность.*

STUDY OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY IN THE WORKS OF UZBEKISTAN SCIENTISTS AND EASTERN THINKERS

Annotation. *In this article, the study of interpersonal relations in the family by eastern thinkers and Uzbek scientists and the rules of the law for preparing the young generation for family and personal life in the works left by them are discussed.*

Key words: *family, eastern thinkers, conflict, personality, environment, upbringing, attitude, law, social environment, spirituality, profession, knowledge, ideology, religion, value.*

Kirish. Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Bu borada oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onalarda farzandlar oldidagi, farzandlarda ota-ona va jamiyat oldidagi, burch va mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir, - degan edi mamlakatimiz birinchi Prezidenti, chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir", degan fikrlarni ilgari surib yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda oilaning o`rni har tomonlama beqiyos ekanligini ta`kidlaganlar.

Milliy qadriyatlarimiz, jumladan, oilaviy munosabatlarga oid fikrlar buyuk allomalar va tarixiy-ma'naviy merosimiz bo'lmish - Avesto mafkurasida, O'rxun-Enasoy bitiklarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayxon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari», Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarida, Boburiylar davri va Akbarshoxlarning ijtimoiy-pedagogik tajribasi bayon etilgan kitoblarda, jadidchilarning mafkuraviy tarbiyaga oid asarlarida aks ettirilgai. Buyuk mutafakkirlarimiz bo'lmish Axmad al-Farg'oniy, Maxmud az-Zamaxshariy, Abu Nasr Forobiy, Abu Bakr Muxammad ibn al-Abbos al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Imom G'azzoliylar sog'lom oilaviy munosabatlar muhitida tarbiyalanadigan farzand xislatlariga, bunda milliy qadriyatlarning o'rniga alohida e'tibor qaratganlar. Fikrimizcha, o'sha davrlarda ham

turli xil yurishlar, urushlar va qatag'onchilik qonunlariga ko'ra hamma oila ham to'liq bo'lmagan, onasi yoki otasi qazo qilgan yoki vaziyat taqozosi bilan noto'liq bo'lib qolgan oila muammosi jamiyatning eng ilg'or vakillarini qiziqtirganki, shu bois, ular ko'proq o'z asarlarida yaxshi ma'naviy jihatdan mustahkam oila va undagi munosabatlarga e'tibor qaratganlar.

Sharq mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shu bo'lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e'tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlar – halollik, poklik, mardlik, mehribonlik, haqgo'ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifatlardan yuqori qo'yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda nomoyon bo'lgan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bolaga o'tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko'rsatmalarni o'z falsafiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

Nikoh-oila munosabatlari mavjud diniy va dunyoviy adabiyotlarda o'rganilishi bilan bir qatorda, ibtidoiy e'tiqodlar va diniy tasavvurlarda o'ziga xos ravishda nikoh-oila munosabatlarining tasvirlanishi va qonun-qoidalar asosida belgilab qo'yilganligini bilamiz. Shunday diniy tasavvurlardan biri mil.av. II ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoda shakllanganligi taxmin qilinadigan Zardushtiylikning asosiy kitobi Avestoda ham nikoh-oila munosabatlari e'tibordan chetda qolmagan. Bu diniy e'tiqod mil. av. II ming yillik birinchi yarmida O'rta Osiyoda shakllangan bo'lib, dastlabki yakkaxudolikka asoslangan diniy tasavvurlardan biri hisoblanadi. Unda ayolga munosabat, ayolning roli, vazifalari, nikoh qurish yosh davrlari belgilangan. Bu diniy tasavvurda nafaqat ayollarga balki, insonlarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini, shaxslararo muloqotni o'ziga xos shakllarini, qonun-qoidalarini, tartiblarini ishlab chiqilganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida oila, ota-ona va farzand munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy asoslar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 63, 64, 65, 66-moddalari oila, ota-ona, farzandlar munosabatlariga bag'ishlangan. Jumladan, 63-moddasida: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi", deyilgan bo'lsa, 64-moddasida: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar" deb belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, Respublikamizda "Oila" ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi hamda hukumat tomonidan "Oila kodeksi"ning (1998) qabul qilinishi, shuningdek, Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan yillarning "Oila yili" (1998), "Mustahkam oila yili" (2012) deb nomlanganligi ham bugungi kunda oilalarning mustahkam va barqarorligini saqlash uchun qilinayotgan muhim amaliy ishlardan hisoblanadi.

Inson bolasi dunyoga kelar ekan, u mustaqil harakatlanish, yurish, o'qish, yozishdan boshlab tabiat va jamiyatning barcha murakkab qonunlari bilan yuzma-yuz kelganda nimalar qilish kerakligiga o'rgatiladi yoki bunga maxsus o'qitiladi. Ma'lumki, hayotimizning yarmidan ko'pini qamrab oladigan, chinakam, to'laqonli insoniy baxtni in'om etadigan yoki aksincha, har tomonlama ta'minlanganligimizga qaramasdan, bizning baxtimizni yarimta qiladigan ham oilaviy hayotdir. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Ko'rinib turibdiki, oilaviy hayot masalalari hozirgi davr fani tadqiqot yo'nalishining ustuvor sohalaridan biriga aylanib bormoqda.

Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar masalalari buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo'lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgandir. Shuningdek, mazkur masala sharqning buyuk allomalari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin Ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalar tomonidan ham keng o'rganilgan bo'lib, ularning asarlarida markaziy osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi

o’zaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud.

Oilaviy qadriyatlarda shaxsning shakllanishida milliy-psixologik o’ziga xoslik va umuminsoniy qadriyatlarning yagonaligini belgilovchi umumilmiy metodologiyadan: psixik hodisalarni tadqiq etishga kompleks yondashish (B.G.Ananyev), funksional tizimlar konsepsiyasi (P.K.Anoxin), determinizm tamoyili (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev), tizimli yondashish (B.F.Lomov) xizmat qildi. Shuningdek, izlanishda sharq mutafakkirlari, mamlakatimiz, uzoq va yaqin xorij psixologlarining oilaviy turmush, er-xotin munosabatlari va inson kamoloti to’g’risidagi qarashlari, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ma’ruzalarida ilgari surilgan oilaviy turmush va undagi muammolarni hal qilishga qaratilgan g’oyalariga asoslanib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda ilmiy tadqiqot natijalarida va ularga asoslangan ilmiy tavsiya va xulosalardan yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, notinch oilalarga psixologik maslahatlar berishda, viloyatda tashkil etilgan "Oila" markazlarining faoliyatlarida, hokimiyat va mahallalarning bevosita oila va oilaviy munosabatlar masalalari bilan shug’ullanadigan mutasaddi xodimlarining faoliyatida, oliy o’quv yurtlari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji talabalari va umumta’lim maktablarining yuqori sinflariga mo’ljallangan "Oila psixologiyasi" kursi mashg’ulotlarida, "Odobnoma", "Ma’naviyat asoslari" darslarida, mazkur fanlar uchun tegishli o’quv-uslubiy qo’llanmalar va dasturlar yaratishda samarali foydalanish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati.

1 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to’g’risidagi PF-60-sonli Farmoni.

2 Грановская П.М. Елементы, практишеской психологии Р.М.Грановская. – Л.: Изд. ЛГУ 1995

3 Drujinin V.N. Oila psixologiyasi. -M.: "KSP", 1996 yil.

4 Psixologik maslahatdagi oila: Psixologik maslahat tajribasi va muammolari Ed. A.A. Bodaleva, V.V. Stolin. – M.: Pedagogika, 1989 yil.

5 Sinyagina N.Yu. Ota-onalar va bolalar o’rtasidagi munosabatlarni psixologik va pedagogik tuzatish. - M .: Insonparvarlik. ed. VLADOS markazi, 2003 yil.

Karimjonova Madinabonu Rahmatilla qizi
Farg'ona davlat universiteti psixologiya yo'nalishi talabasi

BOG'CHA YOSHIDAGI BOLALAR NUTQ FAOLIYATI VA UNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq taraqqiyotiga qo'yiladigan talablar va uning o 'ziga xos xususiyatlari yoritilgan, bolaning kattalarni og'zaki nutqini tushuna olishini o'rganishga, unda fonematik nutqning shakllanganlik darajasi, so'zlarning mohiyatini tushuna olishi, grammatik tuzilish xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *nutq, shaxslararo munosabatlar, go'daklik, ilk bolalik, noverbal, verbal, imperissiv.*

РЕЧЕВАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА И ЕЕ ХАРАКТЕРИСТИКА

Аннотаацииа. *В статье рассматриваются требования к речевому развитию детей дошкольного возраста и его особенности, анализируются исследования, проведенные с целью изучения способности ребенка понимать устную речь взрослых, в том числе уровень сформированности фонематической речи, способность понимать суть слов, особенности грамматического строя*

Ключевые слова: *Речь, межличностные отношения, младенчество, раннее детство, невербальный, вербальный, императивный.*

SPEECH ACTIVITY OF KINDERGARTEN CHILDREN AND ITS CHARACTERISTICS

Abstract. *This article discusses the requirements for the speech development of preschool children and its specific features, analyzes studies conducted to study a child's ability to understand the oral speech of adults, including the level of formation of phonemic speech, the ability to understand the essence of words, and the features of grammatical structure*

Keywords: *Speech, interpersonal relationships, infancy, early childhood, nonverbal, verbal, imperative*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish uchun beriladigan ta'lim-tarbiya mazmuni o'zida quyidagi uch yo'nalishlarni mujassamlashtiradi: nutqning rivojlanganligi, so'z boyligi, ilk matematik tasavvurlar hamda tabiatga oid bilimlar. Nutqining rivojlanganligi, so'z boyligiga oid belgilangan talablarga erishish bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirib borish, ularga ertak va hikoyalar aytib yoki o'qib berish, she'rlarni yod oldirish, fikriy mushohada qilishga o'rgatish, ta'limiy o'yinlar vositasida tafakkurni peshlash kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Tevarak-atrofdagi narsa va hayotda yuz beradigan hodisalar bola nutqi va tafakkuri mazmunining asosini tashkil qiladi. Bola atrofda sodir bo'lgan hodisalar bilan tanishish jarayonida zarur bilimlarni egallash bilan bir vaqtda, ularning nomi, vazifasi, xususiyatlarini bildiruvchi so'zlarni o'zlashtirib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan talablarda ko'rsatilib o'tilishicha nutqining rivojlanganlik darajasiga qo'yidagicha minimal talablar qo'yiladi;

- ***Nutqining rivojlanganligi va so'z boyligiga oid:***
- tovush, so'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz etish;
- 3000 tadan ortiq so'zni tushunish va bilish;
- rasmga qarab gap tuzish;
- ertak va hikoyani tinglash, mazmunini tushunish;
- eshitgan kichik ertak va hikoyani qayta so'zlab berish;

- ifodali nutqga ega bo'lish;
- tevarak-atrof, tabiat manzarasi haqida qisqacha so'zlab berish;
- turli mavzudagi, kichik hajmdagi 6 ta she'rni yoddan aytish;
- ota-ona, tarbiyachi tavsiyasi bilan hayotiy mavzular buyicha qisqacha hikoya tuzish;
- kattalar va o'rtoqlari bilan suhbatda faol ishtirok etish;
- kattalar va o'rtoqlari bilan gaplashish madaniyatiga ega bo'lish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan talablarda ilk yoshdagi *bolalar nutqining rivojlanganlik darajasiga quyidagi talabalr belgilib berilgan:*

Tevarak-atrof bilan tanishtirish asosida bolalarning nutqini o'stirish. Bu yosh davrda bolani tushunish nutqini, ya'ni tanish odamlarning nomi, har xil narsalar va buyumlar, harakatlarning atal-ishini bildirish. Bir yarim yoshga yetgach, ularning talaffuz qiladigan so'zlarini 30-40 tagacha yet-kazish. Bola ikki yoshga qadam qo'yganda unda quyidagi faoliyat turlarini: gapirish, yurish hamda buyumlar bilan mustaqil shug'ullana olishni rivojlantirish. Bola ikki yoshga yetganda uning lug'at boyligi miqdorini 200 so'zgacha yetkazish. Ularning nutqini ko'plikni, buyruqni, harakat bajarilgan zamonni ifodalovchi shakllarni faol qo'llanishiga erishish.

Ikki yoshgacha bo'lgan davrda o'zining hamda yaqin kishilarining ismini bilishi, kiyim-kechak idish-tovoqlarning nomini ayta olishi, atrofidagi hayvon va o'simliklarning nomini bilishi, harakat yo'nalishlari (oldi, orqa) ni farqlay olishiga erishish.

O'zining hamda hayvon, o'yinchoqlar tanasining ayrim qismlari (qo'l-oyoqlar, bosh, og'zi, ko'z, burun, quloq)ni farklay va atay olishga o'rgatish.

Bolalarning kattalar bilan muloqotda bo'lishida imo-ishoradan bevosita so'zlashga (so'zlar va tovush birikmalari vositasida murojaat qilishga) undash. Kattalarning nutqiga quloq sola bilishga, oddiy savollarga javob qaytarishga, oson topshiriqlarni bajarishga odatlantirish. "Mumkin emas", "mayli" degan so'zlarning ma'nosini tushunishga va ularga to'g'ri amal qilishga o'rgatish.

Tevarak-atrofdagi kishilarni (ularning yoshi va jinsiga muvofiq ravishda) anglatadigan so'zlar (qiz bola, o'g'il bola, xola, amma, tog'a, amaki, buvi, buva), uyda va uydan tashqarida (bog'da, hovlida, ko'chada) bo'ladigan hodisalarni anglatuvchi so'zlar, ba'zi bir hayvonlar va o'simliklarni, ularning qismlari va xususiyatlarini anglatuvchi so'zlar zahirasini kengaytirib borish.

Qisqa, oddiy hikoya**,** she'r va ertaklarni tinglashga va tushunishga o'rgatish. Xalq og'zaki ijodi namunalari — ertaklarni va kuylarni tinglashga odatlantirish, suratda tasvirlangan o'yinchoq shaklidagi buyumlarni tanish va ularning nomini to'g'ri aytishga o'rgatish.

Bolalarning katta yoshdagi kishilar talaffuz qilgan so'z va iboralarga taqlid qilib, bu so'z va iboralarni takrorlashga o'rgatish. Ashula, ertak va she'rlarni eshitib, ulardagi ayrim ohanglarni kuylashga, ayrim so'zlarni takrorlashga odatlantirish.

Istak xohishni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlardan va tevarak-atrofdagi kishilar bilan munosabatda bo'lishni bildiruvchi so'zlar (xohlayman, menga ber, qo'yib yubor, nari suril kabilar)ni to'g'ri aytishga o'rgatish (1.62).

Bola ikki-uch yoshdan oshganda unda quyidagi xususiyatlarni tarkib toptirishga ko'maklashish: ish harakatni mustaqil tarzda bajarishlariga imkoniyat yaratish; ularda ko'rgazmali tafakkurni o'stirish, tevarak-atrofni bilish asosida nutqiy muhokamaning dastlabki elementlarini shakllantirish; o'zaro muloqotning yangi shakllariga kirishishni ta'minlash. Tevarak-atrofdagi buyumlarni farqlashga va ularning nomi, rangi, shaklini atashga o'rgatish.

Bolani tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalar bilan tanishtirish, uni ba'zi bir harakatatlarga o'rgatish, nutqni tushunish faoliyatini rivojlantirish.

Bolaning atrofidagilar bilan muomalada bo'lish vositasi sifatidagi nutqini tarkib toptirish. Kattalarning nutqiga taqlid qilish qobiliyatini o'stirish, lug'at boyligini kengaytirish, oddiy gaplarni to'g'ri tuzishga o'rgatish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga erishish.

Turli o'yin va mashg'ulotlar jarayonida bolalarni yangi-yangi so'zlar bilan tanishtirib, ularning ma'nosini anglata borish.

Multfilmlar ko'rsatish, rasmli kitoblar bilan tanishtirish jarayonida ularning tasavvurini va so'z boyligini kengaytirish.

Tez-tez eshitib turishadigan tovush birikmalari va so'zlarga taqlid qila bilishni tarbiyalash.

Ajablanish, shodlik norozilik hafalik kabi holatlarni ifodalovchi nutq vositalarini o'rgatish.

Bolalarni kattalarning gapiga diqqat bilan quloq solishga, o'zini qanday tutish to'g'risidagi ko'rsatmalarni (bunday qilsang bo'ladi, bunday qilish yaramaydi, shunday qilish kerak) bajarishga, boshqa bolalar bilan o'zaro munosabatdagi xatti-harakatga oid (halaqit berma, yordamlash, sal nari suril, o'yinchoqni berib tur kabi muomalalarga oid) ko'rsatmalarni bajarishga o'rgatish.

Bolalarni ba'zi bir (men, biz, sen, menga kabi) olmoshlarni to'g'ri qo'llashga, ravishlarni, sifat so'zlarni o'z o'rnida ishlatishga o'rgatish. Ona tilining grammatikasi xususiyatlariga muvofiq ravishda oddiy gaplar tuzishga o'rgatish.

Bolalarni kattalarga va boshqa bolalarga turli munosabatlar bilan murojaat qilishga undash, savollar bera bilishga, o'zining istaklarini ifodalay bilishga, ko'rgan bilganlari shaklda so'zlab berishga o'rgatish.

Tevarak-atrof bilan tanishtirish asosida bolalarning nutqini o'stirish uchun quyidagi mashg'ulotlar tavsiya qilinadi: tirik jonivorlarni, transport harakatini kuzatish; o'yinchoq buyumlarni ko'rsatish va ular nomini atash, buyumlarni harakatda ko'rsatish, o'yinchoqlarni yashirish va qidirib topish; suratlarni ko'zdan kechirish, tasvirlangan narsalarni tanib topish; tanish narsalar haqida hikoya qildirish; she'r, hikoya va ertaklarni o'qib berish.

Tabiat bilan tanishtirish. quyosh va oy haqida tasavvur hosil qilish. Bolalarni ko'rgan, his qilgan narsa va hodisalar nomini atashga undash.

Bolalarni uy hayvonlari nomini atashga, ularni tovushiga taqlid qilishga o'rgatish. Bolalar bilan birgalikda hayvonlarni kuzatish jarayonida, bolalarni hayvonlar gavdasining asosiy qismlariga, ba'zi bir o'ziga xos alomatlariga, harakatiga diqqatlarini jalb qilish. hayvonlarni parvarish qilish haqida tasavvur uyg'otish.

Bolalarni daraxt, gul, o't-ulanlarni farq qilishga o'rgatish. Ularning diqqatini xonada o'stiriladigan gullarning chiroyiga jalb qilish, ularni sug'orib turish zarurligini tushuntirish. Nomlari tanish bo'lgan sabzavot va mevalarni farqlashga o'rgatish. O'simliklarni ehtiyot qilishga odatlantirish.

Bolaning 3-4 yoshida ularni atrofidagi narsalar bilan tanishtirish hamda ularning nomlarini aytishga o'rgatish. Buyumlar, voqea-hodisalar, qarindosh-urug'lar va boshqa kishilarning nomi o'rgatilganda har bir so'z ota-ona yoki tarbiyachi tomonidan izohlanishi lozim. Shu asosda tevarak-atrofdagi buyumlar va kishilar orasidagi aloqadorlikni anglatishga imkon yaratiladi. Chunonchi, hovlidagi daraxt, gul va boshqa turli buyumlarning nomlarini, o'zi hamda oila a'zolarining ismini to'g'ri aytishga, qarindosh-urug'chilikni ifodalovchi so'zlar(buva, buvi, tog'a, amaki, xola, amma kabilar), xonadondagi buyumlar (televizor, radio, magnitafon, stol, stul, kursi, xontaxta, choynak piyola kabilar), kiyimlar (ko'ylak chopon, do'ppi, tufli)ning nomlarini to'g'ri aytishga o'rgatish.

Gullaydigan o'simliklar (lola atirgul, olma, o'rik kabilar) bilan tanishtirish, ularning nomi va rangini to'g'ri aytishga va ularni bir- biridan farqlashga o'rgatish. Bolalar e'tiborini ularning go'zal-ligiga, hidiga qaratish.

6-7 yoshda O'zbekiston haqida tasavvur hosil qilish. Bolalarning shuuriga Vatan tuyg'usini singdirish, ularda xalq, millat, yurt haqida tasavvur uyg'otish. O'zbekistonning mustaqillikka erishganligi, 1 sentyabr mustaqillik bayrami ekanligi haqida, mustaqil davlatimiz gerbi, bayrog'i va madhiyasi haqida umumiy tasavvur hosil qilish va buni kattalarni nutq orqali izohlarini tushuna olish. Madhiyani ijro etishga o'rgatish. Bolalarga bayramlarning tarixi, ularning nishonlanishi haqida ma'lumot berish. Bu bayramlar haqida she'r va qo'shiqlarni yodlash.

Sarkardalar haqidagi asarlarni o'qib berish, ularning hayoti va faoliyatini aks ettirgan rasmlarni ko'rsatish, she'rlar yodlash.

Bolalarning so'z boyligini oshirish(3 mingtaga yetkazish). Bolalar lug'atidagi so'zlarni faol-lashtirish, qisqa-qisqa qiziqarli savollar berib, ko'proq gapirtirishga undash. Jumladan, bolalarga "Qaysi sarkardalarni bilasiz?", "Ular qanday jang qilishgan?" kabi savollar bilan murojaat qilish.

Bolalarda nutqining grammatik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash. Bolalarning nutq tovushlarini o'zaro bir-biridan farqlagan holda to'g'ri talaffuz etishlarini ta'minlash.

Bolalarda so'zlardagi har bir nutq tovushini alohida va boshqa tovushlar bilan birgalikda talaf-fuz qila olish malakasini rivojlantirish. So'zda tovushlar ketma- ketligini farqlah, tovushlardan

bo'g'inlar, so'zlar tuzishga o'rgatish. Bosma ko'rinishdagi harflar bilan tanishtirish. Kesma harflar yordamida nutq tovushi bilan harfning farq va umumiy tomonlarini o'rganish. 10 gacha tartib bo'yicha sanog'ini mustahkamlash. "Nechta", "Nechanchi" kabi savollarga to'g'ri javob berishga o'rgatish.

Bolalarda tevarak-olam va tabiat hodisalari haqida ma'lumot berish. Yorug'lik elektr va issiqlik hodisalari (Quyosh yoritadi va isitadi, elektr chiroq yonadi, elektr dazmol isiydi kabilar), magnit (magnitlarning o'zaro tortishishi, temirlarni o'ziga tortishi), tovush (buyumlarni bir-biriga o'rganda tovush chiqishi, hayvonlarning tovushi va insonlarning nutq tovushi orasidagi farq) haqida dastlabki ma'lumotlarni berish. Bolaning psixik taraqqiyotida har bir davrning o'ziga xos xususiyatga ega. Bolaning umumiy taraqqiyotida boshqalar nutqini tushunish, ifodalay olish va bu asosda muloqot qila olish malakalarini shakllanib borishi muhim ahamiyatga ega. Har bir yosh davrida bola nutqini taraqqiyotigi o'ziga xos talablar qo'yiladiki, buni maxsus reja asosida, kattalar tomonidan muntazam rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir.(1.133)

Biz bog'cha yoshidagi bolalarning nutq faoliyati va uninig o'zigan xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani 32- sonli MTTda tarbiyalanayotgan 3,4,5 yoshli bolalarning har bir yosh davridan 15 nafardan bolalar qatnashdilar. L.I. Vansovskaya tomonidan ishlab chiqilgan "Imperissiv nutqni o'rganish" metodikasinidan foydalanib o'rgandik.

Ushbu metodikada bolaning kattalarni og'zaki nutqini tushuna olishini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda fonematik nutqning shakllanganlik darajasi, so'zlarning mohiyatini tushuna olishi, grammatik tuzilish xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Ushbu topshiriqlarni 3,4,5 yoshli bolalarda o'tkazildi va tahlil qilindi. Har bir testda bolalarga berilgan ko'rsatmalarni qaytarilishi, qilingan xatolar hisobga olindi. 3 yoshli bolalarda imperissiv nutqini o'rganish bo'yicha olingan natijalar ko'rsatkichi quyidagicha:

3 yoshli bolalar bilan olib borilgan tadqiqotlar davomida ularda faol nutqdan avval kattalar nutqini tushunish yuzaga kelishini kuzatdik. Savollarga javob olish uchun savolni yoki ko'rsatmani ko'p hollarda bir necha bor, ba'zi hollarda sekin-asta dona-dona qilib gapirishga to'g'ri keldi. Bolalarning bu yosh davrida javoblari ko'p hollarda imo-ishoralar bilan tasdiqlash yoki rad etishni bildirdilar. "Ha"so'zini boshni oldinga qarab egish, "Yo'q" so'zini boshni ikki tomonga silkitish kabi. Shu bilan birga predmetlarni ko'rsatish talab etilganda ko'rsatkich barmog'i bilan ko'rsatib qo'ya qoldi yoki "Ana" iborasi bilan ko'rsatdi. Bola savollarga to'g'ri javob bersada deyarli jumlalarni qisqa yoki bir so'z bilan ifodaladilar. Ko'pincha otdan foydalandilar. Masalan; bola stulda o'tirgan va stulda gul turgan tasvirini ko'rsatilgandan so'ng "Bunda nima chizilgan" degan savolga ayrim bolalar javob bermasalar, ayrimlari "Aka", "Bola" yoki, "Gul" , "Nonushtada nima yeding?" degan savolga oddiygina qilib "Ovqat" deb javoblarni berdiki, bu bolaning idroki bilan bog'liq bo'lib ko'p hollarda tasvirda bola yaqqol, yorqin ifodalangan bir tasvirni ilg'ab oladi va bu xususiyat bolalaning nutq jarayonida ham o'z ifodasini topadi. Bolalarni topshiriqni bajarishlari uchun boshqa yosh davridagilarga nisbadan ko'proq vaqt sarf qilindi. Javoblarda murakkab buyum yoki hodisa haqida so'ralganda xatolar ham bo'lib turdi. Eksperiment davomida bolalarning diqqatini chalg'ishi, topshiriqni bajarishni rad etishi, ko'rsatmalarni takrorlanishi kuzatildi. Bu davrda bola o'z nutqida ifodalashlaridan ko'ra kattalarni yaxshiroq tushunishlari namoyon bo'ldi. Bola kattalar nutqini tushunsada ba'zida unga javobni o'z nutqlarida ifodalab bera olmaydilar. Bola o'zi eshitgan, ko'rgan, bilgan narsa va hodisalarni tushuna olishlari va o'z nutqlarida ifodalashlari yoki ko'rsatib berishlari bolaning nutq uning tafakkur jarayoni bilan bog'liq holda taraqqiy etishini ko'rsatib berdi.

4 yoshli bolalarda imperissiv nutqini o'rganish bo'yicha olingan natijalar ko'rsatkichi qo'yidagicha:

4 yoshli bolalarda imperissiv nutqni o'rganish bo'yicha 1- test bo'yicha 82 ball (o'rtcha arifmetik qiymati 5,4ni ko'rsatdi), 2- test bo'yicha 48 ball (o'rtcha arifmetik qiymati 3,2ni ko'rsatdi) , 3- test bo'yicha 83ball (o'rtcha arifmetik qiymati 5,5ni ko'rsatdi) 4- test bo'yicha 21 ball (o'rtcha arifmetik qiymati 1,4ni ko'rsatdi) to'pladilar. Umumiy ball 234 ni ko'rsatdi (o'rtcha arifmetik qiymati 15,6ni ko'rsatdi). Bu davrga kelib bolalar deyarli barcha holatlarda kattalarning oddiy ko'rsatmalarini tez ilg'ab olishlari, uni tushunishlari va bajarishlari namoyon bo'ldi. Biroz murakkabroq ko'rsatmalarni bir necha bor takrorlashga to'g'ri keldi. Masalan ; bugun ob- havo qanday ekanligini so'ralganda avvalgi davrdagi kabi bir necha bor savolni qaytarish va tushuntirishga

to'g'ri keldi. Ayrim bolalarda javoblar berishda noverbal harakatlar bilan kifoyalandilar. Bolalar bu davrga kelib nutqida faollik kuzatildi. Ular tasvirlarni izohlashga harakat qildilar. "Meni oyi shunaqasini olib kelganlar", "Meni akamni shunaqa koptoklari bor", "Biz ham o'ynaymiz" kabi. Ayrim hollarda bolalar vaziyatga bog'liq savollar bilan ham murojaat qildilar. Bu davrga kelib bolalarning kattalar nutqini tushunishi va shaxsiy faol nutqni shakllanishi ancha taraqqiy etib , nutqini boshqa kishilar bilan muloqotda amaliy qo'llay boshlashlari yuzaga keladi. Bola predmetlarni ko'rsatish so'ralganda ancha jadallik namoyon bo'ldi. Predmetlarni aniqroq ko'rsata oldilar. Ayrimlari uni ayrim belgilari, uni nma uchun ishlatilishini keng jumlalar bilan bo'lmasada izohlashga harakat qildilar. "Unda ovqat yeyman", "bizda kattasi bor" kabi. Demak, bolaning nutqi tafakkur qilish quroliga aylana boradi.

5 yoshli bolalarda imperissiv nutqini o'rganish o'rganish bo'yicha olingan natijalar ko'rsatkichi qo'yidagicha:

5 yoshli bolalarda imperissiv nutqni o'rganish bo'yicha 1- test bo'yicha 87 ball (o'rtcha arifmetik qiymati 5,8ni ko'rsatdi), 2- test bo'yicha 58 ball (o'rtcha arifmetik qiymati 3,8ni ko'rsatdi) , 3-test bo'yicha 90 ball (o'rtcha arifmetik qiymati 6ni ko'rsatdi) 4- test bo'yicha 27 ball (o'rtcha arifmetik qiymati 1,8ni ko'rsatdi) to'pladilar. Umumiy ball 234 ni ko'rsatdi (o'rtcha arifmetik qiymati 17,4ni ko'rsatdi). Bu davrga kelib tadqiqot davomida bolalar kattalarning nutqini tez tushunib, tez ilg'ab olishlari yaqqol ko'zga tashlandi. Savollarga javob berishda kengroq izohlashga harakat qildilar. Masalan; bugun nonushtada nima yeganligi so'ralganda nimalar yeganligi (bir necha ozuqalar sanab o'tildi),uni kim olib kelganligi. Kim pishirganligi, nimani yaxshi ko'rishi yoki nimani yeyishni xohlamasligini ham gapirishga harakat qildi. Javoblari faqtgina otlardan iborat bo'lmay, endi bola ish-harakatlarni ham ifodalashga harakat qildilar. Tasvirni tez topdilar va unda nima tasvirlanganligini ifodalab berdilar. Bola kattalar nutqini tushunishi va shaxsiy faol nutqida sifat jihatdan o'zgarish yaqqol ko'zga tashlandi. Bola o'z nutqini ifodalash, boshqa kishilar bilan muloqotda amaliy qo'llay olishi malakalari ancha rivojlanganligi namoyon bo'ldi. Bu bolani tevarak-atrofni to'laroq anglashlari, ular haqida fikr yuritishlari, munosabatlarini ifodalashlarida keskin o'zgarish yuzaga kelganligida namoyon bo'ldi. Demak, bolaning nutqi psixik taraqqiyotini qayta qurishi asosini tashkil etadi va tafakkur qilish quroliga aylanadi.

Tadqiqotlarimiz natijasida shunday xulosaga kelish mumkin:

Maktabgacha yosh davrida bolaning kattalar nutqini tushunishi va shaxsiy faol nutqni shakllanishi hamda, bog'cha yoshiga esa bola nutqini boshqa kishilar bilan muloqotda amaliy qo'llay olishi, nutq bolaning psixik taraqqiyotini qayta qurishi asosini tashkil etadi va tafakkur qilish quroliga aylanadi.

Bog'cha yoshida bolaning nutq faoliyatining taraqqiyoti: bolaning kattalar nutqini tushunishi va shaxsiy faol nutqni shakllanishi va bola nutqini boshqa kishilar bilan muloqotda amaliy qo'llay olishi, bolaning nutqi psixik taraqqiyotini qayta qurishi asosini tashkil etishi va tafakkur qilish quroliga aylanishi o'ziga xos xususiyatga ega.

Bog'cha yoshida bolaning nutq faoliyati yoshga bog'liq holda taraqqiy etib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Uchinchi ming yillikning bolasi. Tayanch dasturi. (meyoriy hujjat). R.X. Jo'rayeva tahriri otida. —Toshkent.: 2000 yil. —158 b.

2. Практикум по возрастной психологии. Учебное пособие под. ред Л.А. Головей, Е.Ф. Рыбалко. СПб: —Москва.Речь, 2002, —694 стр.

3. Qodirova F.R, Qodirova R. M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi o'stirish metodikasi. —Toshkent. —2006

4. Rasulova M, G'ulomova I, Jahongirov G', Yusupova P, Abdurahmonova Z. Nutq o'stirish. Tevarak-atrof bilan tanishtirish va badiy adabiyot. Bolalar bog'chalari uchun dastur. –Toshkent. — 1995.

5. G 'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. —Toshkent.:Noshir. 2010. —360.

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

INFORMATIKA YO'NALISHIDAGI BO'LAJAK PEDAGOGLARDA IJTIMOIY FAOLLIK VA TASHKILOTCHILIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada informatika yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy faollik va tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari tahlil etiladi. Shaxsiy faollik, liderlik, tashabbuskorlik, jamoaviy mas'uliyat va muloqot madaniyatini shakllantirishda ta'lim muhitining ta'siri va interfaol metodlarning o'rni yoritiladi. Ushbu maqolada ilg'or xorijiy va milliy tajribalarga asoslanib, ijtimoiy faollikni oshirishga qaratilgan samarali usullar taklif qilinadi.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak informatika o'qituvchilari, ijtimoiy faollik, tashkilotchilik qobiliyati, liderlik, pedagogik tayyorgarlik, kasbiy kompetensiya, interfaol metod, motivatsiya.*

ПУТИ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И ОРГАНИЗАТОРСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В СФЕРЕ ИНФОРМАТИКИ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические и педагогические особенности формирования социальной активности и организаторских способностей у будущих педагогов в области информатики. Освещается роль образовательной среды, лидерства, инициативности и командной ответственности в развитии этих качеств, а также эффективность интерактивных методов и тренингов. Представлены предложения, основанные на современных отечественных и зарубежных подходах.*

1. Tanqidiy fikrlash darajasi pre-test 50.5 balldan post-test 60.1 ballgacha o'sib, $t(49)=10.12$; $p<0.001$ qiymatini oldi. Bu esa talabalarning muammolarni mantiqan tahlil qilish va asosli xulosalar chiqarish ko'nikmalari mustahkamlanganini tasdiqlaydi.
2. Ijodiy fikrlash ko'nikmalari ham sezilarli darajada oshib, pre-test 48.8 balldan post-test 59.0 ballgacha ko'tarildi ($t(49)=11.05$; $p<0.001$). Talabalar yangi g'oya va yechimlarni ishlab chiqish salohiyatini aniq ko'rsatdi.
3. Barcha omillarda kuzatilgan o'sish miqdori metakognitiv va refleksiv yondashuvlarning ikki bosqichini sinergik ravishda integratsiya qilish orqali tanqidiy-ijodiy fikrlashni samarali qo'llab-quvvatlashini dalillaydi.

Umuman olganda, metakognitiv strategiyalar va refleksiv o'rganish jarayonlarini o'quv dasturiga tizimli ravishda kiritish talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik amaliyotda ushbu yondashuvlarni muntazam joriy etish ta'lim sifatini va talabalar intellektual salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi PQ–3299-son Qarori "Milliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturi to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi 2018-yil 10-iyundagi № 145-buyrug'i "Ta'lim jarayonida metakognitiv yondashuvlarni tatbiq etish tartibi to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi 2016-yil 5-avgustdagi № 210-son Buyrug'i "Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat ko'rsatish milliy standarti".
4. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi 2019-yil 20-sentyabrdagi № 47-Inspektsiya qarori "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini monitoring qilish tartibi to'g'risida".
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligining 2020-yil 1-martdagi Qo'shma Qarori "Maktab psixologi va pedagog-psixolog lavozimlariga bo'lgan talablarga oid me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash haqida".
6. UNESCO. (2015). **"**Education 2030 Framework for Action". Paris: UNESCO Publishing.
7. OECD. (2019). **"**The Future of Education and Skills 2030". Paris: OECD Publishing.

Qonirbayev Dastan
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali boks yo‘nalishi talabasi

BOKSCHILARNING TEZLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bokschilarning tezlik sifatini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar mazmunan tahlil qilingan. Tezlik sportchi uchun hal qiluvchi sifat bo’lib, u nafaqat harakat tezligi, balki qaror qabul qilish shiddati, texnik-taktik reaksiyalar samaradorligi va psixologik barqarorlikni ham o’z ichiga oladi. Maqolada mashg’ulot jarayonida interfaol metodlar, yuqori intensivlikdagi mashqlar, koordinatsion va sensor muhitli texnologiyalarni qo’llash orqali tezlik sifatini kompleks rivojlantirish yondashuvi asoslab berilgan. Shuningdek, sportchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos yondashuvlar samarali natijalarga olib kelishi ta’kidlangan.*

Kalit so’zlar: *boks, tezlik sifati, pedagogik texnologiyalar, mashg’ulot, reaksiya, koordinatsiya, psixologik tayyorgarlik.*

РАЗВИТИЕ СКОРОСТНЫХ КАЧЕСТВ БОКСЁРОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются современные педагогические технологии, направленные на развитие скоростных качеств у боксёров. Скорость выступает как ключевое качество спортсмена, включающее не только быстроту движений, но и скорость принятия решений, эффективность тактико-технических реакций и психологическую устойчивость. В работе обоснована необходимость комплексного подхода, включающего использование высокоинтенсивных тренировок, сенсорных и координационных средств, а также индивидуализацию нагрузок в зависимости от возраста и уровня подготовки спортсмена.*

Ключевые слова: *бокс, скоростные качества, педагогические технологии, тренировка, реакция, координация, психологическая подготовка.*

DEVELOPMENT OF BOXERS' SPEED QUALITIES THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES

Abstract. *This article explores modern pedagogical technologies aimed at developing speed qualities in boxers. Speed is identified as a critical performance factor that includes not only physical movement velocity but also decision-making speed, technical-tactical reaction efficiency, and psychological stability. The paper justifies a comprehensive training approach involving high-intensity exercises, coordination-enhancing methods, and sensory environments. It also emphasizes the importance of individualized approaches tailored to athletes' age and training level for achieving optimal results.*

Keywords: *boxing, speed quality, pedagogical technologies, training, reaction, coordination, psychological preparation*

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport sohasida sportchilarning yuksak natijalarga erishishi ko’plab omillarga, jumladan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirish darajasiga bevosita bog’liqdir. Ayniqsa, bokschilar uchun zarur bo’lgan asosiy jismoniy sifatlar ichida tezlik sifati alohida o’rin tutadi. Tezlik — bu nafaqat raqibga hujum yoki qarshi zarba berishda, balki mudofaa harakatlarida ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan sportchining muhim ko’rsatkichidir. Raqibdan oldin harakatni boshlab yuborish, tezkor qaror qabul qilish, reflektor javoblarni maksimal qisqa vaqt ichida bajarish kabi jihatlar bokschining ringdagi ustunligini belgilab beradi.

Bugungi kunda sportchilar tayyorgarligini samarali tashkil etish, o’quv-mashg’ulot jarayonlarini zamonaviy usullar asosida olib borish, sport pedagogikasining innovatsion yondashuvlariga

asoslanishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, bokschilarning tezlik sifatini rivojlantirish bo'yicha pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-metodik muammolardan biri hisoblanadi. Bunday texnologiyalar sportchi yoshlarni individual xususiyatlarini, ularning tayyorgarlik bosqichini, yoshi va fiziologik holatini hisobga olgan holda qo'llanilishi orqali yuqori samaradorlikka erishiladi.

Pedagogik texnologiyalar deganda faqatgina yangi mashq shakllarini emas, balki o'qitishning ilmiy asoslangan usullari, mashg'ulotlarning struktura va mazmunini optimallashtirish, hamda sportchilarda ixtiyoriy harakat tezligini shakllantiruvchi vosita va uslublar tizimi tushuniladi. Shu jihatdan, bokschilarning tezlik sifatini shakllantirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interfaol mashg'ulot metodlari, shuningdek, psixologik tayyorgarlik elementlarini trening jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ishda bokschilarning tezlik sifatini rivojlantirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi, ularning samaradorligini baholash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu esa nafaqat professional sportchilar tayyorgarligini takomillashtirishga, balki sport maktablari va akademiyalarida sport pedagogikasi tizimini modernizatsiya qilishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Sportchilar tayyorgarligini takomillashtirishda jismoniy sifatlarni, xususan tezlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar sport pedagogikasi va mashg'ulot nazariyasiga muhim ilmiy asoslar yaratgan. Tezlik sifati sportning turli turlari, ayniqsa bokschilar uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etgani sababli, bu yo'nalishda ko'plab pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan.

Tezlik sifati, avvalo, harakatni boshlash, bajarish va boshqarish tezligi bilan bog'liq bo'lib, bu fazilatlarni samarali rivojlantirish uchun tizimli va maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulot metodikasi talab etiladi. Verkhoshansky Y.V. (Rossiya) tomonidan ilgari surilgan "sportchilarning maxsus ishchi kuchini rivojlantirish nazariyasi" shuni ko'rsatadiki, tezlik sifatlarini faqat umumiy tayyorgarlik bilan emas, balki harakat spetsifikasiga moslashtirilgan mashqlar orqali rivojlantirish mumkin. Bu yondashuv keyinchalik xorijiy olimlar tomonidan takomillashtirilib, yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlar (HIIT – High Intensity Interval Training) asosida qayta ishlangan.

Bompa T.O. (Kanada) o'zining "Periodization: Theory and Methodology of Training" nomli fundamental asarida sportchilarning harakat tezligini shakllantirishda periodlashgan mashg'ulot tizimi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, tezlikni oshirish uchun mashg'ulot jarayonida kuch, koordinatsiya va reaksiya tezligini rivojlantirish bir butun sifatida qaralishi lozim. Bu fikrni Zatsiorsky V.M. (AQSH) ham qo'llab-quvvatlab, sportchining reflektor javob tezligini aniqlovchi komponentlar sifatida asab-mushak tizimi faolligini, neyropsixologik tayyorgarlik darajasini va ixtiyoriy diqqat konsentratsiyasini ko'rsatadi.

Shuningdek, Schmidt R.A. va Wrisberg C.A. (AQSH) o'zlarining "Motor Learning and Performance" nomli ishida harakat tezligi va motorik o'rganish o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratadi. Ularning tadqiqotlarida bokschilarga xos bo'lgan avtomatlashtirilgan reaksiya mexanizmlari, ayniqsa qarshi hujum va himoya holatlarida tezkor javob harakatlarini shakllantirish texnologiyasi ko'rsatib o'tilgan. Ularning fikricha, sportchilarda tezlikni shakllantirish uchun faqat mushak kuchi emas, balki psixomotor koordinatsiyaning rivoji ham hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Hirtz P. (Germaniya) esa koordinatsion qobiliyatlar va tezlik o'rtasidagi aloqani o'rganib, ayniqsa o'smir yoshdagi sportchilarda harakatli o'yinlar, tezkor qaror qabul qilishga asoslangan topshiriqlar orqali tezlikni samarali rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari, asosan, yosh bokschilar bilan ishlash metodikalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Shuningdek, Schnabel G. va Harre D. (Germaniya) tomonidan ishlab chiqilgan sport mashg'ulotlarini boshqarish tizimi bo'yicha nazariyalarida individual yondashuv asosida tezlik sifati ustida ishlash metodikasi taklif etilgan bo'lib, bunda sportchining yoshi, jismoniy holati va psixologik tayyorgarligi asosiy parametrlar sifatida ko'riladi.

Platonov V.N. (Ukraina) o'zining "Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte" asarida esa tezlik sifatining sportchi tayyorgarligida tutgan o'rni va uni rivojlantirish texnologiya-

larining kompleks yondashuvlar orqali amalga oshirilishi zarurligini asoslab bergan. U, ayniqsa, tezlik mashqlarini texnika, reaksiya va qaror qabul qilish vaqtining o'zaro bog'liqligida baholash zarurligini urg'ulaydi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, samarali texnologiyalar asosan integratsion yondashuvga asoslanadi. Tezlikni rivojlantirishda faqat jismoniy yuklama emas, balki psixologik tayyorgarlik, harakat koordinatsiyasi, texnika va taktik ko'nikmalar ham uyg'unlikda shakllantiriladi. Bugungi kunda digital monitoring texnologiyalari (masalan, "Speed Gates", "Reaction Lights" va boshqa sensor tizimlar) orqali sportchining harakat tezligi va reaksiya darajasini aniq baholash imkoniyati mavjud bo'lib, bu metodlar xorijda keng qo'llanilmoqda.

Xorijiy adabiyotlar tahlili bokschilarning tezlik sifatini rivojlantirishda ilmiy asoslangan, kompleks yondashuvga ega pedagogik texnologiyalar eng yuqori samaradorlikni ta'minlashini ko'rsatadi. Bu texnologiyalarni milliy sport mashg'ulot tizimiga integratsiya qilish orqali sportchilar tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Muhokama. Bokschilarning sport mahoratini shakllantirish va ularni yuqori natijalarga tayyorlash jarayonida tezlik sifatini rivojlantirish asosiy strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tezlik — bu bokschining ringdagi harakatlari tezligi, reaksiya darajasi, qaror qabul qilish shiddati va texnik-taktik amallarni bajarishdagi epchilligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab jismoniy va psixologik sifatdir. Shu bois, ushbu sifatni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalarni chuqur tahlil qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish nafaqat sportchi tayyorgarligini optimallashtiradi, balki umumiy mashg'ulot tizimini sifat jihatdan yangilaydi.

Amaliy kuzatuvlar va ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, tezlik sifati faqatgina mushak kuchi yoki reaksiya tezligi orqali emas, balki murakkab neyropsixologik, koordinatsion va harakat avtonomligi asosida rivojlanadi. Zamonaviy sport pedagogikasida bu omillar uyg'unlikda ko'rib chiqiladi va shu asosda kompleks pedagogik texnologiyalar shakllantiriladi. Masalan, yuqori intensivlikdagi intervalli mashg'ulotlar (HIIT), reaksiya chiroqlari, sensor muhitlar bilan jihozlangan trenajyorlar, sportchilarni raqamli monitoring qilish texnologiyalari tezlik sifatini aniqlash va takomillashtirishda qo'llanilmoqda.

Muhim jihat shundaki, boksda tezlik har doim harakatning sifati bilan chambarchas bog'liq. Harakatni tez, biroq texnik jihatdan noto'g'ri bajarish sportchining samaradorligini oshirmaydi. Shu sababli, mashg'ulotlarda tezlik va texnika uyg'unligini shakllantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar — ya'ni *texnika-tezlikli mashqlar* keng qo'llanilishi lozim. Bu mashqlar orqali sportchi nafaqat tez, balki aniq va muvofiqlashtirilgan harakatlarni bajarishga o'rganadi.

Yana bir muhim jihat — yosh va tayyorgarlik darajasiga moslashtirilgan yondashuvdir. O'smir va katta yoshdagi bokschilarda tezlik sifatining fiziologik va psixologik asoslari farq qilganligi sababli, ularning har biri uchun moslashtirilgan pedagogik model qo'llanilishi lozim. Yosh sportchilarda reflektor harakatlarni avtomatlashtirishga va motorik xotirani faollashtirishga qaratilgan o'yin elementlari bilan boyitilgan mashqlar samarali bo'lsa, tajribali bokschilar uchun maxsus reaksiya simulyatsiyalari, stress-reaksiya modullari, qarshi hujumga asoslangan taktika-tezlik mashqlari muhim hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyalar samaradorligini ta'minlashda sportchining shaxsiy xususiyatlari, motivatsion holati, psixologik tayyorgarligi va aqliy faolligi ham hisobga olinishi zarur. Bu borada interfaol metodlar, motivatsion feedback tizimlari, mashg'ulotni o'yinlashtirish (gamification) uslublari tobora keng tarqalmoqda. Masalan, real vaqtli natijalar tahlili asosida mashqni darhol baholash sportchilarda ichki rag'batni kuchaytiradi va ularni mashg'ulotga ongli yondashishga undaydi.

Shuningdek, xorijiy tajribada keng qo'llanilayotgan individual differensial yondashuv prinsipi asosida har bir sportchiga mos yuklama, tezlik rejimi va rivojlantirish modeli tanlanadi. Bu holat mashg'ulotlar samaradorligini oshiradi va haddan ortiq zo'riqishlar (surmenaj) xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari, psixologik tayyorgarlik va diqqatni boshqarish texnologiyalari (vizualizatsiya, aqliy mashq, sport meditatsiyalari) ham tezlik sifatini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi, chunki yuqori tezlikdagi vaziyatlarda sportchining qaror qabul qilish tezligi va diqqatning barqarorligi hal qiluvchi omildir.

Bokschilarning tezlik sifatini rivojlantirish faqat jismoniy yuklamalarni oshirish yoki reaksiya tezligini ko'paytirish bilan cheklanmaydi. Bu murakkab jarayon bo'lib, u zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kompleks qo'llanilishi, sportchining individual xususiyatlarini hisobga olish, texnik-taktik va psixologik tayyorgarlikni uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Tezlik — bu faqat harakat emas, bu sportchining aqliy, psixologik va texnik kuchlarini uyg'un holda ishga solish qobiliyatidir. Shu bois, bokschilarda ushbu sifatni rivojlantirish sport pedagogikasi oldida turgan muhim va istiqbolli vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Bokschilarning sport tayyorgarligida tezlik sifatini rivojlantirish — ularning ringdagi texnik-taktik ustunligi va raqib ustidan g'alaba qozonish ehtimolini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tezlik bu faqat jismoniy harakat emas, balki qaror qabul qilish tezligi, reaksiya darajasi va psixomotor uyg'unlikning murakkab ko'rinishidir. Shu sababli, tezlikni samarali rivojlantirish uchun zamonaviy, ilmiy asoslangan, kompleks yondashuvga ega pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Bunday texnologiyalar tarkibiga yuqori intensivlikdagi mashqlar, sensor vositalar, raqamli monitoring tizimlari, psixologik tayyorgarlik uslublari va individual yondashuv prinsiplari kiradi. Ular sportchining yoshi, tayyorgarlik darajasi va psixofiziologik xususiyatlariga mos tarzda tatbiq etilganda eng yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, bokschilarning tezlik sifatini rivojlantirish — bu jismoniy, texnik va psixologik omillarning uzviy integratsiyasini ta'minlovchi zamonaviy sport pedagogikasining ustuvor yo'nalishidir.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Веркошанский, Ю.В. (1988). Основы специальной физической подготовки спортсменов. — М.: ФиС, 288 с.
2. Платонов, В.Н. (2004). Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. — Киев: Олимпийская литература, 808 с.
3. Зимкин, Н.В., Беляев, В.А. (2006). Теория и методика развития двигательных качеств у юных спортсменов. — М.: Советский спорт, 224 с.
4. Затсиорский, В.М. (1982). Физические качества спортсмена. — М.: ФиС, 206 с.
5. Bompa, T.O., & Buzzichelli, C. (2018). Periodization: Theory and Methodology of Training (6th ed.). — Champaign, IL: Human Kinetics, 368 p.
6. Schmidt, R.A., & Wrisberg, C.A. (2008). Motor Learning and Performance: A Situation-Based Learning Approach (4th ed.). — Champaign, IL: Human Kinetics, 336 p.
7. Schnabel, G., Harre, D., & Borde, A. (1997). Trainingswissenschaft. Trainingslehre – Trainingswissenschaft – Trainingspraxis. — Aachen: Meyer & Meyer Verlag, 324 S.
8. Hirtz, P. (1985). Koordinative Fähigkeiten im Schulsport. — Berlin: Volk und Wissen, 183 S.
9. Кузнецов, В.С. (2002). Методика развития скоростных качеств у боксеров. — Казань: КГИФК, 112 с.
10. Floyd, R. (2010). Strength Training for Speed: Explosive Movements and Plyometrics in Combat Sports. — London: Routledge, 192 p.

UDK: 159.923.5-34

Quvondiqov Hamza Olimboyevich
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA PSIXIK BARQARORLIK JARAYONINING PSIXOLOGIK KOMPONENTLARI

Annotasiya. *Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining psixik barqarorlik jarayonining psixologik komponentlari, emotsional barqarorlik, motivatsion barqarorlik, psixologik himoya mexanizmlari va kognitiv barqarorlik alohida ahamiyat yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *psixik barqarorlik, psixologik komponent, emotsional barqarorlik, motivatsion barqarorlik, psixologik himoya mexanizmlar, kognitiv barqarorlik,* экстремал, касбий стресс, kasbiy faoliyat, favqulodda vaziyat, ratsionalizatsiya, kompensatsiya va sublimatsiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ ПРОЦЕССА ПСИХИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ У СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Аннотация. *В данной статье особое значение приобретают психологические компоненты процесса психической устойчивости сотрудников органов внутренних дел, эмоциональная устойчивость, мотивационная устойчивость, механизмы психологической защиты и когнитивная устойчивость.*

Ключевые слова: *психическая устойчивость, психологическая составляющая, эмоциональная устойчивость, мотивационная устойчивость, психологическая защита механизмы, когнитивная устойчивость, экстремальность, профессиональный стресс, профессиональная деятельность, чрезвычайная ситуация, рационализация, компенсация и сублимация.*

PSYCHOLOGICAL COMPONENTS OF THE PROCESS OF PSYCHIC STABILITY IN INTERNAL AFFAIRS PERSONNEL

Annotation. *In this article, the psychological components of the process of mental stability of law enforcement officers, emotional stability, motivational stability, mechanisms of psychological protection and cognitive stability are of particular importance.*

Keywords: *psychic stability, psychological component, emotional stability, motivational stability, psychological protective mechanisms, cognitive stability, extreme, professional stress, professional activity, emergency, rationalization, compensation and sublimation.*

Kirish. Ishonch bilan shuni aytish mumkinki, huquqni muhofaza qilish yuqori xavfli kasblardan biri bo‘lib, ekstremal va kasbiy stressning eng yuqori darajalaridan biri bilan tavsiflanadi. Huquqni muhofaza qilish organlarida ekstremal vaziyatlar soni bir necha bor oshdi. Yuzlab va minglab tinch aholining o‘limiga olib keladigan jinoyatlarning oldini olish, bartaraf etish va tergov qilish bilan shug‘ullanadigan barcha huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va ularning maxsus bo‘linmalarining professionalligi va psixologik tayyorgarligiga talablar ortib bormoqda. Ichki ishlar organlari tomonidan muammolarni hal qilishda yuzaga keladigan va ularning faoliyati samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradigan psixologik qiyinchiliklar kasbiy va psixologik tayyorgarlikni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ichki ishlar xodimlarida psixik barqarorlik jarayoni- bu ularning kasbiy faoliyatida stressga, xavfli va noqulay sharoitlarga, shuningdek, psixologik zo’riqishlarga chidamlilik qobiliyatidir. Ushbu barqarorlikning psixologik komponentlari turli psixologik omillar, shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya va psixologik himoya mexanizmlarini o’z ichiga oladi. Ichki ishlar xodimlarida psixik barqarorlikning rivojlanishi va mustahkamlanishi ularning kasbiy samaradorligi va kasbga moslashish darajasiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Psixik barqarorlik xodimning murakkab va

favqulodda vaziyatlarda o'zini boshqara olish, emotsiyalarini boshqarish va vaziyatga mos ravishda qaror qabul qilish qobiliyatlaridan iborat.

Ichki ishlar xodimlarining psixik barqarorligi ko'plab shaxsiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqdir. Shaxsiy omillar orasida temperament, xarakter xususiyatlari, stressga chidamlilik, kognitiv jarayonlarning faolligi, irodaviy sifatlar, o'z-o'zini baholash darajasi kabi jihatlar muhim o'rin tutadi. Psixologik komponentlar ichida emotsional barqarorlik, motivatsion barqarorlik, psixologik himoya mexanizmlari va kognitiv barqarorlik alohida ahamiyatga ega. Masalan, emotsional barqarorlik xodimning emotsiyalarini boshqarish va ularni ijobiy yo'nalishga yo'naltira olish qobiliyatidir. Bu, ayniqsa, stress holatida yoki favqulodda vaziyatlarda muhimdir. Emotsional barqarorlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar odatda xavotir va qo'rquvni boshqara olishadi, bu esa vazifani samarali bajarishga imkon beradi.

Psixik barqarorlikning rivojlanishida motivatsion omillar ham muhim o'rin tutadi. Ichki ishlar xodimining o'z faoliyatiga bo'lgan qiziqishi, kasbga sodiqlik, vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan intilishi ularning motivatsion barqarorligini oshiradi. Motivatsiya xodimning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradigan kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, psixologik himoya mexanizmlari, ya'ni stress va xavfli vaziyatlarga qarshi kurashish uchun xodimning shaxsiy psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu mexanizmlar orasida ratsionalizatsiya, kompensatsiya, sublimatsiya kabi jarayonlar mavjud. Masalan, favqulodda vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash uchun o'rganilgan strategiyalarni qo'llash orqali psixik barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Kognitiv barqarorlik esa ichki ishlar xodimlarining vaziyatni tahlil qilish, ma'lumotlarni tez va aniq qabul qilish, to'g'ri qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Kognitiv barqarorlik darajasi yuqori bo'lgan xodimlar murakkab vaziyatlarda ham lo'ndalik bilan harakat qilishlari mumkin. Bu jarayon, ayniqsa, stressli holatlar va favqulodda vaziyatlarda o'zini ko'rsatadi. Kognitiv jarayonlar, ya'ni fikrlash, idrok etish, xotira va e'tiborning barqarorligi psixik barqarorlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ichki ishlar xodimlarining psixik barqarorligini ta'minlash uchun psixologik tayyorgarlik, stressni boshqarish texnikalari, kognitiv moslashuv va psixologik diagnostika kabi usullar qo'llaniladi. Psixologik tayyorgarlik jarayonida xodimlarni ruhiy barqarorlikka o'rgatish uchun maxsus treninglar va mashqlar o'tkazish katta ahamiyatga ega.

Boshqalardan farqli o'laroq, A.R.Batirshinaning yozishicha, inson irodasi ma'lum fazilatlar majmui bilan xarakterlanib, u ba'zan maqsadga erishish yo'lida uchraydigan to'siqlarni yengishga qaratilgan umumiy qobiliyatlar turi sifatida ham namoyon bo'ladi [1]. Bunda, maqsadga muvofiqlik, alohida xususiyat hisoblanib, u insonning ongli va faol harakatlari, maqsadga eirishishga bo'lgan istaklari hamda hayotiy strategiyalari kabilar bilan chambarchas bog'liqdir. Ayrim psixologik adabiyotlarda, irodaviy fazilatlar tasnifining o'ziga xos turlari keltirilgan bo'lib, ular orqali butun bir inson faoliyatining ixtiyoriylik tabiatini tushunib olish mumkin. Ye.P.Ilinning ta'kidicha, kasbiy barqarorlikning mazmuniga to'xtalishdan oldin, uning turlarini ajratib o'ta muhim vazifa sanaladi. Chunki, ular aynan psixik faoliyatning qaysi bo'g'inlarida qatnashadi yoki inson uchun nimani ta'minlab beradi degan savolni yuzaga keltirishi tabiiy [2]. Demak, irodaviy fazilatlar shaxs indiviual va guruhiy faoliyatni nazorat qiluvchi psixologik unsurlardan hisoblanadi. Boshqalar qatorida I.V.Gavrilinaning tavsificha, kasbiy barqarorlik bir necha turlarga bo'linib, ular quyidagi funksiyalarni bajaradi [3]:

– faoliyatni boshlash – maqsad tanlash, vazifalarni qabul qilish, harakatlarda tashabbuskorlik va tirishqoqlikni ta'minlash;

– faoliyat yo'nalishini rejalashtirish va uni bajarishda mustaqillik, bashorat qilish, tezkorlik, ixtiyoriylikni nazorat qilish;

– tashqi sharoit va ichki sharoitlarga tayyorlik – topshiriqlarni bajarishdagi mustaqillik, puxtalik va hokazo.

– o'z-o'zini tashkil eta etish, o'zini o'zi nazorat qila bilish shuningdek, faoliyatda samaradorlikni ta'minlash;

– tashqi va ichki muhit bilan o'zaro ta'sirlashuvchanlik ta'minlash ya'ni chidamlilik va mo'tadillikni ushlab turish;

– axborotlarni qayta ishlash va tezkor va oqilona qaror qabul qilishdagi oqilonalik, jasoratlilik hamda qat'iyatlilikni ta'minlash;

– ong tamoyillarga rioya qilishni nazorat qilish;

– biror faoliyat uchun shart sanalgan maqsadga muvofiqlik va tirishqoqlikni ta'minlash;

– vazifalar va topshiriqlarni bajarishga kerak bo'ladigan energiyalilik va chidamlilikni nazorat qilish;

– faoliyatni bajarish, yakunlash, muvaffaqqiyatli amalga oshirishga xizmat qilishga bo'lgan fidoiylik va moslashuvchanlikni ta'minlash;

– faoliyat natijalarini baholashda zarur sanalgan javobgarlik, ishonchlilik, adolatlilik kabi xususiyatlarning mavjduligini ta'minlash va boshqalar.

A.G. Maklakovga ko'ra esa, kasbiy barqarorlik "iroda"ning umumiy mazmunidan chiquvchi, maqsadga erishish yo'lida yuzaga keladigan jiddiy qiyinchiliklarni yengishga uchun shart bo'lgan, umumiy qobiliyatdir. Bunday sifatlarga chidamlilik, o'zini tuta bilish, o'zini baxshida etish, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik, izchillik, fidoiyli, o'zini tuta bilish, o'zini hurmat qilish kabilarni kiritish mumkin [4].

L.I.Bojovich esa, kasbiy barqarorlikdan intizomlilik, jasoratlilik, fidoiylik kabilarni alohida e'tirof etib, ushbu sifatlar orqali yoshlar boshqa tengqurlari uchun namuna bo'la olishlari mumkinligini alohida ta'kidlab o'tadi [5]. Ushbu mulohazaga muvofiq, iroda va kasbiy barqarorlik psixosotsial tuzilma sifatida tan olinadi. Bundan tashqari, tadqiqotchilardan V.N. Shlyapnikov kasbiy barqarorlik o'rganishda, o'ziga xos psixologik konsepsiyaga asoslanib, insonning ixtiyoriy tartibga solish xususiyatlarini atropogenez jarayoni orqali tushuntirishni taklif etadi. Muallifning so'zlariga ko'ra, kasbiy barqarorlik bu – birgalikdagi faoliyat va mehnat munosabatlari asosida shakllangan tarixiy-madaniy tunchadir [6]. Ya'ni, o'tmishda o'zboshimchalik bilan amalga oshirilgan ishlar va aqliy, ixtiyoriy amalga oshirilgan hodisalar buning yaqqol ifodasidir. Tadqiqotchi Ye.O.Smirnova kasbiy barqarorlik masalasiga to'xtalib o'tar ekan, unga xos o'zboshimchalik va tartibga solish funksiyalarini umumlashtrib, ularni ichki va tashqi faoliyatni nazorat qilishga bo'lgan qobiliyat turlari deb ta'riflaydi [7].

K.Levinning aniqlashicha, kasbiy barqarorlikviy sifatlarni shallantirish avvalambor, kvazi ehtiyojlarni qondirish orqali amalga oshiriladi [8]. Nemis psixologi X.Xekxauzenning yozishicha, motivasiya uzoq vaqt davomida harakatlarni tanlash bilan bog'liq jarayonlarga xizmat qilsa, kasbiy barqarorlik esa, uning boshlanish nuqtasi va oxirigacha bo'lgan jarayonni ta'minlovchi psixologik hodisadir. Bunda, insonning qiziqishlari alohida ahamiyat kasb etib, u har qanday to'siqlarni yengishda kuch beruvchi ichki omil hisoblanadi [9].

Muhokama va natijalar. Psixik barqarorlik bir necha muhim komponentlardan tashkil topadi. Ular orasida:

1. **Emotsional barqarorlik** – Bu komponent stressli holatlar, xavfli vaziyatlar yoki keskin o'zgarishlar ta'sirida o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Emotsional barqarorlik mehnat samaradorligini oshirishga va murakkab vaziyatlarda addekvat qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Bunday qobiliyatning yuqori darajasi insonga tinchlanish, o'zini tutish va salbiy his-tuyg'ularni boshqarishda yordam beradi.

2. **Kognitiv barqarorlik** – Insonning fikrlash, diqqatni jamlash va ma'lumotlarni tez va to'g'ri qayta ishlash qobiliyatidir. Kognitiv barqarorlik stressli vaziyatlarda mantiqiy va to'g'ri qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Ushbu komponent, ayniqsa, tezkor qarorlar talab qilinadigan kasblarda (masalan, tibbiyot, xavfsizlik, favqulodda xizmatlar) muhim ahamiyatga ega.

3. **Motivatsion barqarorlik** – Shaxsning kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi~~ni~~, ishonchi~~ni~~ va intilishlarini barqaror saqlash qobiliyati. Motivatsion barqarorlik kasbiy o'sishga, yangi ko'nikma-larni o'zlashtirish va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

4. **Iroda barqarorligi** – Qiyinchiliklarga bardosh berish, maqsadga intilish va murakkab vaziyatlarda ham faoliyatni davom ettirish qobiliyatidir.

Bu komponent, ayniqsa, uzoq muddatli va katta kuch talab qiladigan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarurdir.

Ichki ishlar xodimlarida psixik barqarorlikning shakllanishi va rivojlanishi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga asosiy omil bo'lib hisoblanadi. Psixik barqarorlikning psixologik komponentlari turli shaxsiy va ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu omillar orasida emotsional barqarorlik, motivatsion barqarorlik, kognitiv barqarorlik hamda psixologik himoya mexanizmlari asosiy o'rin tutadi. Shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya va psixologik himoya mexanizmlarining rivojlanishi ichki ishlar xodimlarining murakkab va stressli vaziyatlarda samarali faoliyat ko'rsatishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Батыршина А.Р. Мазилов В.А. Историческая представленность категорий«Воля» и«Волевая регуляция» в отечественных учебниках психологии. Ярославский педагогический вестник, 2 (4), 2014. – С. 214-222.
2. Ильин Е.П. Психология воли. - СПб.: Питер, 2009. – С.44.
3. Гаврилиа И.В. Факторы влияния на оценки степени развития волевых качеств личности //Автореф. дис. канд. психол. наук. М.: Московский государственный университет им. М.В. Ломоносова. 2010. – С.13.
4. Маклаков А.Г. Общая психология : учебник для вузов / А.Г. Маклаков. – Санкт-Петербург : Питер, 2011. – С.80.
5. Божович Л.И. Избранные психологические труды / Л.И. Божович Психология формирования личности. - М.: Педагогика, 2004. – С.84.
6. Шляпников В.Н. Понятие воли в рамках модели практической занятости человека // Вопр. психол. 2006. – №6. С. 147-154.
7. Смирнова Е.О. К проблеме воли и произвольности в культурно-исторической психологии // Культурно-историческая психология, 2015. – Т. 11. № 3.С. 9 – 15.
8. Левин К. Теория поля в социальных науках / Пер. с англ. - СПб.: Сенсор, 2000б. – С.78.
9. Психология мотивации достижения / Хекхаузен Х. - Санкт-Петербург: Речь, 2001. – С.66.

Rajabova Go‘zal Zarifovna
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti
Psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

TALABALARDA MUSTAQIL QAROR QABUL QILISH KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarda mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilinadi. Mustaqil qaror qabul qilish — bu shaxsning axborotni tahlil qilish, muqobil variantlarni baholash va o’z tanlovini asoslab berish qobiliyati bo’lib, uni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Tadqiqotda qaror qabul qilish jarayonining kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillari o’rganiladi hamda talabalarning mustaqilligi va reflektiv tafakkurini rivojlantirishda pedagogik va psixologik yondashuvlarning o’rni yoritiladi.*

Kalit so’zlar: *mustaqil qaror qabul qilish, talaba, refleksiya, kognitiv jarayonlar, emotsional intellekt, pedagogik-psixologik yondashuv.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются педагогико-психологические основы развития навыков самостоятельного принятия решений у студентов. Самостоятельное принятие решений представляет собой способность личности анализировать информацию, оценивать альтернативные варианты и обосновывать собственный выбор, что в условиях современной образовательной системы становится актуальной задачей. В исследовании рассматриваются когнитивные, эмоциональные и социальные факторы процесса принятия решений, а также раскрывается роль педагогических и психологических подходов в развитии самостоятельности и рефлексивного мышления студентов.*

Ключевые слова: *самостоятельное принятие решений, студент, рефлексия, когнитивные процессы, эмоциональный интеллект, педагогико-психологический подход.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS’ INDEPENDENT DECISION-MAKING SKILLS

Abstract. *This article analyzes the pedagogical and psychological foundations for developing independent decision-making skills among students. Independent decision-making is defined as the ability to analyze information, evaluate alternative options, and justify one's own choices, which has become a crucial task within the modern educational system. The study explores cognitive, emotional, and social factors involved in the decision-making process and highlights the role of pedagogical and psychological approaches in fostering students' independence and reflective thinking.*

Keywords: *independent decision-making, student, reflection, cognitive processes, emotional intelligence, pedagogical-psychological approach.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish dolzarb psixologik va pedagogik vazifalardan biriga aylangan. Bugungi globallashuv va informatsion jamiyat sharoitida talabalar oldida ko’plab muammolar va tanlov imkoniyatlari yuzaga kelmoqda, bu esa ulardan tezkor, asosli va ongli qarorlar qabul qilishni talab etadi. Mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmasi shaxsning axborotni tahlil qilish, muqobil variantlarni baholash va optimal tanlovni amalga oshirish qobiliyatiga asoslanadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, qaror qabul qilish jarayoni nafaqat kognitiv, balki emotsional va ijtimoiy omillar bilan ham bevosita bog’liq. Shu sababli talabalarda ushbu ko’nikmalarni shakllantirish faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki reflektiv tafakkurni rivojlantirish, emotsional intellektni mustahkamlash va ijtimoiy

mas'uliyatni oshirish orqali amalga oshirilishi zarur. Pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda olib borilgan ta'limiy faoliyat talabalarning qaror qabul qilishdagi mustaqilligi va ongli harakat qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mustaqil qaror qabul qilishni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va ta'lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi dinamik va o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda har bir talabaning hayotiy va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishi, ko'p jihatdan, uning mustaqil fikrlay olish, to'g'ri qaror qabul qilish va tanlagan yo'nalishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga ola bilish qobiliyatiga bog'liq. Mustaqil qaror qabul qilish, o'z navbatida, shaxsning kognitiv jarayonlari, emotsional holati va ijtimoiy tajribasining o'zaro ta'siri asosida shakllanadi. Psixologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, qaror qabul qilishda refleksiya darajasi, stressga chidamlilik, empatiya va metakognitiv nazorat kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish, tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish, mustaqil loyihaviy faoliyat va guruhiy ishlanmalarga keng o'rin berish zarur. Psixologik yondashuv esa talabalarda o'z-o'zini anglash, shaxsiy motivatsiyani mustahkamlash va hissiy boshqaruvni rivojlantirish mexanizmlarini qo'llab-quvvatlashni talab etadi. Shu sababli, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik va psixologik strategiyalarning uzviy integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash uchun talabalarda o'z fikrini erkin bildirishi, harakatlarini ongli ravishda boshqarishi va murakkab vaziyatlarda mustaqil yechim topa olishi kabi kompetensiyalar rivojlantirilishi lozim. Ushbu maqolada talabalarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari, unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va samarali metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasi ta'lim psixologiyasida muhim shaxsiy kompetensiya sifatida ko'rib chiqiladi. D. Kyun (1991) tomonidan ilgari surilgan nazariyada qaror qabul qilish shaxsning tanqidiy tafakkur va reflektiv fikrlash darajasi bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, qaror qabul qilish jarayoni faqat ma'lumotlarni qayta ishlash emas, balki shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy kontekstni hisobga olgan holda ongli tanlov qilishni ham o'z ichiga oladi.

J. Hammond, R. Keeney va H. Raiffa (1999) o'z tadqiqotlarida qaror qabul qilishda muqobil variantlarni aniqlash, riskni baholash va natijalarni oldindan ko'ra bilish kabi bosqichlarning ahamiyatini ko'rsatadilar. Ularning fikricha, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatining shakllanishi shaxsning analitik va intuitiv tafakkurining muvozanatiga bog'liq.

V. A. Petrovskiy va A. A. Bodalev (1996) tomonidan o'quvchilarda va talabalar shaxsida mustaqil faoliyat motivlarini shakllantirish masalasi keng yoritilgan. Ular mustaqil qaror qabul qilishni shaxsiy o'z-o'zini anglash va o'z harakatlarini ongli boshqarish ko'nikmalari bilan chambarchas bog'laydi.

L. S. Vygotskiy (1982) esa qaror qabul qilish qobiliyatining rivojlanishini shaxsning ijtimoiy muhit bilan muloqot jarayonida shakllanishi bilan izohlaydi. Uning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi asosida talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatish uchun o'zaro hamkorlik va mustaqil faoliyatning muvofiq uyg'unligi zarurligi asoslanadi.

Mahalliy tadqiqotchilar — V.M. Karimova, R.X. Raximov va G'.B. Shoumarovlarning izlanishlarida mustaqil fikrlash, refleksiya va metakognitiv kompetensiyalar talabalarning qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan. Ular ta'limda talabalarning faolligi va mustaqilligini oshirish uchun faol o'qitish texnologiyalari — muammoli o'qitish, loyiha asosida o'qitish va tadqiqot faoliyati tashkil etish zarurligini ta'kidlaydilar.

Bundan tashqari, zamonaviy psixologik tadqiqotlar (masalan, M. Zeidner va G. Matthews) emotsional intellektning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sirini alohida qayd etadilar. Emotsional boshqaruv va stressga bardoshlilik shaxsning to'g'ri va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, talabalarda mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirish ko’p komponentli jarayon bo’lib, unga kognitiv rivojlanish, emotsional barqarorlik, refleksiya darajasi va ijtimoiy tajriba bevosita ta’sir qiladi. Bu esa, o’z navbatida, pedagogik va psixologik metodlarning uzviy qo’llanilishini talab etadi.

Muhokama. Talabalarda mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Tahlil qilingan nazariy manbalar va amaliy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, qaror qabul qilish jarayoni murakkab kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarning o’zaro ta’siri asosida shakllanadi. Mustaqil qaror qabul qilish faqat axborotni tahlil qilish va tanlov qilish bilan cheklanmay, balki shaxsning ichki motivatsiyasi, refleksiya qobiliyati va o’z harakatlari uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga ola bilish darajasini ham aks ettiradi.

Vygotskiy va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan sotsiokultural rivojlanish nazariyasiga ko’ra, qaror qabul qilish qobiliyati o’zaro muloqot va hamkorlikda shakllanadi. Bu esa ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatini qo’llab-quvvatlash va ularni o’z tanlovlari uchun javobgarlik his qilishga o’rgatish zarurligini ko’rsatadi. Shuningdek, D. Goleman va M. Zeidner kabi olimlar stressga bardoshlilik va emotsional intellektning yuqori darajasi mustaqil va ongli qarorlar qabul qilishda muhim rol o’ynashini isbotlaganlar.

Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish, talabalarni tanqidiy va reflektiv fikrlashga undash, shaxsiy mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlardan foydalanish zarur. Shu bilan birga, pedagoglar tomonidan ijtimoiy-emotsional ko’nikmalarni rivojlantiruvchi treninglar, o’z-o’zini baholash va tahlil qilish mashqlari ham samarali vosita sifatida tavsiya etiladi.

Muhokama natijalari ko’rsatadiki, talabalarda mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmasini shakllantirish faqat bilim berish orqali emas, balki shaxsiy fazilatlar — mas'uliyat, refleksiya, emotsional barqarorlik va ijtimoiy sezgirlikni rivojlantirish orqali ham amalga oshirilishi zarur. Bu esa, o’z navbatida, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarning integratsiyasini talab qiladi.

Mazkur diagrammada talabalar mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini rivojlantiruvchi asosiy omillar — kognitiv kompetensiya, emotsional yetuklik va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash darajalari foiz nisbatida ifodalangan. Diagramma talabalarning qaror qabul qilish jarayoniga har bir omilning qanchalik ta’sir ko’rsatishini ko’rsatib beradi. Shuningdek, ushbu vizual ma’lumot asosida pedagogik-psixologik aralashuvlar samaradorligini baholash ham mumkin bo’ladi. Diagrammadagi raqamlar mustaqil qaror qabul qilishni rivojlantirishda kompleks yondashuvning muhimligini asoslaydi.

Diagrammada aks ettirilgan natijalar asosida har bir omilning o’zaro aloqasi va ularga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil etiladi. Shuningdek, talabalar o’rtasida qaror qabul qilish ko’nikmasining shakllanish jarayonini chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi.




Diagramma tahlili natijalari:

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, talabalar mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining shakllanishida **kognitiv kompetensiya** yetakchi o'rin tutadi va umumiy ta'sirning **45%** ini tashkil etadi. Bu, avvalo, talabalarning axborotni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va tanlovlarni ongli ravishda amalga oshirish qobiliyatining qaror qabul qilish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Kognitiv kompetensiya yuqori bo'lgan talabalar muqobil variantlarni to'g'ri baholay oladi, o'z imkoniyatlarini aniq ko'ra oladi va oqibatlarini oldindan hisobga olgan holda mustaqil tanlov qiladi.

Emotsional yetuklik omili esa umumiy ta'sirning **30%** ini tashkil etmoqda. Bu esa qaror qabul qilish jarayonida talabalar o'z emotsiyalarini boshqarish, stressni yengish va ijobiy ruhda yakuniy qarorga kelish qobiliyatiga bog'liq ekanligini anglatadi. Emotsional barqarorlik, ayniqsa noaniqlik va muammoli vaziyatlarda to'g'ri va mustahkam qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash omili esa 25% ulush bilan ifodalangan. Bu ko'rsatkich, oila, do'stlar, o'qituvchilar va ijtimoiy muhit tomonidan ko'rsatiladigan ijobiy ta'sirning talabalar qaror qabul qilish ko'nikmalariga sezilarli darajada yordam berishini bildiradi. Tashqi motivatsion resurslar, maslahatlar va emotsional ko'mak talabalarni o'z fikrida qat'iy bo'lishga, noaniq holatlarda ishonch bilan harakat qilishga undaydi.

Bundan tashqari, olib borilgan eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, maxsus pedagogik-psixologik treninglar natijasida:

- Kognitiv kompetensiya ko'rsatkichi 20% ga,
- Emotsional yetuklik ko'rsatkichi 18% ga,
- Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hissi esa 15% ga oshgan.

Bu esa mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda faqat bilim berish yetarli emasligini, balki emotsional va ijtimoiy-psixologik komponentlarni ham birgalikda rivojlantirish zarurligini isbotlaydi.

Xulosa. Talabalarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, qaror qabul qilish jarayonida kognitiv kompetensiya, emotsional yetuklik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash omillari muhim rol o'ynaydi. Diagramma tahlili natijalari ushbu omillarning mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib berdi. Ayniqsa, kognitiv kompetensiyaning yetakchi o'rinni egallashi talabaning bilimlarni tahlil qilish va oqilona xulosa chiqarish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Emotsional barqarorlik esa stressli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyatini oshiradi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash esa talabalarni o'z fikriga nisbatan qat'iy va ijobiy motivatsiyalangan holda qaror qabul qilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абдуллаева, Н.М. (2021). Талабаларда мустақил қарор қабул қилиш қобилиятини ривожлантиришнинг психодидактик асослари. Тошкент: ТДПУ нашриёти.
2. Вакуленко, И.А. (2019). Психология принятия решений: когнитивные и эмоциональные аспекты. Москва: Институт психологии РАН.
3. Сафаров, Б.С. (2020). Педагогик психология. Тошкент: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Ярошевский, М.Г. (2018). История психологии: От Античности до современности. Москва: Академический проект.
5. Мамедов, Р.М. (2020). Формирование профессиональной компетентности студентов в процессе принятия решений. Баку: Элм.
6. Вудс, Д.Д. (2016). Cognitive Systems Engineering: Decision Making in Complex Systems. Boca Raton: CRC Press.
7. Hasanov, U. (2022). Mustaqil qaror qabul qilishda talabalar refleksiv tafakkurining roli. "Pedagogik izlanishlar" jurnali, №3, 45-50-betlar.
8. Flin, C.B., & Sadler-Smith, E. (2017). Intuition and decision-making: A psychological perspective. London: Routledge.
9. Ахунов, А.А. (2021). Талабаларда ижтимоий компетенциялар ва қарор қабул қилиш жараёни. Тошкент: Universitet nashriyoti.
10. Kahneman, D. (2011). Thinking, Fast and Slow. New York: Farrar, Straus and Giroux.

Rustamova Munisa To'lqin qizi
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida emotsional intellektning tutgan o'rni va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Emotsional intellekt — bu shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalar emotsiyalariga empatiya bilan yondashish va muloqotni samarali tashkil etish qobiliyatidir. Ingliz tili o'qituvchisi kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi ko'p jihatdan uning emotsional sezgirlik, stressga bardoshlilik, ijtimoiy intuitsiya kabi psixologik fazilatlariga bog'liq.*

Kalit so'zlar: *emotsional intellekt, kasbiy tayyorgarlik, bo'lajak o'qituvchi, ingliz tili, psixologik kompetensiya, empatiya.*

ЗНАЧЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются роль и практическое значение эмоционального интеллекта в процессе профессиональной подготовки будущих учителей английского языка. Эмоциональный интеллект представляет собой способность личности осознавать и управлять собственными эмоциями, с эмпатией относиться к чувствам других людей и эффективно организовывать коммуникацию. Успешность профессиональной деятельности учителя английского языка во многом зависит от таких психологических качеств, как эмоциональная чувствительность, стрессоустойчивость и социальная интуиция.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, профессиональная подготовка, будущий учитель, английский язык, психологическая компетентность, эмпатия.*

THE IMPORTANCE OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS

Abstract. *This article analyzes the role and practical significance of emotional intelligence in the professional training of future English language teachers. Emotional intelligence refers to an individual's ability to recognize and manage their own emotions, respond empathetically to the emotions of others, and effectively organize communication. The success of an English language teacher's professional activity largely depends on psychological traits such as emotional sensitivity, stress resilience, and social intuition.*

Keywords: *emotional intelligence, professional training, future teacher, English language, psychological competence, empathy.*

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida sifat o'zgarishlariga erishish o'qituvchi shaxsiga yuqori psixologik talablar qo'yilishini taqozo etadi. Ayniqsa, ingliz tili kabi muloqotga asoslangan fanlarni o'qitishda o'qituvchining shaxsiy emotsional tayyorgarligi, hissiy sezgirligi va ijtimoiy kompetensiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar emotsional intellektning shaxsning kasbiy samaradorligida hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatmoqda. Emotsional intellekt o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini to'g'ri idrok etish va stressli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutish qobiliyatlarini qamrab oladi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari ushbu ko'nikmalar orqali o'quvchilar bilan ishonchli munosabat o'rnatadi, o'quv muhitini ijobiy psixologik jihatdan boshqaradi va madaniyatlararo muloqotda moslashuvchanlikni namoyon eta oladi. Shu bois, kasbiy tayyorgarlik jarayonida emotsional intellekt komponentlarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida ko'rilmoqda. Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida emotsional intellektning ahamiyati, ularni rivojlantirishning psixologik

shart-sharoitlari va metodik vositalari tahlil qilinadi. Shuningdek, emotsional intellektning pedagogik faoliyatdagi ijtimoiy-psixologik ta'sir doirasi keng yoritiladi. Tadqiqot natijalari esa ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda emotsional kompetensiyani shakllantirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda emotsional intellekt tushunchasi ta'lim psixologiyasida eng dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu atama ilk bor P. Salovey va J. Mayer (1990) tomonidan ilm-fanga kiritilib, shaxsning o'z va boshqalarning emotsiyalarini anglash, baholash va boshqarish qobiliyati sifatida talqin etilgan. Keyinchalik D. Goleman (1995) bu tushunchani yanada kengaytirib, emotsional intellektni beshta asosiy ko'nikmaga — o'z-o'zini anglash, o'zini boshqarish, ichki motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarga ajratgan. Uning fikricha, aynan bu komponentlar o'qituvchilik kasbining psixologik asoslarini tashkil etadi.

Reuven Bar-On (2000) esa emotsional-sotsial intellekt modelini taklif etib, pedagoglar uchun zarur bo'lgan stressga bardoshlilik, qaror qabul qilish, ijtimoiy javobgarlik va emotsional barqarorlik kabi fazilatlarni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqqan. Yevropalik tadqiqotchi K. Saarni (1999) bolalarda emotsional kompetensiyani shakllantirish pedagogik ta'limda boshlanishi keraklig-ini asoslab bergan. Unga ko'ra, o'qituvchilar o'z emotsiyalarini nazorat qilolmasa, ular o'quvchilarda ham salbiy hissiy muhit yaratadi.

Mahalliy tadqiqotchilar — V.M. Karimova, R.X. Raximov va Z.T. Nishanova asarlarida esa o'qituvchining emotsional madaniyati, shaxslararo muloqotdagi rollari, emotsional muvozanati va psixologik salohiyati pedagogik samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida emotsional intellekt komponentlarini aniqlash, baholash va shakllantirish bo'yicha ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar keltirilgan.

A.V. Petrovskiy va B.G. Ananyev kabi rus psixologlari esa shaxs rivojlanishida emotsional va ijtimoiy tajriba integratsiyasini nazariy jihatdan asoslab, o'qituvchining emotsional kompetensiyasini insoniy omil sifatida alohida tahlil qilgan. I.N. Semenov esa o'qituvchining emotsional-intellektual salohiyati uning reflektiv xatti-harakatlari, o'z-o'zini baholashi va pedagogik vaziyatlardagi strategik pozitsiyasiga bog'liq ekanligini qayd etadi.

Emotsional intellekt sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik kasbda nafaqat bilim, balki hissiy jihatdan barqarorlik, empatiya va muloqotga ochiqlik ham muhim kompetensiyalar sirasiga kiradi. H. Gardner (1993) tomonidan ilgari surilgan ko'p komponentli intellekt nazariyasida emotsional va interpersonal intellekt turlari alohida e'tirof etiladi, bu esa o'qituvchilik faoliyatida ijtimoiy-emotsional omillarning ahamiyatini ko'rsatadi. Gardnerga ko'ra, o'qituvchi o'quvchining ichki hissiy holatini idrok qila olmasa, chinakam samarali ta'limni yo'lga qo'ya olmaydi.

Shuningdek, S. Brackett va M. Katulak (2006) emotsional intellektni ta'lim jarayonida qo'llashning amaliy afzalliklarini ochib bergan bo'lib, ular o'z tadqiqotlarida emotsional sezgir o'qituvchilar o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor, yuqori motivatsiya va o'zini anglashi kuchli bo'lgan shaxslar shakllanishiga sababchi bo'lishini isbotlashgan. Ularning fikricha, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari til o'rgatish bilan birga o'quvchining hissiy ehtiyojlarini sezishga ham tayyor bo'lishi kerak.

Mahalliy tadqiqotlar orasida Z.T. Nishanova o'z ilmiy ishlarida o'qituvchi shaxsining psixologik yetukligi, jumladan emotsional sezgirlik, sabr, ichki muvozanat, hissiy barqarorlik kabi fazilatlarini pedagogik jarayonning barqaror omillari sifatida qayd etadi. Unga ko'ra, aynan ushbu jihatlar o'qituvchining sinfdagi obro'sini, ta'sirchanligini va o'quvchilar bilan aloqadagi sifatini belgilaydi.

V.V. Boyko esa "emotsional charchash sindromi" (professional burnout) haqida yozib, aynan emotsional intellekti past bo'lgan pedagoglar bu sindromga ko'proq moyillik bildirishini ta'kidlaydi. Bu esa kasbiy tayyorgarlikda emotsional intellektni rivojlantirish nafaqat samaradorlik, balki kasbiy sog'liq uchun ham muhimligini ko'rsatadi.

A.A. Derkach tomonidan ishlab chiqilgan "kasbiy o'sishning shaxsiy resurslari" konsepsiyasida ham emotsional intellekt o'qituvchi psixologik resurslarining eng muhim komponentlaridan biri sifatida qayd etiladi. Bu yondashuvga ko'ra, o'z his-tuyg'ularini boshqaruvchi va boshqalar holatini anglaydigan o'qituvchi ta'lim oluvchilarga nafaqat bilim, balki ruhiy tayanch ham bera oladi.


Muhokama. Tahlil qilingan nazariy manbalar va amaliy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida emotsional intellekt muhim tarkibiy komponent sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining emotsional intellekti nafaqat uning o'z shaxsiy hissiyotlarini anglab, boshqarish qobiliyatini bildiradi, balki o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish, madaniyatlararo muloqotda sezgirlikni namoyon etish, sinf muhitini emotsional jihatdan sog'lom tutish imkonini ham beradi. Bu ayniqsa ingliz tili kabi til va madaniyatlararo o'zaro ta'sir asosidagi fanlarda o'ta dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, emotsional intellekt komponentlari — empatiya, refleksiya, stressga bardoshlilik va ijtimoiy sezgirlik — o'qituvchilik kasbining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omillardandir. D. Golemanning fikricha, yuqori emotsional intellektga ega o'qituvchi o'zini anglaydi, boshqalarni tinglaydi, ziddiyatli vaziyatlarda muvozanatni saqlaydi va o'quvchilarga ijobiy psixologik ta'sir o'tkaza oladi. Ingliz tili o'qituvchisining faoliyati, ko'p hollarda, interfaol muloqot, nutq madaniyati, emotsional o'zaro ta'sirlar bilan bog'liq bo'lgani sababli, u emotsional jihatdan sezgir va ijtimoiy moslashuvchan bo'lishi zarur.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun emotsional intellektni shakllantirishda ta'lim metodlari va trening yondashuvlari katta ahamiyat kasb etadi. Treninglar orqali talabalar stressli vaziyatlarni boshqarish, empatiya asosida yondashish va o'z emotsiyalarini tahlil qilish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, emotsional savodxonlikni oshirish bo'yicha metodik ishlanmalar (masalan, rolli o'yinlar, reflektiv yozuvlar, hissiy baholash mashqlari) bu sohada samarali natijalar beradi.

Yana bir muhim jihat shuki, emotsional intellekt pedagogik stressni kamaytirish, "professional charchash" sindromini oldini olish va o'qituvchining kasbiy motivatsiyasini barqarorlashtirishda ham muhim omildir. Aynan shu sababli, kasbiy tayyorgarlik jarayonida emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvlar ishlab chiqilishi va joriy etilishi zarur. Bunda psixologik-pedagogik fanlar integratsiyasiga asoslangan yondashuvlar, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari asosiy o'rin tutadi.

Umuman olganda, emotsional intellektni rivojlantirish — bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nafaqat kasbiy tayyorgarlik sifatini oshiradi, balki ularni zamonaviy va psixologik jihatdan bardavom pedagog shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.



Empatiya darajasi treningdan so'ng 60 balldan 78 ballgacha oshdi — bu o'qituvchining boshqalarni tushunish qobiliyati ancha yaxshilanganini bildiradi.

• Refleksiya 58 → 76 ballgacha o'sdi — bu esa o'zini tahlil qilish va o'z ustida ishlash madaniyatining kuchayganidan dalolat beradi.

• O'zini boshqarish 55 → 72 ball — hissiy muvozanat va o'z-o'zini nazorat qilish kuchaygani ko'rinadi.

• Stressga bardoshlilik 52 → 70 ball — bu pedagogik faoliyatdagi ruhiy barqarorlikning oshganini bildiradi.

• Ijtimoiy sezgirlik esa 57 → 75 ballgacha ko'tarilgan — o'qituvchi shaxsining ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan emotsional javobchanligi mustahkamlangan.

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik-trening yondashuvlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik sifatini oshiradi va ularning pedagogik faoliyatga ruhiy-psixologik jihatdan bardavom kirishishiga imkon yaratadi.

Xulosa. Yuqorida o'rganilgan nazariy manbalar va muhokama natijalari asosida aniqlanishicha, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida emotsional intellekt hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Emotsional intellekt shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalarning emotsiyalariga empatik yondashish va o'zaro sog'lom muloqotni yo'lga qo'yishdagi psixologik tayyorgarligini ifodalaydi. Mazkur kompetensiya ingliz tili o'qituvchisining professional faoliyatini ijtimoiy-psixologik barqarorlik bilan olib borishini, madaniyatlararo muloqotga moslashuvchan bo'lishini va o'quvchilarning emotsional ehtiyojlarini sezish qobiliyatini mustahkamlaydi. Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, emotsional intellekt o'qituvchining kasbiy samaradorligini belgilovchi asosiy resurslardan biri hisoblanadi. Unga ega bo'lgan pedagog shaxs hissiy barqaror, ziddiyatli holatlarda muvozanatli, sinfda ijobiy muhitni boshqara oladigan va o'quvchilar bilan samarali kommunikatsiyaga kirisha oladigan mutaxassis sifatida shakllanadi.

Tavsiyalar.

1. Pedagogik ta'lim dasturlariga emotsional intellektni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus kurs, modul yoki seminar-treninglarni kiritish tavsiya etiladi.

2. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida empatiya, refleksiya va stressga bardoshlilik kabi emotsional kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan interaktiv metodlardan foydalanish zarur (rolli o'yinlar, emotsional vaziyatli tahlillar, reflektiv yozuvlar va boshqalar).

3. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar o'rtasida emotsional savodxonlikni oshirish uchun psixologik treninglar, hissiy kuzatishlar, o'zini tahlil qilish topshiriqlari muntazam qo'llanishi lozim.

4. Kasbiy amaliyot jarayonida emotsional intellekt darajasini o'lchovchi psixodiagnostik testlar va metodikalar (masalan, Bar-On EQ Inventory, Goleman EQ) orqali monitoring olib borilishi maqsadga muvofiq.

5. Ta'lim muassasalarida pedagogik jamoa uchun emotsional sog'lom psixologik muhitni ta'minlash choralari — emotsional charchashni oldini olish, stressni boshqarish, psixologik maslahat xizmatlari yo'lga qo'yilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Salovey, P., & Mayer, J.D. (1990). Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 9(3), 185–211.

2. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.

3. Bar-On, R. (2000). Emotional and social intelligence: Insights from the Emotional Quotient Inventory. In R. Bar-On & J.D.A. Parker (Eds.), Handbook of emotional intelligence (pp. 363–388). San Francisco: Jossey-Bass.

4. Gardner, H. (1993). Multiple Intelligences: The Theory in Practice. New York: Basic Books.

5. Saarni, C. (1999). The Development of Emotional Competence. New York: Guilford Press.

6. Brackett, M.A., & Katulak, N.A. (2006). Emotional intelligence in the classroom: Skill-based training for teachers and students. In J. Ciarrochi & J.D. Mayer (Eds.), Applying emotional intelligence (pp. 1–27). New York: Psychology Press.

7. Boyko, V.V. (2006). Energiya emotsiy v obshchenii: Vzglyad na sebya i na drugikh. Moskva: Eksmo.
8. Petrovskiy, A.V. (2002). Psikhologiya razvitiya i obrazovaniya. Moskva: Akademicheskiy proyekt.
9. Derkach, A.A. (2004). Akmeologiya professionalnogo razvitiya. Moskva: RAGS.
10. Karimova, V.M. (2005). Psixologiya. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
11. Raximov, R.X. (2018). Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
12. Nishanova, Z.T. (2021). Ta'limda emotsional madaniyat va uning shakllanishi. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.

Saidova Yulduz Akbarjon qizi
Farg'ona davlat universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

O'SMIRLAR O'ZARO MUNOSABATLARIDA ISHONCH HISSI NAMOYON BO'LISHININNG POZITIV VA NEGATIV TOMONLARI

Annotatsiya. *Maqolada o'smir yoshidagi o'quvchilarda ishonch hissi, uning namoyon bo'lishining pozitiv va negativ tomonlari, shuningdek, tajribadan olingan natijalarning hududiy va jins bo'yicha tahlillari keltirilgan.*

Tayanch iboralar: *ishonch, ishonchsizlik, o'smir, tahdid, muvaffaqiyat, solishtirish, ijobiy, salbiy, munosabat.*

ПОЛОЖИТЕЛЬНЫЕ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫЕ СТОРОНЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ДОВЕРИЯ В ОТНОШЕНИЯХ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье рассматривается чувство доверия у учащихся подросткового возраста, положительные и отрицательные аспекты его проявления, а также приводится региональный и гендерный анализ результатов эксперимента.*

Ключевые слова: *доверие, недоверие, подросток, угроза, успех, сравнение, положительный, отрицательный, отношение.*

POSITIVE AND NEGATIVE ASPECTS OF THE MANIFESTATION OF A FEELING OF CONFIDENCE IN ADOLESCENTS' RELATIONSHIPS.

Abstract. *This article examines the sense of confidence in adolescent students, highlighting both positive and negative aspects of its manifestation. Additionally, it presents regional and gender-based analyses of results obtained from experimentation.*

Keywords*: trust, distrust, adolescent, threat, success, comparison, positive, negative, attitude.*


Ishonch – inson munosabatlarining muhim asoslaridan biri bo'lib, o'smirlar o'rtasidagi do'stlik va ijtimoiy munosabatlarda ham katta ahamiyatga ega. U yoshlar o'rtasida emotsional bog'lanishni kuchaytiradi va jamiyatda o'zini erkin his qilish imkonini beradi. Biroq ishonchning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari mavjud. mustahkam do'stlik va samimiy munosabatlar, ruhiy barqarorlik va o'zini erkin his qilish, ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishi, ishonchli munosabatlar o'smirlarga odamlar bilan to'g'ri muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Ishonch xissining negativ tomonlari sifatida haddan tashqari ishonch (ayrim hollarda yomon do'stlar ta'siri ostida qolishga olib kelishi mumkin), psixologik jarohatlar va aldanish(xiyonat yoki ishonchni oqlamagan do'stlar), boshqalarga qaramlik (mustaqil fikrlash va shaxsiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini yo'qligi) kabilarni keltirish mumkin.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida N.Raydasning "O'ziga ishonch" testidan foydalandik. Bunda o'smirlarning o'ziga ishonch va ishonchsizlik darajalari aniqlandi. Mazkur tadqiqotda ham Andijon va Farg'ona hududida yashovchi o'smirlar ishtirok etishdi. Tadqiqot jarayonida har ikki hududda istiqomat qiluvchi respondent o'smirlar qiziqish bilan ishtirok etdilar. Olingan natijalar hududlar va gender tafovutlar bo'yicha tahlil qilindi.

Tadqiqotdan olingan natijalarga ko'ra o'smir qizlarning 7.3 foizida o'ziga ishonchdan ko'ra ishonchsizlik hissining kuchli ekanligi aniqlandi. Bunga ko'ra o'smir qizlarda kimlarningdir maslahatlari bilan o'zlariga ishonishlari mumkinligi, o'z shaxsiy yutuqlarga erishishdagi ishonchsizlik, qadr-qimmat va darajaga erishishdagi ishonchsizlik, bolalikdagi tahdidlar, muvaffaqiyatsizlik, solishtirish, nazoratning kuchliligi, haddan tashqari tanqid, oiladagi mojarolar, e'tibor yetishmovchiligi yoki keragidan ortiq talablar qo'yilishi, qizlardagi kuchli himoyalanganlik bu mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini susaytiradi va o'zini ishonchsiz his qilishga olib kelishi mumkin.

O’smir qizlarning 79.7 foizida o’ziga ishonch darajasi o’rta ekanligi aniqlandi. Unga ko’ra o’smir qizlarda o’rta darajadagi o’ziga ishonch ularning o’zlarini mutlaqo past baholamaydi ammo har doim ham ishonch bilan harakat ham qilishmaydi, ularda ishonch va shubha orasida ma’lum bir muvozanatning mavjudligi, ma’lum bir ishlarga kirishishga tayyor, lekin shubhalanishi mumkinligi, qaror qabul qilishda boshqalarning fikriga ko’proq e’tibor berishlari isbotlandi. Buning ijobiy va salbiy tomonlari ham mavjud bo’lib ijobiy tomonlari tanqidni qabul qilishligi, raqobatda o’zini yuqotmasligi, ta’lim va tadirlarda faollik salbiy tomonlari qaror qabul qilishda ikkilanishi mumkin, yangi imkoniyatlarni boy berishi mumkin, muvaffaqiyatga to’liq ishonmasligi mumkinligi ahamiyatlidir.



1-diagramma. O’ziga ishonchning jinslar bo’yicha tahlili.

O’smir qizlarning 9.4 foizi o’ziga ishonishlari aniqlandi. Bunga ko’ra ushbu toifadagi o’smir qizlarda o’ziga va qobiliyatiga ishonchning mavjudligi, ichki ishonchga ega ekanligi, hayotdagi turli vaziyatlarga dalil va ishonch bilan yondashishlari, o’zlarini ijobiy baholashlari, qo’rquvga qaramasdan harakat qilishlari, maqsadi sari harakat qilishlari, muammonini hal qilish qobiliyatining mavjudligi va yechim izlashga tayyorligi, javobgarlikni zimmasiga olishlari aniqlandi.


O’smir qizlarning 3.6 foizida esa o’ziga bino qo’yganligi aniqlandi. Unga ko’ra ushbu toifadagi o’smir qizlarda boshqa insonlarga qaraganda o’zini ustun qo’yishligi, maqtanchoqlik, manmanlik, boshqa tengqurlariga nisbatan o’zlarini chiroyli va aqlli deb bilishlari, doimiy diqqat markazida bo’lishga intilishlari, tanqidni qabul qilmasliklari, o’zlarini doimo haq deb bilishlari, o’zlarini yuqori tutishlari aniqlandi.

Navbatdagi o’smir o’g’il bolalarda o’ziga ishonchni aniqlashtirilganda ularning 11.6 foizida o’ziga nisbatan ishonchdan ko’ra ishonchsizlik hissining kuchli ekanligi aniqlandi. Bunga ko’ra ushbu o’smirlar o’zlarini doimiy tenqurlari bilan solishtirganligidan, kattalar tomonidan birovlarning farzandlari bilan taqqoslanganligidan, qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklari, boshqaruvdagi ikkilanishlari, ijtimoiy harakatdan chetlashlar (ijtimoiy tadbirlardan chetlanishlari), maqsadga erishishdagi qiyinchiliklar ularning ishonchsizlikning yuqori bo’lishga sabab bo’lishligi aniqlandi.

O’smir o’g’il bolalarning 76.8 foizida o’ziga ishonch darajasi o’rta ekanligi aniqlandi. Unga ko’ra o’z-o’ziga ishonchning o’rta darajasi turli xil omillarga sabab bo’lishi mumkin bizning respondentlarda oilaviy muhitning o’rni ya’ni ota-otalar tomonidan qo’llab –quvvatlash hamda rabatlantirishning kamligi, xatolarini kattalar tomonidan e’tiborsiz qoldirilganligi, ta’limdagi ikkilanishlar (asosan kasb tanlashdagi), jamiyat va do’stlar bilan munosabatda ishonchning kamligi (sirdosh o’rtoqning yo’qligi) bunga sabab bo’lishi mumkinligi aniqlandi. Ushbu o’smirlarning kattalar va yaqinlar tomonidan yutuqlarini tan olishligi garchi ular hali kichik bo’lsa ham , tanqid

o'rniga himoyaga yo'naltiruvchi maslahatlar berish, mustaqil bo'lishlarida qo'llab-quvvatlash o'smirlardan o'zlariga nisbatan ishonchning ortishiga turtki bo'lishi mumkin.

O'smir o'g'il bolalarning 11.6 foizi o'ziga ishonishlari aniqlandi. Bunga ko'ra ushbu toifadagi o'smir bolalarda o'z fikrini erkin ifoda etishlari, boshqalarga qo'rqmasdan o'zining fikrini ayta olishlari, tanqidga to'g'ri munosabatda bo'lishlari, konstruktiv tanqidni qabul qilishlari, tengqurlari bilan samarali muloqotning mavjudligi, tinglash, tushunish kabi qobiliyatlarning yuqoriligi isbotlandi.



2-diagramma. O'ziga ishonchning hududlar bo'yicha tahlili.

Navbatdagi 2-diagrammaning tahliliga ko'ra Farg'ona hududidagi o'smirlarning 11.5 foizi o'ziga ishonchdan ko'ra ishonchsizlikning kuchliroq ekanligi aniqlandi. Unga ko'ra ushbu o'smirlarning tarbiyasi, ta'lim muhiti va psixologik muhiti, negativlikga moyillik, salbiy munosabatlarni ijobiylariga nisbatan tez eslab qolishlari va ularga ko'p e'tibor berishlari, o'z yutuqlarini tasodif deb bilishlari, jamoviy bosim, jamiyat va atrofdagi odamlar qo'ygan talablar, o'z-o'zini tez-tez hatti –harakatlarini kamsitishlari o'smirlarda aniqlandi.

Farg'ona hududida yashovchi o'smirlarning 76.2 foiz o'ziga ishonch darajasi o'rtacha berilishi aniqlandi. Unga sabab o'smirning o'ziga ishonchi yuqori yoki past bo'lishi, bolalikdagi erkalatishlar yoki tanqid miqdorining o'rtacha bo'lganida, qarindoshlar, do'stlar va ota-onasining ular haqidagi fikrlari, yutuqlar va muvaffaqiyatsizliklar soni teng yoki o'rtacha bo'lsa, qaror qabul qilishdagi ikkilanishlar, qo'yilgan maqsadlarining natijasiga ko'zi yetmasligi, o'zining tengqurlari bilan o'z-o'zini taqqoslashi dalillandi.

Farg'ona hududida yashovchi o'smirlarning 8.5 foizi o'ziga ishonishlari aniqlandi. Bunga ko'ra ushbu hududda yashovchi o'smirlar real maqsadlarni qo'yishlari, qiziqishlarining beqarorligi, ijobiy fikrlaning mavjudligi, o'z kelajagi haqidagi qarorlarning qabul qilishga moyilliklari, stress va qiyinchiliklarga bardoshli ekanliklari, ota-onalar va ustozlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishlari, jamoada ishlash ko'nikmalarning mavjudligi isbotlandi.

Ushbu hududda yashovchi o'smirlarning 3.8 foizi esa o'ziga bino qo'yganligi aniqlandi. Unga ko'ra ushbu toifadagi o'smirlarda kibr va manmanlik (o'zlarini boshqalardan ustun deb hisoblashlari), bilimlari va berilgan axborotlaridan faxrlanishlari, atrofdagilarni kamsitishlari, kamchiliklarini berkitishga urinishlari, yuqori natijalarga erishganda yuqoridan qarashlari, tanqidni qabul qilishni xoxlamasliklari, o'z fikrlarini doim to'g'ri deb bilishlari, tengqurlarining yutuqlarini tan olishmasliklari, kamtarlikdan yiroq bo'lishlari aniqlandi.

Andijon hududida yashovchi o'smirlarning 6.7 foizi o'ziga ishonchdan ko'ra ishonchsizlikning kuchliroq ekanligi aniqlandi. Unga ko'ra ushbu o'smirlarda doimiy shubha va qo'rquv

muvozanatining mavjudligi, yangi imkoniyatlarni qo'lga kiritishda o'zlarining fikrlari bilan to'sqinlik qilishlari, kelajakdagi rejalari uchun ko'p o'ylashlari yoki umuman harakat qilmasliklari, stress va xavotirning kuchliligi, o'zlarini himoyasiz his qilishlari, atrofdagi voqealarga ishonchsizlik bilan yondashishlari isbotlandi.

Andijon hududida yashovchi o'smirlarning 80.8 foiz o'ziga ishonch darajasi o'rtacha berilishi aniqlandi. Unga sabab o'smirlarning o'ziga bo'lgan ishonchi (o'z-o'ziga ishonch darajasi) o'rtacha bo'lishiga ta'sir qiluvchi omillar biologik, ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarning ta'siri kuchli bo'ladi. Buning uchun bolalikdagi tarbiya jarayonlari, ota-ona va yaqin atrofdagi insonlar tomonidan vaqtida berilmagan muhabbat va vaqtida qo'llab-quvvatlamaslik darajasi o'z-o'ziga ishonchdan ko'ra ishonchsizlikning yuqoriligi, bolalikdagi tanqidiy munosabat, kamtarlik va o'zini past ko'rsatish, oiladagi qadriyatlar, jamiyatdagi meyorlar, imtixonlardan o'tolmaslik qo'rquvi, munosabatlardagi muammolar— ishonchni susaytiradi ishonchsizlikni ortishiga sabab bo'ladi.

Andijon hududida yashovchi o'smirlarning 12.5 foizi o'ziga ishonishlari aniqlandi. Bunga ko'ra ushbu hududda yashovchi o'smirlar o'ziga ishonchning yuqoriligi, kelajak uchun maqsadlarini aniq qo'ya olishlari, real natijalar va kutilmalarning aniqligi, Bolalikda ota-ona va atrofdagilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishlar, qiyinchiliklarni yengishga ko'maklashishlar, muvaffaqiyatlar va ularni to'g'ri anglash, o'z ustida ishlash va shaxsiy rivojlanish ularning o'ziga nisbatan ishonchning oshishiga sabab bo'ladi.

1-jadval

"O'ziga ishonch"ning jinslar bo'yicha natijalari

Jins	n	M	depresiya	t	p
Ayol	112	57,74107	85,09451	-2,32397	0,020936
Erkak	138	60,71014	113,7256		

1-jadval natijalariga ko'ra "O'ziga ishonch" shkalasi bo'yicha jinslar bo'yicha tahlil qilinganda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi t=-2,32397, p<0,020936. Bunda o'g'il bola o'smirlarga nisbatan qizlarda o'ziga ishonchning yuqoriligi aniqlandi. Bunga sabab qizlarda emotsiyalarni anglash va ifoda etish qobiliyati yuqori bo'lgani uchun, ular o'z ehtiyojlari va qobiliyatlarini yaxshiroq baholashadi, ularni tarbiya jarayonida ko'pincha intizomli, mas'uliyatli va o'zini boshqara olish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Bu esa o'zlariga bo'lgan ishonchni oshiradi. O'g'il bolalar esa ko'pincha his-tuyg'ularini yashirishga harakat qilishadi, mustaqil bo'lish va xato qilmaslik ta'kidlanadi, asosan ularda jismoniy kuchlilikka e'tibor qaratishlari kuzatiladi bu esa o'z-o'zini baholashda ma'lum darajada tanqidiylikka olib kelishi mumkin. Mazkur jadvaldagi tahlillarga ko'ra, "o'ziga ishonch" ko'rsatkichida jinslar o'rtasida ya'ni qiz bolalarda o'ziga ishonch darajasi o'g'il bolalarga nisbatan yuqori ekanligi, ularning ehtiyoj va qobiliyatlarini anglash, his-tuyg'ularini ifoda etish, tarbiyada mas'uliyat va o'zini boshqarishga yo'naltirilgan yondashuv natijasi ekanligi ko'rsatib o'tildi. O'g'il bolalarda esa jismoniy kuch, mustaqillik va his-tuyg'ularni yashirish kabi omillar o'z-o'zini baholashda tanqidiy munosabatning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu holat o'smirlarni qo'llab-quvvatlashda jinsiy farqlarni hisobga olgan holda individual yondashuvni talab qiladi.

2-jadval

"O'ziga ishonch" ning hududlar bo'yicha natijalari

Hudud	n	M	Disp	t	p
Farg'ona	130	58,57692	131,4088	-1,30602	0,192756
Andijon	120	60,25	70,96218		

2-jadval natijalariga ko'ra "O'ziga ishonch" shkalasi bo'yicha hududlar bo'yicha tahlil qilinganda umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi t=-1,30602, p<0,192756. Biroq, Andijon hududidagi yashovchi o'smir respondentlardan ko'ra Farg'ona hududida yashovchi o'smirlarning ko'proq qismida ishonchning yuqoriroq ekanligi

aniqlandi. Bunga sabab ushbu hududda yashovchi o'smirlarda ishonchning yuqoriligi, yashab turgan muhitining o'qib turgan maktab muhiti shart-sharoitining qoniqarli ekanligi, muvaffaqiyatlar va shaxsiy tuyg'ularning to'g'ri yo'nalganligi, atrofdagi salbiy tajribalardan himoyalanish, ustozlar va ota-onaning qo'llab quvvatlashlari bunga sabab bo'lishi mukinligi aniqlandi. Shuningdek, farg'onalik o'smirlarning o'ziga ishonchi yuqoriroq bo'lishi ko'p jihatdan ijtimoiy muhit, oila tarbiyasi, ta'lim tizimi, iqtisodiy holat va madaniy xususiyatlar bilan bog'liq. Shuningdek, har bir hududda shaxsiy tajriba va individual xususiyatlar ham ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, o'smirlar o'rtasidagi "o'ziga ishonch" darajalari jins va hudud omillariga ko'ra turlicha namoyon bo'ladi. Qiz bolalarning katta qismida o'ziga ishonch o'rta darajada ekani aniqlandi, bu esa ularning o'zini baholashda muvozanat saqlashga intilishini anglatadi. Biroq, ular orasida ham ishonchsizlik hissi bilan yuradiganlar va aksincha, o'zini ortiqcha yuqori baholovchi o'smirlar mavjud. Shuningdek, o'g'il bolalarda ham o'ziga ishonch o'rta darajada ko'p uchraydi, ammo ishonchsizlik hissi qizlarga nisbatan ko'proq uchrayotgani kuzatildi. Bu esa ularning ijtimoiy solishtirish, tanqid va qo'llab-quvvatlov yetishmasligi kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, o'smirlardagi o'ziga ishonchni shakllantirishda oilaviy muhit, maktab, jamiyat va psixologik qo'llab-quvvatlovning rolini kuchaytirish, shaxsiy yutuqlarni e'tirof etish va ijobiy muomalani ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абрамова Г. С. «Возрастная психолгия». – Екатеринбург: Деловая книга, 1999. – 24 с.
2. Кондратьев М.Ю. Авторитет педагога как результат его персонализации// Психол. Развивающейся личности / Под ред. А.В. Петровского. – М;2011 г 18-с 24-26-б
3. Егоров, А.Ю. Терапия нехимический зависимости // Журнал неврологии и психиатрии им. С.С. Корсакова. 2018. Т. 118, № 6. – С. 115-123.
4. Alimbayeva Sh.T. o'smirlar o'quv faoliyatida xavotirlanish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari. Ps.f.n.dis. – Toshkent: 2011. – 148 b
5. Asqarova O'.M. Mexribonlik uylari o'smirlarda milliy gururni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari Avtoref. ps.f.n. – Toshkent: 2001. – 24 b.

Shamsiddinov Botirjon Nuriddinovich
Andijon davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti
Umumiy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: shamsiddinovbotir88@mail.ru

SHAXSNING DETERMINATSIYASI VA JAVOBGARLIK MUAMMOSI: FREYD PSIXOANALIZI ASOSIDA TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi doirasida inson psixikasining chuqur qatlamlari, shaxsiyatning ichki instinktiv kuchlari va ong osti jarayonlari tahlil qilinadi. Muallif Freyd ta'limotining shaxsiyatdagi javobgarlik, erkinlik va maqsadga yo`naltirilganlik kabi tushunchalarga ta'siri va bu nazariyaning deterministik (sabab-oqibatli) xususiyatlarining chegaralari haqida fikr yuritadi. Maqolada shuningdek, bemorlarning ruhiy tiklanishida javobgarlikni o`zlashtirish muhim omil sifatida ko`rsatilib, bu jarayonning psixoterapevtik ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so`zlar: *Freyd, psixoanaliz, determinizm, nevroz, ego, superego, shaxsiyat, javobgarlik, psixoterapiya.*

ДЕТЕРМИНАЦИЯ ЛИЧНОСТИ И ПРОБЛЕМА ОТВЕТСТВЕННОСТИ: АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ ПСИХОАНАЛИЗА ФРЕЙДА

Аннотация. *В данной статье в рамках психоаналитической теории З. Фрейда анализируются глубокие слои человеческой психики, внутренние инстинктивные силы личности и процессы бессознательного. Автор рассматривает влияние учения Фрейда на такие понятия, как ответственность, свобода и целенаправленность в структуре личности, а также размышляет о границах детерминистских (причинно-следственных) характеристик данной теории. В статье также подчеркивается значение принятия ответственности как важного фактора в психическом восстановлении пациентов и раскрывается психотерапевтическая значимость этого процесса*

Ключевые слова: *Фрейд, психоанализ, детерминизм, невроз, эго, суперэго, личность, ответственность, психотерапия.*

PERSONALITY DETERMINATION AND THE PROBLEM OF RESPONSIBILITY: AN ANALYSIS BASED ON FREUD'S PSYCHOANALYSIS

Abstract. *This article analyzes the deeper layers of the human psyche, instinctive forces, and unconscious processes within the framework of Sigmund Freud's psychoanalytic theory. The author explores how Freud's teachings influence key concepts such as responsibility, freedom, and goal-directedness in personality development, while critically examining the limitations of the deterministic (cause-effect) aspects of his theory. The article also highlights the importance of personal responsibility in the process of psychological healing, emphasizing its psychotherapeutic significance.*

Keywords: *Freud, psychoanalysis, determinism, neurosis, ego, superego, personality, responsibility, psychotherapy.*

Kirish. Psixoanalitik yondashuv psixologiyada tub burilish yasagan nazariy tizimlardan biridir. Ayniqsa, Z. Freydning inson ruhiyatiga oid qarashlari psixoterapiya amaliyotiga chuqur ta'sir ko`rsatgan. Freyd ta'limotining eng katta yutuqlaridan biri shundaki, u inson faqat ongli fikrlari bilan emas, balki chuqur yashiringan instinktiv kuchlar — *id*, *ego* va *superego* o`rtasidagi o`zaro ziddiyatlar orqali ham shakllanishini ko`rsatdi. Biroq ushbu yondashuvning deterministik tabiati ayrim salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Psixoanalizning katta yutuqlaridan biri shundaki, u insonning ongli fikridan tashqari, insonning ichki dunyosida yashirin bolgan kuchlarni ham aniqlashga yordam beradi. Bu, odamning ozini anglashiga va uni chuqurroq tushunishga olib keladi. Freydning psixoanalizi bizga shuni ko'rsatdiki, faqatgina ongli "ego"ni emas, balki insonning butun psixologik tuzilishini hisobga olishimiz kerak. Freydning psixoanalizi odamning ichki instinktiv kuchlari, id tomonidan yuzaga keladigan tashqi dunyo va superego (axloqiy ong) bosimiga qarshi kurashishda ego uchun qiyin bolishini ta'kidlaydi. Hayotning maqsadi faqatgina ongli iroda bilan cheklanmay, balki chuqurroq darajalarga qaratilishi kerak. Nihoyat, Freydning psixoanalizi shuni korsatadiki, bizning hayotimiz hech qachon chinakam axloqiy bolmaydi, agar biz jamiyat yoki ozimizning superegoga yoqmaydigan har qanday istakni to`liq bostirishga harakat qilsak. Biroq, Freydning tahlil tizimi, agar butun shaxsiyatga nisbatan qo'llanilsa va uning deterministik nuqtai nazaridan tushuntirilsa, xavfli bo'lishi mumkin. Bu tizim oddiy sabab-oqibat aloqalari sxemasiga aylanib qolishi mumkin: bloklangan instinktiv istak — bostirish — psixologik kompleks — nevroz. Shunday qilib, nazariy jihatdan davolash faqatgina quyidagi ketma-ketlikka olib keladi: nevrotik simptomni aniqlash, kompleksni topish, bostirishni bartaraf etish va bemorga ozining instinktiv istaklarini eng to'g'ri va qulay tarzda ifodalashga yordam berish. Biz Freydning davolash tizimini bunday oddiy sxemaga qisqartirishni xohlamaymiz. Freydning terapiyasi – bu kop jihatdan ijodiy jarayon bolib, muvaffaqiyatli bolishi aynan shuning bilan bog'liqki, u qat'iy sabab-oqibat nazariyasiga bog'liq emas. Xavf shundaki, Freydning nazariyasi ba'zi odamlarning ongida shaxsiyatni mexanik, deterministik tarzda tushunishga olib kelishi mumkin, bu esa ularni faqat o`zlarining instinktlarining qurboni sifatida ko`rishga va har qanday noqulaylikda o`zining libidosini ifodalashga undaydi. Hech shubhasiz, sabab-oqibat aloqalari tizimi ayrim ruhiy faoliyat turlari uchun maqbul hisoblanadi. Ammo bu tizimning cheklangan sohasiga asoslanib, shaxsiyatni butunlay tushuntirishda sabab-oqibat va detarministik prinsiplari yetarli degan umumlashtirilgan xulosa qilish – noto``gri bo`ladi. Freyd tabiatshunoslik fanlari tomonidan ishlab chiqilgan tayyor va aniq tizimlashtirishga jozibador bo`ldi va uni odam shaxsiyatini tushuntirishda ishlatishga harakat qildi. Bu xato, har qanday ilmiy usulning o`z chegaralari borligini tushunmaslikdan kelib chiqqan. Haqiqatan ham, obyektiv fanlar bizga inson psixikasining alohida bosqichlari va hodisalarini tushunishda yordam beradi, lekin inson ruhini uning ijodiy va ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydigan, ba'zan esa noaniq ko'rinishlarini tushunishda sabab-oqibat mexanik prinsiplari bilan tushuntirishni tasavvur qilish – katta xato bo'lardi. Natijada, Freydning, Renkning so`zlari bilan aytganda, "tabiatshunoslik psixologiyasi" noto'g'ri yolni tanladi, chunki shaxsiyatning mutlaq determinatsiyasini tan oldi. Bunday tan olish shaxsiyatni har qanday javobgarlikdan ozod qiladi. Shunday qilib, o``gri ozini himoya qilib: "Olma men tomonidan o'g'irlanmadi, balki mening ochligim sabab boldi", deya oladi. Ammo shaxsiyatga xos bo'lgan bunday xususiyatlarga qanday bo`ladi, masalan, maqsadga intilish, erkinlik, qarorlar ongli qabul qilinishi? Bularning barchasi shaxsiyatning asosi hisoblanadi, bu haqda keyinchalik aniqroq tushuncha hosil qilamiz. Shuni ta'kidlash joizki, psixoterapiyaning asosiy postulatlaridan biri shundaki, bemor ozining harakatlari uchun bir kun javobgar bolishni o`rganishi kerak. Shuning uchun determinatsiya, shaxsiyatni javobgarlikdan ozod qiluvchi fikr, oxir-oqibat ruhiy tiklanishga xalaqit beradi. Sabab-oqibat oldindan belgilanganlik faqatgina bostirish kompleksi tufayli yuzaga kelgan nevrozlar bilan cheklangan sohada qo'llaniladi. Kompleksdan xalos bolgan bemor o`zining kelajagini yaratish uchun javobgarlikni o`z zimmasiga oladi. Mening tajribamga ko`ra, nevrozlardan azob chekayotgan bemorlar kopincha hayotga nisbatan oldindan belgilanganlikni qabul qilishadi. Ular doimo o`z muammolarining sababini kimnidir ustiga yuklashga harakat qilishadi – ota-onalariga, baxtsiz bolaliklariga, yoki ushbu bemorlar uchun hamma narsa to`g``ri keladi, "faqat men aybdor bo'lmasligim kerak" – bu ularning hayotiy shiori. Buni tushuntirish oson: bunday bemor uchun o`zini javobgar his qilishni boshlaganda, u o`zining nevrozini yengish uchun qandaydir qadamlar qo`yishga majbur bo`ladi. Albatta, insonning hayotida sodir bolgan har bir falokatda ko`plab oldindan belgilovchi omillar mavjud, lekin shaxsiyatning asosiy mustaqilligi, avvalo, o'z javobgarligini anglash va ijodiy rivojlanish imkoniyatida yotadi.

Freydning ta'kidlashicha, insondagi ichki instinktlar va ularning ijtimoiy me'yorlar bilan to`qnashuvi psixik ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Aynan shu ziddiyatlar turli nevrotik simptomlar sababiga aylanadi. Psixoterapiyada bu simptomlarni aniqlash, ularning asosida yotgan komplekslarni ochish va bostirilgan istaklarni ongli ravishda qayta ishlash orqali davolash usullari ishlab chiqilgan. Ammo bu yondashuvda xavfli jihat shundaki, shaxsiyatni faqat instinktlar qurboni sifatida ko`rish tendensiyasi mavjud. Natijada, inson o`z harakatlari uchun javobgarlikni o`z zimmasiga olish o`rniga, barcha muammolar sababini tashqi omillarga — bolalikdagi travmalar, ota-onalarning xatolari yoki atrof-muhitga yuklashga harakat qiladi.

Nevrotik bemorlar ko`pincha o`z muammolari uchun javobgarlikni rad etadi. Ularning hayotiy shiori: "faqat men aybdor bo`lmasligim kerak." Bunday yondashuv psixoterapiya jarayonida to`siq bo`lishi mumkin, chunki ruhiy tiklanish uchun inson, avvalo, o`zining ichki holatini anglab, uni ijobiy tomonga o`zgartirish uchun javobgarlikni qabul qilishi kerak.

Shu nuqtai nazardan, Freydning deterministik tizimiga kritik yondashuv zarur: sabablarga asoslangan tahlil psixik faoliyatning ayrim bosqichlarini tushunishda foydali bo`lsada, shaxsiyatni to`liq va murakkab tizim sifatida qamrab ololmaydi. Freydning "tabiatshunoslik psixologiyasi" inson ruhiyatining erkin, ijodiy va oldindan aytib bo`lmaydigan xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldiradi.

Eksperimental tadqiqotlar asosida shaxsiy o`zgarishlar uchun ichki motivatsiya va erkin irodaning roli isbotlangan.

Shaxsiy taraqqiyot va o`zgarish, asosan, ichki erkinlik va mas'uliyatni o`z zimmasiga olish orqali ro`y beradi. Determinizmga haddan ortiq urg`u berilishi shaxsiy o`sishning to`sqiniga aylanishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, terapevtik jarayonda namoyon bo`ladi: bemor o`z muammosi uchun javobgarlikni rad etadi va aybni tashqi omillarga yuklaydi.

Ushbu maqola doirasida eksperiment olib borildi. Tadqiqotda Andijon shahridagi 2 ta psixologik markazda davolanayotgan 60 nafar nevrotik simptomlarga ega bemorlar (33 nafar ayol, 27 nafar erkak, yoshi 25–45) ishtirok etdi. Tadqiqot maqsadi: Freyd psixoanalizidagi deterministik tushunchaning bemorlar javobgarlik hissi va shaxsiy o`sish motivatsiyasiga ta'sirini aniqlash. Tadqiqotda psixologik metodlardan: "Shaxsiy javobgarlik darajasini o`lchovchi metodika" (avtor: V. V. Stolin asosida modifikatsiya qilingan). "Hayotiy pozitsiyani aniqlash testi" (transaksion tahlil asosida). Psixoterapevtik intervyular va individual kuzatuv protokollari. Shuningdek, Freyd asosidagi assotsiativ testlar yordamida bostirilgan istaklar aniqlandi.

1-Jadval

Eksperiment natijalari

Ko`rsatkichlar	1-bosqich (terapiyagacha)	2-bosqich (terapiyadan kegin)	O`zgarish %
Javobgarlikni o`z zimmasiga olish darajasi	28%	63%	+35%
Muammolarni tashqi sabablar bilan bog`lash	74%	39%	–35%
Erkin qaror qabul qilish ko`rsatkichi	31%	58%	+27%
Instinktlarni ifodalashda ijtimoiy me'yorga moslik	42%	67%	+25%

Mazkur eksperiment aynan shu ziddiyatli nuqtai nazarni aniqlashtirishga xizmat qiladiki, inson xulq-atvori faqat ichki instinktlar va bolalikdagi travmalar asosidami yoki u o'zini anglash, o'zgarish va tanlov imkoniyatiga ega ekanligi aniqlashtrilgan. Eksperimantning javobgarlikni o'z zimmasiga olish darajasida (+35%)aniqlandi . Bu ko'rsatkichning sezilarli darajada (28% dan 63% gacha) o'sishi

shuni ko'rsatadiki, psixoterapiya jarayonida ishtirokchilar o'z hayotidagi hodisalarni tashqi kuchlarga emas, balki ichki sabablarga bog'lab anglashga boshlagan. Bu holat Freydning instinktual va tashqi omillar bilan bog'liq deterministik yondashuviga muqobil ravishda shaxsning o'z tanlovi uchun mas'uliyatni his qilishi ortib borayotganini tasdiqlaydi. Muammolarni tashqi sabablar bilan bog'lash (–35%). Terapiyagacha 74% bemorlar o'z muammolarini tashqi sabablar (ota-ona, jamiyat, taqdir va h.k.) bilan izohlashgan bo'lsa, terapiyadan keyin bu ko'rsatkich 39% gacha tushgan. Bu o'zgarish, psixologik jarayonda ichki lokus (ichki nazorat markazi) shakllanayotganini, inson o'z hayot yo'nalishini tashqi emas, ichki kuchlar asosida belgilashga o'rganayotganini ko'rsatadi. Erkin qaror qabul qilish ko'rsatkichi (+27%). Erkin tanlovga asoslangan faoliyat, axloqiy pozitsiya va motivatsiyaga asoslangan qaror qabul qilish psixik yetuklikni bildiradi. Dastlabki bosqichda 31% bo'lgan bu ko'rsatkich, psixoterapiyadan so'ng 58% gacha ko'tarilgan. Bu o'zgarish Freyd tizimidagi psixik determinatsiya (ya'ni, harakatlar instinktlarga bog'liq) tamoyilining amaliy chegaralarini namoyon qiladi. Shaxs o'z hayotini boshqaruvchi faol agent sifatida shakllanmoqda. Instinktlarni ijtimoiy me'yorga mos ifodalash (+25%). Bu o'zgarish Freyd nazariyasidagi *id* (instinkt), *ego* (ongli men) va *superego* (axloqiy mezonlar) o'rtasidagi murakkab muvozanatni ko'rsatadi. Terapiya davomida instinktlar bostirilmasdan, balki ijtimoiy maqbul va konstruktiv yo'nalishda ifoda etilishi o'rgatilgan. Bu psixoanalitik terapiyaning yangilangan interpretatsiyalarida asosiy o'rin tutuvchi – *sublimatsiya* jarayonining shakllanganini bildiradi. Terapiya davomida bemorlarning muammolarni faqat tashqi sabablar bilan bog`lashga moyilligi kamaydi. Javobgarlik hissi ortdi. Bu esa deterministik yondashuv o`rniga shaxsiy erkinlik va ixtiyoriy tanlovga asoslangan yondashuv samaraliroq ekanini ko`rsatadi. O`tkazilgan eksperimentlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki Freydning detarministik tizimi shaxsiyatning ayrim jihatlarini tushuntirsa-da, uni to`laqonli talqin etishga yetarli emas. Inson ruhiyati, ayniqsa, uning qaror qabul qilish, axloqiy pozitsiya egallash va maqsadli harakat qilish qobiliyati oddiy sabab-oqibat prinsiplaridan yuqoriroq turadi. Terapiya jarayonida bemorga shunchaki instinktlarini tan olish emas, balki ularni ijtimoiy jihatdan maqbul va ijodiy yo`nalishda ifodalash yo`li o`rgatilishi lozim.

Xulosa sifatida aytganda Z. Freydning psixoanalitik nazariyasi inson psixikasining chuqur, ko`zga ko`rinmas qatlamlarini ochib berish orqali psixoterapiya sohasida tub burilish yasadi. Uning g`oyalari shaxsiyatni instinktiv kuchlar, ichki ziddiyatlar va ong osti jarayonlari orqali tushuntirishga uringan ilk harakatlardan biri bo`ldi. Biroq, psixoanalitik yondashuvning kuchli jihatlaridan biri bo`lgan deterministik (sabab-oqibatga asoslangan) tushuntirish, agar mutlaq asos sifatida qabul qilinsa, inson shaxsiyatini passiv, faqat ta'sirlarga javob qaytaruvchi tizim sifatida talqin qilish xavfini tug`diradi. Bu esa shaxsning ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatini, qarorlar qabul qilish erkinligini va maqsadga yo`naltirilganligini yetarlicha yoritmaydi. O`tkazilgan eksperimentlar natijalari shuni ko`rsatdiki, bemorlar o`zlarining ichki jarayonlari, istak va ziddiyatlarini anglab yetgach, ular o`z hayotlari uchun javobgarlikni qabul qila boshlaydilar. Bu esa ularning ruhiy sog`ayishi, ichki barqarorlikka erishish va ijtimoiy faol hayot kechirishlariga katta turtki beradi. Ayniqsa, bemorning o`zini faqat o'tmishdagi travmalar yoki ichki instinktlarning qurboni sifatida emas, balki o`z taqdirini belgilovchi faol subyekt sifatida ko`ra boshlashi — psixoterapevtik jarayondagi eng muhim o`zgarishlardan biridir. Zamonaviy psixoterapiya Freyd asos solgan tamoyillarga tayanib, ammo ularni yanada kengroq — ijtimoiy, axloqiy va ekzistensial nuqtai nazardan qayta ko`rib chiqishi zarur. Chunki shaxsiyatning to`laqonli tahlili faqat uning ichki ziddiyatlarini aniqlash bilan emas, balki bu ziddiyatlar qarshisida ongli tanlov qilish qobiliyatini rivojlantirish bilan chambarchas bog`liq. Insonni ongli, javobgar va ijodiy mavjudot sifatida ko`ra oladigan yondashuvgina uning ruhiy sog`lig`i va shaxsiy kamolotiga samarali hissa qo`sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.ttps://spravochnick.ru/psihologiya/perspektivy_razvitiya_psihologicheskoy_nauki_k_seredine_xxi_veka/

2. https://lex.uz/docs/3797625

3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi 83-son 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amal ga oshirishni jadallashtirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarori.

4. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent.: "O`zbekiston". 2018. -80 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O`zbekistan NMIU.2016. -56 b.

6. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lish kerak. –T.: O`zbekiston. 2016 y.-47b.

7. Фрейд З. Толкование сновидений. — М.: Наука, 1991.

8. Юнг К.Г. Структура психики и процесс индивидуации. — СПб.: Алетейя, 2002.

10. Франкл В. Человек в поисках смысла. — М.: Прогресс, 1990.

11. Сатир В. Семейная терапия. — Киев: Ника-Центр, 2000.

12. Stolin, V. V. Self-concept and Personal Responsibility. Moscow: Psychology Institute, 1985.

13. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. — М.: Академический проект, 2006.

14. Nuriddinovich, Sh. B. (2023). Yoshlarni individual-tipologik xususiyatlarida himoya mexanizmlari namoyon bo'lishining ijtimoiy–psixologik jihatlari. Современное образование (Узбекистан), (6 (127)).

Sharifova Maxliyo Zarif qizi
Buxoro innovatsiyalar universiteti
Pedagogika psixologiya va sport kafedrasi o'qituvchisi, p.f.f.d.(PhD)
E-mail. maxliyo.sharipova@bui.uz

HOMILADORLIKKA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA PSIXOGENETIK MASLAHATNING PROFILAKTIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida psixogenetik maslahatning profilaktik ahamiyati tahlil qilingan. Psixogenetik maslahat ota-onalarda irsiy va psixologik xavf omillari haqida ongli tushunchani shakllantirish, sog'lom farzand tug'ilish ehtimolini oshirish va homiladorlikka tayyorgarlikning ilmiy asoslangan yondashuvini ta'minlash vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada psixologik va genetik omillarning o'zaro ta'siri, oilaviy anamnez tahlili, individual risklarni baholash va sog'lom naslni ta'minlash uchun zarur bo'lgan maslahat choralari keng yoritilgan. Shuningdek, psixogenetik maslahatning sog'liqni saqlash tizimida qo'llanishi va uning homiladorlikka tayyorgarlik jarayonidagi samaradorligi amaliy misollar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *psixogenetik maslahat, homiladorlikka tayyorgarlik, profilaktika, genetik xavf, psixologik tayyorgarlik, oilaviy anamnez, sog'lom nasl, individual risk baholash*

THE PREVENTIVE IMPORTANCE OF PSYCHOGENETIC COUNSELING AT THE STAGE OF PREGNANCY PREPARATION

Annotation. *This article analyzes the preventive significance of psychogenetic counseling during the preconception stage. Psychogenetic counseling is considered a key tool for helping future parents develop an informed understanding of hereditary and psychological risk factors, increasing the likelihood of giving birth to a healthy child, and ensuring a scientifically grounded approach to pregnancy planning. The article highlights the interaction between psychological and genetic factors, family history analysis, individual risk assessment, and the necessary counseling measures for securing healthy offspring. It also examines the application of psychogenetic counseling within healthcare systems and its effectiveness in the pregnancy preparation process based on practical examples.*

Keywords: *psychogenetic counseling, pregnancy preparation, prevention, genetic risk, psychological readiness, family history, healthy offspring, individual risk assessment*

ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПСИХОГЕНЕТИЧЕСКОГО КОНСУЛЬТИРОВАНИЯ НА ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ К БЕРЕМЕННОСТИ

Аннотация. *В статье анализируется профилактическое значение психогенетического консультирования на этапе подготовки к беременности. Психогенетическое консультирование рассматривается как важный инструмент формирования у будущих родителей осознанного понимания наследственных и психологических факторов риска, повышения вероятности рождения здорового ребёнка и обеспечения научно обоснованного подхода к планированию беременности. В статье освещаются вопросы взаимодействия психологических и генетических факторов, анализа семейного анамнеза, оценки индивидуальных рисков и необходимых мер консультирования для обеспечения рождения здорового потомства. Также рассматривается применение психогенетического консультирования в системе здравоохранения и его эффективность в процессе подготовки к беременности на основе практических примеров.*

Ключевые слова: *психогенетическое консультирование, подготовка к беременности, профилактика, генетический риск, психологическая готовность, семейный анамнез, здоровое потомство, оценка индивидуальных рисков*

Kirish. Sog'lom avlodni shakllantirish har bir jamiyat rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ushbu maqsadga erishishda homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida ko'riladigan profilaktik chora-tadbirlar, ayniqsa psixogenetik maslahatning o'rni nihoyatda muhimdir. Genetik va psixologik

omillarning bola salomatligi va rivojlanishiga ta’siri haqida so’nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ota-onalarning homiladorlikka tayyorgarlik jarayonida genetik va psixologik risklarni anglash darajasini oshirish zaruriyatini ko’rsatmoqda[7].

Psixogenetik maslahat – bu bo’lajak ota-onalarga irsiy kasalliklar, psixologik holat va oilaviy anamnez asosida farzand tug’ilishi bilan bog’liq xavf omillarini aniqlash va ularni minimallashtirish bo’yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berish jarayonidir. Ushbu maslahat homiladorlikni ongli va mas’uliyatli rejalashtirish, sog’lom farzand tug’ilishini ta’minlash uchun zarur shartlardan biri hisoblanadi. Bunda, irsiy kasalliklar xavfini aniqlash bilan bir qatorda, ota-onalarning ruhiy tayyorgarlik darajasi ham e’tiborga olinadi, chunki psixologik muhit va stress holatlari ham homilaning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi.

Zamonaviy tibbiyotda psixogenetik maslahatning profilaktik ahamiyati keng e’tirof etilmoqda. Genetik risklarning erta aniqlanishi va ularga nisbatan mos profilaktik choralar ko’rilishi orqali tug’ma nuqsonlar va irsiy kasalliklar bilan bolalar tug’ilish xavfini kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, ota-onalarning psixologik tayyorgarligini mustahkamlash orqali ularning homiladorlik davridagi stressga chidamliligini oshirish, sog’lom psixologik muhitni shakllantirish imkoniyati yaratiladi[6].

Psixogenetik maslahat, asosan, uch asosiy yo’nalishni o’z ichiga oladi: birinchidan, oilaviy anamnezni chuqur o’rganish va irsiy kasalliklar tarixini aniqlash; ikkinchidan, bo’lajak ota-onalarning ruhiy holatini baholash va stress, xavotir kabi omillarni kamaytirishga qaratilgan tavsiyalar berish; uchinchidan, sog’lom turmush tarzini shakllantirish, homiladorlik uchun qulay psixologik va jismoniy sharoitlar yaratish. Ushbu yondashuv integrativ bo’lib, homilaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uchun zarur bo’lgan optimal shart-sharoitlarni yaratadi.

So’nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, homiladorlikdan avval psixogenetik maslahat olgan oilalarda farzandlarning salomatlik ko’rsatkichlari yuqoriroq, tug’ma nuqsonlar va psixik rivojlanishdagi buzilishlar esa ancha kam uchraydi. Masalan, irsiy diabet, yurak-qon tomir kasalliklari, neyropsixologik sindromlar kabi patologiyalarning erta aniqlanishi va ularning oldini olish bo’yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi bolalar salomatligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Psixologik tayyorgarlik, o’z navbatida, homiladorlikning muvaffaqiyatli kechishini, onaning emotsional barqarorligini va farzandning sog’lom rivojlanishini ta’minlaydi.

Tibbiyot amaliyotida psixogenetik maslahatning samarali tashkil etilishi uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy diagnostika usullarini keng joriy etish va aholining bu xizmatdan xabardorligini oshirish muhimdir. Shuningdek, ota-onalarga psixogenetik maslahat xizmatlarini ko’rsatishda individual yondashuv qo’llanilishi, ularning genetik va psixologik xususiyatlari, shaxsiy ehtiyojlari hisobga olinishi kerak[9].

Bugungi kunda dunyoning ko’plab rivojlangan mamlakatlarida, xususan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarda psixogenetik maslahat xizmatlari homiladorlikka tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida joriy qilingan. Bunday yondashuvlarning tajribasi shuni ko’rsatadiki, kompleks psixogenetik maslahat sog’lom nasl shakllanishi, oilalarda sog’lom psixologik muhit yaratish va jamiyat salomatligini mustahkamlashda muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda.

O’zbekiston sharoitida ham so’nggi yillarda sog’lom avlodni shakllantirishga doir davlat dasturlari doirasida homiladorlikka tayyorgarlik va genetik maslahat xizmatlariga e’tibor kuchaytirilmoqda. Biroq, psixogenetik maslahatning profilaktik ahamiyati va amaliyotga joriy etilishi hamon yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu sababli, homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida ota-onalarga kompleks psixogenetik yordam ko’rsatish, profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish va aholining genetik savodxonligini oshirish bo’yicha tizimli ishlar olib borish zarur[10].

Xulosa qilib aytganda, homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida psixogenetik maslahatning profilaktik ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Ushbu yondashuv orqali sog’lom avlodni shakllantirish, nogironlik va irsiy kasalliklar bilan bog’liq xavflarni kamaytirish hamda oilalarda psixologik farovonlikni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Shu sababli, psixogenetik maslahat xizmatlarini rivojlantirish va ularning aholiga ommaviy yetkazilishini ta’minlash zamon talabiga aylanmoqda[8].

Muammoni o’rganilganlik darajasi. Homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida psixogenetik maslahatning profilaktik ahamiyati masalasi zamonaviy tibbiyot, psixologiya va genetik fanlarining

kesishgan nuqtasida shakllangan dolzarb ilmiy muammolardan biridir. Bu masala ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida genetik kasalliklarning homila rivojlanishiga ta'sirini o'rganish bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar natijasida shakllandi. Ayniqsa, 1960–1970-yillarda molekulyar genetika va psixologiya sohalarining jadal rivojlanishi homiladorlikni rejalashtirish va irsiy kasalliklarning oldini olish uchun psixogenetik maslahat berish zaruratini ilmiy asoslashga imkon berdi[5].

Dastlabki bosqichda psixogenetik maslahat faqatgina irsiy kasalliklarning xavfini aniqlash va ularni oldini olishga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik bu jarayonga psixologik holat va oilaviy iqlim omillarini hisobga olish ham qo'shildi. Shvetsiya, Germaniya, AQSh va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarda olib borilgan klinik tadqiqotlar homiladorlikni rejalashtirishda psixologik tayyorgarlikning muhimligini ko'rsatdi[3]. Tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, ota-onalarning emotsional barqarorligi va psixologik salomatligi homila rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, R. Plomin va uning ilmiy guruhi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar psixologik stress va homila rivojlanishidagi anomaliyalar o'rtasidagi bog'liqlikni isbotladi. Shuningdek, I. Gottesman va T. Shields tomonidan olib borilgan genetik-psixologik izlanishlar shuni ko'rsatdiki, oilaviy anamnezdagi psixik kasalliklar kelajak avlod salomatligiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa psixogenetik maslahatni yanada ahamiyatli qiladi[2].

Prenatal psixologiya va genetik konsalting sohasida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar psixogenetik maslahatning ikki asosiy yo'nalishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi: birinchidan, irsiy kasalliklarning oldini olish, ikkinchidan, homiladorlik davomida psixologik stressni kamaytirish va onaning emotsional salomatligini mustahkamlash. Prenatal stress va bolalar psixofiziologik rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan tadqiqotlar shuni isbotladiki, emotsional barqarorlik homila asab tizimi rivojlanishining asosiy omillaridan biridir.

Yevropa Ittifoqi davlatlarida, xususan Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida homiladorlikka tayyorgarlik jarayoniga psixogenetik maslahatni kiritish majburiy tartib sifatida qabul qilingan. Bu mamlakatlarda psixogenetik maslahatlar tibbiy xizmatning ajralmas qismi bo'lib, har bir oila uchun shaxsiy genetik va psixologik risklar baholanadi. Ushbu yondashuv natijasida sog'lom farzand tug'ilish ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgan.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda homiladorlikka tayyorgarlik va prenatal diagnostika tizimi rivojlantirilmoqda. "Sog'lom ona va bola" dasturi doirasida onalik va bolalikni himoya qilish, tug'ma kasalliklarning oldini olish, homilador ayollar salomatligini monitoring qilish yo'lga qo'yilgan. Ammo psixogenetik maslahatning keng ko'lamli tizimi hali to'liq shakllanmagan, asosan genetik kasalliklarning molekulyar diagnostikasiga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda psixogenetik maslahatning rivojlanishiga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, aholining genetik va psixologik risklar haqida xabardorlik darajasi past darajada qolmoqda. 2020-yilda O'zbekiston Tibbiyot Akademiyasida o'tkazilgan izlanishlar natijasida aniqlanishicha, homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida bo'lgan ayollarning 58 foizi irsiy kasalliklar xavfi haqida yetarli bilimga ega emas, 65 foizi esa psixologik tayyorgarlik zaruriyati haqida to'liq tasavvurga ega emas.

Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, psixogenetik maslahat xizmatlarining samaradorligini oshirish uchun ularni majburiy sog'liqni saqlash dasturlariga kiritish, psixolog va genetik mutaxassislarning hamkorligini ta'minlash zarur. Psixogenetik maslahat faqat irsiy kasalliklar haqida ma'lumot berish bilan cheklanmay, balki ota-onalarga homiladorlik va tug'ruq jarayonlaridagi emotsional stressni boshqarish ko'nikmalarini o'rgatishi kerak[9].

Tibbiy-psixologik tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, psixogenetik maslahatdan o'tgan juftliklarda homiladorlikni muvaffaqiyatli yakunlash, sog'lom farzand tug'ilishi va postnatal depressiyaning oldini olish ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqorilaydi. Shuningdek, bu xizmatlar oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va farzand tarbiyasiga ongli yondashuvni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, genetik va psixologik maslahat xizmatlarini keng joriy etish bir qator qiyinchiliklarni ham yuzaga keltiradi. Jumladan, mutaxassislar yetishmovchiligi, aholining ma'naviy-madaniy xususiyatlariga mos yondashuvlarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi va psixogenetik

maslahatni ommalashtirish uchun moliyaviy resurslarning cheklanganligi muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Xalqaro tajriba asosida shuni aytish mumkinki, psixogenetik maslahat tizimini rivojlantirish uchun uch asosiy yo'nalishga e'tibor qaratish lozim: birinchidan, aholining genetik va psixologik savodxonligini oshirish, ikkinchidan, tibbiyot va psixologiya mutaxassislarini maxsus tayyorlash, uchinchidan, davlat siyosatida psixogenetik maslahatning ahamiyatini kuchaytirish[1].

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida psixogenetik maslahatning profilaktik ahamiyati zamonaviy ilm-fan va amaliyot tomonidan keng e'tirof etilgan. Shu sababli, bu xizmatlarni tizimli ravishda rivojlantirish, aholining genetik va psixologik sog'liq sohasidagi xabardorligini oshirish va homiladorlikka tayyorgarlik jarayonida integrativ yondashuvni joriy qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Natija va tahlil.

Homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida psixogenetik maslahatning profilaktik ahamiyati bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bu xizmat turining sog'lom avlodni shakllantirishdagi o'rni beqiyosdir. Tadqiqot jarayonida psixogenetik maslahat olgan va olmagan bo'lajak ota-onalar guruhlari o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazildi. Analiz natijalariga ko'ra, psixogenetik maslahat olgan juftliklarda sog'lom farzand tug'ilish ehtimoli sezilarli darajada yuqori bo'lib, irsiy va psixologik risklarning kamayishi aniq kuzatildi.

Tadqiqotga 400 nafar bo'lajak ota-onalar jalb qilindi, ularning 200 nafari psixogenetik maslahatdan o'tgan, 200 nafari esa bunday maslahat olmagan edi. Tadqiqot ishtirokchilari homiladorlikka tayyorgarlik darajasi, psixologik holati, sog'lom turmush tarziga rioya etish va tug'ilgan farzandlarning sog'liq ko'rsatkichlari bo'yicha baholandi.

Olingan ma'lumotlar quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

Ko'rsatkichlar	Psixogenetik maslahat olgan guruh (%)	Psixogenetik maslahat olmagan guruh (%)
Sog'lom homiladorlik kechishi	88%	65%
Tug'ilgan farzandlarda tug'ma nuqsonlar uchrashishi	4%	12%
Homiladorlik davomida stress va tashvish darajasi pastligi	82%	55%
Prenatal skrining va diagnostika tekshiruvlaridan o'tganlar	91%	64%
Homiladorlikni rejalashtirishda sog'liq ko'rsatkichlari tekshirilgani	87%	58%
Sog'lom turmush tarziga rioya qilganlar	85%	60%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, psixogenetik maslahat olgan guruhda homiladorlikni sog'lom kechishi, sog'lom farzand tug'ilishi, emotsional barqarorlik va sog'lom turmush tarziga amal qilish ko'rsatkichlari ancha yuqori bo'lgan. Psixogenetik maslahatdan o'tgan ota-onalar o'z salomatliklariga mas'uliyatliroq yondashgani, homiladorlik jarayonida stress omillarini kamaytirishga harakat qilgani va prenatal diagnostik tekshiruvlardan muntazam o'tganligi kuzatildi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida olingan psixogenetik maslahat ota-onalarning genetik va psixologik risk omillariga nisbatan xabardorlik darajasini oshirgan, bu esa o'z navbatida sog'lom farzand tug'ilish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirgan. Ayniqsa, homiladorlikni rejalashtirishda sog'liqni tekshirish va zarur choralarni ko'rish masalasida maslahat olganlar ancha faol bo'lishgan.

Tahlil natijalari, shuningdek, psixogenetik maslahatning ota-onalar psixologik tayyorgarligini kuchaytirishdagi rolini ham tasdiqladi. Psixogenetik maslahat olgan ota-onalar homiladorlik davomida stress darajasini boshqarish, emotsional barqarorlikni saqlash va oilaviy iqlimni yaxshilash

bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgani aniqlandi. Bu esa, o'z navbatida, farzandning normal psixofiziologik rivojlanishiga zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, psixogenetik maslahat xizmatlarining kengaytirilishi nafaqat individual sog'liq ko'rsatkichlarini, balki jamiyat miqyosida sog'lom avlodni shakllantirishni ham ta'minlashi mumkin. Natijalar asosida aniqlanishicha, psixogenetik maslahatdan o'tgan guruhda bola tug'ilishidagi patologiyalar darajasi uch baravarga kamaygan, prenatal stress darajasi esa ikki baravarga past bo'lgan.

Bundan tashqari, ota-onalarning genetik va psixologik risklarni erta aniqlashi va ularga nisbatan ongli qarorlar qabul qilishi natijasida ijobiy oilaviy muhit shakllangan, bu esa farzandlarning keyingi ruhiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Yuqoridagi natijalar psixogenetik maslahat xizmatining homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida profilaktik chora-tadbirlar majmuasi tarkibiga majburiy ravishda kiritilishi zarurligini ko'rsatadi. Aholining keng qatlamlari uchun psixogenetik maslahat xizmatlarini joriy etish, tibbiyot va psixologiya sohalari mutaxassislarining hamkorligini kuchaytirish va jamiyatda genetik va psixologik sog'liq madaniyatini ommalashtirish zamon talabi ekanligi tahlillar orqali tasdiqlandi.

Xulosa qilib aytganda, psixogenetik maslahat homiladorlikka tayyorgarlik jarayonida sog'lom farzand tug'ilishi ehtimolini oshiradigan, irsiy va psixologik xavflarni kamaytiradigan, oilaviy salomatlikni mustahkamlovchi eng muhim profilaktik choralar majmuasidir. Kelgusida ushbu xizmatni kengroq ommalashtirish va rivojlantirish, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun imkoniyatlar yaratish sog'liqni saqlash tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida psixogenetik maslahatning sog'lom avlodni shakllantirishdagi o'ta muhim rolini tasdiqladi. Psixogenetik maslahat ota-onalarning genetik va psixologik xavf omillari to'g'risida xabardorlik darajasini oshiradi, ular orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, homiladorlikni rejalashtirishda ongli qarorlar qabul qilish va prenatal diagnostik tekshiruvlardan o'tish ko'rsatkichlarini yuqori darajada ta'minlaydi. Tadqiqotlar natijalari ko'rsatdiki, psixogenetik maslahat olgan guruhlarda tug'ma nuqsonlar va homiladorlikdagi asoratlar ko'rsatkichlari ancha past, sog'lom homiladorlik va sog'lom farzand tug'ilishi darajasi esa sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

Shuningdek, psixogenetik maslahat homiladorlik davomida ota-onalarning psixologik barqarorligini ta'minlashda, stress va xavotirni kamaytirishda, oilaviy muhitni sog'lomlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv nafaqat individual sog'liqni mustahkamlash, balki jamiyat salomatligini yaxshilash va sog'lom demografik rivojlanishga xizmat qiladi. Psixogenetik maslahat xizmatlarini kengaytirish orqali homiladorlik davrida va undan oldin sog'liq uchun xavf omillarini minimallashtirish imkoniyati kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida psixogenetik maslahatni joriy etish va ommalashtirish sog'liqni saqlash tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi zarur. Bu esa sog'lom avlodni shakllantirish, nogironlikning oldini olish va oilaviy farovonlikni ta'minlashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida psixogenetik maslahat xizmatlarini tizimli rivojlantirish, aholining genetik va psixologik savodxonligini oshirish va bu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tavsiyalar. Homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida psixogenetik maslahatning samaradorligini oshirish va sog'lom avlodni shakllantirishga xizmat qiladigan tizimni rivojlantirish uchun bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, aholining genetik va psixologik xabardorligini oshirishga qaratilgan kompleks ma'rifiy dasturlarni yaratish va ularni muntazam ravishda amalga oshirish zarur. Bu dasturlar orqali bo'lajak ota-onalarga irsiy kasalliklar, psixologik stress va homiladorlikka tayyorgarlikdagi asosiy omillar haqida keng va aniq ma'lumot berilishi kerak.

Shuningdek, psixogenetik maslahat xizmatlarini sog'liqni saqlash tizimining majburiy tarkibiy qismiga aylantirish lozim. Har bir tug'ruqoldi patronaj xizmatlari doirasida genetik va psixologik maslahatlarni o'z ichiga olgan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi kerak. Ayniqsa, prenatal va postnatal davrlarda ota-onalarga ruhiy salomatlikni saqlash va stressni boshqarish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

Tibbiy muassasalarda genetik va psixologik maslahat ko'rsatadigan mutaxassislarning malakasini oshirish bo'yicha maxsus o'quv kurslari va seminarlar tashkil etilishi zarur. Bunda zamonaviy diagnostika usullari, oilaviy anamnezni tahlil qilish, psixologik baholash va individual profilaktik strategiyalar ishlab chiqish ko'nikmalariga e'tibor qaratilishi kerak.

Psixogenetik maslahat xizmatlarini qishloq va olis hududlardagi aholi uchun ham qulay va mavjud etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mobil maslahat guruhlari tashkil qilish, telemeditsina va onlayn maslahat platformalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Shu bilan birga, ota-onalarni homiladorlikka tayyorgarlik bosqichidan boshlab sog'lom turmush tarziga o'rgatish, irsiy xavf omillariga ongli yondashuvni shakllantirish va oilaviy sog'lom muhitni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati.

1. Allakhverdov V.M. Psixologiya geneticheskogo konsul'tirovaniya. – Moskva: Nauka, 2017.
2. Axmedova D.R. Prenatal diagnostika va genetik maslahat asoslari. – Toshkent: Tibbiyot, 2020.
3. Yusufbekova M.I. Tug'ma nuqsonlarning oldini olishda ona salomatligining ahamiyati. – Toshkent: Tibbiyot, 2023.
4. Khasanov N.K. Genetik maslahat va sog'lom avlodni shakllantirish masalalari. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Zokirov B.R. Genetika asoslari va tibbiyotda qo'llanilishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. EuroGentest Network. Guidelines for Genetic Testing and Counseling. – Brussels, 2018.
7. Rashidov A.Q. Tibbiyot genetikasining dolzarb masalalari. – Toshkent: Tibbiyot, 2019.
8. Temirova G.X. Prenatal tashxis va profilaktika metodlari. – Buxoro: Innovatsiya, 2021.
9. Qosimov S.O. Reproduktiv salomatlik va irsiy kasalliklarning profilaktikasi. – Qarshi: Nasaf, 2022.
10 Alimova M.A. Sog'lom farzand tug'ilishida psixogenetik maslahatning o'rni. – Toshkent: Innovatsion Ta'lim, 2023.

Shomurodov Ibrohim Xusanmurot o'g'li
Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail.ibrohimshomurodov93@gmail.com

EKSTREMAL VAZIYATLARDA SHAXSNING PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TRENINGLAR DASTURINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tajribalardan psixologik himoya tizimlari past shakllangan, o'zini o'zi baholash darajasi past va ekstremal vaziyatlarda xavotirlanish darajasi yuqori sinaluvchilar va ular bilan psixokorreksion trening mashg'ulotlari tashkil etilib, korreksion rivojlantiruvchi treninglar yordamida psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish va ekstremal vaziyatlarda barqarorlashtirish mumkin ekanligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Noadekvat, diskomfort, psixodrama, individual, improvizatsiya, korreksion treninglar, psixodiagnostik, psixodinamika, reaksiya, modifikatsiya, psixotexnik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ПРОГРАММ ТРЕНИНГОВ, НАПРАВЛЕННЫХ НА ФОРМИРОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ЛИЧНОСТИ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ

Аннотация. *В статье обсуждается идея о том, что эксперименты, проведенные в высших учебных заведениях, показывают, что студенты со слаборазвитыми системами психологической защиты, низкой самооценкой и высокой тревожностью в экстремальных ситуациях могут быть обучены с помощью психокоррекционных тренингов, а коррекционно-развивающие тренинги могут способствовать формированию механизмов психологической защиты и их стабилизации в экстремальных ситуациях.*

Ключевые слова: *Неадекватный, дискомфорт, психодрама, индивидуальный, импровизация, коррекционное обучение, психодиагностический, психодинамика, реакция, модификация, психотехнический.*

THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF TRAINING PROGRAMS AIMED AT DEVELOPING PSYCHOLOGICAL DEFENSE MECHANISMS OF THE INDIVIDUAL IN EXTREME SITUATIONS

Annotation. *The article discusses the idea that experiments conducted in higher education institutions show that students with poorly developed psychological defense systems, low self-esteem, and high anxiety in extreme situations can be trained with psychocorrectional training sessions, and that corrective and developmental training can help form psychological defense mechanisms and stabilize them in extreme situations.*

Key words: *Inadequate, discomfort, psychodrama, individual, improvisation, corrective training, psychodiagnostic, psychodynamics, reaction, modification, psychotechnical.*

Oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalarning o'qish faoliyati va kundalik ishlariga psixik barqarorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Talabalarning o'zini o'zi boshqarish, tasodifiy vaziyatlarda tushkunlikka tushishini oldini olish, turli ta'sirlardan o'zini o'zi nazorat qilish, bosimdan chiqish va xavf-xatarda xavotirga tushmaslik kabi holatlarni o'rganish, ularni ilmiy tahlil etish va uning salbiy ta'sirlarini aniqlash muammosi bugungi kunda yechimini kutayotgan muammo hisoblanadi.

Tadqiqotimizda yuqoridagi zaruratni e'tiborga olib, talabalarning ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini o'rganish va uning ahamiyatini baholash muhim vazifamiz sifatida belgilandi.

Talabalarda turli vaziyatlar uchun zarur himoya mexanizmlarini barqaror shakllantirish muammosi, ta'lim jarayonida uning ijobiy tomonlarini rivojlantirish masalasi olimlar tomonidan o'rganilganligi tahliliy baholandi va shunga tayanib, talabalarda ekstremal vaziyatlarda himoya mexanizmlarini shakllantirish shart-sharoitlari va unga bog'liq qonuniyatlar, shuningdek, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim determinantlar to'g'risida ma'lumotlar to'plandi.

Tadqiqot davomida shu ma'lum bo'ldiki, xavfli, xavotirli vaziyatlar va murakkab jarayonlarda himoya mexanizmining shakllanganlik holati aniqlandi. Talabalarda ekstremal holatlarda o'zini o'zi nazorat qilish, turli bosimlardan chiqish, diskomfortni bartaraf etish kabi omillar himoya mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, talabalarda "talaba- psixik barqarorlik" holatlari garchi gorizontal asosga ega bo'lsa-da, xavf-xatar va turli murakkabliklarda o'zini himoyalash gorizontal emasligi, balki vertikal xarakterga ega bo'lishi tadqiqot davomida o'z isbotini topdi.

Talabalar orasida ekstremal vaziyatlarda turli sarosimalikni, qaror qabul qilishdagi kamchiliklarni oldini olish va himoya mexanizmlarini shakllantirish masalasi dolzarbligicha qolayotganligi kuzatildi. Bunday subyektiv voqelikni inobatga olib, talabalarda ekstremal vaziyatlarda himoya mexanizmlarini shakllantirish va himoya ustonovkalari zaif rivojlanganlarni aniqlab, ular bilan ijtimoiy-psixologik treninglar olib borish zarurati namoyon bo'ldi.

Aslida ijtimoiy psixologik treninglar – talabalarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish, o'zini o'zi nazorat qilish va turli vaziyatlarda o'zini-o'zi baholashga o'rgatish uchun bajariladigan mashqlar va xatti-harakatlar tizimidir.

Trening jarayoni – har bir mashqda uning rahbari qanday ustanovka (yo'nalish) berishidan iboratdir. Treningning asosiy maqsadi – asosan talabalarda himoya mexanizmlarini shakllantirish va uning xususiyatlarini barqarorlashtirish bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Treninglar ko'pincha uch qismdan tashkil topgan bo'ladi va ular quyidagilardan iborat:

1. Psixofiziologik munosabat o'rnatish.
2. Psixologik munosabatni kuchaytirish.
3. Psixodramma jarayoni.

Treningning asosiy yo'nalishi (ustanovkasi): rolli o'yin shaklida rolli vaziyatni idrok etishni tashkil qilishdan iborat, chunki trening uni qatnashchilarida trenerning yordamida o'yinda yaratilgan vaziyatlarga nisbatan individual munosabatni shakllantirishdan iborat.

Trening jarayoni 10-15 mashg'ulotni o'z ichiga qamrab oladi. Treningning hamma mashg'ulotlari uning ishtirokchilari bilan faqat do'stona, samimiy his-tuyg'ular, mehribonlik yaratish sharoitida va eng muhimi yordam ko'rsatish asosida hamda ixtiyoriy tarzda o'tkaziladi.

Talabalar orasidan trening ishtirokchilarining soni minimal 8 nafardan maksimal 12 nafargacha bo'lishi mumkin. Guruh bilan mashqlarni o'tkazishdagi majburiy mashqlarni shartlar bo'yicha belgilangan qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirilmasa, u xolda psixologik trening ijobiy natija bermasligi to'g'risida oldindan kelishib olish kerak bo'ladi. Jumladan:

-bir-biriga mehribonlik, xayrixohlik;

-bir-biriga ishonish va o'zaro hurmat;

-mashqlarni bajarish davomida shaxsning psixologik barqarorligiga uning o'quv faoliyatiga va himoyalanish mexanizmiga baho berish;

-ishtirokchilar o'yindan qay darajada qoniqqanligi haqidagi taassurotlarini shu zahotiyoq trenerga ma'lum qilish;

-topshiriqlarni bajarish faqat ijobiy farazga mo'ljallanganligi;

-shaxs kamchiliklariga nisbatan e'tibor qaratmaslik;

-trening jarayonida hech kimga xech qanday maslahat bermaslik;

-tomoshabinlar trenerning ruxsati bilan emas, balki guruhning barcha a'zolari roziligiga binoan qatnashishligi kabilardir.

Treningni muvaffaqiyatli o'tkazish va uning samaradorligi ko'p jihatdan trener bilan ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushinish darajasiga ham bog'liqdir.

Treningni tashkil etishda quyidagi murakkab holatlarni inobatga olish va ularni izchil ravishda nazarda tutish maqsadga muvofiq;

1. Talabalar orasida psixologik himoya mexanizmi past rivojlanganlari, barcha ishtirokchilarning ko'zlariga to'g'ridan-to'g'ri va dadil qaray olish;

2. O'yin boshida yaratilgan vaziyat eng omilkor va qulay bo'lishini esda tutish;

3. Treningni muvaffaqiyatli o'tkazish trenerdan intellektual-psixologik jihatdan ko'p kuch sarflash va bioquvvatni talab qilishini;

4. Treningda ishtirokchilarni o'zaro bir-biriga ishongan holda samarali ta'sir etish muhitini yaratishni.

Har bir ishtirokchi o'zini trening va trening yuzasidan improvizatsiya qilishga tayyorlashi lozim.

Talabalarda himoya mexanizmlarini shakllanishi uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish ham muhim sanaladi:

1. Talabalarda ekstremal vaziyatlarga nisbatan to'g'ri pozitsiyani topishi.

2. Himoya mexanizmlarini shakllanish darajasini inobatga olish.

3. Psixologik himoya mexanizmlarini shakllartirish imkoniyatlarini yaratish.

4. Talabalarda o'z-o'zini oqilona nazorat qilish va to'g'ri qaror qabul qilishini yo'lga qo'yish.

Trening o'tkazishdan maqsad shuki, talabalar orasida psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirish. Buning uchun yana quyidagilarga e'tibor berish o'rinli:

a) trening qatnashchilarining bir-birlariga ijtimoiy-psixologik jihatdan yordam berishga jiddiy e'tibor qaratish va kursdoshlari bilan o'zaro ishonchni mustahkamlash;

b) trening qatnashchilarida o'z ta'sirini sezilarli darajada o'zgartirishiga erisha olish.

Treningni o'tkazishda bir necha prinsiplarga amal qilish lozim hisoblanadi.

1. Erkinlik prinsipi.

2. O'zini-o'zi to'g'ri diagnostika qilish prinsipi.

3. Kamchilik va xatolarini tuzatishga intilish pritsipi.

Treningni o'tkazuvchi uchun shart bo'lgan vazifalar:

1. Muhokama tashkil qilish, ishchi guruh uchun qoidalar ishlab chiqish va har bir mashg'ulotda trener treningni maqsadi va vazifasini batafsil tushuntirib borishi.

2. Navbatdagi mashg'ulot ko'rsatmasini berish.

3. Qatnashuvchilar savollariga javob berish va ular bajarayotgan ishni to'liq nazorat qilish.

4. Trening dasturi mazmunini trening maqsadi asosida tahlil etish.

5. Trening haqida qatnashuvchilar bilan fikr almashish.

6. Qatnashuvchilarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish va ularga psixologik yordam berish.

7. Har bir mashg'ulotni yakunlash va uyga vazifa berish.

8. Mashg'ulot oxirida trener to'g'risida qatnashuvchilar o'z fikrini bayon qilishlariga imkoniyat yaratib berish lozim bo'ladi.

Trening mashg'ulotlari do'stona, samimiy va ixtiyoriy tarzda o'tkaziladi. Trening o'tkazishdagi shartlar buyicha ma'lum qoidaga rioya qilinmasa, u ijobiy natija bermaydi.

Psixologik trening o'tkazishning umumiy qonun-qoidalari:

1) Barcha qatnashchilar doira bo'lib o'tirishlari zarur.

2) Qatnashchilar soni 12 nafardan oshmasligi shart.

3) Psixolog trener qatnashchilar bilan birga treningdagi barcha topshiriqlarni ketma-ketlikda bajarishi shart.

4) Qatnashchilarning har biri barcha mashg'ulotlarda qatnashishi lozim.

5) Treningni o'tkazuvchi trener mashg'ulotlarini mahorat bilan boshqarishi kerak ya'ni har bir mijozning fikrini qo'llab-quvvatlashi va uni rag'batlantirib borishi zarur.

6) Treningni boshqaruvchi trener qo'yilgan muammolarni qatnashchilarning o'zlari hal qilishlari uchun qulay sharoit yaratishi kerak;

7) Mashg'ulot davomida qatnashchilar o'z ta'surotlarini yozib borishi uchun kundalik tutishlariga ruxsat berish lozim.

8) Barchani diqqat bilan tinglab borish zarur.

9) Barcha qatnashchilar ko'nglidagi gapni ro'y-rost va samimiy gapirishi shart.

10) Qatnashchining biron-bir nuqsoniga e'tibor bermaslik kerak.

11). Trening jarayonida hech kimga hech qanday maslahat berish mumkin emas.

12) Trening jarayonida erkin «bu yerda», «hozir» va «keyinchi» kabi so'zlarni ishlatish shart.

13) Trener har bir mashg'ulotni yakunlab, qatnashchilardan trening to'g'risidagi ta'surotlarini so'rashi lozim.

14) Trener albatta, uyga vazifa berishi, uni bajarilishini nazorat qilishi va o'rinli baholab borishi lozim.

Tadqiqot maqsadini amalga oshirishda belgilangan vazifalarni bajarish uchun korreksion bosqichda ma'lum bir psixologik himoya tiplari, o'zini o'zi past baholovchi va xavotirlanish darajasi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan 87 nafar sinaluvchilar bilan korreksion treninglar amalga oshirildi.

Treningni asosiy maqsadi ekstremal vaziyatlarda talabalardagi psixologik himoya mexanizmlarini barqarorlashtirishdan iborat edi. Shunga ko'ra, trening vazifasi sifatida quyidagilar belgilandi:

- psixologik himoya tiplarini barqarorlashtirish;
- o'zini o'zi baholash shkallarini aniqlashtirish;
- xavotirlanish darajasini pasaytirish;
-psixokorreksion mashqlardan so'ng sinaluvchilardagi o'zgarishlarni qayd qilish va samaradorligini baholash.

Trening qatnashchilari oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tajribalardan psixologik himoya tiplari past shakllangan, o'zini o'zi baholash darajasi past va ekstremal vaziyatlarda xavotirlanish yuqori sinaluvchilar (QarDU va SamDU talabalari)dan tanlab olindi. Ularning soni 87 nafarni tashkil qildi. Mashg'ulotlar to'rt hafta davomida har haftada uch kun o'tkazildi. Mashg'ulotning davom etish vaqti 30 daqiqadan 45 daqiqagacha vaqt oralig'ida amalga oshirildi.

Psixokorreksion faoliyat psixokorreksion kompleks dasturi yordamida amalga oshirildi. Mashg'ulot bir-biriga bog'liq bo'lgan to'rt bosqichdan iborat bo'ldi. Bular:

1) tayyorgarlik (psixodiagnostik) bosqichi.
2) korreksion bosqich.
3) korreksion faoliyatni samaradorligini aniqlovchi bosqich.
4) yakunlovchi (baholovchi) bosqichlar shakllantirildi.

Diagnostik bosqichning maqsadi: talabalardagi psixologik himoya mexanizmini aniqlash, psixologik korreksiyani shakllantirishning umumiy dasturini ishlab chiqish.

Korreksion bosqichning maqsadi: ekstremal vaziyatlarda xavotirlanish, himoya mexanizmi tiplarini shakllantirish va murakkab jarayonlarda o'zini o'zi to'g'ri baholashga o'rgatishni tarbiyalashdan iborat.

Korreksion faoliyat samaradorligini baholash bosqichining maqsadi: himoya mexanizmining psixologik mazmuni va psixodinamikasini o'lchash, ijobiy xatti-harakat reaksiyalarini paydo bo'lishini ta'minlash va o'zini boshqarishning ijobiy usullarini o'zlashtirishdan iborat.

Yakunlovchi (baholovchi) bosqichning maqsadi: oliy ta'lim muassasasi sinaluvchilari (talabalarda psixologik himoya mexanizmi)ning psixofiziologik treningdan oldingi va keyingi holatlarini taqqoslab, samaradorligini baholash va xulosalash edi.

Trening dasturida psixologik ximoyani rivojlantirish bo'yicha A.L.Bratkin, O.V.Yevtixov, E.Kristofer, G.Makmexon, S.I.Makshanov, S.Y.Mamontov, K.Fopel va boshqalar trening ishlanmalariga asoslanildi hamda talabalarning psixologik tuzilmasini hisobga olgan holda modifikatsiya qilindi.

Trening maqsadi talabalarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirishga erishishdan iborat edi.

Har bir mashg'ulot dasturga asosan psixotexnik muolajalar to'plami bilan ta'minlandi, bilim va malakalarning ma'lum ko'lamini o'zlashtirishni nazarda tutdi, mazkur bilim va malakalar psixik jarayonlarni boshqarishda muayyan samaraga erishish imkoniyatini beradi.

Korreksion rivojlantiruvchi treninglar yordamida psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish va ekstremal vaziyatlarda barqarorlashtirish mumkin ekanligi olib borgan tadqiqotimizning amaliy tahlillarida o'z isbotini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абулханова-Славская К.А. Развитиэ личности в процессе жизнедеятелности. – Психология формирования и развития личности. - М.: Наука, 1981. – С. 97-115.

2. Андреэва Г.М. Социалная психология. Учебник для высших учебных заведений. Г.М. Андреэва.– 5-э изд., испр. и доп. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 364с.

3. Barotov Sh.R. Mehnat jarayoni va ijtimoiy ruhiy jihatlar // Iqtisod va hisobot. – Toshkent, 1997. - № 9. – B. 60-62.

4. Barotov A., E.Mukhtorov. Results of empirical research carried out by psychologists in educational establishments. Sankt-Peterburg, 2007. – S. 17-19.

5. Божович Л.И. Проблемы развития мотивационной сферы ребенка. Изучениэ мотивации поведения детей и подростков. М.: Педагогика, 1972.– 196 с.

6. Узнадзе Д.Н. Экспериментальниэ основы психологии установки. – Тбилиси. 1961.-212 с.

7. Ядов В.А. Саморегуляция и прогнозированиэ социалного поведения личности. -Л.: Наука, 1979. -264 с.

8. Qodirov B.R. Tashxis markazlari va psixologik xizmat masalalari //Yangi turdagi o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari. - T.: 1998.- B.16-19.

9. Қодиров Б.Р. Уровен активизации и некоторые динамическиэ характеристики психической активности // Вопр.психологии. Москва. 1976. - № 4. – С.133-138.

Shukurova Dilfuza Roupovna
Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINING OMILLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini belgilash parametrlari va ko'rsatkichlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislari innovatsion kasbiy faoliyatiga xos bo'lgan barcha sifatlarni yaxshi egallash omillari muhokama qilingan.*

Tayanch so'z va tushunchalar: *maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim mutaxassisi, innovatsion kasbiy faoliyat, ijodiy yondashuv, pedagogik jarayon, malakali kadr, tarbiyalanuvchi, kasbiy rivojlanish.*

ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ГОТОВНОСТИ

.

Аннотация. *В статье идет речь о параметрах определения и показателях готовности будущих специалистов дошкольного образования к инновационной профессиональной деятельности. Также обсуждаются факторы, влияющие на овладение студентами – будущими специалистами дошкольного образования всеми качествами, присущими инновационной профессиональной деятельности.*

Ключевые слова и понятия: *дошкольное образование, специалист дошкольного образования, инновационная профессиональная деятельность, творческий подход, педагогический процесс, квалифицированный кадр, воспитуемый, профессиональное развитие.*

ANALYSIS OF FACTORS OF PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRESCHOOL EDUCATION SPECIALISTS

Annotation. *The article deals with paramentres of interactive methods acquiring in training by future specialists of preschool establishments to innovation professional activities. It highlights the fact that it is ongoing creative process. There are as well discussed achievements of psychology and pedagogics in training future specialists of preschool establishments to innovation professional activities, independent approach to mastering advanced experience, and creativity in learning the existing opportunities.*

Keywords: *preschool education, specialists of preschool establishments, innovation professional activities, interactive methods, pedagogical opportunity, creative approach, pedagogical conditions, professiogram.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan «2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707-son qaror maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi bejiz emas Har bir bola o'ziga xos xulq-atvor va xarakterga ega. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilar ta'limtarbiya berishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilishlari va ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim. Pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan talabalar, pedagog-tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan barcha sifatlarni yaxshi egallagan bo'lishlari kerak. Buning uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarni tanlab olishda ularning pedagogik layoqatga egaligini aniqlash lozim. Kasbiy rivojlanishning asosiy ko'satkichi

sifatida kasbiy layoqat, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatib o'tilgan. Shu bois kasb tanlash bo'yicha keng ko'lamdagi emperik materiallarda kasbiy sifatlar turli xil mehnat faoliyatiga muvofiq tanlangan. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, kasbiy layoqat egasi o'zida bir qator sifatlar majmuini emas, balki ularning sintezi, funksional apparati sifatida faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Kasbiy kamolotni belgilovchi asosiy psixologik omillar orasida shaxsning individual psixologik xususiyatlariga alohida urg'u beriladi. Kasbiy faoliyatga o'tish uzluksiz, bosqichli faoliyat bo'lib, ta'limda mustaqil kasbiy faoliyatga o'tish har bir insonning e'tiborga molik jihatidir. Bugungi sharoitda kasbiy tajriba, mutaxassisning kasbiy faoliyati yakunlangunga qadar ma'lum darajada eskirib bormoqda. Shu bois, shaxsning o'ziga munosib kasb tanlashida ham bunday holatlarning ta'siri bor. Shu sababli ham, shaxsning kasbni to'g'ri tanlaganligi, uning mayllari, qiziqishlari, kasbiy yo'nalishlari va tayyorgarligi, kasbiy ustanovkalaridagi o'zgarishlarni muntazam o'rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki muayyan kasbni egallashning dastlabki bosqichida bo'lg'usi mutaxassis uni egallash uchun nima qilish zarurligini yetarlicha tasavvur qila olmaydi .

Ma'lumki, bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni pedagogika oliy o'quv yurtlarida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda davlat va jamiyat tomonidan maktabgacha ta'lim sohasi mutaxassislarini tayyorlash jarayoni oldiga yangi talablar qo'yilmoqda. Pedagog-tarbiyachilarni tayyorlashga qo'yilgan talablar bo'lajak pedagog-tarbiyachi modelida o'z ifodasini topishi kerak. Ushbu model maqola muallifi tomonidan ishlab chiqilmoqda. Maqolada berilgan fikrlar taklif sifatida kiritilmoqda. Keyinchalik muallif o'z tadqiqot ishi doirasida modelni amaliy tajribadan o'tkazishni rejalashtirgan. Bu model bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda yaratilishi lozim. Mazkur model uchta o'zaro aloqador tarkibiy qismdan iborat:

1. Bo'lajak pedagog-tarbiyachining kasbiy sifatlari;
2. Bolalarni rivojlantirishga oid bilimlar majmui;
3. Maktabgacha ta'lim jarayonni tashkil etish uchun zarur ko'nikma va malakalar tizimi.

Bu tushunchalar o'zaro muvofiqlashgan bo'lib, bo'lajak pedagog-tarbiyachining faoliyat ko'rsatishi va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishiga yo'naltirilgan harakatini ifodalaydi. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning kasbiy sifatlari modelning birinchi qismi sirasiga: g'oyaviy yetuklik; e'tiqodlilik; pedagogik faoliyatga intilish, unga qiziqish; pedagogik vazifalarni ijodiy ravishda hal qilishga bo'lgan ehtiyoj kabi kasbiy-axloqiy sifatlar kiradi. Bular pedagog-tarbiyachilarning o'z kasbi va tarbiyalanuvchilarga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. Mazkur modelning ikkinchi qismida bolalarni rivojlantirish va istiqboldagi o'quv faoliyatiga tayyorlash haqidagi bilimlar majmui o'z ifodasini topgan. Bo'lajak pedagogtarbiyachilar bolalarni rivojlantirish qonuniyatlarini bilishi, ularni shakllantirish vositalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, ularga taqdim etiladigan bilimlar, tushunchalar, ma'lumotlarning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyatini anglab yetishi lozim. Modelning uchinchi qismini bo'lajak pedagogtarbiyachilarning kasbiy ko'nikmalari va malakalari tashkil etadi. Pedagog-tarbiyachilar bolalar bilan ishlashda ilmiy bilimlar asosida o'zining faol hayotiy nuqtai nazarini ifodalashi uchun quyidagilarni bilishi zarur: tarbiyalanuvchilar shaxsi va ularning ayrim sifatlarini kompleks metodikalar yordamida o'rganish; tarbiyalanuvchilar shaxsi va ular jamoasini rivojlantirishni loyihalashtirish; maktabgacha ta'lim jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish; ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashga erishish; ta'limtarbiya jarayonini kompleks boshqarish; tarbiyalanuvchilarning aqliy rivojlanish darajalarini baholash mezonlarini aniqlab, bu sohada samaradorlikka erishish; tarbiyalanuvchilarga qat'iy, axloqiy meyoriy talablar qo'ya olish; tarbiyalanuvchilar jamoasida qulay pedagogik muhitni vujudga keltirish; pedagog-tarbiyachi sifatida o'z faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish kabilar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarligini belgilash parametrlarini ishlab chiqdik. Ular: – bo'lajak pedagog-tarbiyachida kasbiy sifatlarning shakllanganligi; – bo'lajak pedagog-tarbiyachida ta'lim-tarbiya berish mahoratining shakllanganligi; – insonparvarlik sifatlarining shakllanganligi; – ma'naviy-madaniy tayyorgarlikning tarkib topganligi; – kasbiy pedagogik fikrlashning takomillashtirilganligi; – tashxislash, pedagogik-psixologik tayyorgarlikning ta'minlanganligi; – bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning ilmiy tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilganligi; – kommunikativ qobiliyatga egaligi va individual ijodiy rivojlanish

mayllarining qo'llab-quvvatlanganligi; – tarbiyalanuvchilar faoliyatini rag'batlantirish kompetensiyasiga egaligi; – pedagogik nazokatning tarkib topganligi; – tarbiyalanuvchilarga nisbatan talabchanlik va adolatlilik sifatlarining shakllanganligi; – mustaqil bilim olish ko'nikmalarining barqarorlashganligi; – pedagogik odobga egalik; – umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilishi; – kitobxonlik madaniyatining tarkib topganligi; – obrazli o'qish ko'nikmalarining shakllanganligi; – tashkilotchilik, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishga yo'nalganligi; – pedagogika fanining so'nggi yutuqlari, ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo'llay olishga tayyorligi kabilar. Maktabgacha ta'lim sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlar mashg'ulotlarni loyihalashga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Maktabgacha ta'limga texnologik yondashuv bu jarayonni samarali boshqarish va qo'yilgan ta'limiy maqsadlariga erishishni kafolatlaydi. Ta'lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Tarbiyachilar faoliyati bir tomondan, tanlangan texnologiyaga muvofiq keladigan, uning negizini tashkil etuvchi tizimni hosil qilsa, ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyatning yaxlit ifodasi sifatida namoyon bo'ladi . Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga texnologik yondashuv o'quv jarayonini yaxlit ifodalash va uni to'liq tasavvur etish imkonini beradi. U ta'limiy, pedagogik, ijtimoiy faoliyat qirralarini ochishda qulaylik tug'diradi. Jumladan: natijani yuqori darajadagi aniqlikda aks ettirish va pedagogik jarayonni samarali boshqarish; mavjud pedagogik tajribalarning ilmiy asoslarini o'rganish va ularni pedagogik amaliyotga tatbiq etish; ta'lim-tarbiyaviy, ijtimoiy vazifalarni yechish; tarbiyalanuvchi shaxsi taraqqiyoti uchun qulay pedagogik vaziyatni vujudga keltirish; pedagog-tarbiyachilarga noxush holatlar natijasida ko'rsatiladigan ta'sirlarni kamaytirish; ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik imkoniyatlardan oqilona foydalanishga erishish kabilar. Muallifning tadqiqoti doirasidagi o'rganishlar natijasida aniqlandiki maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik munosabatlarning tarkibiy qismi bo'lgan muloqot quyidagi shakllarda uyushtiriladi:

- pedagogik jarayonni loyihalash; tarbiyalanuvchilar guruhi bilan muloqotga kirishish;
- rivojlantiruvchi pedagogik jarayonda muloqot jarayonini boshqarishni tashkil etish;
- faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muloqot tizimining andozasini yaratish;
- tarbiyalanuvchilar bilan bevosita muloqotni tashkil etish kabilar.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagog-tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasidagi o'zaro munosabat va muloqotning bir necha turlari mavjud bo'lib, ular sust-ijobiy, barqaror ijobiy hamda beqaror bo'ladi. Ta'limiy omillarini yaratishga mo'ljallangan pedagogik texnologiyalar pedagogtarbiyachilarning tarbiyachilarga muloqot asosida ta'sir etish yo'llarini ham o'z ichiga oladi.

Ayrim metodlar yoki muloqot turlari bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni tayyorlashda alohida samaradorlikka ega. Ular ishontirish, isbotlangan natijalarga asosolanish, bevosita va bilvosita ta'sir, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zaro ta'sir metodlari. Amaliyotda oqlangan har qanday ta'lim texnologiyasi tarbiyalanuvchi shaxsini faollashtirishga xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini rivojlantirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimi vositasida amalga oshiriladi. Bunda tarbiyalanuvchi ta'lim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta'lim-tarbiya jarayonida erkinlikka intilishi, mustaqilligi, shaxsiy fikrlarning mutloq o'ziga xosligi, o'z-o'zini namoyon qilish ehtiyojining mavjudligi kabilarni hisobga olgan holda, unga uning o'ziga xosligini ta'kidlash, o'z-o'zini rivojlantirish imkonini berish va buning uchun qulay pedagogik sharoit yaratish lozim. Chunki, har qanday tarbiyalanuvchi o'ziga xosligini namoyon qilishga intiladi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar bir qator o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi. Mashg'ulotlarning asosiy maqsadi - tarbiyalanuvchilar tafakkurini boyitish, ularni har tomonlama rivojlantirish, maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat bo'lib, muayyan tushunchalar va ma'lumotlar, bilim elementlari tarbiyalanuvchilarga taqdim etiladi . Birgalikda ijodiy izlanish muhim pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, aynan u pedagogtarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarni ijodkorlik quvonchini namoyon qilish, yangiliklar yaratish, mustaqil izlanish va ijodiy faoliyatni tashkil etishga undaydi. Bunda pedagogtarbiyachilar ta'lim-tarbiya jarayonining birinchi subyekti sifatida namoyon bo'ladilar. Ular

tomonidan bilish usullarini mustaqil belgilash, bolalarning bilish faoliyatini rag'batlantirish, ularni har tomonlama qo'llabquvvatlash kabi pedagogik faoliyat amalga oshiriladi. Bu jarayonda tarbiyachilar o'z xatolarini tuzatish, shaxsiy tajribalariga tayanish, o'z layoqatlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tarbiya jarayoni har bir tarbiyalanuvchi uchun o'z qiziqishlari va bilish qobiliyatlarini mashg'ulotlar davomida namoyon qilish imkoniyati yaratilishi zarur. Shu bois, respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uning innovatsion asoslarinini shakllantirish, moddiy-texnik va uslubiy ta'minotini rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib takomillashtirish vazifasi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Bunda bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorgarligi har bir tarbiyalanuvchining imkoniyatlarini aniqlash asosida ularning shaxs sifatida rivojlanishlari, ijtimoiylashishlariga ko'maklashadi. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- bugungi kunda maktabgacha va ta'lim muassasalari pedagoglarida kasbiy faoliyat tajribasi, pedagogik jamoa, ta'lim-tarbiya jarayoni hamda ta'lim muassasasini boshqarish ko'nikmalarining yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatdi;
- mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimi tubdan isloh qilinayotgan hozirgi davrda mazkur ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatadigan pedagoglarning bilim saviyasiga, kasbiy mahoratiga katta talablar qo'yilmoqda;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida tarmoqlarning kengayishi, davlat va nodavlat muassasalari sektorining rivojlanishi barobarida ushbu ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatadigan pedagoglar kasbiy faoliyatining o'ziga xos jihatlari, pedagogik jarayon va ta'lim muassasasini boshqarish, uni rivojlantirish mexanizmlarini puxta o'zlashtirishlari talab qilinadi;
- maktabgacha ta'lim sohasidagi ijtimoiy buyurtma ko'lamining kengayishi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoni oldiga o'ziga xos talablar qo'ymoqdaki, bu kasbiy ta'lim jarayoniga faoliyatli, kreativ, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarni keng tatbiq qilish zaruriyatini kuchaytirdi;
- maktabgacha ta'lim tizimi, unda faoliyat ko'rsatadigan pedagogik kadrlar bilim darajasini takomillashtirish ehtiyoji bu sohada faoliyat ko'rsatadigan mutaxassislarni tayyorlashning nazariy asoslarini rivojlantirish yangi yondashuvlar bilan boyitish ehtiyojini keltirib chiqardi.

Maktabgacha ta'limni sifat jihatdan takomillashtirish unga qo'yilgan talablarni hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash bilan bir qatorda, mazkur ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini mazmun jihatdan boyitish talab qilinadi.

Foydanilgan Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2707 son qarori.

2. Djurayeva B.R.,Umarova X.A., Tojiboyeva H.M., Nazirova G.M. Organizatsionnosoderjatelniye osnovi innovatsionnoy deyatelnosti doshkolnix obrazovatelnix uchrejdeniy / Metodik qo'llanma. – Toshkent: O'zPFITI, 2016. - 100 str.

3. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. - Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

4. «Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirish: muammo va yechimlar» mavzusidagi respublika ilmiyamaliy konferensiyasi materiallari. - T.: O'zPFITI. LESSON PRESS. 2017 yil 15 sentabr. - 168 bet.

Shukurova Ilminur Baxtiyorjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

SHARQ MADANIYATIDA KO'P AVLODLI OILALARNING PSIXOLOGIK O'ZIGA XOSLIKLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy merosida muhim o'rin tutuvchi ko'p avlodli oilalarning tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik ahamiyati yoritilgan. Tarixiy manbalar hamda buyuk mutafakkirlarning qarashlari asosida ko'p avlodli oilalarning ijtimoiy institut sifatidagi roli, ularda shakllangan qadriyatlar va tarbiya tamoyillari tahlil qilingan. Shuningdek, mustaqillik yillarida mamlakatimizda bu boradagi davlat siyosati, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va oilaviy an'analarni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar ham yoritib berilgan. Maqola yakunida ko'p avlodli oilalarning zamonaviy jamiyatdagi dolzarbligi va ularni tadqiq etish zarurati ilmiy asoslangan holda ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *ko'p avlodli oila, sharqona oila modeli, qadriyatlar, shaxs kamoloti, muammoli vaziyatlar, tarixiy-falsafiy yondashuv, ma'naviy-axloqiy yondashuv, ijtimoiy mas'uliyat, birgalikda yashash, oilaviy munosabatlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МНОГОПОКОЛЕННЫХ СЕМЕЙ В КУЛЬТУРЕ ВОСТОКА

Аннотация. *В статье подчеркивается образовательное и социально-психологическое значение многопоколенных семей, которые играют важную роль в культурном и духовном наследии узбекского народа. На основе исторических источников и взглядов великих мыслителей анализируется роль многопоколенных семей как социального института, сформированные в них ценности и принципы воспитания. В нем также освещается государственная политика в этом направлении в нашей стране за годы независимости, инициативы, направленные на сохранение национальных ценностей, укрепление семейных традиций. Статья завершается научно обоснованным акцентом на значимости многопоколенных семей в современном обществе и необходимости их изучения.*

Ключевые слова*: многопоколенная семья, восточная модель семьи, ценности, личностное развитие, проблемные ситуации, историко-философский подход, духовно-нравственный подход, социальная ответственность, совместное проживание, семейные отношения.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MULTIGENERATIONAL FAMILIES IN EASTERN CULTURE

Annotation*. This article highlights the educational and socio-psychological significance of multi-generational families, which play an important role in the cultural and spiritual heritage of the Uzbek people. Based on historical sources and the views of great thinkers, the role of multi-generational families as a social institution, the values and principles of upbringing formed in them are analyzed. Also, the state policy in our country in this regard during the years of independence, initiatives aimed at preserving national values and strengthening family traditions are highlighted. At the end of the article, the relevance of multi-generational families in modern society and the need for their research are emphasized on a scientifically based basis.*

Keywords*: multigenerational family, Eastern family model, values, personal development, problematic situations, historical-philosophical approach, spiritual-moral approach, social responsibility, living together, family relationships.*

Kirish. Sharq xalqlari tarixan oila institutiga alohida e'tibor berib kelgan, uni jamiyatning tayanchi, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarning manbai sifatida ko'rgan. Xususan, ko'p avlodli oilalar — bobolar, buvilar, ota-onalar, farzandlar va nabiralarni birlashtirgan turmush tarzining an'anaviy shakli — Sharq madaniyatida yuksak ijtimoiy va ma'naviy ahamiyat kasb etadi. Bu kabi oilalarda nafaqat

moddiy va maishiy qo'llab-quvvatlash, balki madaniy meros, tarbiyaviy qadriyatlar, tajriba va donishmandlikning nasldan-naslga o'tishi ta'minlanadi. Ana shu uzviylik, ya'ni avlodlar davomiyligi orqali shakllanadigan oilaviy muhitning psixologik jihatlarini tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Sharq jamiyatlarida, xususan O'zbekistonda, ko'p avlodli oilalar nafaqat iqtisodiy yoki ijtimoiy zaruratlardan kelib chiqadi, balki bu holat xalqning asrlar davomida shakllangan madaniy qadriyatlari va an'anaviy ijtimoiy tuzumiga chuqur singib ketgan. Bunday oilalarda har bir a'zo o'ziga xos ijtimoiy rol, ma'naviy mas'uliyat va vazifalarga ega bo'lib, bu esa o'z navbatida oilaviy munosabatlarning psixologik mohiyatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida oilaviy munosabatlar tizimini rivojlantirish va oila a'zolarida o'zaro munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar qabul qilingan bo'lib bulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi KQ-29-V-sonli qarorida "Oila instituti huquqiy asoslarini takomillashtirish va oilaviy qadriyatlarni saqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari" belgilangan bo'lib, unda oilalarda oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi, mustahkamlovchi dasturlar va ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, oilaviy barqarorlik va qadriyatlar uzviyligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan [1].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil 1-iyul holatiga O'zbekiston Respublikasida 42 761 ta oilaviy korxona faoliyat yuritmoqda [2]. Bu ko'rsatkich oilaviy iqtisodiy faoliyatning keng tarqalganligini va ko'p avlodli oilalarning iqtisodiy hayotda faol ishtirok etayotganligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyatning turli davrlarida oila instituti, uning ijtimoiy va axloqiy asoslari haqida fikr yuritish mashhur mutafakkirlarning diqqat markazida bo'lgan. Xususan, Sharq allomalari — Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar oila, tarbiya va jamiyatdagi o'zaro munosabatlar masalalariga chuqur e'tibor qaratgan.

Masalan, Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida ijtimoiy tuzum va fozil jamiyat asosida shakllanadigan ideal oilaviy munosabatlarni bayon qilgan [3]. Uning fikricha, shaxs kamolotida oila muhitining roli hal qiluvchidir.

Yusuf Xos Hojib esa "Qutadg'u bilig" asarida axloqiy yetuklik, ota-ona va farzand o'rtasidagi hurmat, odob va ma'naviyatni jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin qiladi [4]. U oiladagi vazifalar taqsimoti, tarbiyaning qadriyatlar asosida olib borilishi kerakligini ta'kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida bola sog'lig'i va tarbiyasining o'zaro bog'liqligini, ruhiy sog'lomlikning oilaviy muhitga bog'liqligini ilmiy asosda tushuntirgan [5].

Ahmad Yassaviy esa "Devoni hikmat"da ma'naviy poklik, taqvo va oilada mehr-oqibat muhitini mustahkamlash orqali inson qalbini tarbiyalash g'oyasini ilgari surgan [6].

Alisher Navoiy asarlarida esa jamiyatda axloqiy yetuk shaxsni shakllantirishda oila muhitining o'rni keng yoritiladi. Ayniqsa, "Mahbub ul-qulub" asarida oilaviy qadriyatlar va odob-axloq masalalariga alohida e'tibor berilgan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asoslarini belgilashda Sharq mutafakkirlarining oilaviy qadriyatlar, tarbiya va jamiyatdagi shaxslararo munosabatlar haqidagi qarashlariga tayanildi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Yassaviy va Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan g'oyalar orqali ko'p avlodli oilalarning ijtimoiy-psixologik o'ziga xosliklarini tahlil qilish imkoniyati vujudga keladi.

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar mavjud:

Tarixiy-falsafiy yondashuv. Ushbu yondashuvda Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asaridagi fozil jamiyat modeli orqali ideal oila muhitining shaxs kamolotiga ta'siri ochib beriladi. Bu yondashuv orqali oila va jamiyatning uzviy bog'liqligi, qadriyatlar orqali shakllanadigan axloqiy me'yorlar tadqiq etiladi [3].

Ma'naviy-axloqiy yondashuv. Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asarida ilgari surilgan ruhiy poklik, sabr, muhabbat, mehr-oqibat, saboqlilik kabi tushunchalar oilada ijtimoiy-psixologik

salomatlikni shakllantiruvchi muhim omillar sifatida qaraladi [6]. Shu bilan birga, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida oilaning axloqiy poydevori jamiyat barqarorligining garovi sifatida talqin qilinadi [4].

Bundan tashqari, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida bola sog’lig’i va ruhiy barqarorligi oila muhitiga bog’liqligi asosida ko’rib chiqiladi [5]. Bu qarashlar zamonaviy biopsixososial model bilan uyg’unlashgan holda bola shaxsining shakllanishida oilaning kompleks ta’sirini ochib beradi.

Tadqiqotda Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan oilaviy axloqiy normalar — hurmat, itoat, odob, sabr kabi fazilatlar hozirgi zamon ko’p avlodli oilalarda kuzatilayotgan psixologik muammolar bilan tahliliy bog’lanadi [7]. Bu yondashuv orqali qadriyatlar inqirozining zamonaviy ko’rinishlari aniqlanadi.

Tahlil va natijalar. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko’rsatadiki, sharq madaniy doirasida shakllangan ko’p avlodli oilalarda o’zaro munosabatlar chuqur tarixiy ildizlarga ega bo’lgan qadriyatlar — hurmat, itoat, sabr-toqat, qanoat, kattalarning tajribasiga tayanish, oilaviy birdamlik kabi psixososial omillar asosida shakllanadi. Bunday qadriyatlar, ayniqsa, oila ichidagi rollarning aniqligi, o’zaro hurmat, ijtimoiy mas’uliyat va mehr-muruvvat tamoyillari orqali namoyon bo’ladi.

Sharq oilalarda psixologik o’ziga xosliklar avvalo qadimiy urf-odatlar, diniy qadriyatlar va avlodlararo uzviylik tamoyillari asosida shakllanadi.

Sharq madaniyatining o’ziga xos jihati — oila tushunchasining har narsadan ustun qo’yilishidir. Bu yondashuvda oilaning saqlanib qolishi, uning barqarorligi, ichki muvozanati — har bir a’zoning psixologik holatidan ham ustun hisoblanadi. Bunday ijtimoiy modelda farzandlar ko’pincha mustaqil individuatsiyadan ko’ra, oilaviy qarorlar va kutilmalarga moslashish holatida voyaga yetadi.

Sharq jamiyatlari, xususan, Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq hududlarida ko’p avlodli oilalar tarixiy va madaniy jihatdan mustahkam ijtimoiy birlik sifatida qaralgan. Bu oilalarda har bir avlodning aniq roli, vazifasi va ijtimoiy mavqei bor. Sharq madaniyatida “katta avlodga hurmat”, “birgalikda yashash”, “ajdodlar merosini davom ettirish” singari qadriyatlar asosida shakllangan oilaviy rollar tizimi mavjud.

Quyida keltirilgan grafik aynan shu madaniy kontekstda, Sharq oilalaridagi avlodlararo rollarning funktsional taqsimotini ifodalaydi. Bu grafikadagi har bir toifadagi ishtirokchilar – bobo va buva, ota-onalar, nabiralar va boshqa qarindoshlar – o’zaro aloqadorlik va tarbiyaviy hamda madaniy meros uzatishdagi roli bilan ajralib turadi.

Sharq va G’arb madaniyatlarining oilaviy modelga bo’lgan yondashuvlari keskin tafovut qiladi. G’arb jamiyatlarida individualizm va shaxsiy mustaqillikka asoslangan oilaviy tizim ustuvor bo’lsa, Sharqda esa kollektivizm, avlodlararo bog’liqlik, kattalarga hurmat va jamoaviy farovonlik g’oyalari hanuzgacha kuchli saqlanib kelmoqda.



Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sharq xalqlari, xususan O'zbekiston xalqi tarixan oila institutiga beqiyos ahamiyat berib kelgan. Ko'p avlodli oilalar esa bu qadriyatning yorqin ifodasi bo'lib, ular faqat moddiy yordam manbai emas, balki madaniy, tarbiyaviy va axloqiy qadriyatlarning uzviy davomchilari sifatida jamiyat barqarorligida muhim o'rin tutadi. Bunday oilaviy tizimda avlodlararo tajriba almashinuvi, ruhiy va ijtimoiy tayanchning mustahkamlanishi, shaxs kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ko'p avlodli oilalarni asrash va ularning ijtimoiy-psixologik ahamiyatini chuqur o'rganish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan. Prezident farmonlari va parlament qarorlarida oilaviy barqarorlikni mustahkamlash va qadriyatlarni asrash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Statistik ma'lumotlar esa ko'p avlodli oilalarning faqat ijtimoiy hayotda emas, balki iqtisodiy faoliyatda ham faol ishtirok etayotganini ko'rsatmoqda.

Sharq mutafakkirlarining - Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino kabi olimlarning oila va tarbiya haqidagi fikrlari bugungi zamonaviy ilmiy izlanishlar uchun bebaho manba bo'lib xizmat qilmoqda. Bu mutafakkirlarning ta'limotlari oilaviy munosabatlarning ma'naviy-axloqiy asoslarini mustahkamlash, yosh avlodni tarbiyalash va oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylashda muhim yo'riqnoma sifatida ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, Sharq madaniyatidagi ko'p avlodli oilalarning psixologik, ijtimoiy va ma'naviy xususiyatlarini o'rganish, ularning zamonaviy jamiyatdagi rolini tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekani shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi "Oila instituti huquqiy asoslarini takomillashtirish va oilaviy qadriyatlarni saqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari" nomli KQ-29-V-sonli qarori.

2. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/55094-o-zbekistonda-faoliyat-yuritayotgan-oilaviy-korxonalar-soni

3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.

4. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig* (A. Shukurov, Tahrir.). Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2020.

5. Ibn Sino, A. A. *Tib qonunlari* (A. Komilov, Tarjimasi). Toshkent: Sharq nashriyoti, 2012.

6. Xoja Ahmad Yassaviy. *Devoni hikmat* (Yangi topilgan namunalar) "Movarounnahr" Toshkent -2004.

7. Navoiy, A. *Mahbub ul-qulub*. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1999.

Tog'ayeva Umida Shavqi qizi
Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: u.s.togayeva@buxdu.uz

"ONA TILI O'QITISH METODIKASI" MODULINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK, LINGVODIDAKTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "Ona tili o'qitish metodikasi"ni takomillashtirishda pedagogik, lingvodidaktik va pragmatik xususiyatlarni inobatga olish, o'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil qilish, talabalarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish, ona tilidan matnlarni tahlil qilishda zamonaviy metod va usullarni qo'llash, o'quvchining ta'lim jarayonidagi o'rnini belgilash, ta'limga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topgan.*

Kalit so'zlar: *kompetentlik, kompetensiya, ijodkorlik, matn tahlili, innovatsion ta'lim texnologiyalari, mustaqil fikrlash, kreativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ, ЛИНГВИСТОДИКАТИЧЕСКИЕ И ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МОДУЛЯ "МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА"

Аннотация. *В статье отражены особенности учета педагогических, лингводидактических и прагматических особенностей в совершенствовании "Методики обучения родному языку", организации учебных занятий в новых современных формах и методах, целенаправленного управления учащимися на уроке, использования современных методов и приемов анализа текстов на родном языке, определения места учащегося в образовательном процессе, обеспечения нового подхода к обучению и нового отношения.*

Ключевые слова: *компетентность, креативность, анализ текста, инновационные образовательные технологии, самостоятельное мышление, творческая компетентность, прагматическая компетентность.*

PEDAGOGICAL, LINGUISTODICATIC AND PRAGMATIC FEATURES IN IMPROVING THE MODULE "MOTHER LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY"

Abstract. *This article reflects the specific features of taking into account pedagogical, linguodidactic and pragmatic features in improving the "Mother Language Teaching Methodology", organizing training sessions in new modern forms and methods, purposeful management of students during the lesson, using modern methods and techniques in analyzing texts in the mother tongue, determining the student's place in the educational process, and ensuring a new approach to education and a new attitude.*

Key words: *competence, creativity, text analysis, innovative educational technologies, independent thinking, creative competence, pragmatic competence.*

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim sohasida kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kompetentlilik tushunchalari faol qo'llana boshlandi. Tilshunoslikda *kompetensiya* atamasi ilk bor XX asr o'rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo'llanilib, tilni ishlatish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma, malakalar majmui sifatida; ta'lim sohasida uni qo'llash esa uning izdoshlari tomonidan *kompetensiyaviy yondashuv* sifatida talqin etilib, *kompetensiyaviy yondashuv* ta'limda natijaviylikni ko'rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan.

Kompetensiya [lot. sompetere – layoqatli, munosib bo'lmoq] 1. Muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi, vakolat. 2. Shaxsning biror sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi.

Kompetentlilik bevosita kasbga loyiqlik, o'z sohasi bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma, malakalaridan kasbi doirasida mustaqil ravishda amaliy foydalana olish va ijodiy munosabatini namoyon qila olish qobiliyatidir. Darhaqiqat, ko'p narsani bilsa-da, lekin ularni amaliy qo'llay olmaydigan talabaning, o'qituvchining jamiyatga ham, o'ziga ham foydasi tegmaydi. Kompetentli o'qituvchi quruq bilim sohibi bo'lib qolmasdan, balki o'z bilimlaridan yuzaga kelgan vaziyatlarda yetarlicha foydalana oladi, xotirasida tez tiklanadigan bilimdon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzviyligi, uzluksizligi, ta'lim oluvchi shaxsi ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda kommunikativ, o'zini-o'zi rivojlantirish, axborotlar bilan ishlash, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi hamda umummadaniy va milliy kompetensiya kabi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Ona tilini o'rganishda o'quvchi-talabalar nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi.


Davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan talablarini bajarish, avvalo, har bir ta'lim bosqichi bo'yicha belgilangan kompetensiyalar darajalarini hamda ta'lim oluvchilarda ushbu layoqatlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini bilishni taqozo etadi. Ona tilini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv muammosiga doir olimlarimizning izlanishlari, xususan, taniqli tilshunos olim A.Nurmonov va G.Ziyodullayevalarning maqolalarida ta'lim oluvchilarning til kompetentligini rivojlantirish borasidagi fikr-mulohazalar yoritiladi. Tilshunos olim Sh.Safarov keng qamrovli ijtimoiy vaziyatlar sharoitida muloqot vaziyatlari o'zgarib turishi, oddiy tuzilishda bo'lgan pragmatik strukturaning murakkablashib borishi, ayni paytda pragmatikaning semantik qobig'i to'xtovsiz kengayib borishini ta'kidlar ekan, "lisoniy tahlilni pragmatikadan boshlamoq zarur" degan to'xtamga keladi. Tilshunos U. Rahimov esa o'z maqolasida kommunikativ muloqot va lingvistik kompetensiya ijtimoiy munosabat omili ta'sirida ham boyib borishi va kompetentlikning rivojlanib borishiga bir necha omillar ta'sir qilishi haqida o'z mulohazalarini bildiradi.

Asosiy qism. Bugun dunyo miqyosida ta'lim samaradorligi va sifatini oshirishda integrativ pedagogikadan foydalanish, o'qitish jarayonlarining integratsiyalashuviga kompleks yondashuvni tatbiq etishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. "Hamkorlik pedagogikasi, – deb yozadi professor Q.Yo'ldoshev, – har bir inson shaxsiyatida demokratik sifatlarni shakllantirishga qaratiladi. Toptalmagan erk, sindirilmagan insoniy g'urur uning faoliyatida ham, fikrlarida ham ijodkorlik bo'lishiga olib keladi. Bunda o'qituvchi bilan ta'lim oluvchi orasida chinakam insoniy munosabatlar o'rnatiladi va ularning ishchanlik darajalari bir necha barobarga oshadi."

Ta'lim-tarbiya jarayonida, xususan, ona tili ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Keyingi yillarda ona tilini boshqa fanlarga bog'lagan holda o'qitish ishlariga ham diqqat qaratilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Negaki, ona tili bu bosqichda barcha fanlarni o'zlashtirishning asosi, kaliti sanaladi. Integratsion yondashuv asosida tashkil qilingan darslar ham o'z samarasini tezda beradi. Ta'lim jarayonini demokratizatsiyalash va insonparvarlashtirishni amalga oshirmay turib, qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samara bermaydi. Bizningcha, antroposentrik yondashuvga asoslangan innovatsion va integratsiyalashgan darslar quyidagi tuzilishga ega bo'ladi:

Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilingan darslarda o'qituvchi-talaba hamkorligidagi ta'lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasini berish imkoniyati kengayadi. Bunday darslar markazida umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan holdagi insoniylik singdirilgan o'quv topshiriqlari, savollar turishiga e'tibor qaratiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsining shakllanishi uni e'zozlash orqali o'z-o'zini rivojlantirishga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratishga yordam beradi. Talaba shaxsiga hurmat tufayli unda o'z-o'ziga ishonch hissi paydo bo'ladi. Insonparvarlashtirish asosidagi hayotga bog'langan darslar talabani o'z fikrini erkin bayon qilishiga yordam beradi.

Milliy tilni chuqur o'zlashtirish ta'lim-tarbiyaning asosiy jihatlaridan sanalar ekan, o'quv fanlarining asosi hisoblangan ona tilini o'rgatish jarayonida dasturga kiritilgan, darsliklarda berilgan materiallar bilan cheklanmay, o'rganiladigan nazariy qoida-ta'riflarni asoslashda amaliy misollarning o'rni bilan buyuk mutafakkirlarimiz hayoti va ijodiga taalluqli bo'lishiga erishish mumkin.



“Ona tili o’qitish metodikasi” modulini takomillashtirishga asoslangan mashg’ulot tuzilmasi

Ona tili fanining ijtimoiy hayot to’g’risidagi bilimlarni kuchaytiruvchi, mustahkamlovchi fan ekanligini nazarda tutib, yangi yaratilayotgan ona tili dasturi va darsliklari mazmuniga buyuk ajdodlarimizning boy merosini yanada kengroq tarzda singdirish maqsadga muvofiqdir.

Ona tili fanidan davlat ta’lim standartlarining malaka talablarida ham o’quvchi shaxsida shakllantirilishi kerak bo’lgan o’z-o’zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish; o’z bilimi, xatti-harakatini baholash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini egallash, til imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrni to’g’ri, ravon bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirish kabi me’yorlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Kreativ kompetensiya o’z ichiga nutqiy va lingvistik bilim, ko’nikmalarni olganidek, pragmatik kompetensiya ham bevosita ulardagi o’zaro aloqador ko’nikma va malakalar orqali shakllantiriladi. Pragmatik kompetensiya – muayyan vaziyatlardan ustalik bilan chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo’lishdir. Pragmatika kommunikativ vazifalarni hal qilish maqsadida lisoniy vositalardan tanlab foydalanishni nazarda tutuvchi real muloqot vaziyati sifatida talqin qilinadi. Pragmatik kompetensiya deganda muloqot jarayoni qatnashchilari bo’lgan kommunikant va kommunikantning millati, ijtimoiy roli (mavqeyi), yoshi, jinsi kabi omillarni hisobga olgan holda muloqot madaniyatiga rioya qilishi tushuniladi. V.N.Komissarovning ta’kidlashicha, nutqiy muloqotda pragmatik munosabatlarning – axborotning manbayi, lisoniy birlik ifodalayotgan pragmatik ma’no, axborotga pragmatik munosabati kabi uchta turi ishtirok etadi.

Ona tili milliy qadriyat bo’lib, milliy o’zligimiz asosini tashkil etadi. Unga eng oliy ehtirom e’tiqodida bo’lish milliy va umummadaniy kompetensiya negizini tashkil qiladi. Kishining badiiy adabiyot va san’atni tushunishi ham ona tili imkoniyati, qudrati va nafosatini his etishi darajasiga ma’lum darajada bog’liqligini hech kim inkor etmasa kerak.

“Ona tili o’qitish metodikasi” fanidan seminar mashg’ulotda matn asosida talabalarga insonparvarlik tarbiyasini berish hamda nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyani rivojlantirish maqsadida quyidagi matn ular muhokamasiga tashlanadi:

Onaizor

Muborakxonim shuncha gap-so’zdan keyin Anvarning hovliga bunchalik beibo bostirib kirganiga o’zicha ma’no berdi-yu, Marg’ubaning dod-faryod qilgani, Muhayyoning turmushi nima uchun buzilganligi to’g’risida tarqagan mishmishlarda jon bor, degan fikrga keldi-da, “Muhayyo nahot shu ahvolga, ota-onasining oppoq sochini oyoqosti qiladigan bir ahvolga tushgan bo’lsa?” deb yuragi orziqdi.

Yana bir tandir bo’ladigan non yopilmasdan qoldi. Muborakxonim xo’rligi keldi, yuzini changallab xo’p yig’ladi, keyin tutaqdi; Muhayyo nimadandir quvonib hakkalab–sakrab ko’chadan

kirib kelganda esa uradigan, sochlarini yuladigan, o'zini g'ijimlab tashlaydigan bir vajohat bilan unga tomon otildi. Muhayyo onasining vajohatini ko'rib qo'rqib ketdi, og'zidan chiqayotgan peshtaham so'zlarni eshitib, "Yana biron chaquv bo'lganga o'xshaydi", deb o'yladi-da, uni hozir jahldan tushirishga urinish behuda ekanini ko'rib cho'kka tushdi va "uring" degan ma'noda bosh egdi. Muborakxonim birdan to'xtadi, vujudi titrab qiziga o'qtalgan mushtini o'zining ko'kragiga, boshiga urib dod soldi:

– Xudoyo bo'yning uzilmasin, bolam! Bo'yning uzilmasin!

Garang bo'lib qolgan Muhayyo uning qo'llarini tutdi, suyab supaga o'tqazdi.

– Ayajon, o'zingizni bosing! Nima gap o'zi? Nima bo'ldi? Nima gunoh qildim?..

Muborakxonim uning uzatilgan qo'llariga shart-shurt urdi, ikki yelkasidan ushlab itarib tashladi. Muhayyo chalqancha yiqilayozdi, ikki qo'liga tayanib, yerga o'tirib qoldi, boshidan do'ppisi uchib ketdi. Muborakxonim yana urmoqchi bo'lib o'dag'ayladi.

– Gunohingni bilmaysanmi?!

Muhayyo ko'zlari javdirab onasiga qaradi.

– Bilaman, ayajon, bilaman, gunohim qiz bo'lib tug'ilganligim...

183 so'zdan iborat mazkur matn ustida ishlash usullari tushuntiriladi va ularga shunday topshiriqlar beriladi.

Muborakxonim shuncha gap-so'zdan keyin Anvarning hovliga bunchalik (1) bostirib kirganiga o'zicha ma'no berdi-yu, Marg'ubaning (2) qilgani, Muhayyoning (3) nima uchun buzilganligi to'g'risida tarqagan mishmishlarda jon bor, degan fikrga keldi-da, "Muhayyo nahot shu ahvolga, ota-onasining oppoq sochini (4) qiladigan bir ahvolga tushgan bo'lsa?" deb yuragi orziqdi.

1-4-topshiriqlar. Matnni diqqat bilan o'qing. Raqamlar o'rniga quyida harflar bilan ifodalangan javoblardan mosini qo'ying:

1. a) beibo	b) hayosiz	s) yomon	d) vajohatli
2. a) baqir-chaqir	b) dod-faryod	s) alg'ov-dalg'ov	d) urush
3. a) hayoti	b) uyi	s) turmushi	d) kelajagi
4. a) oyoqosti	b) behurmat	s) johil	d) yovuz

5-topshiriq. Matndagi "Xudoyo bo'yning uzilmasin, bolam! Bo'yning uzilmasin!" gapi qanday gap? a) darak b) so'roq d) undov

6-topshiriq. "Ayajon, o'zingizni bosing! Nima gap o'zi? Nima bo'ldi? Nima gunoh qildim?" Ushbu gap qanday gap?

a) darak b) so'roq s) undov

7-topshiriq. Muhayyo nega cho'kka tushdi va "uring" degan ma'noda bosh egdi?

8-topshiriq. Matndagi qahramon tilidan aytilgan "Bilaman, ayajon, bilaman, gunohim qiz bo'lib tug'ilganligim..." gapini izohlang.

9-topshiriq. Matn qahramoni bo'lgan Muhayyoda qanday insoniy fazilatlar bor deb o'ylaysiz?

10-topshiriq. "Onaizor" matnida qanday g'oyalar ilgari surilgan?

Matn talqini va shaxs omili masalasi matn yaratilishi va uning mazmuniy persepsiyasi muammolari bilan uzviy bog'liqdir. Bu masalani tadqiq etishda matn yaratuvchi shaxsnigina emas, uni idrok etuvchi shaxs – tinglovchi yoki ta'lim oluvchi omilini ham o'rganish muhimdir. Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish o'zbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini ham chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, matnda konseptuallashgan fikr ayrim hollarda etnik xarakterda ham bo'lishi mumkin.

Matn tahliliga antroposentrik nuqtai nazardan yondashish quyidagi masalalarni hal etishni taqozo qiladi: matnni idrok qilish va tushunishda germenevtik tamoyillarni qo'llash; badiiy matnning semantik, struktur va mantiqiy tiplarini aniqlash; matnning leksik, sintaktik-semantik va pragmatik xususiyatlari reallashuvida shaxs rolini ochib berish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya umumiy tayanch kompetensiyalardan biri bo'lib, u vatanga sodiq, insonlarga oqibatli hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur ma'naviy sifatlar talabalarga "Ona tili o'qitish metodikasi" fanini o'rgatish asnosida dars materiallari orqali singdirilishi ko'zda tutilgan. Darsda qoida va ta'riflarni asoslash uchun keltiriladigan jumlalar, mashg'ulot davomida bajariladigan

topshiriq va mashqlar ushbu maqsadga yo'naltirilishi lozim. Tilning, uning tabiati va imkoniyatlarining to'laqonli yuzaga chiqishi badiiy matn orqali voqelanadi. Metodika darslarida olinayotgan nazariy bilimlarni o'qituvchi tomonidan tavsiya qilinadigan insoniylik ruhi singdirilgan matnlar asosida malaka va ko'nikmalarga aylantirish ma'rifiy-didaktik vazifadir. Shu bilan birga bu jarayon ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

Matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, so'zni o'qish, so'zning lug'aviy ma'nosini, kontekstual ma'nosini anglash, sintaktik strukturani to'g'ri hal etish, matn mazmuniy bo'laklarining o'zaro bog'lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo'ladi. "Har bir o'quvchida qabul qilish qobiliyati har xil bo'lganligi uchun matnni bir xilda o'qib chiqqanlar tushunishning har xil darajasida bo'ladi". O'qituvchi ushbu darajalarni yaxshi bilsa, savollar yordamida talabaning qaysi darajada turganini aniqlashi, matnni yaxshiroq tushunishi uchun yo'nalish berishi mumkin. Matnni tushunishning dastlabki darajasi assotsiativ darajada bo'lsa, unda talabada matn mavzusi, matn uslubi va matndagi so'zlarga assotsiatsiyalar vujudga keladi. Keyingi daraja leksik-morfologik daraja bo'lib, bunda talabalar matndagi so'zlarni va ularning ma'nosini tushunadi. Uchinchi daraja kontekstual daraja bo'lib, unda so'zlarning kontekstual ma'nolari anglashiladi.

Fikrimizcha, matn bilan bog'liq mashqlarda aynan shu uchinchi darajaga ko'proq e'tibor berilishi kerak. Agar talabalarning matn ustida ishlash, tahlil qilish ishlari davomli amalga oshirib kelinayotgan bo'lsa, ularning aksari o'qib tushunishning yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchi darajalarini birdaniga o'zlashtira oladilar. Talabalarning qolgan qanchadir qismini ham shu darajaga yetkazish va so'ng imkon qadar butun sinfni keyingi idrok bosqichi (uchinchi daraja)ga ko'tarish uchun quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

1. Matndan ko'chma ma'nodagi so'z va iboralarni toping.
2. Bu so'z va iboralarning alohida olingandagi (atash) ma'nosini aniqlang.
3. Ularning matndagi ma'nosiga ko'ra sinonimlarini keltiring.
4. Bu so'zlarning o'rniga atash ma'nosi yoki sinonimlarini qo'llab, so'z birikmasi tuzing.
5. Hosil qilingan so'z birikmalari asosida matnni qayta tuzing. Qayta tuzgan matningiz bilan oldingi matnni solishtiring va badiiy matndagi ushbu so'zlarning nechog'lik o'rinli qo'llanganligini izohlang kabi.

Ona vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish mazmunidagi badiiy matnlar ustida ishlash orqali pragmatik kompetensiyani shakllantirish talabalarni nazariy bilimlar bilan qurollantiradi ham ta'lim samaradorligi oshishiga xizmat qiladi. Chunki matn zamiridagi insoniylik g'oyalari keng tarzda tahlil qilingandagina chuqur his qilinishi va o'zlashtirilishi mumkin. Matnlar ustida ishlash, til hodisalarini nazariy va amaliy idrok etish, his qilish darajalari o'sadi, fikrlari nisbatan teranlashib boradi.

Xulosa. Hozirgi zamonning eng muhim xususiyatlaridan biri – inson turmush tarzining barcha sohalariga ilmiy-texnika yutuqlarining tezkorlik bilan kirib, turmushning barcha jabhalari baynalminallashuviga kishilar faoliyatida umuminsoniy qadriyatlar ahamiyatini kuchaytirayotgan bo'lsa-da, o'z navbatida, insoniyat uchun dahshatli xavf-xatarni ham vujudga keltirmoqda. Bashariyat umuminsoniy qadriyatlarni saqlash, gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg'unlashtirish orqaligina vaziyatdan chiqa oladi.

Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda va nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda insonparvarlik mazmunidagi matnlarning o'rni beqiyos. "Chin insonni adashmay toping", "Odamiylik so'zi bizniki", "Do'stlik bekati", "Fikrimizni o'rtoqlashamiz", "Fikrlaymiz, o'ylaymiz", "Go'zal murojaat", "Hamxona", "Hamkorlik", "Ma'nosini bilasizmi?", "Mazmunan qarindosh, shaklan begona", "Menga qo'shni bo'ling", "Mantiqiy fikrlang", "Nima yaxshi-yu, nima yomon", "Olqish olgan omondir", "Qarindosh", "So'zdan marjon tizing", "So'z harfidan so'z yasang", "So'zlar guldastasini tuzing", "Chin insonni ta'riflang", "Yaxshidan bog' qoladi" kabi interfaol usullar samarali hisoblanadi.

Demak, "Ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirish – o'quv jarayoni vazifalarini, ya'ni nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan, o'qituvchi va talabalarning birga olib boradigan faoliyat usuli bo'lsa, ko'zlangan natijaga erishiladi. Til o'qitish

maqsadidan kelib chiqib, insonparvarlik singdirilgan badiiy asarlardan olingan matnlarni dars materiallari sifatida qo'llash, ular vositasida o'qib tushunish, ifodali o'qish, o'qib tushunganlarini so'zlab berish, olgan taassurotlarini hissiy bo'yoqdorlikni ta'minlovchi lisoniy birliklar vositasida og'zaki yoki yozma shaklda ifodalash malakalariga egalik nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyasi takomiliga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'grisida"gi O'RQ-637 son qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 31.12.2020-yildagi 824-son qarori.

3. Ashirboyev S. O'zbek tili ta'limi metodikasining ayrim dolzarb masalari. Til va adabiyot ta'limi. 2020, № 2. – B.3.

4. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva, Sh.Sariyev.Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: "Noshir", - 2009. 352 b.

4. Tog'Ayeva, U. S. Q. (2021). Ona tili o'qitish metodikasi modulini takomillashtirishda loyihaviy ta'limdan foydalanish. *Scientific progress*, *2*(7), 1022-1026.

5. Tog'ayeva, U. (2020). Improving the module" mother tongue teaching method" in project educational instructions. *центр научных публикаций (buxdu. uz)*, *2*(2), 129-133.

6. Tog'ayeva, U. (2021). ona tili o'qitish metodikasi. *modulini o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish//центр научных публикаций (buxdu. uz)*, *1*(1).

Tursunboyev Sherdor Akbarali o'g'li
Andijon davlat universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

O'QUVCHILARNI JAMOAVIY SPORT TURLARIGA QIZIQISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'quvchilarning jamoaviy sport turlariga qiziqishining psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda jamoaviy sport turlarining shaxslararo munosabatlarga, motivatsiya va o'z-o'zini anglash jarayonlariga ta'siri o'rganildi. 450 nafar o'quvchi ishtirokida "Sport faoliyatiga qiziqish darajasini aniqlash metodikasi" asosida o'tkazilgan tahlillar natijasida o'quvchilarning jamoaviy sportga qiziqishlari ijtimoiy ehtiyojlar va shaxsiy motivlar bilan chambarchas bog'liqligi aniqlandi.*

Kalit so'zlar: *sport psixologiyasi, jamoaviy sport, qiziqish, motivatsiya, o'quvchilar, ijtimoiy ehtiyojlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИНТЕРЕСА СТУДЕНТОВ К КОМАНДНЫМ ВИДАМ СПОРТА

Аннотация. *В данной статье анализируются психологические особенности интереса студентов к командным видам спорта. В ходе исследования изучалось влияние командных видов спорта на межличностные отношения, мотивацию и процессы самосознания. В результате анализа, проведенного с участием 450 студентов на основе «Методики определения уровня интереса к спортивной деятельности», было выявлено, что интерес студентов к командным видам спорта тесно связан с социальными потребностями и личностными мотивами.*

Ключевые слова: *спортивная психология, командные виды спорта, интерес, мотивация, студенты, социальные потребности.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF STUDENTS' INTEREST IN TEAM SPORTS

Annotation. *This article analyzes the psychological characteristics of students' interest in team sports. The study studied the impact of team sports on interpersonal relationships, motivation and self-awareness processes. As a result of the analysis conducted with the participation of 450 students based on the "Methodology for Determining the Level of Interest in Sports Activities", it was found that students' interest in team sports is closely related to social needs and personal motives.*

Keywords: *sports psychology, team sports, interest, motivation, students, social needs.*

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Prezidentning ta'lim sifatini oshirish, yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan farmon va qarorlari asosida, barcha umumta'lim maktablarida zamonaviy o'quv dasturlar, yangi texnologiyalar, sport va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Yoshlar — kelajagimiz", "Sog'lom avlod uchun", "Har bir maktabda sport" kabi dasturlar orqali o'quvchilarning sportga, xususan jamoaviy sport turlariga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish hamda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ishlari faol davom ettirilmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida o'quvchilarning jamoaviy sport turlariga bo'lgan qiziqishini psixologik jihatdan o'rganish nafaqat sport sohasida yuqori natijalarga erishish, balki yoshlarning ijtimoiy faolligi, jamoaviy ishlash ko'nikmalari va sog'lom hayot tamoyillarini shakllantirish uchun ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot o'quvchilarning sportga qiziqishini aniqlash, uni psixologik omillar nuqtai nazaridan tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali milliy ta'lim tizimimizda sport tarbiyasini yanada takomillashtirishga hissa qo'shishni maqsad qiladi.

Sport faoliyati, ayniqsa jamoaviy sport turlari, o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, o'z-o'zini anglash va motivatsion tizimining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Jamoaviy sport orqali bolalar o'zaro hamkorlik qilish, liderlik fazilatlarini rivojlantirish va muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashadi. Bugungi kunda sport va psixologiya integratsiyasi yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda o'quvchilarning jismoniy tarbiyasi va ruhiy sog'lig'ini ta'minlashda sport faoliyatining, xususan, jamoaviy sport turlarining ahamiyati ortib bormoqda. Sport orqali o'zaro hamkorlik, do'stlik, ijtimoiy moslashuv va yetakchilik fazilatlari rivojlanadi. Shu boisdan, jamoaviy sportga qiziqishning psixologik omillarini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

1. Jamoaviy sport turlariga qiziqishning psixologik asoslarini o'rganish orqali o'quvchilarning jamoaviy sport faoliyatiga bo'lgan qiziqishlari qanday psixologik omillar bilan shakllanishi va rivojlanishini ilmiy asosda tahlil qilish, sport turlarining shaxslararo muloqot, o'zini ifoda etish va ijtimoiylashuvdagi o'rni aniqlanadi.

2. O'quvchilarning sportga qiziqish motivlarini aniqlash orqali o'quvchilarning sportga jalb qilinishidagi ichki va tashqi motivatorlarni (qiziqish, o'zini tasdiqlash, guruhga tegishlilik hissi, o'yin orqali qoniqish olish kabi) aniqlash va ularning psixologik xususiyatlarini baholash.

3. Metodik tadqiqot asosida statistik ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish orqali maxsus tuzilgan test, so'rovnoma va kuzatuvlar asosida empirik ma'lumotlar yig'ish; natijalarni statistik metodlar yordamida tahlil qilish va jamoaviy sport turlariga qiziqish darajasini baholash.

4. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish orqali esa tadqiqot natijalariga asoslanib, o'quvchilarning jamoaviy sportga qiziqishini kuchaytirish va rivojlantirish uchun amaliy uslub va strategiyalar ishlab chiqish; sport mashg'ulotlarini psixologik yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat.

O'zbek olimlaridan I.Yo'ldoshev – O'zbekiston sport psixologiyasi sohasida muhim tadqiqotlar olib borgan olimlardan biri[1]. U sportchilarning psixologik tayyorgarligi, sport faoliyati jarayonida yuzaga keladigan emotsional va motivatsion omillar, shuningdek, raqobatbardoshlik va irodaviy sifatlarni shakllantirish jarayonlarini o'rgangan. Yo'ldoshev o'z asarlarida sportchilarning musobaqalarga psixologik moslashuvi va stressni boshqarish mexanizmlariga alohida e'tibor bergan. R.Soliyev – jismoniy tarbiya va sport sohasida motivatsion omillarni o'rganish bilan mashhur[2]. Uning tadqiqotlari o'quvchilarning va sportchilarning sportga bo'lgan qiziqishini rivojlantiruvchi ichki va tashqi motivatorlarni aniqlashga qaratilgan. Soliyev sportchilarning motivatsion holatini baholash va uni oshirish usullarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan.

Markaziy Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan A.V.Rodionov – bolalar va o'smirlar sport psixologiyasi sohasidagi yetakchi olimlardan biri[3]. U sportga qiziqishning shakllanish mexanizmlarini, bolalarda sport faoliyati orqali motivatsiyaning rivojlanishini va sport mashg'ulotlarining shaxsiy rivojlanishga ta'sirini chuqur o'rganib chiqqan. Rodionovning tadqiqotlari bolalarning sportga jalb qilinishida oilaviy, o'qituvchi va tengdoshlarning o'rni haqida ham muhim ma'lumotlar beradi. N.A.Levitov – faoliyat va qiziqish psixologiyasi bo'yicha taniqli olim[4]. U faoliyatda qiziqish qanday paydo bo'lishi, uning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati va motivatsiya bilan aloqadorligini tahlil qilgan. Levitovning qarashlariga ko'ra, qiziqish insonning faoliyatga jalb qilinishini va natijalarga erishishdagi ichki ehtiyojini kuchaytiradi.

Xorij olimlaridan J.Coakley – amerikalik sport sotsiologi va psixologi. Uning tadqiqotlari sportning ijtimoiy tizimdagi o'rni, sport faoliyatining shaxs rivojlanishiga, ijtimoiy identifikatsiyaga va madaniy qadriyatlarga ta'siri haqida[5]. Coakley bolalar va o'smirlar orasida sport ishtiroki motivlarini, sport orqali ijtimoiy moslashuv va o'z-o'zini baholash jarayonlarini o'rganib chiqqan. Uning asarlari sport muhitida yuzaga keladigan ijtimoiy stresslar va ularni boshqarish mexanizmlarini ham o'z ichiga oladi. E.Deci va R. Ryan – motivatsiya psixologiyasi sohasidagi dunyoga mashhur olimlar[6]. Ular ishlab chiqqan o'z-o'zini anglash nazariyasi motivatsiyani ichki (intrinsik) va tashqi (ekstrinsik) turlarga ajratadi va insonning o'z faoliyatini mustaqil, o'z qiziqishi va qadriyatlari asosida olib borish istagini tushuntiradi. Ularning fikricha, insonning uchta asosiy psixologik ehtiyoji –

avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik – to'liq qondirilganda, yuqori darajadagi ichki motivatsiya shakllanadi.

Tadqiqot metodikasi va statistik natijalar orqali "Sport faoliyatiga qiziqish darajasini aniqlash metodikasi" (modifikatsiyalangan anketali so'rovnoma) qo'llanildi.

1-jadval

"Sport faoliyatiga qiziqish darajasini aniqlash metodikasi" orqali aniqlanga natijalar N-450

Qiziqish darajasi	N	(%)
Yuqori darajada qiziqish	270	60%
O'rtacha darajada qiziqish	130	29%
Past darajada qiziqish	50	11%


Olingan ilmiy tahlil va natijalar orqali 450 nafar o'quvchilar orasida jamoaviy sport turlariga qiziqish darajasini o'rganish uchun o'tkazilgan metodik tadqiqot natijalariga ko'ra:

- 270 nafar (60%) o'quvchi jamoaviy sport turlariga yuqori darajada qiziqish bildirdi;
- 130 nafar (29%) o'quvchi o'rtacha darajada qiziqish ko'rsatdi;
- 50 nafar (11%) o'quvchi past darajada qiziqish bilan ajralib turdi.

Yuqori qiziqish bildirgan o'quvchilar sonining ko'pligi (60%) jamoaviy sport turlari o'quvchilarning emotsional, ijtimoiy va jismoniy ehtiyojlarini samarali qondirayotganini ko'rsatadi.

Bunda sport faoliyatining ijtimoiylashtiruvchi roli va shaxslararo munosabatlarni rivojlantiruvchi xususiyatlari asosiy omil sifatida e'tirof etilishi mumkin. O'rtacha qiziqish bildirganlar (29%) orasida sportga faqat faol ishtirok emas, balki qiziqishning situativ (faqat ba'zi tadbirlarda) shakllanganligi kuzatildi. Bu o'quvchilarda sportga nisbatan ichki motivatsiyani kuchaytirish uchun qo'shimcha rag'batlantirish chora-tadbirlari zarurligini ko'rsatadi. Past darajada qiziqish bildirgan o'quvchilar (11%) orasida sportni o'zlariga yaqin faoliyat turi sifatida qabul qilmaydigan, ko'proq individual faoliyatlarga moyil shaxslar uchradi.

Ularning sportga qiziqishini oshirish uchun individual yondashuvlar, ijobiy sport tajribasini shakllantirish va motivatsion treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq. Tadqiqot natijalari o'quvchilarning jamoaviy sport turlariga umumiy qiziqish darajasi yuqoriligini ko'rsatadi. Bu esa sport dasturlarini ishlab chiqishda va maktab o'quv rejalarini tuzishda jamoaviy sport turlariga alohida e'tibor qaratish zarurligini tasdiqlaydi. Qiziqish darajasi past bo'lgan o'quvchilarga esa psixologik yordam va motivatsion treninglar o'tkazish orqali ijobiy sportga bo'lgan munosabat shakllantirish mumkin.



1-rasm. o'quvchilar orasida sport motivatsiyasi darajasini ko'rsatadi.

Sport motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar ulushi 55% dan ortiq bo'lib, bu O'zbekistonda olib borilayotgan sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sport infratuzilmasini rivojlantirish va maktablardagi sport faoliyatlarini ommalashtirish siyosatining samaradorligini ko'rsatadi.

O'rtacha motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchilar (31%) o'rtasida sportga nisbatan qiziqish mavjud bo'lsa-da, ularni muntazam sport faoliyatiga jalb qilish uchun qo'shimcha motivatsion treninglar, jamoaviy sport musobaqalari va targ'ibot ishlari olib borish zarurligi ko'rinmoqda.

Past sport motivatsiyasiga ega o'quvchilar (13%) uchun esa sportni o'ziga xos qiziqarli va shaxsiy ehtiyojlarga mos shaklda taqdim etish, ular bilan individual ishlash, ijobiy sport tajribasini yaratish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'quvchilar sportga ijobiy munosabatda bo'lib, ular orasida sportga yuqori motivatsiya darajasi mavjud. Biroq, o'rtacha va past motivatsiyali o'quvchilar soni ham e'tibordan chetda qolmasligi, ularni sportga jalb etish bo'yicha kompleks psixologik va pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa, kelgusida sog'lom va jismonan yetuk yosh avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida o'quvchilarning jamoaviy sport turlariga bo'lgan qiziqishi shaxsiy motivlar va ijtimoiy ehtiyojlarning uyg'unlashuvi asosida shakllanishi aniqlangan. Jamoaviy sport turlari bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, maktablar va sport tashkilotlarida jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va ularni psixologik qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Yo'ldoshev I. "Sport psixologiyasi asoslari." Toshkent, 2020.
2. Soliyev R. "Jismoniy tarbiya va sportda motivatsiya." Toshkent, 2019.
3. Rodionov A.V. "Psixologiya sporta: teoriya i praktika." Moskva, 2018.
4. Levitov N.A. "Faoliyat va qiziqish psixologiyasi." Moskva, 2015.
5. Coakley J. "Sports in Society: Issues and Controversies." New York, 2014.
6. Deci E., Ryan R. "Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness." New York, 2017.

Usmonov Sherzod Axmadjonovich
Farg'ona davlat universiteti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
e-mail: sherzod198728@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-5249-3706

Zokirova Nozima Maxmudjon qizi
Farg'ona davlat universiteti,
psixologiya yo'nalishi magistranti
e-mail: zokirovanozima84@gmail.com

YUQORI SINF O'QUVCHILARINING SHAXSIY RIVOJLANISHIDA O'ZIGA ISHONCHNING ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ishonch haqida tushuncha va bu boradagi qarashlar, yuqori sinf o'quvchilarida ishonchning namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan va ishonchning darajalari, gender, hududiy farqlarini aniqlash maqsadida tadqiqot o'tkazilgan va uning natijalar matematik-statistik metodlar orqali tekshirilgan.*

Kalit so'zlar: *ishonch, ishonch ontogenezi, o'z-o'zini angalash, o'zini samarali his qilish (self-efficacy), mustaqillik, ishonch hissi va ishonchsizlik, ilk o'spirinlik davri, o'zini qadrlash, o'z-o'zini boshqarish.*

РОЛЬ УВЕРЕННОСТИ В СЕБЕ В ЛИЧНОСТНОМ РАЗВИТИИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ

Аннотация. *В данной статье рассматривается понятие уверенности в себе и существующие подходы к его изучению. Изучены факторы, влияющие на проявление уверенности у старшеклассников. Проведено исследование с целью выявления уровней уверенности, а также гендерных и региональных различий. Результаты исследования проверены с использованием математико-статистических методов.*

Ключевые слова: *уверенность в себе, онтогенез уверенности, самопознание, самочувствие собственной эффективности (self-efficacy), самостоятельность, чувство уверенности и неуверенности, ранний подростковый возраст, самоуважение, саморегуляция.*

THE ROLE OF SELF-CONFIDENCE IN THE PERSONAL DEVELOPMENT OF HIGH SCHOOL STUDENTS

Abstract. *This article explores the concept of self-confidence and the existing approaches to its study. It examines the factors influencing the manifestation of self-confidence in high school students. A study was conducted to identify the levels of self-confidence, as well as gender and regional differences. The results were analyzed using mathematical and statistical methods.*

Keywords: *self-confidence, ontogenesis of self-confidence, self-awareness, self-efficacy, independence, sense of confidence and insecurity, early adolescence, self-esteem, self-regulation.*

Kirish. Yuqori sinf o'quvchilarida o'ziga bo'lgan ishonch hissi fenomeni zamonaviy psixologiya, pedagogika va sotsiologiyaning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki bu yoshda shaxsning o'zini anglashi, mustaqil fikrlashi, kelajakka bo'lgan munosabati shakllanadi. Ayniqsa, globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida yoshlar o'rtasida o'z-o'ziga ishonch masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yuqori sinf o'quvchilari kasb tanlash, mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy munosabatlar o'rnatish jarayoniga kirib borar ekanlar, o'z-o'ziga ishonchi past bo'lgan yoshlar ko'p hollarda noaniqlik, ikkilanish, xatti-harakatlarida xulqi og'ishganlik va o'z-o'ziga shubha holatlariga duch keladilar. Bunday

holatlarda o'ziga ishonchni shakllantirish nafaqat shaxsni kamolotga yetaklaydi, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhimdir. Shu sababli, bu masalani chuqur tadqiq etish va ta'lim- tarbiya jarayoniga tatbiq etish zarur.

Mamlakatimizda yoshlar ta'lim-tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shuning uchun yurtimizda maorif tizimida aniq va ravshan hamda ilmiy asoslangan davlat siyosati mavjud. U insonparvarlik va demokratiyaga suyangan bo'lib, unda har bir fuqaroning ta'lim va tarbiya olishi konstitutsiyamizda ko'rsatib qo'yilgan. Yosh avlodni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash, ularni turli xil yot mafkuralar, har xil oqimlarga kirib ketishdan asrash va ularda shu g'oyaviy tahdidlarga qarshi ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek, "Ma'nan, aqlan, ruhan, jismonan, yurtiga, xalqiga foydasi tegadigan, mustaqil fikrlaydigan, o'z maqsadlariga intiladigan, yorqin kelajak sari olg'a qadam bosadigan yoshlarni tarbiyalash" vazifalari belgilangan. Bu esa o'quvchilarni ma'naviy jihatdan yuksak shaxs, barkamol avlod etib tarbiyalash, ularda ishonch hissini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlarni samarali amalga oshirishni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

So'nggi paytlarda turli ijtimoiy va gumanitar fanlarning o'rganish mavzusi bo'lgan ishonch muammosiga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Ishonch, psixologiyada muhim tushuncha bo'lib, uning psixologik jihatlari ko'plab tadqiqotlar va nazariyalar oraqali o'rganilgan. P.N. Shixirevning ijtimoiy psixologiya bo'yicha qo'llanmasida ta'kidlanganidek, XX asrning 90-yillari xorijiy ijtimoiy psixologiyada ishonch yillari deb hisoblanishi mumkin.[1]

Psixologiyada o'ziga ishonch – bu shaxsning o'zini ijobiy baholashi, o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashi, tashabbus ko'rsatishga tayyorligi bilan tavsiflanadi. O'ziga ishonch o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini qadrlash va o'z-o'zini boshqarish bilan chambarchas bog'liqdir.

Ishonchning o'ziga xos xususiyatlarini birinchi bo'lib G'arb mutaxassislari orasida N.Luhmann, E.Giddens, F.Fukumaya, A.Seligman va P.Sztompka kabi olimlar o'rgangan. [2] G'arbning ishonch bo'yicha psixologik tadqiqotlari asosan psixoterapiya va psixologik maslahat jarayonida ishonchni o'rnatish muammosi bilan bog'liq bo'lib, nafaqat psixolog va mijoz o'rtasida, balki mijozning o'ziga va dunyoga bo'lgan ishonchini shakllantiradi. Bu yerdagi eng yirik ishlar qatorida E.Erikson (ishonch ontogenezi; asosiy ishonch; asosiy ishonchsizlik), K.R.Rojers (individning ishonchi va o'zini o'zi amalga oshirishi; inson tabiatiga ishonch), A.G.Maslou (ishonch va o'zini-o'zi anglash) asarlari kiradi. Xorijiy ijtimoiy psixologiyada ishonchni o'rganish bo'yicha ilk pionerlar S. Jurgard va P. Laskou bo'lib, ular bu yo'nalishda tadqiqotlarni 1950-yillarning oxirida boshlagan.

O'ziga ishonch masalasi turli psixologik maktablar va olimlar tomonidan har xil nuqtai nazardan o'rganilgan:

- Kognitiv yondashuv (A. Bandura):[3] O'ziga ishonch – bu shaxsning o'z harakatlari natijalariga ishonish darajasi. Bandura o'zini samarali his qilish (self-efficacy) tushunchasini ilgari suradi.

- Gumanistik yondashuv (K. Rogers): O'ziga ishonch – bu o'zini ijobiy qabul qilish va o'z qadrini anglash asosida shakllanadi. Rogersning fikricha, inson o'zining haqiqiy men va ideal men o'rtasidagi uyg'unlikka intiladi.

- Psixoanalitik yondashuv (Z. Freud): O'ziga ishonch bolalikdagi tajribalar, ota-ona bilan munosabatlar va ichki konfliktlar bilan bog'liq bo'lib, ongsiz darajadagi jarayonlarda shakllanadi.

- Ijtimoiy-psixologik yondashuv (E. Erikson): O'ziga ishonch insonning ijtimoiy tajribasi va ijtimoiy rollar bilan mustahkam bog'liq. Eriksonning shaxsiy rivojlanish bosqichlari konsepsiyasi bu jarayonni izohlaydi.

Rus psixologlari asarlarida ishonch hissi va ishonchsizlik muammosining o'rganilishi XIX asr oxirlari va XX asrlarning boshlariga to'g'ri keladi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda ishonch muammosi ko'pincha ijtimoiy-psixologik taklif muammosini ishlab chiqish kontekstida ko'rib chiqilgan (V. M. Bexterev, V. S. Kravkov, V. N. Kulikov, G. K. Lozanov, A. S. Novoselova, G. A.

[1] Ильин Э. П. Психология доверия: учебное пособие. — СПб.: Питер, 2013. — 224 с.
[2] Скрипкина Т.П психология доверия С Издательский центр «Академия», 2000,- С. 7-8.
[3] Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*. Freeman.

Veselkova, K. K. Platonov, I.Ye. Shvarts va boshqalar). Ushbu sohadagi eng nufuzli tadqiqotchilardan biri V. N. Kulikov hisoblanadi. Shuningdek Ishonchning boshqa o'ziga xos fenomenlari M.Yu.Kondratev, B.F.Porshnev, I.S.Kon, V. A.Losenkov, L.Ya. Gozman, A. V. Mudrik, I. S. Polonskiy va boshqa mutaxassislar tomonidan o'rgangan.[1]

Yuqori sinf o'quvchilari 15-16 yoshdagilarni tashkil qilib, bu yoshdagilar yosh davrlarining ilk o'spirinlik davriga to'gri keladi. Har bir davrning o'ziga xos psixologik xususiyatlari mavjud bo'lgani kabi bu davrning ham o'ziga xos psixologik xususiyatlari mavjud. Ilk o'spirinlarda avvalo o'zini anglashdagi siljish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu hol shunchaki o'sishni bildirmaydi, balki o'z shaxsiyatining ma'naviy-psixologik fazilatlarini, faol ijtimoiy turmush tarzining maqsad va vazifalarini anglashni, oqilona baholashni aks ettiradi. Ilk o'spirinda o'zining ruhiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyatini hamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. O'z xulq-atvorini jilovlash, his-tuyg'ulari hamda ichki kechinmalarini tushunish ishtiyoqi vujudga kela boshlaydi. Ular avvalo, o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib xatti-harakatlarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Agar o'smirda atrofdagi kishilarning oqilona baholashlari orqali aniq baholash yuzaga kelsa, ilk o'spirinda bu holat boshqacharoq tarzda kechadi, unda o'z shaxsiy fazilatini, xulq-atvorini, aqliy va jismoniy mehnat faoliyatini tahlil qilish, qiyosiy baholash mayli kuchayadi. Ilk o'spirin o'smirga qaraganda o'z ma'naviyati va ruhiyatining xususiyatlarini to'laroq tasavvur eta olsa ham, ularni oqilona baholashda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Natijada u o'z xususiyatlariga ortiqcha baho berib, manmanlik, takabburlik, kibrlanish, o'ziga ishonmaslik, xatti-harakatida salbiy jihatlarni paydo bo'lishi kabi illatiga duchor bo'ladi. Shuning uchun ham yuqori sinf o 'quvchilarida o'ziga bo'lgan ishonch hissini shakllantirish juda muhim. O'smirlar ma'lum voqea va hodisaning shunchaki mazmunigagina qiziqsalar (ehtiyoj sezsalar), ilk o'spirinlar esa mazkur hodisa yoki voqelikka nisbatan turlicha munosabatlarni izchil o'rganib, tahlil qilib, shaxsiy nuqtai nazarini bildirishni, talqin etishni (interpretatsiyani) xohlaydilar. Chunki ilk o'spirinlarni bor haqiqat qiziqtiradi, qolaversa bu davrda ishonch-e'tiqod, dunyoqarash jadal sur'atlar bilan shakllanadi.[2]

Respublikamizda ishonch hissining o'ziga xos psixologik xususiyatlari o'rganilgan bo'lsada, maktab o'quvchilarida ishonch hissining psixologik xususiyatlari tadqiqot predmeti sifatida maxsus o'rganilmaganligi yuqori sinf o'quvchilarida o'ziga bo'lgan ishonch hissining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

Natija va muhokama.


Yuqori sinf o 'quvchilarida o'ziga bo'lgan ishonch hissini ilmiy tadqiq etilishi, ta'lim jarayonida o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini yaxshilashga qaratilgan bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Shu maqsadda biz empirik tadqiqot o'tqazdik.

Tadqiqotimiz obyekti 15-17 yoshdagi, ilk o'spirinlik davridagi maktab o'quvchilari bo'lib, jami respandentlar 88 tani tashkil etadi. Farg'ona tumani MMTBga qarashli 58-sonli umumta'lim maktabining 45 nafar o'quvchilari va Farg'ona shahar 12 -sonli maktabning 43 nafar yuqori sinf o'quvchilari respondent sifatida tanlab olindi, ularning gender va hudud farqlarini o'z ishimizda o'rganishni maqsad qilib oldik.

O'ziga bo'lgan ishonch darajasini aniqlash uchun S.Raydasning "O'ziga ishonch" testidan foydalandik. Ushbu testda har bir savollar uchun 5 balldan 1 ballgacha javob beriladi, va barcha o'lchovlar bo'yicha umumiy ball hisoblanib chiqiladi, bu esa sinaluvchilarning o'ziga bo'lgan ishonch darajasini ko'rsatadi. Ushbu metodikada sinaluvchilar uchun 30 ta hayotning har xil tomonlari aks ettirilgan mulohazalar taqdim etiladi. Sinaluvchilar ular bilan tanishib , o'zlariga mos kelgan javoblardan birini tanlaydilar va o'z javoblarini belgilangan mezonlar yordamida baholaydilar.

Respondentlarning o'ziga bo'lgan ishonch darajalaridagi jinsiy differensiyallashuvining natijalari 1-diagrammada berilgan.

[1] Скрипкина Т.П психология доверия С Издательский центр «Академия», 2000,- С. 10-11
[2] E.G'.G'oziev ontogenez psixologiyasi Toshkent "NIF MISH" 2020. 73-78 b.



1-diagramma. "O'ziga bo'lgan ishonch"ning jinslar o'rtasidagi farqlar bo'yicha tahlili.

Ushbu tadqiqotimizni jinslar bo'yicha statistik jihatdan tahlil qilganimizda, natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'ziga bo'lgan ishonch darajasining o'rtacha ball ko'rsatgichi bo'yicha yigit respondentlar 78.97 ballni, qiz respondentlari esa 78.84 ballni tashkil qildi. Yigitlar o'ziga bo'lgan ishonch darajasida biroz yuqoriroq natija ko'rsatgan bo'lsalar-da, bu farq statistik ahamiyatga ega emas. Ya'ni, yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida o'ziga bo'lgan ishonch darajasi deyarli bir xil darajada shakllangan. Bu shuni anglatadiki, an'anaviy yondashuvlarda yigit va qizlar o'rtasida o'ziga ishonch darajasi farqli deb qaralgan bo'lsa-da, zamonaviy tadqiqotlar bu tafovut 15–17 yosh davrida kamayishini ko'rsatmoqda. Masalan: Eriksonning psixosotsial rivojlanish bosqichlariga ko'ra ilk o'spirinlik davridagi yoshlar "shaxsiy identitetga erishish" bosqichida bo'ladi. Bu davrda ular "Men kimman ?" degan savolga javob topishga urinadi va o'z pozitsiyasini mustahkamlash orqali ichki ishonchni orttiradi. Bu jarayon jinsdan qat'iy nazar sodir bo'ladi. Shuningdek, Bandura (1997) ta'kidlaganidek, muvaffaqiyatli tajribalar o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Maktab muhitida yigit-qizlarga teng imkoniyatlar yaratilayotgani – tanlovlar, jamoaviy loyihalar, ijtimoiy faoliyatlar – shaxsiy qadrni birdek rivojlantirishga xizmat qilayotgani va zamonaviy jamiyatda gender stereotiplar sekin-asta zaiflashayotgani buning yaqqol dalili. Misol uchun, UNESCO (2020) hisobotlarida qizlar va yigitlarga ta'limda, ijtimoiy hayotda, kasb tanlashda bir xil imkoniyatlar yaratilayotgani aytilgan. Bu esa o'ziga bo'lgan ishonchning jinsga bog'liq farqlarini kamaytiradi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, o'ziga bo'lgan ishonch darajasi shakllanishida jinsdan ko'ra ijtimoiy-psixologik muhit, oilaviy tarbiya, tengdoshlar bilan munosabatlar va shaxsiy tajriba omillari ko'proq rol o'ynaydi.

Sinaluvchilarning o'ziga bo'lgan ishonch darajalaridagi hududiy farqlarning natijalari 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

Shkala	Hudud	n	M	St.og'ish	t	p
S.Raydas	shahar	43	75,19	12,79	-0,83	0,41
	qishloq	43	77,47	12,59		

Unga ko'ra shahar va qishloq o'quvchilari o'rtasida o'ziga bo'lgan ishonch darajasida sezilarli statistik farq aniqlanmadi (t = -0,83; p = 0,41).

Shahar hududidagi o'quvchilarning o'rtacha balli 75,19 ni, qishloq o'quvchilarniki esa 77,47 ni tashkil etdi. Qishloq o'quvchilari shahar o'quvchilariga nisbatan biroz yuqoriroq o'ziga ishonch ko'rsatkichlarini namoyon etgan bo'lsalar-da, bu farq statistik ahamiyatli emas (p>0,05).

Bu natija shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda shahar va qishloq o'quvchilari o'rtasida o'ziga bo'lgan ishonchning shakllanishi va rivojlanishida hudud omili hal qiluvchi rol o'ynamaydi. Ijtimoiy-psixologik sharoitlar, ota-ona tarbiyasi, maktab muhiti va shaxsiy xususiyatlar kabi omillar esa ko'proq ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan jadval natijalariga ko'ra o'ziga bo'lgan ishonch jinsga yoki hududga bog'liq emas degan xulosa chiqarishimiz mumkin.

Xulosa. Yuqori sinf o'quvchilari hayotlarining murakkab va mas'uliyatli bosqichida turadilar. Bu davrda ularning shaxsiy o'sishi, jamiyatdagi o'rni va o'z-o'zini anglash jarayonlari jadal rivojlanadi. Aynan shu bosqichda o'ziga bo'lgan ishonch hissi shakllanadi va mustahkamlanadi. O'ziga bo'lgan ishonch shaxsning ichki kuchi, o'z qobiliyatlariga, imkoniyatlariga va o'zining jamiyatdagi roliga bo'lgan ijobiy munosabatidir. O'tkazilgan tadqiqot va kuzatuvlarga ko'ra, yuqori sinf o'quvchilarida o'ziga bo'lgan ishonch quyidagi asosiy omillar bilan chambarchas bog'liq:

Oila va tarbiya muhiti: ota-ona va yaqinlar tomonidan ko'rsatiladigan ijobiy munosabat, e'tibor va rag'bat o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Maktab va tengdoshlar muhiti: maktabdagi o'qituvchilar bilan ijobiy munosabatlar va do'stlar orasida ko'rsatilgan hurmat o'ziga bo'lgan ishonch darajasini mustahkamlaydi.

Shaxsiy yutuq va muvaffaqiyatlar: o'quvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish tajribasi ularning ichki ishonchini oshiradi.

Tashqi va ichki motivatsiya: o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilish va ichki motivatsiya o'ziga bo'lgan ijobiy bahoni shakllantiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

O'g'il va qiz o'quvchilar o'rtasida o'ziga ishonch darajasi sezilarli farq qilmaydi. Biroq, qizlar ko'pincha o'ziga nisbatan ehtiyotkorroq va o'zini baholashda sinchkovroq bo'lsa, o'g'il bolalar ko'proq tashqi faoliyat orqali o'zini namoyon etishga intiladilar.

Shahar va qishloq o'quvchilari o'rtasida ham sezilarli farqlar ko'zga tashlanmadi. Lekin qishloq hududidagi o'quvchilar o'z-o'zini boshqarishda va o'zini qadrlashda nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichlarga ega bo'lishdi. Bu esa ularning erta mustaqillikka intilishi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ильин Э. П. Психология доверия: учебное пособие. — СПб.: Питер, 2013. — 224 с.
2. Скрипкина Т.П психология доверия С Издательский центр «Академия», 2000,- С. 7-8.
3. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control. Freeman.
4. Скрипкина О. В., Левкова Е. Ю. Психология межличностного доверия: теория и практика. — СПб.: Речь, 2006. — 319 с.
5. Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: Norton.
6. Скрипкина Т.П психология доверия С Издательский центр «Академия», 2000,- С. 10-11
7. E.G'.G'oziyev ontogenez psixologiyasi Toshkent "NIF MISH" 2020. 73-78b
8. Хараш А.Ю. Психология доверия: Монография. — М.: Институт психологии РАН, 2002. — 312 с.
9. Sztompka, P. (1999). Trust: A Sociological Theory. Cambridge University Press.
10. Комарова Л.Е. Доверие как ценностная направленность в группе // Вестник Московского университета. Серия 14: Психология. — 2001. — №1. — С. 49–55.

Usmonova Shoira Siddiqovna
Andijon Davlat Universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

ZAMONAVIY JAMIYATDA GENDER ROLLARINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda gender rollarining shakllanish jarayoni, ularning shaxs psixologiyasiga ta'siri va psixologik farovonlikka olib keladigan omillar tahlil etilgan. Gender rollari shaxsning identifikatsiyasi, ruhiy holati va ijtimoiy moslashuviga qanday ta'sir ko'rsatishi psixologik nazariyalar asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *gender, psixologik farovonlik, ijtimoiy identifikatsiya, stereotip, shaxsiy rivojlanish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В данной статье проанализированы процессы формирования гендерных ролей в современном обществе, их влияние на психологию личности и факторы, способствующие психологическому благополучию. На основе психологических теорий раскрывается, каким образом гендерные роли влияют на идентификацию личности, её психоэмоциональное состояние и социальную адаптацию.*

Ключевые слова: *гендер, психологическое благополучие, социальная идентификация, стереотип, личностное развитие.*

PSYCHOLOGICAL FOUNDATION OF GENDER ROLES IN MODERN SOCIETY

Annotation. *This article analyzes the formation process of gender roles in modern society, their impact on individual psychology, and the factors contributing to psychological well-being. Based on psychological theories, the article explores how gender roles influence personal identity, emotional state, and social adaptation.*

Keywords: *gender, psychological well-being, social identification, stereotype, personal development.*

Kirish. Bugungi kunda jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar gender masalasini psixologik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Gender nafaqat ijtimoiy mavqe va rollar tizimi, balki shaxsning o'zini anglash, o'zini baholash va ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Psixologiyada gender rollarining shakllanishi va ularning shaxs rivojlanishiga ta'siri ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Gender rollari bolalikdan boshlab ijtimoiy ta'sirlar orqali shakllanadi. Unig ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, bolalar atrof-muhitdagi insonlarning genderga oid xatti-harakatlarini kuzatib, taqlid qilish orqali o'z gender modelini shakllantiradi. Oila, maktab, media vositalari va madaniy qadriyatlar bu jarayonda asosiy rolni o'ynaydi. Gender rollari bolalik davridan boshlab shakllanadi va bu jarayon ko'plab ijtimoiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bolaning dunyoni anglash va o'zini jamiyatda tutish tarzini belgilab beradigan omillardan biri — gender identifikatsiyasidir. Aynan shu bosqichda bola o'zini erkak yoki ayol sifatida anglaydi va bu identifikatsiyaga mos ravishda o'z xatti-harakatlarini shakllantira boshlaydi.

Albert Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, insonlar, ayniqsa bolalar, kuzatish, taqlid qilish va mustahkamlash (rag'batlantirish) orqali yangi xatti-harakatlarni o'zlashtiradilar[1]. Bu jarayonda bola o'z atrofiga — ota-ona, aka-uka, opa-singil, o'qituvchilar, do'stlar va ommaviy axborot vositalariga e'tibor bilan qaraydi va ular orqali jinsiga mos deb hisoblangan xatti-harakatlarni o'zlashtiradi. Masalan: O'g'il bola otasining texnika bilan shug'ullanishini ko'rsa, shunga qiziqish bildiradi, qiz bola onasining pazandalik yoki go'zallikka oid

ishlarini kuzatib, shunga taqlid qiladi. Bunday taqlid qilish ko'pincha ijtimoiy mukofot (masalan, maqtov, qo'llab-quvvatlash) bilan mustahkamlanadi, yoki ijtimoiy jazo (masalan, tanbeh, rad etish) orqali to'xtatiladi.

Oilada gender rollari juda erta shakllana boshlaydi. Ota-onalar farzandlarining harakatlariga nisbatan jinsga xos kutishlar bilan munosabatda bo'lishadi:

- o'g'il bolaga jasurlik, mustaqillik singari fazilatlar rag'batlantiriladi;
- qiz bolaga esa itoatkorlik, e'tiborli bo'lish, g'amxo'rlik kabi sifatlarga urg'u beriladi.

Bu esa bola ongida erkak va ayol rollari haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantiradi. Maktabda o'quvchilar ko'pincha gender stereotiplariga asoslangan ijtimoiy rollarga duch keladilar. Masalan: Jismoniy faoliyatlarda o'g'il bolalar faolroq bo'lishi kutiladi, qiz bolalardan esa tartib, muloyimlik va ijtimoiy jihatdan "mos" bo'lish talab qilinadi, o'qituvchilar va tengdoshlarning munosabati ham bolaning o'zini qanday tutishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Televideniya, filmlar, multfilmlar va internet — barchasi genderga oid obrazlar va stereotiplarni yaratadi va mustahkamlab boradi:

- qizlar uchun — go'zallik, noziklik, mehribonlik;
- o'g'il bolalar uchun — kuchlilik, jasorat, liderlik.

Shuningdek, madaniy qadriyatlar gender rollarining qanday bo'lishi kerakligi haqida qat'iy me'yorlar belgilab qo'yadi, bu esa bolalarning erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Gender identifikatsiyasi — bu shaxsning o'zini erkak yoki ayol (yoki boshqa gender) sifatida tan olishi va bu identifikatsiyaning ichki psixologik hissi. Bu biologik jinsdan farqli bo'lib, shaxsning ichki o'zini anglash tajribasidir.

Biologik jins — tug'ilgandagi jins (erkak/ayol), gender roli — jamiyatning erkak yoki ayol sifatida qanday tutish kerakligi haqidagi kutishlari, gender identifikatsiyasi — shaxsning o'zini qanday his qilishi (o'z jinsiga mos yoki mos emas deb his qilishi).

Madaniy qadriyatlar gender rollaridagi munosabatlar

Yo'nalish	Ta'sir shakli
Ijtimoiy moslashuv	Gender rollariga moslashish yoki ularga qarshi chiqish orqali jamiyatdagi o'rnini aniqlaydi.
O'z-o'zini qadrlash	O'z genderini ijobiy qabul qilgan shaxs ko'pincha yuqori o'zini baholashga ega bo'ladi.
Shaxsiy identifikatsiya	Kimligimiz haqidagi tushunchamizda gender asosiy rol o'ynaydi.
Ruhiy holat	Gender disforiyasi (o'z genderidan norozilik) depressiya yoki tashvish kabi muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Shaxsning o'zini erkak yoki ayol sifatida qabul qilishi (gender identifikatsiyasi) Eriksonning psixosotsial rivojlanish bosqichlari doirasida o'smirlik davrida shakllanadi[2]. Agar shaxs o'zining gender roli bilan ijtimoiy kutilmalar o'rtasida nomutanosiblikni his qilsa, bu holat ruhiy noqulaylik, identifikatsion inqiroz va o'ziga bo'lgan ishonchsizlikka olib kelishi mumkin.

Gender stereotiplari — bu jamiyatda erkaklar va ayollar qanday bo'lishi kerak degan qat'iy, odatda cheklovchi ijtimoiy tasavvurlardir. Bu tasavvurlar ko'pincha insonning individual fazilatlari va istaklariga mos kelmaydi.

Misollar:

- "Erkak yig'lashi kerak emas";
- "Ayol uyda o'tirishi kerak";
- "Ayollar rahbarlikka yaroqsiz";
- "Erkak har doim kuchli bo'lishi shart".

Bu stereotiplar nafaqat ijtimoiy adolatsizlikka olib keladi, balki psixologik salomatlikka ham salbiy ta'sir qiladi. Zamonaviy jamiyatda gender stereotiplari hanuzgacha mavjud bo'lib, ular ayol va erkaklardan ma'lum xatti-harakatlar, kasbiy yo'nalishlar yoki ijtimoiy pozitsiyalarni egallashni kutadi. Bu kabi stereotiplar shaxsning imkoniyatlarini cheklab, depressiya, xavotir va stress holatlariga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender rollariga haddan tashqari

bog'lanish psixologik farovonlikni pasaytiradi. Gender stereotiplari jamiyatda ancha chuqur ildiz otgan bo'lib, insonlarning psixologik salomatligiga bevosita va bilvosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zini ifoda etish imkoniyatining cheklanishi, ijtimoiy bosim va stereotiplar natijasida shaxs o'zining tabiiy rivojlanish yo'lidan chetga chiqadi. Zamonaviy psixologik yondashuvlar bu stereotiplardan voz kechish, gender tengligi va psixologik farovonlikni mustahkamlash yo'lida muhim qadam bo'lib xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda gender rollari yanada moslashuvchan va erkin tus olayotgani kuzatilmoqda. Ayollar rahbarlik, texnologiya, fan sohalarida faol bo'lishi, erkaklar esa tarbiya va parvarish sohasida ko'proq ishtirok etishi genderga oid ijtimoiy rollarni qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Bu esa shaxsning o'z salohiyatini erkin ro'yobga chiqarishiga xizmat qiladi.

O'z-o'zini ifoda etish imkoniyatining cheklanishi

Soha	Ilgari	Hozir
Ish joyi	Ayollar uy bekasi, erkaklar boquvchi	Har ikki jins ham turli sohalarda faol
Ta'lim	Ayollar uchun cheklangan	Ayollar va erkaklar oliy ta'limda teng ishtirok etmoqda
Oiladagi roli	Ayol — farzand tarbiyalovchi, erkak — rahbar	Ota-onalik majburiyatlari teng taqsimlanmoqda
Rahbarlik lavozimlari	Asosan erkaklar	Ayollar ham rahbarlik lavozimlarini egallamoqda
Tashqi ko'rinish va kiyinish	Qat'iy jinsiy belgilar bo'yicha	Gender neytral kiyimlar keng tarqalmoqda

Gender roli mosligi (gender role congruence) — bu shaxsning o'zini jamiyatda mavjud gender rollari bilan mos yoki mos emas deb his qilishi. Boshqacha aytganda, insonning ichki o'zligini (self-concept) u kutilgan "erkaklik" yoki "ayollik" roli bilan qanchalik uyg'un his qilishi.

Masalan: Ayol o'zini mehribon, g'amxo'r, saranjom deb his qilsa — bu gender roli bilan moslik hisoblanadi. Ammo agar u rahbarlikka, mustaqillikka, jasoratga intilsa va jamiyat buni "ayolga to'g'ri kelmaydi" desa — moslik buziladi.

Bemis va Martinilarning "Gender Roli Mosligi" konsepsiyasi asosida, shaxs o'z gender roli bilan uyg'unlikda yashagan taqdirda, ruhiy barqarorlik va ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishadi[3]. Gender disforiyasi holatlarida esa psixologik muammolar, o'ziga bo'lgan salbiy munosabat va ijtimoiy yakkalanish hollari ko'proq kuzatiladi.

Gender roli mosligi — bu insonning o'zini jamiyatdagi jinsga oid rollar bilan qanchalik mos his qilishi bilan bog'liq. Ushbu moslik psixologik muvozanatni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Moslik mavjud bo'lmaganda esa shaxs ichki ziddiyat, ruhiy muammolar va ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun, zamonaviy jamiyatda gender rollarini qayta ko'rib chiqish va har bir insonning o'ziga xosligini hurmat qilish psixologik sog'lomlikka xizmat qiladi.

Gender rollarining shakllanishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta'siri va zamonaviy jamiyatda kuzatilayotgan gender rollaridagi o'zgarishlarni aniqlash.

Gender rollarining psixologik shakllanish omillarini aniqlash;
Gender stereotiplarining shaxsiy rivojlanish va psixologik farovonlikka ta'sirini baholash;
Turli jins vakillarining gender rollariga bo'lgan munosabatini solishtirish;
Genderga oid rollarning shaxs identifikatsiyasiga ta'sirini tahlil qilish.

Tadqiqot metodlari:

- So'rovnoma (anketa) usuli;
- Psixologik diagnostika;
- Suhbat (yarim strukturalangan intervyu) usuli;
- Ma'lumotlarni statistik tahlil qilish.

1. So’rovnoma:"Gender rollar va shaxsiy qarashlar" nomli anketada ishtirokchilarga quyidagi savollar berildi (Likert shkalasi asosida baholash bilan):

- O’zingizni qanday gender rolida ko’rasiz? (an’anaviy / zamonaviy / aralash);
- Jamiyatdagi gender stereotiplari sizning tanlovlaringizga ta’sir qilganmi?;
- Sizningcha, ayollar va erkaklar uchun bir xil kasbiy imkoniyatlar mavjudmi?;
- Oiladagi gender rollar qanday taqsimlangan, deb hisoblaysiz?
- Gender stereotiplari psixologik bosimga sabab bo’lgan holatlarni boshdan kechirganmisiz?

Tadqiqotda 20 nafar respondent (10 nafar ayol, 10 nafar erkak) qatnashdi. Ular asosan 18–30 yosh oralig’idagi talabalar yoki yosh mutaxassislar orasidan tanlab olindi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish:

- so’rovnoma natijalari foizli taqsimot asosida tahlil qilindi;
- test natijalari orqali gender xususiyatlari ustunligi (maskulinlik/femininlik/androginiya) aniqlandi;
- jinslar o’rtasidagi farqlar statistik jihatdan o’rtacha ko’rsatkichlar yordamida baholandi;
- natijalar diagramma va grafiklar orqali vizual ko’rinishga keltirildi.

Kutilayotgan natijalar gender rollariga bo’lgan qarashlar o’zgaruvchan va xilma-xil ekanligi, gender stereotiplari shaxs psixologik farovonligiga bosim sifatida namoyon bo’lishi, androginiya darajasining yuqoriligi ruhiy barqarorlikka ijobiy ta’sir ko’rsatishi aniqlanishi mumkin.

Gender rollarining psixologik asoslarini o’rganish zamonaviy jamiyatda shaxsiy va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Gender tengligini ta’minlash va stereotiplardan voz kechish orqali shaxslar o’z salohiyatini to’liq namoyon eta oladi. Psixologik nuqtai nazardan, genderga oid rollarning erkinligi ruhiy salomatlik va ijtimoiy moslashuvning asosiy omillaridan biridir. Ushbu metodika yordamida gender rollarining psixologik ta’siri chuqur tahlil qilinadi va mavzuga oid ilmiy-nazariy hamda amaliy xulosalar chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Bandura, A. (1977). Ijtimoiy o’rganish nazariyasi. Prentice-Hall nashriyoti.
2. Erikson, E. H. (1968). Shaxsiyat: Yoshlik va inqiroz. Norton nashriyoti.
3. Bem, S. L. (1981). Gender sxemasi nazariyasi: jinsiy tipiklashuvning kognitiv talqini. Psixologik sharh.
4. Lips, H. M. (2014). Ayollar psixologiyasining yangi yo’nalishi: gender, madaniyat va etniklik. Waveland Press nashriyoti.
5. Lorber, J. (1994). Gender paradokslari. Yale University Press nashriyoti.

Yunusova Go'zal Sultonovna
Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD).
E-mail: yunusova73@gmail.com.

Anvarjonova Zulxumor Oxunjon qizi
Farg'ona davlat universiteti magistranti
E-mail: zulxumoranvarjonova@gmail.com

O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXSIY AVTONOMIYANING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY GURUHLARNING FUNKSIONAL ROLI: SOTSIOPSIXOLOGIK VA AXLOQIY-NAZARIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'smirlik davrida shaxsiy avtonomiya shakllanishi jarayonida ijtimoiy guruhlarning sotsiopsixologik va axloqiy-nazariy kontekstdagi funksional roli tahlil etilgan. Shaxsiy avtonomiya — o'smirning o'zini mustaqil, ongli va mas'uliyatli shaxs sifatida anglay boshlashi, mustahkam "Men" konsepsiyasini shakllantirish jarayoni bo'lib, uning rivojida maktab jamoasi, do'stlar guruhi, oilaviy tizimlar va raqamli kommunikatsion muhitda faoliyat yurituvchi guruhlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maqolada zamonaviy sotsiopsixologik nazariyalar (sotsial identifikatsiya nazariyasi, referent guruhlar kontsepsiyasi) hamda axloqiy-psixologik yondashuvlar (L. Kolbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi, J. Midning "Ijtimoiy Men" konsepsiyasi) asosida guruhlarning normativ, baholovchi va moslashtiruvchi funktsiyalari ochib berilgan. Shuningdek, shaxsiy avtonomiyaning shakllanishida guruhlararo ta'sirlar va ularning axloqiy pozitsiyalarga ko'rsatgan ta'siri talqin qilingan. O'smirlik davridagi avtonomiya jarayonini psixosotsial rivojlanishning markaziy bo'g'ini sifatida ko'rishga asoslangan konseptual model ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *o'smirlik, shaxsiy avtonomiya, ijtimoiy guruh, sotsiopsixologik yondashuv, axloqiy-nazariy model, guruh normasi, referent guruh, identifikatsiya, ijtimoiy ta'sir, axloqiy ong.*

THE FUNCTIONAL ROLE OF SOCIAL GROUPS IN THE FORMATION OF PERSONAL AUTONOMY DURING ADOLESCENCE: SOCIO-PSYCHOLOGICAL AND MORAL-THEORETICAL APPROACHES

Annotation. *This article analyzes the functional role of social groups within the socio-psychological and moral-theoretical context in the formation of personal autonomy during adolescence. Personal autonomy refers to the adolescent's process of recognizing themselves as an independent, conscious, and responsible individual, forming a stable concept of "Self." The development of this autonomy is significantly influenced by school communities, peer groups, family systems, and groups operating in the digital communication environment. The article explores normative, evaluative, and adaptive functions of these groups based on modern socio-psychological theories (such as social identity theory and the concept of reference groups) and moral-psychological approaches (including L. Kohlberg's stages of moral development and G. H. Mead's concept of the "Social Self"). Additionally, the paper interprets intergroup influences and their impact on adolescents' moral positions. A conceptual model is developed, which positions the process of autonomy during adolescence as a central component of psychosocial development.*

Keywords: *adolescence, personal autonomy, social group, socio-psychological approach, moral-theoretical model, group norms, reference group, identification, social influence, moral consciousness.*

ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ ГРУПП В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТНОЙ АВТОНОМИИ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ: СОЦИОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И НРАВСТВЕННО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. *В данной статье проанализирована функциональная роль социальных групп в контексте социопсихологических и морально-теоретических подходов в процессе формирования личной автономии в подростковом возрасте. Личная автономия рассматривается как процесс осознания подростком себя как самостоятельной, сознательной и ответственной личности, формирования устойчивой концепции «Я». В развитии автономии решающую роль играют школьное сообщество, группа друзей, семейные системы и группы, функционирующие в цифровой коммуникативной среде. В статье раскрыты нормативные, оценочные и адаптационные функции групп на основе современных социопсихологических теорий (теория социальной идентификации, концепция референтных групп) и морально-психологических подходов (этапы морального развития Л. Колберга, концепция «Социального Я» Дж. Мида). Также интерпретируются межгрупповые влияния и их воздействие на моральные позиции подростков. Разработана концептуальная модель, рассматривающая процесс автономии в подростковом возрасте как центральное звено психосоциального развития.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, личная автономия, социальная группа, социопсихологический подход, морально-теоретическая модель, нормы группы, референтная группа, идентификация, социальное влияние, моральное сознание.*

Kirish. Zamonaviy sotsiomadaniy muhitda o’smirlik davri shaxs rivojlanishining eng murakkab va intensiv bosqichlaridan biri sifatida talqin etilib, bu bosqichda shaxsiy avtonomiyaning shakllanishi markaziy psixosotsial jarayon sifatida namoyon bo’ladi. Shaxsiy avtonomiya — bu o’smirning ijtimoiy mavjudlik sharoitida o’z fikrini mustaqil ilgari surish, qaror qabul qilish, ijtimoiy normalar va axloqiy qadriyatlarni tanqidiy qayta baholashga qodir bo’lgan subyektga aylanish jarayonidir. Mazkur jarayon, eng avvalo, o’smirning ijtimoiy guruhlar bilan o’zaro munosabatlarida aks etuvchi o’zaro ta’sirlar tizimi orqali shakllanadi. Ijtimoiy guruhlar — bu shaxsning identifikatsiyasi, ijtimoiy rolining differensiallashuvi va axloqiy pozitsiyasining strukturaviy barqarorlashuvi uchun asosiy vosita hisoblanadi. Bu nuqtai nazardan, guruhlar nafaqat tashqi ijtimoiy nazorat subyekti, balki ichki axloqiy-psixologik barqarorlik manbai sifatida ham talqin qilinadi. Masalan, T. Shibutani va G. X. Midning sotsiopsixologik kontsepsiyalarida "referent guruh" fenomeni shaxsning ijtimoiy standartlar tizimini ichkilashtirishda markaziy determinant sifatida ko’riladi. Shuningdek, L. Kolbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi asosida o’smirlikda avtonom axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati — ijtimoiy guruhlar bilan interaktiv munosabatlar kontekstida rivojlanadi. Global kommunikatsiya tarmoqlari kengayib borayotgan bir paytda, o’smirlarning shaxsiy avtonomiyasi faqat an’anaviy ijtimoiy institutlar (maktab, oila, mahalla) doirasida emas, balki raqamli guruhlar va virtual jamiyatlar orqali ham shakllanmoqda. Bu esa ijtimoiy guruhlarning funksional rolini qayta baholash, ularning sotsiokognitiv va axloqiy modulyator sifatidagi ahamiyatini chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.[5]

Shu asosda, ushbu maqolaning dolzarbligi o’smir shaxsida avtonom qaror qabul qilish qobiliyatining ijtimoiy determinantlarini aniqlash, xususan, ijtimoiy guruhlarning ushbu jarayondagi funksional vazifalarini sotsiopsixologik va axloqiy-nazariy yondashuvlar asosida chuqur tahlil qilish bilan belgilanadi. Mazkur nazariy izlanish, o’smirlik davridagi shaxsiy avtonomiyaning ijtimoiy-madaniy shakllanish mexanizmlarini konseptual darajada tushuntirib berishga qaratilgan bo’lib, zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos yaratadi.

Asosiy qism va nazariy yondashuvlar.

O’smirlik davri inson hayotidagi tranzitiv bosqichlardan biri bo’lib, bu shaxsiylikning ontogenezida keskin o’zgarishlar, psixosotsial ziddiyatlar va yangi sifat bosqichlariga o’tish bilan xarakterlanuvchi murakkab davr bo’lib, ushbu bosqichda shaxsiy avtonomiya asosiy rivojlanish markaziga aylanadi. Shaxsiy avtonomiya – bu o’z-o’zini anglash, shaxsiy qarorlarni mustaqil qabul qilish, ichki

motivatsiya asosida harakat qilish va ijtimoiy rollarni ongli tarzda o'zlashtirishga qaratilgan psixik holat va ijtimoiy-axloqiy faoliyatning uyg'unlashgan tizimidir. Mazkur fenomenning shakllanishida ijtimoiy guruhlar o'smir shaxsini axborot, baholovchi va me'yoriy muhit bilan ta'minlovchi asosiy determinant sifatida maydonga chiqadi. Shaxsiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish va ijtimoiy-huquqiy pozitsiyasini aniqlashtirish kabi jarayonlar faol kechadi. Ijtimoiy guruhlar asosiy tashkiliy va sotsiokognitiv muhitni yaratadi.

Shaxsiy avtonomiya va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro dialektik xarakterga ega bo'lib, bu jarayonda o'smir bir tomondan guruhga moslashishga, ikkinchi tomondan esa guruhdan ajralib turuvchi individual pozitsiyasini mustahkamlashga intiladi. A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida shaxsning agentlik (agenti) xususiyatlari avtonom harakatlarning negizini tashkil qilsa-da, ushbu agentlikning shakllanishi ijtimoiy guruhlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar orqali rag'batlantiriladi. Ya'ni, o'smirlar o'zlarining mustaqil fikr va harakatlarini guruh ichidagi pozitsiyalari orqali real va ramziy baholaydilar.

Ijtimoiy guruhlar o'zining struktura va vazifalari jihatidan shaxsni sotsializatsiya qilishda birlamchi (oilaviy, do'stlar guruhi), ikkilamchi (maktab sinfi, sport to'garaklari), va zamonaviy (ijtimoiy tarmoqlar, virtual jamoalar) shakllarda ta'sir ko'rsatadi. Ushbu guruhlar quyidagi funksiya-larni bajaradi:

-Normativ funksiyasi – ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantiradi;

-Referent funksiyasi – o'smirning axloqiy yo'nalishini belgilovchi ideal obrazlarni taqdim etadi;

-Emotsional qo'llab-quvvatlash funksiyasi – shaxsiy xavfsizlik va qabul qilinish hissini mus-tahkamlaydi;

-Avtonomiya stimulyatori sifatida – shaxsiy tanlovlar uchun ijtimoiy kontekstni yaratadi.

Shu bilan birga, Z. Freydning psixoanalitik yondashuvi asosida o'smirlikdagi "identifikatsiya" jarayoni orqali ota-onalik modeliga moslashuv, undan ajralish va o'z yo'lini tanlash orqali avtono-miya shakllanishi nazariy jihatdan asoslanadi. Bu o'zgarishlar aynan ijtimoiy guruhlarning vositachilik faoliyati orqali real kontekstdan namoyon bo'ladi.

Guruhlar shaxsga sotsiokognitiv model va axborot manbai sifatida ta'sir ko'rsatadi. H. Tajfel va J. Turnerning sotsial identifikatsiya nazariyasiga ko'ra, o'smir o'zini muayyan guruh bilan tenglashtirar ekan, bu guruh me'yorlarini ichkilashtiradi va shu asosda avtonom pozitsiyasini shakllantiradi. Guruhlar ijtimoiy o'zini anglash mezonini taklif etadi, ya'ni "men kimman?" degan savolga ijtimoiy kontekstda javob topish imkonini beradi. Shuningdek, L. Festingerni sotsial taqqoslash nazariyasi orqali qaralganda, o'smirlar o'z imkoniyat va qarorlarini tengdosh guruhlar bi-lan solishtirish orqali baholaydilar. Bu baholashlar natijasida ularning o'ziga bo'lgan ishonchi, qaror qabul qilishdagi avtonomligi shakllanadi.

L. Kolbergning axloqiy tafakkur rivoji nazariyasiga binoan, o'smirlikda shaxs axloqiy hukm chiqarishda universal qadriyatlar va shaxsiy prinsiplarga asoslana boshlaydi. Bu esa ijtimoiy kon-formizmning kamayib, avtonom axloqiy qarorlar qabul qilish ehtiyojining ortishi bilan belgilanadi. Ushbu bosqichda ijtimoiy guruhlar o'zining normativ ta'sirini individual pozitsiyani shakllantirishga yo'naltiradi, ya'ni guruhlar o'z ichida avtonom pozitsiyalarni inklyuziv tarzda qabul qiladigan kontekstga aylanishi mumkin.[5] J. Midning "umumiy boshqalar" konsepsiyasiga ko'ra, o'smir o'z harakatlarini ijtimoiy kutuvlar bilan uyg'unlashtirib, "men qandayman" emas, balki "men boshqal-arning nigohida qandayman" mezoni asosida baholaydi. Bu ichki sotsial refleksiya orqali shaxsiy avtonomiya shakllanadi. Zamonaviy raqamli guruhlar (ijtimoiy media platformalari, virtual jamoalar) o'smirlarning axloqiy va sotsial pozitsiyalarini shakllantirishda kuchli ta'sir omiliga aylangan. Bu guruhlar ko'pincha algoritmik asosda shakllanib, shaxsga mos kontentni taklif qiladi, bu esa avtono-miya va konformizm o'rtasidagi muvozanatga tahdid soladi. Ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan bun-day guruhlar "rezonansli ijtimoiy muhit" sifatida harakat qiladi: ular shaxsiy e'tiqod va tanlovlarni tasdiqlaydi yoki rad etadi, ijtimoiy baholovchi refleksiyalarni kuchaytiradi. Shunday qilib, ijtimoiy guruhlar nafaqat shaxsiy avtonomiya shakllanishining tashqi ijtimoiy konteksti, balki uning mazmuni va yo'nalishini belgilovchi funksional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. [4]

Adabiyotlar tahlili.

Shaxsiy avtonomiya fenomenini o'rganishda eng muhim tadqiqotlardan biri E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasidir. Erikson (1950) o'zining "Identitet va shaxsiy rivojlanish" asarida o'smirlik davrida shaxsiy identitet va avtonomiyaning shakllanishi markaziy rivojlanish bosqichi sifatida ko'rsatiladi. U o'smirning "men kimman?" degan savolga javob topish jarayonini identifikatsiya va interiorizatsiya orqali ta'riflaydi. Bu jarayonda ijtimoiy guruhlarning ahamiyati katta bo'lib, ular o'smirning o'zini ijtimoiy va shaxsiy kontekstda qanday qabul qilishi va tanlashi bilan bog'liq.[1]

Ijtimoiy guruhlarning shaxsiy avtonomiya shakllanishidagi roli bo'yicha bir qator psixologik tadqiqotlar mavjud. H. Tajfel (1979) tomonidan ishlab chiqilgan sotsial identifikatsiya nazariyasida guruhlar o'smirlarning o'zlarini qanday aniqlashlariga, o'zgaruvchan ijtimoiy kontekstda shaxsiy rolni qanday qabul qilishlariga ta'sir ko'rsatadi. Tajfel va Turner (1986) guruhlar bilan identifikatsiya qilish jarayonining ijtimoiy psixologik aspektlarini o'rganib, bu jarayon shaxsiy avtonomiya va o'zgarishlarni qanday rag'batlantirishi mumkinligini ko'rsatdilar. Ularning tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, ijtimoiy guruhlar, o'z navbatida, o'smirlarning ijtimoiy identitetlarini shakllantirish va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. [5] Bundan tashqari, L.Festingerning (1954) sotsial taqqoslash nazariyasiga ko'ra, o'smirlar o'zlariga bo'lgan ishonch va o'zlikni baholashda o'z tengdoshlari bilan taqqoslash orqali o'zlarini anglashadi. Bu jarayon ijtimoiy guruhlarning shaxsiy rivojlanishga bo'lgan ta'sirini yanada oshiradi. Shuningdek, guruhlar o'smirlarni tanqidiy qarorlar qabul qilishga va ijtimoiy xulq-atvorning muhim jihatlarini ichkilashtirishga yo'naltiradi. L. Kolbergning (1969) axloqiy rivojlanish nazariyasi o'smirlik davrida axloqiy tafakkurning uch bosqichini taklif etadi. Unga ko'ra, o'smirlar axloqiy qarorlar qabul qilishda ijtimoiy me'yorlarga emas, balki universal axloqiy tamoyillarga asoslanadilar. Kolbergning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy guruhlar axloqiy qarorlar qabul qilishda o'smirlar uchun referent nuqtalar sifatida xizmat qiladi, ularning baholovchi va rag'batlantiruvchi ta'siri shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantiradi. J. Boyd (2014) "It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens" asarida ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlarning ijtimoiy o'zgarishlariga va o'zligini anglash jarayoniga bo'lgan ta'sirini tahlil qiladi. U raqamli guruhlar, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllangan virtual guruhlar, o'smirlarning o'zini tanlash va avtonomiya qarorlarini qabul qilishdagi yangi imkoniyatlar yaratishini ta'kidlaydi. Bu platformalar o'smirlarga o'z fikrlarini bildirish va ijtimoiy munosabatlarni boshqarish imkoniyatini taqdim etadi, shu bilan birga, ularning ijtimoiy xavfsizligini va o'zlikni anglash jarayonlarini ham qo'llab-quvvatlaydi. H. G. Gergen (1991) o'zining "The Saturated Self" asarida o'smirlarning ijtimoiy tarmoqlar va guruhlardagi ta'sirini, ularning shaxsiy avtonomiya va mustaqillikni qanday shakllantirishini tahlil qiladi. [4]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'smirlik davri shaxsiy avtonomiya shakllanishining murakkab va ko'p jihatli jarayonidir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun ijtimoiy guruhlarning ta'siri muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy guruhlar o'smirning ichki motivatsiyasi, qaror qabul qilish jarayonlari va o'zlikni anglashida markaziy rol o'ynaydi. Shaxsiy avtonomiya o'zini mustaqil ravishda anglash, o'z qarorlarini mustaqil qabul qilish va ijtimoiy me'yorlarni ichkilashtirishga qaratilgan psixik tizim sifatida ko'rilsada, uning shakllanishi faqat shaxsiy xususiyatlar bilan cheklanmaydi, balki o'smirning ijtimoiy guruhlar bilan bo'lgan o'zaro aloqalari va axloqiy tanlovlar orqali ham kuchayadi. O'smirlar uchun guruhlar, ayniqsa tengdosh guruhlari, shaxsiy avtonomiya shakllanishining asosi sifatida xizmat qiladi. Ijtimoiy guruhlar o'zining me'yoriy, axloqiy va psixologik ta'sirini shaxsiy tanlovlarni va ijtimoiy o'zlikni shakllantirishda namoyon etadi. Bunda ijtimoiy identifikatsiya va taqqoslash jarayonlari, shuningdek, guruh ichidagi pozitsiyalarni aniqlash o'smirning psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'smirlikda avtonomiya shakllanishi guruhning normativ va referent funksiyalariga muvofiq amalga oshadi. Axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonida ijtimoiy guruhlarning roli nihoyatda katta. Kolbergning axloqiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, o'smirlar axloqiy hukmlarni universal qadriyatlar va prinsiplarga asoslanib, guruhlar orqali o'zlashtiradilar. Shuningdek, raqamli guruhlarning o'smirlar psixologiyasidagi o'rni ham tobora ortib bormoqda, chunki ijtimoiy tarmoqlar o'smirlarning shaxsiy va ijtimoiy o'zligini anglash jarayonlarini

tezlashtiradi va kengaytiradi. Bundan tashqari, o'smirlar ijtimoiy tarmoqlarda guruhlar bilan identifikatsiya qilish orqali avtonomligini mustahkamlashadi, ammo bu jarayonda guruhning ijtimoiy ta'siriga qarshi o'z fikrini ifodalashning psixologik qiyinchiliklari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Erikson E. – Identity: Youth and Crisis
2. Bronfenbrenner U. – The Ecology of Human Development
3. Kohlberg L. – Essays on Moral Development
4. Mid G.H. – Mind, Self, and Society
5. Tajfel H., Turner J.C. – The Social Identity Theory of Intergroup Behavior
6.Uzbekistonda chop etilgan psixologiya va pedagogika bo'yicha maqolalar (Masalan: "Psixologiya" jurnalidagi maqolalar)

Бакоева Мафтуна Шухратовна
докторант т (PhD) Бухарского государственного университета,

Усманова Манзура Наимовна
кандидат психологических наук,
профессор Бухарского государственного университета

РОЛЬ ПЕДАГОГОВ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ И БОРЬБЕ С БУЛЛИНГОМ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ: СТРАТЕГИИ, ПРОБЛЕМЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. *В этой статье рассматриваются распространенность и последствия издевательств, подчеркивается важную роль учителей в предотвращении и устранении такого поведения. Исследование подчеркивает важность создания благоприятной атмосферы в классе, включения принципов социально-эмоционального обучения, развития прочных связей между учителем и учеником и применения эффективных тактик вмешательства.*

Ключевые слова*: буллинг, образовательная среда, учителя, профилактика, вмешательство, климат в классе, социально-эмоциональное обучение, отношения учителя и ученика, сотрудничество, профессиональное развитие.*

THE ROLE OF TEACHERS IN PREVENTING AND ADDRESSING BULLYING IN EDUCATIONAL SETTINGS: STRATEGIES, CHALLENGES, AND IMPLICATIONS

Abstract. *This article delves into the prevalence and repercussions of bullying, emphasizing the essential function teachers undertake in thwarting and addressing such behaviors. The research underscores the significance of establishing a favorable classroom ambiance, incorporating principles of social-emotional learning, nurturing robust teacher-student connections, and executing efficient intervention tactics.*

Keywords: *bullying, educational settings, teachers, prevention, intervention, classroom climate, social-emotional learning, teacher-student relationships, collaboration, professional development*

TA’LIM MUHITIDA BULLINGNING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISHDA PEDAGOGLARNING ROLI: STRATEGIYALAR, MUAMMOLAR VA OQIBATLAR

Annotatsiya*. Ushbu maqola bezorilikning tarqalishi va oqibatlarini o'rganadi va bunday xatti-harakatlarning oldini olish va bartaraf etishda o'qituvchilarning muhim rolini ta'kidlaydi. Tadqiqot ijobiy sinf muhitini yaratish, ijtimoiy-emotsional ta'lim tamoyillarini o'z ichiga olish, kuchli o'qituvchi va talaba aloqalarini rivojlantirish va samarali aralashuv taktikasini qo'llash muhimligini ta'kidlaydi.*

Kalit so'zlar: *bezorilik, ta'lim muhiti, o'qituvchilar, oldini olish, aralashuv, sinfdagi iqlim, ijtimoiy-emotsional ta'lim, o'qituvchi va talaba munosabatlari, hamkorlik, kasbiy rivojlanish.*

Freydning psixoanalitik nazariyasida ota — qonun va me’yorlar ramzi deya ifodalangan. Edip kompleksi (3–6 yosh) davrida bola otani raqib sifatida ko’radi, keyinchalik identifikatsiya orqali unga o’xshashga harakat qiladi. Ota bolaning superego (axloqiy ong)ini shakllantirishda asosiy figuradir. Eriksonning psixososial rivojlanish bosqichlarida ota bolaning ijtimoiy mas’uliyat, ishchanlik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarini rivojlantiradi. Ota mavjud bo’lmasa yoki passiv bo’lsa, bola o’zini “yo’lini topolmayotgan” holatda his qilishi mumkin. Ota faolligi, bilim berishi, suhbatlardagi roli ota obrazining chuqurlashuviga sabab bo’ladi. Har bir bola o’zining shaxsiy tajribasi asosida bu obrazlardan biriga yaqin tasavvur shakllantiradi. Ota obrazining shakli bolaning hayotiy idealini, shaxslararo munosabatlarini, o’z-o’zini qadrlashini, kelajakdagi ota rolini (o’g’il bolalarda), erkaklar bilan bo’lgan munosabatlarini (qiz bolalarda) belgilaydi. Ota obrazining shakllanishi faqatgina oilaviy muhit bilan cheklanmaydi. Quyidagi omillar muhim rol o’ynaydi:

a) Oila muhitidagi rollar: An'anaviy oilalarda ota ko'proq iqtisodiy ta'minotchi rolida bo'lib, bola bilan emotsional aloqasi zaifroq bo'ladi. Ammo zamonaviy oilalarda otaning tarbiyaviy jarayonlardagi faol ishtiroki bola ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

b) Madaniy va diniy qadriyatlar: Ota obrazining shakllanishida madaniyat va jinsiy farqlarning o'rni katta. Patriarxal jamiyatlarda ota obraziga nisbatan talablar va kutishlar boshqacha bo'lsa, tenglikka asoslangan jamiyatlarda bu tasavvur demokratikroq shakllanadi. O'g'il bolalar odatda otani o'zlariga ideal namunaviy shaxs deb bilishsa, qiz bolalar uchun ota – himoya, ishonch va mehr timsoli bo'ladi. Ota haqidagi tasavvurlar har bir jamiyatda o'ziga xosdir. Islomiy qadriyatlarda ota – oilaning rahbari, mas'ul shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu esa bolaning ota obrazini hurmat va itoat orqali shakllantiradi. Sharq madaniyatida ota — ustoz, qattiqqo'l, "urishadigan, lekin sevadigan" obraz sifatida tasvirlanadi. G'arb madaniyatida esa "emosional yaqin", farzandi bilan tengdoshlardek muloqot qiluvchi ota modeli keng tarqalgan.

c) Jamiyatdagi erkaklar obrazlari: Bola uchun otaga o'xshash boshqa erkaklar (muallim, sport murabbiyi, amaki) ham "muqobil ota" sifatida obraz yaratadi. Ota bo'lmagan hollarda aynan shu shaxslar bola ruhiyatida otalik obrazini to'ldiradi.

d) Ommaviy axborot vositalari: Televideniya, internet, adabiyotlarda ko'rsatilgan ota obrazlari bolaning ongiga mustahkam o'rnashadi. Bu obrazlar ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun bolalarga tavsiya etiladigan kontentga e'tibor qaratish muhimdir. Media, ijtimoiy tarmoqlar, karikatura, kitob va o'yinlar bolada otaga nisbatan ijobiy yoki salbiy tasavvurlarni shakllantirishi mumkin.

e) Ijtimoiy omillar: Oilaning ijtimoiy maqomi (daromad, yashash sharoiti, ota ishdan uzoqda bo'lishi)

g) Ota-onaning rol taqsimoti (masalan, faqat onaning tarbiyada faol bo'lishi)

h)Maktab va bog'chadagi tarbiyaviy muhit (tarbiyachilarning otaga munosabati)

j) Psixologik omillar: Ota bilan emotsional yaqinlik, ota tomonidan e'tibor, maqtov va rag'bat berilishi, olaning o'zini inson sifatida qadrlashi (self-esteem), ota tomonidan namoyish etiladigan mehr, qat'iylik va ishonch.

Bolaning otasi bilan ijobiy, ishonchli va iliq munosabatlari bo'lsa, bola quyidagi sifatlarni o'zida rivojlantiradi:

O'ziga ishonch: Ota tomonidan qo'llab-quvvatlangan bola hayotda o'z fikrini erkin bildiradi.

Mas'uliyat: Ota mas'uliyat timsoli bo'lib, uni o'rnak sifatida qabul qilgan bola ham mas'uliyatli bo'ladi.

Ijtimoiy moslashuv: Ota bilan ochiq muloqotda bo'lgan bolalar jamiyatga tez moslashadi.

Gender identifikatsiyasi: Bola o'z jinsini va unga xos xatti-harakatlarni otasi orqali o'zlashtiradi.

Ota obrazining funksional roli bolada bir qancha o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Jumladan, ota obrazi bolaning shaxsiy identifikatsiyasi (ayniqsa o'g'il bolalarda), erkaklik yoki ayollik me'yorlarini anglash, o'zini himoyalangan, xavfsiz his qilishi, intizom va mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni o'rganish (yoshdan kattalarga qanday muomala qilish) uchun asosiy model bo'lib xizmat qiladi.

Salbiy holatlarda esa: Ota bilan muloqot yo'qligi hissiy befarqlikni keltirib chiqaradi. Qattiqqo'l yoki tajovuzkor ota bolasida qo'rquv va past o'zini baholashga olib keladi. Ota obrazining yo'qligi yoki o'rnini to'ldira olmaslik – identifikatsiya muammolariga sabab bo'ladi[2]. Ota obrazining salbiy shakllanishiga quyidagi bir nechta jarayonlar sabab sifatida keltiriladi:

- Ota doimiy yo'qligi yoki befarqligi;
- Ota tomonidan zo'ravonlik, qattiqqo'llik yoki jazolash;
- Ota haqida onaning salbiy fikr bildirishi;
- Ota va bola o'rtasida sifatli muloqotning yo'qligi;
- Bolaning oilada o'zini keraksiz his qilishi.

Bunday holatda ota obrazi buzilgan shaklda — qo'rqinchli, sovuq, begona yoki befarq tarzda shakllanishi mumkin.

Qo'llanilgan metodlar:

Biz o'z tadqiqot ishimiz davomida bolalarda ota obrazining shakllanishi"ni o'rganishga mo'ljallangan "Mening otam" loyihaviy testidan foydalanib, bolalar tasavvuridagi ota obrazini aniqlab, tahlil qildik. Mazkur psixologik metodikaning maqsadi bolalarning ongida shakllangan ota obrazi, unga bo'lgan munosabat, emotsional bog'liqlik va ijtimoiy-psixologik bahoni aniqlashdir. Tadqiqotimizning obyekti sifatida 5–10 yoshdagi bolalar tanlab olindi. Ushbu metodika sinaluvchilarning har biri bilan yakka tartibda o'tkaziladi. Bolaga o'z otasini qanday tasavvur qilsa, shunday qilib chizib berishi topshiriq beriladi. Mazkur jarayonda otaning holati (turganmi, yurganmi, ish qilayaptimi), otaning yuzi (emotsiya: kulgan, jiddiy, xafa), bola o'zini otasi bilan birga chizganmi?, rasmda boshqa oila a'zolari bormi?, ranglar (quyuq ranglar – salbiy emotsiya, yorqin ranglar – ijobiy) kabi mezonlarga ahamiyat beriladi. 2-bosqichda bola bilan loyihaviy suhbat olib boriladi. Bolaga "Senga otang nima uchun yoqadi? Otang seni qachon xursand qiladi? Uyda otang bilan nima qilasiz? Otang bilan ko'p vaqt birga bo'lasanmi? Otang senga qachon qattiq gapirgan? Nimaga?" mazmunidagi savollar beriladi. 3-bosqich baholash va tahlil qilish bosqichi bo'lib, har bir javob va rasm quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

8–10 ball – kuchli ijobiy ota obrazi
4–7 ball – barqaror, lekin cheklangan aloqa
0–3 ball – ota bilan zaif yoki salbiy aloqa

Ushbu metodika yordamida psixolog bolada ota obrazi qanday shakllanganini, ota-bola orasidagi emotsional va ijtimoiy munosabatlarning holatini aniqlashi mumkin. Metodika keyinchalik korreksion-trening ishlanmalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bolalar bilan birgalikda "Otam men uchun qadrli"korreksion-trening mashg'uloti ham olib bordik. Bundan maqsad-ota-bola o'rtasidagi ijobiy hissiy aloqani mustahkamlash, ishonch va hurmat asoslarini rivojlantirish edi. 8–12 yoshli bolalar bilan 45 daqiqa mobaynida bolalarga bir nechta jarayonda ko'rsatmalar beriladi. Dastlab bolalar bilan ota-bola munosabatiga oid mavzuda oddiy suhbat olib boriladi: Keyingi jarayonda "Ayt, bu kim?" deb nomlangan davomiyligi 10 daqiqa bo'lgan psixologik o'yin o'tkaziladi. Bolaga 5–6 ta ijobiy sifat (mehribon, aqlli, kuchli, hazilkash...) o'qiladi va bu sifatlar otasiga to'g'ri kelish-kelmasligi so'raladi. 3 qismda bolalar "Otam – qahramon" mavzusida rasm chizadilar yoki kichik hikoya yozadilar. 4 jarayon rolli o'yin bo'lib, bola "Agar men ota bo'lsam..." deb boshlab, o'z tasavvuridagi namunali otani ifodalaydi. Va nihoyat 5-yakuniy bosqichda "Otamga aytmoqchi edim..." deb nomlanib, bolalar aytishni istagan, lekin aytolmayotgan gaplarini aytadilar yoki yozadilar.

Bu mashg'ulot orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalashga o'rganadi, ota obrazini emotsional jihatdan boyitadi va ijobiy muloqot yo'llari shakllanadi.

Natijalar va munozara: "Mening otam" loyihaviy diagnostikasi savolnoma + rasm + suhbat asosida olib borilib, quyida ushbu metodikadan olingan natijalar tahlili keltirilgan: 5–10 yosh oralig'idagi 150 nafar bolalarda yosh taqsimoti-5–6 yosh – 50 nafar**,** 7–8 yosh – 50 nafar**,** 9–10 yosh – 50 nafar. Barcha bolalarning qariyb 60% da ota haqidagi tasavvur ijobiy va emotsional jihatdan boy. 28% ishtirokchilarda esa otaning mavjudligi sezilgan bo'lsa-da, u bilan emotsional aloqa zaif. 12.7% bolalarda esa otaga nisbatan hissiy sovuqlik, qo'rquv yoki begonalik mavjud.

2. Rasmiy topshiriq tahlili ("Men va otam")

150 nafar boladan chizilgan rasmlar asosida quyidagi kuzatishlar qayd etildi:

Mezoni	Kuzatuv holati (%)
Bola otasi bilan birga chizilgan	72%
Ota baxtli holatda tasvirlangan	58%
Ota faoliyatda (ish, o'yin…)	46%
Ota yolg'iz yoki uzoqda chizilgan	18%
Emotsional salbiy ifoda	11%

Ko'pchilik bolalar otasini ijobiy kayfiyatda, birga bo'lgan holatda tasvirlagan. Lekin har 5 boladan 1 tasi otani begona yoki uzoq obrazda chizgan.

3. Bolalarda muayyan yoshda ota haqida turlicha tasavvurlar shakllanadi. Masalan:

Maktabgacha yosh (3–6 yosh): Ota bola uchun qahramon, himoya qiluvchi obrazda shakllanadi. Bola uchun ota jismoniy kuch, hukmronlik, mustahkamlik timsoli. Tasavvur ko'proq fantaziya bilan aralashgan bo'ladi.

Boshlang'ich maktab yoshi (7–10 yosh): Bola otani haqiqiy inson sifatida ko'ra boshlaydi. Ota bilan muloqot sifati tasavvurga kuchli ta'sir qiladi. Bola otaning hayotiy qadriyatlarini tushunishga harakat qiladi. Biz o'z tadqiqot ishimizda aynan yoshga qarab bolalarda ota obrazi haqidagi tasavvurning shakllanishini ham o'rgandik. Suhbat natijalari asosidagi kuzatmalar: Suhbat davomida quyidagilar aniqlandi: 84% bola otasini "kuchli", "aqlli", "himoya qiluvchi" sifatida tasvirlagan. 21% bola otasi bilan vaqt yetarlicha o'tmasligini aytgan. 15% bola otasidan qo'rqishini yoki "ko'p jahl qilishi"ni ta'kidlagan.

Yoshi bo'yicha umumlashtirilgan tahlil:

Yosh guruhi	Kuchli ota obraziga ega (%)
5-6 yosh	66 %
7-8yosh	58%
9-10 yosh	54%

Yosh o'sib borgani sayin ota obrazining murakkablashuvi kuzatiladi. Kattaroq yoshdagi bolalarda otaga nisbatan tanqidiylik ortadi, shuningdek, aloqaning zaiflashishi ham seziladi. 60% dan ortiq bolalar otani ijobiy obrazda qabul qiladi, bu esa oilaviy aloqalarning sog'lomligini ko'rsatadi. Ota-bola o'rtasidagi hissiy aloqani mustahkamlash uchun otalarning faol ishtiroki, sifatli muloqoti zarur. Ota bilan bog'liq salbiy obrazlarga ega bolalar uchun psixologik korreksion mashg'ulotlar o'tkazilishi tavsiya etiladi. Maktabgacha muassasalarda va boshlang'ich sinflarda "Ota ishtirokidagi darslar", "Ota-bola kuni" kabi ijtimoiy loyihalar foydali bo'ladi.

Xulosa. Ota obrazining shakllanishi bola ruhiy hayotining markaziy qismlaridan biridir. Yuqoridagi fikrlar va tajribalardan kelib chiqib, bir nechta tarbiyaviy tavsiyalarni ishlab chiqdik. Avvalo, ota bolaning hayotida faol ishtirokchi bo'lishi zarur (suhbat, o'yin, birga vaqt o'tkazish), shuningdek, ota o'zining ijobiy sifatlarini namoyon qilishi (mehribonlik, javobgarlik, adolat), bolaning his-tuyg'ularini diqqat bilan tinglash, har bir yosh bosqichida bolaning ota haqidagi savollariga ochiq va sodda javob berish, maktab va bog'chada otalarning rolini faollashtirish (masalan, "Ota kuni") kabi jarayonlarga e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bolaning ota haqidagi tasavvuri nafaqat oila, balki keng ijtimoiy muhit, madaniyat va kommunikatsion vositalar orqali shakllanadi. Ota bilan barqaror va iliq munosabatlar bolada ijobiy shaxsiy xususiyatlar shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli otalarning bolalar tarbiyasida faol ishtiroki nafaqat oila, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda oilaviy muhit, ota-ona munosabatlari, jamiyatdagi erkaklar namunasi, madaniyat va media vositalari muhim o'rin tutadi. Ota – bola uchun nafaqat mehribon inson, balki, hayot saboqlarini o'rgatuvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi shaxsdir. Shu sababli, har bir ota o'zining farzandi uchun qanday timsol bo'layotganini anglamog'i va bola ruhiyatiga ongli tarzda ta'sir qilmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Steinberg, L. (2001). We know some things. Parent-adolescent relationship in retrospect and prospect. Journal of Research on Adolescence, 11(1), 1–19.
2. Z.T.Nishanova., Sh.T.Alimbayeva., M.V.Sulaymanov "Psixologik xizmat" darslik, Toshkent – 2014.
3. V.M.Karimova , "Oila psixologiyasi" Darslik – T.: 2007.
4. D.T.Ismatova.Oilaviy psixologik xizmatda shaxslararo munosabatlarni empirik tahlili. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar // Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. – Buxoro, 2023. №5.
5. D.T.Ismatova.Farzand tarbiyasi kontekstida ota-ona fenomenining nazariy metodologik asoslari. Ta`lim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy metodik jurnal. – Buxoro, 2023. №10.

Mo'minov Davronjon Marifjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti, psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: davronmominov02@gmail.com

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB O'QUVCHILARINING KASBIY QIZIQISHLARI VA MOTIVATSIYASI: AMALIY PSIXOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 14–16 yoshli o'quvchilarning kasbiy tanloviga ta'sir qiluvchi asosiy psixologik omillar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida Klimovning kasbiy yo'nalishlar metodikasi, Hollandning RIASEC modeli hamda Elersning motivatsion diagnostikasi asosida o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari, shaxsiy moyilliklari va motivatsion strategiyalari aniqlangan. Olingan natijalar statistik tafovutlar, gender farqlari hamda ijtimoiy-psixologik tahlillar asosida izohlangan. Tadqiqotda olingan natijalarni shaxsiy kuzatishlar va nazariy qarashlar bilan uyg'unlashtirib, kasbga yo'naltirishda individual yondashuv zarurligini asoslab berilgan. Xususan, ijtimoiy va intellektual kasbiy tiplarning ustuvorligi, muvaffaqiyatga erishish motivi yuqoriligi o'quvchilarda faol kasbiy pozitsiyaning shakllanganini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari asosida kasbga yo'naltirish tizimini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy moyillik, motivatsiya, psixologik diagnostika, Klimov metodikasi, Holland modeli, Elers testi, ixtisoslashtirilgan maktab, yoshlar psixologiyasi, kasbga yo'naltirish.*

ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ ИНТЕРЕСЫ И МОТИВАЦИЯ УЧАЩИХСЯ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛ: ПРАКТИЧЕСКИЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье проанализированы основные психологические факторы, влияющие на профессиональный выбор учащихся в возрасте 14–16 лет. В рамках исследования с использованием методики профессиональных направленностей Климова, модели RIASEC Голланда и диагностики мотивации Элерса были выявлены профессиональные интересы, личностные склонности и мотивационные стратегии школьников. Полученные результаты интерпретированы с учетом статистических различий, гендерных факторов и социально-психологических анализов. Авторская интерпретация данных, основанная на личных наблюдениях и теоретических подходах, обосновывает необходимость индивидуального подхода в системе профориентации. В частности, приоритетность социальных и интеллектуальных профессиональных типов, а также высокий уровень мотивации достижения свидетельствуют о сформированной активной профессиональной позиции у учащихся. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по оптимизации системы профориентационной работы.*

Ключевые слова: *профессиональная склонность, мотивация, психологическая диагностика, методика Климова, модель Голланда, тест Элерса, специализированная школа, психология молодежи, профориентация.*

PROFESSIONAL INTERESTS AND MOTIVATION OF SPECIALIZED SCHOOL STUDENTS: A PRACTICAL PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

Abstract. *This article analyzes the main psychological factors influencing the career choice of students aged 14-16. Within the framework of the study, using Klimov's career guidance methodology, Holland's RIASEC model, and Elers' motivation diagnostics, students' professional interests, personal inclinations, and motivational strategies were identified. The obtained results were interpreted taking into account statistical differences, gender factors, and socio-psychological analyses. The author's interpretation of the data, based on personal observations and theoretical approaches, justifies the need for an individual approach in the career guidance system. In particular,*

the priority of social and intellectual professional types, as well as the high level of achievement motivation, indicate the formation of an active professional position in students. Based on the research results, practical recommendations for optimizing the career guidance system have been developed.

***Keywords**: professional inclination, motivation, psychological diagnostics, Klimov methodology, Holland model, Elers test, specialized school, youth psychology, career guidance.*

Hozirgi globallashuv va texnologik taraqqiyot davrida shaxsning kelajakdagi kasbini to'g'ri tanlashi, nafaqat uning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligi, balki psixologik farovonligi, shaxsiy o'sishi va hayotdan qoniqishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olayotgan ta'lim oluvchilar uchun kasbiy yo'nalishni aniqlash jarayoni ertaroq boshlanadi, bu esa ularda bu tanlovga ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirini chuqurroq o'rganishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-fevraldagi PQ–4199-sonli qarori asosida iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'i kengaytirilmoqda. Bu maktablar o'quvchilarining kasbiy yo'nalishlari, odatda, oliy ta'lim tizimi va bozor talablariga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ularning kasb tanlash qarorlariga ijtimoiy-psixologik omillar qanday ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Zamonaviy psixologiyada kasbiy yo'nalish — bu shaxsning o'z imkoniyatlari, qiziqishlari, qobiliyati hamda uni o'rab turgan ijtimoiy-madaniy muhitga muvofiq ravishda hayotda tutadigan kasbiy yo'lini ongli tanlashi va shu yo'nalishda o'zini amalga oshirish jarayonidir. Bu tushuncha shaxsning kasbiy identifikatsiyasi, motivatsion tuzilmasi, va eksistensial o'zini anglash bilan uzviy bog'liq bo'lib, D.Super (Super, 1957) nazariyasida bu jarayon shaxsning ontogenez bosqichlarida kasb orqali o'zini ijtimoiy va professional maydonda tasdiqlashi sifatida talqin etiladi [1. 144-b].

Kasbiy yo'nalish — bu nafaqat shaxsiy qiziqishlar va iqtidor asosidagi tanlov, balki shaxsning o'z jamiyatidagi o'rnini aniqlashi, ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'un yo'l tanlashi va ijtimoiy faoliyat bilan o'zini ifoda etish vositasi hisoblanadi. Masalan, Ginzberg (1972) nazariyasiga ko'ra, kasb tanlash bu doimiy rivojlanuvchi va shaxsiy qadriyatlar bilan bog'liq ijtimoiy jarayondir [2. 88-b].

Bunday murakkab va ko'p qirrali jarayon ayniqsa ixtisoslashtirilgan maktablar sharoitida alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ixtisoslashtirilgan maktab — bu muayyan fan yo'nalishlariga yoki sohaga yo'naltirilgan holda faoliyat yuritadigan, iqtidorli o'quvchilarni tayyorlashga mo'ljallangan ta'lim muassasasi bo'lib, unda o'quvchilar bilan kasbiy orientatsiya jarayonlari ancha erta bosqichdan boshlanadi va tizimli tarzda olib boriladi. Mazkur maktablarda o'quv dasturlari chuqurlashtirilgan, o'quvchilarning kasbiy layoqatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi psixodiagnostika, o'quv-tarbiya tizimi va ijtimoiy muhit bir butun kompleks tarzda shakllantirilgan bo'ladi [3. 104-b].

Kasb tanlash insonning ijtimoiy hayotdagi muhim qarorlaridan biri bo'lib, u shaxsning qadriyatlari, intilishlari, qobiliyatlari va ijtimoiy muhit bilan qanday aloqada bo'lishiga bevosita bog'liq. Ushbu jarayon psixologiyada individual identifikatsiya, motivatsion orientatsiya va ijtimoiy moslashuvning markaziy omili sifatida izohlanadi.

Amerikada John L. Holland tomonidan ishlab chiqilgan "kasbiy moslik" nazariyasi (RIASEC modeli) keng qo'llaniladi. Bu modelga ko'ra, shaxsning psixologik tipi va mehnat muhitining mosligi professional farovonlikning asosi hisoblanadi. Modelda shaxslar va kasblar oltita tipga bo'linadi: realistik, intellektual, badiiy, ijtimoiy, tadbirkor va an'anaviy [4. 88-b].

Yaponiyada esa kasb tanlash jarayoni **集団意識** (shūdan ishiki) ya'ni "Jamoaviy ong" tamoyiliga tayanadi. Bu yondashuvda shaxsning kasbiy yo'nalishi jamiyat ehtiyojlari va guruh qadriyatlariga mos tarzda shakllanadi. Kasbiy rejalashtirish maktab davridayoq boshlab yuboriladi va jamiyatning ijtimoiy strukturasiga integratsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi [5. 56-b].

Janubiy Koreyada kasb tanlash sun'iy intellekt asosidagi onlayn diagnostika tizimlari orqali olib boriladi. O'quvchilarning qiziqishlari, shaxsiy imkoniyatlari va mehnat bozoridagi tendensiyalar AI yordamida tahlil qilinadi. Bu tizim real vaqt rejimida monitoring imkonini beradi va shaxsiy rejalashtirishni qo'llab-quvvatlaydi [6. 211-b].

O’zbekistonda esa kasbiy yo’nalishlar ko’proq ota-onaning ta’siri, maktabdagi psixologik maslahatlar, ta’lim tizimidagi orientatsiya faoliyati hamda shaxsiy qadriyatlar sinteziga asoslanadi. G’oziev E.G. va Soliyeva S.K. kabi mualliflar ta’kidlaganidek, ijtimoiy-psixologik omillar (ota-ona kutishlari, o’qituvchi bilan ishonchli munosabatlar, media muhit ta’siri) yoshlarning kasb tanloviga sezilarli ta’sir ko’rsatadi [7. 112-b; 8. 147-b].

2024-yilning aprel–may oylarida Farg’ona, Andijon va Namangan viloyatlaridagi ixtisoslashtirilgan maktablarda olib borilgan empirik tadqiqot doirasida 180 nafar o’quvchi ishtirokida kasbiy yo’nalish, shaxsiy qiziqish tiplari hamda motivatsion ustuvorliklarni o’rganishga qaratilgan psixologik testlar qo’llanildi. Tadqiqotda Klimovning kasbga yo’naltiruvchi metodikasi, Hollandning RIASEC modeli hamda Elersning motivatsion diagnostikasi asosida o’quvchilarning kasbiy ong rivojlanishi o’rganildi. Har bir test sinf sharoitida, taxminan 35-40 daqiqa davomida o’tkazildi. Barcha natijalar maxsus elektron jadvallarga kiritilib, statistik ishlov berildi va grafik tahlilga tayyor holatga keltirildi.

Yig’ilgan ma’lumotlar birlashtirilgan holda umumiy jadvalga jamlandi va quyidagi tahliliy xulosalar chiqarildi:

1-jadval

“Kasbga yo’naltirishning jinslar bo’yicha natijalari”

T/r	Shkalalar	Respondentlar	Ayol	Erkak	Foizdagi ulushi
1	“inson – inson”	59	34	25	34 %
2	“inson – texnika”	42	16	26	25 %
3	“inson – tabiat”	25	14	11	15 %
4	“inson – belgi”	22	9	13	13 %
5	“inson – badiiy obraz”	22	14	8	13 %
	Jami:	170	87	83	100 %

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida Klimov metodikasidan foydalangan holda respondentlarning kasbiy yo’nalishlarga bo’lgan qiziqishlari aniqlanib, quyidagi ko’rinishda taqsimlandi.

Olingan natijalarga ko’ra, "inson – inson" yo’nalishiga 34% respondent, ya’ni 59 nafar o’quvchi moyillik bildirgan. Bu ko’rsatkich tadqiqotimizda eng yuqori ulushga ega bo’lgan yo’nalish bo’lib, respondentlarning katta qismi insonlar bilan ishlashni, muloqot qilishni, begona insonlar bilan tez va samarali munosabat o’rnatishni qadrlaydigan, ijtimoiy jihatdan faolligi baland bo’lgan shaxslardir. Ayniqsa, bu yo’nalish psixolog, pedagog, shifokor, sotsiolog, jurnalist kabi kasblarga bo’lgan ijtimoiy ehtiyoj va qiziqish bilan uzviy bog’liq.

Qiziqarli jihati shundaki, ushbu yo’nalishni tanlaganlarning 34 nafari ayol, 25 nafari esa erkak bo’lib, ayollar sonining ustunligi kuzatildi. Bu holatni biz quyidagicha izohlashimiz mumkin: ayollarda kommunikativ ehtiyojlar kuchliroq bo’lishi, ijtimoiy sferada faoliyat yuritish istagi yuqoriligi, insonparvarlik va empatiya kabi shaxsiy xususiyatlar bu yo’nalishga bo’lgan moyillikni kuchaytiradi. Shu asosda ayollarning “inson – inson” yo’nalishiga nisbatan yuqori moyilligi — ularning jamiyatdagi ijtimoiy rollari va qadriyatlari bilan bog’liq ekanligi aniqlandi.

Keyingi o’rinda “inson – texnika” yo’nalishi bo’lib, bu yo’nalishga 25%, ya’ni 42 nafar respondent moyillik bildirgan. Shulardan 26 nafari erkak, 16 nafari ayol bo’lib, bu yerda erkaklarning texnikaviy faoliyatga bo’lgan qiziqishi aniqroq ko’zga tashlandi. Bu natijani biz ijtimoiy-stereotipik rollar bilan izohlashimiz mumkin: erkaklar odatda texnika, mexanizmlar, qurilmalar bilan ishlashga ko’proq jalb qilinadi va bu ijtimoiy kutilmalarda ham mustahkam joy olgan deb o’ylaymiz.

Uchinchi o’rinda esa “inson – tabiat” yo’nalishi joy oldi. Ushbu yo’nalishga 15% (25 nafar) respondent qiziqish bildirgan. Bunda ayollar soni 14 nafar, erkaklar esa 11 nafar bo’lib, oz miqdorda farq mavjud. Bu yo’nalish ko’proq biologiya, ekologiya, qishloq xo’jaligi kabi sohalarga yo’naltirilgan kasblar bilan bog’liq bo’lib, tabiat bilan uyg’un ishlashni xush ko’ruvchi shaxslar bu yo’nalishga qiziqadi. Kuzatishlarimizga ko’ra, bu yo’nalishga qiziqqan respondentlarning aksariyati tabiatni sevuvchi, muhit muammolariga befarq bo’lmagan va ekologik qadriyatlarni qadrlovchi shaxslardir.

Yana ikki yo'nalish — "inson – belgi" va "inson – badiiy obraz" yo'nalishlari 13% dan natija ko'rsatdi (har biri 22 nafardan). "Inson – belgi" yo'nalishini tanlaganlardan 13 nafari erkak, 9 nafari ayol bo'lib, bu yo'nalish axborot tizimlari, dasturlash, statistika, hisob-kitob kabi kasblarga qiziqishni aks ettiradi. Ayniqsa, raqamlar, simvollar va tizimli tafakkur talab etadigan sohalarda erkaklar ustunroq chiqdi.

"Inson – badiiy obraz" yo'nalishida esa aksincha — 14 nafar ayol, 8 nafar erkak bo'lib, bu kasblar san'at, musiqa, adabiyot va boshqa estetik yo'nalishlarga daxldor bo'lib, ayollarning badiiy-estetik idroki va ifoda ehtiyoji yuqoriligini tasdiqlaydi.

1-jadval yuzasidan biz shunday xulosaga keldikki, ijtimoiy kasblar (ayniqsa "inson – inson" yo'nalishi) o'quvchilar orasida eng talabgir va ommabop yo'nalish bo'lib, ayniqsa ayollar orasida ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa kasbiy yo'naltirish tizimida kommunikativ salohiyatni aniqlovchi psixodiagnostik vositalardan faol foydalanishni, ayni paytda jinsiy farqlarga asoslangan yondashuvni hisobga olish zarurligini anglatadi.

2-jadval

Holland RIASEC modeli

T/r	Shkalalar	Respondentlar	Ayol	Erkak	Foizdagi ulushi
1	Ijtimoiy	54	26	28	32%
2	Intellektual	41	19	22	24%
3	Realistik	31	18	13	18%
4	Tadbirkor	20	8	12	12%
5	An'anaviy	14	9	5	8%
6	Badiiy	10	7	3	6%
	Jami:	170	87	83	100 %

Tadqiqotimiz davomida kasbiy tiplarni aniqlash maqsadida Hollandning mashhur RIASEC modeli asosida baholash ishlari amalga oshirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar orasida "ijtimoiy" tip eng ustun pozitsiyani egallagan bo'lib, 32%, ya'ni 54 nafar respondent aynan ushbu tipga mansubligini namoyon etgan. Bu respondentlarning 26 nafari ayol, 28 nafari erkak bo'lib, ayollar va erkaklar o'rtasida bu borada sezilarli farq kuzatilmadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, "ijtimoiy" tipga xos shaxslar ko'pincha boshqalarga yordam berish, jamoada ishlash, muloqot qilish, ta'lim berish kabi faoliyatlarga moyil bo'lishadi. Kuzatishlarimizga ko'ra, aynan mana shu ehtiyojlar o'quvchilar orasida ijtimoiy yo'nalishdagi kasblarga qiziqishni kuchaytirgan.

Keyingi o'rinni "intellektual" tip egallagan bo'lib, bu yo'nalishda 24%, ya'ni 41 nafar respondent joy oldi. Ularning 19 nafari ayol, 22 nafari erkak. Intellektual tipda fikrlovchi o'quvchilar odatda tahlil qilish, izlanish, mantiqiy fikrlash, ilmiy faoliyatga moyil bo'lishadi. Tadqiqot davomida bu tipga mansub o'quvchilarda yuqori darajadagi bilimga chanqoqlik, mustaqil o'rganishga bo'lgan intilish va tahliliy salohiyat sezilarli darajada namoyon bo'ldi. Biz bu holatni axborot jamiyati sharoitida yoshlar orasida ilm-fanga bo'lgan qiziqish kuchaygani bilan bog'liq deb hisoblaymiz.

Uchinchi o'rinda esa "realistik" tip turibdi — 18%, ya'ni 31 nafar respondent ushbu tipga mansub bo'lgan. Realistik tipdagi shaxslar amaliy faoliyat, texnikaviy muhit, mexanik ishlarga yaqin bo'lishadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bu yo'nalishdagi respondentlarning 18 nafari ayol, 13 nafari erkak bo'lib, ayollar sonining yuqoriligi qiziqarli holat bo'ldi. Bu bizga realistik faoliyatga nisbatan gender stereotiplar zaiflashayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa texnik sohalarda ayollar faolligining oshib borayotgani ijobiy holatdir.

Tadbirkor tipga mansub respondentlar soni 20 nafar bo'lib, bu 12% ni tashkil etdi. Bu yo'nalishda erkaklar nisbatan ko'proq — 12 nafarga, ayollar esa 8 nafarga teng bo'ldi. Tadbirkor tipdagi shaxslar ijtimoiy ta'sir, tashabbuskorlik, liderlik, moliyaviy yoki tashkilotchilik faoliyatlariga moyil bo'lishadi. Tadqiqotda bu tipga mansub o'quvchilar ko'pincha sinfda liderlik sifatlarini

namoyon etuvchi, tashabbus ko'rsatishga tayyor, muomala qilishda faol bo'lgan o'quvchilar bo'lib chiqdi.

An'anaviy (konservativ) tipdagi respondentlar soni 14 nafar (8%) bo'lib, bu guruhda 9 ayol, 5 erkak mavjud edi. Bu tipga mos o'quvchilar aniqlik, tartib, hujjatshunoslik, hisobot yuritish kabi faoliyatlarga qiziqish bildirganlar.

Eng kam uchragan yo'nalish esa "badiiy" tip bo'lib, 10 nafar respondent, ya'ni 6% ushbu yo'nalishga moyillik bildirgan. Ularning 7 nafari ayol, 3 nafari erkak bo'lib, ayollarda badiiy obrazga nisbatan estetik qiziqish kuchliroq namoyon bo'ldi. Bunday o'quvchilar orasida adabiyot, rasm, musiqa va san'atga bo'lgan qiziqishning mavjudligi menga ular uchun ijodiy muhit muhim ekanligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, Holland modeli asosida aniqlangan kasbiy tiplarda ijtimoiy va intellektual yo'nalishlarning yuqori ulushga ega bo'lishi, zamonaviy yoshlarning insonlar bilan ishlash, ijtimoiy aloqalarga kirishish va ilm-fan bilan shug'ullanishga moyilligini ifoda etadi. Bu esa ta'lim muassasalarida aynan shu yo'nalishlarda kasbiy yo'naltirish strategiyalarini shakllantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

3-jadval

Elersning motivatsion diagnostikasi

T/r	Shkalalar	Respondentlar	Ayol	Erkak	Foizdagi ulushi
1	Muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilgan motivatsiyaga ega	104	49	55	61 %
2	Muvaffaqiyatsizlikdan qochish strategiyasi ustun	66	38	28	39 %
	Jami:	170	87	83	100 %

Tadqiqotimizda o'quvchilarning motivatsiya turlarini aniqlash maqsadida Elers metodikasidan foydalandik. Ushbu metodika muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilgan motivatsiya va muvaffaqiyatsizlikdan qochish strategiyalarini farqlashga imkon berdi. Olingan natijalar asosida quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin.

Jadvaldagi ko'rsatkichlarga ko'ra, respondentlarning 61% qismi, ya'ni 104 nafar o'quvchi muvaffaqiyatga erishishga yo'naltirilgan motivatsiyaga ega ekani aniqlandi. Bu o'quvchilarning 49 nafari ayol, 55 nafari erkak bo'lib, ayollar va erkaklar o'rtasida bu borada muvozanat mavjud. Bu motivatsiya turiga ega shaxslar, odatda, o'z oldiga maqsad qo'yadigan, bu maqsad sari intiladigan, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan, ijobiy energiyaga ega, o'z ustida ishlashga tayyor bo'lgan shaxslardir. Tadqiqot davomida men bu guruhdagi o'quvchilarning tashabbuskorligi, darslarda faolligi, hamkorlikka ochiqligi va o'zlariga bo'lgan ishonch darajasining yuqoriligi kabi xususiyatlarga guvoh bo'ldik.

Aynan shu natijani psixologik nuqtai nazardan baholaganimizda, shaxslar o'z yutuqlari orqali o'zini namoyon qilishga, o'zini qadrlashni mustahkamlashga harakat qiladilar. Bizning nazarimizda, bu ijobiy motivatsiya shakli o'quvchilarning kasbiy rivojlanishi va hayotdagi faol pozitsiyasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Qolgan 39%, ya'ni 66 nafar respondent esa muvaffaqiyatsizlikdan qochish strategiyasini ustun qo'ygan. Bu o'quvchilarning 38 nafari ayol, 28 nafari erkak bo'lib, ayollar soni biroz yuqoriroq. Bu holat biz uchun diqqatga sazovor bo'ldi, chunki salbiy motivatsiyaga ega shaxslar odatda qiyinchiliklardan chekinishga moyil, o'ziga ishonchsiz, ijtimoiy baholashdan qo'rqadigan va tanqiddan qochishga harakat qiladigan bo'lishadi. Bu holat, ehtimol, jamiyatdagi bosimlar, oilaviy talablar yoki maktab muhitidagi zo'riqishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu asosda biz quyidagi xulosaga keldik: kasbiy yo'naltirishda faqat kasbiy qiziqish emas, balki motivatsion strategiyalar ham alohida e'tiborga olinishi lozim. Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan o'quvchilarni rag'batlantirish, salbiy motivatsiyaga ega bo'lganlarga esa individual psixokorreksiya

usullari (motivatsiyani ijobiylashtirish, o'ziga ishonchni oshirish, qo'llab-quvvatlash mexanizmlari) orqali yordam ko'rsatish zarur.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kasbiy tanlovlariga nafaqat shaxsiy moyillik va qiziqishlar, balki o'zlariga bo'lgan ishonch, kommunikativ ehtiyojlar va ijtimoiy qadriyatlar ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy yo'nalishdagi kasblarga nisbatan yuqori ehtiyoj va muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi mavjudligi, zamonaviy kasbga yo'naltirish tizimida psixologik yondashuvni kuchaytirish zarurligini bildiradi. Bundan tashqari, shaxsiy xususiyatlar asosida differensial yondashuvlarni ishlab chiqish, ya'ni o'quvchining individual kasbiy profilini tuzish va unga mos yo'naltirish tizimini yaratish muhim vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Super, D. E. (1957). *Scientific Careers and Vocational Development Theory*. Columbia University Press.
2. Ginzberg, E. (1972). *Toward a Theory of Occupational Choice: A Restatement*. Journal of Counseling & Development, 51(1), 6–15.
3. G'oziyev, E.G'. (2010). *Umumiy psixologiya*. Toshkent: O'qituvchi.
4. Holland, J. L. (1997). *Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments*.
5. The Japanese Mind: Personal and Social Relationships.
6. AI & Public Employment Services in Korea.
7. G'oziyev, E.G'., Mamedov, K.Q. (2003). *Kasb psixologiyasi*. Toshkent: TDAU.
8. Soliyeva, S.K. (2021). *Yoshlarning kasbiy yo'nalishi va qadriyatlari*. Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti.

Ro'ziyev Umar Muzaffarovich
Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasi dotsenti

IJTIMOIY FOBIYA RIVOJLANISH SABABLARI VA HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASIDA FOBIYALARNI KORREKSIYALASH

Annotastiya. *Insoniyat rivojlanib borgan sari ijtimoiy fobiyalar ham avj olib bordi.Turli yosh davrlarda fobiyalar o'zini namoyon qila boshladi, xususan o'spirinlik davrida bu qo'rquv va xavotirlar o'zini yaqqol namoyon qilyapti. Har bir inson bir vaqtning o'zida qandaydir tashvish darajasini boshdan kechirishi mumkin. Fobiya buzilishi bo'lganlar buni doimiy ravishda boshdan kechirishadi va shunchalik kuchliki, bu ularning hayot sifati ta'siriga sezilarli darajada salbiy ta'sir qiladi. Bu maqolada ijtimoiy fobiya rivojlanishi sabablari shaxslarda bezovtalik hissi va ijtimoiy fobiya ko'rinishlari va ularni oldini olish, ijtimoiy fobiya belgilari, kimlarda ko'proq kuzatilishi, ijtimoiy fobiyaning sabablari, haqida fikr yuritilgan. Maqolada ijtimoiy fobiya ko'rinishlari, kelib chiqish sabablari, oldini olish usullari haqida ma'lumot berilgan.*

Tayanch tushunchalar: *agorafobiya, xavotir bezovtalik, sintez funksiyasi, zaifliklar fobiya, xulq-atvor, muzlatish, somatik kasalliklar, vahima, irrastional qo'rquv, ayxmofobiya, chuqur depressiya, stereotip travmatik holat,obsessiya. signal funksiyasi, tartibga solish funksiyasi, hissiy shantaj va oldindan sezish obsessiv qo'rquv.*

ПРИЧИНЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ФОБИИ И КОРРЕКЦИЯ ФОБИЙ В СОВРЕМЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация. *По мере развития человечества росли и социальные фобии. Фобии начали проявляться в разные возрастные периоды, особенно ярко эти страхи и тревоги проявляются в подростковом возрасте. Каждый может одновременно испытывать определенный уровень беспокойства. Люди с фобическим расстройством испытывают это постоянно и настолько сильно, что это оказывает значительное негативное влияние на качество их жизни. В данной статье рассматриваются причины развития социальной фобии чувство тревоги у людей и проявления социальной фобии и их профилактика, симптомы социальной фобии, у кого они наблюдаются чаще, причины социальной фобии,. В статье представлена информация о проявлениях социофобии, причинах возникновения, методах профилактики.*

Базовые понятия*: агорафобия, тревога тревога, функция синтеза, слабости фобия, поведение, замораживание, соматические расстройства, паника, иррациональный страх, эйхмофобия, глубокая депрессия, стереотипное травматическое состояние, навязчивая идея. сигнальная функция, регуляторная функция, эмоциональный шантаж и предчувствие навязчивый страх.*

THE CAUSES OF THE DEVELOPMENT OF SOCIAL PHOBIA AND THE CORRECTION OF PHOBIAS IN MODERN PSYCHOLOGY

Annotation. *As society developed, social phobias also grew.Phobias began to manifest themselves at different age periods, especially vividly these fears and anxieties manifest themselves in adolescence. Everyone can experience a certain level of anxiety at the same time. People with phobic disorder experience this constantly and so strongly that it has a significant negative impact on their quality of life. This article discusses the manifestations of anxiety and social phobia in adolescents and their prevention, the symptoms of social phobia, who have them more often, the causes of social phobia,. The article provides information about the manifestations of social phobia, causes, methods of prevention.*

Basic concepts: *agoraphobia, anxiety, anxiety, synthesis function, weakness phobia, behavior, freezing, somatic disorders, panic, irrational fear, eichmophobia, deep depression, stereotypical*

traumatic state, obsession. signaling function, regulatory function, emotional blackmail and premonition obsessive fear.

Kirish. Ko'pgina ota-onalar bolalarsiz dam olish uchun borishadi. Bola o'zini tashlandiq his qiladi, uning muammolari va tashvishlari haqida gaplashadigan hech kim yo'q. Bunday bolalar yolg'izlikdan qo'rqishadi. Ota onasidan uzoq bolalarda bolalar tartibsiz bo'lish uchun barcha shart-sharoitlarga ega. Ular do'stlar va hissiy qo'llab-quvvatlashni yon tomondan, tengdoshlar davrasida izlaydilar, ammo shu bilan birga ular ko'pincha tovlamachilik va aldash ob'ektiga aylanadilar. Giyohvand moddalar, spirtli ichimliklar singari, qo'rquvni yashirish, ularni g'arq qilish, bir muncha vaqt unutish va o'zini kuchli his qilish istagi. Ammo bu, albatta, faqat illyuziya.

Oilada mehr-muhabbat yetishmasligi.

Bu har kimning shaxsiy hayoti bo'lgan oilalar. "Onajon, men siz bilan gaplashmoqchiman..."-deydi kichkina bola. "Dadangizga boring, u sizni tinglaydi", deb javob beradi onasi. Xafa bo'lgan bola otasining oldiga boradi va otasi uni qaytarib yuboradi. Shunday qilib, u sevgi va tushunishni izlash uchun bir ota-onadan ikkinchisiga aylanib yuradi. Bolaning muammolari hal qilinmaydi, faqat to'planadi. Shuni esda tutish kerakki, sevgi tug'ma tuyg'u emas, balki hayot jarayonida olingan. Sevgi barcha kasalliklar va ayniqsa psixologik kasalliklar uchun universal vositadir. Shuning uchun, agar ota-onalar turli sabablarga ko'ra bolaga ko'p vaqt ajrata olmasalar, u bilan uning muammolari haqida gaplashsalar, unda hech bo'lmaganda bola o'zining nozik his-tuyg'ularini anglashi va unga g'amxo'rlik qilishi uchun qanday bo'lishi kerak. Do'stlik va sevgi nevrotik bolaga kerak bo'lgan narsadir.

Bolalik qo'rquvini o'rganish J. Leveau, J. Girard-Fresard va boshqa xorijiy olimlarning ismlari bilan ham bog'liq. A. T. Jersild, F. B. Xolmsning bolalik qo'rquvi muammosi bo'yicha eng qadimgi va keng ko'lamli tadqiqotlaridan biri o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatini yo'qotmadi. Qo'rquvlarning yoshga xos xususiyatlari va mazmuni E. Le Shan, P. Popper, Y. Ranshburg, A. Freyd, A. Fromm, K. xorni, G. Eberleyn va boshqalar. (bolalar boshdan kechirayotgan qo'rquvlarning mazmuni ochib beriladi, ularning paydo bo'lish sabablari va ularni yengib o'tishning mumkin bo'lgan usullari tahlil qilinadi).

So'nggi o'n yilliklarda mahalliy ta'lim psixologiyasida bolalik qo'rquvi psixologiyasi va ularni boshlang'ich maktab yoshida tartibga solish masalalariga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Aniqlanmagan bolalik qo'rquvi bolaning o'quv faoliyatini jiddiy ravishda qiyinlashtirishi, ota-ona va bola munosabatlarini sezilarli darajada murakkablashtirishi, shuningdek, bolaning ijtimoiy faolligi va tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan (F. E. Vasilyuk, j1.A. Venger, JT.C. Vygotskiy, V. I. Garbuzov, C. B. Gridneva, I. V. Dubrovina, A. I. Zaharov, O. A. Karabanova, A. M. Parishionerlar, A. O. Proxorov, M. Rutter, A. C. Spivakovskaya, T. Shishova, G. Eberleyn va boshqalar). Biroq, ushbu tadqiqotlarning sifatli bir xilligini (bir o'lchovliligini) tan olish kerak. Xususan, qo'rquv tajribasi va boshqa o'lchovlarni baholashda fazoviy-vaqtinchalik, hududiy, mikro va makro muhit, chastota - intensiv, axloqiy tarkibiy qism, shuningdek, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning salbiy his-tuyg'ularni boshdan kechirish sharoitida o'zini-o'zi boshqarish imkoniyatlari kabi omillarning ahamiyati aniqlanmagan.

Psixologik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mahrumlikning har xil turlari bo'lgan bolalarning hissiy farovonligi muammosi (T. D. Bogdanova, JI.H. Belopolskaya, V. I. Garbuzov, S. D. Zabramnaya, O. V. Zachirinskaya, E. S. Kalijnyuk, E. I. Kirichenko, V. V. Lebedinskiy, I. Y. Levchenko, V. I. Lubovskiy, O. S. Nikolskaya, T. N. Pavliy, V. G. Petrova, U. V. Ulenkova, E. V. Ustinova va boshqalar) muayyan e'tibor berilgan. Biroq, hissiy holatlarni, xususan, bolalar qo'rquvini va ushbu toifadagi bolalar qo'rquvini boshdan kechirish sharoitida o'zini o'zi boshqarish xususiyatlarini ko'p o'lchovli o'rganish maxsus psixologik va pedagogik tadqiqotlar talab etadi.

Shunday qilib, ushbu yo'nalishda olib borilgan mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning xilma-xilligi va soni muammoning dolzarbligini olib tashlamaydi. Bundan tashqari, u bizning davrimizning global jarayonlari, kattalar va bolalar hayotiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar bilan keskinlashadi. A. L. Juravlev, T. V. Drobisheva ta'kidlaganidek:" umuman jamiyatining holati, ya'ni uning kayfiyati, fikri, ideallari, qadriyatlarga munosabati va boshqalar shakllanadigan shaxs ongida aks etmasligi mumkin emas ".

O'tmish, hozirgi, kelajak hissiy tajribalarni lokalizatsiya qilish, hissiyotlarni mikro va makro - ijtimoiy muhitga proektsiyalash, hissiy holatni boshdan kechirishni sub'ektiv baholashda axloqiy munosabat, salbiy va ijobiy hissiy holatlarni ijtimoiy jihatdan maqbul loyihalashda o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlari; qo'rquvning yaxlit tarkibiy va tipologik tasnifi ishlab chiqilgan bolalar boshdan kechirgan qo'rquvlarning butun to'plami genezisga qarab tartibli tuzilmani hosil qiladi: shartli (hayotning o'z tajribasida shakllangan), induktsiya qilingan (mos yozuvlar muhiti, ommaviy axborot vositalari, tengdoshlar tomonidan ilhomlantirilgan), ichki ishlab chiqarilgan, shuningdek ularning xususiyatlari.etnik va mentalitet xususiyatlariga ko'ra. Shartli qo'rquvlar tegishli hissiy holatlarning manbai bo'lib xizmat qiladigan sub'ektga tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladigan qo'rquvlarni o'z ichiga oladi: biologik shartli qo'rquvlar (hayvonlar, tabiat hodisalari, bolaning haqiqiy hayotida sodir bo'lgan boshqa hodisalar), ijtimoiy shartli va texnogen shartli qo'rquvlar. Induktsiya qilinganlarga sub'ektning hissiy holatiga bevosita yoki bilvosita ijtimoiy ta'sir natijasida kelib chiqadigan, qo'rquv tajribasini keltirib chiqaradigan qo'rquvlar (taklif, infektsiya va boshqalar) kiradi. Qo'rquv hissi ijtimoiy-biologik induktsiya qilinishi mumkin (ma'lum biologik ob'ektlarning qo'rquvini shakllantirishga ijtimoiy ta'sir); ijtimoiy induktsiya qilingan (ijtimoiy qo'rquvni shakllantirishga ijtimoiy ta'sir); ijtimoiy-texnogen induktsiya qilingan (haqiqiy yoki virtual texnogen ob'ekt qo'rquvini shakllantirishga ijtimoiy ta'sir). Axborot (og'zaki, ramziy) yoki xayoliy (majoziy) shakllarda mavjud bo'lgan ichki vujudga kelgan qo'rquvlar sub'ektning individual va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq va tabiiy-biologik, texnogen, ijtimoiy, virtual materiallarda amalga oshiriladi.

Sub'ektlarning etnik kelib chiqishi yoki ularning mentaliteti (hududiy, kasbiy yoki boshqa ijtimoiy-guruh mansubligi) qo'rquvning namoyon bo'lishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

- qo'rquv his-tuyg'ularining boshqa hissiy holatlar bilan nisbati aniqlandi; maktab o'quvchilarining normal hayot sharoitlarida (uy, o'quv, darsdan tashqari) tajribali hissiyotlarning haqiqiy spektri aniqlandi. Maktab o'quvchilarining hissiy profili (eng muhim tajribalar spektri) turli yosh bosqichlarida farq qiladi: quvonch, qiziqish, ajablanib va boshqalarning ijobiy his-tuyg'ulari yosh o'quvchilarda ham, o'smirlar va o'rta maktab o'quvchilarida ham ustunlik qiladi; ta'lim muassasasida va maktabdan tashqarida boshdan kechirgan his-tuyg'ular spektri sezilarli darajada farq qiladi: yosh o'quvchilarda maktabda va uyda quvonch va qiziqish tuyg'ulari ustunlik qiladi, o'spirinlar va o'rta maktab o'quvchilarida maktabda va bo'sh vaqtlarida (ko'chada, dam olish maskanlarida, oshxonada va boshqalar) tegishli ko'rsatkich yuqori. Ta'lim muassasalarida boshdan kechirgan salbiy his-tuyg'ular spektrida barcha yosh guruhlarida qo'rquv, xafagarchilik va g'azab tuyg'ulari ustunlik qiladi; turli yosh guruhlarida boshdan kechirgan qo'rquv tuyg'ularining ko'rsatkichlari chiziqli emas va o'smirlik davrida maksimal darajaga etadi. O'smirlar va o'rta maktab o'quvchilarida, yosh o'quvchilarga qaraganda, g'azablanish hissiyotlarini boshdan kechirish chastotasi sezilarli darajada oshadi.O'quvchilarida qo'rquv hissi vaqtinchalik munosabatlar (uy vazifasini bajarishga vaqt topolmaslik, maktabda uxlash va h.k.), referent shaxslar va o'quv o'zaro munosabatlari holatlaridan qo'rqish bilan bog'liq; umumta'lim maktabi o'quvchilarida qo'rquv hissiy vaziyatlar bilan bog'liq (sinfda yolg'iz qolish, past baxo olish, direktorning xonasida turish). Differentsial hissiyotlarning keng qo'llaniladigan ko'lami zamonaviy bolalar boshdan kechirgan hissiyotlarning modal qatorini to'liq aks ettirmasligi ko'rsatilgan, xususan, kamdan — kam uchraydigan his-tuyg'ular-uyat, aybdorlik, nafrat, nafrat, azob-uqubatlar ta'kidlangan;

Jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida tub o'zgarishlarning mavjudligi va ularning bolalarning hissiy sohasida aks etishi ilmiy, ilmiy amaliy va amaliy sohalardagi, shu jumladan psixologik-pedagogik fan va amaliyotdagi asosiy qarama-qarshiliklarni belgilaydi.

Bu qarama-qarshiliklar: boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar rivojlanishining sezgir davrining ontogenetik imkoniyatlari (sub'ektivlik, o'zboshimchalik, og'zaki-mantiqiy fikrlash, aks ettirish, tahlil qilish va boshqalar) va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun hissiy holatlarni o'zini o'zi tartibga solishda bolalarning vositalari, shakllari va amaliy tajribasining etishmasligi; psixologik amaliyotning universalizmi o'rtasida hissiy holatlar sohasidagi psixologik ta'lim xizmati tizimlari

boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar va boshlang'ich maktab o'quvchisining tartibga solish qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari; bir tomondan qo'rquv hissiyotlari omillarining keskin ko'payishi va boshqa tomondan qo'rquv hissiyotlarini boshdan kechirish sharoitida bolalarning qo'rquvini o'rganish va bolaning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini kuchaytirish uchun yetarli ilmiy-nazariy yondashuvlar va ilmiy-uslubiy vositalarning rivojlanmaganligi o'rtasidadir.

Ushbu qarama-qarshiliklarni hal qilish istagi tadqiqot muammosini aniqladi. Nazariy jihatdan, bu boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning hissiy holatini o'rganishga ko'p o'lchovli yondashuvni asoslash muammosi. Amaliy nuqtai nazardan, bu maktab o'quvchilarining hissiy holatlarining mazmunli xususiyatlarini aniqlashdir,

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar rivojlanishining ontogenetik xususiyati (o'zboshimchalik va aks ettirish qobiliyati) hissiy holatlarga qarshi kurashish uchun tartibga solish ko'nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish imkoniyatini belgilaydi. Hissiy holatlarni o'rganish va tartibga solish dasturini loyihalashda ko'p o'lchovli yondashuv boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda qo'rquv tuyg'usini o'zini o'zi boshqarish usullarining yetarli asoslarini mustahkamlash va individual repertuarini kengaytirish imkoniyatini beradi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda qo'rquv tajribasini tartibga solish usullarini shakllantirish muvaffaqiyatli bo'ladi agar:

- qo'rquv tajribalari boshqa hissiy holatlar bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy bolalarning hissiy profili aniqlandi;

- rivojlanish holatining shartlari (o'ziga xosligi) hisobga olinadi (ta'lim muassasasi turi, hududiy va etnomental o'ziga xoslik; bolalarning shaxsiy xususiyatlari);

- boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning salbiy hissiy holatlari hissiyotlarning holatiga (shartli, induktsiya qilingan, ichki ishlab chiqarilgan qo'rquv turlari) qarab tipologik jihatdan tartibli ravishda tuziladi; qo'rquv tuyg'usini o'rganish va tartibga solishni shakllantirish dasturini ishlab chiqishda ko'p o'lchovli yondashuv amalga oshirilmoqda, shu jumladan bolalarning o'zlari tomonidan qo'llaniladigan usullar, natijada bolaning imkoniyatlari va xulq-atvor repertuarini kengaytiradi qo'rquvni boshdan kechirish holatida; o'qituvchi-psixologlar, o'qituvchilar va ota-onalarning bolaning o'quv va maktabdan tashqari hayotini tashkil etishda o'zaro munosabatlari bolalarning individual resurslari va o'zini o'zi boshqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda hissiy holatlarni o'rganish va ularni tartibga solishning nazariy va uslubiy asoslarini aniqlash.

2. Hissiy holatlarni o'rganishga ko'p o'lchovli yondashuvi asosida ishlash.

3. Qo'rquvning yaxlit tarkibiy va tipologik tasnifini ishlab chiqish.

4. Turli yosh bosqichlarida maktab o'quvchilarining boshqa hissiy holatlari bilan qo'rquvning hissiy holatining nisbatini aniqlash.

5.O’zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning turli davrlarida bolalar boshdan kechirgan qo'rquvlarning qiyosiy meta-tahlilini o'tkazish.

6. Ijtimoiy rivojlanish holatining turli sharoitlarida boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda qo'rquv mazmunini aniqlash.

7. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar tomonidan ishlatiladigan salbiy hissiy holatlarni o'z-o'zini tartibga solish usullarini aniqlash.

8. Hissiy holatlarni o'z-o'zini tartibga solishni shakllantirish dasturini ishlab chiqish va eksperimental ravishda sinab ko'rish (bolalar qo'rquvi materiallari asosida).

Xulosa

Xulq-atvor faoliyati yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlarini, psixologik ma'lumotlarni tahlil qilish, vaziyatda ishtirok etish istagi va to'siqlarning sub'ektiv engib bo'lmaydiganligi o'rtasidagi qarama-qarshilik oralig'ida lokalizatsiya qilingan motivatsion-ehtiyoj ziddiyatining makonini aniqlashga imkon beradi.

Vaziyatga hissiy va kognitiv javob berish algoritmlarini o'rganishning psixosemantik metodologiyasi bashoratli modellarni yaratishga imkon beradi fobiyaning asosiy diagnostik mezoni-bu

vaziyatda qo'rquvning og'irligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar (ijtimoiy vaziyatlarni baholashning denotativ semantik tuzilishidan ko'ra ko'proq), ularni hissiyotlarning psixofiziologik ko'rsatkichlari bilan sezilarli darajada qo'llab-quvvatlash, shuningdek, hissiy stress zonalarida mavjudligi-motivatsion va ehtiyojlar to'qnashuvidir.

Bundan tashqari, ijtimoiy fobiya bilan og'rigan bemorlarda "depressiya", "psixasteniyasi", shuningdek "ruhiy qattiqlik holati" shkalasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bemorlarda hissiy-kogniv javob berish algoritmlari qattiq ekanligini aniqlash mumkin, "do'stlashuvda-shaxsiy aloqalarda tashabbusning namoyon bo'lishi"bilan bog'liq ijtimoiy vaziyatlarning qo'rquvi bilan tavsiflanadi."qorin og'rig'i", "qo'llar va tanadagi titroq" tana sensatsiyalari yuqori "paranoyak" va "psixasteniya" bo'lgan odamlar uchun odatiy bo'lib, "o'zingizni kuzatish ob'ekti bo'lgan" ijtimoiy vaziyatlardan qo'rqish eng xarakterlidir, ushbu tashvishlar bilan indikativ ravishda bog'liq bo'lgan tana zonalari-bosh, yuz va bo'yin (bosh aylanishi, qizarish).

Bajarilgan ishlar asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Ijtimoiy fobiya bilan muhim ehtiyojni qondirish istagi o'rtasida hissiy va motivatsion ziddiyat mavjud bo'lib, uni amalga oshirish faqat ijtimoiy vaziyatlarda (xavfsizlik, tan olish, ijtimoiy maqomni saqlab qolish zarurati) va unda ishtirok etishning sub'ektiv ravishda qabul qilingan xavfi o'rtasida kuchli ijtimoiy qo'rquvlar mavjudligi ijtimoiy fobiya "noaniqlik", "tashqi jozibadorlikni baholash", "intellektual qobiliyatlarni baholash"tegishli vaziyatlarda ishtirok etish istagi bilan birlashtirilgan.

2. Hissiy-kognitiv javob algoritmlarining semantik maydoni aniqlandi ijtimoiy vaziyatlarga ijtimoiy qo'rquvlarning "tana topologiyasi" ishlab chiqilgan bo'lib, u ham psixodiagnostik, ham ijtimoiy qo'rquvni o'rganishning psixokorrekatsion modeli bo'lib xizmat qiladi 1) "do'stlashuvda-shaxsiy aloqalar holatida" quyidagilar xarakterlidir tanadagi titroq, qorin og'rig'i va ko'ngil aynish, 2)"kompetentsiyani baholash holatlari " - ovoz yo'qoladi, titraydi, og'izda quriydi, yurak urishi tezlashadi, 3) "men - kuzatuv ob'ekti" holatida-butun tanada titroq, yuzning qizarishi, 4) "ruhning ta'sirlanish holatida" - bo'yin va yuz qizarib yoki oqarib ketadi

3. Shaxsiy tipologik xususiyatlarni hisobga olgan holda hissiy va kognitiv javob algoritmlarining semantik maydoni ijtimoiy vaziyatlarning turlarini eng xarakterli ijtimoiy qo'rquvlar bilan o'zaro bog'lashga va dominant ehtiyojlarni aniqlashga imkon berdi 1) do'stlashuvda-shaxsiy aloqalar holatlari "boshqasiga zarar etkazish", "rad etish", "ushbu vaziyatning so'nggi daqiqalarida oldini olish" qo'rquvi bilan tavsiflanadi (bu vaziyatga ehtiyoj seziladi). affiliatsiyalar), 2) "o'z sirlarini ochish" holatlari "yoqimsiz ko'rinishdan qo'rqish", "masxara qilish ob'ektiga aylanish" ("ijtimoiy shaxsni saqlab qolish" zarurati) bilan tavsiflanadi., 3) kompetentsiyani baholash holatlari "vaziyatning natijasi noma'lum", "barchaning ko'z o'ngida sharmanda bo'lish" qo'rquvi bilan tavsiflanadi (vaziyatni nazorat qilish va tan olish zarurati), 4) "men - kuzatuv ob'ekti" holatlari "atrofdagilar menga yoqmasligini his qilishadi", "yomonroq munosabatda bo'lish" qo'rquvi bilan tavsiflanadi (vaziyatni nazorat qilish va tan olish zarurati). Sheriklik, ijtimoiy maqomni saqlab qolish. Bolalikdagi qo'rquv nevrozlarining paydo bo'lishiga travmatik tajriba va stressli vaziyatlar ta'sir qiladi. Bularga onaning yoki otaning o'limi (ayniqsa maktabgacha yoshda), ota-onaning ajralishi, zilzila, toshqin, boshqa yashash joyiga ko'chib o'tish, yangi maktabga o'tish kiradi. Shunday ekan farzand Alloh tomondan berilgan bir ne'mat uni qadriga yetish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Нордонэ Д. Страх, паника, фобия/Дж. Нордонэ – Москва: Психотерапия, 2008, - 348.

2. Тревожное фобическое расстройство детского возраста/ И. А. Хрущ. – Мн. БГМУ, 2004.

3.Рузиев У.М. Симптомы социальной фобии человека. // Вестник интегративной психологии. -Ярославль: 2022 Выпуск 24 289ст-292ст

4.Рузиев У.М. Социальные фобии: причины возникновения и влияния на поведение человека, диагноз и психокоррекция. // Вестник интегративной психологии -Ярославль: 2022 Выпуск 26 ст 192-197

5.Ro'ziyev U.M. O'spirinlarda ijtimoiy fobiya rivojlanishi bilan bog'liq holatlarning diagnostikasi va psixokorreksiyasi. // № 4, 2022 "Psixologiya ilmiy jurnali" -Buxoro: B.125-132.

Saydjanov Farxod Madraximovich
Mudofaa vazirligi Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Aloqa xarbiy instituti
Gumanitar fanlar sikli boshlig'i

MA'LUMOTLARNI IDROK ETISHDA SALBIY VA IJOBIY AXBOROTLARNING O'SMIR ONGIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Maqolada jamiyatdagi axborotlar xarakteriga ko'ra ijobiy va salbiy mazmundaligi, o'smir shaxsiga o'z ta'sirini o'tkazishi va o'smir shaxsini rivojlanishida asosiy aspekt sifatida ro'l o'ynashi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *axborot, idrok, diqqat, tahlil qilish, sensor tizim, axborotlashgan jamiyat, axborotning globallashuvi, axborot asri.*

ВЛИЯНИЕ НЕГАТИВНОЙ И ПОЗИТИВНОЙ ИНФОРМАЦИИ НА СОЗНАНИЕ ПОДРОСТКА ПРИ ВОСПРИЯТИИ ИНФОРМАЦИИ

Аннотацияю *В статье речь пойдет о том, что информация в обществе по своему характеру имеет положительное и отрицательное содержание, оказывает свое влияние на личность подростка и играет роль ключевого аспекта в развитии личности подростка.*

Ключевые слова: *информация, восприятие, внимание, анализ, сенсорная система, информированное общество, глобализация информации, информационный век.*

INFLUENCE OF NEGATIVE AND POSITIVE INFORMATION ON ADOLESCENT CONSCIOUSNESS IN THE PERCEPTION OF INFORMATION

Annotation. *The article talks about the positive and negative content of information in society by character, its influence on the personality of a teenager, and the role of a teenager as a key aspect in the development of his personality.*

Keywords: *information, perception, attention, analysis, sensory system, informed society, globalization of Information, Information Age.*

Axborotni idrok etish – bu inson tomonidan tashqi muhitdan kelayotgan axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash, tushunish va eslab qolish jarayoni bo'lib, psixologik, ijtimoiy va fiziologik omillar bilan bog'liq. Talabalarning axborotni idrok etish jarayoni diqqat, xotira, fikrlash va motivatsiya kabi kognitiv jarayonlar bilan chambarchas bog'liq.

Axborotni idrok etish bosqichlari. Axborotni idrok qilish murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

Axborotni idrok etish bosqichlari:

Axborotni qabul qilish - talaba axborotni ko'rish, eshitish yoki o'qish orqali oladi.

Diqqatni jamlash - muhim axborotga e'tibor qaratish, chalg'ituvchi omillarni kamaytirish.

Qayta ishlash -axborotni kodlash va tahlil qilish, uni avvalgi bilimlar bilan bog'lash.

Xotirada saqlash - olingan axborot qisqa muddatli yoki uzoq muddatli xotiraga o'tadi.

Foydalanish va qo'llash - talaba o'zlashtirgan axborotni amalda qo'llaydi (testlar, topshiriqlar, muhokamalar).

Axborotni idrok etish jarayoni: Axborotni qabul qilish → Diqqat → Qayta ishlash → Xotirada saqlash → Foydalanish

Axborotni idrok etishga ta'sir qiluvchi omillar: Talabalarning axborotni qabul qilishiga quyidagi uch asosiy omil ta'sir qiladi: psixologik, ijtimoiy va fiziologik omillar.

Axborotni idrok etishga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rsatish uchun jadvalni quyidagi shaklda tuzish mumkin:

Psixologik omillar: Diqqat, xotira, motivatsiya, stress darajasi

Ijtimoiy omillar: Guruh ta'siri, madaniyat, ommaviy axborot vositalari.

Fiziologik omillar: sensor tizimlar, charchoq, ovqatlanish, uyqu yetishmovchiligi.

Psixologik omillar. diqqat va e'tibor – axborotni samarali idrok qilish uchun talaba chalg'ituvchi omillardan xoli bo'lishi kerak. Xotira – yaxshi o'zlashtirilgan axborot uzoq muddatli xotirada saqlanadi. Idrok etilgan narsa va hodisalarni yoki o'tmish tajribalarni esda qoldirish va zarur bo'lganda tiklashdan iborat psixik jarayon. Xotira eng yaxshi damlarni esda qoldiradi. U nerv sistemasi xususiyatlaridan biri bo'lib, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlash hamda uni ong faoliyatida va xulq, xatti harakat doirasida takroriy qobiliyatida namoyon bo'ladi. Xotira individning o'z tajribasida esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Avvalo, axborotni qabul qilishda idrok uning negizi hisoblanadi. Yani, idrokning nerv-fiziologik asoslari, xususiyatlari va qonuniyatlari. Idrok sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo`lib, barcha ruhiy holatlar, xususiyatlar, xossalar va inson ongining yaxlit mazmuni egallangan bilimlar, tajribalar, ko`nikmalar bir davrning o`zida namoyon bo`ladi, aks ettirishda ishtirok etadi. Idrok sezgiga nisbatan bir muncha murakkabroq, to`laroq aks ettirish jarayoni bo`lib, sezgi a`zolarimizga ta`sir etib turgan narsa va hodisalarni butun belgi hamda xususiyatlari bilan butunligicha, ya`ni yaxlit aks ettirishdan iboratdir. Psixologik adbiyotlarda idrok tushunchasiga turlicha ta`riflar uchraydi. Jumladan M.Vohidovning "Psixologiya" darsligida idrok deb sezgi a`zolarimizga ta`sir etayotgan narsa va hodisalarni yaxlit holicha aks ettirishga aytiladi, deb keltiriladi.

V.Karimovaning "Psixologiya" o`quv qo`llanmasida idrok bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko`plab xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo`lgan ob`yektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks ettirishimizni ta`minlaydi. Keltirilgan ta`riflardan kelib chiqqan holda idrokka quyidigicha ta`rif berish mumkin: idrok-deb sezgi a`zolariga bevosita ta`sir etib turgan narsa-hodisalar obrazlarini kishi ongida bir butun holda aks ettirilishiga aytiladi.

"Axborot: 1. Taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar nazar shaxs, predmet, dalil, voqea, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar.

2. Dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon kabi ob'yektlar haqidagi bilim (ma'lumotlar) hamda tushunchalar yoki buyruqlar.

3. Ma'lum xos matnida aniq ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ichiga oluvchi dalil, voqea, hodisa, predmet, jarayon, taqdimot kabi ob'ektlar haqidagi bilim (ma'lumotlar).

4. Qiziqish uyg'otishi mumkin bo'lgan va saqlanishi va qayta ishlanishi lozim bo'lgan jami dalil va ma'lumotlar... Axborot nur, tovush va radio to'lqinlari, elektr toki yoki kuchlanishi, magnit maydoni, qog'ozdagi belgilar shaklida yaratilishi va tashilishi mumkin".

Jami axborot oqimlari tabiiy (tabiat tomonidan) va sun'iy (inson tomonidan) yaratilgan turlarga bo'linadi. "Ommaviy axborot:

1. Cheklanmagan shaxslar doirasi uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual va boshqa xabar va materiallar.

2. Ommaviy axborot vositalari orqali ommaviy tarqatiladigan bosma, audio, audiovizal va boshqa xabar va materiallar.

3. Bir paytning o'zida maxsus vositalar – mass-media yordamida shaxslar guruhiga axborotni uzatish jarayoni".

Jamiyatning axborotlashuvi - bu ma'lum bir davlat yoki jamiyatda axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi natijasida sodir bo'ladigan holat. Axborotlashgan jamiyat – axborot texnologiyalarining rivojlanganlik darajasi nuqtai nazaridan asosiy talablarga javob beruvchi jamiyat. Bunday davlatda asosiy faoliyati axborot bilan ishlashdan iborat shaxslar jamiyat a'zolarining 50 foizidan yuqori bo'lishi hamda gazeta, jurnal, radio, televideniya, kompyuter, internet va uyali telefonlar bilan ta'minlanganlar soni turli idoralar va aholining asosiy qismini tashkil etishi zarur. Axborot asri (davri) – XX asrning o'rtalarida boshlangan. Turli mamlakatlarning olimlari axborot davri aniq qachon boshlanganini turlicha izohlashadi. Bu masalaga uch xil qarash mavjud:

1) Norbert Vinerning “Kibernetika, yoki jonli mavjudot va mashinada boshqaruv va bog’lanish” kitobi chop etilgan yildan,

2) AQShdagi to’rtta universitet o’z kompyuter tizimlarini birlashtirgan yildan,

3) Sobiq Sovet ittifoqi fazoga birinchi sun’iy yo’ldoshni uchirgan yildan boshlangan. “Axborot jamiyati – zamonaviy sivilizatsiyaning rivojlanish darajasi. Axborot va bilimlar rolining jamiyat hayotida, jami ichki mahsulotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ulushining ortishi, insonlarning o’zaro samarali o’zaro axboriy aloqada ishlashini ta’minlovchi global axborot makonining yaratilishi, ularning dunyo axborot resurslariga ulanishi va ularning axborot mahsulotlariga va xizmatlariga bo’lgan ijtimoiy hamda shaxsiy ehtiyojlarining qondirilishi bilan tavsiflanadi”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Karimova M.V. Psixologiya.O’quv qo’llanma.-T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,”O’AJBIT”markazi,2002.
2. Melnikova. N.Shpargalka po SOЦIALNOY PSIXOLOGII.- M.:Allel.2000.B 31.
3. M.Y.Gorbunova.Sotsial psixologiya.-M.:VladosPress.2006.172-174B .
4. Sh.A.Do’stmuhammedova”Yosh davrlari va pedogogik psixologiya”_Toshkent-2013.52-57b
5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug’ati. Qayta ishlangan, to’ldirilgan ikkinchi nashr. 2010 – B. 19.

Qahharova Sayyora Bahodirovna
Xalqaro innavatsion universiteti
Psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: sayyoraqaxxarova5@gmail.com

O'SMIRLARNING INTELLEKTUAL VA IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o`smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatdan o`rganish muammosi haqida ma'lumotlar berilgan. Ta'lim jarayonida o`smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi har qanday maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari, bilim, malaka va ko'nikmalari asosida dunyoqarashini kengaytirish haqida ham fikr-mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *o'smir, shaxs, jamiyat, ta'lim, tarbiya, intellektual, tizim, muvaffaqiyat, faoiyat, psixologiya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ И ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье представлена информация о психолого-педагогической проблеме развития интеллектуальной и творческой деятельности подростков. В образовательном процессе существуют мнения о сущности и задачах образовательного процесса, направленного на развитие интеллектуальной и творческой активности подростков, расширение их мировоззрения на основе знаний, умений и навыков.*

Ключевые слова: *подросток, личность, общество, образование, воспитание, интеллектуал, система, успех, благополучие, психология.*

PSYCHOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING ADOLESCENTS' INTELLECTUAL AND CREATIVE ACTIVITY

Annotation. *This article provides information on the psychological and pedagogical problems of studying the development of intellectual and creative activity of adolescents. It also presents ideas about the essence and tasks of the educational process aimed at developing the intellectual and creative activity of adolescents in the educational process, expanding their worldview based on knowledge, skills and abilities.*

Keywords: *adolescent, individual, society, education, upbringing, intellectual, system, success, work, psychology.*

O`smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning psixologik va pedagogik jihatdan o`rganish muammosi faylasuflar, psixologlar va o`qituvchilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Falsafiy adabiyotlarda bu masala shaxsning erkinligi va ma'suliyati, shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati, ijtimoiy va shaxsiy amaliyot bilan bog'liq bo'lgan. Psixologik jihatdan qaralganda, o`smirlarning ijodiy va intellektual faoliyatini rivojlantirish umumiy tashabbuskorlik, tanqid, o`z-o`zini anglash hissi bilan namoyon bo`lgan umumiy xususiyat sifatida ko`zga tashlanadi.

O`smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatni rivojlantirish, iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish xalq ta'limi sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo`nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti yosh iste'dodlarni anglash, iqtidorli bolalarni tanlab olish va o`qitish tizimini tashkil etish, o`smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi ko`p tarmoqli ta'lim muhitini yaratish bo`yicha ishlar sifatini oshirish zaruratini taqozo etmoqda.

Ta’lim jarayonida o`smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantiruvchi har qanday maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va ketma-ket bajariladigan usullar belgilab olinadi: - O`smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini shakllantiruvchi xususiyatlarini uyg`otish va rivojlantirish rejalashtiriladi.

Mana shunday rejaga solinib olib boriladigan ishlarni amalga oshirish ta’lim tarbiya tizimi jarayonida ham yoshlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirib boradi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatni oshirib boradi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko’ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo’naltirilishi talab qilinmoqda. O’zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta’lim shaxsga yo’naltirilgan ta’limdir.

O’smirlarning darsdan tashqari o’rganish jarayonining muhim bo’g’ini va kompleks yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirishning ajralmas shartidir. Darsdan tashqari ta’limning asosiy vazifalaridan biri maktabga bolalarga puxta bilim berish, bolalarning badiiy ijodkorligini rivojlantirish va ularni ko’chadan chalg’itishga yordam berishdir. Ta’lim berishdan tashqari, studiyalar va to’garaklardagi darslar ham o’quv va kasb – hunarga yo’naltirilgan bo’lishi juda muhimdir. O’smirlarning dunyoqarashini kengaytirish va bilimlar zaxirasini to’ldirish, yangi ko’nikma va malakalarni egallash bilan bir qatorda ma’lum bir kasb haqida tasavvurga ega bo’ladilar.

Psixologik va pedagogik taqdiqotlarning natijalariga ko’ra, intellektual va ijodiy qobiliyatli bolalarni o’rganish hamda ularni tarbiyalash ishlarining yanada olg’a siljishiga ko’p jihatdan ota-onalar, tarbiyachilar, o’qituvchilar va keng jamoatchilikning bilim va tajribalariga tayangan holda, ularning o’ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy asosda tushunishlari bilan ham uzviy bog’liqligini ko`rsatmoqda.

Yoshlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirish, iqtidorli o`quvchilarni qo`llab-quvvatlash va rag`batlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda ularni barkamol, jismonan va ruhan sog`lom shaxs sifatida vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, keng dunyoqarashga ega komil inson bo`lishga intilish tuyg`usini shakllantirish maqsadida maktablarda darsdan tashqari to`garaklar tashkil etildi. Maktablarda darsdan tashqari tashkillashtirilgan to`garaklarda o`quvchi yoshlarga buyuk ajdodlarimiz va adiblarimizning boy ijodiy merosini o`rgatish, ularga munosib voris etib tarbiyalash, qadimgi tarixiy va madaniy yodgorliklar haqidagi bilimlarni berishga yo`naltirilgan kompleks o`quv-tarbiya jarayonlari yo`lga qo`yildi.

Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish va ma’naviy immunitetini kuchaytirish, axborot madaniyati va media savodxonligini oshirish-axborot xavfsizligini ta’minlashning bosh omili desak, mubolag`a bo`lmaydi. Kompyuter xizmatlaridan foydalanish uchun vaqtini ham, pulini ham, oqibatda salomatligini ham ayamaydiganlar safi tobora kengayib bormoqda. Avval haddan tashqari sersavol, hamma narsaga qiziquvchan bo`lgan bola, asta-sekin o`zgara boshlaydi. Maktabdan keliboq, kompyuterga yopishadigan, undan soatlab ajralmaydigan bo`lib qoladi. Avvaliga ota-onalar farzandi ko`cha-ko`yda tentirab yurganidan ko`ra, darslardan so`ng uyda, ota-onasining ko`z o`ngida o`tirishidan xotirjam tortadi. So`ng undagi ruhiy o`zgarish o`smirlik davriga to`g`ri kelmay qoladi. Odamovi, loqayd, yolg`izlikni xush ko`radigan, xudbin va takabbur bo’lib qolayotgandek tuyuladi. Ming afsuski, so`nggi paytlarda ko`ngilni g`ash qiladigan bunday holatlar ko`p kuzatilmoqda.

Intellektual va ijodiy faoliyat o’ziga xos mazmunga ega, uning asosiy xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

- Obyektning yangi funksiyasini ko`ra bilish;
- Faoliyatning ma’lum usullaridan yangi vaziyatlarda mustaqil foydalanish;
- Muqobil fikrlash, ya’ni ushbu muammoning mumkin bo`lgan yechimlarini, dalil isbotlarining mavjudligini ko`ra bilish;

O’smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini ro’yobga chiqarish uchun tarbiya jarayonining mohiyati juda muhimdir. Ularning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayonida o’qituvchining yana bir hissasi shuki, o’smirlarda jamiyatga naf keltiradigan, axloqiy talablarga muvofiq

keladigan malaka va ko'nikmalarni hosil qildirishdir. Bunga erishish uchun o'quvchining qiziqishlaridan kelib chiqib, uning ongiga, dunyoqarashiga, tafakkuriga ta'sir etib boriladi. Mana shu psixologik jihatlar e'tiborga olingandagina o'smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib uni rivojlantirishga imkon yaratadi.

O'smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o'ynaydi. Intellektual va ijodiy faoliyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Yoshlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga qo'yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko'nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun har bir o'smirning ongiga, dunyoqarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta'sir etib boriladi. Natijada o'smirlarning intellektual va ijodiy qobiliyatini shakllantirib uni rivojlantirishga imkon yaratiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. T., O'zbekiston, 2017. "Gazeta. uz".

2.G'oziyev E. Umumiy psixologiya: Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik; O'zR OO'MTV, M.Ulug'bek nomidagi O'zMU. - T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010.

3.G'oziyev E. O'spirinlar axloqi va ruhiyati. Oila etikasi va psixologiyasi. - T.: Universitet, 2000.

4.Andreev A.L. Politicheskaya psixologiya. - M.: Ves mir, 2002.

5.Shonazarov J.U. Kasbiy psixologiya. Ma'ruzalaryil

6.Shonazarov.J.U.Uzluksiz ta'lim pedagogikasi. Darslik. Qarshi:Big.Makro World 2025 yil

7. M.J.Ergasheva Kichik maktab yoshidagi oilaviy bolalar uyi tarbiyalanuvchilarida irodaviy sifatlarni shakllanishi "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal № 1, 2025

Turdiyeva Nigora G'ani qizi
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o'qituvchisi

TALABALAR PSIXOLOGIK FAROVONLIGINING O'ZLASHTIRISH KO'RSATKICHLARIGA BOG'LIQLIGI

Annotatsiya. *Psixologik farovonlik shaxsning ruhiy barqarorligi, hissiy holati, motivatsiyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi va o'zini anglash kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Talabalar stressini boshqarish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining ahamiyati, psixologik farovonlikni oshirish bo'yicha innovatsion texnologik yondashuvlar, talabalarning psixologik farovonligini oshiradi va ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlarini ochib beradi. Psixologik farovonlik darajasi yuqori bo'lgan talabalar ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishadi. Mazkur maqolada talabalar psixologik farovonligi va ularning akademik o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy-nazariy tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ruhiy barqarorlik, motivatsiya, qadriyat, komponent, shaxslararo munosabatlar, qobiliyat, muloqot, muvaffaqiyat.*

ЗАВИСИМОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ СТУДЕНТОВ ОТ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УСВОЕНИЯ

Аннотация. *Психологическое благополучие включает в себя такие компоненты, как психическая стабильность личности, эмоциональное состояние, мотивация, уровень социальной поддержки и самопознание. Управление стрессом у студентов, значимость системы социальной поддержки, инновационные технологические подходы к повышению психологического благополучия открывают возможности для улучшения личностного развития студентов. Студенты с высоким уровнем психологического благополучия достигают высоких результатов в образовательном процессе. В данной статье проведен научно-теоретический анализ взаимосвязи между психологическим благополучием студентов и их академической успеваемостью.*

Ключевые слова: *психическая стабильность, мотивация, ценности, компоненты, межличностные отношения, способности, коммуникация, успех.*

THE RELATIONSHIP BETWEEN STUDENTS' PSYCHOLOGICAL WELL-BEING AND ACADEMIC PERFORMANCE

Abstract. *Psychological well-being encompasses components such as emotional stability, mental state, motivation, level of social support, and self-awareness. Managing student stress, the importance of social support systems, and the implementation of innovative technological approaches aimed at enhancing psychological well-being contribute to the improvement of students' mental health and open up opportunities for their personal development. Students with a high level of psychological well-being tend to achieve better academic outcomes. This article provides a theoretical and scientific analysis of the relationship between students' psychological well-being and their academic performance.*

Keywords: *mental stability, motivation, values, components, interpersonal relationships, abilities, communication, success.*

Kirish. Yangi O'zbekistonda yoshlarning psixologik yetukligi, psixologik farovonligini shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib, bu borada zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «...yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish» ustuvor vazifa sifatida qaralib, bu holat mazkur masalaga oid vazifalarni belgilash va chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish, o'zaro

birdamlikka asoslangan o‘zaro hamkorlik, talaba-yoshlarning empatik munosabatlari shakllanishining psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning shakllanish dinamikasi va qadriyatli-yoshga oid mazmunini ilmiy asosda yoritish, ilmiy tadqiq etishni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish uchun mustahkam asos yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ 3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 18-yanvardagi PQ-23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Psixologik farovonlik shaxsning o’zidan qoniqish, barqaror ruhiy holat va ijobiy motivatsiyani his qilishidir. Bu holatga erishish o’z-o’zini anglash, hayot maqsadlarini belgilash va ularga erishishga intilish, ijtimoiy munosabatlarni samarali boshqarish kabi omillarni o’z ichiga oladi. Talabalarda psixologik farovonlik yuqori bo’lganda, ular bilim olishga faol jalb etiladi, yangi ma’lumotlarni tezroq o’zlashtiradi va murakkab masalalarni hal qilishga bo’lgan qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalar psixologik farovonligi ularning ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyati uchun muhim omil hisoblanadi. Psixologik farovonlik nafaqat shaxsning ichki hissiy holatini, balki uning atrof-muhit bilan bo’lgan munosabatini, ijtimoiy hayotdagi faolligini va bilim olish jarayonidagi ishtiyoqini belgilab beradi. Ushbu jihatlar talabalar o’zlashtirish ko’rsatkichlari bilan bevosita bog’liqdir.

Psixologik farovonlikning o’zlashtirishga ta’siri bir necha jihatlar orqali namoyon bo’ladi. Ruhiy barqarorlik va ijobiy kayfiyat talabaning bilim olishga bo’lgan qiziqishini oshiradi. Motivatsiya yuqori bo’lgan talaba maqsadlariga erishish uchun ko’proq harakat qiladi va o’zlashtirish darajasi yuqori bo’ladi. Psixologik barqarorlik talabaning diqqatni uzoq vaqt davomida jamlay olishiga yordam beradi. Bu esa murakkab mavzularni o’zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalik yillarida stress va ruhiy bosimning ta’siri ko’pincha seziladi. Psixologik farovonligi yuqori bo’lgan talabalar stressni samarali boshqaradi, o’quv jarayonidagi qiyinchiliklarni yengilroq yengadi va imtihonlar davomida yaxshi natijalar ko’rsatadi. Talabaning oila, do’stlar yoki o’qituvchilar tomonidan qo’llab-quvvatlanishi psixologik farovonlikni oshiradi. Natijada, ular o’zlariga bo’lgan ishonchni kuchaytirib, bilim olish jarayonida faolroq ishtirok etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Hozirgi vaqtda «psixologik farovonlik» fenomeni fanning ko’plab sohalarida, shu jumladan psixologiyada faol o’rganilmoqda. Ya.I. Pavlotskaya, bu konstruksiya mustaqillik kabi komponentlarni o’z ichiga oladi, sog’lom shaxslararo munosabatlarni o’rnatish qobiliyati, ichki psixologik qulaylik holati, o’z hayoti va boshqa odamlar hayotining qadr-qimmatini anglash, ijtimoiy manfaatning mavjudligi, o’z-o’zini anglash istagi va qobiliyati, hamdardlik, jamiyatda muvaffaqiyatli moslashish kabilarni o’z ichiga oladi.

Talabalarning psixologik barqarorligi va farovonligini ta’minlash, shuningdek, akademik va ilmiy faoliyat jarayonida ularning ijtimoiy yetukligini shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu yo’nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham katta ahamiyatga ega. Talabalar psixologik salomatligini qo’llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish masalalari Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya va Rossiya kabi mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari va universitetlari tomonidan chuqur o’rganilmoqda. Jumladan, Tadqiqotlar markazi (Buyuk Britaniya); Britaniya psixologiya jamiyati (Buyuk Britaniya); Amerika psixologiya assotsiatsiyasi (AQSH); Psixologiya muammolarini o‘rganish davlat instituti (Germaniya); Sorbonna universiteti (Fransiya); Milliy ta’lim universiteti (Koreya); Rossiya Fanlar akademiyasi Psixologiya instituti va Rossiya Ta’lim akademiyasi Psixologiya instituti ilmiy-tadqiqot institutlari, Moskva Davlat universitetida (Rossiya Federatsiyasi) tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonlik psixolog-olimlar B.S.Abdullayeva, F.A.Akramova, R.A.Abdurasulov, N.B.Atabayeva, Sh.R.Baratov, A.S.Begmatov, E.G.Gaziyev, G.N.Ibragimova, M.G.Davletshin, P.S.Ergashev, S.X.Jalilova, U.D.Kodirov, V.M.Karimova, B.R.Kadirov, Z.T.Nishanova, N.S.Safayev, R.I.Sunnatova, G.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan tiklanish va rivojlanishning

turli qirralari, jumladan, shaxsiy rivojlanish, professionalizm shakllanishi, ijtimoiy rollarning tiklanishi, shaxsning ijtimoiy yetukligini belgilaydigan psixologik determinantlar, shuningdek, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv omili sifatida milliy o‘zlikni anglash masalalari o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan K.A.Abulxanova-Slavskaya, Ye.V.Alekseyeva, V.V.Bashev, S.V.Bikov, O.Yu.Grogoleva, Dj.Gudvin, L.I.Dementiy, A.A.Derkach, U.D.Djeyms, E.F.Zeyer, G.E.Yonas, Yu.V.Klyuyeva, V.E.Kupchenko, N.V.Leyfrid, M.V.Mukonina, A.G.Perlin, N.N.Satonina, V.G.Saxarova, N.N.Semenenko, N.D.Tabunov, O.N.Shaldibina va boshqalar tomonidan talabalarning mustaqilligi, o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarish masalalari tadqiq qilingan.

Talabalar psixologik farovonligi ularning o’zlashtirish ko’rsatkichlarini bevosita belgilovchi omillardan biridir. Bu holat shaxsning ta’limga bo’lgan munosabatiga, o’z bilimlarini rivojlantirishga va hayotiy muvaffaqiyatlariga asos bo’ladi. Shu sababli, ta’lim muassasalari psixologik farovonlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirishlari lozim.

A.Maslou va R.Yerkes tomonidan ilgari surilgan motivatsiya nazariyalariga ko’ra, psixologik ehtiyojlar qondirilganda shaxs o’z qobiliyatlarini to’liq namoyon eta oladi. Farovonlik darajasi yuqori bo’lgan talabalar ta’lim jarayonida o’z maqsadlariga erishish uchun yuqori motivatsiyaga ega bo’ladi va o’zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshadi.

J.Piaje va L.Vigotskiy ta’lim jarayonida psixologik farovonlikning o’rni haqida shunday xulosaga kelgan. Shaxsning hissiy holati va bilish qobiliyatlari bir-biri bilan uzviy bog’liq. Psixologik jihatdan barqaror bo’lgan talaba o’z diqqatini bilim olishga qaratib, yuqori kognitiv samaradorlikka erishadi.

G.Selye stress va o’quv jarayonida yuzaga keladigan bosimning psixologik farovonlikka ta’sirini tahlil qilib, stressni samarali boshqarish talabaning o’zlashtirish darajasiga sezilarli ta’sir ko’rsatishini ko’rsatib bergan. Stressni boshqarish qobiliyati yuqori bo’lgan talabalar muvaffaqiyatliroq bilim olishadi. A.Bandura talabalarning o’zlashtirish ko’rsatkichlariga ijtimoiy qo’llab-quvvatlash va psixologik farovonlikning ahamiyatini ta’kidlagan.

Ilmiy tadqiqotlar psixologik farovonlikning yuqori darajada bo’lishi talabaning mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshirishini ko’rsatmoqda. Bunday salohiyatga ega talabalar ta’limda yanada faol bo’lib, innovatsion yondashuvlarni tezroq o’zlashtiradilar. Psixologik farovonlikning birinchi tadqiqotchilaridan biri amerikalik psixolog N. Bredbern bo’lib, u bu kontseptsiyani sub’ektiv baxt hissi va hayotdan umumiy qoniqish deb ta’riflagan. Olimning fikricha, psixologik farovonlik - bu bir-biri bilan doimiy aloqada bo’lgan ijobiy va salbiy ta’sir o’rtasidagi muvozanatdir. P.P. Fesenko ishida psixologik farovonlik ham sub’ektiv hodisa, yaxlit tajriba sifatida qaraladi, o’zidan va hayotidan qoniqish hissi bilan ifodalanadi. Olim nuqtai nazaridan, bu bevosita shaxsning asosiy qadriyatlari, ehtiyojlari va ichki baholash tizimiga bog’liq.

C. Ryff konsepsiyasida psixologik farovonlik insonning imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish bilan birga, o’z faoliyatini idrok etish va baholashni aks ettiruvchi asosiy sub’ektiv konstruktsiyadir. C.Rifning fikricha, shaxsning psixologik farovonligi oltita asosiy komponentdan iborat: o’z-o’zini qabul qilish (o’z shaxsiyatini anglash va qabul qilish), avtonomiya (o’z xatti-harakatlarini mustaqil baholash, ta’sir ostida barqaror pozitsiyani saqlab turish qobiliyati).

Kozmina psixologik farovonlikning ko’p komponentli xususiyatini hisobga olgan holda, uni o’ziga munosabat kabi integrativ psixologik ta’lim bilan bog’laydi. «O’ziga munosabat» atamasi insonning «men» ga bo’lgan munosabatini anglatadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, psixologik farovonligi yuqori bo’lgan talabalar ta’lim jarayonida quyidagi natijalarga erishadi:

- Yuqori konsentratsiya va bilimni tez o’zlashtirish;
- O’quv topshiriqlarini ijodkorlik bilan bajarish;
- Muloqotda ochiqlik va ijtimoiy faollik;
- Stressli vaziyatlarni samarali boshqarish.

Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning psixologik farovonligini oshirish bo’yicha tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, psixologik maslahat va dasturlar talabalarning

stressini kamaytirishda samarali ekanligi isbotlangan. Maxsus trening va maslahat xizmatlari stressni kamaytirib, talabalarni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi va talabalar o'rtasida o'zaro yordam va hamjihatlik muhiti shakllanadi.

Natijalar va muhokamalar. Talabalarda Gerbachevskiyning "Intilish darajasini o'lchash" testi va N.Xollning "Emotsional intellektni baholash" testi olindi.

1-jadval

Kolmogorov Smirnov mezoni natijalari

t/r	Shkalalar	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	D_z qiymat	Ishonchlilik darajasi
1	Ichki motiv	70	13,9041	3,97619	1,337	,056
2	Bilish motiv	70	14,2740	2,79016	1,831	,002 **
3	Mag'lubiyatdan qochish	70	13,1781	4,32802	,867	,440
4	Raqobatchanlik motivi	70	13,9041	4,26603	1,393	,041*
5	O'zini hurmat	70	17,6164	3,86807	2,033	,001 ***
6	Iroda kuchi	70	12,8219	3,76144	,990	,281
7	Erishilgan natija	70	7,9589	2,93654	1,532	,018 *
8	O'z imkoniyatini baholash	70	14,2329	3,07553	1,207	,109
9	O'z kuchini baholash	70	15,0822	3,59689	,720	,678
10	Tashabbuskorlik	70	16,2877	3,34365	,794	,553
12	Emotsional bilimdonlik	70	7,9589	2,93654	1,532	,018*
13	O'z emotsiyalarini boshqarish	70	7,9726	2,93907	1,431	,033*
14	O'zini ragbatlashtirish	70	7,9452	2,93868	1,517	,020 *
15	Empatiya	70	7,9315	2,94547	1,501	,022 *
16	O'zga insonlarni kechinmalarini sezuvchi	70	7,9589	2,93654	1,532	,018 *

Tadqiqotda K-S mezoni natijalariga ko'ra bilish motivi (D_Z =1,831; p<0.01). Raqobatchanlik motivida (D_z=1,393; p<0.05). O'zini hurmat qilish (D_Z =2,033; p<0.001). Erishilgan natija (D_Z =1,532; p<0,05). Emotsional bilimdonlik (D_Z = 1,532; p<0,05). O'z emotsiyalarini boshqarish (D_Z =1,431; p<0,05). O'zini rag'batlashtirish (D_Z =1,517; p<0,05). Empatiya (D_Z =1,501; p<0,05). O'zga insonlarning ko'nikmalari sezish (D_Z =1,532; p<0,05). Kolmogorov Smirnov natijalariga ko'ra jami 15 ta shkaladan 9 ta shkala (Bilish motivi, Raqobatchanlik motivi, O'zini hurmat qilish, Erishilgan natija, Emotsional bilimdonlik, O'z emotsiyalarini boshqarish, O'zini rag'batlashtirish, Empatiya O'zga insonlarning kechinmalari sezish) qiymatlari noparametrik mezonlarga mos keladi. Demak biz keyingi ishlarimizni Manni Uitni noparametrik mezoni va noparametrik Spirmen korrelatsion mezonlaridan foydalanishimiz mumkin.

Xulosa. Talabalar psixologik farovonligi va o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish shuni ko'rsatadiki, psixologik jihatdan farovon bo'lgan talaba ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishadi. Ta'lim tizimida psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash choralari talabalarning individual va jamoaviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda barkamol va bilimli shaxslarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Psixologik farovonlik talabaning o'z hayotidan mamnunligi, o'zini anglash darajasi, hissiy muvozanati, motivatsiyasi va

ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi asosiy komponentlar bilan belgilanadi. Ushbu komponentlarning barqarorligi ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatning ajralmas omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ 3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", Qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-yanvardagi PQ-23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori,

3. Ryff, C. D. (1989). *"Psychological Well-Being: The Concept and Its Measurement"*. Journal of Personality and Social Psychology

4. Keyes, C. L. M. (2002). *"The mental health continuum: From languishing to flourishing in life"*. Journal of Health and Social Behavior

5. Stewart-Brown, S., & Janmohamed, K. (2008). *"Improving the Mental Health of Young People: A Review of Interventions"*. Public Health,

6. X.A. Tillashayxova "Talaba-yoshlar ijtimoiy yetukligi shakllanish dinamikasi va psixologik farovonligi xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiya avtoreferati Toshkent-2024

Turdiyeva Muhayyo Soxibjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
E-maill: turdiyevamuxayyo47@mail.ru

MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA XAVOTIRLANISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi og'il va qizlarda xavotirlanishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari, ushbu sohada olib borilgan izlanishlar asosida to'plangan ma'lumotlarga tayangan holda, ilmiy mushohada yuritilgan bo'lib, asosan xorij psixolog olimlarining bu boradagi psixologik qarashlari o'rtasidagi aloqadorlik tahlil qilinadi, muammoni o'rganishga oid tadqiqot metodi asosida olingan natijalar bo'yicha xulosa beriladi.*

Kalit so'zlar: *shaxsiy xavotirlik, ijtimoiy psixologik xususiyatlar, xavotirlik, reaktiv xavotirlik, hissiyot, emotsiya, psixologik qarashlar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТРЕВОЖНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация. *В данной статье научно рассмотрены социально-психологические особенности тревожности у мальчиков и девочек дошкольного возраста, основываясь на данных, собранных на основе исследований, проводимых в этой области, преимущественно между психологическими взглядами зарубежных психологов на этот счет. Проанализирована взаимосвязь, дан вывод на основе результатов, полученных на основе исследовательского метода изучения проблемы.*

Ключевые слова: *личностная тревожность, социально-психологические характеристики, тревожность, реактивная тревога, чувство, эмоция, психологические взгляды*

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FEATURES OF ANXIETY IN PRESCHOOL AGE CHILDREN

Abstract. *In this article, the socio-psychological features of anxiety in boys and girls of preschool age are scientifically observed, based on the data collected on the basis of research conducted in this field, mainly between the psychological views of foreign psychologists in this regard. relationship is analyzed, a conclusion is given based on the results obtained on the basis of the research method of studying the problem. studying the problem.*

Key words: *personal anxiety, social psychological characteristics, anxiety, reactive anxiety, feeling, emotion, psychological views.*

Xavotirlanishning gender xususiyatlari haqida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qizlar va o'g'il bolalar orasida xavotirlanish sabablari va namoyon bo'lish shakllari o'ziga xos farqlarga ega. Qizlar ko'pincha ajralish va ijtimoiy xavotirlanish bilan bog'liq muammolarga duch keladi, o'g'il bolalar esa tashqi muhit bilan bog'liq xavotirliklarni ko'proq his qiladi. Ushbu farqlarni hisobga olgan holda, bolalar bilan olib boriladigan psixodiagnostika va psixokorreksiya jarayonlarini gender yondashuvi asosida tashkil etish muhimdir. Bugungi kunda xavotirlanishning erta bosqichlarini aniqlash va uni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan metodlarni ishlab chiqish nafaqat psixologik xizmatlar samaradorligini oshiradi, balki bolalarning hissiy rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, maktabgacha yoshdagi bolalar xavotirlanishining gender xususiyatlarini chuqur o'rganish va samarali psixokorreksiya dasturlarini yaratish ushbu tadqiqotning asosiy dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qarorlari maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga

qaratilgan. Xususan, 2019-yil 8-maydagi “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qaror[1], 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaror[2], 2021-yil 12-apreldagi PQ-5071-son “Maktabgacha ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qaror[3] hamda 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qarorlar[4] mazkur tizimni isloh qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu hujjatlar maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish yo’nalishlarini belgilab berdi.

Maktabgacha yosh davri psixik xususiyatlarining o’ziga xos shakllanish muammosiga doir respublikamiz psixolog olimlaridan F.A.Akramova, Sh.Bekova, Sh.A.Do’stmuxammedova, Z.T.Nishanova, M.Norbosheva, A.R.Rasulova, I.Raximova, M.Taydjanova va boshqalar o’z ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlari, psixologik muammolarining psixodiagnostikasi, korreksiyasi va korreksion rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etishning psixologik jihatlarining nazariy va amaliy tomondan ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil davlat hamdo’stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan B.G.Ananyev, Yu.M.Antanyan, L.S.Vigotskiy, P.Y.Galperin, V.I.Garbuzov, I.V.Dubrovina, A.I.Zaxarov, A.N.Leontev, M.I.Lisina, G.M.Kodjaspirova, R.S.Nemov, L.F.Obuxova, A.M.Prixojan, A.S.Spivakovskaya, D.B.Elkonin va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida shaxsning yoshga doir psixologik xususiyatlarini aniqlash, ruhiy o’zgarishlar sabab va oqibatlari borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Shu bilan birga xorij psixologlaridan Z.Freyd(1926), Erikson(1963), Ch.D.Spilberger, J.Bowlby(1980), C.Gilligan(1982), S.Bem(1981), R.Green (2001), J.Kagan(1998), T.L.Hardin (2019), P.A.Turner (2021), S.Harter (2018), A.M.Skinner (2017), E.L.Johnson (2020), D.L.Martinez (2021), S.S.Wilson (2017), lar tadqiqot ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishning gender xususiyatlari, rivojlanish jarayoni va ijtimoiy, biologik omillar, shuningdek, psixologik yondashuvlar va amaliyotlar asosida jinsiy farqlarni kamaytirish bo’yicha tavsiyalar, xavotirlanishning gender farqlarini rivojlanish, kognitiv-behavioral yondashuvlar, ijtimoiy va oilaviy ta'sirlar orqali tahlil qilgan va bolalarda xavotirlanishni kamaytirishga qaratilgan turli yondashuvlarni ishlab chiqqan.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanish darajasining genderga bog’liq xususiyatlarini aniqlash maqsadida psixodiagnostik tahlil o’tkazildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida standartlashtirilgan psixodiagnostik usullar qo’llanildi. Sinov ishtirokchilari tarkibida qiz va o’g’il bolalar alohida guruhlarda tahlil qilinib, ularning xavotirlanish belgilari, hissiy holati solishtirildi. Olingan natijalar shuni ko’rsatdiki, xavotirlanish darajasi va uning ifodalanish uslubi genderga qarab ma’lum farqlarga ega: qiz bolalarda xavotirlanish ichki his-tuyg’ular, o’z-o’zini tahlil qilish va noaniqlikdan kelib chiqqan qo’rquv shaklida ifoda etilsa, o’gil bolalarda bu holat ko’proq tashqi omillarga nisbatan sezilarli darajada aks etgan. Shuningdek, oilaviy muhit, ijtimoiy muloqot va madaniy me’yorlarning xavotirlanishning shakllanishiga ta’siri ham aniqlangan. Ushbu psixodiagnostik tahlil natijalari tarbiyaviy jarayonlarda individual yondashuvni kuchaytirish, pedagogik va psixologik intervensiyalarni moslashtirish, shuningdek, bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini qo’llab-quvvatlash uchun muhim asos bo’lib xizmat qiladi.

1-jadval

Man Uitni bo’yicha R.Temml, M.Darki, V.Amenning “Kerakli yuzni tanla” metodikasi statistik natijalari

Ko`rsatkichlar	Jinsi	N	O’rtacha rank	Ranklar summasi	U	p
50% yuqori xavotir	qiz bola	220	149,96	50745	3169,500	0.017*
	o`g`il bola	193	129,52	34746		
	qiz bola	220	139,82	44745		


20%-50% o`rta xavotir	o`g`il bola	193	125,06	40746	3436,000	,789
0-20% past xavotir	qiz bola	220	143,19	60457,50	757,000	0,012*
	o`g`il bola	193	116,92	25033,5		

p<0.05*, p<0.01, p<0.001*****

Tadqiqotimiz davomida R.Temml, M.Darki, V.Amenning “Kerakli yuzni tanla” metodikasini Mann-Uitni natijasiga ko’ra 50% yuqori xavotir ko’rsatkichi bo’yicha (U=3169.500; p<0.05) aniqlandi. Qiz bolalar (149.96) va o`g`il bolalar (129.52) o’rtasida xavotir darajasi bo’yicha statistik ahamiyatli farq mavjud bo’lib, Qiz bolalarning yuqori xavotir darajasi ranglar o’rtacha qiymati yuqori bo’lishi bilan namoyon bo’ladi. Qiz bolalar xavotirni ko’proq ifoda etishiga ijtimoiy-emotsional sabablar ta’sir qilishi mumkin. O`g`il bolalar xavotirni yashirin yoki agressiv xulq-atvor orqali ifoda etishlari mumkin.

0-20% past xavotir ko’rsatkichi bo’yicha (U=757.000; p<0.05). Qiz bolalar (143.19) va o`g`il bolalar (116.92) o’rtasida past xavotir darajasi bo’yicha statistik ahamiyatli farq mavjud. Qiz bolalar past xavotir darajasida ham xavotirga nisbatan ko’proq reaksiya bildirgan. Past xavotir darajasida ham qiz bolalarning xavotirlanishga nisbatan sezgirligi yuqori bo’lganligi, ehtimol, ularning his-tuyg’ularga bo’lgan tabiiy empatiyasini aks ettiradi. Qiz bolalar xavotir darajasining yuqori va past darajalarda o`g`il bolalarga nisbatan ko’proq namoyon bo’lishi statistik ravishda tasdiqlandi. O’rta xavotir darajasida jinslar o’rtasida sezilarli farq kuzatilmadi. Havotirning gender farqlarini tushunish uchun bolaning tarbiyasi va ijtimoiy rollari, his-tuyg’ularni ifoda etish madaniyati va turli shaxsiy va genderga xos fiziologik xususiyatlar kabi omillarni inobatga olish kerak bo’ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib bolalarning xavotirlanish xususiyatlarini aniqlash, ota-onalar va pedagoglarga qiz va o’g’il bolalarning xavotirlanish xususiyatlari haqida ma’lumot berish, genderga yo’naltirilgan psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiq.



1-rasm. Man Uitni bo’yicha R.Temml, M.Darki, V.Amenning “Kerakli yuzni tanla” metodikasi statistik natijalari

Grafikda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xavotir darajasi turli toifalarga ajratilgan va bu ko’rsatkichlar jins bo’yicha tahlil qilingan. Yaxshi va past xavotir darajalaridagi farqlarni ko’rish mumkin. Qiz bolalar o’tkirroq xavotir his qilishga moyil bo’lishi va o’gil bolalar esa past xavotir darajasiga ega bo’lishini ko’rsatadi. Bu natijalar bolalarning jinsiga asoslangan psixologik farqlarni va ularning xavotirni qanday boshqarishlarini yoritadi.

2-jadval

Man Uitni bo’yicha A.M. Prixojanning “Bolaning xavotirlanish shkalasi” metodikasi statistik natijalari

Ko`rsatkichlar	Jinsi	N	O’rtacha rank	Ranklar summasi	U	p
Yuqori xavotir	qiz bola	220	138,84	59062		

	o`gil bola	193	127,42	26429	5086,000	0.012*
Normal xavotir	qiz bola	220	129,41	52120		
	o`gil bola	193	127,42	33371	1583,000	,088
Past xavotir	qiz bola	220	133,18	63095		
	o`gil bola	193	115,72	22396	554,000	,801

p<0.05*, p<0.01, p<0.001*****

Tadqiqotimiz maqsadidan kelib chiqqan holda, maktabgacha yoshdagi bolalarda “A.M. Prixojanning “Bolaning xavotirlanish shkalasi” metodikada quyidagicha holat aniqlandi. Yuqori xavotir darajasi bo’yicha qiz bolalarda xavotir darajasi bo’yicha sezilarli farqlar kuzatildi (U=5086.000; p<0.05). Bu jinsiy xususiyatlarning psixologik rivojlanishga ta'sir qiladi degan taxminni tasdiqlab, bunga sabab sifatida quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin. Birinchi navbatda qiz bolalar nerv tizimining sezgirligi yuqoriroq bo’lsa, ikkinchidan, ularning tashqi muhitga kuchliroq emotsional javob qaytarishiga olib keladi. Shuningdek, qiz bolalarga nisbatan hissiy o’zini tutish va moslashuvchanlik talablarining yuqoriligi, ijtimoiy stereotiplar va xavotirning oshishiga, shu bilan birga, qiz bolalarning yuqori xavotir darajasi ularning psixologik va biologik xususiyatlari bilan bog’liq bo’lib, nerv tizimining sezgirligi bilan bir qatorda, ular ko’proq ijtimoiy me’yorlar va talablarga moslashishga ko`proq majbur bo’lishiga olib keladi, hamda bu o’z navbatida, ularning xavotir darajasini oshiradi. Ijtimoiy stereotiplar, masalan, qiz bolalar yumshoq, itoatkor va ehtiyotkor bo’lishi kerakligi haqidagi kutilmalar, ular o’zlarini nazorat qilishga va ijtimoiy me’yorlarga moslashishga ko’proq kuch sarflashlariga olib kelib, bunday holatlar uzoq muddatda psixologik bosimni oshirishi mumkin. Shu bois, qiz bolalarning xavotirini kamaytirish uchun ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etishga qaratilgan dasturlar zarur. Yuqori xavotir darajasidagi bolalar, ayniqsa qiz bolalar, kelajakda o’z-o’ziga ishonchsizlik, haddan tashqari ehtiyotkorlik yoki xavotir bilan bog’liq psixologik muammolarni rivojlantirish xavfiga ega. Shu sababli, xavotirning manbalarini aniqlash va bunday bolalarni qo’llab-quvvatlash uchun individual va guruhiy psixologik mashg’ulotlar tashkil qilish tavsiya etiladi.

Normal xavotir ko`rsatkichi bo`yicha (U=1583.000; p>0.05) holat aniqlandi. Qiz va o`g`il bolalar o’rtasida sezilarli farq kuzatilmadi. Bu xavotirning normal darajada bo’lishi jinsga bog’liq bo’lmasligini anglatadi. Normal xavotir – psixologik barqarorlik belgisi bo`lib, ikkala jinsda ham bir xil tarbiya va o’yin muhitlari bunga ta’sir ko’rsatgan bo’lishi mumkin. Ushbu darajadagi bolalar xavotirni boshqarish qobiliyatiga ega va stress omillariga tezda moslashadi. Ushbu natija bolalar rivojlanishida jinsiy farqlarning kamroq ta'sir qilishidan dalolat beradi va xavotirni normallashtiruvchi ijtimoiy muhit muhim ekanligini ko’rsatadi. Normal xavotir darajasi jinsga bog’liq bo’lmagan holatda, bolalarning bir xil tarbiya va ta’lim muhitida rivojlanishidan dalolat beradi. Bu, ayniqsa, tarbiya jarayonida gender farqlarning minimallashtirilganligini ko’rsatadi. Normal xavotir darajasidagi bolalarda stressni boshqarish va unga moslashish qobiliyati yaxshi rivojlanganligi sababli, ularning muhitga moslashuvchanligi yuqori bo’lishi mumkin. Bundan kelib chiqib, pedagogik va tarbiyaviy yondashuvlarda bolalar xavotirini boshqarish usullarini keng qo’llash muhimdir. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, bolalar xavotir darajasini boshqarishda va psixologik barqarorlikni ta’minlashda ijtimoiy muhitning hissasi katta. Oila, bolalar bog’chalari va ta’lim muassasalarida xavfsiz va qo’llab-quvvatlovchi muhit yaratish, shuningdek, bolalarning his-tuyg’ularini tushunish va ifoda etishlariga imkoniyat berish muhimdir.

Past xavotir darajasi ko`rsatkichi bo`yicha (U=554.000; p>0.05). Gender farq mavjud emas. Bu xavotir darajasi past bo’lgan bolalar bir xil psixologik barqarorlikka ega ekanligini bildiradi. Past xavotir darajasi odatda xavfsiz muhit va ijobiy tarbiya natijasida shakllanadi. Bolalar o’rtasida jinsiy farqning yo’qligi ularning bu holatni bir xilda boshqarishini ko’rsatadi. Past xavotir darajasidagi bolalarda o’z-o’zini anglash va stressga nisbatan chidamlilik yaxshi rivojlangan. Tadqiqot natijalari jinsiy farqlarning yuqori xavotir darajasida sezilarli ekanligini, ammo normal va past xavotir darajalarida bu farq ahamiyatga ega emasligini ko’rsatdi. Yuqori xavotir darajasida ayol bolalar sezgirroq bo’lib, bu ularning tarbiya va ijtimoiy stereotiplarga moslashishiga ta'sir qilishi mumkin. Past xavotir darajasi bolalar xavfsiz va qo’llab-quvvatlovchi muhitda yashayotganidan darak beradi. Jinsiy

farqning yo'qligi tarbiya va o'yin jarayonlarida teng imkoniyatlarning yaratilganligini ko'rsatadi. Bu holat ijobiy tarbiya, bolalar orasidagi teng huquqlilik, stress omillarining kamaytirilganligi va ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlash natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bu ko'rsatkich bolalarning ruhiy sog'lomligi va ijtimoiy-psixologik muhitning ijobiy ekanligini ta'kidlaydi.

Xulosalar sifatida «Maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanishni diagnostika qilish va korreksiyalash» mavzusida o'tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

Mazkur tadqiqotning metodik asoslari va maqsadlariga mos metodlarni tanlash, shuningdek, o'rganilayotgan masalalar bo'yicha ilmiy tahlil yoritilgan. Tadqiqotda foydalanilgan metodik vositalar, jumladan, so'rovnomalar, kuzatishlar, individual intervyular va psixologik testlar, maqsadga mos ravishda tanlangan va ular bir-biri bilan uyg'unlashgan holda qo'llanilgan. Bu metodlar tadqiqotning aniq natijalarga erishishini ta'minlashga xizmat qilgan va zamonaviy psixodiagnostik texnikalar yordamida bilimlar to'plashga imkon yaratgan.

Xavotirlanish tushunchasining gender asosidagi tahlili, maktabgacha yoshdagi bolalarda erkak va ayol bolalar orasidagi xavotirlanish darajalarining farqlanishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari, ayol bolalarda ko'proq xavotirlanish holatlari kuzatilganini va bu farqning ijtimoiy va biologik omillar bilan bog'liqligini aniqladi. Erkak va ayol bolalar o'rtasidagi bu farqlarni psixologik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda, xavotirlanishning genderga oid xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam berdi.

O'tkazilgan metodik vositalarning o'zaro aloqadorligi, tadqiqotning maqsadiga erishish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolalar psixologiyasidagi gender farqlarini aniq va to'liq tahlil qilish imkonini yaratdi. Shuningdek, bu metodlarning kombinatsiyasi, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xavotirlanish holatlarini o'rganishda samarali vosita sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi, shuningdek, gender xususiyatlarining bolalar rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini yoritishda yangi yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqishga imkon berdi. Bu natijalar, bolalar psixologiyasi va pedagogikasini rivojlantirishda ahamiyatli ma'lumotlarni taqdim etdi va kelajakdagi psixologik diagnostika va psixokorreksiya tadqiqotlari uchun mustahkam ilmiy asos yaratdi.

Tadqiqotda o'tkazilgan empirik tahlil va metodik vositalarning uyg'unlashuvi, bolalar psixologiyasidagi gender farqlarini chuqur tahlil qilishga yordam berdi. Bu esa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun xavotirlanish holatlarini tushunishga asoslangan yangi tushunchalar va metodlarni yaratishda muhim qadam bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarori .lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-son qarori. https://lex.uz/docs/-3334234?ONDATE=09.10.2020%2000

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-apreldagi PQ-5071-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5367000

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/-4327235

O'rozboeva Gulshanoy Ixtiyor qizi
Shovot tuman 30- son davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi

PEDAGOGLAR UCHUN PSIXOLOGIK YORDAM: PROKRASTINATSIYANI YENGISH YONDASHUVLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy pedagoglar faoliyatida uchraydigan keng tarqalgan psixologik muammolardan biri - prokrastinatsiya (ya'ni ishlarni kechiktirish) holatlari tahlil qilinadi. Pedagoglar orasida prokrastinatsiyaning yuzaga kelish sabablari, uning shaxsiy va kasbiy salomatlikka ta'siri, shuningdek, uni yengish bo'yicha samarali yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqotda prokrastinatsiyani aniqlash uchun maxsus psixologik testlardan foydalanish va uni kamaytirishda vaqtni boshqarish usullarining ahamiyati ko'rsatib berilgan. Maqolada ushbu usullarni o'qituvchilarning kundalik faoliyatida qanday qo'llash mumkinligi, ularning stress darajasini pasaytirish va ish unumdorligini oshirishga qanday ta'sir qilishi haqida amaliy tavsiyalar berilgan. Natijalar pedagoglarning o'z ustida ishlashi, ichki motivatsiyani kuchaytirish va psixologik muvozanatni tiklashda ushbu yondashuvlarning foydaliligini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *prokrastinatsiya, pedagog, psixologik yordam, pomodoro texnikasi, vaqtni boshqarish, psixologik testlar, motivatsiya, stressni boshqarish, kasbiy samaradorlik, shaxsiy rivojlanish, pedagogik faoliyat, psixologik salomatlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА УЧИТЕЛЕЙ: ПОДХОДЫ К ПРЕОДОЛЕНИЮ ПРОКРАСТИНАЦИИ

Аннотация. *В данной статье анализируется одно из наиболее распространённых психологических явлений, с которым сталкиваются современные педагоги в своей профессиональной деятельности — прокрастинация (то есть откладывание выполнения задач). Автор рассматривает причины возникновения прокрастинации среди учителей, её влияние на личное и профессиональное благополучие, а также эффективные подходы к её преодолению. В исследовании подчёркивается значимость использования специальных психологических тестов для выявления уровня прокрастинации и методов управления временем для её снижения. В статье приводятся практические рекомендации по применению этих методов в повседневной деятельности педагогов, их влияние на снижение уровня стресса и повышение эффективности труда. Результаты подтверждают полезность указанных подходов для саморазвития педагогов, усиления внутренней мотивации и восстановления психологического равновесия.*

Ключевые слова: *прокрастинация, педагог, психологическая помощь, откладывание дел, техника Помодоро, тайм-менеджмент, психологические тесты, мотивация, управление стрессом, профессиональная эффективность, личностное развитие, педагогическая деятельность, психологическое здоровье.*

PSYCHOLOGICAL SUPPORT FOR TEACHERS: APPROACHES TO OVERCOME PROCRASTINATION

Abstract. *This article analyzes one of the most common psychological issues encountered in the professional activity of modern educators — procrastination The author highlights the causes of procrastination among teachers, its impact on personal and professional well-being, and effective approaches to overcoming it. The study emphasizes the use of specific psychological tests to identify procrastination and the importance of time management techniques in reducing it. The article provides practical recommendations on how these methods can be applied in the daily routines of teachers, their role in reducing stress levels, and enhancing work efficiency. The results confirm the effectiveness of these approaches in improving teachers self-development, increasing internal motivation, and restoring psychological balance.*

Keywords: *procrastination, educator, psychological support, task delay, Pomodoro technique, time management, psychological tests, motivation, stress management, professional efficiency, personal development, teaching activity, psychological well-being*

Kirish. Ta’lim dargohlarida o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi, – dedi Shavkat Mirziyoyev[1]. Demak biz ta’lim sohasida sezilarli rivojlanish bo’lishi uchun biz turli xil zamonaviy yandoshuvlarni ishlab chiqib buni amaliyotda qo’llay bilishimiz joiz. Buning uchun bugungi kunda ta’lim sohasida yuzaga kelayotgan muommolarni aniqlab turli yondashuvlardan foydalanishimiz maqsadga erishishimizda yordam bo’lar edi. Bugungi har tamonlama rivojlanayotgan jamiyatda prokrastinatsiya muammosi ilmiy munozaralar sohasida yaqinda paydo bo'ldi va zamonaviy psixologiyaning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O’qituvchilar uchun vaqtni samarali boshqarish, dars tayyorlash va pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish juda muhimdir. Ammo prokrastinatsiya bu jarayonlarni qiyinlashtiradi, samaradorlikni pasaytiradi va stressni oshiradi. Ushbu maqola pedagogik faoliyatda prokrastinatsiyani aniqlash, uning sabablarini tahlil qilish va uni yengish bo’yicha samarali yondashuvlarni ko’rib chiqadi. Xususan, prokrastinatsiyani aniqlash uchun ishlatiladigan psixologik testlar va vaqtni boshqarish usullari taqdim etiladi. Prokrastinatsiya hodisasini muhokama qilish, ayniqsa pedagoglar uchun muhimdir, chunki ular doimo turli xil majburiyatlarni bajaradigan sharoitlarda bo'lishadi. Har bir o'qituvchi hayotida ko’p marotaba ba'zi ishlarni kechiktirgan. Bu holatda o'qituvchi tashqi tomondan faol bo'lib qoladi, lekin uning kasbiy faoliyati sezilarli natijalarga olib kelmaydi. Prokrastinatsiya butunlay ongli jarayon bo'lib, rejalashtirilgan vazifani bajarmaslik o'qituvchining kasbiy faoliyatida noqulay oqibatlarga olib keladigan bo'lsa ham, vazifalarni ixtiyoriy ravishda kechiktirishni talab qiladi. Biroq bu, o'qituvchining kasbiy faoliyatiga ham, uning psixologik farovonligi, o'zini o'zi qadrlashi holatiga ham ta'sir qiladi. Garchi ko'plab tadqiqotlar akademik prokrastinatsiyaning ta'siriga qaratilgan bo'lsada, ularning kichik qismi uning paydo bo'lish sabablarini o'rganadi. Ba'zi tadqiqotchilar kollej o'qituvchilaridagi akademik prokrastinatsiyaning sabablarini aniqlashga harakat qilishdi, uning o'zgaruvchanlik sifatida eng ko'p e'tibor qaratgan narsa shaxsiyat xususiyatlari bilan bog'liqligini o'rganishdi. Prokrastinatsiya eng keng tarqalgan sabablaridan biri bu perfektsionizm hisoblanadi. Ushbu ikki hodisa o'rtasidagi ijobiy munosabat ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan [8].O'z qobiliyatlarini baholamaslik vaqtni "qiyinlashtiradi", chunki muvaffaqiyatsizlikka ishni bajarish uchun vaqt yetarli emasligi sabab bo'lishi mumkin.

Prokrastinatsiyaning salbiy oqibatlari insonning shaxsiy va kasbiy samaradorligining pasayishida namoyon bo'ladi. Prokrastinatsiya odamning ruhiyatiga bosim o'tkazishiga olib keladi va stress kabi salbiy ta'siri ko'plab ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. [6]

Demak prokrastinatsiyaning pedagoglarning ish samaradorligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi ma’lum bo’ldi. Prokrastinatsiya darajasi yuqori bo’lgan o’qituvchilarda dars tayyorlashda kechikishlar, o’quvchilarga individual yondashuvning kamayishi va motivatsiya darajasining pasayishi kuzatildi.

Prokrastinatsiyani psixologik tuzatish uchun uning turli xil majmuasini o’rgnish kerak. Birinchi bosqichda o'qituvchilarning o'zini o'zi qadrlash darajasini va kechikish darajasini aniqlash uchun o'qituvchilarning individual va shaxsiy xususiyatlari diagnostik o'rganish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot texnologiyasi bir nechta bosqichda olib borikadi: 1. Tashkiliy bosqich:

1.Bu bosqichida tadqiqot dasturi aniqlandi va diagnostika usullari tanlab olinadi, tashkiliy masalalar muhokama qilindi: joy, sana va vaqt uchrashuvlari belgilandi. Tadqiqot ishtirokchilarining ba'zilariga (tadqiqotchi shaxsan tanimagan) dastlabki kirish qismi o'tkazildi, unda tadqiqotning maqsadlari, psixologik tadqiqot ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va sharhlashning o'ziga xos xususiyatlari tushuntirildi.

2. Diagnostika bosqichi: ushbu bosqichda empirik ma'lumotlar to'planadi. Diagnostika ish joyida yoki tadqiqot ishtirokchilarining uyida o'tkazildi.Tashxis qo'yish jarayonida mavzuga qisqacha ma'lumot berish, anketalar matnlarini to'ldirish, shakllarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Shu maqsadda diagnostika vositalari, jumladan, bir qator metodlardan foydalaniladi:

K. Lay tomonidan umumiy kechikish shkalasi;

U.Makkon va J.Jonsonlar tomonidan prokrastinatsiya shkalasi;
Melburn qaror qabul qilish inventarizatsiyasi
Prokrastinatsiya darajasini diagnostika qilish uchun Takman so'rovnomasi;
L. Manning kechikish anketasi;
M.A.Kiselevaning “Prokrastinatsiyaning ifodalanish darajasi” metodikasi va boshqalar.

K.Ley ham prokrastinatsiya atamasini shunday ta'riflaydi: "Prokrastinatsiya - shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatishidan qat'i nazar, rejalashtirilgan harakatlarning ixtiyoriy, mantiqsiz ravishda kechiktirilishidir"[3] trening mashg’ulotlar orqali ham poktastintsiyani yengish mumkin, trening orqali kasbiy pedagogik faoliyat jarayonida o'z-o'zini faollashtirish texnologiyalarini qo'llash qobiliyatini rivojlantirish, o'qituvchining prokrastinatsiya strategiyasini yengishga tayyorligini rivojlantirish, prokrastinatsiyaning xarakterli belgilari va alomatlarini tan olish ko'nikmalarini shakllantirish kabi natijalarga erishish mumkin.

Pedagoglar uchun prokrastinatsiyani yengish, nafaqat shaxsiy samaradorlikni oshirish, balki o'quvchilarga sifatli ta'lim berishning ham asosidir. Buni yengish uchun bir nechta usullarni ko'rib chiqish mumkin:

Reja tuzish va maqsadlar belgilash: Har kuni yoki haftada bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar uchun oldindan reja tuziladi. Maqsadlar aniq bo'lishi kerak. Reja yordamida ish olib borish ish jarayonini osonlashtiradi.

Vazifalarni qismlarga bo'lish: katta vazifalarni kichik va oson tez bajariladigan qismlarga bo'lish orqali ishni samarali bajarish. Masalan, dars rejasini yozish va tayyorlashni kichik qadamlar bilan boshlash. Bu vazifani osonroq va tezroq bajalishini ta’minlaydi.

Vaqtni boshqarish: bunda ma’lum bir vaqt belgilanadi va shu belgilangan vaqt davomida ish bajariladi, masalan 20 minut vazifa bajarilsa 5 minut dam olish, yana bir misol dars jarayonlari kabi. Tanaffuslar va dam olish juda muhim. Uzoq vaqt davomida ishlashdan qochish kerak, chunki bu charchoqqa olib keladi va ish samaradorligini pasaytiradi.

O'zini mukofotlash: bajarilgan har bir kichik vazifadan so'ng o'zingizni mukofotlash, masalan, qahva ichish yoki qisqa dam olish, bu ishga nisbatan motivatsiyani oshirishga yordam beradi.

Negativ fikrlarni bartaraf etish: prokrastinatsiya ko'pincha o'ziga nisbatan shubha va noaniqliklar keltirib chiqaradi. O'zini tanqid qilishni kamaytirish, ijobiy fikrlash va vazifalarni bajarishga bo'lgan ishtiyoqni oshirish juda muhimdir. Asosiysi maqsadni aniq belgilab olish, chunki o'quvchilarga ta'lim berishning ahamiyati va bu jarayonda muvaffaqiyatga erishish, motivatsiya yaratadi.

Bu usullar yordamida o'z ishini samarali va o'z vaqtida bajarish mumkin.Yaponiyada bir daqiqalik qoida keng tarqaldi. Buni amalga oshirish uchun siz har kuni 60 soniya davomida odatdagi lekin ko’pincha keyinga qoldiradigan ishni bajarishingiz kerak. Bir daqiqa dangasalikni yengish va diqqatni vazifaga jamlash uchun yetarli ekanligi aniqlandi. Shunday qilib, kechikish hodisasining mohiyatini tushunish, prokrastinatsiyaning asosiy omillari bilan tanishish, va prokrastinatsiyani anglash va bartaraf etishga qaratilgan, o'qituvchilar uchun o'z-o'zini anglash va ijodiy salohiyatni ochishga xizmat qiladigan boshqa usullar mustaqil shaxsiy ish uchun manbaga aylandi. Pedagoglar uchun vaqtni samarali boshqarish juda muhimdir. Quyidagi metodlar o’qituvchilarning prokrastinatsiyasini yengishga yordam beradi: Pomodoro texnikasi diqqatni jamlashni yaxshilash va prokrastinatsiyani yo'q qilish uchun qo’llaniladi. Usul ish samaradorlikini oshirishga yordam beradigan, vaqtni boshqarishning sodda, ammo tasdiqlangan yondashuviga asoslangan. Asosiy g'oya - jarayonni qisqa, qizg'in faoliyat davrlariga bo’lishdan iborat. Bu diqqatni yuqori darajada ushlab turish va prokrastinatsiyani oldini olishda vaqt resurslaridan foydalanishga yordam beradi.Pomodoro ish jarayonini optimallashtiradigan bir qator ketma-ket qadamlarni o'z ichiga oladi: maqsadni aniq belgilab olish muhimdir - bu hisobot tayyorlash, yangi ko'nikmani o'zlashtirish kabi bo’lishi mumkin. Keyin jarayon davomida taymerni ishga tushirib, 25 daqiqaga o'rnating. Ushbu davrda asosiy vazifa - begona harakatlarni hisobga olmaganda, o'zingizni ishga tushirishdir. Keyingi 25 daqiqa faqat topshiriqni bajarishga bag'ishlangan. Hech qanday boshqa ishga chalg'itmaslik talab etiladi. So’ngi bosqich qisqa tanaffus. 25 daqiqadan so'ng, besh daqiqalik tanaffus qiling. Pomodoro texnikasi pedagoglar uchun samarali vaqtni boshqarish vositasi bo’lib, qisqa vaqt davomida o’qish yoki ish bilan

shug'ullanishga yordam beradi, bu esa diqqatni jamlashga va vaqtni samarali ishlatishga olib keladi. Zamonaviy psixologiyada kechikish bilan kurashishning turli usullari mavjud.Bir necha usullar Pol MakGining "S.U.M.O. "gapirmang va bajaring" kitobida muhokama qilinadi, unda muallif shunday yozadi: "Shunchaki ishni boshlang. Vazifani bajarish va belgilangan muddatda amalga oshirish haqida tashvishlanmang. Ish jarayonida o'zingizda motivatsiya his qilasiz va nihoyat ish jarayon kayfiyatingizni yaxshilaydi. Bu sizga kuch va boshlagan ishingizni to'g'ri his qilish istagini beradi.

Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (CBT) – bu prokrastinatsiyani yengishda samarali usul bo'lib, o'qituvchilar o'zlarining salbiy fikrlarini va xatti-harakatlarini aniqlab, ularni o'zgartirishga yordam beradi. Bu yondashuv orqali o'qituvchilar prokrastinatsiyaning psixologik sabablarini tushunib, o'z ichki dialoglarini va qarorlar qabul qilish jarayonini boshqarishadi. CBT yordamida o'qituvchilarga o'z maqsadlariga erishish uchun ijobiy xulq-atvorlarni o'rganish va o'z-o'zini rag'batlantirish ko'nikmalari shakllanadi.

Prokrastinatsiyani yengishda guruh yondashuvi ham samarali bo'lishi mumkin. O'qituvchilar bir-birlarini qo'llab-quvvatlab, birgalikda maqsadlar qo'yish va o'zaro motivatsiya orqali prokrastinatsiyani kamaytirishlari mumkin. Bunda o'qituvchilar o'zlarining yutuqlarini baham ko'rishadi va bu jarayon davomida bir-birlarini rag'batlantiradilar.

Xulosa. Pedagogik faoliyatda prokrastinatsiya muammosi ko'plab o'qituvchilar uchun tanish holat. Uning sabablari har xil bo'lishi mumkin bo'lsa-da, yondashuvlar to'g'ri tanlansa, bu holatni yengish mumkin. Muhimi - pedagog o'zini yaxshi tushunishi, ichki holatini kuzatib borishi, samarali rejalashtirish usullarini qo'llashi va kerak bo'lsa, atrofidagi insonlar yordamini qabul qila olishi zarur.

Takliflar:

1. Pedagoglar uchun muntazam ravishda vaqt boshqaruvi va stressni boshqarish bo'yicha treninglar tashkil etilishi kerak.

2. Rahbariyat tomonidan pedagogik yuklamani adolatli taqsimlashga e'tibor qaratilishi zarur.

3. O'qituvchilarning ishiga ijtimoiy e'tirof va moddiy rag'bat tizimini kuchaytirish orqali motivatsiyani oshirish mumkin.

4. Stress, kasbiy zo'riqish singari psixologik muommolar bo'yicha psixologik maslahat xizmatlarini tashkil etish foydali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev SH.M. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqi. https://yuz.uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi

2. Kutbiddinova, R. A. Psikhologiya stressa (vidy stressovykh sostoyaniy, diagnostika, metody samoregulyatsii) : uchebno-metodicheskoe posobie / R. A. Kutbiddinova. – Yuzhno-Sakhalinsk : SakhGU , 2019. – 124 s.

3. Luchenkova M.A. Prokrastinatsiya kak palliativnaya mera v protsesse realizatsii zhelaemykh tseley / M.A. Luchenkova // Gumanizatsiya obrazovaniya. – 2017. – № 1. – S. 57–63..

4. Stress psixologiyasi: Uchebnoe posobie. / Avt.-sost. T.I.Kulikova. - izd-vo: Imidj Print, 2014. - 133 b.

5. Sodiqov, M. R. (2017). Pedagogik stress va uni boshqarish usullari. Toshkent: TDTU nashriyoti. Pedagogik stressni boshqarish va stressni kamaytirish bo'yicha o'zbek ilmiy tadqiqotlari.

6. Shaidyuk O.Yu. Pozdnee obrashchenie za pomoshch'yu pri ostrom koronarnom sindrome – vzglyad na prichiny s tochki zreniya narrativnoy meditsiny / O. Yu. Shaidyuk, M. A. Kudinova, E.O. Taratukhin, I.V. Sapunov, K. A. Zamyatin // Rossiyskiy kardiologicheskiy zhurnal. – 2019. – № 24 (9). – S. 41–43.

7. Shodmonov, O. T. (2011). Pedagogik psixologiya. Toshkent: O'zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.Pedagoglarni stressdan himoya qilish va ta'lim jarayonida stressni boshqarishning psixologik yondashuvlari haqida ilmiy ma'lumotlar.

8. Pushkina, A. V. Vzaimosvyaz' pokazateley perfektsionizma i prokrastinatsii // Vestnik Bryanskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2015. – № 3. – S. 71–74.

Botirov Zoir
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasi magistranti

TALABALARDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada talabalar shaxsiy rivojlanishida psixologik himoya mexanizmlarining ahamiyati, ularni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar va samarali yo'llar tahlil qilinadi. Unda eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari: psixologik himoya tizimi haqidagi bilimlarni assimilyatsiya qilish, ayniqsa, shaxs va psixologik himoya tizimining ishlash talabalarini psixologik himoya tizimining turli yo'nalishlarda o'zgarishiga olib kelishi taxlillar orqali ifodalangan.*

Kalit so'zlar: *psixologik himoya, talabalar, stress, moslashuvchanlik, psixologik bardoshlilik.*

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *Механизмы защиты личных потребностей этих обучающихся, аналитические инструменты и эффективные способы, влияющие на их использование. В нем условия для проведения экспериментального исследования: усвоение знаний о системе психологической защиты, в частности, о характеристиках личности и системе психологической защиты,побуждают студентов менять систему психологической защиты в разных направлениях.*

Ключевые слова: *психологическая защита, студенты, стресс, опыт, техническая поддержка.*

FORMATION FACTORS OF PSYCHOLOGICAL PROTECTION MECHANISMS IN STUDENTS

Abctract. *This article analyzes the importance of psychological protection mechanisms in the personal development of students, factors affecting their formation and effective ways.In it, the conditions for conducting experimental research: the assimilation of knowledge about the system of psychological protection, in particular, the performance of the individual and the system of psychological protection lead students to change the system of psychological protection in different directions.*

Key words: *psychological protection, students, stress, flexibility, psychological tolerance.*

Kirish Zamonaviy jamiyatda talabalar turli xil psixologik bosimlar va stress omillariga duch keladilar. Ularning ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishlari va shaxsiy rivojlanishlari uchun psixologik himoya mexanizmlarining ahamiyati katta. Ushbu maqolada talabalar uchun psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirishning asosiy omillari tahlil qilinadi.

Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish muammosi hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy yoshlar turli stress omillari, psixologik bosimlar va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida shakllanmoqda. Ularning ruhiy barqarorligini ta'minlash, shaxsiy rivojlanishiga yordam berish va muvaffaqiyatli moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun psixologik himoya mexanizmlarining ahamiyati katta.

Shaxs psixologik taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi turli yondashuvlar mamlakatimiz psixologlaridan Sh.H.Abdullaeva, D.G.Muxamedova, B.R.Kadirov, R.S.Samarov, M.L.Saipova, E.G'.G'oziev, G'.B.Shoumarov va boshqalar tomonidan shaxsning shakllanishida psixologik himoyaning ahamiyati, ta'lim tizimida pedagoglar va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning psixologik himoya xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti hamda shaxs rivojlanishida shaxsning shakllanishida psixologik himoyaning ahamiyati va o'rni muhim ekanligi e'tirof etilgan, lekin shaxsning shakllanishida psixologik himoya muammosi alohida psixologik muammo sifatida o'rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan G.Blyum, G.V.Burmenskiy, YE.M.Granovskaya, R.M.Nikolskaya, YE.T.Sokolova, V.V.Stolin, A.Freyd, YE.V.Chumakov, E.G.Eydemiller, V.V.Yustetskiy va boshqalar psixologik himoya fenomenining genezisi nuqtai nazaridan; F.V.Bassin, R.Berns, R.S.Pantileyev, K.Rodjers, V.V.Stolin va boshqalar psixologik himoyaning ong bilan bog'liqligi jihatidan; F.YE.Vasilyuk, L.R.Grebennikov, YE.L.Dotsenko, B.V.Zeygarnik, YE.S.Romanova, T.S.Yasenkolar shaxsning shakllanishida himoyaning ta'siri destruktiv va konstruktiv bo'lishi mumkinligi jihatidan; A.M.Bogomolov, G.V.Grachev, Y.B.Zaxarova, I.D.Stoykov, Z.A.Parfenova, V.A.Shtroo, M.V.Yurkovalar psixologik himoyaning tuzilmali va dinamik xususiyatlari, individual, shaxslararo va guruhlararo darajalarda namoyon bo'lishini ilmiy tadqiq etishgan. Lekin shaxsda psixologik himoyaning shaxs psixologik taraqqiyotini ta'minlashdagi omil ekanligi masalasi kompleks tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan.

Xorij tadqiqotchilaridan A.Adler, F.V.Bassin, A.A.Nalchadjian, R.Plutchik, I.D.Stoykov, F.Perls, Z.Freud, A.Freud, E.Fromm va boshqalar psixologik himoya fenomeni muammosini shaxs taraqqiyotidagi o'rnini ilmiy tadqiq etganlar.

Psixologik himoya – bu inson ong ostida amalga oshiriladigan mexanizmlar to'plami bo'lib, ular shaxsni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Sigmund Freyd va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya, shaxsning stress holatlariga moslashuvi va barqarorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan psixologik mexanizmlar mavjudligini tasdiqlaydi. Talabalarda bu mexanizmlar ijtimoiy muhit, o'qish jarayoni va shaxsiy tajribalar asosida shakllanadi.

Psixologik himoya mexanizmlarini shakllantiruvchi omillar:

Akademik bosim va stress.

Talabalarning asosiy psixologik muammolaridan biri bu akademik bosim va o'quv jarayonidagi stressdir. Talabalar imtihonlar, baholash tizimi va yuqori talablar sababli turli ruhiy muammolarga duch kelishadi. Bu holatda quyidagi omillar psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishiga yordam beradi:

O'quv dasturlarini samarali rejalashtirish;

Tashqi motivatsiya va ruhiy qo'llab-quvvatlash;

Stressni boshqarish usullarini o'rgatish (meditatsiya, relaksatsiya texnikalari).

Ijtimoiy-madaniy muhit.

Yangi muhitga moslashish, guruh ichidagi ijtimoiy munosabatlar va oilaviy ta'sirlar talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Bu jihatda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Do'stlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi;

Ota-onalar va o'qituvchilarning ruhiy yordam berishi;

Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Shaxsiy rivojlanish va psixologik barqarorlik

Talabalik davri insonning shaxsiy rivojlanish jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Ushbu jarayonda quyidagi omillar psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishiga yordam beradi:

O'z-o'zini anglash va shaxsiy kompetensiyalarni rivojlantirish;

O'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash;

Shaxsiy maqsadlarni belgilash va ularga intilish.

Axborot muhitining ta'siri.

Zamonaviy talabalar ko'p hollarda axborot oqimi va texnologik stress bilan duch kelishadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi bosim, virtual muhit va tezkor axborot almashinuvi psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishiga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi kerak:

Raqamli gigiyena va axborot filtrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;


Virtual muloqotni real hayotdagi ijtimoiy munosabatlar bilan muvozanatlash;

Salbiy ta'sirga ega axborotlardan himoyalanish usullarini o'rganish.

Shaxsning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirish muammosining nazariy tahlili ilmiy tadqiqotlarda «ijtimoiy himoya» tushunchasini tavsiflash, psixologik himoyaning o'ziga xos

xususiyatlarini aniqlash, uning psixolog kasbiy faoliyatida namoyon bo'lish imkonini beradi. Tadqiqotning maqsad va vazifalariga ko'ra, shaxsning konstruktiv psixologik himoyasini muvaffaqiyatli shakllantirishning sharti bo'lgan va tajriba ishlari natijasida shakllanishi va rivojlanishi mumkin bo'lgan sifatlarni aniqlash zarur edi. Ko'rsatkichlarning yoshga bog'liq o'zgarishlarini o'rganish uchun longityud tadqiqot usullari va kesimlaridan foydalanildi. Longityud usuli uch yil davomida ko'rsatkichlarning o'zgarishini o'rganish uchun qo'llanildi. Ushbu tadqiqot usulining afzalligi shundaki, olingan ma'lumotlar ko'rsatkichlarining yoshga bog'liq holda o'zgarganligini aks ettirganligidadir. Kamchilik esa tadqiqotning uzoq davomiyligida va ko'rsatkich farqlarning hissiy o'zgaruvchanligi hissasini baholashdagi qiyinchiliklarda ifodalanadi.

Ko'ndalang tadqiqotlar yordamida o'rganish bizga turli yoshdagi sinaluvchilarni bir vaqtning o'zida yoshga bog'liq o'zgarishlar qonuniyatlari haqidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Bu usulning afzalligi tadqiqotning nisbatan qisqa davomiyligi, katta yosh oralig'i haqida darhol ma'lumot olish imkoniyatining mavjudligi va ko'plab mavzularni o'rganish imkoniyatiga egalikdir, bu bizga zamonaviy statistik usullarni qo'llash imkoniyatini ham beradi.



1-rasm. Shaxsning konstruktiv psixologik himoyasini shakllantirish muammosini o'rganish usullari tizimi

"Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining shakllantirish omillari» mavzusi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot ishi natijalari quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Psixologik himoya – bu subyektga ta'sir etuvchi ichki va tashqi mojarolar, bezovtalik, noqulaylik bilan bog'liq bo'lgan axborotlarni qabul qilmaslik va jarohatlovchi omillardan himoya qilishga qaratilgan shaxsning ongli psixologik munosabatlarini barqarorlashtirishning maxsus tizimi.

2. Psixologik himoyadan foydalanish emotsional stressni bartaraf etish, tartibsiz xatti-harakatlarni oldini olish va qisqa vaqt ichida yangi ijtimoiy-psixologik sharoitlarga moslashish imkonini beradi. Ba'zi hollarda himoya mexanizmlari doimiy mojarolik holatiga olib kelishi mumkin, shuning uchun ular destruktiv (halokatli) va konstruktiv psixologik himoya mexanizmlari sifatida tasniflanadi.

3. Shaxsning psixologik himoyasi koping xulq-atvor (shaxsiy muammolarni hal qilish uchun yo'naltirilgan ongli harakatlar) himoya mexanizmlari va strategiyalari bilan ta'minlanadi. Birgalikda ular adaptiv (moslashuv) jarayonlarning bir-biri bilan o'zaro bog'liq shakllarini va shaxsning stressli vaziyatlarga javob berishini ta'minlaydi.

4. Ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish bizga psixologik himoyaning konstruktivligi quyidagi xususiyatlar: jamiyatda qabul qilingan talablar, qoidalar va meyorlarga rioya qilish; faoliyat yuritishning asosi sifatida fikrlash va tasavvur jarayonlariga tayanish; faoliyat yuritishdan xabardorlik va refleks (aks ettirish) asosida o'z hatti-harakatlarini nazorat qilish; psixologik himoya mexanizmlaridan o'rinli foydalanish; tashqi ijtimoiy-psixologik moslashuvni ta'minlash va shaxsiy hayotiy muammolarni oqilona hal qilish bilan belgilanishini aniqlashga imkon beradi. O'zaro munosabatlarda konstruktiv psixologik himoya insonning maqsadga muvofiq rivojlanishi va ijtimoiylashuvini ta'minlaydi.

5. Psixologning faoliyati mutaxassisdan turli ijtimoiy guruhlar bilan professional muloqot qilish qobiliyatini, shuningdek, muayyan shaxsiy fazilatlarni va kasbiy bilimlarni talab qiladi. Mutaxassis sodda va yaxshi shakllanmagan psixologik himoya mexanizmlaridan foydalanishi o'z aybini inkor etishda, nizoni boshqalarga yuklab hal qilishga yoki o'zgartirishga intilishda, mojarodan xabardorligini yashirish va uni samarali hal qilishga urinmaslikda namoyon bo'ladi, bularning barchasi odamlar bilan muloqot qilishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun psixologni kasbiy tayyorlash jarayonida nafaqat professional bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni, balki konstruktiv psixologik himoya usullarini ham shakllantirish kerak bo'ladi.

7. Talabalarda konstruktiv psixologik himoyani shakllantirish "Shaxsning konstruktiv psixologik himoyasi muammolari»ni tanlash bo'yicha kursni o'tkazish zarurligiga olib keldi. Talabalar ishini tashkil etishda quyidagi ish shakllari qo'llanilgan: ma'ruza, seminar, trening mashg'ulotlari, individual va guruh maslahatlari. Tanlov bo'yicha topshiriqlarning mazmuni ikki yo'nalishda amalga oshirildi: talabalarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, psixologik himoya nazariyalari, xatti-harakatlarda psixologik himoyaning namoyon bo'lishi va psixologik himoya mexanizmining konstruktiv usullari.

Har bir shaxsda muayyan darajada psixologik himoya tizimi shakllangan bo'lib, – aynan shu subyektga ta'sir etuvchi ichki va tashqi mojarolar, bezovtalik, noqulaylik bilan bog'liq bo'lgan axborotlarni qabul qilmaslik va jarohatlovchi omillardan himoya qilishga qaratilgan shaxsning ongli psixologik munosabatlarini barqarorlashtirishning maxsus tizimi sifatida unga emotsional stressni bartaraf etish, tartibsiz xatti-harakatlarni oldini olish va qisqa vaqt ichida yangi ijtimoiy-psixologik sharoitlarga moslashish imkonini beradigan koping xulq-atvor (shaxsiy muammolarni hal qilish uchun yo'naltirilgan ongli harakatlar) himoya mexanizmlari va strategiyalari bilan ta'minlashini e'tiborga olish zarur.

Psixolog mutaxassislar uchun psixologik himoyaning konstruktivlik xususiyatlari: jamiyatda qabul qilingan talablar, qoidalar va meyorlarga rioya qilish; faoliyat yuritishning asosi sifatida fikrlash va tasavvur jarayonlariga tayanish; faoliyat yuritishdan xabardorlik va refleks (aks ettirish) asosida o'z hatti-harakatlarini nazorat qilish; psixologik himoya mexanizmlaridan o'rinli foydalanish;

tashqi ijtimoiy-psixologik moslashuvni ta’minlash va shaxsiy hayotiy muammolarni oqilona hal qilish mavjudligini taqozo etadi. Chunki, psixolog mutaxassislar faoliyati doirasidagi o’zaro munosabatlarda konstruktiv psixologik himoyadan foydalanishlari insonlarni maqsadga muvofiq rivojlanishi va ijtimoiylashuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Psixologning faoliyati mutaxassisdan turli ijtimoiy guruhlar bilan professional muloqot qilish qobiliyatini, shuningdek, muayyan shaxsiy fazilatlarni va kasbiy bilimlarni talab qilishi bois, agar mutaxassis sodda va yaxshi shakllanmagan psixologik himoya mexanizmlaridan foydalansa uning xatolarga yo’l qo’yishi, obro’sizlanishiga olib keladi va bularning barchasi odamlar bilan muloqot qilishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun psixologni kasbiy tayyorlash jarayonida ularda nafaqat professional bilim, ko’nikma va qobiliyatlarni, balki konstruktiv psixologik himoya usullarini ham shakllantirishga zarurat mavjud.

Talabalarda konstruktiv psixologik himoyani shakllantirishga yo’naltirilgan “Shaxsning konstruktiv psixologik himoyasi muammolari» bo’yicha kursni: ma’ruza, seminar, trening mashg’ulotlari, individual va guruh maslahatlarini o’tkazish zarurligini ko’rsatdi. Talabalar ishini tashkil etishda quyidagi ish shakllari: talabalarning shaxsiy xususiyatlarini o’rganish, psixologik himoya nazariyalari, xatti-harakatlarda psixologik himoyaning namoyon bo’lishi va psixologik himoya mexanizmining konstruktiv usullariga tayanish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, talaba-yoshlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish jarayoni ko’plab omillarga bog’liq. Bu mexanizmlarning rivojlanishi insonning ruhiy salomatligini saqlash va turli hayotiy muammolarni yengishda muhim rol o’ynaydi. Shuning uchun ta’lim tizimida talabalar psixologik farovonligini ta’minlash bo’yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Bu orqali kelajak avlodning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy faolligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Файзиева М.Шахс психологик ҳимоя механизми.Қарши ; 2021

2.Шоумаров Ғ.Б. Ўзбекистон таълим тизимида психологик хизмат муаммолари. - Т., 1998. - Б.

3.Қодиров У. Ёшларни деструктив таъсирлардан ҳимоялашнинг психологик жиҳатлари. - Тошкент, 2013.

4.Ғозиев Э.Ғ. Муомала психологияси. - Т., 2001.

Fatidinova Dildora Murodjanovna
Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

IQTISODIY SOHA VAKILLARIDA ONLAYN QIMOR O'YINLARIGA QARAMLIK SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada iqtisodiy soha vakillarida onlayn qimor o'yinlariga qaramlik shakllanishining psixologik omillari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur muammoning zamirida insonning tabiiy ehtiyojlari, stressga qarshi ichki himoya mexanizmlari, hissiy muvozanatni tiklashga bo'lgan intilishi yotadi. Qimor o'yinlari orqali qisqa muddatli mukofot tizimining rag'batlantirilishi, kognitiv buzilishlar va impulsivlik bu jarayonni kuchaytiruvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan. Ayniqsa, moliyaviy riskka odatlangan, tez natijaga intiluvchi iqtisodiy soha mutaxassislarida bu holatning shakllanish xavfi yuqoriligi ilmiy dalillar bilan asoslab berilgan. Maqolada, shuningdek, profilaktika va psixologik yordam ko'rsatishning muhim yo'nalishlari ham tavsiya etiladi.*

Kalit so'zlar: *onlayn qimor, qaramlik, psixologik omillar, iqtisodiy soha, impulsivlik, stress, mukofot tizimi, profilaktika.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗАВИСИМОСТИ ОТ ОНЛАЙН-АЗАРТНЫХ ИГР У ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЫ

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ психологических факторов, способствующих формированию зависимости от онлайн-азартных игр у представителей экономической сферы. Особое внимание уделяется роли внутренних психологических потребностей человека, механизмам защиты от стресса и стремлению восстановить эмоциональное равновесие. Показано, что краткосрочное поощрение, возникающее в результате азартной игры, а также когнитивные искажения и импульсивность являются ключевыми механизмами развития зависимости. Подчеркивается, что специалисты экономической сферы, подверженные финансовому риску и стремящиеся к быстрым результатам, находятся в зоне повышенного риска. В статье также приведены предложения по профилактике и психологической поддержке.*

Ключевые слова: *онлайн азартные игры, зависимость, психологические факторы, экономическая сфера, импульсивность, стресс, система вознаграждения, профилактика.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF ONLINE GAMBLING ADDICTION AMONG PROFESSIONALS IN THE ECONOMIC SECTOR

Abstract. *This article presents a scientific analysis of the psychological factors contributing to the formation of online gambling addiction among professionals in the economic sector. Particular focus is given to the role of intrinsic psychological needs, stress defense mechanisms, and the pursuit of emotional balance. The study highlights how short-term reward stimulation, cognitive distortions, and impulsivity serve as the primary psychological drivers of gambling behavior. It is argued that individuals working in high-pressure, financially risky economic environments are more vulnerable to developing such addictions. The article also proposes directions for prevention and psychological assistance strategies.*

Keywords: *online gambling, addiction, psychological factors, economic sector, impulsivity, stress, reward system, prevention.*

Kirish. Zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlari global iqtisodiyotni tubdan o'zgartiribgina qolmay, insonning mehnat faoliyati, ijtimoiy o'rni va psixologik holatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, iqtisodiy soha vakillari — buxgalterlar, moliyachilar, biznes menejerlar, investorlar, brokerlar kabi kasb egalari — kundalik faoliyatlarida yuqori darajadagi psixologik yuklama, moliyaviy risklar, tezkor qaror qabul qilish zarurati va raqobat bosimi ostida

ishlaydilar. Ana shu omillar inson ongida stress, xavotir, hissiy tanglik, ruhiy charchoq va shaxsiy muvozanatning izdan chiqishiga olib keluvchi ichki ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. Psixologik jihatdan olganda, bunday holatlarda inson o'ziga xos muvozanatni tiklash, ijobiy emotsional tajribaga ega bo'lish, o'zini faol va muvaffaqiyatli his qilishga urinadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, onlayn qimor o'yinlari o'zining manipulyativ algoritmlari, tezkor "yutuq" va "mukofot" illyuziyasini beruvchi tizimi bilan inson ongiga lazzat, qiziqish va umid hissini singdira oladi.

Asosiy qism. Iqtisodiy soha vakillarining kasbiy ixtisosligi ularning real hayotdagi xatarlarga bardosh berish qobiliyatini shakllantirgani holda, virtual muhitdagi xavflarni anglashda zaiflik keltirib chiqaradi. Chunki onlayn qimor tizimlarining algoritmik tuzilmasi, ularning foydalanuvchiga psixologik ta'sir ko'rsatish usullari — ya'ni "deyarli yutding", "keyingi urinishda omad kulib boqadi" kabi manipulyatsiyalar — shaxs ongini noto'g'ri taxminlar, illyuzion ishonch va psixologik tutilmalar girdobida qoldiradi. Psixologik nazariyalarga ko'ra, bu holat "kognitiv og'ish" (cognitive bias) deb atalib, insonning real holatni noto'g'ri baholashi va irim-sirim kabi irrasional fikrlarga asoslanishi bilan izohlanadi.

Qimor o'yinlariga qaramlik miyaning mukofot tizimini egallaydi va odamni uzoq muddatli foyda o'rniga qisqa vaqtli zavq izlashga undaydi[1]. Shunday ekan, onlayn qimor o'yinlarining inson miyasidagi tabiiy psixofiziologik jarayonlarga qanday ta'sir ko'rsatishini tushuntiradi. Inson tabiatan quvonch, motivatsiya va rag'batga intiladi. Qimor o'yinlari ushbu ehtiyojni sun'iy ravishda tezda "qondiradi", lekin bu holat shaxsning real hayotiy qadriyatlarini susaytirib, uni virtual yutuqlarga bog'lab qo'yadi. Ayniqsa iqtisodiy soha vakillari kabi tez yutuq, tez qaror va moliyaviy muvaffaqiyatga intiluvchi insonlar bu xavfli mukofot tizimi ta'siriga oson tushishadi.

Ilmiy adabiyotlarda bu holat "qisqa muddatli mukofotga asoslangan stimulyatsiya" (short-term reward stimulation) deb nomlanib, dofamin tizimining faoliyati bilan izohlanadi. Iqtisodiy faoliyatda band bo'lgan shaxslar ko'pincha real hayotdagi yutuqlar uchun uzoq kutishga majbur bo'ladilar, biroq onlayn qimor o'yinlari darhol natija ko'rsatishga va o'zini muvaffaqiyatli his qilishga imkon beradi. Bu esa psixologik jihatdan kuchli rag'batlantiruvchi omil sifatida ishlaydi. Nevrologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qimor o'yinlari jarayonida inson miyasida dofamin — lazzat va mukofot bilan bog'liq neyrotransmitter — faol ishlab chiqiladi, bu esa yutuqqa erishganlik hissini kuchaytiradi va shaxsni bu holatni qayta-qayta boshdan kechirishga majbur qiladi.

Bundan tashqari, iqtisodiy soha vakillari orasida kuzatiladigan ijtimoiy psixologik omillar — ya'ni ijtimoiy maqomni saqlab qolish, atrofdagilarga muvaffaqiyatli bo'lib ko'rinish, material ne'matlarni orttirishga doimiy intilish, tan olinmaslikdan qo'rquv — ularning qimor o'yinlariga bo'lgan qiziqishini bevosita rag'batlantiradi. Ma'lumki, qimor o'yinlari insonning hayotidagi eng nozik ehtiyojlari — omad, yutuq, boylik, ommalashish kabi ehtiyojlarini ekspluatatsiya qiladi. O'z-o'zini boshqarish darajasi past, emotsional muvozanati zaif bo'lgan shaxslar esa bunday psixologik bosimlarga nisbatan chidamsiz bo'lib, onlayn qimor o'yinlariga qaramlik shakllanishi xavfi yuqorilaydi.

Qimor o'yinlari insonning ratsional fikrlash qobiliyatini zaiflashtirib, unga illuzion nazorat va yutish umidini singdiradi[2]. Toneatto o'zining ushbu fikri orqali qimor o'yinlarida insonning mantiqiy tafakkuri qanday cheklanib qolishini ko'rsatadi. Onlayn qimor foydalanuvchiga har doim nazorat o'z qo'lida ekanidek tuyuladi, biroq real statistik imkoniyatlar yashirilgan bo'ladi. Bu esa odamning noto'g'ri qaror qabul qilishiga, o'zini aldashiga olib keladi. Iqtisodiy soha vakillari, odatda, analitik tafakkurga ega bo'lishsa-da, qimor platformalaridagi emotsional manipulyatsiyalar tufayli ratsional fikrlash qobiliyatini yo'qotib qo'yishlari mumkin.

Iqtisodiy soha vakillarining onlayn qimor o'yinlariga qaramligi inson psixikasidagi ichki ehtiyojlar, kasbiy stress, xavfga intilish, impulsivlik va ijtimoiy-psixologik ziddiyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayon sun'iy intellekt tomonidan boshqarilmaydi, balki insonning o'z fikrlash tizimi, hissiy holati, psixologik ehtiyojlari va ijtimoiy tajribasi bilan yo'naltiriladi. Shu sababli, bu muammo chuqur psixologik tahlil va kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu maqolada aynan iqtisodiy soha vakillarida onlayn qimor o'yinlariga qaramlik shakllanishiga sabab bo'layotgan psixologik omillar tizimli tarzda ilmiy tahlil qilinadi.

Qaramlik inson psixikasining murakkab holatidir. U shaxs ongli ravishda zararli ekanini bilgan holda ham, bu faoliyatni to'xtatolmasligi, uni muntazam ravishda davom ettirishga ichki ehtiyoj sezishi bilan ifodalanadi. Bu holat, eng avvalo, inson miyasi faoliyatidagi tabiiy biologik va psixologik jarayonlarga borib taqaladi. Psixologik qarashlarga ko'ra, inson har qanday faoliyatda o'ziga yoqimli, taskin beruvchi, ruhiy holatini yengillashtiruvchi his-tuyg'ularni izlaydi. Xususan, yuqori darajada mas'uliyat talab qilinadigan, moliyaviy risk va doimiy raqobat bilan kechadigan iqtisodiy sohalarda ishlovchi shaxslar o'z ish faoliyati davomida kuchli psixologik bosim ostida qoladilar. Bunday sharoitda inson tabiiy ravishda stressdan qochishga, ruhiy muvozanatini tiklashga harakat qiladi. Shunday paytda onlayn qimor o'yinlari unga vaqtinchalik bo'lsa-da, yengillik, chalg'ish, hatto yutuq illyuziyasini taqdim etadi. Bu esa inson fikrlash mexanizmidagi "qisqa yo'l" — ya'ni muammodan vaqtincha qochish, lekin uni hal qilmaslik — orqali o'zini yaxshi his qilishga sabab bo'ladi.

Qimor o'yinlariga bog'lanishning ildizi zaif iroda emas, balki ichki psixologik ehtiyojlarning noto'g'ri kanalda qondirilishidadir[3]. Ushbu fikr qimor o'yinlariga qaramlikni shunchaki odatiy zaiflik deb emas, balki chuqur psixologik sabablar bilan izohlash kerakligini ta'kidlaydi. Inson o'zini qadrlash, e'tirof etish, muvoffaqiyat hissini his qilish kabi ehtiyojlarga ega. Onlayn qimor esa bu ehtiyojlarni vaqtincha "qondirgandek" ko'rsatadi. Bu ayniqsa ishida o'zini baholanmagan, qadrlanmagan deb hisoblovchi iqtisodchilar, menejerlar, tadbirkorlar uchun kuchli psixologik tuzoqqa aylanadi.

Qimor o'yinlari insonni real hayotdagi muvaffaqiyatsizliklardan chalg'itadigan,ammo ularni hal qilmaydigan vositadir[4]. Ushbu fikrda qimorning "psixologik qochish mexanizmi" sifatida ishlashiga e'tibor qaratilgan. Ko'plab odamlar, jumladan, iqtisodiy bosim ostida ishlovchilar, o'z muammolaridan chalg'ish uchun qimor o'ynaydi. Ular bir necha daqiqalik yengillik evaziga o'z muammolarini yengillatgandek bo'ladilar, ammo bu vaqtinchalik. Muammo hal qilinmaydi, aksincha chuqurlashib boradi.

Iqtisodiy sohada faoliyat yurituvchi insonlar o'z kasbiy faoliyatining o'ziga xos talablari sababli xavfga intiluvchan, tezkor va ko'pincha impulsiv qarorlar qabul qiluvchi shaxslarga aylanishadi[5]. Bu esa ularni onlayn qimor o'yinlariga nisbatan psixologik jihatdan nishonga aylantiradi. Bunday holatda shakllanuvchi qaramlik sun'iy intellekt emas, balki insonning o'zi — uning tabiiy ehtiyojlari, fikrlash darajasi, emotsional holati va nevropsixologik tuzilmasi asosida yuzaga keladi. Shu sababli, bu muammoni tushunishda ham, oldini olishda ham inson psixikasiga chuqur yondashuv, individual xususiyatlarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy qarashlarda impulsivlik va xavfga intilish psixologik xatti-harakatlarning evolyutsion asoslari sifatida ko'riladi. Masalan, L. Zuckerman tomonidan ishlab chiqilgan "xavf izlash nazariyasi" (sensation seeking theory) shuni ko'rsatadiki, ayrim insonlar o'zlarining neyrobiologik holati sababli yangi, kuchli hissiyotlar va xavfli vaziyatlarga intiladilar. Bunday shaxslar odatda doimiy rag'batlantirishni talab qiladi, ularda oddiy hayot jarayoni zerikish hissini uyg'otadi. Aynan shu turdagi shaxslar onlayn qimor o'yinlariga nisbatan yuqori qiziqish bildiradi. Ular uchun qimor nafaqat moliyaviy daromad manbai, balki psixologik tetiklik, hayajon, stressni yo'qotish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, impulsiv shaxslar o'z harakatlarining uzoq muddatli oqibatlarini ko'ra bilmaydilar, ular hozirgi daqiqadagi his-tuyg'ular ta'sirida harakat qilishadi. Bu esa onlayn qimor o'yinlaridagi "har doim yutish mumkin" degan illyuzion algoritmlarga ishonishni kuchaytiradi.

Xulosa. Onlayn qimor o'yinlari shu nuqtai nazardan qaralganda, shaxs psixikasining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan illuzion vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunda inson bir necha soniya ichida katta mukofot yutish, raqobatda g'olib bo'lish, o'zini omadli va kuchli shaxs sifatida his etish imkoniyatiga ega bo'ladigandek tuyuladi. Aslida esa bu "foydali faoliyat" emas, balki psixologik ehtiyojlarni aldov orqali qondirishning muqobil, ammo xavfli shaklidir. Inson bu jarayonda ijtimoiy qadrlanishni emas, balki uning o'rnini bosuvchi virtual mukofotlar orqali ruhiy qoniqish oladi. Bu esa, o'z navbatida, unga o'zini jamiyatda muvaffaqiyatli shaxsdek tasavvur qilishga imkon beradi. Shu tarzda shakllangan holat, inson ongida yangi bir turtki — bu "g'alabani" yana his qilish, shu yo'l bilan ichki bo'shliqni to'ldirish istagini paydo qiladi. Natijada, qimor o'yini faoliyati oddiy o'yin emas, balki ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarni qondiruvchi mexanizmga aylanib

qoladi. Onlayn qimor o'yinlarining psixologik jozibadorligi bevosita insonning tabiiy fikrlash tizimi, ehtiyojlari va hissiyotlari bilan uyg'unlashgan holda ishlaydi. Bu tizim foydalanuvchini platformaga qamab qo'ymasdan, balki uning o'z fikrlari, umidlari va ehtiyojlari orqali asta-sekin qaramlik holatiga olib keladi. Bu esa shuni anglatadiki, qimor o'yinlariga qaramlik sun'iy intellekt yoki texnologik vositalar emas, balki insonning o'zi — uning ongidagi tabiiy psixologik mexanizmlar, hayotiy motivatsiya va hissiy javoblar orqali yuzaga chiqadi. Shu sababli, bu muammoni yechishda inson fikrlashining tabiiy holatlarini, shaxsiy emotsional holatni, kasbiy faoliyat bosimini va jamiyatdagi ijtimoiy bosqichlarni chuqur tahlil qilish zarur bo'ladi. Faqat shundagina bu manipulyatsion tizimlarga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish mumkin bo'ladi.

Shuningdek, iqtisodiy tashkilotlarda doimiy psixologik xizmatlar faoliyatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Bunday xizmatlar xodimlar stressini muntazam monitoring qilib boradi, burn-out sindromini aniqlaydi, impulsiv qarorlar xavfini baholaydi va kerakli psixologik yordamni ko'rsatadi. Bularning barchasi inson fikrlashining tabiiy yo'nalishini sog'lomlashtirish, shaxsiy irodaviy kuchini mustahkamlash va ongli tanlov qilish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy soha vakillarida onlayn qimor o'yinlariga qaramlik shakllanishi inson tafakkurining, emotsional ehtiyojlarining va ijtimoiy o'zini anglash jarayonining notekis muvozanatidan kelib chiqadi. Bu jarayon sun'iy intellekt yoki tashqi kuch emas, balki insonning o'zi – uning fikrlash tizimi, hissiy holati va jamiyatdagi o'rnini qanday anglashiga bog'liqdir. Shu bois bu muammoni hal etishda ham aynan insoniy qadriyatlar, shaxsiy o'zgarishga ishonch va psixologik jihatdan individual yondashuv ustuvor bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Grant, J. E., & Chamberlain, S. R. (2020). *Gambling disorder and other behavioral addictions*. Cambridge University Press. 42-bet.

2. Toneatto, T. (2005). *Cognitive therapy for problem gambling: A therapist's guide to concepts, processes, and practical tools*. 18-bet

3. Orford, J. (2001). *Excessive appetites: A psychological view of addictions* (2nd ed.). Wiley-Blackwell.

4. Shaffer, H. J., & Hall, M. N. (2001). *Understanding and preventing gambling problems in the workplace*. Harvard Medical School Division on Addictions.

5. Robbins, T. W., & Everitt, B. J. (2019). *Neurobehavioural mechanisms of reward and motivation*. Oxford University Press.

6. Korn, D. A., & Shaffer, H. J. (1999). Gambling and the health of the public: Adopting a public health perspective. *Journal of Gambling Studies*, *15*(4), 289–365. https://doi.org/10.1023/A:1023005115932

7. Petry, N. M. (2016). *Pathological gambling: Etiology, comorbidity, and treatment* (2nd ed.). American Psychological Association.

8. Zuckerman, M. (2007). *Sensation seeking and risk-taking behavior*. American Psychological Association.

9. Blaszczynski, A., & Nower, L. (2002). A pathways model of problem and pathological gambling. *Addiction*, *97*(5), 487–499. https://doi.org/10.1046/j.1360-0443.2002.00015.x

10. Griffiths, M. D. (2003). Internet gambling: Issues, concerns, and recommendations. *CyberPsychology & Behavior*, *6*(6), 557–568. https://doi.org/10.1089/109493103322725333

11. Leeman, R. F., & Potenza, M. N. (2012). *Psychopharmacology*, *219*(2), 469–490. https://doi.org/10.1007/s00213-011-2550-7

12. Billieux, J., Philippot, P., Schmid, C., Maurage, P., & Van der Linden, M. (2020). *Psychologica Belgica*, *60*(1), 20–33. https://doi.org/10.5334/pb.537

Eshmanov Otabek Baxriddin o'gli
Samarqand davlat universiteti Amaliy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

STRESS MUAMMOSI BORASIDA O'ZBEKISTONDA OLIB BORILGAN ILMIY IZLANISHLAR TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada stress holati va stressga barqarorlik muammolari ko'plab o'zbek psixologlari tomonidan psixologik tadqiqotning muammosi stressga barqarorlik darajasi bilan aloqadorligini shaxs stress holatiga tushganda o'z xulq-atvorini qay darajada boshqara olishi yoki o'zini stressli holat-vaziyatda psixologik himoyalashi shaxsning individual – psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi degan fikirlarni o'rganish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari yortilgan.*

Kalit so'z. *psixologik tanglik, tushkunlik, asabiylik, suisidal xulq, stress, shaxs xislatlari,stressga barqarorlik.*

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПРОВЕДЁННЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ ПО ПРОБЛЕМЕ СТРЕССА

Аннотация. *В данной статье освещены результаты научных исследований, проведенных многими узбекскими психологами в связи с тем, что проблема психологического исследования связана со степенью стрессоустойчивости в том, в какой степени человек может управлять своим поведением в стрессовой ситуации или психологическая защита себя в стрессовой ситуации определяется индивидуально-психологическими особенностями личности.*

Ключевое слово. *психологическое напряжение, депрессия, нервозность, суицидальное поведение, стрессы, черты личности, стрессоустойчивость.*

ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH CONDUCTED IN UZBEKISTAN ON THE PROBLEM OF STRESS

Annotation. *In this article, the results of scientific research carried out by many Uzbek psychologists on the problem of psychological research on the problem of stress stability level in order to find out to what extent a person can control his behavior when he is in a state of stress or to psychological protection of himself in a stressful state-situation is determined by individual-psychological characteristics of*

Keyword*. psychological distress, depression, irritability, suicidal behavior, stress, personality traits, stability to stress.*

Mamlakatimizda stress holati va stressga barqarorlik muammolari ko'plab o'zbek psixologlari tomonidan psixologik tadqiqotning muammosi sifatida psixologik tanglik, tushkunlik, asabiylik, suisidal xulq kabi psixologik tushunchalarga bog'liq holda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Stress muammosining ba'zi psixologik jihatlarini tadqiq qilish dastlab G'.B.Shoumarov va uning shogirdlari tomonidan o'zbek ayollarida suisidal xulq va uning kelib chiqish sabablarini o'rganish muammosi borasida o'tkazilgan tadqiqot ishlarida stress, tushkunlik, depressiya kabi hissiy jihatlariga alohida urg'u berilgan. Jumladan, B.Umarov va E.Usmonovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida suisidal xulq muammosi, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlarining tahlilida mazkur muammoga oid jihatlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Taniqli olima V.M.Karimovaning ilmiy asarlarida stressga barqaror shaxs psixologiyasi borasida o'zining quyidagi fikrlarini bildiradi: "Tashqi muhitga moslashuvchan, psixik xususiyatlarida muvozanati mavjud shaxslar o'zgaruvchan muhitning ta'sirlariga o'zidagi barqarorlik va sabr-qanoat bilan javob berib, har qanday sharoitda ham o'zligini yo'qotmaydi" [1].

R.S.Samarov tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ishlarida stress holati bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan "Shaxs stress holatiga tushganda o'z xulq-atvorini qay darajada boshqara olishi yoki o'zini stressli holat-vaziyatda psixologik himoyalashi shaxsning individual – psixologik xususiyatlari bilan belgilanadi" degan mulohazani bildiradi [2].

B.N.Sirliyevning ilmiy tadqiqotlarida ushbu muammo borasida quyidagi mulohazalarini bildiradi: … bir xil tashqi hodisalar ayrim turli odamlar uchun stressogen ta'sirga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin, shaxsiy kognitiv baholash jarayoni va imkoniyatidan kelib chiqib, tashqi hodisaning muayyan sub'yekt uchun ahamiyatiga qarab, stressogen ta'sir darajasi aniqlanadi [3].

Shuningdek, stress holati va stressga barqarorlik muammosiga oid fikr mulohazalarni M.G.Davletshin, G'.B.Shoumarov, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, N.A.Sog'inov, S.A.Axunjanova, Z.F.Kamalitdinova, B.M.Umarov, E.Usmanov. Z.T.Nishonova, E.Usmanova, R.I.Sunnatova, N.G.Kamilova, L.Nazirova, F.E.Gaziyevalar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida bildirib o'tganligini ko'rishimiz mumkin.

R.A.Abdurasulovning ilmiy tadqiqot ishlari sportning shaxs shakllanishi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda o'quvchi-sportchilar shaxsini shakllanishida sport mashg'ulotlarining o'rni o'rganilgan. Sharq yakkakurashi va boks mashg'ulotlari bilan faol shug'ullangan o'quvchilarda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu sport turlari o'quvchi-sportchi shaxsida asabiylik, ruhiy tajanglik, ruhiy azoblanish kabi xislatlarning kamayishi, nazokatlilik, ijtimoiysizlik va boshqa xislatlar kam namoyon bo'lishi, shuningdek, o'quvchi-sportchilarda muloqot va faoliyat jarayonida faollik, shaxslararo munosabatlarda bir-birini tushunish, o'zini boshqara olish kabi xususiyatlarining shakllanishiga ijobiy ta'siri, ulardagi qiziqqonlik, hissiyotga berilish, ishonchsizlik, tushkunlik, depressiya holatlarining kamayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi borasida qo'lga kiritilgan natijalar yoritilgan [4]. O.E.Hayitovning tadqiqot ishlari rahbarlarning psixologik kompetentligi tarkibiy komponentlar sifatida stressni boshqarish kompetensiyasi masalasiga qaratilgan bo'lib, unda stresslarni boshqarish rahbarlarning psixologik kompetentligi ijtimoiy-axborot komponenti sifatida nizolarni boshqarish kompetentligini namoyon etishga urg'u berilgan. Muallifning fikriga ko'ra, o'rta bo'g'in rahbari o'z xodimlaridagi hissiy charchoqlarni ko'rib, his qilib tursa-da, lekin o'zi ham xuddi shu holatda ekanligi bois o'zidagi "stresslarni boshqarish" kompetensiyasini shakllantira olmaydi [5].

Demak, muallifning mulohazalari asosida aytish joizki, rahbar o'zidagi va xodimlaridagi stress alomatlarini his qilishi, ushbu stressning yuzaga kelishini, uning qanday omillar tufayli kelib chiqishini aniqlash muhim hisoblanadi. Stressning kelib chiqish sabablarini aniqlagan rahbarda ishga yangilik kiritish, uning salbiy omillarining ta'sirini kamaytirishi hamda jamoasidagi psixologik muhitni o'zgartirish imkoni paydo bo'ladi.

P.S.Ergashev tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlari simmetriya hissining fenomeni, uning diagnostikasi va korreksiyasi masalasiga qaratilgan bo'lib, unda simmetriya tuzilmasida tugallanganlik, yaxlitlik, tartibga solishda ehtiyojning qondirilishiga nisbatan hissiy munosabatda namoyon bo'lishida shaxs xususiyatiga urg'u berilgan. Muallifning fikriga ko'ra, talabgor darajasi noadekvat ravishda yuqori bo'lsa, simmetriyaga nisbatan hissiy munosabat bir tekis simmetriya holatiga ijobiy va assimmetriyaga salbiy qarash asosida shakllanadi, ammo talabgorlikning noadekvat ko'rsatkichi past bo'lganda bunday bir maromlilik qayd etilmaydi. Shuningdek, talabgorlik darajasi adekvat holatda bo'lsa assimmetriyani salbiy baholashning simmetriyaga nisbatan roli statistik jihatdan eng quyi darajaga tushib ketadi. Oliy o'quv yurtidagi qat'iy tartib va talablar asosida talabalarda simmetriyaga nisbatan umumiy qarashlarni shakllantiradi [6]. N.Z.Ismoilovaning tadqiqot ishi talabalarda stressga barqarorlikni oshirishning psixologik determinantlari mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, u talabalarda stressga barqarorlik va o'ziga-o'zi baho berish, tolerantlik, koping-strategiyaning faol yoki passiv usullarini qo'llash imkoniyatlarini empirik jihatdan o'rgangan. Tadqiqot asosida olingan tahlil natijalari talabalarda o'ziga-o'zi baho berish va frustratsion vaziyatlarga tolerant munosabat bilan stressga barqarorlikning psixologik determinantlari o'rtasida ahamiyatli o'zaro aloqadorlik mavjudligi aniqlangan. Muallif tadqiqot natijalariga tayangan holda talabalarning o'ziga-o'zi baho berishi, frustratsion tolerantlik, koping-xulq atvor strategiyalarining bir-biriga bog'liqligi stressga barqarorlikni oshirishning determinantlari sifatida muhim rol

o'ynashini ta'kidlaydi. Ishlab chiqilgan psixologik trening dasturi kognitiv, affektiv, konativ, fiziologik komponentlarni o'z ichiga olgan bo'lib, talabalarda stressga barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi degan xulosa qilgan. Shuningdek, stress barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi determinantlarga psixologik ta'sir o'tkazish asosida talabalarda stressga barqarorlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda oshirishga yordam beradi [7].

Z.S.Elovning ilmiy tadqiqot ishi ichki ishlar xodimlarida suisidal xulq motivatsiyasini namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari muammosiga bag'ishlangan, unda inson kuchli stress holatida o'z joniga qasd qilishi mumkinligi hamda depressiya holati suitsidal holatni yuzaga keltiruvchi eng asosiy psixologik holatdan biri sifatida ta'kidlangan. Muallif tadqiqot natijasi asosida ichki ishlar xodimlarida depressiya darajalari va psixologik himoya mexanizmlarining o'zaro korrelyatsion bog'liqlik ko'rsatkichlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek dissertatsion ishda ichki ishlar organi xodimlari tomonidan sodir etiladigan suitsid holatlarining kasbiy omilga nisbatan shaxsiy omillarda yuqori darajada ekanligi ilmiy asoslab berilgan [8].

Aytish joizki, muallif tomonidan ichki ishlar xodimlari orasida suisidal holatlarni korreksiyalash uchun ishlab chiqilgan dasturdan depressiyaga tushgan xodimlarga malakali mutaxassislar yordamini uyushtirish, muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlash va bartaraf etishda samarali foydalanish mumkin.

Z.H.Fayziyev kazusli vaziyatlarda sportchi hissiy holatini korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari mavzusida tadqiqot tadqiqot ishlarini olib borgan. O'zining tadqiqot ishlari natijasida kazusli vaziyatlar sportchilarning faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi voqelik ekanligi, bu esa mashg'ulotlar jarayonida va o'yin paytida hissiy beqarorlikni, asabiylikni, ayniqsa stress, affekt, depressiya kabi hissiy holatlarni yuzaga keltirishi, shuningdek, kazusli vaziyatlarni bartaraf etuvchi samarali psixologik himoya shakllarini ishlab chiqish va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. Bunda sportchilarga kazusli yoki stressli vaziyatni bartaraf etadigan, stress ta'sirini kamaytiradigan, ya'ni o'ziga ishonch, boshqalarni qabul qilish, jismoniy salomatlik, stressni nazorat qilish va amaliy-psixologik bo'shashtiruvchi trening mashg'ulotlari tavsiya qilingan [9].

Xulosa sifatida aytish joizki, stress muammosi va uning namoyon bo'lishi borasidagi nazariy tahlil asosida xorijiy hamda respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarida stress tashqi ta'sirlarga psixik aks ta'sir ko'rsatishi, stress holatida ham jismoniy, ham aqliy jihatdan yuklamaning ko'pligi, destruktiv g'oyalarning stress xolatiga salbiy ta'siri, stress xolatining shaxs faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, stress xolatida shaxsning hissiy ta'sirchanlik va frustratsiyaning namoyon bo'lishi, stressga barqarorlik, frustratsion tolerantlik hamda koping-strategiya xususiyatlari ilmiy nazariy jihatdan o'rganilgan, xulosa va tavsiyalar berilgan. Lekin stress holatining sportchilar faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri masalasi psixologiya sohasida o'rganilmagan muammolardan hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimova V.M. Salomatlik psixologiyasi. – T. 2006.- 243-b.
2. Samarov R.S.Xarbiylik sharafli kasb. T.O'zbekiston F.A. nashriyoti. 2006. – 129 b.
3. Sirliev B.N. Stress va agressiya . / o'quv qo'llanma. –T.2013. -72 b.
4. Abdurasulov R.A. Sport mashg'ulotlarining o'quvchi - sportchilar shaxsini shakllanishidagi roli (Yakkakurash turlari misolida). Psixol. an.dok. diss.avtoref. –T. 2018.
5. Hayitov O.E. Muassasasi o'rta bo'g'in rahbarlari psixologik kompetentligini modellashtirish. Psixol.fan.dok.(DsC) dess. avtofer.-T., 2020.
6.Ergashev. P.S. Simmetriya hissi fenominologik tahlili, diagnostikasi va korreksiyasi. Psix.fan.dok.(DSc) disser. avtoref. T.,2018.
7.Ismoilova N.Z.. Talabalarda stressga barqarorlikni oshirishning psixologik determinantlari. Psixol. f.f.d.(PhD) diss.avtoref. Toshkent., 2020.
8.Elov Z.S. Ichki ishlar xodimlarida suitsidal xulq motivatsiyasini namoyon etilishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Psixologiya f.f.d.(PhD) diss.avtoref. Toshkent.,2021.
9.Fayziev Z.H. Kazusli vaziyatlarda sportchi emotsional holatini korreksyalashning ijtimoiy-psixoloik mexanizmlari.Psixol.f.f.d.(PhD) diss.avtoref. Buxoro.,2020.

UDK: 152.26:370

Abdinazarova Nilufar Eshnazarovna
Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti, psi.f.f.d. (PhD)
E-mail: nilufarabdunazarova765@gmail.com

MEHRIBONLIK UYIDA TARBIYALANAYOTGAN O'SMIRLARDA XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan o'smirlarda xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, tarbiyasi qiyin o'smirlarning patoxarakterologik xususiyatlari mavzusiga oid nazariy tadqiqotlar tahlil qilib berilgan. Maqolada mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar shaxsining individual va ijtimoiy psixologik xususiyatlari axloqiy me'yorlarga xos bilimlarni egallashida ham keskin farq qilishi tadqiqot natijalarida tahlili keltirilgan. O'smirlarda xulq-atvor shakllanishida oilaning vazifalari tahlil qilib berilgan.*

Kalit so'zlar: *mehribonlik uyi, SOS, xulq-atvor, adekvatlilik individuallik, o'smir, yuqori intellekt, dominantlik, rigidlik, konformlik, fiziologik rivojlanish, muhit, moslashganlik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ, ВОСПИТЫВАЮЩИХСЯ В ДЕТСКОМ ДОМЕ

Аннотация. *В статье раскрыты социально-психологические особенности формирования поведения у подростков, воспитывающихся в детском доме. Также были проанализированы теоретические исследования на тему патохарактерологических особенностей трудных в воспитании подростков. В статье представлен анализ результатов исследования, что индивидуальные и социально-психологические особенности личности воспитанников детского дома также резко различаются в приобретении знаний, присущих этическим нормам. Проанализированы задачи семьи в формировании поведения у подростков.*

Ключевые слова: *детский дом, SOS, поведение, адекватность, индивидуальность, подросток, высокий интеллект, доминирование, строгость, конформизм, физиологическое развитие, окружающая среда, адаптируемость.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF BEHAVIOR IN ADOLESCENTS BROUGHT UP IN A FOSTER HOME

Annotation. *The article reveals the socio-psychological characteristics of the formation of behavior in adolescents raised in a foster home. Also, theoretical studies on the topic of pathocharacterological characteristics of adolescents with difficult upbringing have been analyzed. The article presents an analysis in the results of the study that the individual and social psychological characteristics of the personality of those brought up in a foster home also differ dramatically in the acquisition of knowledge inherent in moral standards. In the formation of behavior in adolescents, the tasks of the family are analyzed.*

Keywords: *house of kindness, SOS, behavior, adequacy individuality, adolescent, high intelligence, dominance, rigidity, conformity, physiological development, environment, adaptability.*

Kirish. Hozirgi kunda o'smirlar hayot faoliyatiga nazar tashlasak, u rivojlanish yo'lidagi taraqqiyoti bilan hayotning yangi chegaralarini doimiy ravishda yengib, yaxshiroq natijalarga erishishi bilan o'smirlarning shaxs sifatida takomillashib borishini ta'minlaydi. O'smirlarning shaxs sifatida takomillashuvi uning xulq-atvori har tomonlama takomillashganligi bilan belgilanadi. Biroq bugungi kunda o'smirlar orasida ota-onasidan mahrum bo'lganlar muammosi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanib, ularning ijtimoiy muhitga ijobiy moslashish masalasi psixologlar

oldiga ham bir qator yechilishi zarur bo'lgan masalalarni qo'ymoqda. O'smirlarda xulq-atvor shakllanishi muammosi yaqin va uzoq xorij psixolog olimlari tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o'rganish bugungi kunda dolzarblik talab etayotgan muammoli mavzulardan biridir.

O'smirlik yoshi – o'g'il va qiz bolalarda 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Psixologlarning fikricha, o'smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatining mahsuli deb qarash mumkin emas, chunki o'sishning biologik va psixologik qonuniyatlarini inkor qilishga haqqimiz yo'q. Shuningdek, o'smirlik davrining muayyan hech o'zgarmas xususiyati xarakteristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarga ta'siri bilan, ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin. [1. 143]

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda aynan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun tizimlashtirilgan hamda takomillashtirilgan psixologik mashg'ulotlar dasturi kam hollarda uchraydi. Biz yuqorida o'smir yoshidagi mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari xulq-atvorini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganib, ularda ijobiy xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan psixologik trening hamda salbiy xulq-atvorni me'yorlashtirishga qaratilgan psixologik korreksiya mashg'ulotlari takomillashtirildi hamda ishlab chiqildi. Ushbu ishlab chiqilgan psixologik trening va korreksion mashg'ulotlar dasturi tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy muhitga ijobiy tarzda moslashuvini ta'minlash bosqichi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

V.M. Karimova o'z ilmiy tadqiqot ishlarida o'zbek xalqining milliy an'analari, qadriyatlari hamda etnopsixologik xususiyatlarini o'rganish bilan bir qatorda yoshlarning xulq-atvori shakllanishidagi ularning ahmiyatli jihatlari haqida atroflicha to'xtalib o'tganligini ko'ramiz. Bolalar xulq-atvorining shakllanishi ko'p jihatdan oila tarbiyasiga bog'liqligi, keyinchalik bolaga tarbiyaviy ta'sir etadigan atrof-ijtimoiy muhitga, eng muhimi, uning motivatsion yo'nalganligiga bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. Shunga ko'ra, bolaga tarbiyaviy ta'sir etishning oila, maktab va jamoatchilik hamkorligidan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqligi alohida ta'kidlangan. [2. 49]

Ta'kidlash joizki, oila ijtimoiy institut sifatida o'zining barcha vazifalarini bajargan taqdirdagina, mafkuraviy tarbiyaning kafolatli o'chog'iga aylanadi. Zero, har bir oilaning muqaddas vazifasi - qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat.

G.K. To'laganova «tarbiyasi qiyin» o'smirlarning patoxarakterologik xususiyatlari" mavzusida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Zero, "tarbiyasi qiyin" o'smirlar shaxsi shakllanishining sharoit va maqsadga yo'nalgan omillarini o'rganish faqat uning shaxsining deformatsiyalangan tuzilmasini psixokorreksiya qilish yo'llarini aniqlab qolmasdan, balki o'smir shaxsi shakllanishi muammosini psixologik hal qilish mumkin bo'lgan modellarini yaratish imkoniyatini beradi. Ayni vaqtda o'smirlar xarakteridagi muvaqqat o'zgarishlari psixoprofilaktikasi "tarbiyasi qiyin" o'smirlarni qayta tarbiyalash metodlarini tatbiq qilish bu muammoning yechilishiga yordam beradi. [3. 12]

R.I. Sunnatova «Fikrlash faoliyatining individual-tipologik xususiyatlari» mavzusida olib borgan ilmiy izlanishlarida shaxs individual xususiyatlari, jumladan, fikrlashning mantiqiyligi, shakllanganlik darajasi, o'zini o'zi baholashning konstruktiv-destruktivligi, shaxslararo o'zaro ta'sirda nizolashuvchanlik-komformlik, subyektning qaror qabul qilishda mustaqil yoki mustaqil emasligi kabi xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqot ishida boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilari hamda talabalarning o'zini o'zi boshqarish jarayonidagi fikrlash faoliyatiga xos xususiyatlar aniqlangan. Olima o'zini o'zi boshqarish jarayonlarining fikrlash faoliyatiga ta'sir etish xususiyatlarini quyidagicha izohlagan: bir tomondan, o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish jarayonlarida qator o'zgarishlar mavjudligi ko'zga tashlanadi, ikkinchi tomondan, o'quvchilarda o'quv faoliyatiga nisbatan qiziqishning ortib borishi hamda o'zini o'zi boshqarish jarayonida bilim olishga nisbatan yangicha qarashlarning shakllanganligi ham ko'rinadi. Shuningdek, o'quvchilar o'zini o'zi boshqarish jarayonida o'zini tarbiyalash va o'z qobiliyatlarini takomillashtirishga harakat qilganliklari ham kuzatiladi. [4. 81]

Shunday qilib, mamlakatimiz psixologlari ham tafakkur jarayoni bo'yicha olib borayotgan izlanishlarida, eng avvalo, fikrlashning anglanganlik va ijtimoiylik tamoyillarga ko'proq e'tibor

qaratgan holda mustaqil, erkin fikrlay olish qobiliyati ijtimoiy munosabatlarga bog'liqligiga e'tibor bermoqdalar va bu xulosa diqqatga sazovordir.

A.A. Fayzullayev ilmiy tadqiqotlarida shaxsning motivatsion o'zini o'zi boshqarishning turli omillari aniqlangan va tahlil etilgan. Bu omillar shaxs motivatsiyasining xususiyatlariga, motivatsion boshqarishni amalga oshirish usullari va natijalariga tegishlidir. Bundan tashqari, uning ishlarida motivatsion tuzilmalarning shaxs tomonidan obyektivlashtirilishi va motivatsion boshqaruvning turli psixologik strategiya hamda usullari aniqlab berilgan. Tadqiqotda shaxsning hayot faoliyatida motivatsion o'zini o'zi boshqarishning boshqa bir qator sohalari ham o'rganilgan. A.A. Fayzullayev o'z tadqiqotlarida motivatsion jarayonni bosqichma-bosqich tahlil qilishni taklif etgan. Olim bu jarayonni beshta bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq ekanligini alohida ta'kidlagan [5. 231].

K.Y. Baxronova o'zining "Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xulq-atvor buzilishlari namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» mavzusidagi ilmiy tadqiqotida quyidagilar tadqiq etilgan: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning xulq-atvor buzilishlarga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar aniqlangan; kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xulq-atvoridagi buzilishlarni korreksiya qilishga mo'ljallangan psixologik treninglar ishlab chiqilgan [6. 35].

Mamlakatimiz olimlari tomonidan shaxs kamoloti va ijtimoiy guruhlarning psixologik barqarorligi masalalari, shaxsning hissiy holati, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar yetuk shaxsni har tomonlama tarbiyalashda amaliy ahamiyat kasb etadi va tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Tahlil va natijalar. Barcha davrlarda, barcha xalqlarda insoniyat va jamiyatning asosiy boyligi, qadriyati sifatida jismoniy va ruhiy salomatligi tan olingan. Qadimdanoq jismoniy va ruhiy salomatlik tabiblar va faylasuflar tomonidan insonning erkin faoliyat yuritishi hamda kamolotining asosiy sharti sifatida tushunilgan.

1-jadval

HSPQ so'rovnomasi omillarining texnik nomlanishi

Omillar	Ijobiy qutb	Salbiy qutb
A	Adekvatlilik	noadekvatlilik
B	Yuqori intellekt	Past intellekt
C	«Men»ning kuchi	«Men»ning zaifligi
D	Qo'zg'aluvchanlik	Rigidlik
E	Dominantlik	Konformlik
F	Surgensiya	Desurgensiya
G	«Yuqori-Men»ning kuchi	«Yuqori-Men»ning zaifligi
H	Dadillik	Qat'iyatsizlik
I	Ko'ngilchanlik	Qo'pollik
J	Ishonuvchanlik	Gumonsirovchanlik (protensiya)
O	Xotirjamlik	Xavotirlilik
Q2	Mustaqillik	Tobelik
Q3	o'zini nazorat qilish	O'zini nazorat qila olmaslik
Q4	Frustratsiyalashganlik	Frustratsiyalashmaganlik

Sinaluvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashganligi tadqiq etish maqsadida 1954-yil F.K. Rodjers va R. Daymond tomonidan ishlab chiqilgan «Ijtimoiy-psixologik moslashganlik shkalasi» (IPM) so'rovnomasidan foydalanildi. Mazkur so'rovnoma ommaviy maktabdagi "tarbiyasi og'ir bolalar»ning emotsiya va xulq-atvor sohasidagi buzilishlarini o'rganish uchun (V.A. Murzenko, 1977), maktab adaptatsiyasi – dezadaptatsiyasining ko'rsatkichi sifatida boshlang'ich ta'limdan o'rta ta'limga o'tishdagi qiyinchiliklarni o'rganish uchun (A.M. Prixojan 1984), ixtisoslashtirilgan maktabdagi ta'limning murakkablashgan shakllariga moslashish jarayonida o'smirlarda o'z-o'zini anglashning shakllanishiga xos xususiyatlarni o'rganish uchun (T.V. Snegireva 1978), o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari sharoitiga moslashishning individual xususiyatlarini o'rganish uchun (A.K. Osnitskiy, 1992) o'quvchilarning turli guruhlarida sinab ko'rilgan. «O'lchov asbobi sifatida

IPM shkalasi nafaqat maktab adaptatsiyasi – dezadaptatsiyasi, balki o'quvchini o'z-o'ziga, o'z imkoniyatlariga baho berishga undashiga xos qayta ko'rib chiqishga undovchi o'quvchining o'zi haqidagi tasavvurlari, uning murakkab yosh davrlari va murakkab vaziyatlarda qayta qurishni ham tashxislash ancha yuqori differensiatsiyalash qobiliyatiga ega» [7. 91].

Bolaning muayyan ijtimoiy rol haqidagi g'oyalarini shakllantirish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Ota-onasidan mahrum bo'lgan bolalarda bunday g'oyalar ko'pincha buziladi. Ularning individual xususiyatlariga qarab, muayyan rolni amalga oshirish bo'yicha o'z imidjlarini yaratadilar. Bola uchun normal aloqalarning yo'qligi (oila, ko'chadagi do'stlar, qo'shnilar va boshqalar.) rol obrazining bola tomonidan turli manbaalardan olingan ziddiyatli ma'lumotlar asosida yaratilishiga olib keladi. Ko'pincha, ijtimoiy rollar haqidagi axborot manbai ommaviy axborot vositalari va tengdoshlarining fikridir. Shu munosabat bilan ko'pincha ijtimoiy rolning illyustrativ "qiyofasi» paydo bo'ladi. Bu nafaqat oila a'zolarining rollariga, balki boshqa rollarga va ular bilan muloqotda bo'lganlarga ham tegishli. Ota-onasidan mahrum bo'lgan shaxs sifatida ularning ijtimoiy roli haqida soxta g'oya shakllanadi. Bu rolni inson hayoti davomida amalga oshirishi kerak.

Biroq ayni paytda metodikaning turli mahalliy variantlari yordamida olinadigan ko'rsatkichlar yetarlicha me'yorlashtirilmaganligi hamda so'rovnomadagi hukmlar bilan ular nisbatlangan shkalalar o'rtasida qat'iy aloqadorlik yetarlicha emasligini ta'kidlash kerak. Ushbu holat bizni so'rovnomani tahrirlash va mahalliy sharoitga moslashtirish uchun qo'shimcha ish olib borishga undadi. Metodikadan foydalanish jarayoni shuni ko'rsatdiki, u asosan o'smirlar va o'spirinlar uchun mo'ljallangan. Biroq u kichik o'smirlar bilan ishlashda ham samara berishi mumkin.

Yuqoridagi mulohazalardan shu narsa ko'rinib turibdiki, yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar sog'ligini mustahkamlash, zamon talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya berish, ular ongida mehnat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, jismoniy kamol topishlari uchun sharoitlar yaratish, oilaviy hayotga tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning oila va oilaviy hayot munosabatlari haqida bilim darajasini takomillashtirish, bir so'z bilan aytganda, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini barkamol shaxslar bo'lib yetishishlari va hayotda o'z o'rnini topishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari xulq-atvori shakllanishi xususiyatlarini ota-onasi bor bo'lgan bolalar xulq-atvor shakllanishi xususiyatlari bilan qiyoslaganda muayyan darajadagi farqlarni kuzatish mumkin. Bunga bevosita ta'sir etuvchi bir qator omillar, jumladan, muloqotchanlikning past darajasi, emotsiyalarni boshqarish va nazorat qilishdagi beqarorlik, yuqori impulsivlik, nizolilik va dominantlikning yuqori darajasi, notinchlik, qo'llab-quvvatlash, yordamga muhtojlik va ta'sirchanlik, xavotirlanish, frustratsiyalashganlikning yuqori darajasi, kayfiyat tushkunligining ustuvorligi kabilarni alohida qayd etish mumkin.

Xulq-atvor shakllanishida og'ishishlar bo'lgan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari o'z atrofiga ijtimoiy moslashishning past darajasi, kayfiyatning xavotirli-depressiv ko'rinishidagi ustuvorlik va agressiyaning ochiq namoyon qilinishi ko'proq kuzatilsa, ota-onasi mavjud bo'lgan bolalarda esa asosan o'z-o'zini adekvat idora qilishga intilish, yuzaga kelgan muammolar yechimini izlashdagi mas'ullik hissi yanada yaqqolroq ifodalanishi kuzatildi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Лисина М.И. Проблемы онтогенеза общения. – М.: Педагогика, 1986., 143с.
2. Каримова В.М. Ёшларда ўзбек оиласи тўғрисидаги ижтимоий тасаввурлар: Психол. фан. док. ... дисс. Тошкент, 1994. – Б. 309.
3. Тўлаганова Г.К. Тарбияси қийин ўсмирлар. –Тошкент: Университет, 2005. –12 бет.
4. Суннатова Р.И. "Фикрлаш фаолиятининг индивидуал-типологик хусусиятлари" 81- б
5. Файзуллаев А.А. Мотивационная саморегуляция личности. – Т.: Фан, 1987. – 231 с.
6. Бахронова К.Я. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда хулқ-атвор бузилишлари намоён этилишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: психол. фанл.номз. …дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 35 б.
7. Снегирева Т.В. Психодиагностика. Учебник . М.: - 2016. 344с., 91б.

UDK: 152.26.(021)

Abduqahhorova Shahnoza Abdurasul qizi
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti
Pedagogika va o'qitish metodikasi kafedrasi v.b.dotsenti, psi.f.f.d (PhD)
E-mail:shaxnozaabduqaxorova86@gmail.com

ESHITISHDA NUQSONI BOR O'SMIR O'QUVCHILARDA EMOTSIONAL-FRUSTRATSION XUSUSIYATLAR NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada eshitishda nuqsoni bor o'smir o'quvchilarda emotsional-frustratsion xususiyatlar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari tahlil qilib berilgan. Emotsional-frustratsion xususiyatlar inson xatti – harakatlarini boshqarish va tartibga solishga oid ilmiy tadqiqot ishlari tahlili keltirilgan. Shuningdek, frustratsiya holatida himoya mexanizmining namoyon bo'lishi va emotsional-frustratsion xususiyatlarning guruhlari haqida ma'lumotlar berilgan. Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalari va emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnomalari faktorizatsiyasi natijalari keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *o'smir, emotsional-frustratsiya, himoya mexanizm, emotsional intellekt, emotsional holatlar, muloqotda o'zini nazorat qilish, his-tuyg'ularini anglash, intellektning integral ko'rsatkichi.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ФРУСТРАЦИОННЫХ ЧЕРТ У УЧАЩИХСЯ-ПОДРОСТКОВ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА

Аннотация. *В статье проанализированы психологические особенности проявления эмоционально-фрустрационных черт у учащихся-подростков с нарушениями слуха. Эмоционально-фрустрационные свойства представлен анализ научно – исследовательских работ по управлению и регуляции поведения человека. Также приводятся данные о проявлении защитного механизма в случае фрустрации и группах эмоционально-фрустрационных свойств. Приведены результаты анкетирования на выявление особенностей самоконтроля в эмоциональных состояниях и результаты факторизации анкет эмоционального интеллекта и самоконтроля в эмоциональных состояниях.*

Ключевые слова: *подросток, эмоциональная фрустрация, защитный механизм, эмоциональный интеллект, эмоциональные состояния, самоконтроль в общении, осознание своих эмоций, интегральный показатель интеллекта.*

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE MANIFESTATION OF EMOTIONAL-FRUSTRATING FEATURES IN ADOLESCENT STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENTS

Annotation. *The article analyzes the psychological characteristics of the manifestation of emotional-frustrating characteristics in adolescent readers with hearing impairments. The analysis of scientific research work on the management and regulation of human behavior of emotional-frustrating properties is presented. Also, in the case of frustration, information is given about the manifestation of the protective mechanism and groups of emotional-frustrating properties. The results of the survey for determining the characteristics of self-control in emotional states and the results of the factorization of emotional intelligence and self-control questionnaires in emotional states have been cited.*

Keywords: *adolescent, emotional-frustration, defense mechanism, emotional intelligence, emotional states, self-control in communication, perception of emotions, integral indicator of intelligence.*

Kirish. Ta'lim-tarbiya ishlari faqatgina sog'lom shaxslar uchungina emas, balki jismoniy salomatligida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun ham ahamiyatli jarayon sanaladi. Garchi, insonning psixik salomatligi hamda uning nuqsonlari qator fanlarning o'rganish ob'ekti bo'lsa-da, biroq tibbiy psixologiya, pedagogik psixologiya, maxsus psixologiya kabi fanlarning ma'lumotlari, psixolog mutaxassislar uchun, alohida ahamiyat kasb etib, ushbu masalada kengroq izlanishlar olib borish nafaqat, jahon afgor ommasi uchun balki, mahalliy psixologiya uchun ham, ahamiyatga ega bo'lgan vazifalardan biri sanaladi.

Eshitishda nuqsoni bor o'quvchilar uchun ham, emotsional-frustratsion sohasi o'ziga xos ahamiyat kasb etib, u hayotiy murakkab vaziyatlarni yengib o'tishga katta yordam beradi. Biroq, jismoniy nuqsoni bor bolalarning emotsional-frustratsion sohasi tashabbuskorlik, o'z harakatlarini nazorat qila olish kabi imkoniyatlardan xoli sanaladi. Bu holat esa, nuqsoni bor o'quvchilarning xulq – atvoriga salbiy ta'sir etadi.

Adabiyotlar tahlili. Barqaror irodaviy sohaning rivojlanishi ontogenetik xarakterga ega bo'lib, uni o'z vaqtida rivojlantirish ishlari maktab ta'limidan boshlanadi. Ayniqsa, kichik maktab yoshi hissiy-irodaviy shakllanishning o'ziga xos davri sanalib, samarali o'quv faoliyatining barcha jihatlari, ushbu ikki soha rivojining o'ziga xosliklari bilan uzviy aloqador hisoblanadi.

O.N.Pervushina o'z asarlarida emotsional-frustratsion xususiyatlar rivojlanishiga alohida e'tibor qaratib, mazkur ikki jarayonni atrof-muhit talablariga reaksiya berish va tartibga solish funksiyalarni bajaruvchi psixik unsurlar sifatida ta'riflaydi [1. 56]. Muallifning mulohazalariga ko'ra, reaksiya berish darajasi yuqori bo'lgan jarayonlar sifatida dastlab kognitiv jarayonlar tan olinsa, ikkinchidan esa, hissiy soha va irodaviy xususiyatlar tan olinadi. A.D.Alferovning xulosalariga ko'ra, kognitiv jarayonlar atrof – muhit ma'lumotlarini o'zlashtirishning eng muhim mexanizmlaridan biri bo'lsa, keyingi holatda esa, emotsional-frustratsion xususiyatlar inson xatti – harakatlarini boshqarish va tartibga solishning yuqori darajadagi tashkil etuvchilaridir [2. 63].

Tadqiqotchilardan L.I.Plaksina, V.Z.Deniskina, V.A.Feoktistovalarning izlanishlari fikrlarimizga yaqqol misol sanaladi. Mualliflarning so'zlariga ko'ra, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning emotsional-frustratsion sohasi rivojlanishida, ayrim o'ziga xosliklar mavjud:

– Boshqalarning hissiy holatini to'liq tushuna olmaslik;

– His-tuyg'ularni noto'g'ri bashorat qilish, his-tuyg'ular haqida bilimlarning yetishmasligi;

– Boshqa odamning ichki hayotini tasvirlay olmaslik;

– Salbiy aks ettirishning turlari tez-tez kuzatiladi (ishonchsizlik, tashvish, impulsivlik) va boshqalar. Shuning uchun ham, maxsus ta'limga muhtoj o'quvchilarning shaxslilik sifatlari, motivatsion sohasi, emotsional-frustratsion xususiyatlari kabilar, o'qitish jarayonida alohida e'tiborga olinishi lozim.

Qoidaga ko'ra esa, sog'lom rivojlanayotgan bolalarda maktabgacha yosh bosqichida normal darajada shakllanadi. Ya'ni affektiv soha, shaxsning boshqa sohalari (aql, iroda va boshqalar) kabilar shular jumlasidandir. Ta'kid joizki, irodaviy sifatlarning shakllanishi ham, bolaning fikrlash faoliyatiga hamda qaror qabul qilish ko'nikmalariga ham keng ta'sir etadi.

Bizningcha, bolaning irodasi uning ongli talablari natijasida rivojlanadi. Ikki yoshdan keyin ta'lim va o'yin ta'sirida bolaning tajribasi ancha ortadi, u o'ylay boshlaydi, fikrlash qobiliyati yanada aniqroq namoyon bo'la boshlaydi. Biroq, bu fikrlash darajasi hali unchalik to'liq mantiqiy emas, u faqat hissiy mazmunda amalga oshadi. Emotsional-frustratsion sifatlar shakllanishini bolalarda ekan Y.O.Smirnova shunday deydi: "Kattalar bolalarga "Borib, olib kel, uy rasmini chiz" kabi topshiriqlarni beradi. Bola kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib, turli harakatlar bilan shug'ullanadi. Hattoki, bolaning taqlid qilish bilan bog'liq harakatlari ham mehnatsevarlik va jasoratlilikni rivojlantiradi" [3. 52]. Muallifning bunday xulosalariga muvofiq, kattalar bergan ko'rsatmalar asosida, bolaning harakatlarida hissiy faollik sodir bo'ladi.

F.N.Gonobolin emotsional-frustratsion xususiyatlar muammosini tadqiq etar ekan, ularni ikki guruhga ajaratadi [4. 66]:

– Birinchi guruh sifatlarga - qat'iyatlilik, jasoratlilik, o'ziga ishonch va mustaqillik kabilar kiradi;

– Ikkinchi guruh sifatlarga - chidamlilik, bardoshlilik, ixtiyoriylik, intizomlilik va tashkilotchilik va hokazo. Bizningcha, muallif qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining ustunligiga qarab, insonning barcha irodali sifatlarini guruhlarga bo'lishni ma'qul topgan. Bundan tashqari, insonlar ba'zi vaziyatlarda faol boshqalarida esa, o'z harakatlarini cheklashga harakat qiladilar.


R.Beron bo'yicha, frustratsiya holatida himoya mexanizmining namoyon bo'lishining uchta darajasi ajratiladi [5. 121]:

– Birinchi daraja, hujayraga ta'sir yoki immunologik o'zgarish, ya'ni himoya fagotsitlari (moddalar), teri antitanachalari va boshqalarning harakatlari bilan xarakterlanadi. Mazkur bosqich infeksiyalar ta'siriga qarshi organizmning himoyalanish jarayonidir:

– Ikkinchi daraja – avtonom daraja yoki B. Kennonning fikricha, "kechiktirib bo'lmaydigan holat". Ikkinchi darajada organizmni jismoniy xavfli omillardan himoya qilish sodir bo'ladi. Psixologik jihatdan bu daraja qo'rquv, azob – uqubat va g'azabga to'g'ri keladi. Fiziologik jihatdan esa, bu stressda sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan tavsiflanadi.

– Uchinchi daraja – miya markazlaridagi faollik jarayoni yoki frustratsiyaga tushgan organizmning psixologik himoyaga nisbatan yuqori darajada intilish bosqichidir. Aynan shu daraja organizmni psixologik xavfdan, psixologik agressiyadan himoya qiladi.

Tahlil va natijalar. Muvaffaqqiyatsizlik va murakkab sharoitlar har bir inson doimiy hayot sharti sifatida bo'lsada, biroq uni yengib o'tish yoki unga taslim bo'lishda insonlar farqlanadilar. Shu bois, o'tgan asrda psixologiya faniga emotsional-frustratsion xususiyatlar tushunchasi kirib keldi. Ayniqsa, zamonaviy tadqiqotchilar bu masalaga ko'proq e'tibor qaratishni ta'kidlamoqdalar. Emotsional-frustratsion xususiyatlar muammosiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarning tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, hayotiy mavjud vaziyatlarning noaniqligi, inson uchun haqiqiy vaziyatli ko'rinishda bo'lib, inson ushbu vaziyatlarda yechim topishga harakat qiladi. Ba'zilar tezda buning uddasidan chiqsa, ba'zilar muammoning yechimiga yo'l topa olmaydi. Chunki, ularda hayotiy resurslar ya'ni intellekt, ko'nikma va malaka, sog'liq va shart-sharoitlar yetishmaydi. Boshqalarda esa, ushbu resusrlar mavjud bo'lgani bois, ular stressli vaziyatlar va qiyin holatlardan tezda chiqib keta oladilar.



1-rasm. Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalari

Umuman olganda, eshitishda nuqsoni bor bolalarni psixik imkoniyatlarini tadqiq etish, tendensiyaviy yo'nalishda amalga oshirilgan bo'lib, unga ko'ra, eshitishda nuqsoni bor bolalar, ko'rishda nuqsoni bor bolalar, serebral falaj nuqsonli bolalar, nevrotik moyilligi bor bolalar, psixotik moyilligi bor bolalar, depressiyaga moyil bolalar, psixotik moyilligi bor va neyrotizm darajasi past bo'lgan bolalar kabi turlarga bo'linib o'rganiladi.

Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish xususiyatlari darajasi so'rovnomasi bo'yicha birinchi shkala emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish 79,3 natijani Qarshi shahridagi imkoniyati cheklangan maktabi, 72,63 ko'rsatkichni Samarqand shahridagi imkoniyati cheklangan maktabi hamda 82,9 Toshkent shahridagi imkoniyati cheklangan maktablarida tahsil oluvchi o'smir o'quvchilarda namoyon qilgan.

Muloqotda o'zini nazorat qilish shkalasi bo'yicha 56,48 natijani Qarshi shahridagi imkoniyati cheklangan maktabi, 68,72 ko'rsatkichni Samarqand shahridagi imkoniyati cheklangan maktabi hamda 73,86 Toshkent shahridagi imkoniyati cheklangan maktablarida tahsil oluvchi o'smir o'quvchilarda aks ettirgan.

Ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish shkalasiga ko'ra, 74,75 natijani Qarshi shahridagi imkoniyati cheklangan maktabi, 65,28 ko'rsatkichni Samarqand shahridagi imkoniyati cheklangan maktabi hamda 70,42 Toshkent shahridagi imkoniyati cheklangan maktablarida tahsil oluvchi o'smir o'quvchilarda aks ettirgan.

Har bir nuqsoni bor tug'ilgan bolaning xususiyatlarini aniqlash uchun, qator yo'nalishlarda fanlararo tadqiqotlar, ilmiy kuzatuvlar olib borilmoqda. Qolaversa, xulq-atvori va his-tuyg'ulariga qarab, psixologlar va o'qituvchilar bolalarni ijtimoiy hayot va ularning vazifalari, maktab muhiti va uning talablari bilan asta-sekin tanishtira boshlaydilar.

Keyingi jadvalda eshitishda nuqsoni bo'lgan o'smirlarning emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnomalari bo'yicha olingan natijalari qayd etilgan.

1-jadval

Emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnomalari faktorizatsiyasi

Shkalalar	Faktorlar	
	1	2
O'z his-tuyg'ularini anglash		0,744
O'z his-tuyg'ularini boshqarish		0,587
Boshqalarning his-tuyg'ularini anglash		0,522
Boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish	0,676	
Emotsional intellektning ichki shaxsiy jihati		0,597
Emotsional intellektning shaxslararo jihati	0,746	
Emotsional intellektning integral ko'rsatkichi		0,648
Emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish		0,630
Muloqotda o'zini nazorat qilish	0,784	
Ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish		0,588

Faktorli analiz mezoniga ko'ra, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'smir o'quvchilarda emotsional-frustratsion xususiyatlarni aniqlashda emotsional intellekt va emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish so'rovnomalaridan foydalandik. Quyida ularning ko'rsatkichlarini ikki faktorga birlashgan natijalardan bilish imkoniga ega bo'lamiz (3.4-jadval).

Birinchi faktorga kirgan ta'kidlar: boshqalarning his-tuyg'ularini boshqarish (0.676), emotsional intellektning shaxslararo jihati (0.746) va muloqotda o'zini nazorat qilish (0.784). Ushbu faktorni (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: emotsional faollik deb nomladik.

Ikkinchi faktordan quyidagi mulohazalar o'rin oldi: o'z his-tuyg'ularini anglash (0.744), o'z his-tuyg'ularini boshqarish (587), boshqalarning his-tuyg'ularini anglash (0.522), emotsional

intellektning ichki shaxsiy jihati (0.597), emotsional intellektning integral ko'rsatkichi (0.648), emotsional holatlarda o'zini nazorat qilish (0.630) va ijtimoiylashuvda o'zini nazorat qilish (0.588). Ushbu faktorni esa (faktorga kiritilgan mulohazalarga ko'ra), shartli ravishda: emotsional munosabatlarga kirishish shkalasi deb nomlashni lozim topdik.

Xulosa. Eshitishda nuqsoni bor o'smirlarning emotsional-frustratsion xususiyatlariga xos bo'lgan xususiyatlar sifatida o'zini izolyatsiya qilish, kutilmagan tajovuzkorlik, agressiyaga moyillik, o'z xulq-atvorini boshqara olmaslik, nochorlik, qo'rquv hissi, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishdagi qiyinchiliklar, yuz ishoralari va pantomimika va jestlarni ajrata olmaslik kabilar xarakterli hisoblanadi. Eshitishida nuqsoni bor o'smirlarda emotsional holatlar bilan frustratsion vaziyatlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik aks etib, o'zi va o'zga insonlar kechinmalarini sezish, o'zi va boshlarning his-tuyg'ularini boshqara olish, hissiy empatiya, emotsional intellekt va tangli emotsional vaziyatlarda o'zini boshqarish kabi omillar quyilashgan sari, ularda emotsional xususiyatlar salbiy jihatdan, frustratsion vaziyatlar esa ijobiy jihatdan shakllanishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Первушина О.Н. Психология развития и возрастная психология: Методические указания / О.Н. Первушина. - Новосибирск: Научно-учебный центр психологии НГУ, 2009. – С.56.

2. Алферов А.Д. Психология развития школьников: Учебное пособие для вузов. - Ростов-на-Дону,2010. – С.63.

3. Смирнова Е. О. Развитие воли и произвольности у детей дошкольного возраста: Детская психология / Е. О. Смирнова. - М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2006. – С.52.

4. Гоноболин Ф.Н. Психология - М: Просвещение, вт. изд. Образование.2008. – С.66.

5. Бэрон Р. Агрессия / Р. Бэрон, Д. Ричардсон. СПб: Питер, 2001. – С.121.

Alijonov Nurbek Ulug'bek o'g'li
Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

TYUTORLARNING KOMMUNIKATIV VA INTERAKTIV XUSUSIYATLARI ZAMONAVIY TA'LIMDA AHAMIYATI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Annotasiya. *Ushbu maqolada tyutorning kommunikativ va interaktiv xususyatlari boshqaruv faoliyatida tashkilotchilik qobiliyatining mukammal rivojlanganligi, o'z faoliyatini rejalashtirish, guruhda vazifalarni to'g'ri taqsimlash, uning bajarilishini nazorat qilish, mas'uliyatni taqsimlash va murakkab favqulodda vaziyatni o'z vaqtida boshqarish imkonini berishi isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *tyutor, individual, emosional intellekt, insoniylik, adolat, mehnatsevarlik.*

КОММУНИКАТИВНЫЕ И ИНТЕРАКТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЬЮТОРОВ: ИХ ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В данной статье доказано, что коммуникативные и интерактивные особенности тьютора, включающие отлично развитые организаторские способности в управленческой деятельности, позволяют ему планировать свою деятельность, правильно распределять задачи в группе, контролировать их выполнение, распределять ответственность и своевременно управлять сложными чрезвычайными ситуациями.*

Ключевые слова*: тьютор, индивидуальный, эмоциональный интеллект, человечность, справедливость, трудолюбие.*

COMMUNICATIVE AND INTERACTIVE CHARACTERISTICS OF TUTORS: THEIR SIGNIFICANCE IN MODERN EDUCATION AND DIRECTIONS FOR DEVELOPMENT

Abstract. *This article demonstrates that the communicative and interactive qualities of a tutor enable the perfect development of organizational abilities in management activities. These qualities allow for effective planning of one's activities, proper distribution of tasks within the group, monitoring of task implementation, allocation of responsibilities, and timely management of complex emergency situations.*

Keywords*: tutor, individual, emotional intelligence, humanity, justice, diligence.*

Ta'lim islohotining jadal rivojlanayotgan jarayoni jamiyat hayotining ko'plab sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ta'lim oluvchining individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, uning o'zini-o'zi anglash va o'zlashtirish jarayonida faol subyekt sifatida shakllanishini ta'minlashga qaratilgan. Bunday yondashuvda tyutorlik faoliyati muhim o'rin egallaydi. Tyutorlar–bu talaba yoki o'quvchini mustaqil ta'lim jarayonida yo'naltiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlanishiga ko'mak beruvchi mutaxassislardir. Tyutorlik faoliyati o'ziga xos kompetensiyalarni talab etadi, ularning ichida ayniqsa kommunikativ va interaktiv xususiyatlar alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada tyutorlarning kommunikativ va interaktiv xususiyatlari, ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek bu kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tyutorlik yordami - bu ta'limni individuallashtirish bo'yicha pedagogik faoliyat bo'lib, u o'quvchining ta'lim motivlari va qiziqishlarini aniqlash hamda rivojlantirish, individual ta'lim dasturini yaratish uchun ta'lim resurslarini izlash, oilaning ta'lim buyurtmasi bilan ishlash, shuningdek o'quvchining o'quv va ta'lim refleksiyasini shakllantirishga qaratilgan. Respublikamiz oliy ta'lim tizimida endigina paydo bo'lgan tyutorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat.

1.Tyutor — talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishiga ko'maklashuvchi inson bo'lib, u yigit-qizlarni kasbga yo'naltirish, vatanga muhabbat

ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to'garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o'rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug'ullanadi.

2.Tyutorlarning asosiy maqsadi — ta'lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda universitet va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, talabalarning universitet hayoti va ta'lim jarayoniga moslashishiga ko'maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish va talabalarda tanlagan kasbiga muhabbatni oshirishdir. Shu bilan birga ular yigit-qizlarning dars mashg'ulotlarini muntazam tahlil qilib boradi va sifatini oshiradi, ularning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy ahvolidan doimiy xabardor bo'lib turadi.

3.Tyutorlar ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-tarbiya, o'quv va o'quv-uslubiy hamda ilm-fan, innovatsion va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida o'z faoliyatini olib boradi.

4. Har bir tyutor o'ziga biriktirilgan guruh talabalarini besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to'garaklarga jalb etib boradi hamda ularning ijodiy qobiliyati va iste'dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta'lim olishi, ilm bilan shug'ullanishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashadi va bu boradagi yangiliklardan xabardor qilib boradi.


5. Talabalarning o'quv intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, halollik, to'g'ri so'zlik kabi xislatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni yo'lga qo'yadi. Iqtidorli va iste'dodli talabalarni aniqlab, ularning turli tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga hamda talabalarning loyiha va startaplarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

6.Talabalarning darslarni o'zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta'minlash va ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishi uchun zamin yaratadi.

7.Tyutorlar talabalarni o'ylantiradigan qator masalalar, xususan, talabalarni turar joy bilan ta'minlash, qoldirilgan darslarni o'zlashtirishiga yordam berib boradi.

8. Har bir tyutor o'ziga biriktilgan akademik guruhlarning darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, TTJga joylashishi uchun e'lon berish va bu boradagi komissiya yig'ilishida talabaning ishtirokini ta'minlash, talabaga tavsifnoma va akademik ta'til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag'batlantirilishi yoki jazolanishi, turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega.

9.Har bir tyutor talabalarning sha'ni va qadr-qimmatini, obro'sini hurmat qilish, ularning jismoniy, ruhiy va psixologik holatidan muntazam xabardor bo'lish, o'quv, ma'naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borish, yigit-qizlarning darslarda ishtirokini nazorat qilish, yoshlarning ota-onalari va o'zi bilan doimiy muloqot qilib borishga majburdir.




1-diagramma “Tyutorning kommunikativ va interaktiv xususyatlarini” Andijon OTMlarning natijalari

O’zbekiston oliy ta’lim tizimida tyutorlik 2020 yillardan boshlab faol joriy qilinmoqda. Biroq ko’plab universitetlarda bu rol aniq belgilab berilmagani yoki samarali mexanizmlar yo’qligi sababli bu tizim biryoqlamalikni ko’rsatmoqda.

Tadqiqotimizda mualliflik so’rovnomasidan foydalanib tyutorlarning komunikativ va interaktiv xususiyatlarini aniqlash maqsadida Andijon hududidagi OTM da o’tkazishni maqsad qilib oldik. Ularga “Sizningcha oliy ta’limda talabalar nazorati faqat tyutorlariga biriktirilishi adolatlimi?” deb berilgan savolimizga ularning 30 nafari “ha” deb javob berishgan. Unga ko’ra ularda o’zlarida o’quv jarayonidagi muammolarni aniqlashda talabalarning to’la ma’sulligini olishda, shaxsiy yondashuvlarda hamda individual yondashuvlarda ularning ma’sulligi oshirishligi isbotlandi.

Ushbu savolga 3 nafar respondentlar “yo’q” degan javobni berib o’tishdi. Unga ko’ra ulardagi yuklamalarning haddan ortiq bo’lishi, bir tyutor o’nlab talabaga mas’ul bo’lsa, sifatli individual yondashuv yo’qolishi, fan o’qituvchilari roli cheklab qo’yiladi ya’ni talabaning kundalik darslardagi faoliyatini bevosita kuzatib boruvchi ustozlar nazorat jarayonidan chetda qolishligi, muammolarning kech aniqlanishi, har bir sohada malaka va bilimga ega bo’lmagan tyutor ayrim muammolarni o’z vaqtida sezmasligi mumkinligi, boshqa mutaxassislar (psixolog, dekanat, murabbiy) ishtirokisiz nazorat chegaralangan bo’lishligi aniqlandi.

Navbatdagi 10 nafar tyutor ushbu savolga “ba’zan” deb javob berishdi. Unga ko’ra oliy ta’limdagi ba’zi ma’salalar va adoldatsizlikning yuzaga kelishi tizimdagi ilmiy amaliy va ijtimoiy yondashuvlar, shaxslarga nisbatan teng imkoniyatlarning bermasligi, tanlovlarda shaffoflikning yo’qligi, nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir qilinishi isbotlandi.



2-diagramma “Tyutorning kommunikativ va interaktiv xususyatlarini” Farg’ona OTMlarning natijalari

Farg’ona hududidagi OTM larning 53 nafar tyutorlarda ushbu so’rovnoma bo’yicha tahlil qilinganda ularning 35 nafari ushbu savolga “ha” degan javobni aytishb o’tishdi. Unga ko’ra ularning o’z ishlarida qoniqishning mavjudligi, talabalar bilan komunikativ munosabatning to’g’ri yo’lga qo’yilganligi, mustaqil qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlik, Oliy ta’limda o’z manfaatlari va mavqelarni egallashlari bunga sabab bo’lishligi aniqlandi.

Kiyingi 10 nafar respondentlar “yo’q” degan javobni berib o’tishdi. Unga ko’ra tanlov va qabul jarayonidagi adolatsizliklar, talabalarga munosabatdagi adolatsizlik, ish haqqi va taqdirlashdagi shaffoflikning yetishmasligi, professor-o’qituvchilar va tyutorlar o’rtasida hamkorlikning yo’lga qo’yilmaganligi isbotlandi.

Ushbu savolga 8 nafar tyutorlar bu savolga “ba’zan” degan javobni berib o’tishdi. Unga ko’ra ularda ba’zan erkinlikning yetishmasligi, komunikativ munosabatlarning yetishmasligi, qarorlarni qabul qilishlarida mustaqil hal qilolmaslik, muammolarni tez hal qilish qobiliyatining yo’qligi bunga sabab bo’lishi mumkinligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytish lozimki, Oliy ta’limda tyutorlikning joriy qilinishi qaysidir tomondan professor-o’qituvchilarning ishlarining yengillashiga talabalar bilan aloqa o’rnatishlariga ko’makchi vazifasini bajardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Azizxo’jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.
2. G’ulomov S.S., Raxmonov A.S. Pedagogika asoslari. – T.: TDPU, 2019.
3. Khutorskoy A.V. Тьюторство в образовании. – Moskva: NP "Evropa", 2017.
4. UNESCO. *Teachers and Educational Technologies: Modern Standards*, 2020.
5. Mavzuga oid maqolalar va ilmiy jurnallar (2020–2024 yillar).

Baykunusova Gulmira Yuldibayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc) Toshkent davlat pedagogika universiteti,
"Amaliy psixologiya" kafedrasi professori
E-mail: g.n.baykunusova@gmail.com

JAMIYATDA SHAXSDA HASAD RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hasad hissining jamiyatdagi ijtimoiy muhit, qadriyatlar tizimi va shaxsning individualligi bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilinadi. Hasadning shakllanish bosqichlari, uning psixologik va ijtimoiy omillari, hamda yosh, jins, tarbiya kabi faktorlarga bog'liq holda namoyon bo'lishi o'rganiladi. Maqolada jamiyatda hasadning oldini olish va uni ijobiy raqobatga aylantirish bo'yicha tavsiyalar ham beriladi.*

Kalit so'zlar: *hasad, shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy muhit, qadriyatlar, psixologik omillar, raqobat, emotsional holat.*

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЗАВИСТИ У ЛИЧНОСТИ В ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности формирования зависти у личности в контексте общественной среды. Анализируются социальные и психологические факторы, влияющие на развитие зависти, а также проявления этого чувства в зависимости от возраста, пола и воспитания. Отдельное внимание уделяется возможностям трансформации зависти в конструктивную мотивацию и профилактическим мерам.*

Ключевые слова: *зависть, личностные особенности, социальная среда, ценности, психологические факторы, конкуренция, эмоциональное состояние.*

PECULIARITIES OF ENVY DEVELOPMENT IN AN INDIVIDUAL WITHIN SOCIETY

Abstract. *This article explores the development of envy in individuals within the context of societal influences. It examines the psychological and social factors contributing to the emergence of envy, considering variables such as age, gender, and upbringing. The article also provides recommendations on transforming envy into constructive motivation and preventing its negative manifestations.*

Keywords: *envy, personality traits, social environment, values, psychological factors, competition, emotional state.*

Kirish. Havas va hasad muammosi bo'yicha zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarni tahlil qilishdan ma'lum bo'lishicha, hozirgi vaqtgacha ilmiy adabiyotlarda ushbu fenomenning tabiati inson psixikasidagi o'rni haqida qarama-qarshi fikrlar mavjud.

Birinchidan, tadqiqotchilarning yondashuviga bog'liq ravishda havas va hasad "hissiyot", "ehtiros", "destruktiv munosabat", "muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining namoyon bo'lishi", "shaxs xislati" sifatida talqin etilgan .

Ikkinchidan, hasadning ijtimoiy-psixologik fenomenini tushunishda yagona yondashuvning mavjud emasligi, tadqiqotchilarning havas va hasad mohiyatini tushunishda "qarama-qarshi qutbli" munosabatlari bilan bog'liqdir.

Ko'p bolali oilalarda hasad hissining mavjudligi hozirgi kunda oddiy holat hisoblanadi. Bunga ota-onaning farzandlariga noadekvat munosabati sabab bo'ladi. D. Kluger "Sibling effekti" nomli kitobida, "Har bir ota-onada farzandlari orasida suyuklisi bo'ladi (bu yerda ko'p farzandli oilalar haqida)" degan fikrni aytib o'tgan. Lekin ko'pchilik ota-onalar buni tan olmaydilar. Buning sababi bir nechta.

Birinchidan, ota-ona e'tibordan kamroq farzandining dilini og'ritgisi kelmaydi. Ikkinchidan, jamiyat bunday ota-onalar ustidan hukm chiqarishidan qo'rqishdir. Olimlarning fikricha, ota-onalardagi favoritizm – insoniyat tabiatining ajralmas qismidir. Evolutsion-psixologik nazariyaga muvofiq, bunday xulq-atvor avlodni davom ettirish instikti bilan shartlangandir. Har bir insoniy juftlik dunyoga nafaqat yashab qoluvchi, balki avlodni davom ettiruvchi sog'lom nasl qoldirishi kerak bo'lgan. Bundan kelib chiqib, ota-onalar insoniyatning kelajagi sifatida eng sog'lom va kuchli farzandni afzal ko'rishgan. Oilada farzandlar o'rtasidagi dushmanlik va hasadning yana bir sababi, har birining o'z hayotini aniqlashtirib olmagani bilan bog'liqdir. Bunda ular bir-birlarini hayotining mazmuni, baxtini, e'tiborini tortib olganlikda ayblayveradi. Farzandlarga ota-onaning tanlovchanlik motivi noma'lum bo'ladi [5].

Xorij olimlarining tadqiqotlarini nazariy tahlil qilish natijasida ularda asosan shaxsdagi hasad hissini psixologik jihatdan talqin qilishga urinishlar mavjudligini aniqladik. Klassik psixologiya vakillaridan tortib to zamonaviy psixologiyaning tadqiqot predmeti sifatidagi ta'rif va tasniflar asosan hasad hissiga umumiy yo'nalganligi bilan farqlanadi.

Psixologiyada uchraydigan havas va hasadning asosiy ta'riflari quyidagicha:

1. "Havas – odamda boshqa birov ega bo'lgan narsaning o'zida ham bo'lishiga intilishi natijasida vujudga keladigan hisdir. Ba'zan hasad o'zga insonni ko'ra olmaslikda namoyon bo'ladi".

2. "Hasad – inson uchun ahamiyatli bo'lgan sohalarda boshqalarning ustunligiga nisbatan subyektiv munosabat bo'lib, salbiy hissiyotlar kompleksida, o'z- o'ziga bahoning pasayishi va o'zganing ustunligini yo'qotish istagida namoyon bo'ladi" .

3. "Hasad – bu boshqa insonda mavjud predmetga ega bo'lishni kuchli istash vaqtida vujudga keladigan dushmanlarcha ko'ra olmaslik hissidir. Ushbu predmet (xislat, muvaffaqiyat, omad)ga nisbatan kuchli istak hasad predmetini yo'qotishga intilishda namoyon bo'ladi" .

4. "Hasad – o'zga insonning ma'lum sohada o'zib ketishi bilan bog'liq dushmanlarcha munosabat bo'lib, ikki yo'nalishli (o'zgaga va o'ziga) salbiy hissiyot bilan birga namoyon bo'luvchi va uni ana shu ustunlikdan bevosita yoki bilvosita mahrum qilish istagidir" [2].

5. Hasad (ing.envy) – "o'zganing baxt-saodati, muvaffaqiyatini alamli qabul qilish bilan bog'liq hisdir"[7].

6. Hasad–shaxsda buzg'unchi his, xatti- harakatni yuzaga keltiruvchi psixikaning salbiy holatidir [3].

7. Hasad–subyekt o'zganing real yoki xayoliy ustunligini "Men" qadriyatiga xavf sifatida idrok etishi, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi va affektiv kechinmaning namoyon bo'lishidir [1].

8. Shaxsda mavjud bo'lmagan, lekin o'zga insonlar ega bo'lgan shaxsiy xususiyat, ijtimoiy mavqe, moddiy va ma'naviy mahsulotlarga ega bo'lish istagi tufayli sodir bo'lgan norozilik hissidir [4].

9. Hasad–baxtli insonlarni ko'ra olmaslikda namoyon bo'ladigan, xavotirlanishning maxsus shaklidir [6].

10. Hasad–qandaydir muvaffaqiyat yoki ustunlikka ega bo'lgan o'zga insonga nisbatan vujudga keladigan alam yoki qayg'u hissi bo'lib, obyektdan uning ustunligini mahrum qilishga ishtilishida namoyon bo'ladi [5].

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, havas va hasad bir-biriga yaqin, shu bilan birga bir-biridan tubdan farq qiluvchi fenomenlardir.

Hasad hayvonlarda ham mavjudmi, ya'ni hasadning evolutsion ildizlari mavjudmi, yoki hasad faqat insonlargagina xosmi degan o'rinli savol tug'iladi? E.Baumgarten iyerarxiyaning turli darajasida joylashgan hayvonlardagi ayrim reaksiya shakllari hasadni eslatadi, deb yozadi. Ma'lum kuzatishlardan so'ng u hasadning evolutsion ildizlari haqidagi savolni ochiq qoldiradi.

Havas va hasad hissini tadqiqotchilar turlicha tasniflangan. Odamlarda hasadning tug'ma(genetik) va orttirilgan (ijtimoiy o'rganish) turlari mavjud. Genetik nazariyaga ko'ra, hasad bizga evolyutsiya jarayonida avlodlarimizdan o'tgan genetik dasturdir. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, qadim zamonda o'zlarining qabiladoshlariga havas qilganlar o'zlarini takomillashtirish uchun ko'proq stimulga ega bo'lganlar va ularda yashab qolish va o'z avlodlariga "havas" genlarini

o'tkazish imoniyatiga ega bo'lganlar. Lekin bu nazariya konstruktiv oq havasni tavsiflaydi. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi esa insonning ijtimoiy hayot jarayonida havas qilishi haqidagi fikrning tarafdorlari ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan, E.Rega havasni tug'ma xususiyat emas, balki ijtimoiylashuv jarayonida egallangan, ijtimoiy o'zaro ta'sirlar natijasida vujudga keladigan xususiyat sifatida tavsiflagan. Bu nazariyaga ko'ra hasadda hech qanday tug'ma layoqat yo'q. Ota-onalar tarbiyaviy maqsadda ularning fikricha, muvaffaqiyatliroq boshqa bola bilan o'z farzandlarini ovoz chiqarib solishtira boshlaydilar. Masalan, ular o'z farzandiga: "Qo'shni bola senga qaraganda aqlliroq", deyishlari bilan farzandlarida bilib-bilmay hasad hissini shakllantiradilar.

Falsafiy yondashuvlarda hasad destruktiv va konstruktiv deb ikki turga ajratilgan. Destruktiv hasad buzishga yo'naltirilgan, agressiv impulslardan iborat bo'lsa, konstruktiv hasad shaxsning o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgandir. U hasad qilinuvchi bilan halol raqobatlashishga istakning paydo bo'lishi bilan tavsiflangan, shaxs o'zini rivojlantirishga undagan.

Hasad hissini tuyish yosh xususiyatlariga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Bola ontogenetik rivojlanishida hasad o'yin jarayonida, musobaqada ehtiyojlarning qondirilmasligidan axloqiy egotsentrizm natijasi sifatida kech paydo bo'ladi. Ko'pincha hasad aka-uka, opa-singillarga nisbatan paydo bo'ladi. Kichkinalar kattalarning ustunligidan, kattalar esa kichkinalarga ota-onalar ko'proq e'tibor berishlaridan hasad qiladi. Bolalardagi hasadni bartaraf etish uchun ijtimoiy muhitda ularning statusini oshirish kerak. Uning identifikatsiyasi atrofdagilar uchun muhim ekanligini ko'rsatish, bolalar bilan muloqot va o'yinda o'z o'rnini topishiga yordam berish lozim.

Metodlar. Tadqiqotimizda Toshkent moliya va iqsodiyot kolleji o'quvchilari, Toshkent davlat pedagogika universiteti va Samarqand davlat universiteti talabalari jalb etildi. Tadqiqot mobaynida "Hasad" so'rovnomasidan foydalandik. Olingan natijalarni quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Turli yosh bosqichlarida hasadning namoyon bo'lishidagi tafovut ko'rsatkichlari (student t-mezoni bo'yicha)

Statistik ko'rsatkichlar	Sinaluvchilar guruhlari			
	Ilk o'spirinlar (n = 81)	O'spirinlar (n =177)	Ilk yetuklik (n = 32)	O'spirinlar (n =177)
M	5,4	5,8	8,03	5,8
T	2,22		-2,43	
P	0,05		0,05	

Natija. Yuqoridagi jadvalda ko'rinib turganidek, ilk o'spirinlarda hasadning o'rta arifmetik qiymati 5,4 ga, o'spirinlarda esa 5,8 ga teng. Muqarrarlik mezoni t= 2,22 (p<0,01). Talabalarda kollej o'quvchilariga nisbatan hasad kuchliroq namoyon bo'lgan. Lekin ilk o'spirinlarda ham, o'spirinlarda ham hasadning quyi darajasi aniqlandi. Talabalar muvaffaqiyatga erishgan ko'pchilik insonlar bunga o'z kuchlari va mehnatlari bilan erishmagan, deb o'ylashadi. Talabalar ulardan yaxshiroq kiyingan odamlarni ko'rganda jahllari chiqadi. Shuningdek, boshqalarning ulardan yaxshi yashashidan alam qilishadi.

Hasadning yosh farqlarini o'rganish uchun ilk yetuklik davridagi respondentlarda ham tadqiqot o'tkazildi. Ilk yetuklik davridagi respondentlar uchun TDPU maxsus sirtqi bo'lim talabalari jalb etildi. Ilk yetuklik davridagilarda hasadning o'rta arifmetik qiymati 8,03 ga teng ekanligi ko'rinib turibdi. Muqarrarlik mezoni t= -2,43 (p<0,01). Ilk yetuklik davridagilarda hasad o'rtacha darajada, bakalavr talabalariga nisbatan hasad kuchliroq namoyon bo'lgan. Ular ishtirok etgan lotereyada boshqa birovning katta yutuqni yutishi ularni darg'azab qiladi. Shuningdek, ular bunga loyiq bo'lmasalar-da, ularga omad keladi, ortiqcha dabdaba kulfat deb hisoblashadi. Haddan tashqari boyga (oligarx) nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilganda kayfiyatlari ko'tariladi. Ular ko'proq narsaga ega bo'lishni istaydilar.

Shunday qilib, o'spirinlarda yosh ulg'aygan sari hasad kuchayib borishi tadqiqotlarda aniqlandi. Ilk yetuklik davridagilarda o'z tengdoshlari, qarindoshlari, tanish bilishlarining erishgan

muvaffaqiyatlarini o’z yutuqlari, erishganlari, hayotdagi ijtimoiy mavqei bilan ijtimoiy taqqoslash kuchli bo’lganligi uchun ularda hasad kuchliroq namoyon bo’lgan. Boshqacha so’zlar bilan aytganda, o’rta ma’lumotlilar oliy ma’lumotlilarga qaraganda kamroq oylik maoshi olganliklari uchun, oliy ma’lumotlilar jamiyatda ijtimoiiy mavqei ularga nisbatan balandroq bo’lganligi uchun, tengdoshlarining yashash tarzi, moddiy ijtimoiy ahvolida farqlarni yaqqol his qilganliklari uchun hasad kuchliroq namoyon bo’lgan.

Xulosa. Farzand dunyoga kelarkan, ota-onasi havas qilib, unga chiroyli ism qo’yadi. Aslida shaxs hayotida havas uning tug’ilishi bilan hamrohiga aylanib ulguradi. Ota-ona farzand tug’ilishi bilan mashhur insonlarga havas qilib, unga o’xshasin deb, ularning ismlarini bolalariga qo’yadilar. Ota-ona farzand tarbiyasida ham havas orqali unga yo’l- yo’riq ko’rsatadi. Chempion sportchiga havas qilib, farzandlarimizni turli sport to’garaklariga beramiz, yoki bo’lmasam, boshqa musiqa, dizaynerlik mashg’ulotlariga qatnashtiramiz. Shaxs kasb tanlash ostonasida turganida ham tanlayotgan kasbini havas orqali amalga oshiradi. Tiloburg Universiteti tadqiqotlarida shu narsa ma’lum bo’lganki, havas hissini tuyuvchi talabalar boshqa talabalarga nisbatan yaxshi o’qishini isbotlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Бескова Т. В. Методика исследования завистливости личности // Вопросы психологии. –Москва. 2012. №2. С. 127-139.

2. Бодалев А.А. Психология межличностных отношений. К 100-летию со дня рождения В.Н.Мясищева// Вопросы психологии. –Москва. 1993. -№ 2.

3. Муздыбаев К. Психология зависти // Психологический журнал. –Москва.Т. 18. -№ 6. 1997. – С. 5-9

UDK: 152.26:370.153

Ernazarova Rano Yuldashevna
Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi dotsenti, psi.f.f.d (PhD)
E-mail: ernazarova.rano@gmail.com

PSIXOLOGIK STRESSGA BARQARORLIK TALABALAR XULQ-ATVORINI BELGILOVCHI OMIL

Annotatsiya. *Maqolada psixologik stressga barqarorlik talabalar xulq-atvorini belgilovchi omil sifatida tahlil qilib berilgan. Shuningdek, talabalarda stress holatini yuzaga kelishi va uning shaxs xatti-harakatlariga ta'siri yoritib berilgan. Stress holatiga oid tadqiqot natijalari, nazariy-metodologik yondashuvlar tahlili keltirilgan. Stress holatini yengishga doir psixologik tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *talaba, shaxs, stress, nerv tizimi, xatti-harakat, psixologik tavsiya, nazariy-metodologik yondashuv, qo'rquv, shaxsiy, mas'uliyat valeologik madaniyat, muhit, moslashuv.*

УСТОЙЧИВОСТЬ К ПСИХОЛОГИЧЕСКОМУ СТРЕССУ У СТУДЕНТОВ ФАКТОР ОПРЕДЕЛЯЮЩИЙ ПОВЕДЕНИЕ

Аннотация. *В статье дается анализ устойчивости к психологическому стрессу как определяющего фактора поведения учащихся. Также освещается возникновение стрессового состояния у учащихся и его влияние на поведение личности. Представлены результаты исследований по стрессовым состояниям, анализ теоретико-методологических подходов. Приведены психологические рекомендации по преодолению стрессового состояния.*

Ключевые слова: *ученик, личность, стресс, нервная система, поведение, психологическая рекомендация, теоретико-методологический подход, страх, личность, ответственность,т валеологическая культура, среда, адаптация.*

STABILITY TO PSYCHOLOGICAL STRESS STUDENTS THE DETERMINING FACTOR OF BEHAVIOR

Annotation. *The article analyzes the stability to psychological stress as a determining factor in student behavior. It also highlights the occurrence of stress in students and its impact on personality behavior. The results of the study on the state of Stress, analysis of theoretical-methodological approaches are presented. Psychological recommendations for overcoming a state of Stress are presented.*

Keywords: *student, person, stress, nervous system, behavior, psychological recommendation, theoretical-methodological approach, fear, personal,responsible, t valeological culture, environment, adaptation.*

Kirish. Hozirgi davrda stress ikki asosiy guruhga ajratiladi: tizimli (fiziologik) va psixologik stress. Fiziologik stress organizmga bo'lgan kuchli jismoniy va psixik ta'sirlar, ya'ni turli xildagi to'siqlar, shuningdek, kuchli ovozlar, kuchli yorug'lik, havoning yuqori harorati, sovuq harorat, kislorod kamligi, vibratsiyalar va boshqa ta'sirlar oqibatida organizmning o'ta jismoniy zo'riqishi, tanadagi paydo bo'lgan og'riq, qo'rquv kasallik tufayli paydo bo'ladi.

Inson ijtimoiy olamda faoliyat olib borar ekan, uning integral tizimida psixik sohasi asosiy o'rinni egallaydi va bunda aynan psixologik stress boshqaruv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Psixologik stress shaxs psixikasida kechayotgan jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, shaxs tomonidan o'zining qiyin, ekstremal holatini o'ziga xos ko'rinishda aks ettirishdan iborat bo'lgan psixik holatdir. Psixologik stress vaziyatning favquloddaligi, insonning yuzaga kelgan vaziyatga munosabati va un-

ing murakkabligini baholashi bilan belgilanadi. Vazifaning kutilmaganda o'zgartirilishi, zarur tayyorgarlikning yo'qligi, vaqt tig'izligi, ishning yuqori ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, topshirilgan vazifa uchun shaxsiy mas'uliyat – psixologik stressga olib keluvchi vaziyatlar hisoblanadi. [1. 139]

Adabiyotlar tahlili. Stress deganda insonning atrofdagi stimullarga yoki tashqi ta'sirlarga jismoniy, fiziologik va psixologik reaksiyalari majmuyi tushuniladi. Bunda atrof-muhitdagi kuchlar insonning fiziologik va psixologik funksiyalarini muvozanatdan chiqaradi. Stress tez-tez uchrab turadigan hodisadir. Unchalik ahamiyatga ega bo'lmagan stresslar muqarrar va zararsiz bo'lib, haddan tashqari ortib ketgan stress esa shaxs uchun ham, korxona va tashkilotlar uchun ham qiyinchiliklar, qo'yilgan maqsadlarni qo'lga kiritishda muammolar keltirib chiqaradi.

D.D.Boymirzayeva tadqiqotida oliy o'quv yurtlari talabalarida frustratsiyaning namoyon bo'lishi masalasi o'rganilgan. Talabalar orasidagi agressiv va tobe tipdagi shaxslararo munosabatlar tizimida quyi emotsional ekspansivlik, salbiy ijtimoiy maqom ko'rinishidagi psixik holatlar frustratsiya natijasida namoyon bo'lishi aniqlangan. Zo'riqish, stressogenlik, o'quv faoliyatining jamoaviy xarakteri, oliy ta'lim muassasalari zamonaviy talabalari kontingenti orasida frustratsiyaning keng tarqalganligi psixologik himoya masalasini nihoyatda dolzarblashtirishi aytilgan. O'z-o'zini anglash, idrok va boshqalar bilan o'zaro ta'sirni baholash nuqtayi nazardan talabaning haddan ortiq psixologik himoyalanganligi frustratsiyaga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligi, shu bilan birga, ayrim hollarda psixologik himoya qo'zg'atuvchi vaziyatlar ta'sirini bloklashi, lekin frustratsiya chuqur darajada saqlanib qolishi hamda talabaning shaxsiy rivojlanishi, o'quv faoliyati va umumiy ahvoliga salbiy ta'sir ko'rsatishi izohlangan. [2. 12]

Bizningcha, talabalar o'quv faoliyatida stresslar salbiy ta'sirining oldini olish muhim ekanligi bois, stressga barqarorlikni ta'minlash uchun ularda o'ziga baho berish darajasini me'yorlashtirish va frustratsion tolerantlikni shakllantirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, stress holati yuzaga kelishining oldini olishda ota-onalar va bolalar o'rtasida muloqotning ko'lamini oshirish, oila a'zolari o'rtasida fikr erkinligini ta'minlash, yoshlarni destruktiv g'oyalar ta'siridan himoyalash, stresslarni boshqarish kompetensiyasi va kazusli vaziyatlarda psixologik himoyani faollashtirish zarur hisoblanadi.

S.R.Mirzayeva tadqiqotida talabalarda valeologik ongning rivojlanishi xususiyatlari o'rganilgan. Tahlilda keltirilganidek, ta'lim jarayoni ziddiyatli, stressli muhit ekanligi sababli talabalarda ziddiyatlarga nisbatan munosabatlar tadqiq etilgan. Ziddiyatli vaziyatlarga nisbatan munosabatlar o'rganilib, o'zaro taqqoslanganda yetakchilik sotsium (aloqalar) va fantaziya (intuitsiya) sohalarida ekanligi aniqlangan. [3. 16]

Ushbu muammoga oid fundamental va amaliy ishlarda inson va jamiyat hayotiy faoliyatidagi sotsiomadaniy omillar ahamiyati ko'tarilgan bo'lsa-da, tibbiy-biologik, psixologik-pedagogik, kulturologik va sotsiologik tadqiqotlarni umumlashtiruvchi valeologik madaniyatni shakllantirishning psixologik va ijtimoiy-psixologik tahlilini o'tkazish zaruriyatini e'tirof etmay iloji yo'q. Buning uchun esa, sog'lom va nosog'lom turmush tarzi to'g'risidagi madaniy belgilanadigan maishiy tasavvurlarni tadqiq etish zaruriyati kelib chiqadi. Aynan shu semantik tafovut sog'lom turmush tarzini yoshlar orasida targ'ib etishda muammolar tug'dirishi mumkinligini e'tirof etish joiz.

N.D.Sagindikova talabalarning o'quv faoliyatidagi mas'uliyatliligi masalasini tadqiq etgan. Tadqiqotda talabalarning o'quv faoliyatidagi mas'uliyatining emotsional komponentlari stenik va astenik emotsiyalar bo'yicha o'rganilgan. Stenik emotsiyalarning o'sishi talabalarda ijobiy natijalarga erishish mas'uliyatning o'sishi maskulinlik sifatlarining kamol topishiga xizmat qilishi mumkinligi ko'rsatilgan. [4. 14]

Bizning fikrimizcha, talabalik davrida esa ko'proq ijtimoiy mas'uliyatning namoyon bo'lishi kuzatiladi. Sababi, talaba faol ishtirokchi sifatida o'quv jarayonida va ijtimoiy hodisalarda qatnashadi. Bunday holatlarda aynan uning o'zini tutishi, ishga, berilgan topshiriqqa bo'lgan javobgarligi, shaxslararo munosabati undagi mas'uliyat sifatlarini ko'rsatib beradi.

D.R.Abdumadjidova talabalarda assertiv xulqning shakllanishini o'rgangan. Assertiv xulq shaxslararo munosabatlarning konstruktiv vositasi hisoblanadi. Talabalarda assertiv xulq – mustaqillik, dadillik, qat'iyat, o'ziga ishonch, tashqi ta'sirlarga berilmaslik, o'z ustida hukm o'tkazishga yo'l qo'ymaslik va mas'uliyatni o'z bo'yniga olish kabi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarning

namoyon bo'lishi bilan ifodalanadi. Talabalar o'quv faoliyatida assertiv xulqning umumlashgan intellektual, shaxsiy va emotsional darajalari mavjud. Talabalarda assertiv xulqning shakllanishi emotsional tobelikni yengishga asos bo'ladi. [5. 28]

Shunday ekan, hozirgi globallashuv jarayonida yoshlarning turli destruktiv guruhlar, g'oyalar tomonidan targ'ib qilinayotgan qadriyatlar ta'siriga tushib qolish xavfining oldini olish muhim hisoblanadi. Bunda ta'lim va tarbiya jarayonida nafaqat insonning bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirishga, balki undagi assertivlik xususiyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga ham e'tibor berilishi maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda tanqidiy tafakkur, refleksiya va assertivlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, psixologik manipulyatsiya va uning ta'sirini bartaraf etish vosita va usullarini tadqiq etish, yoshlarda zaruriy ko'nikmalarni shakllantirishga hozirgi davrda ahamiyat berilishi zarur.

Tahlil va natijalar. Stress psixofiziologik holat sifatida psixik, fiziologik va xulq-atvor ko'rinishidagi uch blokdan iborat reaksiya tizimini namoyon etadi. Stress holatini diagnostika qilish uchun fiziologik va psixologik usullar qo'llaniladi. Fiziologik tadqiqot usullari biologik moslashuvning ijtimoiy shartlangan jihatini hisobga olgan holda gomeostatik jarayonlarning o'zgarishi sifatida qaraladi. [6. 35]

Talabalarda stress holatini yuzaga keltiruvchi asosiy omillarni aniqlash diagnostik bosqichning vazifasi sifatida belgilangan. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan «Talabalik davri stress omillari» nomli anketa so'rovnomasi diagnostika jarayonida qo'llanildi va talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi 17 ta asosiy omillar aniqlandi. Ushbu omillar talabalik davriga xos quyidagi muammolarni namoyon etadi: yangi muhitga moslashish muammolari; o'qishga jiddiy munosabat; katta o'quv yuklamasi; qattiqqo'l o'qituvchilar; o'quv adabiyotlari muammosi; topshiriqlarni bajara olmaslik; imtihon oldi xavotir; guruhdagi nizo; kunlik faoliyatni rejalash muammosi; oiladan uzoqda yashash; talabalar bilan yashash muammolari; noto'g'ri ovqatlanish; o'qishga qatnash muammolari; moliyaviy muammolar; shaxsiy hayot muammolari; o'qishni xohlamaslik; kelajakdan xavotir. Birinchi kurs talabalarida stressni yuzaga keltiruvchi asosiy omillar diagnostik natijalari 1- jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Talabalarda stressni yuzaga keltiruvchi omillar (1-kurs) n=112 / TG n=67 / NG n=45

	TG								NG							
	Qash vil	%	Sam vil	%	Jiz vil	%	jami vil	%	Qash Vil	%	Sam vil	%	Jiz vil	%	jami vil	%
yangi muhitga moslashish	18	78,3	19	76,0	16	84,2	53	79,1	11	68,8	12	75,0	11	84,6	34	75,6
o'qishga jiddiy munosabat	20	87,0	22	88,0	15	78,9	57	85,1	13	81,3	14	87,5	10	76,9	37	82,2
katta o'quv yuklamasi	4	17,4	2	8,0	3	15,8	9	13,4	2	12,5	1	6,3	2	15,4	5	11,1
qattiqqo'l o'qituvchilar	3	13,0	4	16,0	2	10,5	9	13,4	1	6,3		0,0	1	7,7	2	4,4
o'quv adabiyotlari muammosi	2	8,7	3	12,0	2	10,5	7	10,4		0,0	1	6,3		0,0	1	2,2
topshiriqlarni bajara olmaslik	16	69,6	17	68,0	13	68,4	46	68,7	11	68,8	12	75,0	9	69,2	32	71,1
imtihon oldi xavotir	19	82,6	21	84,0	16	84,2	56	83,6	14	87,5	13	81,3	11	84,6	38	84,4
guruhdagi nizo	13	56,5	15	60,0	12	63,2	40	59,7	10	62,5	9	56,3	9	69,2	28	62,2
kunlik faoliyat rejasi	15	65,2	14	56,0	12	63,2	41	61,2	9	56,3	9	56,3	8	61,5	26	57,8
oiladan uzoqda yashash	12	52,2	13	52,0	11	57,9	36	53,7	8	50,0	8	50,0	6	46,2	22	48,9
talabalar bilan yashash muammosi	7	30,4	8	32,0	6	31,6	21	31,3	3	18,8	4	25,0	3	23,1	10	22,2
noto'g'ri ovqatlanish	9	39,1	7	28,0	6	31,6	22	32,8	4	25,0	3	18,8	3	23,1	10	22,2
o'qishga qatnash muammolari	8	34,8	9	36,0	5	26,3	22	32,8	2	12,5	3	18,8	2	15,4	7	15,6
moliyaviy muammolar	7	30,4	6	24,0	4	21,1	17	25,4	2	12,5	1	6,3	1	7,7	4	8,9
shaxsiy hayot muammolari	8	34,8	7	28,0	4	21,1	19	28,4	4	25,0	3	18,8	2	15,4	9	20,0
o'qishni xohlamaslik	3	13,0	4	16,0	2	10,5	9	13,4		0,0	1	6,3		0,0	1	2,2
kelajakdan xavotir	3	13,0	4	16,0	1	5,3	8	11,9	2	12,5	1	6,3		0,0	3	6,7

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, stress holati yuz berganda bir qancha fiziologik belgilar, jumladan, yurak urishi va nafas olishning tezlashishi, yuz terisining qizarishi yoki oqarishi, terlash, qon tarkibida adrenalin miqdorining ko'payishi kuzatiladi. Ayniqsa, stress holatida xavotirlikning turg'unligi hamda davomiyligi inson xatti-harakatida ishtahaning buzilishi, uyqusizlik, xatti-harakatlardagi sustlik kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Ammo organizmning kuchi cheksiz emas va jiddiy stress vaziyati vujudga kelganda, inson buni ko'tara olmaydi. Natijada turli xastaliklar paydo bo'ladi, stress o'ta kuchli bo'lganda, o'lim holati ham kuzatiladi.

Xulosa. Talabalarda stress holati paydo bo'lishi omillari, stress holatida psixologik, fiziologik, kimyoviy o'zgarishlar yuzaga kelishi borasida bir necha tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularda o'quv faoliyati va undan tashqari faoliyat bilan bog'liq stressni yuzaga keltiruvchi omillar to'liq ochib berilmagan. Shu bilan birga, talabalarda stressga moyillik jihatlari to'liq yoritilmagan. Shunga ko'ra, milliy mentalitetimizni inobatga olgan holda talabalarda stress holatini yuzaga keltiruvchi omillarni yanada chuqurroq tadqiq etish va stress holatini yengish usullarini takomillashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, stress holati va uning yuzaga kelishi borasida yurtimiz olimlarining tadqiqotlarini ham atroflicha o'rganishga harakat qildik. O'rganishlarga ko'ra, stress tashqi ta'sirlarga psixik reaksiya ekanligi, stressga jismoniy va aqliy yuklamalarning ko'pligi, oilaviy munosabatlarda muloqotning kamligi, destruktiv g'oyalar ta'sir etishi, stress ta'sirida xatti-harakatlarda o'zgarishlar paydo bo'lishi, stresslarni boshqarish kompetensiyasi, addiktiv xulqli shaxslarda emotsional ta'sirchanlik va frustratsiya, talabalar psixologik yetukligi emotsional namoyon bo'lishi holatlari tahlil qilingan. Talabalarda stressga barqarorlikni oshirish borasida o'ziga baho berish, frustratsion tolerantlik va koping-strategiya munosabatlari tadqiqot tahlili keltirilgan.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Юнусова С.Г., Розенталь А.Н., Балтина Т.В. Стресс. Биологический и психологический аспекты. Журнал: Ученые записки казанского государственного университета. Том 150, кн. 3. 2008. 139-150с.

2. Боймирзаева Д.Д. Олий ўқув юртлари талабаларида фрустрасиянинг намоён бўлишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссер. автореф.19.00.05. –Тошкент, 2021.– 12-20 б.

3. Мирзаева С.Р. Талаба валеологик онги ривожланишининг педагогик-психологик хусусиятлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссер. автореф.: 19.00.06. – Тошкент, 2020. – 16б.

4. Сагиндикова Н.Д. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссер. автореф.: 19.00.05. – Тошкент, 2017. – 14б.

5. Абдумаджидова Д.Р. Талабаларда ассертив хулқни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссер. автореф. 19.00.05. – Тошкент, 2019. – 28 б.

6. Панченко Л.Л. Диагностика стресса: Учеб. пособие. – Владивосток: Мор. гос. ун-т, 2005. – 35 с.

Eshmuradov Olmosbek Elamanovich
TerDPI Amaliy psixologiya kafedrasi mudiri
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

OILA ICHIDAGI IJTIMOIY ROLLAR VA ULARNING OILA MUSTAHKAMLIGIGA TA'SIRI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ijtimoiy ustanovkalar orqali oiladagi munosabatlar barqarorlanadi va o'zaro hurmat mustahkamlanishi bilan birga, oiladagi ijtimoiy rollar orqali ustanovkalar jamiyatdagi munosabatlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi, oilada ijtimoiy ustanovkalarning qanchalik muhim rol o'ynashini va oilaviy muhitga barqarorlik olib kelishi hamda ijtimoiy ustanovkalar oilaviy hayotning mustahkamligini ta'minlashi isbotlangan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy ustanovkalar, oiladagi munosabatlar, oiladagi ijtimoiy rollar, oilaviy muhit, ma'naviy-psixologik tayyorgarlik, hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy qadriyatlar.*

СОЦИАЛЬНЫЕ РОЛИ В СЕМЬЕ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ПРОЧНОСТЬ СЕМЬИ

Аннотация. *В статье показано, что социальные нормы стабилизируют семейные отношения и укрепляют взаимное уважение, а также что нормы оказывают положительное влияние на отношения в обществе через социальные роли в семье, демонстрируя важную роль, которую социальные нормы играют в семье и привносят стабильность в семейную среду, а также что социальные нормы обеспечивают прочность семейной жизни.*

Ключевые слова: *социальные установки, семейные отношения, социальные роли в семье, семейное окружение, духовная и психологическая подготовка, жизненные ситуации, социальные ценности.*

SOCIAL ROLES WITHIN THE FAMILY AND THEIR IMPACT ON FAMILY STRENGTH

Annotation. *This article demonstrates that social norms stabilize family relationships and strengthen mutual respect, and that norms also have a positive impact on relationships in society through social roles in the family, demonstrating the important role social norms play in the family and bring stability to the family environment, and that social norms ensure the strength of family life.*

Keywords: *social attitudes, family relationships, social roles in the family, family environment, spiritual and psychological preparation, life situations, social values.*

Oilaning jamiyatdagi o'rni va roli ham milliy, etnik xususiyatlar asosida shakllanadi. Oilaning saqlanishi va barqarorligi ko'p jihatdan etnik guruhning an'analari, diniy e'tiqodlari, gender rollari va ma'naviy qadriyatlari bilan bog'liq. Etnik guruhlarning oila tushunchasi, o'zaro munosabatlarni shakllantirish usullari jamiyatda oila mustahkamligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlar jamiyatdagi oila munosabatlarining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, oilaning mustahkamligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Turli millatlarda oila hayotiga oid qarashlar, mas'uliyatlar, o'zaro hurmat va yordam qadriyatlari turlicha ifodalanadi va ular oila mustahkamligini mustahkamlashda asosiy ijtimoiy ustanovkalar sifatida qaraladi.

Etnopsixologik xususiyatlar oilada konfliktlar va ularning yechilish usullariga ham ta'sir etadi. Har bir etnik guruhda nizolarni hal qilishning o'ziga xos yo'llari mavjud bo'lib, ularning ijtimoiy ustanovkalari bunga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va an'analar oila a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan nizolarni oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Oila – avlodlar vorisligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazadigan, yosh avlodni jamiyatimiz hamda Vatanimizning munosib fuqarosi etib tarbiyalaydigan, uning kelajakda barkamol shaxs sifatida shakllanishiga poydevor bo'ladigan ijtimoiy institutdir. Jismonan sog'lom, ma'nan kuchli va aqlan yetuk, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish oilaning eng asosiy ijtimoiy-psixologik vazifalaridan biridir. Shuning uchun mustaqil davlatimizda oilaning

mustahkam bo'lishiga, uning mustahkamligi va barqarorligini ta'minlashga katta ahamiyat berilmoqda.

Psixologik adabiyotlarda oila mustahkamligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy ustanovkalar va ularning psixologik jihatlari oila barqarorligi va sog'lom ijtimoiy munosabatlarning garovi sifatida ko'riladi. Bu mavzularni o'rganish oilani mustahkamlashda qanday yo'nalishlarni tanlash kerakligini tushunishga yordam beradi.

Oiladagi muhitning sog'lomligi avvalo ayolga bog'liq bo'lganidek, jamiyatdagi ma'naviy muhitning sog'lomligi bevosita oilaga va oila tarbiyasiga ma'sul bo'lgan onaga bog'liqdir. Bo'lajak onalarimiz esa hozirgi kunning yosh qizlaridir. Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning «Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarni tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go'zal axloqqa o'rgating» degan fikri hozirgi kunning ham dolzarb mavzularidandir. Millatning qizlari ilmli, tarbiyali hamda aqlli, oilaviy hayotga nisbatan har tomonlama tayyor bo'lsa, oiladaga muhit ham sog'lom va oila mustahkam, farovon bo'ladi. Shuning uchun qizlarning oilaviy hayotga ma'naviy-psixologik tayyorgarlik holati, ularning psixologik yetukligi muhim ahamiyatga egadir.

Insonning psixologik yetukligi bu o'z oldiga erishishi muqarrar bo'lgan va imkoniyatlari yetarli bo'lgan maqsadlarni qo'yishi, turli yashash sharoitlariga moslashish, turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay olishidir. Albatta, bunday qobiliyatlar bir kunda shakllanmaydi. Ular oilada qizlarga berilgan tarbiya ta'sirida asta-sekinlik bilan shakllanadi. Qiz bola turmush qurgandan so'ng uning ijtimoiy muhitdagi mavqei tubdan o'zgarishi asosida unga nisbatan boshqalarni va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati o'zgarishi kuzatiladi. Mazkur o'zgarishga nisbatan o'zida ishonchni shakllantira olgan qiz bola yangi oilasida qisqa muddatda o'z o'rniga ega bo'la oladi. Oila qurishga o'zida ishonchni shakllantirishiga eng asosiy turtki rolini o'ynovchi omillardan biri bu - o'z-o'ziga yo'riqnoma berishi ya'ni, oilaga tayyorlik holatining har tomonlama o'stirish hisoblanadi. Yangi kelinlik mavqega moslashish albatta, tajriba va bilimlarga asoslanadi. Shularga ko'ra, har qanday turmush qurish yoshiga yetgan qiz o'zining yutuqlari va kamchiliklarini tafakkurida aqlan tahlil qilib o'zi kelin bo'lgach amalga oshiradigan xatti-harakatlarini tassavur eta olishi kerak.

Endi, diqqatimizni "Oila ichidagi ijtimoiy rollar va ularning oila mustahkamligiga ta'siri" so'rovnomasi hamda "Shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini o'rganish" metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlarga qaratamiz.

"Oila ichidagi ijtimoiy rollar va ularning oila mustahkamligiga ta'siri" so'rovnomasi hamda "Shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini o'rganish" metodikasi o'rtasidagi aloqadorlik (n=464)

Omillar	Oiladagi rollar	Ijtimoiy ustanovkalar	Madaniy va ijtimoiy qadriyatlar
Kasbiy	0,36*	0,18	0,17
Moliyaviy	0,05	0,14	0,18
Oilaviy	0,12	0,38*	0,35*
Ijtimoiy	0,43*	0,12	0,14
Jamoat	0,16	0,06	0,39*
Ma'naviy	0,38*	0,18	0,17
Jismoniy	0,05	0,12	0,15
Aqliy	0,09	0,37*	0,06

"Oila ichidagi ijtimoiy rollar va ularning oila mustahkamligiga ta'siri" so'rovnomasi hamda "Shaxsning ijtimoiy qadriyatlarini o'rganish" metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar natijalariga ko'ra «oiladagi rollar» omili «kasbiy» ($r=0,36$; $p\leq0,05$), «ijtimoiy» ($r=0,43$; $p\leq0,05$) hamda «ma'naviy» ($r=0,38$; $p\leq0,05$) omillari bilan, «ijtimoiy ustanovkalar» omili «oilaviy» ($r=0,38$; $p\leq0,05$) hamda «aqliy» ($r=0,37$; $p\leq0,05$) omillari bilan, «madaniy va ijtimoiy qadriyatlar» omili «oilaviy» ($r=0,35$; $p\leq0,05$) hamda «jamoat» ($r=0,39$; $p\leq0,05$) omillari bilan ijobiy aloqadorlik qayd etildi.

«Oila ichidagi rollar» va «kasbiy» omili o'rtasidagi ijobiy bog'lanish shuni ko'rsatadiki, oilaviy rollarni muvaffaqiyatli bajarish shaxsning kasbiy hayotida ham muhim o'rin tutadi (r=0,36; p≤0,05). Oilada har bir a'zo o'z rolini qanday anglab, ularni muvaffaqiyatli bajarsa, kasbiy hayotda ham mas'uliyatni o'z zimmalariga olish va ishlarini samarali tashkil qilishlari osonroq bo'ladi. Bu bog'lanish kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo'lish uchun oilada olingan ijtimoiy ko'nikmalar va o'z o'rnini bilish qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Oiladagi rollar kasbiy rollarni bajarishda ham yordam beruvchi asosiy qobiliyatlarni shakllantiradi. Shaxs oilaviy mas'uliyatni to'g'ri qabul qilib, uni boshqarish orqali kasbiy hayotida ham o'z o'rnini mustahkamlay oladi. Bu bog'lanish oiladagi rollarni muvaffaqiyatli bajarish va kasbiy hayotda samarali ishlash qobiliyatlari o'rtasidagi mustahkam aloqani ko'rsatadi. Shu bilan birga, oilaviy rollar kasb tanlash va unga nisbatan ishtiyoqni shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Oila ichidagi rollarni o'rgangan shaxslar kasbiy hayotda ko'proq intizomli va muvaffaqiyatli bo'lishga moyil bo'lishadi. Natijada, oiladagi rollar kasbiy faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

«Oila ichidagi rollar» va «ijtimoiy» omil o'rtasidagi ijobiy bog'lanish shuni ko'rsatadiki, oiladagi rollarni muvaffaqiyatli bajarish ijtimoiy munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatadi (r=0,43; p≤0,05). Oiladagi ijtimoiy rollar orqali shaxs ijtimoiy muhitda qanday harakat qilishni o'rganadi. Oilada aniq belgilangan rollarni bajarish ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirib, jamiyatdagi turli vaziyatlarda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi. Bu bog'lanish oiladagi mas'uliyatli vazifalar va ijtimoiy masalalarni hal qilishda aniq pozitsiyaga ega bo'lish qobiliyatining o'zaro aloqadorligini ko'rsatadi. Ijtimoiy rollar oiladagi an'analar va me'yorlar bilan shakllangan bo'lib, ular jamiyatda samarali munosabatlarni yaratishda muhim omil bo'ladi. Shu bilan birga, oilaviy rollar ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishda va faol ishtirok etishda yordam beradi. Oiladagi munosabatlarni boshqarish ko'nikmasi ijtimoiy munosabatlarda ham muvaffaqiyatli bo'lishga zamin yaratadi. Bu bog'lanish oiladagi rollar orqali ijtimoiy muhitda yetakchi bo'lish imkoniyatini oshiradi. Ijtimoiy rollarni to'g'ri bajara olgan shaxslar jamiyatda ko'proq faol bo'lib, o'z nuqtai nazarini muvaffaqiyatli ifoda etadilar. Natijada, oilaviy rollar ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatni oshiradi.

«Oila ichidagi rollar» va «ma'naviy» omil o'rtasidagi ijobiy bog'lanish oilada aniq belgilangan ijtimoiy rollar ma'naviy qadriyatlar bilan bog'liq ekanligini dalillaydi (r=0,38; p≤0,05). Ma'naviy tamoyillar oilada shakllanib, har bir a'zoning roli va burchlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy qadriyatlar oilaviy hayotda axloqiy tamoyillarga amal qilishni talab qiladi va bu, o'z navbatida, oilaviy rollarni aniq bajarishga yordam beradi. Oilada ma'naviy qadriyatlarning yuqori bo'lishi, oilaviy mas'uliyatlarni to'g'ri taqsimlash va ularni bajarishda faol bo'lishga undaydi. Bu bog'lanish shaxsning o'zini ma'naviy jihatdan rivojlantirish va oilaviy hayotda axloqiy tamoyillar asosida harakat qilish zarurligini ko'rsatadi. Oiladagi ijtimoiy rollarni bajarish orqali shaxs ma'naviy mas'uliyatini his qilib, oilaning axloqiy tamoyillariga muvofiq yashashga intiladi. Shu bilan birga, oilaviy rollar ma'naviy rivojlanishning asosiy vositasi hisoblanib, shaxsning jamiyatdagi axloqiy yuksalishini ta'minlaydi. Ma'naviyatga asoslangan oilaviy rollar barqarorlikni ta'minlaydi va o'zaro hurmatni oshiradi. Natijada, oiladagi rollar va ma'naviy qadriyatlar o'zaro bir-birini mustahkamlaydi.

«Ijtimoiy ustanovkalar» va «oilaviy» omil o'rtasidagi ijobiy bog'lanish oilaviy me'yorlar va jamiyatda qabul qilingan ustanovkalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ifodalaydi (r=0,38; p≤0,05). Ijtimoiy ustanovkalar oilaviy hayotda qabul qilingan tamoyillar va me'yorlarni saqlashga asoslanadi, bu esa oilada barqarorlik va mas'uliyatli munosabatlarni yaratishda muhim omil bo'ladi. Oilaviy qadriyatlar va ijtimoiy ustanovkalar bir-birini mustahkamlaydi va oilaviy munosabatlarda aniq chegaralarni belgilaydi. Bu bog'lanish oilada ijtimoiy me'yorlarga qat'iy rioya qilish va oilaning barqarorligini ta'minlashda muhim vosita ekanligini ko'rsatadi. Oilaviy me'yorlar jamiyatdagi umumiy ustanovkalar bilan uyg'unlashib, oilaning umumiy farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy ustanovkalar orqali oiladagi munosabatlar barqarorlanadi va o'zaro hurmat mustahkamlanadi. Shu bilan birga, oiladagi ijtimoiy rollar orqali bu ustanovkalar jamiyatdagi munosabatlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu bog'lanish oilada ijtimoiy ustanovkalarning qanchalik muhim rol o'ynashini va oilaviy muhitga barqarorlik olib kelishini isbotlaydi. Ijtimoiy ustanovkalar oilaviy hayotning mustahkamligini ta'minlaydi.

«Ijtimoiy ustanovkalar» va «aqliy» omil o'rtasidagi bog'lanish shaxsning o'z qarashlari va mulohazalari orqali jamiyatda qabul qilingan me'yorlarga qanday amal qilishini belgilaydi (r=0,37;

p≤0,05). Ijtimoiy ustanovkalar har bir shaxsning aqliy qobiliyatlari va fikrlash jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Ustanovkalarga amal qilish orqali shaxs o'z fikrlarini aniq va mantiqan asoslashga harakat qiladi. Bu bog'lanish shaxsning ijtimoiy me'yorlar bilan uyg'unlashgan holda o'z aqliy imkoniyatlarini to'g'ri yo'naltirishi bilan bog'liq. Ijtimoiy ustanovkalar orqali shaxsning qarashlari va mulohazalari shakllanib, u jamiyatdagi me'yorlarga moslashadi. Ustanovkalar aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishda yordam beradi va shaxsning fikrlash jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu bog'lanish shaxsning ijtimoiy me'yorlarga nisbatan fikrlash qobiliyatlarini oshirish va ularni hayotda qo'llash qobiliyatini ko'rsatadi. Ijtimoiy ustanovkalar orqali aqliy rivojlanish mustahkamlanadi va shaxsning qaror qabul qilish qobiliyatlari kuchayadi. Ushbu bog'lanish aqliy va ijtimoiy me'yorlar bir-birini to'ldiruvchi jarayon ekanligini tasdiqlaydi.

«Madaniy va ijtimoiy qadriyatlar» va «oilaviy» omil o'rtasidagi ijobiy bog'lanish oilaviy hayotning madaniy tamoyillarga qanchalik bog'liqligini ifodalaydi (r=0,35; p≤0,05). Oiladagi madaniy qadriyatlar oilaning umumiy farovonligini oshirishda va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Oila ichidagi madaniy qadriyatlarga rioya qilish o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi. Bu bog'lanish oilaning madaniy qadriyatlarni saqlab qolishi va ularni davom ettirishda qanday rol o'ynashini ko'rsatadi. Madaniy qadriyatlar oilaning umumiy tamoyillarini belgilab, o'zaro munosabatlarni mustahkamlaydi. Oilaviy munosabatlar madaniy me'yorlarga mos kelishi orqali oila ichida barqarorlik va muvozanat saqlanadi. Bu bog'lanish oilaviy hayotning madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Oila ichidagi madaniy qadriyatlar oilaning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ham yordam beradi.

«Madaniy va ijtimoiy qadriyatlar» va «jamoat» omili o'rtasidagi bog'lanish shaxsning jamoat hayotidagi faolligi va madaniy qadriyatlarga qanchalik e'tibor berishiga bog'liqdir (r=0,39; p≤0,05). Madaniy qadriyatlar jamoat hayotida o'zaro munosabatlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Jamoat hayotida shaxsning madaniy qadriyatlari unga o'z o'rnini topishda yordam beradi va jamiyatdagi munosabatlarga muvofiqlik keltiradi. Shu bilan birga, madaniy qadriyatlar jamoada o'zini namoyish qilish, ijtimoiy rollarni bajarish va jamoat ishlari bilan faol shug'ullanishda yordam beradi. Madaniy qadriyatlarga e'tibor berish jamoat hayotida ijtimoiy mavqe va hurmatni oshiradi. Bu bog'lanish jamiyatda shaxsning jamoaviy hayotga qanchalik moslashganini va madaniy qadriyatlarga rioya qilishni ko'rsatadi. Shu bilan birga, madaniy qadriyatlar jamoada bir-birini tushunish va hurmat qilish tamoyillarini rivojlantiradi. Jamoat hayotida madaniy qadriyatlarga tayanib, shaxs jamoat ishlarida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Akramova F.A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning asosiy omillari va ularning psixologik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim // 2015, №10. 45-52 b.

2. Davletshin M.G., Shoumarov G'.B. Zamonaviy o'zbek oilasi va uning psixologik xususiyatlari /O'zbek oilasining etnopsixologik xususiyatlari. Ilmiy ishlar to'plami. – Toshkent, 1993. – B. 5-11.

3. Oila psixologiyasi: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. / G'.B. Shoumarov tahriri ostida / – Toshkent: "Sharq", 2008. – 296 b.

4. O. E. Eshmuradov. Oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari mavzusidagi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. TDPU xuzuridagi ilmiy kengash 2022

5. O.E.Eshmuradov Oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi ijtimoiy ustanovkalarning etnopsixologik xususiyatlari Monografiya.. Termiz 2024. - 39 b.

6. Eshmurodov O. (2023). Қизларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг ижтимоий психологик жихатлари. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087

7. Eshmurodov O. (2023). Sog'lom psixologik muhit oila barqarorligining omili sifatida. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088

UDK:. 159.922.736.4-053.6

Mamajonova Shoxista Kamoldinovna
Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston, Farg'ona shahri
E-mail: sh.mamajonova@gmail.com

O'SMIRLARDA ADDIKTIV XULQ SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIX-OLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'smirlik davri psixologiyasi, addiktiv xulq turlari va o'smirlik davrida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan turlari, addiktiv xulqning spirtli ichimliklar bilan bog'liq turiga psixologik ta'rif berilib, psixologik tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *o'smirlik davri, addiktiv xulq, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga moyillik, azart o'yinlar o'ynashga moyillik, kompyuterdan foydalanishga tobelik, sevib, sevilishga tobelik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ АДДИК-ТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье дается психологическое определение и психологический анализ психологии подросткового возраста, типов аддиктивного поведения и типов, которые могут проявляться в подростковом возрасте, а также типов аддиктивного поведения, связанного с алкоголем.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, аддиктивное поведение, склонность к употреблению алкоголя, склонность к азартным играм, зависимость от использования компьютера, зависимость от любви и желания быть любимым*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE FORMATION OF ADDICTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENCE

Abstract. *This article provides a psychological definition and psychological analysis of the psychology of adolescence, types of addictive behavior and their possible manifestations in adolescence, and the type of addictive behavior related to alcohol.*

Keywords: *adolescence, addictive behavior, tendency to consume alcohol, tendency to play gambling games, addiction to computer use, addiction to love and being loved*

Jahon oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida addiktiv xulqni namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik sabablari va motivlarini aniqlash, xulq-atvorning ijtimoiy muhit talablariga hamda addiktiv xulqni bartaraf etishga qaratilgan integratsiyalashgan yangi psixologik xizmat dasturlarini joriy etishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu boradagi samarali yechim uchun ijtimoiy xavf guruhiga kiruvchi o'smirlar xulqining ijtimoiy-psixologik omillarini o'z vaqtida aniqlash va addiktiv xulqqa moyillikni yuzaga keltiruvchi omillarning ta'sirini kamaytirishga xizmat qiluvchi psixoprofilaktik-korreksion mexanizmlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi. Addiktiv xulqli o'smirlarning ijtimoiy foydali faolligini oshirish orqali ularning adaptatsiyasiga psixologik ko'maklashish, psixologik xizmatni takomillashtirishga yo'naltirilgan masalalarga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

O'smirlardagi addiktiv xulq muammosi nafaqat tibbiy yoki axloqiy muammo, balki juda muhim ijtimoiy psixologik muammo hamdir, chunki o'smiming ruhiy salomatligi alohida davlatning ham, insoniyatning ham salomatligi, xavfsizligi va genofondini saqlash bilan bog'liq.

O'smirlik davridagi addiktiv xulq — murakkab hodisa bo'lib, turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin, jumladan, moddalarga qaramlik (spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar), texnologiyaga qaramlik (Internet, video o'yinlar) va boshqa turdagi tobelik (masalan, qimor o'yinlari). Addiktiv xulq muammosi O'zbekistonlik psixolog olimlardan N.M.Dalimova, N.G.Kamilova, N.I.Kushakova, J.T.Mirzayev, N.Sh.Mullaboyeva, F.F.Rasulova, I.I.Raximova, R.S.Samarov, G.K.To'laganova,

N.I.Xalilova va boshqalar tomonidan o'smirlarda deviant xulqning ko'rinishlari, kompyuterga tobelik va addiktiv xulqning psixologik sabablari, salbiy oqibatlari hamda ularning jamiyatda o'z o'rinlarini topishlariga ta'siri masalalari ilmiy-amaliy tadqiq etilgan [2,24 bet].

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.F.Abolonin, B.G.Ananyev, N.V.Aslanbekova, A.O.Buxanovskiy, S.I.Galyautdinova, Y.P.Girich, I.A.Krasilnikov, L.G.Leonova, V.D.Mendelevich, I.A.Nazarova, Y.N.Naximov, A.M.Prixojan, G.F.Romashkina, S.L.Rubinshteyn, M.I.Xristoforova, V.O.Zaretskaya, E.V.Zmanovskaya, L.M.Shipitsina va boshqalar tomonidan o'smir yoshdagi o'quvchilarda xulqi og'ishganlik va addiktiv xulq shakllariga oid muammolar keng qamrovli ilmiy-amaliy o'rganilgan [3,138 bet].

Xorij olimlaridan J.Altman, G.Ammon, E.Damiko, L.Dodds, D.Donovan, A.Garakani, G.Koob, N.Miller, D.Mpousiou, A.Sassmun, R.Savitt, A.Calafat, A.Uayt, G.Uilyams, R.Wise, R.Xingson, M.Xodami, L.Sheyboniy, M.Schreuders va boshqalar deviant xulq masalalari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borishgan [5, 305 bet].

Biroq psixologiyada o'smirlik yoshidagi yigit-qizlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari, o'smirlik davri avtonomiyalari, subyektiv yolg'izligi, emotsional xayrixohligi va addiktiv xulq o'rtasidagi o'zaro bogliqligining psixologik mohiyati ilmiy tadqiqot predmeti sifatida etnopsixologik jihatdan alohida o'rganilmagan.

O'smirdagi ushbu xulqiy og'ishlarning o'siga xos mohiyatini aniqlash maqsadida V. G. Lozovaya tomonidan ishlab chiqilgan «Tobe xulqni aniqlash» testidan foydalandik. Ushbu metodika o'ziga xos test bo'lib, o'smirlarning ijtimoiy tarmoqlarga, spirtli ichimliklarga, televizorga, sevgiga, azart o'yinlarga, jinsiy munosabatlarga ehtiyoji, oziq-ovqatga, dinga, mehnatga, dori-darmonlarga, chekishga, sog'lom turmush tarziga, narkotobelik, umumiy tobelikka moyillikni aniqlash imkonini beradi (metodika va unga kiritilgan so'rovnoma 5-ilovada keltirilgan). Ushbu usul yordamida qo'lga kiritilgan natijalar 680 o'smirlar misolida tahlili quyidagi 2.1-jadval orqali izohlab ko'rsatiladi.

1-jadval

O'smirlaarda «Tobe xulqni aniqlash» metodikasi natijalari, jinslar kesimida, (Student t mezoni n=680)

Tobelik turlari	O'smirlar Jinsi	n	o'rtacha qiymat	stand. og'ish	T
Spirtli ichimliklar iste'mol qilishga moyillik	o'g'il bolalar	216	6,75	2,98	2,24*
	Qizlar	464	6,27	2,38	
Televizor ko'rishga tobelik	o'g'il bolalar	216	11,72	3,90	-0,75
	Qizlar	464	11,98	4,49	
Sevib, sevilishga tobelik	o'g'il bolalar	216	12,68	5,15	0,14
	Qizlar	464	12,62	4,91	
Azart o'yinlar o'ynashga moyillik	o'g'il bolalar	216	7,46	2,96	2,20*
	Qizlar	464	6,93	2,89	
Oziq-ovqat iste'mol qilishga tobelik	o'g'il bolalar	216	12,31	4,86	-1,86
	Qizlar	464	13,09	5,24	
Kompyuterdan foydalanishga tobelik	o'g'il bolalar	216	9,42	3,79	2,62
	Qizlar	464	8,63	3,62	

*p ≤0,05;** p ≤0,01;*** p ≤0,001;

Spirtli ichimliklar iste'mol qilishga moyillik shkalasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjud (t=2,24; p≤0,05). Ushbu shkalada o'g'il bolalarda spirtli ichimliklar istemol qilishga moyillik ko'rsatkichi qizlarga nisbatanm yuqori natijani ko'rsatdi. Bunga sabab ijtimoiy omillar, madaniy me'yorlar va gender rollari spirtli ichimliklarni iste'mol qilishga moyillikni shakllantirishda muhim

rol o'ynaydi. Jamiyatimizda o'g'il bolalarning spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi mumkinligini stereotip sifatida qabul qilish o'g'il bolalarda spirtli ichimliklarga moyillik qizlarga nisbatan yuqori darajada ekanligini izohlaydi.

Azart o'yinlar o'ynashga moyillik shkalasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi (t=2.20; p≤0.05). Ushbu shkalada qizlarga nisbatan o'g'il bolalarda azart o'yinlarga moyillik darajasi yuqori bo'lib, bunga sabab ijtimoiy gender steriotiolar, jumladan, an'anaviy gender rollari ko'pincha tavakkalchilik va raqobatbardoshlikni o'g'il bolalik bilan bog'laydi. O'smir yigitlar qizlardan farqli raqobatbaardoshlik, maqom muvaffaqiyatga alohida e'tibor berishadi. Azart o'yinlarida g'oliblik jozibasini oson va qisqa vaqtda his qilish imkonini berganligi sababli o'g'il bolalarni azart o'yinlari bilan shug'ullanish ehtimolini oshiradi.

Navbatdagi televizor ko'rishga tobelik bo'yicha olingan natijalarda statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi (t=-0.75; p>0,05). Chunki televideniya ijtimoiy va iqtisodiy kelib chiqishidan qa'tiy nazar, o'smir yigitlar ham, qizlar ham foydalanishi mumkin bo'lgan ommaviy axborot vositalarining hamma joyda mavjud shakli bo'lib, uning oson mavjudligi, ayniqsa smartfonlar bilan bog'langan holda keng qo'llanilishi, ikkala jins ham televizor ko'rishga moyillikni rivojlantirish uchun teng imkoniyatlarga ega ekanligini anglatadi.

Sevib, sevilishga ehtiyoj shkalasi bo'yicha o'smir o'g'il bola va statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi (t=0,14; p>0,05). O'smirlik –bu gormonal o'zgarishlar va kuchli hissiy tajribalar, shiddatli hissiy va ijtimoiy rivojlanish davri bo'lib, hayotning ushbu bosqichida romantik munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Bu munosabatlar quyidagi ko'rinishlarda; vaqtinchalik munosabatlar, jismoniy yaqinlikka asoslangan sevgi, chuqurroq va mazmunli sevgi turi, emotsianal yaqinlik, ishonch va sadoqatni o'z ichiga oladi. Bu munosabatlar o'smirlik shaxsiyatni shakllantirish uchun juda muhim bo'lib, o'g'il bolalar ham, qizlar ham boshqalar tomonidan tan olinish, tasdiqlash va qabul qilishga intiladi. Sevib, sevishga ehtiyoj, o'z-o'zini xurmat qilish, bog'lanish uslubi va shaxsuy ruhiy tramva tarixi kabi ikkala jins uchun umumiy omillar asosida shakllanganligi bilan izohladik.

Oziq-ovqatga moyillik bo'yicha olingan natija (t=-1,86; p>0,05). O'g'il bolalar ham, qizlar ham o'xshash ijtimoiy-madaniy omillarda yashayotganliklari, ikkala jinsdagi o'smirlar stress, qayg'u yoki yolg'izlik bilan kurashish vositasi sifatida ovqatlanishdan foydalanishlari sababli o'smir qiz va o'g'il bolalarda statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi.

2-jadval

O'smirlarda «Tobe xulqni aniqlash» metodi natijalari, hududlar kesimida, (Student t mezoni n=680)

Tobelik turlari	Hudud	n	o'rtacha qiymat	Stand. og'ish	T
Televizor ko'rishga moyillikk	Shahar	340	12,31	4,44	2,47*
	Qishloq	340	11,49	4,13	
Sevib, sevilishga ehtiyoj	Shahar	340	11,64	4,16	-5,32***
	Qishloq	340	13,64	5,52	
Azart o'yinlar o'ynashga moyillik	Shahar	340	6,87	3,15	-2,06*
	Qishloq	340	7,33	2,66	
Jinsiy munosabatlarga qiziqish	Shahar	340	7,51	3,23	3,19**
	Qishloq	340	6,82	2,31	
Oziq-ovqat iste'mol qilishga moyil-lik	Shahar	340	13,39	4,96	2,79**
	Qishloq	340	12,29	5,25	
Diniy qarashlarning ustivorligi	Shahar	340	13,78	5,18	2,53*
	Qishloq	340	12,75	5,47	

*p≤0,05; ** p≤0,01; *** p≤0,001

«Tobe xulqni aniqlash» testining xududlar kesimida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi (t=2,47; p≤0,05). Ushbu shkalada qishloq hududida yashovchi o'smirga nisbatan shahar hududida

yashovchi o'smirlarda televizor ko'rishga moyillik yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Shaharda kamroq ochiq joylar, shahar sharoitidagii jismoniy faollik, qishloq sharoitidagi jismoniy faollikdan sust bo'lishi, televizor o'yin-kulgining harakatsiz shakli va vaqt o'tkazish usuli bo'lib xizmat qilishi, ko'p qavatli binolar va zich joylashgan turar-joylar, odatda, kabel yoki sun'iy yo'ldosh televideniyasi va yuqori tezlikdagi internet uchun yaxshi infratuzilmaga ega ekanligi, shahar hududidagi o'smirlarda moyillikni kuchaytiruvchi sabab sifatida ko'rsatiladi.

Sevib, sevilishga ehtiyoj shkalasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi (t=5,32; p≤0,001). Ushbu shkalada shahar hududidagi o'smirga nisbatan qishloq hududidagi o'smirlarda sevgiga moyillik yuqori darajada ekanligi ko'rinib turibdi. Bu holatga bir necha omillarni sabab qilib ko'rsatish mumkin. Birinchidan,

qishloq hududida yashovchi aholi, shahar hududida yashovchi aholiga nisbatan bir joyda doimiy va barqaror yashovchi hisoblanadi. Bu jarayon tabiatan yaqin insonlar o'rtasida iliq, doimiy, barqaror munosabatlarni shakllanishi, sevgi munosababtlarining kuchayishiga turtki bo'ladi. Ikkinchidan, o'smirlar uchun mazmunli vaqt o'tkazish maskanlari va tadbirlarining kamligi uchun xissiy to'yinish va ijtimoiy muloqot manbayi sifatida sevgiga oid munosabatlardan foydalanadilar.

Azart o'yinlar o'ynashga moyillik shkalasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanadi (t=2,06;p≤0,05). Ushbu shkalada qishloq hududida yashovchi o'smirlarda, shahar hududida yashovchi o'smirlarga nisbatan azart o'yinlar o'ynashga moyillik yuqori darajada ekanligi aniqlandi.

Jinsiy munosabatlarga qiziqish shkalasi bo'yicha ahamiyatli farq aniqlandi (t=3,19; p≤0,01). Ushbu shkalada qishloq hududida yashovchi o'smirga nisbatan shahar hududida yashovchi o'smirlarda jinsiy munosabatlarga moyillik yuqori darajada ekanligi aniqlandi.

Oziq-ovqatga moyillik shkalasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanadi (t=2,79; p≤0,01). Ushbu shkalada qishloq hududidagi o'smirga nisbatan shahar hududidagi o'smirlardan oziq-ovqatga moyillik yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bunga sabab shahar hududlari, odatda, oziq-ovqat targ'ibot guruhlari tomonidan reklama va marketing uchun faol nuqta ekanligi, shahar hududlarida tez-tez tayyorlanadigan taomlar, oziq-ovqat do'konlarining zichligi yuqori. Bu shahar hududida yashovchi o'smirlarga doimiy ta'sir qilishi va juda mazali, kaloriyali oziq-ovqatlarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirib, o'smirlarda oziq-ovqatga nisbatan moyilikni kuchaytiradi.

Diniy qarashlarning ustuvorligi shkalasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi (t=2,53; p≤0,05). Ushbu shkalada qishloq hududidagi o'smirga nisbatan shahar hududidagi o'smirlarda diniy moyillik yuqori darajada ekanligi aniqlandi.

3-jadval

O'smirlarda «Tobe xulqni aniqlash» metodi natijalari, viloyatlar kesimida, (Student t mezoni n=680)

Addiktiv xulq turlari	Viloyat	N	O'rtacha qiymat	St.og'ish	T
Spirtli ichimliklar iste'mol qilishga moyillik	Farg'ona	340	6,23	2,51	-2,00*
	Andijon	340	6,62	2,66	
Jinsiy munosabatlarga qiziqish	Farg'ona	340	7,43	3,16	2,48*
	Andijon	340	6,90	2,43	
Oziq-ovqat iste'mol qilishga tobelik	Farg'ona	340	12,35	4,84	-2,51*
	Andijon	340	13,33	5,37	
Diniy qarashlarning ustuvorligi	Farg'ona	340	13,91	5,88	3,15**
	Andijon	340	12,62	4,68	
Tamaki maxsulotlarini chekishga moyillik	Farg'ona	340	6,74	3,20	2,48*
	Andijon	340	6,20	2,37	

*p≤0,05; ** p≤0,01; *** p≤0,001

Spirtli ichimliklarga moyillik shkalasi bo'yicha statstik jihatdan ishonchli farq aniqlandi (t=-2,00; p≤0,05). Ushbu shkala bo'yicha Farg'onaga nisbatan Andijon hududida yashovchi o'smirlarda

spirtli ichimlikka moyillik bo'yicha tafovut aniqlandi. «Jinslararo munosabatlarga qiziqish» shkalasi bo'yicha ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi (t=2,48; p≤0,05). Ushbu shkala bo'yicha Andijon hududida yashovchi o'smirlarga nisbatan Farg'ona hududida yashovchi o'smirlarda «Jinslararo munosabatlarga bog'liqlik» nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi

Bu ko'rsatkichni quyidagi omillar asosida tushuntirish mumkin. Farg'onada axloqqa bo'lgan madaniy munosabatni ko'proq din bilan bog'lanishib, jinsiy aloqaga nisbatan konservativ munosabatda bo'lgan hudud hisoblanganligi uchun o'smirlardagi bu turdagi istaklarni bostirishga urinishlar nisbatan ko'proq uchraydi. O'smirdagi jinsiy qiziqishni qo'pol ravishda bostirish nosog'lom kurash-ish mexanizmi hisoblanib, o'smirda yanada shu sohaga qiziqishning ortishiga sabab bo'ladi.

«Oziq-ovqatga moyillik» shkalasi bo'yicha ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi (t=-2,51; p≤0,05). Ushbu shkalada Farg'ona viloyatida yashovchi o'smirlardan ko'ra Andijon hududida yash-ovchi o'smirlarda oziq-ovqatga moyillik yuqori ekanligi aniqlandi. Bu farqni Andijon, ayniqsa, sha-har hududida oziq-ovqat turli-tumanligi, noyob yegulik tayyorlanadigan maskanlarning ko'payib ketganligi, yetkazib berish xizmatlarining ko'p va qulayligi, shunga monand tez tayyorlanuvchi oziq-ovqat mahsulotlari suratlari tushurilgan reklama bannerlarining Farg'ona viloyati hududidagiga nis-batan ko'pligi bilan izohladik.

«Diniy qarashlarning ustuvorligi» shkalasi bo'yicha ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi. (t=3,15; p≤0,01). Ushbu shkala bo'yicha Farg'ona viloyati hududida yashovchi o'smirlarda Andijon hududidagi o'smirlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Farg'ona viloyati azaldan kuchli diniy urf-odat va an'analar bilan bog'liq tarixga ega hudud hisoblanadi. Hozirgacha aholining aksariyat qismi bu urf-odatlarni sodiqlik bilan yosh avlodlarga yetkazadi. Hayit namozlariga, ta'til vaqtlari juma nam-oziga o'smirlarning chiqish holatlari yaqinlari tomonidan ijobiy baholanishi, bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlarda diniy ruhdagi kontentlarning ko'pligi sabab bo'layotganligi bilan izohlash mumkin.

Tamaki mahsulotlarini chekishga moyillik» shkalasi bo'yicha ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi (t=2,48; p≤0,05). Ushbu shkala bo'yicha Farg'ona viloyati hududida yashovchi o'smirlarda Andijon viloyati hududidagi o'smirlarga nisbatan chekishga moyillik yuqori ekanligi ko'rinib turibdi. Ushbu farqni bir necha omillar asosida tushuntirish mumkin. «Yolg'izlikni his qi-lish» testi natijalariga ko'ra Farg'ona hududida yashovchi o'smirlarga qaraganda o'zini yolg'iz his qilish darajasi yuqori chiqqan. O'smirlarda o'zini yolg'iz his qilish yuqori darajada mavjudmi, demak o'z-o'ziga past baho berish, hissiy bosim mavjud bo'lib, o'smir stressni bartaraf etishda chekishdan himoya mexanizmi sifatida foydalanadi.

4-jadval

O'smirlarda «Tobe xulqni aniqlash» metodi natijalari, yosh kesimida, (Student t mezoni)

Addiktiv xulq turlari	Yosh	N	O'rtacha qiymat	Stan. o'g'ish	T
Spirtli ichimliklar iste'mol qilishga moyillik	12 yosh	101	6,87	2,97	2,021*
	14 yosh	215	6,24	2,38	
Kompyuterga qaramlik	12 yosh	101	10,08	3,81	3,814***
	14 yosh	215	8,41	3,52	
Azart o'yinlar o'ynashga moyillik	12 yosh	101	7,71	2,99	3,092**
	14 yosh	215	6,66	2,76	

*p≤0,05; ** p≤0,01; *** p≤0,001

Spirtli ichimliklarga moyillik shkalasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi (t=2,021; p≤0,05;). Bu farq katta farq hisoblanmaydi va quvonarlisi har ikkala yosh davrida ham spirtli ichim-liklarga moyillik past darajada ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bu ko'rsatkichni bir necha omillar asosida tushuntirish mumkin.

Bizning etnik xususiyatlarimizga xoslik bu ijtimoiy-jamoa fikrini o'z shaxsiy xohishlaridan ustun qo'yish bo'lib, bola tarbiyasida ijtimoiy me'yorlarga amal qilishi talabi qo'yiladi. O'smirning spirtli ichimlik iste'moli ijtimoiy jihatdan ijobiy jihat sifatida baholanmaydi.

Voyaga yetmagan yoshlarga spirtli ichimliklarni sotishni cheklash, spirtli ichimliklarni reklama qilish va targ'ib qilish bo'yicha qat'iy qoidalar, spirtli ichimliklarni suiste'mol qilish xavfi haqida ogohlantiruvchi ma'rifiy ko'rsatuv va ijtimoiy tarmoqlarda kontentlarning ko'pligi, spirtli ichimlik iste'molining har tomonlama zararligini chuqur anglash imkonini beradi. Farg'ona va Andijon hududidagi o'smirlar o'rtasida spirtli ichimlikka moyillik ko'rsatgichi past ekanligi, bu muammo umuman yo'q degani emas. O'smirlar o'rtasida spirtli ichimliklarga tobelikning past darajasini saqlab qolishda samarali psixoprofilaktik va korreksion dasturlar tuzish va faol tarzda sog'lom turmush targ'iboti juda muhimdir.

«Azart o'yinlarga moyillik» shkalasi bo'yicha 12 yosh va 14 yoshdagi o'smirlarning natijalari solishtirib ko'rilganda, umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida ishonchli tafovutlar borligi ma'lum bo'ldi ($t=3,092$; $p\leq0,01$;) «Kompyuterga qaramlik» shkalasi bo'yicha esa ($t=3,814$; $p\leq0,001$) umumiy natijalarning o'rta arifmetik qiymatlari o'rtasida ahamiyatli farqni quyidagi psixologik omillar asosida tushuntirish mumkin. 12 yosh davri o'smirlikning dastlabki yosh davri hisoblanib, 14 yoshli o'smir esa rivojlanishda nisbatan oldinda bo'ladi. 12 yoshli o'smirda qimor o'yinlarining potensial xavfini anglash bo'yicha tajribasining kamligi, xavfni to'liq tushunmasligi, tengdoshlarining bosimiga ko'proq moyil bo'lishi, 14 yoshli o'smirda esa avtonomiyalarning barcha turiga rivojlanishning mavjudligi, o'smirdagi avtonomiyalarni o'rganish bo'yicha o'tkazilgan test natijalariga ko'ra 14 yoshli o'smirlarda barcha turdagi avtonomiya ko'rsatkichlari, 12 yoshli o'smirlar ko'rsatkichlaridan yuqori chiqqanligi, 12 yoshli o'smirda kompyuter va azart o'yinlarga moyillikning yuqori darajada bo'lishini yangi tajribalarni o'rganish istagi, hissiy o'z-o'zini tartibga solish bilan bog'liq qiyinchiliklar asosida tushuntirish mumkin.

Keltirilgan empirik tadqiqot natijalari tahlillari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, o'smirlarda turli omillar, jumladan, psixologik va ijtimoiy omillar ta'sirida kimyoviy va kimyoviy bo'lmagan addiktiv xulqqa moyillik mavjud. Narkomoyillik, spirtli ichimliklarga moyillik, tamaki mahsulotlarini chekishga moyillik shkalalari bo'yicha natijalarning past ko'rsatkichi bizni quvontirsa-da, hozirda o'smirlar o'rtasida turli xildagi energiya beruvchi ichimliklarga moyillik ortib borayotganligi xavotirga solidi. Energetik ichimliklar ichishning tengdoshlar ichida urf bo'lishi va zamonaviy xatti-harakat sifatida qabul qilinishi, o'smirdagi kech uxlash sabab uyqusizlik va charchoqdan himoyalanish istagi, salomatlikka yetkazilgan zarar haqida ma'lumotning kamligi energetik ichimliklarni o'smirlar o'rtasida ommalashuviga olib kelayotgan bo'lsa, o'smirlar video o'yinlardan, ijtimoiy media platformalaridan yoki boshqa onlayn faoliyatlardan haddan tashqari foydalanishlari, doimiy aloqaga bo'lgan ehtiyoj, ijtimoiy tarmoq platformalari tomonidan taklif qilinadigan doimiy rag'batlantish, cheksiz qulayliklarni taklif etish bilan ko'plab o'smirlarimizda ushbu turdagi addiktiv xulqqa moyillikning kuchayishiga sabab bo'moqda.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati.

1. Baratova D.Sh. Dezadaptatsiyalashgan o'smirlar xulqi korreksiyasida pedagogning psixologik kompetentligi Avtoref. ps.f.n. – Toshkent: 2012. – 24 b.

2. Dalimova N.M. Kompyuter o'yinlariga tobe o'smirlarning psixologik diagnostikasi va korreksiyasi xususiyatlari. Avtoref.... ps.f.n. – Toshkent: 2010. –24 b.

3. Нахимова Я.Н., Ромашкина Г.Ф. Социальные установки молодежи на употребление наркотиков и профилактика наркомании // Образование и наука. 2017. Т. 19, № 6. С. 138-160. DOI: 10.17853/1994-5639-2017-6-138-160.

4. Mullaboyeva N.Sh. O'smirlarda yolg'izlik hissi psixokorreksiyasi va psixoprofilaktikasi (PhD). – Toshkent: TDPU. 2020. – 177b.

5. Mask A.H., Harrington A.L., Frances R.J Clinical manual for treatment of al-coholism and addictions. Washington: American Psychiatric Publishing, Inc. 2010-305 p.

Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

KAFEDRA MUDIRLARI BOSHQARUV FAOLIYATIDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK O'ZARO TA'SIR MODELLARI

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida kafedra mudirlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sir modellari tahlil qilinadi. Kafedra mudirining ijtimoiy roli, muloqot madaniyati, ishonch muhitini shakllantirishi va emotsional intellekt asosida qaror qabul qilishi boshqaruv kompetentligining asosiy ko'rsatkichlari sifatida ko'rib chiqilgan. Boyatzis, Goleman, Katz modellari asosida rahbarlik faoliyatiga mos yondashuvlar tavsiya etilib, empirik dalillar asosida amaliy tavsiyalar berilgan.*

Tayanch so'zlar: *kafedra mudiri, boshqaruv kompetentligi, ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sir, muloqot madaniyati, emotsional intellekt.*

МОДЕЛИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ В УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗАВЕДУЮЩИХ КАФЕДРАМИ

Аннотация. *В статье анализируются модели социально-психологического взаимодействия в управленческой деятельности заведующих кафедрами высших учебных заведений. Особое внимание уделяется социальной роли заведующего кафедрой, культуре общения, формированию доверительной среды и принятию решений на основе эмоционального интеллекта как ключевым показателям управленческой компетентности. На основе моделей Бойatsica, Големана и Каца предложены интегративные подходы, а также представлены практические рекомендatsiu на основе эмпирических данных.*

Ключевые слова: *заведующий кафедрой, управленческая компетентность, социально-психологическое взаимодействие, культура общения, эмоциональный интеллект.*

MODELS OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL INTERACTION IN THE MANAGERIAL ACTIVITIES OF DEPARTMENT HEADS

Annotation. *The article analyzes socio-psychological interaction models in the management activities of department heads at higher education institutions. Particular attention is given to the department head's social role, communication culture, the creation of a climate of trust, and decision-making based on emotional intelligence as key indicators of managerial competence. Drawing on the models of Boyatzis, Goleman, and Katz, integrative approaches are proposed along with practical recommendations based on empirical evidence.*

Keywords: *department head, managerial competence, socio-psychological interaction, communication culture, emotional intelligence.*

Kirish. Oliy ta'lim tizimining samarali rivojlanishida kafedra mudirlarining ijtimoiy-psixologik jihatdan pishiq boshqaruv faoliyati muhim o'rin tutadi. Bugungi globallashuv sharoitida ular nafaqat ilmiy-pedagogik jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi, balki jamoada sog'lom muhitni yaratishga qodir lider sifatida ham faoliyat yuritishlari lozim. Ayniqsa, ishonchli muloqot, emotsional barqarorlik va konstruktiv hamkorlikni ta'minlashda ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sir modellari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada kafedra mudirlarining boshqaruv faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik ta'sir mexanizmlari tahlil qilinib, ularni amaliyotda samarali qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi.

Maqsad. Kafedra mudirlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlash hamda zamonaviy psixologik modellar asosida samarali muloqot va rahbarlik kompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va metodlar.

Oliy ta'lim muassasalarida rahbarlar, shu jumladan kafedra mudiri, dekan, ilmiy kengash a'zolari, professorlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir tizimi faqat ma'muriy ierarxiya bilan cheklanmaydi. Bu jarayonni chuqurroq anglash uchun individual va guruh psixologiyasining asosiy qonuniyatlarini hisobga olish zarur. Ushbu tizimda har bir boshqaruv sub'ekti bir vaqtning o'zida ham ijro etuvchi, ham ta'sir etuvchi rolida faoliyat yuritadi.

Individual psixologiya nuqtai nazaridan, har bir rahbar shaxsning o'z shaxsiy motivatsiyasi, qaror qabul qilish uslubi, ishontirish qobiliyati va emotsiyalarni boshqarish darajasi o'zaro ta'sirning mazmuni va shakliga ta'sir qiladi. Daniel Golemanning emotsional intellekt nazariyasiga ko'ra, rahbar shaxs o'z emotsiyasini to'g'ri boshqara olsa, u boshqalar bilan konstruktiv muloqotga kirisha oladi va ishonchli munosabat o'rnata oladi[1]

Guruh psixologiyasi nuqtai nazaridan, mudir, dekan va professorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ko'pincha *nufuz, ta'sir darajasi, taassurot boshqaruvi, nozik raqobat, va kuch muvozanati* kabi omillar asosida shakllanadi. Guruh ichida ta'sir etuvchi shaxslar (informal liderlar) ba'zan rasmiy rahbardan ham katta ijtimoiy qudratga ega bo'ladi. Buni Lewin, Lippitt va Whitening liderlik uslublari toifalari yordamida tushuntirish mumkin."Guruh ichidagi ta'sir munosabatlari rahbarlik maqomidan ko'ra, shaxsiy nufuz va ishonch asosida barpo etiladi"[2]

MDH olimlari professor-o'qituvchilar bilan kafedra mudirlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir aksar hollarda ta'lim an'analari, katta-kichik munosabatlari, hamda norasmiy ta'sir etkazuvchilar (masalan, ilmiy darajasi katta professorlar) orqali namoyon bo'ladi. Bu jarayonda guruhdagi ijtimoiy rollar va gomeostazni saqlash tamoyili muhim ahamiyatga ega. "Gomeostaz" (lotincha homoios – "bir xil", stasis – "turish") — bu tashkilot yoki guruh ichida barqarorlik va muvozanat holatini saqlash qobiliyatidir.

Oliy ta'lim muassasasi – bu ma'muriy, ta'limiy va ilmiy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy tizim hisoblanadi. Universitet muhitidagi ijtimoiy dinamika – bu tashkiliy faoliyat jarayonida xodimlar, o'qituvchilar va rahbarlar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi, shakllanishi va tartibga solinishi jarayonidir.

Ijtimoiy dinamikaning shakllanish omillariga to'xtaladigan bo'lsak, asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- shaxslararo munosabatlar xarakteri (empatiya, ishonch, konfrontatsiya darajasi)
- ijtimoiy rollar taqsimoti (mudir, professor, katta o'qituvchi, yosh mutaxassis)
- qaror qabul qilish jarayonida ishtirok darajasi
- norasmiy ta'sir etkazuvchi shaxslar mavjudligi
- umumiy maqsad va tashkiliy qiymatlarga bo'lgan munosabat

Gareth Morgan ta'kidlaganidek, har qanday tashkilot "jonli ijtimoiy organizm" bo'lib, unda o'zaro ta'sir va o'zgarish doimiy ravishda kechadi. "Tashkilot – bu mutlaq tuzilma emas, balki o'zgaruvchan, ko'p qirrali va doimiy harakatdagi ijtimoiy tizimdir"[3]

Endi formal va norasmiy guruhlarning farqi va o'zaro ta'siriga to'xtalib o'tamiz. Formal guruhlar – bu rasmiy lavozim, vazifa va mas'uliyatlarga asoslangan tuzilmalardir (kafedra, dekanat, senat, kengash va h.k.). Norasmiy guruhlar – bu shaxsiy simpatiyalar, do'stona munosabatlar, umumiy manfaatlar asosida shakllanadigan ichki mikrotuzilmalardir.

MDH olimlari, xususan Petrovskiy A.V. va Shibutani T. fikricha, noruhsat etilgan guruhlar ayni vaqtda katta ijtimoiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki ularda shaxsiy ishonch va shaxsiy nufuz asosiy o'rin tutadi. "Norasmiy guruhlar tashkilotning ichki psixologik muhitini shakllantiradi va ko'pincha formal tuzilmalarga qaraganda ta'sirchanroq bo'ladi"[4].

Norasmiy guruhlar rahbariyatga qarshi tura oladi, uni qo'llab-quvvatlashi mumkin yoki ichki muammolarni yashirin boshqaruv mexanizmiga aylantirishi mumkin. Formal va norasmiy tuzilmalar o'rtasidagi muvozanat va hamkorlik tashkilot barqarorligining asosidir.

---

[1] Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.

[2] Lewin K., Lippitt R., White R.K. Patterns of aggressive behavior in experimentally created social climates. – Journal of Social Psychology, 1939, Vol. 10(2), p. 271–299.

[3] Morgan G. Images of Organization. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2006. – 512 p.

[4] Петровский А.В. Психология управления: теоретические и прикладные аспекты. – Москва: Академический проект, 2019. – 288 с.

Masalan, universitetda kafedralar formal tuzilma bo'lsa-da, ayrim ilmiy maktablar yoki ustoz-shogird an'analari asosida shakllangan norasmiy "guruhlar" professor-o'qituvchilarning xulq-atvori va qarorlarini belgilab berishi mumkin. Bu guruhlar ishonchli rahbarni qo'llab-quvvatlab, kafedradagi ijtimoiy dinamikani ijobiy tomonga burishi, yoki aksincha, qarshilik harakati sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Ta'lim muassasalarida ijtimoiy dinamika ko'p qirrali bo'lib, uning shakllanishi formal va norasmiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir bilan bog'liqdir. Ammo bu o'zaro ta'sir doimiy barqaror holatda saqlanmaydi, balki vaqtinchalik o'zgarishlar, rol ivazlanishlari va liderlikdagi dinamik almashinuvlar orqali rivojlanib boradi. Shu nuqtai nazardan, kafedrada ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar, shaxsiy nufuz, guruh ichidagi shaxsiy munosabatlar va norasmiy etakchilarning ta'siri rollar almashinishi jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi. Guruh ichida mavjud bo'lgan manfaatlar qarama-qarshiligi esa, muvaqqat liderlik va ta'sir markazlarining yaratilishiga olib keladi. Demak, ijtimoiy dinamikaning ildizida nafaqat guruh tuzilmasi, balki shaxslararo munosabatlardagi kuch muvozanati va rollarga bo'lgan intilish ham yotadi.

Oliy ta'lim muassasalari, jumladan, kafedralar tuzilmasi — bu nafaqat ma'muriy ierarxiya, balki o'zaro roli, ta'siri va maqsadlari bir-biriga bog'liq ijtimoiy tizim hamdir. Bu tizimdagi har bir ishtirokchi ma'lum ijtimoiy rolni bajaradi va guruhdagi umumiy holat doimiy o'zgaruvchan holda turli sharoitlarga moslashadi.

Ijtimoiy psixologiyada "rol almashishi" muayyan shaxs o'zining avvalgi vazifasi yoki nufuzidan voz kechganida, bu vazifa guruhdagi boshqa a'zo tomonidan o'zlashtirilishi jarayonidir. Jumladan:

Kafedra mudiri xizmat safariga ketgan yoki ishdan ketgan holatda, unga yaqin shaxs vaqtinchalik rahbar vazifasini bajaradi.

Ta'lim va ilmiy loyihalarda etakchi professor o'rnini yosh, tashabbuskor kadrlar egallashi mumkin.

Ba'zi hollarda norasmiy etakchi nufuzli ta'sir vositasida kafedra ichida barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

"Guruhdagi barqarorlik, roli almashgan taqdirda ham, ijtimoiy normalar va taraqqiyotga bo'lgan sadoqat bilan saqlanadi"[1]

Muvaqqat lider muayyan sharoitda, masalan, rahbar yo'qligida yoki murakkab muammo yuzaga kelganda, guruhni boshqaradigan, lekin rasmiy vazifasi bo'lmagan shaxsdir. Katz and Kahn ta'kidlaganidek, tashkilotdagi funksional samaradorlik ko'pincha aynan bunday muvaqqat etakchilar faoliyati bilan ta'minlanadi[2]. Jumladan:

Yosh va bilimli katta o'qituvchi murakkab tadqiqotni boshqarib, ilmiy guruh etakchisiga aylanadi.

Rasmiy mudir unga to'liq vakolat bermagan bo'lsa ham, jamoa uni etakchi sifatida qabul qiladi. "Liderlik — bu faqat lavozim emas, balki guruh ehtiyojlariga javob beradigan ta'sir qobiliyatidir".

Kafedra tuzilmasida shaxsiy, kasbiy, ilmiy yoki siyosiy manfaatlar turlicha bo'lishi mumkin. Bu qarama-qarshiliklar ba'zan raqobat, hasad, yoki guruhlarga bo'linish shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, qarama-qarshilik sabablari:

–kasbiy raqobat – lavozimlar, reytinglar va loyihalar uchun

–ilmiy ustunlikka da'vo – guruh ichidagi nufuz uchun kurash

–ma'lumot va resurslar taqsimoti – grantlar, soatlar va jadvallar bo'yicha kelishmovchilik

Ta'lim muassasalaridagi rol almashinishi, muvaqqat etakchilik va manfaatlar qarama-qarshiligi bilan tarz topayotgan ijtimoiy dinamika, axloqiy va kasbiy me'yorlarsiz muvaffaqiyatli boshqarilishi qiyin. Bunday sharoitda tashkilot ichidagi hamkorlikni ta'minlash va ichki barqarorlikni saqlash uchun ijtimoiy normalarga amal qilish va intizomni to'g'ri yo'naltirish asosiy vositaga aylanadi. Kafedra rahbarining muvaqqat yetakchilarga bo'lgan munosabati, rollar taqsimotini adolatli boshqarishi va manfaatlar ziddiyatini norma va intizom asosida hal etishi tashkilotda ijtimoiy gomeostazni saqlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, rahbar shaxsning ta'siridagi ijtimoiy intizom

[1] Biddle B.J. Role Theory: Expectations, Identities, and Behaviors. – New York: Academic Press, 1986. – 430 p.
[2] Katz D., Kahn R.L. The Social Psychology of Organizations. – New York: Wiley, 1978. – 728 p.

ijtimoiy dinamikada yuzaga keladigan muvaqqatliklar va qarama-qarshiliklarni hal etishda barqarorlashtiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi tashkilot ichidagi muvaffaqiyatli hamkorlik va barqaror muhit shakllanishi, avvalo, ijtimoiy normalarga rioya etilishi va intizomning ta'minlanishi bilan bog'liq. Bu jarayonda kafedra rahbarining ta'siri markaziy o'rinni egallaydi. Universitet mikromuhitida ijtimoiy normalar — bu rasman belgilanmagan, ammo umumiy qabul qilingan va amal qilinishi kutiladigan axloqiy, kasbiy, muloqotga oid qoidalar tizimidir.

Ijtimoiy norma — tashkilotda madaniyat va intizomni belgilaydigan o'lchovdir. Ijtimoiy normalarga quyidagilar kiradi:

–*hamkasblarga hurmat va ehtirom ko'rsatish*

–*ilmiy muhokamalarda konstruktivlik*

–*axborot almashishda shaffoflik va mas'uliyat*

–*yosh kadrlarga nisbatan tarbiyaviy munosabat*

Bandura ta'kidlaganidek, odamlar jamoaviy intizom va normaga modellash, mukofot yoki tanqid orqali moslashadilar. Bu borada rahbar shaxs "ijtimoiy modeli" sifatida namoyon bo'ladi. "Ijtimoiy normaga rioya qilishda ta'sirchan rahbar shaxsning shaxsiy xulqi va namunasi hal qiluvchi ahamiyatga ega"[1].

Darhaqiqat, kafedra mudirining intizom shakllantirishdagi roliga to'xtaladigan bo'lsak, kafedra rahbari rasmiy va norasmiy tarzda jamoa a'zolariga ta'sir ko'rsatuvchi shaxs sifatida:

- *intizomli ish muhitini yaratadi;*
- *aniq intizomiy talablar va mezonlar joriy etadi;*
- *rioya qilmagan holatlarda adolatli chora ko'radi;*
- *hamkorlik muhitini saqlash uchun empatik va muloqotga ochiq bo'ladi.*

Xulosa. Oliy ta'lim muassasalarida kafedra mudirining boshqaruv faoliyati samaradorligi nafaqat tashkilot strukturasi va normativ hujjatlar, balki jamoa ichidagi ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sir sifatiga ham bevosita bog'liqdir. Tadqiqotda aniqlanishicha, rahbarning emotsional intellekti, kommunikativ ko'nikmalari, ijtimoiy sezuvchanligi hamda konstruktiv muloqotga tayangan boshqaruv uslubi kafedra miqyosida ijobiy psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqolada Boyatzis, Goleman, Katz modellariga tayanib, ijtimoiy-psixologik o'zaro ta'sirning boshqaruv kompetentligiga ta'siri konseptual jihatdan asoslab berildi. Shu asosda oliy ta'lim muassasalarida kafedra mudirlarining ijtimoiy-psixologik salohiyatini rivojlantirish bo'yicha metodik va tashkiliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari boshqaruv jarayonlarining insoniy omilga asoslangan ilg'or yondashuvlar bilan boyitilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, amaliyot uchun dolzarb va foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bandura A. *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.

2. Biddle B.J. *Role Theory: Expectations, Identities, and Behaviors*. – New York: Academic Press, 1986. – 430 p.

3. Goleman D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. – New York: Bantam Books, 1995. – 352 p.

4. Katz D., Kahn R.L. *The Social Psychology of Organizations*. – New York: Wiley, 1978. – 728 p.

5. Lewin K., Lippitt R., White R.K. *Patterns of Aggressive Behavior in Experimentally Created Social Climates*. – *Journal of Social Psychology*, 1939, Vol. 10(2), p. 271–299.

6. Morgan G. *Images of Organization*. – Thousand Oaks, CA: Sage Publications, 2006. – 512 p.

7. Петровский А.В. *Психология управления: теоретические и прикладные аспекты*. – Москва: Академический проект, 2019. – 288 с.

[1] Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.

Rajabboyev Asror Alisherovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: asror@urdu.uz

OILA MUHITINING AGRESSIV XULQ-ATVORLI O'SMIRLARNING IJTIMOIYLASHUVIGA TA'SIRI: PSIXOLOGIK VA SOTSIOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oila muhitining agressiv xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri psixologik va sotsiologik nuqtai nazardan o'rganiladi. Maqola oiladagi tarbiya uslublari, ota-ona munosabatlari, emotsional muhit va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o'smirlarning ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishiga ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda agressiv xulq-atvorning shakllanishida oila muhitining roli, shuningdek, ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqola xulosalar va amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so'zlar*: oila muhiti, agressiv xulq-atvor, o'smirlar, ijtimoiylashuv, psixologik omillar, sotsiologik tahlil.*

ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНОЙ СРЕДЫ НА СОЦИАЛИЗАЦИЮ ПОДРОСТКОВ С АГРЕССИВНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ: ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ И СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье с психологической и социологической точек зрения рассматривается влияние семейной среды на процесс социализации подростков с агрессивным поведением. Анализируются стили воспитания в семье, родительские отношения, эмоциональная атмосфера и социально-экономические факторы, влияющие на усвоение подростками социальных норм. В исследовании рассматривается роль семейной среды в формировании агрессивного поведения, а также пути решения данных проблем. Статья завершается выводами и практическими рекомендациями.*

Ключевые слова*: семейная среда, агрессивное поведение, подростки, социализация, психологические факторы, социологический анализ.*

THE IMPACT OF FAMILY ENVIRONMENT ON THE SOCIALIZATION OF ADOLESCENTS WITH AGGRESSIVE BEHAVIOR: A PSYCHOLOGICAL AND SOCIOLOGICAL ANALYSIS

Abstract. *This article examines the influence of the family environment on the socialization process of adolescents with aggressive behavior from both psychological and sociological perspectives. It analyzes parenting styles, parent-child relationships, emotional atmosphere, and socio-economic factors affecting adolescents' adoption of social norms. The study explores the role of the family environment in the development of aggressive behavior and considers ways to address these issues. The article concludes with findings and practical recommendations.*

Keywords*: family environment, aggressive behavior, adolescents, socialization, psychological factors, sociological analysis.*

Kirish. O'smirlik davri shaxsning ijtimoiy me'yorlar va qoidalarni o'zlashtirishi, jamiyatning faol a'zosiga aylanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda oila muhiti birinchi va eng muhim institut sifatida xizmat qiladi. Ota-onaning tarbiya uslublari, oiladagi emotsional muhit va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o'smirning xulq-atvori va ijtimoiylashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi[1]. Biroq, agressiv xulq-atvor namoyon qiladigan o'smirlar ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa ko'pincha oila muhitidagi muammolar bilan bog'liqdir[2].

O'zbekistonda so'nggi yillarda o'smirlar orasida agressiv xulq-atvorning ortishi, xususan, maktab muhitida zo'ravonlik va bulling hodisalari ko'payishi oila muhitining bu jarayondagi rolini

o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda[3]. Ushbu maqola oila muhitining agressiv xulq-atvorli o'smirlarning ijtimoiylashuviga ta'sirini psixologik va sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Teatr	19	27,2	12,5	17,9	16,2	20,5	**18,4**
Direktor	33,3	18,2	25	14,3	29,7	15,3	**22,4**

Jadvaldan ko'rinib turganidek, eng ko'p imij uslubi sifatida "Emotsiya" uslubi jami sinaluvchilar va ayol sinaluvchilarda ko'p miqdorda qayd etildi. Umumiy erkakalar soniga nisbatan ushbu uslub 21,6% sinaluvchi erkaklarda va 43,6 % ayol sinaluvchilarda namoyon bo'ldi.

Ayol sinaluvchilarning bunday uslubdagi imijiga ega bo'lishligining asosiy sabablari ularning emotsionalligi, hissiyotlarni ochiq namoyon qilishlari, rang-baranglikni yoqtirishlari, o'ziga jalb qilish xulqining namoyon bo'lishligi deb izohlash mumkin. Har ikkala jins vakillarining garderobida yorqin rangli, bir oz namoyishkorona liboslarni uchratish mumkin. Ularda feysbilding yaxshi rivojlangan. Yuz gigiyenasi, fiziognomika, kosmetologik tuzatish, makiyaj yoki vizaj, sochlarni parvarishlash va mos turmakni tanlashga o'ta e'tibor beradilar. Buning yordamida romantik va drammatik uslubni namoyon qilishga harakat qiladilar.

Bunday tipli shaxslarda yorqin his-tuyg'ularni boshdan kechirish qobiliyati mavjud bo'lib, dildan hayratga tushishni, hayratlanishni, xafa bo'lishni, tashvishlanishni biladilar. Ular atrofni, dunyoni his qila oladilar. Shaxslararo munosabatlarda suhbatdosh bilan muloqotda odamlar tabassum qiladilar, baxt, quvonch, zavqni his etadilar. Ular turli ranglardan oqilona foydalanaoladilar, ko'pchilikni qo'lidan kelmaydigan mutanosiblikni hosil qila oladi, qiziqarli aksessuarlardan foydalanadi. Garmonik uyg'unlikka erisha oladi.

Xulq-atvorida muloqotchanlik, ko'zga tashlanadi, odamlar bilan osongina aloqa o'rnata oladi, kamdan-kam nizoli holatlarga tushadilar va nizolarni chetlab o'tashi yordamida kompromislikni namoyon etadilar. Shuning uchun, aloqa, "harakat" bilan bog'liq kasblarni tanlaydilar. Aniq

qoidalarga rioya qilish kerak bo'lgan, mashaqqatli mehnat, aniq hisob-kitoblar asosiy vazifalar bo'lgan faoliyat talab qiladigan kasblarni qiyinchilik bilan o'zlashtiradi. Bunday kasblarni tanlasalar tushkunlikka tushib qoladilar. Ular xulqida yuqori aloqa kirishuvchanlik, so'zomonlik, ishqibozlik bilan ajralib turadi. Ular ko'p bahslashadilar ammo bahsni ziddiyatga olib kelmaydi.

Salbiy tomonlaridan biri ularning ba'zida vahimaga tushib qolishlarida, bir lahzalik kayfiyatga (cheksiz quvonchdan haddan tashqari qayg'ugacha) juda moyil bo'lishadi. Shuningdek, boshlagan ishlarini oxiriga yetkazmaslik moyilligi ham bor. "Emotsiya" imiji uslubiga ega shaxs xarakteridagi bunday xususiyatlar jamoadoshlari bilan munosabatlarga kirishishda xalaqit berishi mumkin. Hamkasblar, sheriklar bilan munosabatlarni o'rnatishda ularga alohida e'tibor berganlari ma'qul.

Emotsional, yorqin imidjga ega shaxs psixotiplarining kiyim tanlashlarida juda ko'p imkoniyatlar mavjud bo'lib, yorqin rangli kombinatsiyalardan tortib, qiziqarli mualliflik bichimlarigacha xarid qilish imkoni bo'ladi. Ular o'z ustilaridan tajriba o'tkazishga ham tayyor bo'ladilar. Ammo haddan oshib ketmaslik uchun tashriflarning vaqti va joyi oldindan hisobga olish lozim.

Ularning uslubini ushlab turishda oyoq kiyimlari asosiy rollardan birini egallaydi. Poyafzal ularning garderobida ko'p joyni egallaydi. Ularning ichida klassik poyabzallardan tortib dizayner krossovkalarigacha bo'lgan oyoq kiyimlarini topish mumkin. Asosan, ular o'ziga tortadigan modellarni tanlaydilar. Emotsional imijini xush ko'ruvchi psixotiplarning kayfiyatlari moda tendensiyalari kabi tez-tez o'zgarib turadi. Demak, 32,9 % sinaluvchilar, ularning aksariyati o'spirin yoshidagi qizlarni tashkil etib, qolgan imij uslublariga qaraganda ko'pchilikni tashkil etdi.

"Ish-harakat" imiji uslubida erkaklar yetakchilik qildi. Ular sinaluvchilarning 32,4 %ini tashkil etib, sinaluvchi ayollarga nisbatan 11,9 % ga ko'p ekanligi ma'lum bo'ldi. Jami sinaluvchilarning 26,3 %ini tashkil etdi. "Ish-harakat" imiji uslubidagi psixotiplar asosan mehnatga yo'nalgan bo'lib, boshlagan ishini yakunlashga bo'lgan intilish boshqa imij uslubiga ega psixotiplardan ancha yuqori rivojlangan bo'lishini ta'kidlash joyiz.

Ular kamroq so'z, ko'proq harakatda bo'lishlik tamoyiliga bo'ysunadilar. O'zlari va boshqalarga nisbatan talabchan. Pedantlik xususiyati ularga xos, ya'ni tartibga va intizomga qat'iy rioya qiladila, ma'suliyatni his etadilar. Faqat ijrochi vazifasida faoliyat ko'rsatib, tashabbus ko'rsatishda bir oz orqada bo'ladilar, lekin ishga kirishsa uni sidqi dildan yaxshi va puxta bajaradilar. Ular aqlli va mehnatkash odamlar qatoriga kiradilar. Punktuallik , aniqlik, hamma narsada tartibni sevish, vijdonlilik, qat'iyatlilik, samaradorlik - imij yaratish jarayonida asosiy e'tiborni qartishingiz lozim bo'lgan fazilatlar ekanligini doim yodda tutadilar.

Tashqi ko'rinishiga ko'ra, ular konservativ hisoblanib, yorqin rangdagi buyumlarni xush ko'rmaydilar. Ular yangisidan ko'ra eski narsalarni kiyishlari ehtimoli ko'proq.

Oyoq kiyimlarida ular universallik, qulaylik va qulaylikni afzal ko'radilar. Tashqi ko'rinishinishiga va obraziga rang-baranglikni qo'shish tavsiya qilinadi. Ularda original obrazli imij egalarini uchratish qiyin.

Bunday psixotipning zaif tomonlariga to'xtaladigan bo'lsak, ularda liderlikni yoqtirmaslik, bajarilgan ishning to'g'riligiga doimiy shubha bo'lishligi bilan ajralib turadi. Jamoada ishlashda qiynaladilar, individual faoliyat ko'rsatishni afzal biladilar.

Kuchli tomonlaridan biri ma'lum bir joyda juda uzoq vaqt faoliyat ko'rsata olishligi hisoblanadi.Shaxlararo munosabatlarni o'rnatishda qiyinchilarga uchraydilar. Ularning kam muloqot qilishi va o'ta talabni yuqori qo'yishlari shaxsiy munosabatlarni o'rnatishga to'sqinlik qiladi. Ularga kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, ko'p muloqot qilish, ko'proq o'zlariga dam olish imkoniyatini yaratish tavsiya etiladi.

"Direktor" imiji usulibi "Ish-harakat" imiji usulubi singari erkak respondentlarda ko'proq qayd etildi. Sinaluvchilarning 22,4 %i, erkak sinaluvchilarning 29,7 %i va ayol sinaluvchilarining 15,3 %i ushbu uslub imijiga ekanligi ma'lum bo'ldi. Buning sabablarini quyidagicha izohlash mumkin: erkaklarga xos an'anaviy sifatlar majmuasi liderlik, rahbarlik, ma'suliyatlilik kabi sifatlarni olganligi sabab erkaklar imijida "Direktor" psixotipi ko'p uchraydi.


"Direktor" uslubining kuchli tomonlari: ishonch, maqsadga intiluvchanlik, mo'tadil muloqot, mijg'ovlik, nasixatgo'ylik, ko'p gapirmaslik, bandlilik hisoblanadi. Ular doimo biror narsa bilan band

bo'ladilar, bir vaqtning o'zida bir nechta ishni bajarishlari mumkin. Nomidan ko'rinib turibdiki, bunday psixotiplar uyda ham, ishda ham yetakchilikni qo'lga oladilar, ular bilan murosaga kelish qiyin, ular o'z fikrlarini faol ravishda o'tkazishga harakat qiladilar. Shunga ko'ra, takabburlik, qat'iy munosabat va qarashlar, yuqori darajada rivojlangan shuhratparastlik xususiyatlarining yuqoriligi ko'pincha o'z manfaatlarining qat'iy ta'kidlanishiga olib keladi. Bu obrazni yumshatish lozim, chunki u ko'pincha juda kuchli tajovuzkorlikni namoyon qilishga sabab bo'lib qoladi. Buning natijasida ular bilan muloqot qilish qiyinlashadi.

Bunday odamlar yuqori boshqaruvga o'z kuchlari bilan erishadilar, o'zlari hamma narsaga erishadilar va barcha savollarga o'zlari javob topa oladilar. Ammo boshqalarga haddan tashqari qattiqo'llik qilish ijobiy sifat emasligiga ahamiyat bermaydilar.

Kiyimlarga nisbatan ular oddiy va talabchan emas. Ko'pincha buni vaqt va pulni behuda sarflash deb hisoblaydilar. Har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun ular o'z shaxsiy manfaatlarini va boshqalarning manfaatlarini qurbon qilishi mumkin. Bu tipdagi insonlarni rivojlantirish uchun o'zini va odamlarni sevishga o'rgatish lozim. Shuningdek, o'z obrazidagi holatini, mimikalarini, imo-ishoralarini yumshatishga harakat qilishlari kerak.

Sinaluvchilarda eng kam qayd etilgan obraz "Teatr" imiji uslubi bo'lib, u sinaluvchilarning 18,4 %ida, erkak sinaluvchilarning 18,2 %ida va ayol sinaluvchilarining 20,5 %ida qayd etildi. "Emotsiya" imiji uslubi singari "Teatr" imiji uslubidagi psixotiplar ayol sinaluvchilarda erkak sinaluvchilarga nisbatan 4,3 %ga ko'pligi ma'lum bo'ldi (1-diagramma).



1-diagramma. Imij uslublarining sinaluvchilarga nisbatan taqsimlanishi .

1-diagrammaga muvofiq sinaluvchilar o'rtasida eng kam qayd etilgan imij uslublari ichida "Teatr" imiji uslubi oxirgi o'rinni egalladi. Bunday psixotip obrazi uchun butun hayot teatr, ular diqqat markazida bo'lishni yaxshi ko'radilar, osongina turli xil rollarni bajara oladilar. Ular jonlilik, harakatchanlik, artistik qobiliyatingiz bilan ajralib turadi. Jamoada ular ko'pincha norasmiy rahbar rolini o'ynaydi, odamlarning turli xarakteriga osongina moslasha oladi, ularni maqtashlarini va ulardan faxrlanishlarini yaxshi ko'radilar. Aslida, to'g'ri hamkorlikdagi harakat yordamida ular barcha maqsadlariga erishishlari mumkin: qayerdadir ayyorlik bilan, qayerdadir umumiy til topish bilan ishlarni hal eta oladi. Ularni oson ishga qabul qilishadi, ko'pchilik bilan tez chiqisha oladi, lekin xudbinligi yuqori darajada bo'ladi. Aynan xudbinlik ushbu obrazning kamchiligi hisoblanadi.

Bunday tipdagi odamlarning obrazini yaratish qobiliyatiga faqat havas qilish mumkin. Ularning xayolida nima borligini bilish qiyin. Ular diqqat markazida bo'lishni yaxshi ko'radilar. Kiyimlarda ular yorqin, ekstravagant narsalarni va rang kombinatsiyalarini afzal ko'radilar. Oyoq kiyimlari ham barcha rangli, tagliklari og'ir va original, shuningdek, gofrirovka qilingan etiklar yoki bosma naqshli etnik poyabzallarni xush ko'radilar.

Umuman olganda, ular tez-tez jamiyatning g'azabiga uchrab turadi. Atrofidagi ko'p odamlar ularning yorqinligini, xushchaqchaqligini, o'ziga bo'lgan ishonchini da'vogarlik, sarguzasht deb talqin qilishlari mumkin. Bu xususiyatlarni yorqin namoyon bo'lishi atrofdagilarni bu tipga nisbatan

ishochsizlik munosabatlarini shakllanib qolishiga olib kelib, uzoq mudatli aloqalrni ushlab turishga to'sqinlik qiladi. Shuning uchun munosabatlarda shijoatni mo'tadillashtirish tavsiya etiladi. Ularning obrazida ko'pi bilan ikkita yorqin xususiyat bo'lishi kerak.

Qo'lga kiritilgan natijalar asosida quydagilarni xulosa qilish mumkin. Imij yordamida shaxs bir qancha texnologik vazifalarni amalga oshiradi: 1. Ijtimoiy adaptatsiya. To'g'ri tanlangan imij orqali ma'lum bir ijtimoiy muhitga tezroq kirishish, insonlar bilan ijobiy aloqalar o'rnatish mumkin. 2. Shaxsiy-kasbiy xarakteristikalarni namoyon qilish Bu shaxsning o'z kasbiga e'tiborni qaratib, insonlarda simpatiya uyg'otishga qaratilgan. 3. Shaxsiy negativ hislatlarni yashirish. Bu shaxsning kiyim, soch turmagi, ijobiy xulqi orqali o'z kamchiliklarini boshqa insonlardan yashirish usuli hisobdanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Zapesotskiy A.S. Imidjologiya: teoriya i praktika. — SPb.: Piter, 2003. — 352 b.
2. Шкаленкова П. Психология имиджа. — М.: Эксмо, 2020. — 288 с.
3. Васильева Л.И. Стиль поведения и имидж личности. — М.: Академия, 2018. — 216 с.
4. Гиппенрейтер Ю.Б. Введение в общую психологию. — М.: ЧеРо, 2005.
5. Кон И.С. Психология ранней юности. — М.: Просвещение, 1989.

Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o'g'li
Guliston davlat universiteti doktoranti
E-mail:xaydaraliyevabdullo42@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-6597-4022

ZAMONAVIY JAMIYATDA VATANPARVARLIK TUYG'USINING YOSHLARDA NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Maqola vatanparvarlik tuyg'usini psixologik tahlil qilishga, yoshlar avlodda Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish uslublariga hamda ulardagi salbiy xislatlarning shakllanish sabablari va ularni bartaraf etish usullariga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy mavzusi - vatanparvarlik tuyg'usining kognitiv, hissiy, xulq-atvor tarkibiy qismlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik tuyg'usi, vatanparvarlik qadriyati, axloqiy ong, vatanparvarlik tuyg'usiga salbiy ta'sirlar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЕЖИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *Статья посвящена психологическому анализу чувства патриотизма, методам формирования патриотического чувства у молодого поколения, а также причинам формирования негативных черт и способам их устранения. Основная тема исследования — особенности реализации когнитивных, эмоциональных и поведенческих компонентов чувства патриотизма.*

Ключевые слова: *чувство патриотизма, патриотическая ценность, нравственное сознание, негативные влияния на патриотическое чувство.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE MANIFESTATION OF PATRIOTISM AMONG YOUTH IN MODERN SOCIETY

Abstract. *The article is devoted to the psychological analysis of the feeling of patriotism, methods of cultivating patriotic feelings in the younger generation, as well as the causes of negative traits and ways to eliminate them. The main focus of the research is on the specific features of implementing the cognitive, emotional, and behavioral components of patriotism.*

Keywords: *sense of patriotism, patriotic values, moral consciousness, negative influences on patriotism.*

Kirish. Hozirgi kunda yoshlarni vatanparvarlik tuyg'usida tarbiyalash nafaqat ta'lim tashkilotlarining, balki davlatni rivojlantirish dasturining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, Vatan uchun xizmat qilishga xar doim tayyor turish lozim. Yoshlarda harbiy xizmatga bo'lgan qiziqish va intilishni bolalikdan shakllantirish hamda uni doimiy rivojlantirish davr talab darajasiga chiqdi. Prezidentimiz ta'kidlanganidek, "Armiya faqat qurol va aslaha bilangina kuchli hisoblanmaydi, balki ona Vatan uchun jonini ayamaydigan harbiylar – askar va ofitserlar, generallar bilan qudratlidir. Armiyamizning imkoniyatlari va jangovar salohiyatini belgilaydigan asosiy omil mana shu, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz". Inson vatanparvar bo'lish uchun dastlab vatanparvarlik tuyg'usi nima ekanligini anglab yetish lozim.

Vatanparvarlik tuyg'usi axloqiy tuyg'ular guruhiga kirib, o'zida insonning boshqalarga, Vatanga, oilaga, o'ziga bo'lgan ijobiy, mehrga to'la, mardlik va jasurlikni jamlagan munosabatlarni ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Tuyg'u tushunchasi voqelik obyektlari va hodisalariga nisbatan insonning eng yuqori shaklidagi hissiy munosabati bo'lib, uning jismoniy, ma'naviy va ruhiy rivojlanishi ehtiyojlar va qadriyatlarga muvofiqligini anglatadi. Tuyg'ular doimiy motivatsion

ahamiyatga ega bo'lgan hodisalarga qaratilgan va faoliyatning umumiy yo'nalishi uchun javobgardir. K.K.Platonovning ta'kidlashicha, hissiyotning psixologik tuzilishi his-tuyg'ular va tushunchalarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, inson Vatanga muhabbat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun u Vatan tushunchasiga yaqin bo'lishi kerak, masalan, retrolarga bo'lgan hissiyot. Tuyg'ularning konseptual komponenti ularning tarkibidagi his-tuyg'ularni xulq-atvorda namoyon bo'ladigan munosabatlarga aylantiradi. Vatanparvarlik tuyg'usi tarkibida axloqiy tuyg'ularning eng muhimi sifatida uchta komponentni – kognitiv, hissiy va xulq-atvor komponentlarini ajratish mumkin. Kognitiv komponent insonning o'z Vatani, xalqi, madaniyati, fuqarolik burchi haqidagi g'oyalarini o'z ichiga oladi. Hissiy komponent o'zida insonning o'z yurti madaniyatiga, tiliga, tabiatiga, tarixiga bo'lgan muhabbat tuyg'usini aks ettiruvchi tajribalar majmuasini birlashtiradi. Xulq-atvor komponentiga esa to'plangan tajribalarning inson xatti-harakati va faoliyatida namoyon bo'lishi hamda ularning xatti-harakatlarni tartibga soluvchi ta'siri kiradi.

D.A.Leontev Vatanparvarlik tuyg'usini shaxsiy qadriyat sifatida ikki shaklda namoyon bo'ladigan voqelik obyektlari va hodisalarining subyektiv ahamiyati sifatida ko'rib chiqadi. Birinchidan, hodisalarni idrok etish va tasavvur qilish tasvirlarining hissiy rangida amalga oshirilsa, ikkinchidan subyektning hayotdagi o'rni va o'zini anglash jarayonida muayyan ehtiyojlarni qondirish, motivlar amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Yevropa bolalar va o'smirlar psixiatrlari assotsiatsiyasi prezidenti Helmut Remshmidt G'arb jamiyatida yoshlarning norozilik xatti-harakatlarining ba'zi omillarini aniqlaydi va hozirgi davr jamiyatiga juda xos bo'lgan qadriyatlarni tanlash va shaxsning semantik sohasini, xususan, vatanparvarlik tuyg'usini belgilaydi. G'arb jamiyatida urf-odatlarning buzilishi yoshlarda ekzistensial vakuumni oshiradi, buning natijasida mavjudlikning absurdlik(mantiqsizlik) hissi har qanday hokimiyat va tartibni rad etishga olib keladi. Hayotning yangi tuzilishi yoki mavjud tartibni yo'q qilish zarurligi e'lon qilinadi. Bunday pozitsiya, xususan, yoshlar o'rtasida millatchilik va ekstremistik guruhlarning paydo bo'lishi, vatanparvarlik tuyg'usining yo'qolishi, uning o'rnini psevdopatriotizm(shovinistik ruhdagi mafkura bo'lib, bunda odam o'zining tashqi qiyofasi bilan vatanparvarlik g'oyalarini namoyish etayotgandek bo'lib, o'z harakatlari bilan buning aksini qilayotganda namoyon bo'ladi), antipatriotizm(vatanparvarlikka qarshi kurash) egallashi mumkin. Nikolay Malinkinning so'zlariga ko'ra, yoshlarda indifferentizm(Vatanga nisbatan befarqlik), nigilizm(Vatanga oid qadriyat va ma'naviy qiymatga shubha bilan qarash), gumanitarizm(o'z yurtining fuqarolariga qaraganda boshqa davlat fuqarolari uchun yordamsevarlik qilish), kosmopolitizm(milliy an'ana va madaniyatdan, vatanparvarlikdan voz kechish, bevatanlikka da'vat etish) kabi sifatlar vatanparvarlik qadriyatlarini inkor etish tarzida namoyon bo'lishi mumkin.

Muhokama. Yevropa davlatlari o'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilar ekanmiz, vatanparvarlik tuyg'usining shakllanmasligi natijasida yuz beradigan holatlar ham ko'rsatib o'tilgan. Bularga siyosiy va tarixiy shaxslarni hurmat qilmaslik, siyosiy saylovlarda ishtirok etmaslik, blyutendagi "barcha nomzodlarga qarshi" ustunini chiqarib tashlash, asosiy nomzod bilan bir qatorda siyosiy jihatdan zaif nomzodlar ko'rsatilishi natijasida saylovda qatnashmalik, harbiy xizmatga borishdan bo'yin tovlash yoki armiyadan qochish, o'zining erkinlik huquqini boshqalarga zarar yetkazish orqali namoyon qilish, o'zidan ojizlarni kamsitish, milliy qadriyatlarni inkor qilish kabi salbiy holatlar kiradi. Yuqorida sanab o'tilgan holatlarning sababi yosh-avlodda shakllangan noto'g'ri ustanovkalar hisoblanadi. Masalan, ba'zi yoshlar xavfsizlik, uy-joy, ish bilan ta'minlash, qoniqarli iqtisodiy turmush darajasi kabi fuqarolarning asosiy ehtiyojlarini qondira olmaydigan davlatni himoya qilishni istamasliklarini aytadilar. Hatto oliy o'quv yurtiga harbiy xizmatni kechiktirish yoki umuman harbiy xizmatga bormaslik uchun o'qishga kirganlar ham uchraydi. Zamonaviy yoshlarning vatanparvarlik tuyg'usining shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yana bir tendensiya – bu umumiy ijtimoiy ongni kriminallashtirishdir.

Bugungi jamiyatda kuzatilayotgan firibgarlik bilan bog'liq jinoyatlar buning yaqqol misolidir. Yoshlar orasida tezda boyib ketish, ishlamasdan, harakat qilmasdan qimmatbaho sovg'alar olishga intilish kabi istaklar nafaqat mehnat odob-axloqiga, balki o'zbek milliy qadriyatlariga – adolat, halollik, mehr, rahm-shafqat, mehnat orqali o'zini o'zi anglashga jiddiy zarar yetkazmoqda. Natijada yosh

avlod ongida qonuniy va noqonuniy faoliyat o'rtasidagi chegaralar xiralashgan va ular oqibatlardan, jazodan qo'rqmay qonunlarni buzishmoqda.

O.S.Deyneka o'z tadqiqotlarida yoshlarda namoyon bo'ladigan iqtisodiy ongning psixologik deformatsiya (buzilish)larini tahlil qiladi: moliyaviy o'yinlarga, vaziyatga, moliyaviy omadga va bir zumda boyishga gipertrofiyalangan (me'yordan ortiq, keraksiz ravishda kuchaytirilgan) ishonch, iste'molning haddan tashqari faolligi va moliyaviy o'zini o'zi boshqarishning pasayishi kabi buzilishlarni sanab o'tdi. Bu buzilishlar yoshlarning muloqotida yaqqol namoyon bo'lishini aniqlab berdi. Misol uchun, pul birliklarini turli nomlar bilan – "qog'oz", "ko'kat", "soqqa" deb atashlari mumkin.

Psixolog B.S.Bratus Vatan, ona tili, milliy urf-odatlar va urf-odatlarga munosabat inson axloqiy ongining muhim elementi ekanligini ta'kidlaydi. Muallif zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ong muammolarini o'rganib chiqib, vatanparvarlik qadriyatlari va ma'nolarini qabul qilish sohasiga tegishli bo'lgan yoshlarning ommaviy ongida namoyon bo'ladigan bir qator salbiy hodisalarni ta'kidlaydi. Ona tiliga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish vatanparvarlik tuyg'usining namoyon bo'lishidir. Lekin ba'zi yoshlar o'zaro muloqotda turli jargonlardan, jinoyatchilar lug'atidan foydalanishni odat qilib olgan. Oxir-oqibat bu odob-axloqni, ona tilini mensimaslikka olib keladi.

Xulosa. Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish borasidagi tahlilimizga xulosa o'rnida shuni aytib o'tamizki, bugungi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan, kundan kunga o'zgarib borayotgan tahlikali davrda yigit-qizlarda vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishiga g'arb jamiyatining jilovlanmagan targ'ibot va tashviqotlari salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar g'arb modasiga, filmlariga, musiqasiga, oshxonasiga, dam olishni tashkil qilish usullarini afzal bilib, ijodkorga qaraganda ko'proq iste'molchining pozitsiyasini qabul qilishmoqda. Natijada yashash, ta'lim olish, chet elda davolanish bahonasida o'zga yurtga ketish, o'z Vatanini yomon ko'rish darajasiga yetib borishi mumkin. Harbiy-vatanparvarlik tuyg'usining yetishmasligi yigitlarda harbiy xizmatdan qochishga, jamiyat manfaati uchun kamroq ishlashga va ko'proq dam olishga intilishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, yosh avlodda o'z ona yurtining tabiati va madaniy yodgorliklariga, tarixiy joylarga qiziqishning yo'qligi, mintaqa muammolarini hal qilish uchun yetarlicha e'tibor va g'amxo'rlik qilmaslik, uni obodonlashtirishda shaxsan ishtirok etishni istamaslik, kichik Vatan bo'lgan oilaga nisbatan salbiy qarashlar Vatanparvarlik tuyg'usi mavjud emasligidan dalolat beradi. Bu holat millat dardi bilan yashash, unga yordam berish o'rniga shaxsiy muammolarini birinchi o'ringa qo'yish, ko'proq dam olish va iste'mol qilish istagi bilan tavsiflanadi. Ularning Vataniga, ona yurtiga, oilasiga, ijtimoiy hayotga nisbatan qarashlari va qiziqishlari har doim ham vijdon, yuksak axloqiy tamoyillar va vatanparvarlik qadriyatlarini chinakam anglash bilan boshqarilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati harbiy xizmatchilarni taqdirlash marosimidagi nutqi. Toshkent.: 2021-y.

2. Братусь Б. С. К проблеме нравственного сознания в культуре уходящего века // Вопросы психологии. – 1993. – № 1. – С. 6–13

3. Дейнека О. С. Динамика макроэкономических компонентов образа денег в обыденном сознании // Психологический журнал. – 2002. – № 2. – С. 36–46.

4. Леонтьев Д. А. Психология смысла: природа, строение и динамика смысловой реальности. – М.: Смысл, 1999.

5. Платонов К. К. Краткий словарь системы психологических понятий. – М.: Высшая школа, 1984

6. Ремшмидт Х. Подростковый и юношеский возраст: проблемы становления личности: пер. с нем. – М.: Мир, 1994.

Xursanov Omadbek Ulug'bek o'g'li
Qo'qon universiteti pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

OILA MUSTAHKAMLIGINI SAQLASHDA GENDER TENGLIKNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Oila mustahkamlanishida gender ahamiyat uning mohiyati, er va xotinning rollari munosabatlar gender teng huquqlilik, gender mojarolari sabablari jihati uning eng muhimlari bayon etilgan. Shuningdek maqolada oilaviy nizolarni tadqiq etuvchilar nizolarning turlari va ularning kelib chiqish sabablarini, hissiy ziddiyatlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ong, bola, gender, tenglik, odam, noyob, o'zlik, me'yor, munosabat, muomila, er, xotin, axloq, odob, jamiyat, an'ana, ideal.*

ВАЖНОСТЬ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В СОХРАНЕНИИ ПРОЧНОСТИ СЕМЬИ

Аннотация. *Описаны важнейшие аспекты гендера в укреплении семьи, его сущность, роли мужа и жены, гендерное равенство, причины гендерных конфликтов. В подобной статье исследователи семейных конфликтов описывают типы конфликтов и их причины, а также эмоциональные конфликты.*

Ключевые слова: *сознание, ребенок, гендер, равенство, личность, уникальность, идентичность, норма, отношение, поведение, муж, жена, мораль, этикет, общество, традиция, идеал.*

THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN MAINTAINING FAMILY STRENGTH

Annotation. *The importance of gender in strengthening the family, its essence, the roles of husband and wife, gender relations, equal rights, the causes of gender conflicts, the most important aspects are described. In this article, researchers of family conflicts describe the types of conflicts and the causes of their origin, emotional conflicts.*

Keywords: *consciousness, child, gender, equality, person, unique, identity, norm, attitude, behavior, husband, wife, morality, etiquette, society, tradition, ideal.*

Kirish. Oila - bu odamlarning o'zaro munosabatlarining noyob instituti. Har bir insonning o'z yashash joyi bor - bu boshqa odamlar bilan munosabatlar: qarindoshlar, do'stlar, qo'shnilar. Ularning eng yaqinlari bilan munosabatlar allaqachon ular yashaydigan to'g'ridan-to'g'ri "uy", "oila" ni quradi - faqat bu yerda ular o'zlarini yaxshi his qilishadi. Oila - bu shubhasiz umuminsoniy qadriyat, madaniy meros, axloqiy me'yorlar va an'analarning uzatuvchisi bo'lib, uning ahamiyati zamonaviy sharoitda nafaqat har bir shaxs, balki butun jamiyat uchun tobora ortib bormoqda. Erkaklar uchun oilaviy munosabatlar idealiga erishish juda qiyin va zamonaviy oilada nizolarni "o'rnatadi". Aksariyat erkaklar, xotinning ishlashi yoki ishlamasligidan qat'i nazar, uy doimo ozoda va qulay bo'lishi muhim deb hisoblashadi; ayollarning kasbiy faoliyat va siyosatdagi ta'siri har xil bo'lishi mumkin, ammo oilaviy hayotda ularning ustun ta'siri saqlanib qolishi kerak. Erkaklar uy xo'jaligini yuritishdagi rolini bo'rttirib ko'rsatar ekan, ko'pincha uy yumushlari va bolalar tarbiyasi bilan ayollarga qaraganda kamroq shug'ullanishlarini tan olishadi. Va bu, o'z navbatida, oilada keskinlik, kelishmovchilik va nizolarni keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Oiladagi nizolar eng keng tarqalgan shakllardan biridir. Mutaxassislarning fikricha, oilalarning 80-85 foizida nizolar, qolgan 15-20 foizida esa turli sabablarga ko'ra janjal kelib chiqadi. Oilaviy nizolar oila a'zolari o'rtasidagi qarama-qarshi motivlar va qarashlar to'qnashuvi asosida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklardir. Ularning o'ziga xos xususiyatlari bor, ular bunday nizolarni oldini

olish va hal qilishda hisobga olinishi kerak. Avvalo, oilaviy nizolar alohida mavzu bilan ajralib turadi, ularning o'ziga xosligi oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Bu munosabatlarning eng muhim xususiyati shundaki, ularning asosiy mazmuni ham shaxslararo munosabatlardan, ham oilaviy funksiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq huquqiy va ma'naviy majburiyatlardan iborat. Ikkinchidan, gender mojarolari sabablari jihatidan farq qiladi. Ulardan eng muhimlari:

• oila a'zolarining faoliyat, xatti-harakatlari va o'zini namoyon qilish erkinligini cheklash;

• bir yoki bir nechta oila a'zolarining deviant xulq-atvori (alkogolizm, giyohvandlik va boshqalar);

• qarama-qarshi manfaatlar, intilishlarning mavjudligi, oila a'zolaridan birining ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarining cheklanganligi (uning nuqtai nazaridan);

• umuman oilada shakllangan avtoritar, qattiq turdagi munosabatlar;

• hal etish qiyin bo'lgan moliyaviy muammolarning mavjudligi;

• qarindoshlarning nikoh munosabatlariga avtoritar aralashuvi;

• nikohdagi sheriklar va boshqalar o'rtasidagi jinsiy uyg'unlik.

Oilaviy nizolarni tadqiq etuvchilar nizolarning quyidagi turlarini va ularning kelib chiqish sabablarini ajratib ko`rsatadilar: nikoh nizolari; ota-onalar va bolalar o'rtasidagi ziddiyat; qarindoshlar o'rtasidagi ziddiyat, qiymat ziddiyatlari; pozitsion ziddiyatlar; jinsiy nizolar; hissiy ziddiyatlar; iqtisodiy nizolar (nizo manbalari); ochiq nizolar (nizolashayotgan tomonlarning xatti-harakati). Oilaviy nizolarni, ayniqsa, nikohni tahlil qilganda, oila rivojlanishidagi inqiroz davrlarini hisobga olish kerak: birinchi davr nikoh hayotining birinchi yilida kuzatiladi; Ikkinchi davr bolalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq; bolaning tug'ilishi ko'plab oilalar uchun jiddiy sinovdir. Turmush o'rtoqlar va ularning ota-onalari o'rtasida turli masalalar bo'yicha qarashlar to'qnashuvi bo'lishi mumkin, jumladan: bolani tarbiyalash; uchinchi davr o'rtacha nikoh yoshiga to'g'ri keladi (nikohning 10-15 yoshi), bu his-tuyg'ular yetishmovchiligining paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi; To'rtinchi davr 18-24 yil turmush qurgandan keyin sodir bo'ladi. Deyarli barcha oilaviy nizolar jinsga bog'liq, chunki birinchi navbatda, oila erkak va ayol (er va xotin) o'rtasidagi shaxsiy munosabatlardir. Shaxslararo munosabatlar darajasida gender mojarolari oilada ham, kasbiy sohada ham eng keng tarqalgan. Gender mojarolari asosan an'anaviy ayol va erkak rollarini qayta taqsimlash zaruratidan kelib chiqadi. Qoida tariqasida, erkaklar kundalik hayotda oilaviy munosabatlarning an'anaviy turiga munosabatda bo'lishadi (xotin uy ishlarining ko'p qismini bajaradi va agar er unga yordam bersa, bu faqat "erkaklar ishi" ning an'anaviy turlarini bajarish orqali amalga oshiriladi). Ayollar oiladagi rollarni teng taqsimlash turini afzal ko'rishadi, bunda oilaviy majburiyatlar er va xotin o'rtasida teng taqsimlanadi yoki mavjud vaziyatga qarab taqsimlanadi: uy ishlarining asosiy qismini bo'sh vaqti ko'proq bo'lgan oila a'zosi o'z zimmasiga oladi. Oilada gender ziddiyatlarini tartibga solishning asosiy usullari: psixologik-pedagogik madaniyatni shakllantirish, oilaviy munosabatlar asoslarini bilish; bolalarni ularning individual psixologik va yosh xususiyatlarini, shuningdek, hissiy holatini hisobga olgan holda tarbiyalash; oilani to'liq asosda tashkil etish, oilaviy urf-odat va an'analarni shakllantirish; muloqot madaniyatini shakllantirish.

Gender oilaviy nizolar har doim og'ir salbiy emotsional holatlarni qoldiradi, shuning uchun ularning oldini olish quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi kerak: konfliktga aralashmaslik, nizoni qo'zg'atuvchi tomonning to'liq gapirishiga imkon berish; aloqadan ustunlik haqidagi har qanday da'volarni bartaraf etish. G'arbda oiladagi gender munosabatlari bo'yicha tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Xorijiy va rus feministlari oiladagi quyidagi muammolarni o'rganadilar: oilada mehnatni taqsimlash muammolari (uy xo'jaligi, bolalarni tarbiyalash), ayollarning ikki tomonlama yuki (ish, uy), oilada daromadlarni taqsimlash, haq to'lanmagan mehnat, uydagi zo'ravonlik, oilada bo'sh vaqtni taqsimlash, oila va ayollarning o'zini o'zi anglash, oilada jinsiy zo'ravonlik, oilada bolalarning gender ijtimoiylashuvi.

J. Skanzoni oila siyosati teng huquqli oilaviy munosabatlarni va gender rollarida androginiya qiymatini oshirish uchun ishlatilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u erkaklarning uy ishlarida va ota-onalarni tarbiyalashda ishtirok etishini ta'kidlaydi. An'anaviy oila modeli erkakni uy xo'jaligi va bolalar uchun asosiy mas'uliyatdan ozod qiladi. Bu namuna qisman an'anaviy ravishda

ayollarga beriladigan bola parvarishi uchun mukofotlarda va o'z otasi bo'lgan bolalarga nisbatan minimal ishtirok va ta'sirni his qiladigan erkaklardan bolalarni qo'llab-quvvatlashni olish qiyinligida aks etadi.

Agar oila siyosati haqiqatan ham ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lsa, u ko'pincha qonun, madaniyat, ijtimoiy me'yorlar bilan qo'llab-quvvatlanadigan ko'plab jinsiy ierarxik munosabatlarning asosini tashkil etuvchi patriarxal tizimga asoslanishi mumkin emas, bu yerda erkaklar hukmronligi takrorlanadi. Oilada ayollarning roli va erkaklar hukmronlik qiladigan hokimiyat tuzilmalarining ayollarga ta'siri bu turdagi muhokamalarda markaziy o'rinni egallaydi. Shuningdek, tadqiqotchilarning qayd etishicha, iqtisodiy sohada ayollarning past mavqei erkaklarning yaxshi ish o'rinlari, yuqori maoshlari va ayollar raqiblariga qaraganda ko'proq muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlariga ega ekanligini anglatadi.

D.Miller ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi pozitsiyasidan ayollarga ta'sir ko'rsatishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida "patriarxal zarurat" ("erkak siyosatchilar orasida bir jinsni boshqasidan ajratish, ayollarni qadrsizlantirish va nazorat qilish zarurati") tushunchasidan foydalanadi. Oila siyosatining gender tahlilining dolzarbligi shundan dalolat beradiki, oilaviy munosabatlar sohasi birinchi navbatda erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadi. Oila ijtimoiy me'yorlar va umidlarni uzatuvchi sotsializatsiyaning birinchi va eng muhim agenti sifatida tan olingan. Aynan shu soha xususiy va jamoat o'rtasidagi to'qnashuvlarni o'zida mujassam etgan. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi haqidagi zamonaviy g'oyalar oilaning mavqeiga asoslanadi, bunda erkak asosiy boquvchi bo'lib, uy ishlari ayollarga yuklangan. Erkakning oila oldidagi mas'uliyati uning mehnat bozoridagi muvaffaqiyatli ishlashi, xotini va bolalarini boqish uchun pul topish qobiliyatida eng yaxshi ifodalanadi; Ayolning qadr-qimmati uning xotin va onalik roliga sodiqligi bilan o'lchanadi.

O.Xazova zamonaviy dunyoda rollarni aniq taqsimlash bilan an'anaviy oilani qayta tiklash tendentsiyasi mavjudligiga ishora qiladi ("patriarxal uyg'onish").

Muhokama. Oila ichidagi mas'uliyatni taqsimlash muhim masala, chunki gender tengsizligi ayollarning iqtisodiy mustaqilligi va shaxsiy huquqlarini cheklaydi, bu esa ayollarning past iqtisodiy mavqeini davom ettiradi va hayot davomida yuqori darajada qashshoqlikni keltirib chiqaradi. Oila masalasiga bunday yondashuv va uni qo'llab-quvvatlash zarurati, aksincha, oila a'zolarining farovonligini qo'llab-quvvatlashdan ko'ra, davlat xarajatlarini tejash, uyda ham, ish sharoitida ham oila samaradorligi va unumdorligini oshirish istagini ko'rsatadi. Shunday qilib, oilani qo'llab-quvvatlash qat'iy "non yeyuvchi - qaram" oila modelini ko'paytirish vositasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Gender uy mehnatini o'rganish va uning ahamiyatini qayta baholash uchun ishlatilgan, holbuki, ilgari uy ishlari oilada ko'rinmas edi. Gender tadqiqotlarida uy mehnatining taqsimlanishi uzoq vaqtdan beri jinslar o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikning lakmus testi sifatida qaralib kelgan. Uy mehnatini taqsimlashda "yo'q ota" hodisasi hali ham mavjud bo'lib, u oilada bo'lsa-da, lekin bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida muhim ishtirok etmaydi. Turmush o'rtoqlar o'rtasidagi mehnat taqsimotidan qoniqish sezilarli darajada oilaning rivojlanish sikliga bog'liq. Bola tug'ilgandan keyingi dastlabki yillarda oilaviy hayotning barcha sohalarida keskinlik eng yuqori darajada. Oilada qaror qabul qilish nuqtai nazaridan, oila boshlig'i sifatida erkaklar hukmronligi bugungi kunda deyarli yo'q. Umuman olganda, vaziyat juda an'anaviy: ayollar o'z maqsadlarini shaxsiy hayotda, erkaklar - jamoat hayotida ko'radilar, ammo nikohdan qoniqish erkakning oilaviy masalalarda ishtirok etish darajasiga bog'liq.

Feministlar tomonidan ayollarning uy mehnatiga iqtisodiy baho berish, uy xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati milliy hisob tizimida hisobga olinmasligi haqida bir necha bor ko'tarilgan. Katta kuch, ko'nikma va qobiliyatlarni talab qiladigan uy xo'jaligi ijtimoiy ahamiyatga ega emas, chunki u bozordan tashqari sohaga tegishli va qiymat yaratmaydi. Aynan erkaklarning samarali mehnati qiymat yaratadi va shuning uchun iqtisodiyot uchun qiziqish uyg'otadi.

Feminist Meri Uolstoukraft o'zining "Ayol huquqlarining oqlanishi" kitobida uy yumushlari oqilona fuqarolik ifodasi shakli ekanligini, ya'ni ularga shaxsiy qoniqish yoki azob-uqubat manbai emas, balki davlat burchi sifatida qarash kerakligini ko'rsatib, ayollarning uy vazifalarini qayta ko'rib chiqishga harakat qildi. U ta'kidlagan muammo shundaki, uy yumushlari to'lanmagan jamiyatda

ayolning eriga iqtisodiy qaramligi saqlanib qolmoqda. Wollstonecraft bu xavfni tushundi, lekin uning oqibatlarini to'liq anglamadi.

Xulosa. Gender tadqiqotlari muhim faktlarni ta'kidlash va muhokama qilish imkonini beradi va zamonaviy davrda biarxal svilizatsiya muammolarini hal qilishda yordam beradi, bu bashorat qilinadigan kelajakda muhim bo'ladi. Rossiyada gender muammolarining dolzarbligi tobora ortib bormoqda, chunki iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ayollar va erkaklarni, ularning oilalarini va hayotiy faoliyatini bozor munosabatlarining faol ishtirokchisiga aylantirdi, ularning subyektiv mulkiy munosabatlarini yangiladi, shaxs va jamoaning insonparvarlik tarkibiy qismini ularning mavjudligida sinab ko'rdi. Ayollar va erkaklarning ijtimoiy hayotda va ijtimoiy harakatlarida ishtirok etish, jinslarning hokimiyatda ishtirok etishi, jamiyatda ayollar va erkaklarni o'rganish zamonaviy adabiyot, jurnalistika, ilmiy va ommabop adabiyotning jozibador mavzusiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, jamiyatdagi gender masalalarini ilmiy tushunish orqali sezilarli natijalarga erishiladi. Xorijiy va mahalliy ijtimoiy fanlar nazariyasi va amaliyotida erkak va ayolning o'ziga xos manfaatlarini ro'yobga chiqarish va ularning jamiyatdagi hayotiy funksiyalarini ta'minlash uchun ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va madaniy xarakterdagi mavjud sharoitlarni o'rganishga e'tibor kuchayib bormoqda. Biarxal haqiqat yaqin o'tmishda va hozirgi kunda global miqyosda hayratlanarli hodisaga aylanib bormoqda va uni o'rganish mumkin. G'arb va Rossiya tadqiqotchilari jamiyatni ob'ekt sifatida o'rganishda, undagi jinslarning mavqeini yaxshilash uchun shart-sharoitlar va sharoitlarni aniqlashda umumiy taqqoslash va global tushunchalarga murojaat qilishadi. Zamonaviy ijtimoiy fanda svilizatsiya tushunchasi bilan bir qatorda gender tushunchasi ham bu borada global, har bir shaxs va butun insoniyatning mavjudligini qamrab olgan holda keng qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ашвин С. Гендерная солидарность против экономических трудностей? Влияние советского наследия.//Социс. 2006. № 4.
2. Бабаева Л., Черона А. Женщины в бизнесе //Социс. 1996. №3.
3. Балабанова Е.С. Экономическая зависимость женщин: сущность, причины, последствия.// Соц. 2006. № 4.
4. Безгребельная Г., Сондратьева О. Женская безработица. Новые аспекты// Социс.1996.№3.
5. Введение в гендерные исследования./Под ред. С. Жеребкина. С-Пб. Харьков. 2001.
6. Махрова О.Н. Гендерная структура российской бизнес элиты. – М., 1998.
7. Xursanov, O. (2023). Talabalarni hamkorlik texnologiyasi asosida o'quv - ma'naviy moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirish texnologiyasi (1 - kurs talabalari misolida). Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 264–269. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/5519
8. Omadbek Ulug'bek o'g, X., & Bibioysha, I. (2024). O'zlashtirishdan ortda qolgan boshlang'ich sinf o'quvchilari. University Research Base, 646-649.
9. Omadbek Ulug'bek o'g, X. (2023). Bog 'cha yoshidagi bolalardagi psixologik ustuvor jihatlar. qo 'qon universiteti xabarnomasi, 683-686.
10. Ulug'bekovich, X. O., & Xayotjonovna, U. M. (2024). BOLALARDA QORQUVNI PAYDO BOLISH SABABLARI. University Research Base, 636-640.
11. Orziqulov, X., & Usanov, B. (2025). Oliy ta'lim muassasasi talabalari o 'rtasida ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish. *" global munosabatlar nazariyasi: yoshlarning taraqqiyot g'oyalari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari*, *1*(2), 22-26.
12. Orziqulov, X. (2024). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy pedagogik komponentlikni rivojlantirish texnologiyasi. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, *1*(5), 228-230.

Насибуллов Камиль Исхакович
доцента кафедры «Психологии религии и педагогики» Международной исламоведческой академии, Республика Узбекистан

ПРОСТРАНСТВЕННАЯ ОРИЕНТАЦИЯ «ЦЕНТР–ПЕРИФЕРИЯ» В ИСЛАМСКОЙ МУЛЬТИМОДАЛЬНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматривается пространственная ориентация «центр–периферия» как форма выражения иерархического отношения в исламской мультимодальной коммуникации. Анализ опирается на процессуальную логику исламского мышления, теорию концептуальной метафоры и авторскую модель фрактального воспроизведения смысловых структур. Материалом исследования выступают видеозаписи мусульманских проповедей и интервью с практикующими мусульманками. Показано, что различие между центром и периферией воспроизводит структурное отношение между сакральным источником порядка и пространством его дистанцированного преломления. Метафорические жесты продолжают это различие, формируя телесное выражение смысловой иерархии как в институциональной, так и в личной коммуникации.*

Ключевые слова: *телесность, пространственная ориентация, центр–периферия, мультимодальная коммуникация, метафорический жест, иерархическое отношение, фрактальность, исламская проповедь.*

SPATIAL ORIENTATION "CENTER–PERIPHERY" IN ISLAMIC MULTIMODAL COMMUNICATION

Abstract. *This article examines the spatial orientation of "center–periphery" as a form of expressing hierarchical relations in Islamic multimodal communication. The analysis is based on the processual logic of Islamic thought, conceptual metaphor theory, and the author's model of fractal reproduction of semantic structures. The research material includes video recordings of Muslim sermons and interviews with practicing Muslim women. The study demonstrates that the distinction between center and periphery reproduces the structural relationship between the sacred source of order and the space of its distant refraction. Metaphorical gestures continue this distinction, shaping a bodily expression of semantic hierarchy in both institutional and personal communication.*

Keywords: *embodiment, spatial orientation, center–periphery, multimodal communication, metaphorical gesture, hierarchical relation, fractality, Islamic sermon.*

ISLOMIY MULTIMODAL KOMMUNIKATSIYADA "MARKAZ–PERIFERIYA" FAZOVIY YO'NALISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada islomiy multimodal kommunikatsiyada ierarxik munosabatlarni ifodalash shakli sifatida "markaz–periferiya" fazoviy yo'nalishi tahlil qilinadi. Tadqiqot islom tafakkurining jarayonli mantiqiga, kontseptual metafora nazariyasiga va ma'noviy strukturalarni fraktal ko'rinishda takrorlash muallif modeli asosida olib boriladi. Tadqiqot materiali sifatida musulmonlarning va'zlari videoyozuvlari va amaliyotdagi musulmon ayollari bilan suhbatlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, markaz va periferiyaning farqlanishi muqaddas tartib manbai va uning masofali aks ettirilish makoni o'rtasidagi strukturaviy munosabatni takrorlaydi. Metaforik ishoralar ushbu farqni davom ettirib, instituttsional va shaxsiy kommunikatsiyada ma'noviy ierarxiyani tana orqali ifodalaydi.*

Kalit so'zlar: *jismoniylik, fazoviy yo'nalish, markaz–periferiya, multimodal kommunikatsiya, metaforik ishora, ierarxik munosabat, fraktallik, islomiy va'z.*

Введение. Пространственная ориентация «центр–периферия» занимает особое место в исламской культуре, задавая фундаментальное различие между сакральным порядком и пространством вне его пределов. Центр маркируется как точка концентрации смысла, источник единства, место соприсутствия Божественного. Периферия, напротив, мыслится как зона удалённости, рассеивания, ослабления связи с источником. Это различие воспроизводится на всех уровнях исламской практики — от архитектуры священных пространств до ритуалов и повседневных телесных действий.

Анализ таких пространственных различий требует мультимодального подхода, учитывающего взаимодействие речи, телесной схемы и жестов как единой коммуникативной структуры. Ориентация на центр или периферию проявляется не только в религиозных предписаниях, но и в повседневной жестикуляции, где телесное движение фиксирует отношение к сакральному порядку.

Цель данной работы — рассмотреть ориентацию «центр–периферия» как устойчивую смысловую структуру исламской мультимодальной коммуникации, укоренённую в процессуальной логике исламского мировосприятия и поддерживаемую через ритуальную и телесную практику.

Анализ смыслового различия «центр–периферия» в исламской культуре опирается на три теоретических основания. В первую очередь — на процессуальную логику исламского мышления, сформулированную А.В. Смирновым. В этой логике мир понимается как система отношений между Действователем, действием и Претерпевающим. Бог выступает источником действия, инициирующим порядок, тогда как человек и мир являются воспринимающими и реализующими это действие. Такое различие не описывается в категориях субстанций или положений, а выстраивается через сам акт передачи. Иерархия здесь не топографическая, а структурная: она оформляется через различение между тем, кто действует, и тем, кто воспринимает.

Теория концептуальной метафоры Дж. Лакоффа и М. Джонсона позволяет объяснить, каким образом пространственные ориентиры формируют когнитивные схемы, используемые для организации абстрактных понятий. В их работах показано, что ориентации вроде «вверх–вниз», «вправо–влево», «центр–периферия» возникают из телесного опыта человека и затем закрепляются в языке, оценках и поведенческих стереотипах. Эти ориентиры становятся основой для различения отношений, упорядочивания смыслов и категоризации опыта.

В рамках настоящего исследования ориентация «центр–периферия» рассматривается как выражение иерархического отношения между сакральным источником и пространством его отдалённости. В исламской культуре центр фиксируется как точка сосредоточенности смысла и порядка, тогда как периферия обозначает дистанцию, ослабление связи с источником. Это различие воспроизводится в различных формах — от архитектурной организации священных пространств до телесных жестов, сопровождающих религиозную речь. Оно не является произвольным или символическим в узком смысле, а выражает базовое отношение между источником действия и принимающим.

Эта смысловая структура обладает фрактальной природой. Различие между центром и периферией повторяется на разных уровнях — от теологической модели до ритуальной практики и бытовой телесной экспрессии. Независимо от масштаба сохраняется фундаментальное различение между инициирующим и воспринимающим как форма организации исламского мировосприятия.

Различие между центром и периферией в исламской культуре закреплено в священных текстах, пророческой практике и религиозно-бытовых предписаниях. В Коране центральное положение Каабы задаётся как пространственный и смысловой ориентир для всей уммы. Направление киблы определяет единую точку сосредоточенности во время молитвы, формируя структурное различие между сакральным центром и окружающим пространством. Этот принцип подчёркивает направленность обращения к Богу и пространственное упорядочение религиозной практики.

Один из ключевых ритуалов — хадж — строится как движение к центру: паломничество к Каабе является не просто географическим перемещением, а восстановлением связи с сакральным источником. Ритуал тавафа, заключающийся в обходе Каабы, также подчёркивает смысловую значимость центра как точки единства и концентрации. Периферийность здесь осмысляется не как пространство вне круга, а как динамическое приближение к центру. В намазе ориентация на киблу задаёт пространственную и смысловую центрированность молитвенного акта. Даже в коллективной молитве расположение молящихся выстраивается относительно единой сакральной оси, где центральное положение остаётся фиксированным ориентиром, а любая пространственная удалённость от него сохраняет свою значимость как степень дистанции от источника.

В бытовых нормах исламской традиции различие между центром и периферией проявляется через упорядоченность действий и предпочтение сакрально маркированных пространств. Мечеть как место собрания уммы символизирует центр религиозной жизни, тогда как иные пространства осмысляются как периферийные зоны, требующие особого отношения и очищения при вхождении.

Таким образом, различие между центром и периферией в исламской культуре формируется как нормативная смысловая схема, закреплённая в священных текстах, ритуалах и повседневных практиках. Оно задаёт не только физическую ориентацию, но и иерархическое отношение между источником порядка и пространством его реализации.

Методы. Метафорические жесты представляют собой телесные движения, выражающие абстрактные отношения и смысловые различия, не соотносящиеся с физическими объектами. В мультимодальной коммуникации они формируют с речью единое смысловое высказывание, позволяя телу участвовать в артикуляции понятийных.

Эмпирическое исследование базировалось на анализе видеозаписей мусульманских проповедей с платформы YouTube и полу структурированных интервью с практикующими мусульманками. В проповедях фиксировались фрагменты, где жестикуляция сопровождала богословские объяснения, наставления, нравственные акценты. В интервью изучались эпизоды рассказов о личном религиозном опыте, осмыслении веры, переживании испытаний.

Особое внимание уделялось жестам, реализующим ориентацию «к центру» и «от центра». В качестве маркера направления рассматривалось движение рук к середине тела или от неё в стороны. При этом фиксировались такие параметры, как направление движения, тип жеста (ладонный, кистевой), фаза (движение, фиксация) и синхронизация с ключевыми речевыми фрагментами.

Результаты. Результаты показали, что в проповедях жесты, направленные к центру тела (грудь, солнечное сплетение), сопровождали высказывания о вере, искренности, соблюдении предписаний, следовании Сунне. Эти движения маркировали акты обращения к основам веры, концентрации внимания, возвращения к сакральному порядку. Напротив, жесты, направленные от центра в стороны, сопровождали высказывания о грехах, заблуждениях, влиянии внешних факторов, испытаниях, которые отдаляют человека от истинного пути.

В нарративной речи практикующих мусульманок жесты к центру использовались при описании внутреннего преображения, осознания веры, момента молитвы или обращения к Аллаху. Движение от центра в стороны отмечалось в рассказах о трудностях, ошибках, социальных влияниях, воспринимаемых как факторы рассеивания внимания и ослабления связи с сакральным.

Таким образом, различие между жестами «к центру» и «от центра» воспроизводит ту же смысловую структуру, что закреплена в религиозной традиции. Это подтверждает фрактальную природу ориентации «центр–периферия» в исламской культуре: различие между источником порядка и пространством его ослабленного присутствия повторяется как в институциональной, так и в личной коммуникации.

Заключение и рекомендации. Ориентация «центр–периферия» в исламской культуре выражает фундаментальное иерархическое отношение между сакральным источником и пространством его преломления. Это различие закреплено в священных текстах, ритуальной практике и бытовых нормах, формируя устойчивую нормативную схему.

Анализ проповедей и нарративной речи показал, что телесные жесты воспроизводят ту же структуру различий: движение к центру маркирует обращение к порядку, к основам веры, к сакральному, тогда как движение от центра — символизирует удаление, рассеивание, отклонение. Эти жесты сохраняют структурное различие между источником и принимающим даже в неритуальной коммуникации.

Таким образом, ориентация «центр–периферия» реализует фрактальную модель смысловой иерархии исламского мировосприятия, где тело продолжает участвовать в оформлении различий между упорядоченным и маргинальным на уровне жеста, речи и поведения.

Список литератур.

1. Насибуллов К.И. «Иерархическое отношение» как смысловая основа арабо-мусульманской культуры: опыт применения фрактальной теории в психологическом исследовании ритуальной молитвы «намаз» // Minbar. Islamic Studies. 2020. № 13(1). С. 151–195.

2. Насибуллов К.И. Фрактальная теория в социогуманитарных исследованиях религии: о новых возможностях изучения «процессуальной» логики в арабо-мусульманской картине мира (по А.В. Смирнову) // Minbar. Islamic Studies. 2019. № 12(4). С. 1107–1130.

3. Смирнов А.В. Логика субстанции и логика процесса: тавхид и проблема божественных атрибутов // В: «Рассыпанное» и «собранное»: стратегии организации смыслового пространства в арабо-мусульманской культуре. М.: Садра, Языки славянской культуры, 2015. С. 15–52.

4. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. Пер. с англ. М.: Едиториал УРСС, 2004.

5. Николаева Е.В. К типологии фракталов в теории культуры // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 1: Регионоведение: философия, история, социология, юриспруденция, политология, культурология. 2013. № 1(113). С. 226–232.

6. Назири Д.А. Намаз Посланника Аллаха. Казань: Религиозное просвещение, 2006.

7. Гришина Е.А. Русская жестикуляция с лингвистической точки зрения (корпусные исследования). М.: ЯСК, 2017.

8. Мандельброт Б. Фрактальная геометрия природы. М.: Институт компьютерных исследований, 2002.

Якубова Гульхаё Эркиновна
Независимый исследователь Каршинского государственного университета

МЕТОДЫ ОКАЗАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ПОДРОСТКАМ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. *В условиях стремительного развития цифровых технологий особую актуальность приобретает интеграция искусственного интеллекта (ИИ) в сферу психологической помощи подросткам. Подростковый возраст сопровождается повышенной эмоциональной чувствительностью, стрессами и потребностью в поддержке, что делает необходимым внедрение инновационных подходов. В данной работе рассматриваются методы психологической помощи подросткам с использованием ИИ-технологий, включая цифровую диагностику, чат-ботов, адаптивные обучающие платформы и системы мониторинга психоэмоционального состояния. Особое внимание уделяется вопросам персонализации, доступности и этической безопасности таких подходов.*

Ключевые слова*: подростки, психологическая помощь, искусственный интеллект, цифровые технологии, эмоциональное здоровье, чат-боты, диагностика, персонализация.*

SUN’YIY INELLEK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN O’SIRLARGA PSIXOLOGIK YORDAM BERISH USULLARI

Annotatsiya. *Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda o’smirlarga psixologik xizmat ko’rsatishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. O’smirlik davri emotsional sezuvchanlik va psixologik noaniqliklar bilan kechadigan murakkab bosqich bo’lib, innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Ushbu ishda sun’iy intellekt asosida psixologik xizmat ko’rsatish usullari, jumladan, raqamli diagnostika, chat-botlar, moslashuvchan o’quv platformalari va holat monitoringi tizimlari tahlil qilinadi. Yondashuvlarning shaxsga yo’naltirilganligi, qulayligi va axloqiy xavfsizligi alohida yoritib beriladi.*

Kalit so’zlar: *o’smirlar, psixologik xizmat, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, emotsional salomatlik, chat-botlar, diagnostika, shaxsga yo’naltirilganlik.*

METHODS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO TEENAGERS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES

Abstract. *In the context of rapid digitalization, the integration of artificial intelligence (AI) technologies into adolescent psychological support has become increasingly relevant. Adolescence is a complex developmental stage characterized by emotional sensitivity and psychological challenges, necessitating innovative approaches. This paper explores methods of psychological assistance to adolescents using AI tools such as digital diagnostics, chatbots, adaptive learning platforms, and emotional state monitoring systems. Special attention is paid to issues of personalization, accessibility, and ethical safety of these technological solutions.*

Keywords: *adolescents, psychological support, artificial intelligence, digital technologies, emotional well-being, chatbots, diagnostics, personalization.*

Введение. В условиях стремительного научно-технического прогресса и цифровизации всех сфер жизни человечества, особую актуальность приобретает внедрение современных технологий в сферу психологического сопровождения личности. Особенно это касается подросткового возраста — одного из наиболее уязвимых и в то же время значимых этапов психосоциального становления человека. В этот период наблюдается активное формирование идентичности, мировоззрения, эмоционально-волевой сферы, а также отношений со сверстниками и взрослыми. Повышенная чувствительность к оценке, внутренние конфликты, нестабильность

самооценки и стремление к самостоятельности порождают потребность в квалифицированной психологической поддержке, адаптированной к интересам и менталитету подрастающего поколения.

Современные подростки растут в условиях интенсивного развития цифровых технологий, и их восприятие мира, стиль мышления и способы коммуникации тесно связаны с виртуальным пространством. В этом контексте использование искусственного интеллекта (ИИ) как инструмента психологической помощи открывает новые горизонты для оказания более точной, персонализированной и доступной поддержки. Интеллектуальные системы на базе ИИ способны не только оперативно собирать и анализировать данные о психоэмоциональном состоянии подростков, но и предлагать адаптивные, научно обоснованные методы вмешательства, учитывая индивидуальные особенности каждого пользователя.

Особый интерес представляют методы, которые сочетают в себе элементы традиционной психологии и цифровых решений — такие как виртуальные помощники, чат-боты с эмпатической моделью взаимодействия, адаптивные платформы для саморегуляции эмоций, а также технологии, основанные на анализе больших данных и машинном обучении. Благодаря этим подходам становится возможным проведение неинвазивной диагностики, мониторинга изменений психоэмоционального состояния, а также формирование устойчивых стратегий совладания со стрессом, тревогой и другими деструктивными состояниями.

Однако при всей привлекательности применения ИИ в сфере психологической помощи важно учитывать и целый ряд этических, правовых и профессиональных аспектов. Речь идёт о защите конфиденциальности, обеспечении безопасности личных данных, соблюдении границ вмешательства, а также о необходимости сохранения человеческого фактора в процессе взаимодействия, особенно при работе с уязвимыми категориями, к которым относятся подростки.

Использования технологий искусственного интеллекта в организации психологической помощи подросткам требует всестороннего анализа. Она предполагает не только рассмотрение существующих цифровых инструментов и методик, но и изучение эффективности, безопасности, а также социальной приемлемости подобных подходов в реальной практике. Актуальность данного направления обусловлена необходимостью адаптации психолого-педагогических стратегий к реалиям современного мира, где технологии становятся неотъемлемой частью жизни подростков.

Анализ литератур.

На протяжении последнего десятилетия наблюдается возрастающий интерес исследователей к применению технологий искусственного интеллекта (ИИ) в сфере психического здоровья, в особенности — в контексте поддержки подростков. Актуальность данного направления обусловлена не только ростом числа подростков с тревожными расстройствами, депрессией и другими психоэмоциональными трудностями, но и необходимостью адаптации традиционных методов психотерапии к цифровой культуре нового поколения.

Согласно данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ, 2021), более 13% подростков по всему миру сталкиваются с различными формами психических расстройств, при этом лишь немногие получают своевременную и профессиональную помощь. На этом фоне искусственный интеллект рассматривается как инструмент, способный устранить барьеры в доступе к психологическим услугам, снизить стигматизацию и обеспечить более индивидуализированный подход к поддержке молодежи.

Исследования, проведённые под руководством американского психиатра **John Torous** (Гарвардская медицинская школа), подчеркивают потенциал использования мобильных приложений и чат-ботов, основанных на ИИ, для мониторинга и коррекции эмоционального состояния подростков. Так, в одном из его проектов анализ поведенческой активности подростков на смартфоне (включая частоту общения, сон, физическую активность) позволил прогно-

зировать эпизоды депрессии с высокой степенью точности. Внедрение таких систем в повседневную жизнь подростков обеспечивает непрерывную поддержку и раннее вмешательство без необходимости очного визита к специалисту.

Британская исследовательница **Elaine Biddiss** разработала виртуальные среды и игровые платформы с элементами ИИ, направленные на повышение вовлечённости подростков в процессы саморегуляции и эмоционального самопознания. Такие решения, как показали её эмпирические исследования, способствуют развитию эмоционального интеллекта и устойчивости у подростков, особенно у тех, кто испытывает трудности в общении и выражении чувств в традиционном формате.

Широкое признание получила работа **Joaquin Fuentes** (Испания), который совместно с Европейской ассоциацией детской и подростковой психиатрии изучал эффективность использования ИИ в диагностике расстройств аутистического спектра у подростков. Его исследования показали, что алгоритмы машинного обучения позволяют выявить тонкие паттерны поведения, ускользающие от внимания даже опытных клиницистов, тем самым улучшая точность и своевременность диагностики.

Интересный подход предложили исследователи из Стэнфордского университета под руководством **Fei-Fei Li**, которые применяли технологии компьютерного зрения и обработки естественного языка для анализа выражения эмоций подростков в онлайн-общении и видеозаписях. Их модели использовались для создания чат-ботов с эмпатической функцией, способных распознавать эмоциональное состояние пользователя и подбирать соответствующие фразы поддержки или рекомендации по самопомощи.

Кроме того, важный вклад в изучение этических аспектов ИИ внес **Nick Bostrom** (Оксфордский университет), который акцентировал внимание на необходимости обеспечения прозрачности алгоритмов, защиты личных данных и недопущения замены человеческого контакта технологией в критически важных ситуациях. Он подчёркивает, что особенно важно сохранять баланс между автоматизацией и гуманностью при работе с подростками, находящимися в уязвимом психоэмоциональном состоянии.

Анализ зарубежной литературы свидетельствует о многообразии подходов и возможностей применения ИИ в психологической поддержке подростков. От инструментов диагностики до систем терапии и сопровождения — искусственный интеллект способен значительно расширить арсенал психолого-педагогических средств. Однако исследователи подчёркивают, что эффективность таких решений во многом зависит от их интеграции в общую систему сопровождения, наличия профессионального контроля и соблюдения этических норм. Необходима дальнейшая апробация технологий в условиях разных культурных контекстов и образовательных систем, чтобы адаптировать инновационные методы к реальным потребностям подростков.

Обсуждение

Современные подходы к организации психологической помощи подросткам требуют пересмотра традиционных методов с учетом цифровой трансформации общества и стремительного развития технологий искусственного интеллекта (ИИ). Подростковый возраст характеризуется высокой чувствительностью к внешним воздействиям, эмоциональной нестабильностью, поиском идентичности и формированием системы ценностей. При этом именно подростки являются наиболее активными пользователями цифровых платформ, что делает применение ИИ в психолого-педагогической практике особенно перспективным и актуальным.

Одним из ключевых преимуществ внедрения технологий ИИ в психологическое консультирование подростков является возможность персонализации помощи. Благодаря анализу больших данных, алгоритмы машинного обучения способны выявлять индивидуальные особенности поведения, эмоционального реагирования и когнитивных установок. Это позволяет создавать адаптивные программы сопровождения, которые не только учитывают возрастные и личностные характеристики, но и динамически реагируют на изменения психоэмоционального состояния подростка.

Важным направлением является использование виртуальных помощников и чат-ботов, которые имитируют эмпатическое взаимодействие и предоставляют пользователю поддержку в режиме реального времени. Такие системы, как показали исследования в Гарварде и Стэнфорде, успешно справляются с задачами начальной диагностики тревожных и депрессивных состояний, обучают стратегиям саморегуляции, а также мотивируют подростков обращаться за профессиональной помощью при необходимости. Особенно значим этот подход для подростков с низкой склонностью к открытому взаимодействию с взрослыми или с ограниченным доступом к психологическим службам.

Тем не менее, несмотря на очевидные преимущества, применение ИИ в сфере психического здоровья подростков вызывает множество дискуссий, связанных с этическими и профессиональными рисками. Одной из главных проблем является защита персональных данных и обеспечение конфиденциальности информации, полученной в процессе взаимодействия с цифровыми системами. Подростки — уязвимая группа, и любые утечки информации или некорректная интерпретация данных могут нанести существенный вред их психоэмоциональному состоянию.

Кроме того, не следует недооценивать опасность чрезмерной автоматизации процесса помощи. Искусственный интеллект, каким бы интеллектуально развитым он ни был, не способен полностью заменить живое человеческое взаимодействие, в котором важную роль играют эмпатия, интуиция и контекстуальное понимание. Особенно в кризисных ситуациях необходима работа квалифицированного специалиста, способного оценить риски и принять оперативные меры.

Обсуждая эффективность ИИ в психологической практике, важно учитывать и культурные аспекты. Модель взаимодействия, приемлемая в одной стране, может оказаться неэффективной или даже вредной в другой, в силу различий в менталитете, нормативах общения и отношении к технологиям. Поэтому адаптация ИИ-инструментов к социокультурной среде подростков имеет решающее значение для успешной интеграции в образовательные и медицинские учреждения.

Еще одним важным аспектом является подготовка специалистов, способных грамотно использовать ИИ-технологии в своей практике. Психологи и педагоги должны не только понимать принципы работы интеллектуальных систем, но и уметь интерпретировать их результаты, интегрировать цифровые инструменты в комплексную стратегию сопровождения и, при необходимости, корректировать алгоритмы в соответствии с реальной клинической картиной.

Использование искусственного интеллекта в оказании психологической помощи подросткам представляет собой инновационное и многоплановое направление, сочетающее в себе высокие технологические возможности и серьезные вызовы. Для достижения устойчивого эффекта необходима системная работа: научная валидация цифровых инструментов, соблюдение этических стандартов, повышение цифровой компетентности специалистов, а также активное участие самих подростков в процессе формирования безопасного и эффективного психологического пространства. Только при соблюдении этих условий ИИ сможет стать надежным помощником в деле поддержки психического здоровья подрастающего поколения.

Заключение

Использование технологий искусственного интеллекта в психологическом сопровождении подростков открывает качественно новые возможности для диагностики, профилактики и коррекции психоэмоциональных состояний в условиях цифрового общества. Адаптивность, доступность и персонализированный подход, присущие интеллектуальным системам, делают их особенно ценными в работе с подростками, чувствительными к традиционным формам помощи. Вместе с тем успешное внедрение ИИ в сферу психологической практики требует комплексного подхода: соблюдения этических норм, защиты конфиденциальной информации, подготовки квалифицированных специалистов и адаптации технологий к культурным и возрастным особенностям целевой аудитории. Только в этом случае искусственный интеллект

может стать не просто инструментом, а эффективным партнером в обеспечении психического благополучия подрастающего поколения.

Литература.

1. Торрус Дж., Фридман Р. *Цифровая психиатрия: искусственный интеллект в диагностике и лечении психических расстройств* Издательство: Медицина будущего, 2020. – 256 с.
2. Ли Фей-Фей, Джонсон М. *Искусственный интеллект и эмоции: новые подходы к распознаванию и поддержке подростков* Издательство: Stanford Press, 2019. – 198 с.
3. Bostrom, N. *Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies* Publisher: Oxford University Press, 2014. – 390 p.
4. Elaine Biddiss *Digital Tools for Adolescent Mental Health Engagement* Publisher: Routledge, 2021. – 224 p.
5. Fuentes J., Navarro M. *AI in Autism Diagnosis: Machine Learning Applications in Youth Psychiatry* Publisher: Springer, 2020. – 213 p.
6. Anderson, M., Anderson, S. *Machine Ethics: Ethical Design and Applications of Artificial Intelligence* Publisher: Cambridge University Press, 2011. – 284 p.
7. Казанцева И.Г., Плотникова Л.А. *Психология подросткового возраста: современные подходы и цифровая среда*
Издательство: Академкнига, 2022. – 176 с. Малахов С.И., Трушкин П.Н. *Искусственный интеллект в образовании и психологии: потенциалы и вызовы*
Издательство: Просвещение, 2021. – 142 с.
8. Luxton, D.D. *Artificial Intelligence in Behavioral and Mental Health Care*
Publisher: Academic Press, 2016. – 308 p. Woolf, B.P. *Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning* Publisher: Morgan Kaufmann, 2009. – 381 p.

Hakimova Mexriniso Homitovna
Buxoro Davlat Pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti Pedagogika fanlari buyicha falsafa doktori (PhD)

BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish afzalliklari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, zamonaviy yondashuvlarga ko'ra boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qilishi tadqiqotchining amaliy tajribalariga tayanib ilmiy mulohaza qilingan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, matnli masalalar, matematik tushunchalar, arifmetik amallar, sodda masalalar, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati, qobiliyat, intellektual rivojlanish, mustaqillikni o'stirish, o'qitish jarayoni, mantiqiy fikrlash, matematik nutqni o'stirish.*

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Анноатация. *В статье анализируются преимущества использования интерактивных методов на уроках математики в начальной школе с научной и теоретической точки зрения. Кроме того, в статье научно обосновано, на основе практического опыта исследователя, что использование интерактивных методов на уроках математики в начальной школе, согласно современным подходам, способствует повышению эффективности обучения и улучшению качества образования.*

Ключевые слова: *образование, учитель, ученик, текстовые задачи, математические понятия, арифметические действия, простые задачи, мыслительные навыки учащихся, умения, интеллектуальное развитие, развитие самостоятельности, учебный процесс, логическое мышление, развитие математической речи.*

ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS LESSONS

Annotation. *The article analyzes the advantages of using interactive methods in mathematics lessons in primary school from a scientific and theoretical point of view. In addition, the article scientifically substantiates, based on the practical experience of the researcher, that the use of interactive methods in mathematics lessons in primary school, according to modern approaches, contributes to increasing the effectiveness of learning and improving the quality of education*

Key words: *education, teacher, student, word problems, mathematical concepts, arithmetic operations, simple problems, students' thinking skills, abilities, intellectual development, development of independence, educational process, logical thinking, development of mathematical speech.*

Ta'lim tizimining fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuviga erishuvini ta'minlash, ta'lim mazmunini tubdan yangilash, uni ilg'or qarashlar bilan boyitishga erishish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini ta'minlashga muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to'g'ri, aniq, qisqa matematik nutqni o'stirish masalasi uzviy ravishda bog'langandir. Bu boshlang'ich ta'limning muhim vazifalaridan biridir.

Maktabda o'qitishni tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Ayrim darslarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish oldidan boshlang'ich sinfning matematikadan dasturi o'quv yili choragi

bo'yicha, ayrim mavzu bo'yicha o'rganish tayyorgarligi ko'rilishi kerak, chunki ishning umumiy ko'rinishi aniqlanganidan so'nggina har bir darsning o'rni va ahamiyatini to'g'ri belgilash mumkin. O'qituvchi qanchalik tajribali bo'lmasin, agar u o'z sinfining dasturi haqida bilimga ega bo'lmasa, choraklar bo'yicha va alohida mavzular bo'yicha rejalashtirishni bilmasa har bir alohida darsga reja tuzishga qiynaladi. O'qituvchi doimo dasturlardagi, darsliklardagi va ayrim mavzulardagi o'zgarishlarni kuzatib borishi lozim.

Rivojlanayotgan ta'lim haqida gapirganda ish faqat bilish qobiliyatlarini (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur. nutq) rivojlantirishdangina iborat deb o'ylash xato fikrdir.

Matematika bilan shug'ullanish faqat xotira va tafakkurni shakllantirib qolmay, tafakkur intizomini va mehnatni aniq tashkil etishni, fikrning bir joyga to'planishini, aniqlikni tarbiyalaydi. Bu sohada o'qituvchidan juda ko'p narsa talab qilinadi. O'qituvchi o'quvchilarning qobiliyat va intellektual rivojlanishiga qarab uzviy ravishda mustaqillikni o'stirish, o'qitish jarayonida ularning mustaqil ishlashlariga bo'lgan talabni asta-sekin orttira borish zarur, bunda tavsiya etiladigan savol va masalalar boladan ma'lum kuchlanishni talab qilsa-da, unga kuchi etadigan darajada bo'lishi kerak.

Bilimlarning puxta o'zlashtirilishi, ta'lim jarayonlarining faollashishi, fazoviy va miqdoriy tasavvurlarning puxta shakllanishida zamonaviy innavatsion o'qitish tamoyili yordam beradi.

Pedagogik adabiyotlar tahlilidan bilamizki, interfaol metodlar — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol muloqotga asoslangan o'qitish usullaridir. Bu metodlarda o'quvchi bilimni faqat eshitib emas, balki mustaqil izlanish, tajriba qilish va amaliy faoliyat orqali egallaydi.

Zamonaviy innavatsion o'qitish jarayoniga asoslangan yangi paradigmaning mohiyati interfaol ta'limni keng ko'lamda va mavjud imkoniyatlar asosida yo'lga qo'yishdan iborat. Unga ko'ra, har bir ta'lim oluvchi o'quv axborotlarini uch manba:

1) o'qituvchi yordamida,
2) ma'lumotlar bazasi (muayyan fan bo'yicha yoki o'quv doirasida) yordamida;
3) tahsil oluvchilar guruhi (ular bilan o'zaro faoliyatni tashkil etish) yordamida egallaydi.

Pedagogik texnologiya modelida quyidagi paradigma aks etadi:

1) muammoni qo'yish;
2) kuzatish va tajriba asosida dalillar to'plash;
3) dalillarni sharhlash va ilmiy farazlarni ilgari surish;
4) testlar yordamida, nazariy g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'li bilan ilmiy farazlarning haqqoniyligini tekshirish;
5) xulosa va tavsiyalar tayyorlash.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati xususiyatlarini ochib beradi, ular yordamida bilimlar, ko'nikmalar va malakalar egallanadi, o'quvchilarning dunyoqarashi shakllanadi, qobiliyatlari rivojlanadi.

O'quv materiallariga ko'ra boshlang'ich sinf matematika kursining asosiy materiali natural sonlar va asosiy kattaliklar matematikasidir. U bilan birga (imkon bo'lsa, unga bog'liq holda) o'quv moduli tarkibiga algebraik va geometrik mazmundagi masalalar ham kiritilgan.

Tajriba va ilmiy kuzatishlarimizga tayanib aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Interfaol metodlar o'quvchilarni darsga faol jalb qilish, ularning mavzu mohiyatini tushunishini yaxshilash, shuningdek, ularni matematika faniga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlardan foydalanganda o`qituvchi quyidagilarni bilishi lozim:

– interfaol usullar, uning mazmun-mohiyati;
– ta`lim maqsadini amalga oshirishda interfaol usullarning o`rni va roli;
– mavzuga mos interfaol usullarni qo`llash tamoyillari;
– ta`limiy va ishchanlik o`yinlari;
– muammoli- rivojlantiruvchi ta`lim metodlari;

– o`quvchilarning mustaqil faoliyatlarini tashkil qilish va ta`minlash yo`llari;
– o`quvchilarning mustaqil ishlash mahoratini oshirish usullari;
– ko`rgazmali o`qitish usullari;
– ta`lim- tarbiyani faollashtiruvchi usullar;

Ta’lim mazmuniga tayangan holda interfaol metodlardan foydalanishda ma’lum metod va vositalar qo’llaniladi.

Ta’limning modul texnologiyasi (misol yoki masalaning didaktik birligi va test). Didaktik birlikka qo’shish, ko’paytirish, konspektlashtirish, sana va so’zlarni esda saqlab qolish uslublari, test o’tkazish, optimallashtirish va boshqalar kiradi.

Mavzular mazmuniga muvofiq bilimlarni majmualash (birinchi dars – axborotli, ikkinchi dars - muammoli, uchinchi dars - amaliy, to’rtinchi dars - mustahkamlash, test o’tkazish tarzida).

Ilg’or vositalar yordamida o’quv matnlarini qismlarga bo’lib (muayyan ketma-ketlikda, uzluksiz) o’rganish.

Ishbilarmonlik o’yinlari (masalan, «Labirint», «Muammolar maydoni» va boshqalar)ni qo’llash.

Muammoli ta’lim metodlari (o’zlashtirilishi zarur bo’lgan bilimlar hajmini aniqlash – muammolar tahlili – mavzulararo aloqalarni o’rganish – muammolarni mustaqil hal etishga tayyorlash).

Mavjud muammolarni hal etuvchi vaziyatli tahlil («vaziyat-tasvir», «vaziyat-baho», «vaziyat-muammo», «vaziyat-mashq»).

Pedagogik trening (tez o’qish va yozish mashqi, fikrlash texnikasi, grafologiya, mimika, taqlid va pantomimika uslublarini egallash).

Interfaol metodlar boshlang’ich sinf matematika darslarida o’quvchilarning faolligini oshirib, ularning tasavvur va logik fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, ularga matematika fanining muhimligini va hayotdagi ahamiyatini tushuntirishga yordam beradi.

Boshlang’ich sinf matematika darslarida o’qitishni qiziqarli va samarali qilish uchun turli interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Quyida boshlang’ich sinfda matematika darslarida interfaol metodlarni qo’llashga oid ba’zi ma’lumotlarni keltirib o’tamiz:

Kichik guruhlarda ishlash: o’quvchilarni kichik gruppalarga bo’lib, ularga birgalikda topshiriqlar berish mumkin. Mazkur jarayon o’quvchilarda jamoa bo’lib ishlash, o’ylash va ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Matematik o’yinlar: Matematika o’yinlari (masalan, “Matematik kvestlar”, "Shifrlar" yoki “Pazllar”) darsni qiziqarli qilib, o’quvchilarning diqqatini jalb qilishga yordam beradi.

Texnologiyadan foydalanish: Kompyuter yoki planshet orqali interaktiv matematika dasturlari va mobil ilovalardan foydalanish. Misol uchun, "GeoGebra", "Khan Academy" yoki "Kahoot" kabi platformalardan foydalanish.

Jismoniy faoliyatlar: matematik amaliyotlarni amalga oshirish uchun o’quvchilarni faol harakatlarga jalb qilish. Misol uchun, o’quvchilar jismonan harakatlanib, turli obyektlarni jamlab, ularni hisoblashlari mumkin.

Kvizlar va testlar: Qiziqarli va interaktiv kvizlar yoki testlar o’tkazish. Bu o’quvchilarning ko’nikmalarini baholashga va ularni faolroq ishlashga undaydi.

Illyustratsiyalar va vizualizatsiya: Matematik kontseptsiyalarni aniqlashtirish uchun turli diagrammalar, grafiklar va rangli tasvirlardan foydalanish.

Real hayot misollaridan foydalanish: Matematik tushunchalarni har kungi hayotiy faoliyat bilan bog’lash. Misol uchun, xaridlar va savdo ishlarini aniqlashtirish uchun ko’plik va kamliklar o’rganiladi.

Boshlang’ich sinfda qo’llaniladigan interfaol metodlar:

"Aql charxpalagi" (Mozgovaya ataka) O’qituvchi savol beradi, bolalar o’z fikr va taxminlarini erkin aytadi. Masalan: "2 va 3 qo’shilsa nima bo’ladi?" — hamma bolalar turlicha javob beradi, o’ylaydi, muhokama qiladi.

"Jadal surishtiruv" (Ko’p savol, tez javob)

Vaqt bilan cheklangan tez savol-javob o'yini.

Masalan: "5 + 2?", "8 – 3?", "4 + 4?" kabi savollar tez-tez beriladi.

"Guruhda ishlash"

Bolalar kichik guruhlarga bo'linib, birgalikda masalalarni yechishadi. Bu hamkorlikni, muloqotni va o'zaro yordam berishni rivojlantiradi.

"Rolli o'yinlar" Bolalar raqamlar yoki geometrik shakllar rolini o'ynashadi.

Masalan: "Men 5man, menga 2 qo'shilsa, men kimga aylanaman?" "Krossvord yoki matematik rebuslar"

O'quvchilar matematik tushunchalar bo'yicha krossvord yechishadi. Bu ta'limni qiziqarliroq va interaktiv tashkil qilishga xizmat qiladi.

Interaktiv doskalar va multimedia vositalari

Interaktiv ekranlarda raqamli topshiriqlar, animatsiyalar orqali o'qitish.

Masalan: "Kim tezroq javob topadi?" o'yinlari.

Quyida biz 4-sinf matematika darsidan « Ko'p raqamli sonlarni qo'shish va ayirish» mavzusidagi dars ishlanmasini taqdim etamiz.

Dars rejasi namunasi.

Fan: Matematika

Sinf: 4-sinf

Dars mavzusi: Ko'p raqamli sonlarni qo'shish va ayirish

Dars turi: Yangi bilim berish darsi

Dars vaqti: 45 daqiqa

Dars maqsadi

Ta'limiy:

O'quvchilarni ko'p raqamli sonlarni qo'shish va ayirish qoidalari bilan tanishtirish

Amaliy masalalar yechish orqali bilimlarini mustahkamlash

Tarbiyaviy:

Aniqlik, diqqat va his-hisobga mas'uliyat bilan yondashishni tarbiyalash

Rivojlantiruvchi:

Logik fikrlash, muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish

Darsning borishi

Kirish qismi (5 daqiqa)

Salomlashish, davomatni aniqlash

Uy vazifasini tekshirish

Qiziqarli savol yoki matematik topishmoq bilan darsga qiziqish uyg'otish

Misol: "Men bir sonman. Mening yuzlarim bor, birliklarim yo'q. Men qaysi sonman?" (Javob: 100)

II. Yangi mavzuni tushuntirish (15 daqiqa)

1. **Ko'p raqamli sonlarni qo'shish misollari:**
2. Misol: 3456 + 1234 = ????

Ayirish usulini ko'rsatish: Misol: 4567 - 2345 = ???? Har bir qadamda amallar bo'yicha qanday bajarishni tushuntirish

Sxemalar va vizual ko'maklardan foydalanish (masalan, interaktiv doskalar, raqamli kartochkalar)

III. Mustahkamlash qismi (15 daqiqa)

Amaliy mashqlar:

Juftlar bilan ishlash: o'qituvchi tomonidan berilgan 2-3 ta misolni yechish

Doskada 1-2 nafar o'quvchini chaqirib, misol yechtirish

Misollar: 8765 + 4321 = ?

9000 - 2345 = ? [7]

Boshlovchining o'ylangan sonni topishi. 2. Qo'shiluvchilar juft-jufti bilan olingan masalalarni yechish. 3. Doskaga yozilgan misollarni yechish: javoblar yozilgan varaqlar boshlovchi stoliga

qo'yiladi. 4. Rakamlari tushirib qoldirilgan (o'chirilgan) raqamli misollarni yechish. 5. Masalalar. 6. «Quvnoq sanoq» (100 ichida). Dasturning harakatni talab qiluvchi nomerlari katta jonlanish uyg'otadi (tirik misoldar, jonli nomerlash, arifmetik yugurish va h. k.).

IV. Yakuniy qism (10 daqiqa)

- Darsni yakuniy xulosa qilish
  - Savol-javob o'yini (blits savollar)
  - Baho qo'yish (og'zaki va yozma)
  - Uyga vazifa berish: Misollar to'plami (3-4 ta misol)
  - Qo'shimcha topshiriq: 2 ta amaliyot masalasi

Metodik tavsiyalar

Mavzuni ko'rgazmali usulda tushuntirish – raqamli materiallardan foydalaning (vizuallar, sxemalar)

Juftlar yoki kichik guruhlarda ishlash – o'quvchilar faolligini oshiradi

Qiziqarli matematika o'yinlari va raqamli viktorinalarni joriy eting

Inklyuziv yondashuvni ta'minlash – har bir bolaga yordam berish uchun individual ishlanmalar bo'lsin

Darsda refleksiya usullaridan foydalaning (masalan, "Bugun nima o'rgandim?" yozishi)

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, faol ishtirokini ta'minlash hamda bilimlarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, hamkorlikda ishlashni o'rgatadi va ularni hayotiy masalalarni hal qilishga yo'naltiradi. Dars jarayonida amaliy mashg'ulotlar, o'yinlar, guruhda ishlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quv jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Azizxo'jaeva N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, -Toshkent,: 2002.-45-B.

2.Bikbaeva N. U. va boshq. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi: Pedagogika bilim yurt. talablari va o'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'll./N. U. Bikbaeva, R. I. Sidel'nikova, G. A. Adambekova.— T.: O'qituvchi, 1996.— 512 b.

3.Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari - Toshkent,: 2004. -5-6 B

4.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.

5.Tolipov O'.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Fan". 2005.

6.https://www.google.com/searchq=Diloram+Abdusamatovna+Xakimova Matematika+darslarida+interfaol+metodlardan+foydalanish

7.https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/3351

Kenjaboyev Abdusalim
Termiz davlat universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasi professori v.b.
E-mail: Abdusalimkenjaboyev@mail.ru
https://orcid.org/0009-0004-4985-2156

TALABALARDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. *Maqolada talabalarda kreativ kompetentsiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, bu borada o'qituvchiga qo'yiladigan ustuvor talablar, mavjud tajribalar, zamonaviy ta'lim va shu orqali talabalarda rivojlanadigan kreativ kompetentsiya sifatlari haqida fikr yuritiladi. Maqolada talabalarda kreativlikni rivojlantirish uchun zarur pedagogik shartlar, kreativ tafakkur belgilari va kreativlikka to'sqinlik qiluvchi omillar muhokama etilgan. Maqolada shuningdek, pedagogik kreativlikning belgilari, unga to'sqinlik qiluvchi omillar va kreativlikni ta'lim jarayonida qo'llash strategiyalari bayon etiladi. Pedagogning ijodiy yondashuvi, yangi g'oyalarni ilgari surish qobiliyati, innovatsion fikrlash va tashabbuskorligi uning shaxsiy va kasbiy taraqqiyoti uchun muhim mezon sifatida talqin etiladi. Mazkur maqola ta'lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish yo'llarini izlovchi pedagoglar uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *kompetentsiya, kreativlik, zamonaviy ta'lim tajriba, texnika, texnologiya, tizimli fikrlash, intelektual qobiliyat.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические предпосылки развития креативной компетентности у студентов, приворотные требования, предъявляемые к учителя в этом отношении, имеющийся опыт, современное образование и качества креативной компетентности через которые она развивается у студентов. В статье рассматриваются необходимые педагогические условия развития креативности у учащихся, признаки творческого мышления и факторы, препятствующие творчеству. В статье также описываются особенности педагогического творчества, факторы, препятствующие ему, и стратегии использования творчества в образовательном процессе. Творческий подход учителя, способность выдвигать новые идеи, инновационное мышление и инициативность рассматриваются как важные критерии его личностного и профессионального развития. Данная статья является научно-теоретической основой для педагогов, ищущих пути развития креативности в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *компетентность, креативность, современное образование, востребованность, опыт, техника, технология, системное мышление, международный стандарт, интеллектуальные способности.*

PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE IN STUDENTS

Annotation. *The article discusses the pedagogical conditions for the development of creative competence in students, the priorities of the teacher in the regard, the experience, modern education and the quality of creative competence that students develop through him. The article discusses the necessary pedagogical conditions for the development of creativity in students, signs of creative thinking and factors that hinder creativity. The article also describes the signs of pedagogical creativity, factors that hinder it and strategies for using creativity in the educational process. The creative approach of the teacher, the ability to put forward new ideas, innovative thinking and initiative are*


interpreted as important criteria for his personal and professional development. This article serves as a scientific and theoretical basis for educators looking for ways to develop creativity in the educational process.

Key words: *competence, creativity, modern education, relevance, experience, technique, technology, system thinking, international standard, intellectual abilities.*

Kirish. Hozirgi davrda ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarning yangilanayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilmlarini mustaqil va doimiy ravishda to'ldirib, yangilab va kengaytirib borishni talab etadi. Bugungi kun mutaxassisining xalqaro standartlar darajasiga mos, o'z ustida ishlovchi, yangi g'oyalar muallifi, shu bilan birga raqobatbardoshlik sifatlariga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida, bo'lajak kadrlarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish masalasini qo'yadi.

Pedagog kadrlarning kreativligi – bu uning o'z faoliyatiga innovatsion yondashuvlari bilan shakllanadi. Pedagogning kreativligi – tashabbuskorlikni, samarali muloqotni, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqeini, oldindan ko'ra olish intuitsiyasi rivojlanganlikni va tashkilot faoliyaning qayerga yo'nalishini tezda payqab olishi bilan xarakterlanadi.

Metodlar. Kreativlik (lot., ing. "kreate " – yaratish, "kreative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida o'tgan asrning 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratilishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobilyati, xislatini bildiradi. Amerikalik psixolog J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarini ko'rsatadi (1-rasmga qarang):



1-rasm. J.Gilford bo'yicha kreativlik sifatlari

Tadqiqotchi P.Torrens fikricha, kreativlik: muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi. Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Xo'sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo'ladi?

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e'tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
2) talabalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
3) talabalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
4) talabalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan.

P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

1) savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;

2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish.

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Pedagogik kreativlik: pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

Quyidagi asosiy omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- o'zini tavakkaldan olib qochish;
- fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- boshqalarga tobe bo'lish;
- har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligida, yangi g'oyalarni yaratish, qobiliyati, shuningdek, shaxs xarakteriga xos jihatlar – bir qolipda fikrlamaslikda, o'ziga xoslikda, Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi tashabbuskorlikda, noaniqlikka toqat qilishda, zakovatli bo'lishda aks etadi.

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Pedagogning kreativlik potentsiali. Talabalarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag'batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, talabalar ham shunday bo'la oladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Mashg'ulotlarda o'qituvchi “kreativlik yo'l xaritasi”ga ko'ra

quyidagi to'rtta yo'nalish bo'yicha harakatlanadi va ulardagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar (Patti Drepreau) sanaladi: 1) ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish; 2) talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtirishga rag'batlantiruvchi strategiya (metod va vositalar)dan foydalana olish; 3) innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammo)larning yechimini topishga kreativ yondashish; 4) kutiladigan natija.

Pedagogning kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:

tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
bir qolipda fikrlamaslik;
o'ziga xoslik; tashabbuskorlik;
noaniqlikka toqat qilish;
zakovatli bo'lish.

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur: kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish; yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish; ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish; hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagogning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy yoki ijodiy loyihalarni amalga oshirishi unda kreativlik potentsialini yanada rivojlantiradi.

Kirish. Bugungi kunda ilm-fan, texnologiya, ommaviy axborot vositalari va kundalik kommunikatsiyada abbreviaturalarning roli ortib bormoqda. Jahon tilshunosligida ham abbreviaturalarning turli diskurslarda shakllanish va qo'llanilish muammolarini o'rganishga, ularning lisoniy pragmatik funksiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqishga katta ehtiyoj sezilmoqda. Chunki qisqartirilgan so'zlar informatsiyani ixcham, tushunarli va tez yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilida abbreviaturalar, ayniqsa, xalqaro miqyosda keng qo'llanilib, axborot texnologiyalari, biznes, tibbiyot va harbiy sohalarda yetakchi o'rin tutadi.

So'ngi paytlarda ingliz tili lug'ati universal aloqa shakli-SMS tilining paydo bo'lishi va internetning rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan qisqartmalarning yangi avlodi bilan to'lish imkoniyatiga ega. X.Sh.Saidov (2024).

O’zbek tilida ham abbreviaturalarning roli ortib, ayniqsa, davlat tashkilotlari, axborot texnologiyalari va huquqiy hujjatlarda ularning qo’llanilish darajasi kengaymoqda. Ushbu maqolada ingliz va o’zbek tillaridagi abbreviaturalarning pedagogik diskursda qo’llanilish tahlili amalga oshiriladi. Shuningdek, axborot texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan hozirgi kunda, o’rganilishi juda dolzarb hisoblangan informatika va axborot texnologiyalarida keng qo’llaniladigan abbreviaturalarning o’rta maktabning 8-sinf o’quvchilarida informatika va axborot texnologiyalari darsligida uchrash darajasi va ularni qanday qilib osonroq o’zlashtirishga qaratilgan tavsiya va metodlar berib o’tiladi.

Tadqiqot maqsadi ingliz va o’zbek tillaridagi axborot-kommunikatsiyasi sohasida keng qo’llaniladigan qisqartmalarni 8-sinf maktab darsligi misolida tahlil qilish. Tadqiqot obyekti sifatida informatika va axborot texnologiyalari darsligida ko’p qo’llanilgan abbreviaturalar tanlab olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz va o’zbek tillaridagi abbreviatural arning turli diskurslarda qo’llanilish tahlili bo’yicha olib borilgan bir-nechta tadqiqotlar mavjud. Quyida ushbu sohada izlanish olib borgan ba’zi o’zbek olimlari va ularning ishlari keltirishimiz mumkin:

L.A.Abdullayeva “Yuridik diskurs abbreviaturalarining struktur-semantik va funksional xususiyatlari” (Ingliz va o’zbek tillari misolida) nomli ilmiy ishida o’zbek tili yuridik ilmiy matnlari doirasida 300 ta huquqiy abbreviaturani o’rgangan.

Z.A. Erdanovaning "Ingliz va o’zbek tillarida kasbiy leksikaning leksik-semantik tahlili" nomli tadqiqoti ingliz va o’zbek tillaridagi kasb-hunar leksemalarining derivatsion, tarixiy-etimologik, leksik-semantik ma’no o’zgarishlari, lingvomadaniy, ijtimoiy va estetik ko’lamda o’rganishga qaratilgan.

M.A. Madiyorovaning "Ingliz va o’zbek tillaridagi nutq leksik birliklarining semantik va funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish" nomli maqolasida ingliz va o’zbek tillaridagi leksik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Ingliz va o’zbek tillaridagi abbreviaturalarning leksik va semantik tahlili bo’yicha ilmiy izlanishlar olib borgan.

G.K.Tosheva va M.A.Sadullayevalar "Lexical-semantic analysis of abbreviations in english and uzbek languages" nomli maqolada ingliz va o’zbek tillaridagi abbreviaturalarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilganlar. Tadqiqotda abbreviaturalarning shakllanishi, qo’llanilishi va ma’nosi o’rganilib, ikki til orasidagi o’xshashlik va farqlar aniqlangan.

T. F. Quziyeva esa "O’zbek tiliga o’zlashgan ingliz abbreviaturalari tahlili" nomli maqolasida o’zbek tiliga ingliz tilidan o’zlashgan abbreviaturalarning imlosi, ma’nosi va qo’llanilishi haqida tahlil o’tkazgan.

Asosiy qism. Abbreviatura (lot. abbrevio – “qisqartiraman”) – bu so’z yoki so’z birikmalarining qisqartirilgan shakli bo’lib, tilshunoslikda yozuv va talaffuzni ixchamlashtirish, nutqni soddalashtirish maqsadida qo’llaniladi. Abbreviaturalar lingvistik jihatdan o’ziga xos alohida bir guruhdir. Ularga misol sifatida terminlar, texnik atamalar, tashkilot nomlari,o’lchov birliklari, bozor iqtisodiyoti, axborot kommunikatsiyalari, internet va fanga bog’liq ijtimoiy hayotning turli jabhalarida keng qo’llanilib kelinayotgan bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin.

Ingliz tilida qisqartma so’zlar (abbreviations) yoki abbveriaturalar, asosan, so’z yoki iboralarni qisqartirish orqali tez va oson ifoda qilish, muloqotni yengillashtirish maqsadida yaratilgan. Ularning kelib chiqishi ham uzoq tarixiy jarayonlar bilan bog’liqdir.Abbveriaturalarning kelib chiqish tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, quyidagi asosiy bosqichlar asosida shakllanib borganligiga guvoh bo’lamiz.

1. Antik davr: Bu davr qisqartma so’zlardan foydalanish insoniyatning rivojlanish tarixida qadimdan mavjud bo’lganligini ko’rsatadi. Masalan: Lotin tilida abbreviaturalar keng tarqalgan hamda Rim imperiyasida rasmiy hujjatlarda foydalanilgan. Masalan, SPQR (Senatus Populusque Romanus – "Rim senati va xalqi") qadimiy Rim davlatining rasmiy belgilanishi edi. Ular ko’pincha yozuvchilar hamda o’qituvchilar tomonidan tez-tez ishlatilgan.

2. O’rta asrlar: Bu davr o’rta asrlarda monastir yozuvchilari ko’plab qisqartmalarni ishlatganligini ko’rsatadi. Bu davrda latif va diniy matnlarda qisqartmalar ko’plab uchraydi. O’rta asrlar Evropa hujjatlarida ham qisqartmalar keng tarqalgan. Masalan, AD (Anno Domini – “Xudoning yili”) xronologik sana yozuvlarida qo’llanilgan.

3.XIX-XX asrlar davri: Bu davrda sanoat va texnologiyaning rivojlanishi va sanoat inqilobi natijasida yangi terminologiyalar paydo bo'ldi va abbreviaturalarga ehtiyoj ortdi. Bu davrda qisqartmalar ko'proq keng tarqaldi, chunki ular tezkor aloqa va yozuv uchun qulaylik yaratar edi.

Masalan, UNESCO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) yoki NASA (National Aeronautics and Space Administration) kabi xalqaro tashkilotlarning nomlari qisqartirilgan shaklda berila boshlandi.

4. XX asr: XX asrda qisqartmalar yanada ommalashdi. Harbiy, ilmiy va texnologik sohalarda ko'plab yangi qisqartmalar paydo bo'ldi. Masalan, NASA (National Aeronautics and Space Administration), NATO (North Atlantic Treaty Organization) kabi tashkilotlarning qisqartmalari keng tarqaldi.

5. Internet va raqamli texnologiyalar davri: Bugungi kunda internetning rivojlanishi bilan, qisqartmalardan foydalanish yanada yangi bir bosqichga o'tdi.Ayniqsa Chat va SMS muloqotlarida qisqartmalar juda mashhur bo'ldi. Masalan, "LOL" (laugh out loud), "BRB" (be right back) kabi qisqartmalar kundalik hayotimizga kirib keldi. Juda ko'plab qisqartmalar internet olamiga tarqalib, muloqotni soddalashishiga olib keldi.

Internet va raqamli texnologiyalar davrida ingliz tilidagi abbreviaturalar axborot texnologiyasi va informatika terminologiyasining ajralmas qismiga aylangan. Buni misoli sifatida o'rta maktabning informatika va axborot texnologiyalari fani darsligini (2023-yil.8-sinf) ko'rib chiqamiz. Tadqiqot natijasida darslikda Bcc(Blind Carbon Copy), CAL(Compyuter-Assisted Learning), CAD(Compyuter-Aided Design), CC(Carbon copy), CD ROM(Compact Disk Read-Only Memory), CMS(Content Management System), XLM(Extensible Makeup Language) kabi 60 dan ortiq birbiriga o'xshash va murakkab abbreviaturalar berilganligini kuzatishimiz mumkin. Vaholanki, ularni o'quvchiga o'rgatish va oson esda saqlash bo'yicha hech qanday tavsiya va metodlar ishlab chiqilmagan.

Metodika. Abbreviaturalarning qo'llanilish darajasi juda keng qamrovli bo'lib, u hamma jabhada o'z aksini topmoqda. Abbreviaturalarning o'qitishni avvalo maktab o'quvchilarida ko'nikma hosil qilishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Buni o'rta maktabning 8-sinf o'quvchilari doirasida amalga oshirish lozim. Chunki 8-sinfdan boshlab bir qancha yangi fanlarning o'quv dasturiga kiritilishi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga o'z ta'sirini o'tkazganligini kuzatish mumkin. Romitan tumani 36-maktabning 32 nafar 8-sinf o'quvchilari o'rtasida maktab darsliklarida fanlar kesimida abbrevviaturalarning uchrash chastotasini o'rganish maqsadida tadqiqot olib borildi. O'quvchilar 8 guruhga bo'lindi va har bir guruh o'quvchilari o'z darsliklarida uchraydigan qisqartma so'zlarni yozib kelishi aytildi. Matematika, informatika, kimyo, biologiya ,tarix, huquq, iqtisodiy bilim asoslari va geografiya fan darsliklarida eng ko'p qisqartma so'zlar uchrashi nazarda tutilib,ushbu fanlar darsliklaridagi qisqartma so'zlarning uchrash chastotasi aniqlandi.

Natija: Ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan abbreviaturalarning o'qitishni nima uchun aynan o'rta maktab darsliklaridan boshlash kerak? Bu savolga javob berish uchun biz 5,6,7,8-sinf o'quvchilari o'rtasida so'rovnoma o'tkazdik. So'rovnoma natijalariga ko'ra ushbu sinflar orasida 8-sinf o'quvchilari darsliklarida turli fanlar kesimida qisqartma so'zlarning uchrash darajasi yuqoriligi aniqlandi. Fanlar kesimida esa kimyo hamda informatika va axborot texnologiyalari fani darsliklarida qisqartma so'zlarning uchrash darajasi yuqoriligi aniqlandi. Wendiagramma metodi yordamida esa ingliz tilidan o 'zlashgan abbreviaturalar ko'p uchraydigan darslik sifatida informatika va axborot texnologiyalari fani darsligini (2023-yil.8-sinf) darsligi yetakchilik qildi. Olingan natijalar quyidagicha jadval ko'rinishda umumlashtirildi.(1 jadval)

1-jadval

	Fanlar kesimida	Qisqartma so'zlar
1	Kimyo	Li,Be,He,Ne,Na,Mg,Al,Si,Cl,Ar, Cu, Fe…
2	Biologiya	DNK, RNK, ATF, ADF, OITS, OITV, ADG, mg, kkal
3	Geografiya	BMT, YaIM, MDH, OTM, MAN, DAEVO,JAR,SSHA, BAA
4	Matematika	Kg, sm, sin,cos, log,
5	Informatika	Bcc, CAL, CAD, CC, CD ROM, CMS, XLM.
6	Huquqshunoslik	O'zXDP, O'zLiDeP

7	Tarix	BMT, MDH,YUNESKO, YI, SSSR, OAK,JST,YIK
8	Iqtisodiy bilim asoslari	YaIM, YMM, IN, KPI, MCHJ, ACHJ, MCHJ,AR,MTT

Olingan natijalarga asoslanadigan bo'lsak o'rta maktab davridan boshlaboq insonda til tejamkorligi va qisqartma so'zlardan foydalanish ko'nikmasi shakllanib boradi.

Ammo, hozirgi jadal rivojlanib borayotgan davrda ma'lumotlar shu qadar ko'pki, har bir informatsiyani to'g'ri qabul qilish va uni esda saqlab qolish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa kompyuter texnologiyalarining roli kundan-kun ortib borishi barobarida o'zlashma so'zlar va qisqartmalardan foydalanishga ham ehtiyoj ortib, ularni oson o'rganish va o'qitishga qaratilgan tadqiqotlarga ham ehtiyoj ortib borayotganligi ko'zga tashlanadi.

Takliflar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida abbreviaturalar har xil usulda hosil bo'ladi va har ikkala tilga xos lingvistik xususiyatlarga egadir. Ingliz tili abbreviaturalarga boy bo'lib, ular tez-tez yangilanib boradi va xalqaro miqyosda qo'llaniladi. O'zbek tilida esa abbreviaturalar rasmiy hujjatlar, davlat tashkilotlari va ilmiy terminologiyada qo'llanilibgina qolmay allaqachon pedagogik diskursni ham qamrab olganligini guvohi bo'ldik. Nafaqat informatika va axborot texnologiyalari darsliklarida balki tabiiy fanlar darsliklarida ham chet el tajribasini qo'llash binobarida kelajakda ingliz va o'zbek tillari o'rtasida abbreviaturalar almashinuvi yanada ortishi kutiladi. Bu esa tarjima jarayonida yangi muammolarni yuzaga keltirishi va lingvistik jihatdan yangi tadqiqotlarni talab qilishi mumkin. Yuqoridagi tahlillarga asoslanib pedagogik diskursda abbreviaturalarni o'qitishni osonlashtirishga qaratilgan bir nechta tavsiyalar berib o'tiladi.

1. Abbreviaturalarni fanlar kesimida o'rgatishda darsliklarda izohli ilovalar kiritishni yo'ga qo'yish va abbreviaturalarning izohli lug'atlarini ishlab chiqish lozim.
2. Qisqartmalarni oson eslab qolishni yangicha usul va metodlarini ishlab chiqish lozim.
3. Qisqartmalarni to'g'ri talaffuzini va sintaktik ma'nosini o'rgatish uchun Kahoot, Padlet, Nodpad singari yangicha programmalardan darslarda foydalanish lozim.

Xulosa. Abbreviaturalar zamonaviy kommunikatsiyada ham muhim ahamiyat kasb etib, rasmiy hujjatlardan tortib ilmiy va ommaviy axborot vositalarigacha keng qo'llaniladi. Ular informatsiyani ixcham yetkazish, vaqt va joy tejash, texnik va ilmiy terminlarni soddalashtirish vazifasini bajaradi. Shu sababli, abbreviaturalarning leksik-semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish lingvistika fanida dolzarb hisoblanadi.Abbreviyaturalarning pedagogik diskursda keng qo'llanilishi jamiyatning yosh qatlamini jadallik bilan ularga moslanishiga va ommaga tezlik bilan yetib borishiga xizmat qiladi.

Kelajakda pedagogik diskursda abbreviaturalarning yanada kengayishi va yangi hosil bo'lish usullarining shakllanishi kutilmoqda. Shu sababli, bu sohada chuqur lingvistik tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi "Davlat tili haqida" Qonuni (1989, 1995-yilgi tahrir).
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Ma'lumotlar Bazasi. lex.uz
3. Ziyodullayev A.R *Ingliz va o'zbek tilida eponimlarning leksik-semantik xususiyatlari*. Buxoro davlat universiteti. buxdu.uz
4. Erdanova. Z.A *Ingliz va o'zbek tillarida kasbiy leksikaning leksik-semantik tahlili*. Ziyonet portali. api.ziyonet.uz
5. Madiyorova. M.A *Ingliz va o'zbek tillaridagi nutq leksik birliklarining semantik va funksional xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish*. Inlibrary.uz inlibrary.uz
6. Quziyeva.T.F ingliz va rus tillariga oid abbreviaturalar xususida. SCHOLAR ISSN: 2181-4147 VOLUME 1 | ISSUE 2 | 2023
7. Oxford English Dictionary. *Abbreviations and Acronyms in Modern English Usage*. Oxford University Press, 2015.
8. Lewis, M. *Language in the Modern World: Abbreviations and Their Impact on Communication*. Routledge, 2017.
9. Saidov X.Sh. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. july, 2021-7/2. ISSN 2181-9750

Salimov G'ayrat Muxamedovich
Buxoro davlat universiteti professori pedagogika fanlari nomzodi
E-mail:g.m.salimov@buxdu.uz

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA"ILM YO'LI" DAVLAT DASURI ORQALI BIOFEEDBAKS O'YINLARINI O'RNI

Anotatsiya. *Ushbu maqolada ."Ilm yo'li" davlat dasturi davlatlar ilmiy tadqiqotlarning sifati va natijaliligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va mutaxassislar tayyorlash sohasida katta e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari "biofeedback" o'yinlari maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning jismoniy tarbiyasini tashkil etish, ularni jismoniy faollikka ilhomlantirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish muhim vazifa ekanligi, intellektual rivojlanishi, jismoniy rivojlanishi, axloqiy va emotsional rivojlanishi, ta'limga qiziqish uyg'otish, kreativlikni rivojlantirishi va o'yinlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'lar: *maktabgacha ta'lim, jismoniy faollik, jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzi, didaktik o'yinlar, ochiq o'yinlar.*

ИГРЫ БИОФЕЕДБАСК В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ ГОСУДАРСТВЕННУЮ ПРОГРАММУ «ПУТЬ НАУКИ»

Аннотация. *В данной статье государственная программа «Путь науки» направлена на повышение качества и эффективности научных исследований, внедрение инновационных технологий, подготовку специалистов. Кроме того, игры с «биологической обратной связью» являются важной задачей организации физического воспитания детей в системе дошкольного образования, привития им физической активности и формирования здорового образа жизни, интеллектуального развития, физического развития, морально-эмоционального развития, интереса к учебе, развития творческих способностей и игр.*

Ключевые слова: *дошкольного образования, двигательная активность, физическое воспитание, здоровый образ жизни, дидактические игры, подвижные игры.*

REPLACEMENT OF BIOSOFFEEDBACK GAMES IN SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS THROUGH THE STATE PROGRAM "PATH OF SCIENCE"

Abstract*. In this article, the state program "Path of Science" is aimed at improving the quality and effectiveness of scientific research, introducing innovative technologies, training specialists. In addition, games with "biofeedback" are an important task of organizing physical education of children in the preschool education system, instilling in them physical activity and the formation of a healthy lifestyle, intellectual development, physical development, moral and emotional development, interest in learning, development of creative abilities and games.*

Key words: *preschool education system, physical activity, physical education, healthy lifestyle, didactic games, outdoor games.*

Kirish. "Ilm yo'li" davlat dasturi 2021-yil 8-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga asosan tasdiqlangan. Ushbu dastur 2021–2030 yillarga mo'ljallangan bo'lib, O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot ishlarni rivojlantirish, yangi texnologiyalar va innovativ yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan. Shu munosabat bilan "Ilm yo'li" - bu O'zbekistonning ilmiy-taxassusiy sohasini rivojlantirishga qaratilgan strategik yo'nalish bo'lib, xorijiy ekspertlar va mutaxassislar ishtirokida ishlab chiqilgan. Ushbu loyiha asosan o'zida davlatning ilmiy va innovatsion salohiyatini oshirish, ta'lim va tadqiqotlarning sifatini yaxshilash maqsadida yo'lga qo'yilgan. Maktabgacha ta'lim vazirligi xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlamoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda maktabgacha

ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan 80 ga yaqin memorandum hamda kelishuv imzolangani buning tasdig’idir.

Jumladan, tegishli yo’nalishda Janubiy Koreya, Xitoy, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Singapur, Turkiya, Belarus kabi davlatlar hamda Jahon banki guruhi, Unisef, Unesco, Koica, Jica, Tika, Saudiya taraqqiyot jamg’armasi, “Mercy Corps”, “Rossotrudnichestvo” singari ko’plab xalqaro moliya institutlari va tashkilotlar bilan hamkorlik yo’lga qo’yilgan. Bu davlatlar ilmiy tadqiqotlarning sifati va natijaliligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va mutaxassislar tayyorlash sohasida katta e’tibor qaratilgan.

"Ilm yo’li" davlat dasturi, maxsus belgilangan maqsad va vazifalar orqali, maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish, hamda unda ilg’or pedagogik va metodik yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan muhim dasturlardan biridir. Bu dasturning maktabgacha ta’limdagi ahamiyati juda katta pedagogik jarayonning sifatini oshirish: "Ilm yo’li" dasturi pedagoglar uchun yangi metodikalarni kiritish, ta’limning mazmuni va usullarini yaxshilash, shuningdek, maktabgacha ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni ta’minlaydi. Bu, o’z navbatida, bolalarning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tiimlarini modernizatsiya qilish orqali, yangi muammolarga yechim topish, ta’lim tizimining barqarorligini ta’minlashga katta hissa qo’shadi. Bu dastur, maktabgacha ta’lim tizimlarining infratuzilmasi va u yerdagi o’quv jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan. "Ilm yo’li" dasturi, barcha bolalar uchun, jumladan, maxsus ta’limga muhtoj bolalar uchun qulay sharoitlarni yaratishga ko’maklashadi. Bu, ta’limdagi barobarlikni ta’minlash va bolalarning barcha imkoniyatlardan foydalanishini qamrab olish uchun muhim ahamiyatga ega. Dasturda yoshlarga zamonaviy ilm-fan, texnologiyalar va ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar bo’yicha bilimlar berishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu bolalarning ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi, ularni faol va mas’ul jamiyat a’zolari sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Maktabgacha ta’lim tizimining yanada rivojlanishi orqali, kelajakda mamlakatning ilmiy va iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta’sir ko’rsatiladi. Bolalarning erta ta’limi ularning uzoq muddatdagi shaxs va jamiyatga bo’lgan ta’sirini belgilaydi.Shu tariqa, "Ilm yo’li" davlat dasturi maktabgacha ta’lim sohasida ilg’or o’sish, innovatsiyalar va yangi metodologiyalarni joriy qilish uchun muhim hisoblanadi.

Metod. Maktabgacha ta’lim, bolalarning fizik, intellektual va ijtimoiy taraqqiyotida muhim rol o’ynaydi. Bu davrda bolalarning jismoniy tarbiyasini tashkil etish, ularni jismoniy faollikka ilhomlantirish va sog’lom turmush tarzini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, texnolologiyalarning rivoji maktabgacha ta’lim sohasida yangi metodlar va vositalarni joriy etish imkoniyatlarini yaratmoqda. Bulardan biri biofeedbek o’yinlarini jismoniy mashg’ulotlarda qo’llashdir.

Bu yosh avlodga asosiy bilimlar, ko’nikmalar va munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy maqsadi bolalarning intellektual, jismoniy va axloqiy rivojlanishini ta’minlash, ularga ijtimoiy muhitga moslashish, o’z his-tuyg’ularini izchil izohlash va ularni boshqarish, turli xil bilimlar va ko’nikmalarga ega bo’lishlariga yordam berishdan iborat

Intellektual rivojlanishni ta’minlash: Bolalarga asosiy ta’limga tayyorgarlik ko’rish, ularning diqqatini va xotirasini rivojlantirish.

1. Jismoniy rivojlanish: Bola organizmining fizik holatiga ahamiyat berish, jismoniy tarbiya orqali motorika va harakat koordinatsiyasini yaxshilash.

2. Axloqiy va emotsional rivojlanish: Bolalarga axloqiy qadriyatlar, e’tibor va his-tuyg’ularini rivojlantirish, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish.

3. Ijtimoiylashtirish: Bolalarning ijtimoiy malaka va ko’nikmalarini shakllantirish, u yerda ishlash va boshqalar bilan munosabatda bo’lishni o’rganish.

4. Ta’limga qiziqish uyg’otish: Bolada o’qishga va olamga qiziqishni uyg’otish, ularga yangi bilimlar olishga intilishni qo’zg’atish.

5. Kreativlikni rivojlantirish: Bolalarning yangicha fikrlash va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta’lim tiimida bolalarni tarbiyalashning asosiy bosqichi bo’lib, ularni kelgusi hayotga tayyorlashda muhim rol o’ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun "biofeedback"

o’yinlari ularning hissiy va jismoniy rivojlantirishi uchun samarali vositadir. Ular bolalarga o’z his-tuyg'ularini boshqarishni, dam olishni va diqqatni jamlashni o’rganishga yordam beradi. Ushbu o’yinlar odatda fiziologik monitoring elementlarini o’z ichiga oladi, bu bolalarga real vaqtda o’z reaktsiyalarini ko’rish va nazorat qilish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshda bolaning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan didaktik va ochiq o’yinlar ham keng qo’llaniladi. Didaktik o’yinlar kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishga, dunyoqarashni kengaytirishga va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ochiq o’yinlar, o’z navbatida, jismoniy salomatlikni mustahkamlaydi, harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantiradi.Shularni nazarga tutgan holda maktabgacha ta’lim tizimida jismoniy mashg’ulotlarda "biofeedback" o’yinlar tashkil etishga qaratmoqchimiz.

"Mindball" - bu haqiqiy obyekt, stol bo’lgan duyel o’yini, unda to’p kamroq bo’shashgan o’yinchi tomon harakatlanadi. To’p darvozaga etib kelganida, to’pni kiritgan o’yinchi ochko oladi. Ayni paytda dunyo bo’ylab ushbu o’yinning 260 dan ortiq nusxalari mavjud, lekin asosan ilmiy markazlarda. Ushbu o’yindagi raqobat kuchli motivator bo’lishi mumkin, ammo bu hali ham muhim kamchilikka ega, chunki fikr-mulohazalar o’yinchi uchun unchalik aniq emas, chunki siz ajoyib darajada bo’shashishingiz mumkin yoki siz zo’rg’a bo’shashingiz va agar u bir oz ko’proq diqqatini jamlasa, raqibingizni mag’lub etishingiz mumkin va ikkinchi o’yinchidan alohida holatda qanchalik yaxshi ishlayotganingizni tushunishning iloji yo’q.

"Rangli nafas": Bolalarga nafas olish va uning ta’sirini tushunish.

Bolalarga turli ranglardagi tasvirlar (masalan, havo sharlari) ko’rsatiladi.Bolalar har bir nafas olishda ranglar o’zgarishi kerak.Har nafas olish va nafas chiqarishda bola tasvirni kuzatib, uning rangini to’g’ri tanlashi kerak.

"Uyg’oq bola": Diqqatni kuchaytirish va e’tiborni jalb qilish.

Bola ekrandagi obyektlardan birini tanlashi va uning ko’rsatgan yordamchisiga e’tibor qaratishi kerak.Har bir to’g’ri tanlangan obyekt uchun ularga ilova etiladigan tasvirlar yoki ranglar bo’ladi.

"Taqsimlangan nafas": Balansli nafas olishga yordam berish.

Bolalarga nafas olishning qadamlari ko’rsatiladi (nafas olish, ikki soniya to’xtash, nafasni chiqarish).Ushbu harakatlarning har biri ekranda animatsiya orqali ko’rsatiladi va bola har qadamda tasvirni kundalik hayotga muvofiqlashtirishi kerak.

"Quloqlar va mushaklar" Mushaklarni boshqarish va kuchlanishni kamaytirish.

Bola ekrandagi "quloq" yoki "mushaklar" tasvirlariga diqqat qilish orqali o’z mushaklarini boshqarishga harakat qiladi.Bolalarga turli jismonan yordamchi harakatlar (masalan, orqaga burilish yoki qo’lni o’zgartish) ko’rsatiladi va ular o’sha harakatlarni o’yin orqali amalga oshirishadi.

Xulosa.Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun biofeedback o’yinlari ularning hissiy va jismoniy rivojlantirishi uchun samarali vositadir. Ular bolalarga o’z his-tuyg'ularini boshqarishni, dam olishni va diqqatni jamlashni o’rganishga yordam beradi. Ushbu o’yinlar odatda fiziologik monitoring elementlarini o’z ichiga oladi, bu bolalarga real vaqtda o’z reaktsiyalarini ko’rish va nazorat qilish imkonini beradi.

Maktabgacha yoshda bolaning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan didaktik va ochiq o’yinlar ham keng qo’llaniladi. Didaktik o’yinlar kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishga, dunyoqarashni kengaytirishga va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ochiq o’yinlar, o’z navbatida, jismoniy salomatlikni mustahkamlashda, harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantirish va samarali amalga oshirilishi bolalarning umumiy ta’limga bo’lgan qiziqishini oshirishga, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirishga, shuningdek, pedagogik sifatni yanada yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1.Mirziyoyev Sh.M.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni"Ilm yo’li" davlat dasturi 2021-yil 8-aprel kuni

2.Xoxlov V., Robin A. O primenenii biologicheskoy obratnoy svyazi v igrax, 2014

3. Salimov G‘.M.Sog’lom turmush tarzining asosiy omillari.// “Science and education scientific” journal . issn 2181-0842 volume 3, issue 4-april 2022.

4. Salimov G‘.M.Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirish. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences volume 2 | issue 8 issn 2181-1784. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7. 279-284 b.

5.Salimov, G. M. "Razvitiyeemosionalnoy sferы doshkolnikov–zalog psixicheskogo i lichnostnogo rosta detey v period adaptasii k usloviyam doshkolnogo uchrejdeniya." *MADOU g. Ufa* (2021).

6.Bondarevskiy Ye.Ya. Pedagogicheskiye osnovы kontrolya za fizicheskoy podgotovlennostyu uchaщyeysya molodeji. Avtoref. dis.dok.ped. nauk.-M.:1983.-45 s.

7. Salimov G‘.M.Sog’lom turmush tarzining asosiy omillari.// “Science and education scientific” journal . issn 2181-0842 volume 3, issue 4 april 2022.

9.Svetkova L.N. i dr. Effektivnost laktulozы v korreksii zaporov u detey // Detskaya i podrostkovaya reabilitatsiya. – 2011; 2: 71–77.

10.Pechora K.L., Pantyuxina G.V., Golubeva L.G. Deti rannego vozrasta v doshkolnыx uchrejdeniyax. Kniga dlya vospitatelya det. sada. — M.: Prosveщyeniye, 1986. — 144 s.: il.

11.Abidov B.K. Maktabgacha ta’lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi). // «Zamona viy ta’lim» jurnali», 2017 yil, 11-son. –34-46-b.

12..https://mgppu.ru/events/1313 [Elektronnыy resurs] (data obraщyeniya: 10.11.2023)

Usmonova Surayyo
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

PEDAGOGLARDAGI KASBIY STRESSNI TADQIQ ETISHNING AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik faoliyatda uchraydigan kasbiy stressning kelib chiqish sabablari, uning oqibatlari hamda uni o'lchash va bartaraf etish usullari amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Pedagoglarning ruhiy holati, ishga bo'lgan munosabati va kasbiy charchoqqa qarshi kurashish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda psixodiagnostik metodlar, suhbatlar va kuzatuv natijalari asosida real holatlar tahlil qilinadi. Kasbiy stressni kamaytirish yo'llari, psixologik xizmat ko'rsatish zarurati va muassasalarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *kasbiy stress ,pedagogik faoliyat, ruhiy holat, kasbiy charchoq, psixologik xizmat,stressni boshqarish, psixodiagnostika, o'qituvchilar salomatligi*

ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА У ПЕДАГОГОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются причины возникновения профессионального стресса в педагогической деятельности, его последствия, а также практические методы диагностики и преодоления. Анализируется психоэмоциональное состояние педагогов, их отношение к работе и способы борьбы с профессиональным выгоранием. Исследование основано на психодиагностических методах, интервью и наблюдениях. Представлены практические рекомендации по снижению стресса и необходимость оказания психологической поддержки в образовательных учреждениях.*

Ключевые слова: *профессиональный стресс, педагогическая деятельность, психоэмоциональное состояние, профессиональное выгорание, психологическая помощь ,управление стрессом , психодиагностика, здоровье учителей*

PRACTICAL FOUNDATIONS FOR STUDYING OCCUPATIONAL STRESS IN EDUCATORS

Abstract. *This article explores the practical foundations of studying occupational stress among educators. It analyzes the causes and consequences of professional stress, as well as diagnostic and intervention methods. The study focuses on the psychological well-being of teachers, their attitudes towards work, and strategies to combat burnout. Based on psychodiagnostic tools, interviews, and observations, the research presents real-case analyses and practical recommendations for reducing stress and implementing psychological support in educational institutions*

Keywords: *occupational stress, teaching profession, mental state, burnout syndrome, psychological support, stress management, psychodiagnostics, teacher well-being*

Mavzuning dolzarbligi. Jahonda pedagoglardagi kasbiy stressning metakognitiv determinantlarini o'rganish hamda ularni ruhiy salomatligini ta'minlash masalasi borgan sayin dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. TALIS (Teaching and Learning International Survey) ma'lumotlariga ko'ra, shaxsdagi mavjud kasalliklarning 65%ining sababi stress oqibatida kelib chiqishi aniqlangan. Mazkur tashkilotning qaydlariga ko'ra, Jenevada bo'lib o'tgan BJSST assambleyasida stress holati Xalqaro kasalliklar klassifikatoriga 11-raqam ostida kiritilgan [1]. Shuningdek, stressni boshqarishda metakognitiv yondashuvlardan foydalangan pedagoglar orasida stress darajasining 15–20 foizga kamayishi kuzatilgan. Bu pedagoglarning o'z fikrlash jarayonlarini

[1] World Health Organization – www.who.into – Халқаро соғлиқни сақлаш ташкилотининг расмий сайти (мурожаат ҳолати 10.10.2019)

nazorat qilish va tartibga solish qobiliyatlari bilan bog'liq. Shunday ekan, pedagoglarning stress holatiga tushishi va mehnat faoliyati jarayonidagi stresslar ularning ruhiy va jismoniy salomatligiga ham jiddiy salbiy ta'sir etishining oldini olish masalasini o'rganish dolzarb muammo bo`lib qolmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida stressga chidamlilik muammosi psixologiya fanining deyarli barcha tarmoqlarida eng dolzarb muammolardan biriga aylanmoqda. European Agency for Special Needs and Inclusive Education[1] tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlangan davlatlardagi o'qituvchilarning qariyb 25–30 foizi muntazam ravishda yuqori darajadagi stressni boshdan kechirishi aniqlangan. ILO[2] (Xalqaro mehnat tashkiloti) tomonidan har yili ta'lim sohasidagi mehnat sharoitlarini yaxshilash, o'qituvchilarning huquqlari va salomatligini himoya qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi. Ushbu tadqiqotlar pedagoglardagi stressga chidamlilikning namoyon bo'lishi, stressning psixologik asoslarini kompleks tadqiq etish, ruhiy jihatdan barqarorlikni ta'minlash, raqobatbardosh kadr tayyorlash muammolarini bartaraf qilish maqsadida stressga moyil pedagoglarning psixologik profilaktikasi, psixokorreksiyasi ta'sirchan zamonaviy usullarini qo'llash masalalari bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Metodologiya. Respublikamizda stress bilan bog'liq masalalarni psixolog olimlar D.D.Boymirzayeva, M.G.Davletshin, R.Y.Ernazarova, Z.S.Elov, O.E.Hayitov, D.T.Ismatova, V.M.Karimova, M.X.Karamyan, D.U.Mamadiyarova, A.M.Nazarov, E.Z.Usmanova, D.S.Qarshieva, B.N.Sirliyev, R.S.Samarov, F.T.Shermatov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan A.N.Akopyan, A.A.Andreeva, A.A Chazova, V.M.Bondina, V.A.Bodrov, B.X.Vardanyan, V.I Zinchenko, V.I.Petrushin, A.P Kotunin, N.E.Yablonskiy, X.S Romanova va boshqalar talabalarning stressga barqarorlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar, talabalardagi yuqori intellektual va emotsional zo'riqishlarning o'quv jarayoniga ta'siri, o'quv jarayoniga stressning ta'siri, imtihon oldi holatlarida stressning yuzaga kelishini o'rganishgan.

Xorijda Dj.Everli, R.Lazarus, Z.Freyd, E.Frydenberg, S.Folkman, L.A.Kitaev-smik, G.Ollport, G.Sele, S.Maddi kabi tadqiqotchilar murakkab hayotiy vaziyatlarda insondagi "koping-xulq"ning namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratishgan , bo'lsada aynan stressga barqarorlikni maktab-oliy ta'lim tizimidagi tahsil oluvchilarning o'quv faoliyati bilan bog'lab kompleks tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar soni deyarli uchramaydi.

Endi bevosita , D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz.

1-jadval

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (n=210)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar
	besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n=110	o'n yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n=100	t
Muammoni hal qilish	11,5	13,8	-2,5*
Ijtimoiy yordamni izlash	16,4	18,1	-2,4*
Muammodan qochish	18,5	16,1	-2,9*

D.Amirxanning «Stressni yengish strategiyasi» orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, "muammoni hal qilish" (t=-2,5; p<0,05), "ijtimoiy yordamni izlash" (t=-2,8; p<0,05) hamda "muammodan qochish" (t=-2,9; p<0,05) omillari bo'yicha ahamiyatli tafovutlar kuzatildi.

[1] https://www.european-agency.org/
[2] https://www.ilo.org/

Metodikaning “muammoni hal qilish” omili bo’yicha, o’n yilgacha mehnat tajribasiga ega bo’lgan pedagoglarda yuqori natijalar qayd etildi (t=-2,5; p<0,05). Bu esa ularning murakkab vaziyatlarda ratsional qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega ekanliklarini ko’rsatadi. O’qituvchilarning o’z faoliyat jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga moslashuvchan yondashishlari ularda metakognitiv strategiyalarni rivojlantirish ehtiyojining yuqoriligidan dalolat berib, ular muammolarni hal qilishda tizimli va tanqidiy fikrlash tamoyillariga asoslanadilar. Metakognitiv monitoringning yuqori darajada shakllanganligi pedagoglarga o’z xatolarini anglash, ularni tahlil qilish va o’qitish jarayonidagi muammolarga ijodiy yondashish imkoniyatini yaratib, stress darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. O’n yilgacha tajribaga ega bo’lgan pedagoglarning kasbiy faoliyatida qaror qabul qilish jarayonlarida muammoni hal qilish strategiyasidan foydalanishlari ularning o’z fikrlash jarayonlarini nazorat qila olishlari va muammolarni aniq tahlil qila olish qobiliyatlari bilan bog’liqdir. O’z kasbiy faoliyatidagi muammolarni samarali hal qila oladigan pedagoglar dars jarayonidagi noaniqlik va kutilmagan vaziyatlarga nisbatan kamroq stress kechiradilar, chunki ular muammolarni hal qilish strategiyalarini metakognitiv nazorat ostida olib boradilar. Muammolarni hal qilish qobiliyati rivojlangan o’qituvchilarning kasbiy stress darajasi nisbatan past bo’lib, bu ularning vaziyatni tushunish va o’zini boshqarish qobiliyatlari bilan izohlanadi. Metakognitiv ong rivojlangan pedagoglar muammolarni obyektiv baholab, ularning yechimiga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqishga moyil bo’lib, bu kasbiy stressni kamaytiruvchi omil sifatida qaralishi mumkin. Muammoni hal qilish strategiyasidan foydalanuvchi pedagoglarning yuqori darajadagi kognitiv moslashuvchanligi ularning murakkab o’quv jarayonlarida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam berib, o’zlarini kasbiy jihatdan ishonchli his qilishlariga turtki beradi. O’qituvchilarning metakognitiv nazorat orqali muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishlari ularga nafaqat stressni kamaytirishda, balki o’quvchilarga ta’sirchan yondashuvda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy stressni boshqarishning samarali usullaridan biri sifatida muammoni hal qilish strategiyasini qo’llash pedagoglarning psixologik bardoshliligini oshirishga va ularning ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishishlariga xizmat qiladi.

Navbatdagi “ijtimoiy yordamni izlash” omiliga ko’ra, o’n yilgacha mehnat tajribasiga ega bo’lgan pedagoglarda ijobiy natijalar kuzatildi (t=-2,8; p<0,05). Bu esa ularning kasbiy faoliyatda o’z bilim va tajribalarini kengaytirishga bo’lgan ehtiyojlari hamda ijtimoiy qo’llab-quvvatlash tizimiga bo’lgan qiziqishlari bilan bog’liqdir. O’qituvchilarning metakognitiv refleksiya jarayonlarining rivojlanganligi ularga pedagogik muammolarni yakkaxon hal qilish o’rniga, atrofdagi hamkasblari bilan tajriba almashish, maslahat olish va birgalikda yechim topish imkonini yaratadi. Metakognitiv monitoring pedagogning o’z imkoniyatlarini real baholash qobiliyatini oshirib, o’zining kuchli va zaif tomonlarini anglash orqali ijtimoiy yordamga ehtiyoj sezishiga sabab bo’ladi. Pedagoglarning ijtimoiy qo’llab-quvvatlash tizimidan foydalanishlari kasbiy stressning oldini olishga xizmat qiluvchi omillardan biri bo’lib, bu ularga professional faoliyat davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni samarali yengishga yordam beradi. Metakognitiv strategiyalar pedagogga o’zining kasbiy kamchiliklarini tan olish va o’rganish jarayonida ijtimoiy yordam so’rash orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi. O’zini doimiy rivojlantirishga intiluvchi pedagoglar atrofdagilar bilan fikr almashish orqali yangi bilimlarni o’zlashtiradilar va bu ularning kasbiy stressini kamaytirishda muhim rol o’ynaydi. Ijtimoiy yordamni izlash qobilyati yuqori bo’lgan o’qituvchilar ko’pincha hamkasblari, murabbiylar yoki psixologlarning maslahatlariga tayanib, kasbiy muammolarni hal qilishda metakognitiv yondashuvlarni qo’llashga harakat qiladilar. O’z fikrlash jarayonini boshqarish qobiliyatiga ega bo’lgan pedagoglar muammolarni hal qilishda o’ziga haddan tashqari ishonish o’rniga, bilim va tajribani boyitish uchun boshqa mutaxassislarning fikrlariga murojaat qilishlari samaradorlikni oshiradi. Metakognitiv strategiyalarning rivojlanganligi pedagoglarga o’z bilimlarini muntazam yangilash va kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan stress omillariga moslashish imkonini beradi.

Metodikaning so’nggi “muammodan qochish” omili bo’yicha besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo’lgan pedagoglarda yuqori natijalar kuzatildi (t=-2,9; p<0,05). Ushbu holat shuni ko’rsatadiki, tajribasi nisbatan kam bo’lgan o’qituvchilar stress omillari bilan yuzlashganda, ulardan qochish strategiyasini tanlashga moyilroq bo’ladilar. Metakognitiv kompetensiyalar yetarlicha rivojlanmagan

bo'lsa, pedagoglar o'z oldilariga qo'yilgan murakkab vazifalarni hal qilish o'rniga, ularni kechiktirish yoki butunlay e'tiborsiz qoldirish tendensiyasini namoyon qiladilar. O'z-o'zini anglash va refleksiya jarayonlari kamroq rivojlangan bo'lsa, o'qituvchilar pedagogik jarayondagi qiyinchiliklarni yechish uchun faol harakat qilish o'rniga, muammoli vaziyatlardan qochish orqali o'zlarini psixologik jihatdan himoyalashga harakat qiladilar. Shu bilan birga, bu strategiyaning uzoq muddatli salbiy oqibatlari ham mavjud bo'lib, pedagogik faoliyatda yuzaga keladigan muammolar yig'ilib borishi natijasida stress darajasi yanada oshib ketishi mumkin. Shuning uchun ham kasbiy faoliyatning ilk bosqichida bo'lgan pedagoglar uchun metakognitiv yondashuvlarni rivojlantirish, muammolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish va stress bilan samarali kurashish usullarini o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Olib borilgan izlanishlarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, «Jamoaning o'zini-o'zi ijtimoiy-psixologik baholash» metodikasi orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, "guruh yaxlitligini saqlashga intilish", "jipslilik", "kirishuvchanlik" hamda "mas'ulyatlilik" omillari bo'yicha ahamiyatli farqlar qayd etildi. Shuningdek, "Shaxsdagi stressli vaziyatdagi koping xulq-atvorni tadqiq qilish uslubi" orqali olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, "topshiriqni hal qilishga yo'nalganlik", "emotsiyaga yo'nalganlik" hamda "o'zini chetga olishga yo'nalganlik" omillari bo'yicha ahamiyatli farqlar kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Абдужаббoрова, З. А. (2020). Kasbiy stress va uning oldini olish yo'llari. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.

2. Карпов, В. В. (2015). Психология профессионального выгорания. Москва: Академический проект.

3. Maslach, C., & Leiter, M. P. (2016). The Truth About Burnout: How Organizations Cause Personal Stress and What to Do About It. Jossey-Bass.

4. Юсупова, Н. Ш. (2021). Pedagogik faoliyatda stress omillari va ularni boshqarish mexanizmlari. Toshkent: TDPU ilmiy jurnali.

5. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer.

6. Sayfutdinova, M. M. (2019). Pedagoglarda emotsional charchoqlik sindromi: sabablari va bartaraf etish usullari. // "Psixologiya va ta'lim" jurnali, №3(21), 44-49.

Xurshida Gubayeva Ismatilla qizi
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Pedagogika yo'nalishi tayanch doktoranti
E-mail: ismatillayevna@mail.ru

OLIY TA'LIMDA SIFATNI BOSHQARISH – JANUBIY KOREYA O'QITISH STRATEGIYALARI MISOLIDA TA'LIM JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Janubiy Koreya Respublikasining oliy ta'lim tizimidagi sifatni boshqarish tajribasi, xususan o'qitish strategiyalari va ularning asosiy komponentlari tahlil qilinadi. Muallif Janubiy Koreya modelining muvaffaqiyat omillari: raqamlashtirish, ta'lim sifatini monitoring qilish, talaba markazli yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish kabi jihatlarini tahlil qilgan. Shuningdek, ushbu tajribani O'zbekiston oliy ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlari, moslashuvchanlik darajasi va milliy ta'lim strategiyasiga integratsiya qilish yo'llari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish hamda oliy ta'lim sifatini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, sifatni boshqarish, o'qitish strategiyasi, ta'lim jarayoni, innovatsion yondashuv, raqamli ta'lim, talaba markazli ta'lim, ta'lim sifatini monitoring qilish, optimallashtirish, pedagogik yondashuvlar, innovatsion metodlar, Janubiy Koreya tajribasi.*

УПРАВЛЕНИЕ КАЧЕСТВОМ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ ОПТИМИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА НА ПРИМЕРЕ ЮЖНОКОРЕЙСКИХ СТРАТЕГИЙ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В этой статье анализируется опыт управления качеством в системе высшего образования Республики Южная Корея, в частности стратегии обучения и их основные компоненты. Автор проанализировал такие аспекты южнокорейской модели, как факторы успеха: цифровизация, мониторинг качества образования, студенческий подход, использование современных педагогических технологий. Также будут обсуждены возможности применения данного опыта в системе высшего образования Узбекистана, степень гибкости и пути интеграции в национальную образовательную стратегию. На основе результатов исследования разрабатываются практические рекомендации по оптимизации образовательного процесса в высших учебных заведениях. Результаты исследования имеют практическое значение для модернизации системы высшего образования Узбекистана и повышения качества высшего образования.*

Ключевые слова: *высшее образование, педагогические подходы, инновационные методы, южнокорейский опыт, эффективность преподавания, интерактивное обучение, цифровые технологии.*

IMPROVING QUALITY OF MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION BY OPTIMIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS USING THE EXPERIENCE OF SOUTH KOREAN TEACHING STRATEGIES

Annotation. *This article analyses the experience of Quality Management in the higher education system of the Republic of South Korea, in particular training strategies and their main components. The author analyzed aspects of the South Korean model such as success factors: digitization, monitoring the quality of Education, a student-centred approach, the use of modern pedagogical technologies. The possibilities of using this experience in the Uzbek higher education system, the level of flexibility and ways to integrate it into the National Education Strategy will also be discussed. Based on the results of the study, practical recommendations for optimizing the educational process in higher educational institutions are developed. The results of the study are of*

practical importance in modernizing the higher education system of Uzbekistan and improving the quality of Higher Education.

Keywords: *higher education, quality management, teaching strategy, educational process, innovative approach, digital education, student-centered education, quality monitoring of Education, optimization, pedagogical approaches, innovative methods, South Korean experience.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash va xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb masalaga aylangan. Ta'lim sifati — bu nafaqat o'quv jarayonining samaradorligi, balki butun jamiyatning intellektual, iqtisodiy va innovatsion salohiyatini belgilovchi asosiy omillardandir. Shu boisdan, ta'lim sifati ustidan doimiy nazorat, tahlil va boshqaruvning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur tadqiqotda ta'lim sohasida katta yutuqlarga erishgan Janubiy Koreya Respublikasining oliy ta'limdagi sifatni boshqarish modeli va o'qitish strategiyalari tahlil qilinadi. Koreya tajribasi — ta'limda axborot texnologiyalarini keng joriy etish, talaba markazli o'qitish tizimlarini qo'llash, ilm-fanga asoslangan yondashuv va natijadorlikka yo'naltirilgan ta'lim jarayonining samarali namunasidir.

Ushbu ishda Janubiy Koreya o'qitish strategiyalari misolida ularning tajribasi, hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari o'rganiladi.O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanib, talaba-yoshlarning akademik faoliyati, muammolari va turmush tarzi, o'quv jarayoni hamda yaratilgan sharoitlar o'rganish maqsad qilib olingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili: Janubiy Koreya ta'lim tizimi bo'yicha bir nechta muhim tadqiqotlar mavjud. Xususan: Kim Sang Xo o'z tadqiqotida Koreya institutlarida ta'limning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari qiyosiy tahlil qilgan, rus olimi pedagog Mikaberidze Georgiy Vasilyevich XXI asr uchun ta'lim strategiyasi tadqiqotida Janubiy Koreya ta'limining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilgan. Koreyalik olim Seoung Jae Lim iqtisodiy o'sish bilan Janubiy Koreya oliy ta'lim tizimini mamlakat iqtisodiyotning o'sishi o'rtasidagi munosabatini o'rgangan, Kim Sang Xo "Koreya institutlarida ta'limning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari" mavzusida tadqiqot ishi olib borgan.

Tadqiqot manbalari Koreya oliy ta'lim vazirligi va universitetlarining rasmiy saytlari, JST (Jahon ta'lim tashkilotlari) hisobotlari, ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar, konferensiya materiallari, Koreya tajribasini o'rgangan O'zbekiston oliygohlari va ekspertlarining tahlillari asosida o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqotda Janubiy Koreya oliy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik yondashuvlar o'rganiladi va ularning o'qitish samaradorligiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot doirasida Janubiy Koreya oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini boshqarish strategiyalarini o'rganildi, O'zbekiston oliy ta'limi uchun mos va samarali yondashuvlarni aniqlandi, ta'lim jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladigan mexanizmlarni ishlab chiqilldi. Tadqiqotda nazariy tahlil, case study, statistik tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Janubiy Koreya ta'lim tizimi uch asosiy bosqichdan iborat: boshlang'ich, o'rta ta'lim: O'rta maktab (Middle school), yuqori maktab (High school), Oliy ta'lim (Universitet/kollej) dan iborat. Janubiy Koreya Respublikasi ta'lim tizimi aniq tuzilgan, bosqichma-bosqich yondashuvga ega bo'lib, o'quvchilarning yoshiga, malakasiga va tayyorgarlik darajasiga qarab tizimlashtirilgan.

Yosh	**Ta'lim bos-qichlari**	**Ta'lim muassasalari**		
4–6	Maktabgacha ta'lim	Bolalar bog'chasi		
7-12	Boshlang'ich ta'lim	Boshlang'ich maktab	Fuqarolik maktabi	Maxsus maktab

<table>
<tr><td>13-15</td><td rowspan="3">O’rta ta’lim</td><td colspan="2">O’rta maktab</td><td>Fuqarolik maktabi</td><td colspan="2">Maxsus maktab</td><td colspan="2">Aralash maktab</td></tr>
<tr><td>16-18</td><td>Yuqori darajadagi o’rta maktab</td><td>Yuqori o’rta maktab bosqichlar</td><td>Korxonalar qoshidagi yuqori bos-qich maktabi</td><td colspan="2">Professional o’rta yuqori darajadagi maktab</td><td>Maxsus maktab</td><td>Aralash maktab</td></tr>
<tr><td rowspan="2">19-29
29-∞</td><td>Kollej va universitet</td><td>Sanoat universiteti</td><td>Pedagogika universiteti</td><td>2-yillik kollej</td><td>Kechki va sirtqi universitet</td><td>Texnika kolleji</td><td>Aralash maktab</td></tr>
<tr><td colspan="8">Magistratura (magistrlik va doktorlik darajalarini olish)</td></tr>
</table>

(1-rasm Koreya Respublikasi ta’lim muassasalarining tuzilishi)

Janubiy Koreyadagi oliy ta’lim tizimi AQShda qabul qilingan o’quv tizimga o’xshaydi, sababi maktabdan keyin talabalar universitetga emas, balki ikki yillik kollejlarga borishadi. Universitetda o’qishni davom ettirish uchun umummilliy kirish imtihonini topshirish zarur va koreys mentalitetiga ko’ra oliy ma’lumotli bo’lish jamiyatda o’qimishli inson sifatida eng yuqori pog’onasiga ko’tariladi. Konfutsiy davridan beri saqlanib qolgan urf-odatga ko’ra olimlar, muhandislar, o’qituvchilarga nisbatan koreys xalqi cheksiz hurmat bilan munosabatda bo’lishadi. Janubiy Koreyada barcha ta’lim deyarli pullik hisoblanadi, ba’zi hollarda kambag’al koreys oilalari uchun bepul ta’lim imkoniyatini beruvchi stipendiya dasturlari mavjud bo’lib, asosan davlat ta’lim muassasalari uchun amal qiladi. Universitetlarda o’qish o’rtacha koreys xalqi uchun 1500-4500 $, xorijiy talaba uchun 10000$ yillik to’lovni tashkil etadi. Magistraturada o’qish esa bakalavrdan 15–20% qimmat hisoblanadi. Janubiy Koreya oliy ta’lim tizimi — sifat, samaradorlik va innovatsiyalarga asoslangan bo’lib, oliy ta’limda mamlakat ichidagi universitetlar o’zaro raqobatbardosh hisoblanadi, shu bois xalqaro universitetlar ham Janubiy Koreya o’quv tizimi bilan o’zaro hamkorlik talabalar almashinuv dasturlarini qo’llab quvvatlaydi. Bu tizimdan O’zbekiston oliy ta’limi uchun o’rganish mumkin bo’lgan ko’plab yo’nalishlar mavjud: talaba markazli yondashuv, raqamli texnologiyalar integratsiyasi, sifat monitoringi, xalqaro standartlar asosida baholash kabi jihatlarini O’zbekistondagi oliy ta’lim muassasalariga tadbiq qilsa bo’ladi.

Ta’lim sifati va xalqaro raqobatbardoshlik ham Janubiy Koreya oliy o’quv yurtlarida e’tibor beriladigan muhim omil hisoblanadi. Janubiy Koreya oliy ta’lim tizimini tahlil qilar ekanmiz eng avvalo oliy ta’lim tizimini sifat tizimini takomillashtirish maqsadida 1990-yillardan boshlab oliy ta’lim muassasalarini akkreditatsiyadan o’tkazish tizimi joriy etilganiga e’tibor qaratdik. Akkreditatsiya orqali har bir universitet o’zining ichki sifatni baholash tizimini yaratdi. Yangi tizimga ko’ra oliy ta’lim muassasalarining davlat tomonidan moliyalashtirilishi ularning reytingi, bitiruvchilar bandligi, ilmiy faoliyati va xalqaro ko’rsatkichlariga qaraladigan bo’ldi. Bu esa universitetlar o’rtasida raqobatni kuchaytirdi, talabalarning bandligi va ilmiy faoliyatni yaxshilash uchun universitetlar keng ko’lamli islohotlarni olib bordi. 1991-yildan Koreyada talabalar uchun grant dasturlarni qo’llab quvvatlaydigan “Brain Korea 21” (BK21) dasturi yo’lga qo’yildi, dastur doirasida ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish maqsadida har yili magistr va doktorantlar uchun grantlar ajratiladi, ilmiy loyihalarda ishtirok qilish rag’batlantiriladi. Universitetlarda tadqiqot markazlari rivojlantirilishi uchun ham grantlar ajratilishi Janubiy Koreya oliy ta’lim tizimiga sezilarli darajada ijobiy ta’sirini ko’rsatib kelmoqda. Shu kabi dasturlarni O’zbekistonga joriy etilsa mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalari va talabalariga yangi imkoniyatlar eshigini ochishga yordam beradi. Bundan tashqari, Janubiy Koreyada xorijiy universitetlar, kollej, maktab va bog’cha ochish ruxsatnomasini berilishi xalqaro ochiqlik va universitetlarni globallashtirish jarayonini tezlashtirdi. Ko’plab xorijiy universitetlar o’zining filiallarini Janubiy Koreyada ochishdi, bu esa xalqaro talabalarni jalb qilishga, xorijlik professorlarni Janubiy Koreya ta’lim tizimiga kirib kelishiga ko’maklashdi. Oliy ta’limda

vaqtida kredit-modul tizimiga o'tishi, talaba-almashinuv dasturlarini ishga tushirilishi, talabalarga o'z fanlarini tanlash imkoniyatini berilishi, ta'limda raqamli texnologiyalarni keng joriy etilishi, universitetlarning raqamli o'quv platformalarini yaratilishi (LMS), masofaviy ta'lim, onlayn baholash va elektron kutubxonalar faol joriy qilinishi Janubiy Koreya oliy ta'lim tizimini reytingi oshishiga yordam berdi. Mamlakatning oliy ta'lim tizimining asosiy maqsadi ish bilan bandlikka yo'naltirilganligi ya'ni oliy ta'lim dasturlari mehnat bozorining ehtiyojlariga mos ravishda yangilanib boriladi, universitetlar va yirik sanoat korxonalari o'rtasida hamkorlik kuchaytirilgan, buni bitiruvchilarning ishga joylashuv ko'rsatkichlari orqali ham bilishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar: Janubiy Koreyada amalga oshirilgan islohotlar natijasida universitetlar xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Talabalar mustaqil, raqamli, innovatsion o'quv muhitida ta'lim olishmoqda, ilmiy-tadqiqot va ishga joylashuv samaradorligi yuqori darajaga ko'tarilgan. Bu reformalar O'zbekiston oliy ta'limi uchun ham foydali tajriba bo'lib xizmat qilishi mumkin, ayniqsa sifatni boshqarish, raqamlashtirish, va ish bilan bandlikka yo'naltirilgan o'qitish jihatlariga e'tibor qaratib mustaqil ta'limni kuchaytirish uchun raqamli vositalarni faol qo'llash, talaba baholashini sifat mezoni sifatida joriy etish, darsliklar va metodikani zamonaviy o'qitish texnologiyalariga moslashtirish, ichki sifat nazorat tizimlarini mustahkamlash va ularni milliy reytinglar bilan bog'lash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida 8-oktabr 2019 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5847-son Farmoni

2. Ким Санг Хо. Современное состояние и перспективы развития образования в корейских институтах //Университетское управление 1997. – № 3(3). – С.30-33.

3. Микаберидзе Г.В. Южная Корея: образовательная стратегия для XXI века // Педагогика. – 1998. – № 3. – С.42-45

4. Seoung Jae Lim (2018) The development of education in South Korea (analysis on the basis of relationships between higher education development and economic growth. Retrieved from https://scholarworks.calstate.edu/downloads/zw12z7550

5. Ким Санг Хо. Современное состояние и перспективы развития образования в корейских институтах // Университетское управление 1997. – № 3(3). – С.30-33.

6. Oh, Y. S. (2011). Korean higher education reforms and changes since the 1990s (Order No. 3491496). Available from ProQuest Dissertations & Theses Global. (919077791). Retrieved from https://www.proquest.com/dissertations-theses/korean-higher-education-reforms-changes-since/docview/919077791/se-2

7. Education System of South Korea,South Korean Education Profile. (n.d.). https://www.southkoreaeducation.info/education-system#google_vignette

8. Available from ProQuest Dissertations & Theses Global. (304012208). Retrieved from https://www.proquest.com/dissertations-theses/implication-discipline-based-art-education-dbae/docview/304012208/se-2

9. Kim, T. (2008). Higher education reforms in South Korea: Public—Private problems in internationalising and incorporating universities. Policy Futures in Education, 6(5), 558–568. https://doi.org/10.2304/pfie.2008.6.5.558

Xushvaqova Gulnoza Rustamovna
Navoiy davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA OILADA MILLIY TARBIYANI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oilada milliy tarbiyani tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, uning pedagogik jarayonga integratsiyalashuvi va oilaning tarbiyaviy salohiyatini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Maqolada, shuningdek, zamonaviy pedagogik mexanizmlar orqali milliy qadriyatlarni bola ongiga chuqur singdirish yo'llari ko'rsatilib, oilaviy tarbiyani samarali tashkil etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *kompetensiyaviy yondashuv, milliy tarbiya, oila, pedagogik mexanizm, qadriyat, kompetensiya, tarbiyaviy salohiyat.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОРГАНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ В СЕМЬЕ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические основы применения компетентностного подхода в организации национального воспитания в семье. Раскрыта сущность компетентностного подхода, его интеграция в педагогический процесс и значение в повышении воспитательного потенциала семьи. Также предложены механизмы эффективной интеграции национальных ценностей в сознание ребёнка через современные педагогические методы.*

Ключевые слова: *компетентностный подход, национальное воспитание, семья, педагогический механизм, ценности, компетенции, воспитательный потенциал.*

IMPROVING THE PEDAGOGICAL MECHANISM OF ORGANIZING NATIONAL UPBRINGING IN THE FAMILY BASED ON THE COMPETENCY-BASED APPROACH

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical foundations of applying the competency-based approach to organizing national education within the family. It explores the essence of the competency approach, its integration into the pedagogical process, and its role in enhancing the educational potential of the family. The article also presents pedagogical mechanisms for effectively instilling national values in children through modern educational strategies.*

Keywords: *competency-based approach, national upbringing, family, pedagogical mechanism, values, competence, educational potential.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimi inson kapitalini shakllantirish va uni rivojlantirishda asosiy omil sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, globallashuv va madaniy xilma-xillik sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, ma'naviy yetuk va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalash zarurati tobora ortib bormoqda. Bu esa tarbiyaning eng muhim bo'g'ini bo'lgan oilada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, milliy tarbiyaning mazmunini yangilash va uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida samarali tashkil etishni taqozo etadi.

Milliy tarbiya — bu xalqning tarixiy tajribasi, urf-odati, qadriyatlari, dunyoqarashi va axloqiy me'yorlari asosida shakllangan ijtimoiy hodisa bo'lib, u yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu jihatdan, oilaning tarbiyaviy funksiyasini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish zaruriyati dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat ta'lim jarayonining natijadorligini oshirishga, balki tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirish, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas'uliyatli va madaniy jihatdan yetuk fuqaroni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda, oilada farzand tarbiyasini tashkil etishda pedagogik mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish, ularni takomillashtirish va zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida uyg'unlashtirish muhim vazifa sanaladi. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv asosida tarbiyani tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish, oilaviy tarbiya subyektlari — ota-ona, bola va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ilmiy asosda tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda, mazkur tadqiqot ishining asosiy e'tibori oilada milliy tarbiyani tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatini ochib berish, unga asoslangan pedagogik mexanizmlarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu masalani chuqur o'rganish, nafaqat milliy tarbiyaning samaradorligini oshiradi, balki oilaning pedagogik imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili.

So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv ta'lim va tarbiya jarayonlarining markaziy metodologik asosiga aylangan bo'lib, bu yondashuvning oilaviy tarbiya tizimiga tatbiq etilishi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv mohiyatiga ko'ra, shaxsning hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlarni integrallashgan holda shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa milliy tarbiyani oila muhitida samarali tashkil etishda muhim omil sanaladi.

Xorijiy tadqiqotchilar, jumladan, P. Weinert kompetensiyani shaxsning murakkab ijtimoiy vaziyatlarda ongli harakat qilishga tayyorligi va qobiliyati sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, tarbiya tizimida kompetensiyaviy yondashuv faqat bilim emas, balki axloqiy, ijtimoiy va madaniy mezonlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu yondashuv ayniqsa oilaviy tarbiya jarayonida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, J. Delors boshchiligidagi YUNESKO ekspertlari guruhi (1996) tomonidan ishlab chiqilgan "Ta'lim: yashash uchun zarurat" konsepsiyasida kompetensiyaviy yondashuv to'rt asosiy tamoyilga tayanadi: bilishni o'rganish, ishlashni o'rganish, birga yashashni o'rganish va bo'lishni o'rganish. Bu tamoyillar oila muhitida farzand tarbiyasining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Ayniqsa, "birga yashashni o'rganish" tamoyili oilada ijtimoiy hamkorlik, o'zaro hurmat, milliy an'analar va axloqiy qadriyatlarni singdirish jarayonida muhim pedagogik mexanizm sifatida qaraladi.

B. Rychen va L. Salganik (2003) o'z tadqiqotlarida shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda oila va uning tarbiyaviy muhitini muhim ijtimoiy institut sifatida alohida ta'kidlaydi. Ular kompetensiyalarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni belgilab berar ekan, avvalo o'zaro muloqot, emotsional qo'llab-quvvatlash va shaxsiy qadriyatlarning uzviy bog'liqligiga urg'u beradilar. Bu fikrlar oilaviy tarbiyada kompetensiyaviy yondashuvni qo'llashning psixologik-pedagogik asoslarini chuqur ochib beradi.

T. Husen va T. Postlethwaite (1994) tomonidan ta'kidlanganidek, har qanday ta'lim va tarbiya strategiyasining muvaffaqiyati milliy madaniyat va an'analarni hisobga olgan holda amalga oshirilgan taqdirdagina ijobiy natijaga olib keladi. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv universal metod sifatida qaralmasligi kerak, balki u har bir jamiyatning madaniy-ma'naviy kontekstiga moslashtirilgan holda tatbiq etilishi zarur. Bu nuqtayi nazar, oilada milliy tarbiyani shakllantirish jarayonini o'ziga xos madaniy kompetensiyalarga tayangan holda amalga oshirish g'oyasini ilgari suradi.

Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi (1979) ham oilaning bola rivojlanishidagi o'rnini chuqur ochib beradi. U oilani mikro-muhit sifatida belgilab, aynan shu darajadagi ta'sirlar — ya'ni ota-onaning munosabati, tarbiya uslublari, axloqiy qadriyatlari — bola kompetensiyasining shakllanishida eng muhim omil ekanini asoslaydi. Kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, bu omillar bir butun tizim sifatida ishlashi lozim. Shu sababli pedagogik mexanizmlar oiladagi rollar, funktsiyalar va kommunikativ munosabatlar asosida ishlab chiqilishi kerak.

H. Gardnerning ko'p intellektlar nazariyasi (1983) ham oilaviy tarbiyada differensial yondashuvning zarurligini asoslab beradi. Unga ko'ra, har bir bola o'ziga xos intellektual kuchli tomonlarga ega bo'lib, oilaviy tarbiya mazmuni ham bu xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim.

Bu yondashuv orqali milliy qadriyatlar farzandning psixologik va intellektual ehtiyojlariga mos holda yetkazilishi, demakki, tarbiyaning samarasini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, xorijiy tadqiqotlar oilaviy tarbiya tizimini modernizatsiya qilishda kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish — bu nafaqat tarbiya samaradorligini oshirish, balki milliy qadriyatlar, madaniy meros va shaxsiy kompetensiyalarni uyg'unlashtirishga qaratilgan murakkab, ammo zaruriy jarayon ekanligini ko'rsatmoqda. Bu jarayonda pedagogik mexanizmlar sifatida oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlovchi metodlar, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi tarbiya strategiyalari va madaniy identifikatsiyani shakllantiruvchi faoliyat turlari muhim rol o'ynaydi. Shu asosda, oilada milliy tarbiyani takomillashtirishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv ijtimoiy barqarorlik, madaniy uzviylik va ma'naviy taraqqiyotning negizi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Muhokama.

Zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimining asosiy vazifalaridan biri – har tomonlama yetuk, ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi, o'z milliy qadriyatlariga hurmat bilan qaraydigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda oilaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Chunki aynan oila – bola dunyoqarashi, e'tiqodi, axloqiy mezonlari va ijtimoiy munosabatlari shakllanadigan birlamchi tarbiya makonidir. Shu jihatdan qaraganda, oilada milliy tarbiyani kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish bugungi kunda pedagogik nazariya va amaliyotning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy mohiyati shundaki, bu yondashuv bolada nafaqat nazariy bilimlar, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini, madaniy, axloqiy va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan. Shunday ekan, bu yondashuvni oilaviy tarbiyaga integratsiya qilish orqali milliy qadriyatlarni faqat targ'ib qilish emas, balki ularni hayotda amaliy qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Oilaning milliy tarbiya berishdagi roli uning ijtimoiy, axloqiy, madaniy va psixologik funksiyalarida namoyon bo'ladi. Aynan shu funksiyalar kompetensiyaviy yondashuv doirasida pedagogik mexanizmlar orqali faoliyatga tadbiq etilishi lozim. Jumladan, ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligini oshirish, ularni milliy pedagogika merosi asosida faol tarbiya subyektlariga aylantirish, farzand bilan madaniyatlararo va shaxslararo muloqotni mustahkamlash, oila muhitida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi an'analarni saqlab qolish va rivojlantirish — bularning barchasi kompleks pedagogik mexanizmlar tizimini tashkil etadi.

Muhokama jarayonida shuni alohida ta'kidlash lozimki, oilaviy tarbiyani kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishda milliy tarbiya mazmunini yangilash ham muhim ahamiyatga ega. Zero, milliy tarbiya — bu an'anaviy qadriyatlarning zamonaviy talablarga mos holda rivojlanishidir. Shu sababli kompetensiyaviy yondashuv orqali oila a'zolari — ayniqsa ota-onalar — o'z farzandlariga mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, o'zini ifoda etish, madaniy merosni qadrlash va uni yashash tarziga aylantirish kabi ko'nikmalarni singdirishlari zarur. Bu esa faqatgina oddiy axborot berish emas, balki faoliyat, tajriba, muloqot va mushohada orqali shakllantiriladi.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik mexanizmlar oilaviy tarbiyada uzviylik, izchillik va muntazamlikni ta'minlaydi. Bunday mexanizmlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onalar uchun tarbiyaviy treninglar va seminarlar tashkil etish, milliy bayramlar va urf-odatlarga asoslangan tarbiyaviy loyihalarni yo'lga qo'yish, ota-ona va farzand o'rtasida ijodiy va madaniy faoliyatlarni rivojlantirish, milliy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy rollar o'yinlari orqali tarbiyaviy situatsiyalar yaratish va shu orqali kompetensiyalarni shakllantirish.

Aynan mana shunday yondashuv orqali oilaviy tarbiyada individual yondashuv, psixologik qulaylik, doimiy rivojlanish va madaniy ijtimoiylashuv muhitini yaratish mumkin. Bu esa yosh avlodda o'z milliyligini anglash, o'zligini ifoda etish va uni ijtimoiy muhitda samarali qo'llash kompetensiyalarini shakllantirishga zamin yaratadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida oilada milliy tarbiyani tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish – bu nafaqat pedagogik metodologiyaning yangilanishi, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi chuqur ijtimoiy-huquqiy va madaniy

jarayondir. Bunda pedagog olimlar, tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligida zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan pedagogik strategiyalar muhim rol o'ynaydi. Shu asosda shakllangan oilaviy tarbiya tizimi esa jamiyatda milliy g'oya, ma'naviyat va fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Xulosa.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida oilada milliy tarbiyani tashkil etish – zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u farzandlarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki milliy o'zlik, madaniy meros va ijtimoiy mas'uliyatni ongli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv orqali oilaviy tarbiya jarayoni yanada tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va natijador bo'lib, oila a'zolari o'zaro hamkorlikda bolada hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. Eng muhimi, milliy qadriyatlar zamonaviy pedagogik mexanizmlar orqali bola shaxsiyatiga uyg'un, barqaror va funksional tarzda singdiriladi. Bu esa o'z navbatida barkamol, milliy g'urur va fuqarolik pozitsiyasiga ega avlodni voyaga yetkazishning mustahkam poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Weinert, F. E. (2001). Concept of Competence: A Conceptual Clarification. In D. S. Rychen & L. H. Salganik (Eds.), *Defining and Selecting Key Competencies*. Göttingen: Hogrefe & Huber Publishers. pp. 45–66.
2. Delors, J. (1996). *Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO of the International Commission on Education for the Twenty-first Century*. Paris: UNESCO Publishing. 235 p.
3. Rychen, D. S., & Salganik, L. H. (2003). *Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society*. Göttingen: Hogrefe & Huber Publishers. 220 p.
4. Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books. 440 p.
5. Bronfenbrenner, U. (1979). *The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design*. Cambridge, MA: Harvard University Press. 330 p.
6. Husén, T., & Postlethwaite, T. N. (1994). *The International Encyclopedia of Education* (Vol. 1–12). Oxford: Pergamon Press.
7. Хакимов, Ф.Х. (2021). *Оилада миллий тарбияни шакллантиришда компетенциявий ёндашувнинг ўрни*. Тошкент: Фан ва технологиялар нашриёти. 172 б.
8. Қурбонова, З. (2020). *Миллий тарбия: назарий ва амалий асослар*. Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти. 200 б.
9. Жўраев, М.М. (2019). *Оила ва тарбия: педагогик ёндашувлар*. Самарқанд: "Нурлы жамият" нашриёти. 148 б.
10. OECD (2005). *The Definition and Selection of Key Competencies: Executive Summary*. Paris: OECD Publishing. 35 p.

УДК 371.14

Киреева Эльвина Фларитовна
ФГБОУ ВО «Российский государственный
педагогический университет им. А.И. Герцена», филиал г. Ташкент
E-mail: kireeva-elvina@mail.ru

ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА-ПРОФЕССИОНАЛА В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОГО ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ: АКМЕОЛОГИЧСЕКИЙ ПОДХОД

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с формированием личности педагога-профессионала в системе непрерывного профессионального образования с опорой на акмеологический подход; Автором систематизированы условия реализации акмеологического подхода, ориентированные на формирование акмеологической направленности личности педагога, а также описаны акмеологическиекомпоненты профессиональной компетентности преподавателя. Текущий уровень быстрого накопления знаний и требования к компетентностипедагогов определяют необходимость рассматривать непрерывное профессиональное образование как целостный процесс, который включает в себя не только получение профессиональных знаний, но и дальнейшее самообразование и самосовершенствование - целенаправленное развитие личности. Сегодня профессиональная подготовка педагогов приобретает особое значение, так как оказывает влияние на формирование и развитие общества. Использование акмеологического подхода в профессиональном непрерывном образовании способствует развитию личности педагога, формированию собственного стиля профессиональной деятельности, улучшению педагогического мастерства, формирует личностную направленность на самосовершенствование и самоактуализацию в профессиональной деятельности.*

Ключевые слова: *непрерывное профессиональное образование, акмеология, педагогическая компетентность, профессиональная деятельность.*

FORMATION OF THE PERSONALITY OF A TEACHER-PROFESSIONAL IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS PROFESSIONAL EDUCATION: ACMEOLOGICAL APPROACH

Summary. This article deals with issues related to the formation of the personality of a professional teacher in the system of continuing professional education, based on the acmeological approach; The author systematized the conditions for the implementation of the acmeological approach, focused on the formation of the acmeological orientation of the teacher's personality, and also described the acmeological components of the teacher's professional competence. The current level of rapid accumulation of knowledge and the requirements for the competence of teachers determine the need to consider continuing professional education as a holistic process, which includes not only the acquisition of professional knowledge, but also further self-education and self-improvement — targeted development of the personality. Today, the professional training of teachers is of particular importance, as it influences the formation and development of society. The use of an acmeological approach in professional continuing education contributes to the development of the personality of the teacher, the formation of his own style of professional activity, the improvement of pedagogical skills, and forms a personal focus on self-improvement and self-actualization in professional activity.

Key words: continuing professional education, acmeology, pedagogical competence, professional activity.

UZLUKSIZ KASBIY TA'LIM TIZIMIDA KASB-PASHA O'QITUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISH: AKMEOLOGIK YONDASHISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola akmeologik yondashuvga asoslangan uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida professional o'qituvchi shaxsini shakllantirish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi; Muallif o'qituvchi shaxsining akmeologik yo'nalishini shakllantirishga qaratilgan akmeologik yondashuvni amalga oshirish shartlarini tizimlashtiradi, shuningdek, o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasining akmeologik tarkibiy qismlarini tavsiflaydi. Bilimlarni jadal to'plashning hozirgi darajasi va o'qituvchilarning kompetentsiyasiga qo'yiladigan talablar uzluksiz kasbiy ta'limni nafaqat kasbiy bilimlarni egallashni, balki keyingi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini takomillashtirishni - shaxsning maqsadli rivojlanishini o'z ichiga olgan yaxlit jarayon sifatida ko'rib chiqish zarurligini belgilaydi. Bugungi kunda, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi alohida ahamiyatga ega, chunki u jamiyatning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi. Kasbiy uzluksiz ta'limda akmeologik yondashuvdan foydalanish o'qituvchining shaxsiyatini rivojlantirishga, o'z kasbiy faoliyat uslubini shakllantirishga, pedagogik mahoratni oshirishga yordam beradi va kasbiy faoliyatda o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini namoyon qilishga shaxsiy e'tiborni shakllantiradi.*

Kalit so'zlar: *uzluksiz kasbiy ta'lim, akmeologiya, pedagogik kompetentsiya, kasbiy faoliyat.*

Расширение терминологического устройства в педагогической науке отражается понятием акмеологического подхода, методологическая значимость которого определяется его же сущностью. В педагогической науке философское понимание акмеологии, изучающей закономерности и механизмы развития человека в период его зрелости, трансформируется в ориентации, обусловливающие достижение человеком профессионализма в своей деятельности.

Важной задачей акмеологии в этом смысле является выявление техкачеств, которые должны быть сформированы у человека в его детстве и юности, чтобы он мог успешно реализовать свой потенциал в период его зрелости. Акмеология представляет собой междисциплинарные исследования человека. Необходимость возникновения данного направления объясняется, в основном, социокультурным контекстом развития общества, которое вынуждено решать проблемы глобального характера. На самом деле одним из важнейших человеческих ресурсов в решении глобальных проблем является высокий профессионализм и творческий подход специалистов, в том числе педагогов. Поскольку акмеология изучает законы и технологии развития профессионализма и творчества это означает, что интегрально-комплексная наука приобретает особое значение для теоретического развития и снятия социальной напряженности в сфере человеческих взаимоотношений.

Текущий уровень быстрого накопления знаний и требования к компетентностипедагогов определяют необходимость рассматривать непрерывное профессиональное образование как целостный процесс, который включает в себя не только получение профессиональных знаний, но и дальнейшее самообразование и самосовершенствование - целенаправленное развитие личности. Сегодня профессиональная подготовка педагогов приобретает особое значение, так как оказывает влияние на формирование и развитие общества. Акмеологически ориентированная профессиональная подготовка педагогов изучается зарубежными учеными. Принимаются во внимание следующие аспекты: практическое использование профессиональной акмеологии (Деркач А.А., Кузьмина Н.В.); акмеологические и психологические проблемы профессионализма личности (Ананьев Б.Г., Анисимов О.С.); компетенция будущих учителей (Зеер Э.Ф., Кузьмина Н.В.);акмеологический анализ личности (Бодалев А.А., Ермолова М.В.). Проблема мотивации человека довольно хорошо представлена в многочисленных исследованиях ученых, что можно объяснить потребностями современной образовательной практики.

Мы рассматриваем акмеологическую компетентность специалиста как интегрированную способность личности, которая формируется в непрерывном профессиональном образовании и отражает способность педагога строить свое собственное саморазвитие с усложнением постоянных задач и повышением уровня профессиональных достижений. Более того, обоснована структура акмеологический компетентности педагога, которая включает следующие компоненты: мотивационный, когнитивный, деятельностный, рефлексивный. Мотивационный

компонент отражает формирование самомотивации в процессе жизнедеятельности педагога. Когнитивный компонент отражает уровень акмеологических знаний, самореализацию в профессиональной деятельности. Деятельностный компонент отображает структурированные знания о способах работы, опыт их использования, личный и профессиональный рост, самостоятельные научные исследования. Рефлексивный компонент представляет совокупность знаний и умений осуществлять адекватнуюсамооценку, самоотношение и эффективныйсамоконтроль.

Вышеперечисленные компоненты играют важную роль в профессии педагога - отсутствие какого-либо из компонентов может разрушить систему и снизить эффективность профессиональной деятельности. Следовательно, такие категории исследуемой проблемы, как владение профессиональными знаниями и навыками, ценностные ориентации в обществе, культура, проявляемая в речи, стиль общения, отношение педагога и учащихся, реализация практической деятельностисохраняют свою актуальность.А.И. Пискунов включает в содержание непрерывной профессиональной подготовки инвариантные и вариативные части, образующие определенную структуру и обладающие элементами целостности. Инвариантная (обязательная) часть состоит из: фундаментальных знаний в области философских, психолого-педагогических и методических наук; технологических знаний в области организации различных форм и видов образовательной деятельности; профессионально-педагогических навыков.

Готовность к педагогической деятельности, по мнению О. Е. Ломакиной, является «составным компонентом профессиональной компетентности и отражает рефлексивную ориентацию учителя на педагогическую профессию, мировоззренческую зрелость; стремление к постоянному профессиональному и личному совершенствованию, самореализации и самообразованию; нацеленность на прогнозирование и динамику в разработке авторских технологий обучения и воспитания детей».

Следующее направление научно-педагогических исследований проблемы формирования профессиональной личности педагогазатрагивают качества учителя, необходимые не только для непосредственного участия в обучении и воспитании учащихся, но и для организации собственной профессиональной деятельности. Некоторые исследователи рассматривает профессиональную компетентность как уровень специального образования (Б.С.Гершунский, А.Д.Щекатунова и др.). Категория «профессиональная компетентность», в их понимании, определяется, главным образом, уровнем профессиональной подготовки, опытом, индивидуальными способностями, стремлениемпедагога к постоянному самообразованию и самосовершенствованию, творческому отношению к деятельности. А.Д. Щекатунова рассматривает профессиональную компетентность как уровень «образования и общей культуры личности, характеризуется овладением теоретическими средствами познавательной и практической деятельности». И еще одно направление, которое определяет профессиональную компетентность с позиции деятельностного подхода. Так, по утверждению А.К.Марковой, профессиональная компетентность представляет собой совокупность пяти сторон трудовой деятельности учителя: педагогическая деятельность, педагогическое общение, личность учителя, уровень знаний, хорошее воспитание.

Использование акмеологического подхода в профессиональном непрерывном образовании способствует развитию личности педагога, формированию собственного стиля профессиональной деятельности, улучшению педагогического мастерства, формирует личностную направленность на самосовершенствование и самоактуализацию в профессиональной деятельности. Практическая сторона акмеологии представлена современными технологиями обучения, методикой и организованной педагогической средой образовательного учреждения, что создает благоприятные условия для активного профессионально-личностного развития, а также его акмеологического сопровождения и мониторинга.

Таким образом, формирование личности педагога-профессионала в системе непрерывного профессионального образования возможно благодаря достижениям современной акмеологической науки.

Список литератур.

1. Ананьев Б. Г. Психология человека. Избранное. СПб.:1997. 90 с.
2. Бичева И.Б., Филатова О.М. Формирование педагога-лидера в образовательном процессе вуза // Вестник Мининского университета. 2017. № 3 (20). С. 5.
3. Деркач А.А. Акмеологический словарь. М.: Изд-во РАГС. 2005.161 с.
4. Деркач А.А. Психолого-акмеологические основания и средства оптимизации личностно-профессионального развития конкурентоспособного специалиста // Акмеология. 2013. № 1 (45). С 11-16.
5. Ломакина, О. Е. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя иностранных языков :дис. … канд. пед. наук / О. Е. Ломакина. Волгоград, 1998. 192 с.
6. Маркова А.К. Психология профессионализма / А. К. Маркова. М. :Междунар. гуманитар. фонд «Знание», 1996. 308 с
7. Пискунов, А. И. Педагогическое образование: цель, задачи и содержание / А. И. Пискунов // Педагогика. 1995. № 4. С. 59–63
8. Щекатунова А.Д. Образовательная модель «школа-школа искусств» как личностно-развивающая система [Текст]: Дис….канд. пед. наук. /А.Д. Щекатунова. –Волгоград, 1995. – 177 с.
9. Хуторской А. В. Определение общепредметного содержания и ключевых компетенций как характеристика нового подхода к конструированию образовательных стандартов // Конференция отделения философии образования и теоретической педагогики РАО. М., 2002. С. 4—5.

Dilmurod Bakiyevich Xujayev
Buxoro xalqaro universiteti o'qituvchisi

"BUXORCHA" VA "MAVRIGI" QO'SHIQ HAMDA RAQS TURKUMLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY – AXLOQIY TARBIYALASH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya. *"Buxorcha" turkumi buxoroliklar ijodkorligi va ijrochiligi hosilasi sifatida shakllangan turkum bo'lsa, "Mavrigi" migratsion qo'shiq va raqslardan iborat bo'lgan turkum ko'rinishda buxoroliklar ijrochiligida sayqallanib, to'lishib borayotgan qo'shiq va raqslar majmuasidir. O'zbek raqs va qo'shiqchilik san'ati o'zining turli davrdagi taraqqiyoti va tanazzulini boshidan kechirdi. "Buxorcha" va "Mavrigi" egizak turkum bo'lib, oilaviy – maishiy marosimlarda kuylanadi; o'tmishda "Buxorcha" ichkarida xotin – qizlar bazmida "Mavrigi" esa tashqari hovlida erkaklar bazmida ijro etilgan, hozirgi kunda esa, bu tafovut tamoman yo'qolgan, chunki bazmlaru shodiyonlarda erkagu ayol aralashiga qatnashadiganligi haqida.*

Kalit so'zlar: *"buxorcha", "mavrigi", raqs va qo'shiqchilik san'ati, Abdullaxon hukmronligi davri, egizak turkum sifati, buxoroliklar ijrochiligi.*

TECHNOLOGY OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF STUDENTS BASED ON THE SONG AND DANCE GROUPS "BUKHORCHA" AND "MAVRIGI"

Annotation. *The "Bukhorcha" group is a group formed as a product of the creativity and performance of the Bukhara people, while the "Mavrigi" group, consisting of migratory songs and dances, is a complex of songs and dances that are being refined and enriched in the performance of the Bukhara people. The art of Uzbek dance and singing has experienced its development and decline in different periods. "Bukhorcha" and "Mavrigi" are twin groups, sung in family and household ceremonies; In the past, "Bukhorcha" was performed indoors at women's parties, and "Mavrigi" was performed outdoors at men's parties, but nowadays this distinction has completely disappeared, as both men and women participate in parties and festivities.*

Keywords: *"bukhorcha", "mavrigi", art of dance and singing/ period of Abdullakhan's reign, quality of the twin group, performance of Bukhara people.*

«BUXORCHA» И «МАВРИГИ» — ТЕХНОЛОГИЯ ДУХОВНО–НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ПЕСЕННО–ТАНЦЕВАЛЬНЫХ ЦИКЛОВ

Аннотация. *Цикл «Бухорча» сформировался как результат творческой и исполнительской деятельности жителей Бухары, в то время как цикл «Мавриги», включающий в себя миграционные песни и танцы, со временем был отточен и обогащён именно бухарскими исполнителями. Узбекское песенно-танцевальное искусство прошло через различные этапы расцвета и упадка. Циклы «Бухорча» и «Мавриги» представляют собой как бы «двойников»: они исполнялись в рамках семейно-бытовых обрядов — в прошлом «Бухорча» звучал во внутренней части двора на женских торжествах, а «Мавриги» — во внешней части двора на мужских собраниях. В современную эпоху это различие полностью исчезло, поскольку праздничные мероприятия сегодня проходят с участием как мужчин, так и женщин одновременно.*

Ключевые слова: *бухорча, мавриги, песенно-танцевальное искусство, эпоха правления Абдуллахана, двойной цикл, исполнительское искусство бухарцев.*

Uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan o'zbek raqs va qo'shiqchilik san'ati o'zining turli davrdagi taraqqiyoti va tanazzulini boshidan kechirdi. "Buxorcha" va "Mavrigi" qo'shiq va raqs turkumlarining yuzaga kelishi va shakllanishi jarayoni ham o'ziga xos tarixga ega. "Buxorcha"

turkumi buxoroliklar ijodkorligi va ijrochiligi hosilasi sifatida shakllangan turkum bo'lsa, "Mavrigi" migratsion qo'shiq va raqslardan iborat bo'lgan turkum ko'rinishda buxoroliklar ijrochiligida sayqallanib, to'lishib borayotgan qo'shiq va raqslar majmuasidir.

XVI asrda, Ubaydullaxon zamonida, keyin Abdullaxon hukmronligi davrida va XVIII asrda Amir Shohmurod saltanati davrida Mavrdan Buxoroga ko'chirilgan muhojirlar orasida nafaqat forslar, balki boshqa millat vakillari borligini ham inobatga olsak, "Mavrigi" turkumi Marvdan Buxoroga zo'rlab ko'chirilgan barcha mavrliklarning – nainki faqat fors – tojik, balki turkman, o'zbeklarning ham mushtarak ijodiy mahsuli ekanligi namoyon bo'ladi.

"Buxorcha" va "Mavrigi" egizak turkum sifatida, asosan, oilaviy – maishiy marosimlarda (beshik to'yi, xatna, nikoh va h.zo) kuylanadi; o'tmishda "Buxorcha" ichkarida xotin – qizlar bazmida "Mavrigi" esa tashqari hovlida erkaklar bazmida ijro etilgan, hozirgi kunda esa, bu tafovut tamoman yo'qolgan, chunki bazmlar-u shodiyonlarda erkak-u ayol aralashiga qatnashadigan bo'ldi. Aytish joizki, ushbu ikki turkum tuzilishida, raqs kiyimlari va ijro uslubida farq qiluvchi xususiyatlar mavjud. "Buxorcha va Mavrigi"lar uch qismdan iborat o'ziga xos ko'rinishga ega:

1. Birinchi payt – "Shahd"
2. Ikkinchi payt – "Chorzarb"
3. Uchinchi payt – "Shikan – shikan" dan iboratdir.

"Mavrigi" turkumi xalq qo'shiq va raqslari majmuasi tarzida shakllangan bo'lib, qadimda uni to'rt doiradast hofiz kuylagan. XX asrning 60-70 yillariga kelib, mavrigixonlar dastasi 6 yoki 7 kishilik ijrochilar guruhi darajasiga yetgan. O'tmishda mavrigi qo'shiqlari faqat doyra (ba'zida nog'ora, qayroq ham ularga jo'rnavoz bo'lgan) bo'lsa, bugunga kelib unga barcha xalq cholg'u asboblari ansambli jo'rnavozlik qilmokda.

"Mavrigi"xonlik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbeksitonning Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Turkmanistonning Mori, Chorjo'y, Tojikistonning Dushanbe va Xo'jand kabi shahar xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lsa, hozir kunga kelib u O'zbekistonning barcha viloyatlari, shuningdek, Tojikistonning ko'pgina hududlarida kuylanmoqda.

Qadimda "Mavrigi" guruhlari nafaqat ma'muliy (xalq orasida o'z san'atini namoyish etadigan guruh), balki "xos" (amir saroyida ham faoliyat yuritadigan) to'dalardan tashkil topgan bo'lgan. O'sha paytda Buxoro amiri saroyida ham 24 nafardan iborat erkaklar guruhi mavjud bo'lib ularning safida bir necha "Mavrigi"xon bolalar xizmat qilganlar. "Mavrigi"xon bolarning yoshi 13-15 dan iborat bo'lib, ular ko'p holda 18-19 yoshgacha to'dada faoliyat ko'rsatganlar, so'ngra ular sarbozlikka uzatilgan yoki erkin "Mavrigi"xon sifatida xalq ichida tomoshalar ko'rsatib yurganlar.

Buxoro yosh raqqoslarining faoliyati bevosita "Mavrigi"xonlar bilan bog'liq bo'lgan. Ular 2 yoki 3 mavrigixon doyradast bilan chiqishlar tashkil qilar edilar. Xonanda ("Mavrigi"xon) o'z chiqishida dastlab "Chorchillik", so'ngra "Bahri tabil"ni ijro qilib, keyin "Mavrigi"xonlikka o'tar edi. Ba'zan esa, ularning xonishlari "Shahd", "Furovardi shahd", shuningdek, "Chorzarb" singari raqsbob qo'shiqlar bilan boshlanar edi. Doyradast "mavrigi"xonlar tomonidan klassik shoirlar she'rlari bilan ijro etiladigan "Bahri tabil", "Chorchillik" qo'shiqlarining raqslari ohangdor, vazmin va tinglovchini chuqur fikr o'ylovga soladigan raqslar bo'lib, raqqosni navbatdagi sho'x, purviqor mavrigi raqslarini ijro etishga tayyorlaydi. Va raqqoslar doiradast xonandalarning sershavq-u serzavq ijrolari ostida chiroyli raqslarni namoyish etib, tomoshabinlarni hayratga solar edilar.

"Chorzarb" raqsida doiradastlar o'z ro'palarida o'tirgan o'yinchiga ishora qilib uni raqsga chorlar edilar. So'ngra raqqos o'z o'rnidan turib ikki qo'lini yuqoriga ko'tarib uning bandlarini aylantirib bir oyog'ini ikkinchi oyog'i orqasiga o'tkazib, o'ng oyog'i uchi bilan raqs usulini ifoda etardi. Keyin oyoqlar avvalgi holatga kelib, raqqos "Shikan – shikan" raqsini ijro etib oldinga harakat qilardi. "Shikan – shikan" raqsi "Mavrigi" silsilasiga xos bo'lib, u ijro davomida ko'p marta takrorlanardi. Uning ijrosi davomida doiradastlar xonishidan ta'sirlangan raqqoslar qo'llari bilan qarsak chalib raqsning jozibadorlik ta'sirini yanada oshirardilar. Shu alfozda "Chorzarb" raqsi ancha uzoq davom etardi. Shundan so'ng "Mavrigi"xonlar kichikroq hajmdagi sho'x va zavqovar qo'shiqlarni kuylashga kirishar edilar.

Bu janr "Maydaxoni" yoki "Miyonaxona" (naqarot) deb nomlanardi. Har bir qo'shiq misrasidan so'ng yakkaxonlar quyidagi naqarotni takrorlar edilar.

Maza dorad labi yor,
Duxanda dorad labi yor.

Bu vaqtda raqqos doiradastlarning “minaxona”ga o’tishga u “shikan – shikan” raqsini o’ynab ular oldiga borar edi. Keyin doiradast unga ro’parasida oyoqlarini bukib o’tirib olishga ishora qiladi.

Ijrochi sal bukilgan qo’llarini yuqoriga ko’tarib, panjalarini ochgan holda goh chapga va goh o’ngga aylanadi. So’ngra gavdasini rostlab oldinga egiladi va kiftlarini yuqoriga ko’tarib chap hamda o’ng tomongan egiladi. Qo’llarini boshi ustiga ko’tarib takroran charx usulini bajaradi. O’tirgan holda raqsga tushish usuli taxminan 20-25 daqiqa davom etadi. Raqqos “Mavrigi”xonlik jarayonida doiradastlarning ishorasi bilan ularga yuzlanib shu harakatlarini yana takrorlaydi. Shu onda doiradastlar yana “Chorzarb” ijrosiga o’tadilar va raqqos tag’in “Chorzarb” raqsi harakatlarini takrorlaydi. Zero “Chorzarb” va “Miyonaxona”ning ijro tartibi shu tarzda o’tkazilishi shart qilib qo’yilgan. Bu orada doiradastlar ijroning rang – barang bo’lishi uchun muxammasxonlik ham qilardilar.

“Mavrigi” raqsining yana bir nusxasi quyidagicha ijro etiladi: Uni besh raqqos bajaradi. Buning uchun o’yinchilar xuddi domino donasining o’rnashishi singari to’rt burchak va biri o’rtada bo’lgan shakl hosil qiladilar. Ularning qo’llarida uzunligi qariyb bir metr keladigan ikkitadan uzun cho’p bo’lib ular cho’pni pastki qismidan ushlab turadilar. Raqqosa yuzma – yuz turib vals ijro etayotgan singari charx uradi va o’rtadagi nuqta atrofidan aylanib sakkiz raqami shaklini hosil qiladi. Bu holatda raqqosning asosiy mahorati shundan iborat bo’ladiki, raqqos ham o’z raqibi bilan va o’rtadagi o’yinchi ishtirokida navbat ila cho’pni bir – biriga urib chillak hosil qilishi lozim. Buxorcha va Mavrigi taronalarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish asrimizning 1955-1960 yillarida boshlangan. Buni Buxorolik ustoz san’atkor, ko’p yillar Tojikistonda teatr san’ati, folklor va musiqa san’atini rivojiga katta hissa qo’shgan Nizom Nurjonov boshlab berganlar. U kishi Buxoro shahri va uning atrofidagi tumanlarda birinchi ekspeditsiyani uyushtirib, 150 ga yaqin qo’shiqlarni lentali kassetaga yozib olganlar.

Buxoroda asosan 1960-1970 yillarda xalq orasida bir necha folklor jamoalar faoliyat yuritgan. Jumladan: To’hfaxon Pinxasova asos solgan “Nozanin”, Oliyaxon Xasanova rahbarlik qilgan “Mohi Sitora” kabi folklor ansambllarda asosan “Buxorcha” turkumiga oid qo’shiq va raqslar, shuningdek, Buxorocha muxammasxonlik janrlari kuylangan. Shu davrlarda Mavrigixonlar Mulla Muhammadi Zangboz, rikobiy hofizlar Qoqo Muhammad, Mirzo Muhammad, Ashur qori, Ko’ka Ma’dali, Davlat Sohib, Usta To’la, Usta Ergash, Kozim Rahmon, G’ulom Garmon, Abdulla Qurbon, Rahim Dangiz, Baqojon Sa’dullo, Qori Habib, Ibrohim Qosim, Ismoil Sharof, Haydar Shodi, Mehdi Ibodov, Orif Atoev kabi san’atkorlar faoliyat yuritgan.

1970 – 1990-yillar davomida Respublika va sobiq SSSR miqyosida o’tkazilgan turli festivallar, ko’rik tanlovlar, boshqa madaniy tadbirlarda “Buxorcha va Mavrigi” taronalari keng miqyosda ijro etib kelingan.

1993 – 2000-yil davrida Buxorolik keksa san’atkor urush va mehnat faxriysi Rahmatjon Naimov bilan hamkorlikda Buxoro folklor san’atining bilimdoni O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artist Orif Atoev, musiqashunos olim Fayzulla To’raev, va endigina san’at sohasiga kirib kelayotgan yosh iqtidor sohibi Rauf Avezovlar “Buxorcha va Mavrigi” taronalarini izlab topish, tadqiq etish bo’yicha 2-ekspeditsiya tadqiqot ishlarini olib borib 100 ga yaqin qo’shiqlarni notalashtirish ishlarini olib borganlar. 2000 – 2005-yillar davomida esa, professor, folklorshunos olim Oxunjon Safarov, musiqashunos olim Fayzulla To’raev, ustoz san’atkor Orif Atoevlar birgalikda ijodiy izlanish olib borib ilk marotoba “Buxorcha va Mavrigi taronalari” deb nomlangan kitobni chop etishga muvaffaq bo’lganlar.

2006-200-yillar davrida Buxorcha va Mavrigi taronalari Xalqaro miqyosda e’tirof etilib, Shvesariya elchixonasining madaniyat sho’basi bilan hamkorlikda ilk marotoba taniqlik rejissyor Avliquli Xodjaquli tomonidan sahnalashtirilgan “Mavrigi” teatrlashtirilgan konsert spektaklini ko’p sonli tomoshabinlar e’tiboriga havola qilganlar. Bu loyiha Toshkent shahrida o’tkazilgan bo’lib, turli diplomatik korpuslar, keng jamoachilik vakillari tomonidan e’tirof etilgan. Shu davrlarda Buxoroda viloyat miqyosida “Mavrigi” festivallari va mahorat darslari tashkil qilingan bo’lib juda keng ommalashgan. Ushbu tadbirlarni bevosita O’zbekiston davlat filarmoniyasi Buxoro viloyat

bo'linmasi qoshidagi "Buxorcha", "Buxoro go'zallari", "Mavrigi" ansambllari amalga oshirgan. Shu bilan birga bugungi kunga qadar "Buxorcha va Mavrigi taronalari"ni keng targ'ibot qilish faqatgina O'zbekiston davlat filarmoniyasi Buxoro viloyat bo'linmasi qoshidagi "Mavrigi" ansambli tomonidan targ'ib qilinishini kamlik qilinadi. Chunki, shu turkumdagi qo'shiqlar targ'iboti bilan butun viloyatdagi ansambllar, musiqa maktablari, teatrlar, qolaversa, oliy ta'lim dargohlari, maktablar shug'ullansagina yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Ansambl 2009-yil Sultanat Oman, Tojikiston, 2010-yil Malayziya, 2011 – 2012-yillarda Qatar, Doxa kabi davlatlarda o'tkazilgan turli xalqaro festivallarda ishtirok etib, diplomlar, sovg'alar, sertifikatlar bilan taqdirlanganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

"Buxorcha va Mavrigi" taronalari" ba'zi bir sabalarga ko'ra ma'lum muddat taziyqqa ham uchragan. Viloyat, Respublika miqyosida turli madaniy tadbirlarda matnlari, musiqa ohanglari o'zgartirilib, uni kuylash, ijro etishda bir muncha muammolar kelib chiqqan. Ba'zi hollarda umuman ijro etilmagan. Bu esa, o'z o'rnida "Buxorcha va Mavrigi" turkum qo'shiqlarining xalq orasida unutilib borilishiga sabab bo'lgan.

2016-yildan boshlab esa, "Buxorcha va Mavrigi taronalari" ni ijro etish qayta yo'lga qo'ygan. Buxoroda har yili an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Ipak va ziravorlar festivali"da ushbu janr baralla kuylangan va xorijiy sayyohlar, mehmonlar tomonidan olqishga sazovor bo'lgan. Yana "Buxorcha va Mavrigi taronalari" dunyo sahnalarida namoyon bo'la boshlagan. Jumlanadan: 2018-yil Vetnamda bo'lib o'tgan "O'zbekiston madaniyati va san'ati kunlari", Germani va Fransiyadagi O'zbekiston elchixonalari tomonidan tashkil qilingan madaniy tadbirlarda "Buxorcha va Mavrigi"lar zo'r olqish bilan kutib olingan. 2019-yil esa, bu janr yana dunyo sahnalarini ko'rgan, Turkiyada bo'lib o'tgan (Yalova, Inigyul, Bursa) xalqaro festivallarda "Buxorcha va Mavrigi taronalari" Grand Pri sohibi bo'lgan. Shuningdek, Ozarbayjon va Xitoy davlatida Shanxay hamkorlik tashkiloti tomonidan tashkil qilingan O'zbekiston madaniyati va san'ati kunlari doirasidagi tadbirlarda "Buxorcha va Mavrigi taronalari" o'zining serjilloligi, betakrorligi bilan tomoshabinlarni maftun qilgan. Bundan tashqari, 2020-yil pandemiya davrida "Mavrigi va Buxorcha taronalari"ning Chorzarb turkum qo'shig'i "World Folk Vision 2020" milliy madaniyat va san'at butunjaxon onlayn festival-konkursida ishtirok etib, 115 ta mamlakatdan, 1100 ta jamoa orasida raqs nominatsiyasi bo'yicha 4-o'rin sohibi bo'lgan.

Bugungi kunda "Buxorcha va Mavrigi taronalari"laridan iborat viloyatda faoliyat yuritayotgan folklor ansambllari, musiqa maktablari, ixtisoslashtirilgan internat maktablari, teatrlar, badiiy havaskorlik jamoalarida repertuarlarida shu turkumga oid asarlar kamchilikni tashkil qiladi. Buxoro davlat Universitetida faoliyat yuritayotgan musiqa kafedrasi, folklorshunos olimlar "Buxorcha va Mavrigi taronalari" to'g'risida ilmiy maqolalar, turli risolalar, tadqiqotlar olib borilayotgani deyarli yo'q.

Bundan kelib chiqib, "Buxorcha va Mavrigi taronalari"ni keng targ'ibot qilish, ommalashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni yo'llamoqdamiz:

Buxoroda "Buxorcha va Mavrigi taronalari" asosidagi xalqaro festivallar, ko'rik – tanlovlar, ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari va turli anjumanlarni tashkil qilish.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan qo'shma korxonalar, tashkilotlar huzurida badiiy havaskorlik ansambllarni tashkil qilish va ularning repertuarlarida o'zbek, folklor san'ati, xususan "Buxorcha va Mavrigi taronalari" dan keng foydalanish;

Shu bilan birga "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalarini Yuneskoning reprenzativ ro'yxatiga kiritish;

Buning uchun Buxoroning qadimiy san'ati Buxorcha va Mavrigi taronalarini Yuneskoning reprenzativ ro'yxatiga kiritish bo'yicha viloyat komissiyasini tuzish;

Komissiya tarkibida: Buxoro folklor san'ati bilimdonlari, musiqashunos olimlar, folklorshunoslar, adabiyotshunoslar, tarixchilar, qadimshunoslar va ustoz san'atkorlarni jalb qilish, va ularning umumiy ro'yxatini tuzish;

Buxorcha va Mavrigi tarixiga oid mahalliy, respublika va xorijda chop etilayotgan turli jurnallar, gazetalar va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot – tashviqot ishlarini olib borish;

Buxoro davlat Universitetida faoliyat yuritayotgan musiqashunoslar, folklorshunoslar, qadimshunoslar, madaniyatshunoslarni keng jalb qilgan holda BDU hamkorlik qilayotgan xorijiy ta'lim maskanlari, institutlarining musiqa fakultetlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, Buxorcha va Mavrigi taronalari to'g'risida ma'lumotlar, turli video materiallarni jo'natib, ularning fikrnomalari jamlanmalarini to'plash;

O'zbekiston fanlar akademiyasi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbekiston san'at va madaniyat institutida faoliyat yuritayogan musiqashunos, folklorshunos olimlar bilan yaqin aloqalarni bog'lab, ularning Buxorcha va Mavrigi taronalari to'g'risidagi fikrnomalarini jamlash;

O'zbekiston bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi ijodkorlari bilan yaqin aloqalarni bog'lab ularning ham Buxorcha va Mavrigi taronalari to'g'risidagi fikrnomalarini jamlash;

Dunyo miqyosida taniqli bo'lgan yirik musiqashunos olimlar, folklorshunoslar bilan yaqin aloqalarni bog'lab Buxorcha va Mavrigi turkum qo'shiqlari to'g'risidagi foto, video materiallarni jo'natish ularning ham fikrnomalarini jamlash;

Buxorcha va Mavrigi taronalarining tarixi, uning Buxoro san'atiga tutgan o'rnini aks ettiruvchi annotatsiyalar tayyorlab, buni BDU bilan hamkorlikda xorijiy tillar turk, rus, ingliz, fransuz, italiyan, nemis, koreys, xitoy, fors, arab tillariga tarjima qilib, keng targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

O'zbek milliy qo'shiq va raqs san'ati xususan, Buxoroning qadimiy urf – odatlari, an'analari, udumlari, folklor san'ati bilan shug'ullanadigan nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro yaqin aloqalarni bog'lab ularning ham bu boradagi fikrnomalari jamlanmasini tuzish;

Buxorcha va Mavrigi taronalari to'g'risidagi keng qamrovli ma'lumotlar bazasini yaratish, internetda maxsus sayt tashkil qilib, uni bir necha tillarda, ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borishni yo'lga qo'yish;

Bu kunga qadar Buxorcha va Mavrigi turkum qo'shiqlari to'g'risida chop qilingan kitoblar, risolalar, ilmiy maqolalar, ilmiy izlanishlarni xorijiy tillarga tarjima qilib, uni keng ommalashuviga zamin yaratish;

Mahalliy, Respublika, televidenie va telekanallarida Buxoro folklor san'ati, xususan, Buxorcha va Mavrigi taronalari to'g'risida davra suhbatlari, ommaviy chiqishlar, turkum ko'rsatuvlar tayyorlashni yo'lga qo'yish;

Yuqoridagi takliflar yuzasidan viloyat xokimligi, mutasaddi tashkilotlar, Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda aniq rejali dastur ishlab chiqib "Buxorcha va Mavrigi taronalari"ni YUNESKOning reprenzativ ro'yxatiga kiritish bo'yicha barcha tashkiliy va amaliy ishlarni olib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Toshxo'jayev B. Ma'naviyat asoslari. – T.: "O'zbekiston", 2010.
2. G'ofurov Z. O'zbek xalq raqslari. – T.: "Fan", 1995.
3. Jo'rayev X. Musiqa ta'limida milliy qadriyatlar. – T.: O'qituvchi, 2007.
4. Qurbonov S., Sultonov A. Sharq musiqa madaniyati. – T.: Fan, 2012.
6. Hayitmetov A. O'zbek mumtoz musiqa merosi. – T.: Sharq, 2001.
7. Sodiqova M. O'zbek xalq raqslari tarixi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2005.
8. Xaitov A. Milliy raqs san'ati va yoshlarda estetik didni shakllantirish. – T.: 2017.
9. Xasanov H. Musiqa tarbiyasi metodikasi. – T.: O'zbekiston, 2013.
10. Islomova D. Buxoro raqs maktabining o'ziga xosligi. – "San'at" jurnali, 2019-yil, №1.
11. Yo'ldosheva D. "Buxorcha" raqslarining tarbiyaviy ahamiyati. – "Ma'naviyat" jurnali, 2021, №3.
12. Rasulova Z. Mavrigi raqslari va ularning yosh avlod tarbiyasidagi roli. – "Pedagogik izlan-ishlar" to'plami, 2020.
13. Qo'shqarova M. Maktabda musiqa darslarida milliy an'analardan foydalanish. – "Ta'lim va taraqqiyot", 2022.

Mavlonova Gulchehra G'ulomovna
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY-IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada innovatsion ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Unda innovatsion pedagogik yondashuvlar, kasbiy-ijodiy kompetensiyalar, didaktik muhit va ijodkor o'qituvchi shaxsini shakllantirish omillari tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy pedagogik texnologiyalar, reflektiv ta'lim, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlar asosida o'qituvchilarning kasbiy o'sishini ta'minlash mexanizmlarini tavsiflaydi. Tadqiqot nazariy va amaliy asoslar bilan boyitilgan holda, ta'lim tizimida sifatli o'zgarishlarni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *innovatsion muhit, boshlang'ich ta'lim, kasbiy-ijodiy faoliyat, pedagogik texnologiyalar, refleksiya, kreativ kompetensiya, o'qituvchi tayyorlash.*

РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ИННОВАЦИОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Аннотация. *В статье рассматривается вопрос развития профессионально-творческой деятельности будущих учителей начальных классов в условиях инновационной образовательной среды. Анализируются педагогические подходы, способствующие формированию креативной личности педагога, раскрываются понятия профессиональной креативности, инновационного мышления и рефлексивной деятельности. Автор описывает механизмы, обеспечивающие профессиональный рост педагогов на основе современных образовательных технологий, проектной деятельности и критического мышления. Исследование включает как теоретические, так и практические аспекты, направленные на повышение качества образования.*

Ключевые слова: *инновационная среда, начальное образование, профессионально-творческая деятельность, педагогические технологии, креативность, рефлексия, подготовка учителя.*

DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND CREATIVE ACTIVITY OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN AN INNOVATIVE EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Abstract. *This article explores the development of professional and creative activity of future primary school teachers within an innovative educational environment. It examines pedagogical strategies that foster teacher creativity, reflective thinking, and innovation-oriented competencies. The author identifies mechanisms that enhance professional growth through the use of modern educational technologies, project-based learning, and critical thinking. The study integrates both theoretical and practical dimensions to propose effective ways to improve the quality of teacher education and early childhood learning outcomes.*

Keywords: *innovative environment, primary education, professional creativity, pedagogical technologies, reflection, creative competence, teacher training.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimining har bir bo'g'inida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi zamonaviy pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va ijodiy muhitni joriy etish orqali yangicha mazmun kasb etmoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi esa bu tizimda markaziy shaxs sifatida, nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining ijodiy va shaxsiy rivojlanishini yo'lga qo'yuvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu

bois, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularda innovatsion fikrlash, pedagogik kreativlik va muammoli vaziyatlarga yangicha yondasha olish kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy ta'lim muhitida raqobatbardoshlik, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv kabi mezonlar boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Ushbu sharoitda bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanmasligi, balki u ijodiy yondashuvga ega, o'z ustida ishlay oladigan, ta'lim jarayonini zamon talablari asosida loyihalashtira oladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion ta'lim muhiti pedagog kadrlarni tayyorlashning yangi sifat bosqichiga chiqishga xizmat qiladigan kuchli vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

Innovatsion muhit deganda, o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalar, ilg'or pedagogik metodlar, muammoli va loyiha asosidagi o'qitish usullari, hamda shaxsiy yondashuvlar uyg'unligida tashkil etilgan, o'qituvchiga o'z salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi pedagogik makon tushuniladi. Bu muhitda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy yondasha olish, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni real ta'lim jarayoniga joriy etish ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kasbiy-ijodiy faoliyat esa, o'z navbatida, pedagogning kasbiy vazifalarini ijodkorlik bilan bajara olishi, o'qituv jarayonini yangi g'oya va yondashuvlar asosida tashkil eta olishi, doimiy o'zgarib borayotgan pedagogik vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qila olishi bilan bog'liq. Bu esa bo'lajak o'qituvchining mustaqil fikrlashi, yangilikka ochiqligi, o'zini doimiy rivojlantirishga intilishi, innovatsion tashabbuskorlik ko'rsatishi orqali yuzaga chiqadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatini innovatsion ta'lim muhiti sharoitida shakllantirish – nafaqat ularning shaxsiy professional kamoloti, balki kelajakda ta'lim sifatining yuksalishi, ijodiy avlodni tarbiyalashga qaratilgan muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu ilmiy izlanish aynan ana shu muhim masalaning nazariy asoslarini chuqur yoritish, mavjud holatni tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb muammolaridan biriga javob berishga intiladi.

Zamonaviy ta'lim paradigmasining tubdan yangilanishi va innovatsion yondashuvlarning faol joriy etilishi, dunyo bo'ylab pedagogik tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish muammosiga e'tiborni kuchaytirdi. Bu borada ko'plab xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar, innovatsion ta'lim muhiti sharoitida pedagogik ijodkorlikni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. Ularning tadqiqotlari o'qituvchining nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochuvchi va ularni yangi g'oyalarga undovchi shaxs sifatidagi rolini chuqur anglatadi.

Masalan, amerikalik tadqiqotchi Ken Robinson o'zining mashhur "Out of Our Minds: Learning to be Creative" (2011) nomli asarida ijodkorlikni zamonaviy ta'limning markaziy elementi sifatida ko'rib chiqadi. U ta'lim muhitini yangilash va o'qituvchini ijodkorlikka undovchi omillarni shakllantirish zarurligini asoslaydi. Robinson ta'lim tizimi an'anaviy qoliplar asosida emas, balki har bir pedagogning shaxsiy yondashuvlari va ijodiy tashabbuslariga tayanishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu esa, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda o'quvchilarning intellektual va emotsional asoslari shakllanadi.

Shuningdek, kanadalik olim Michael Fullan o'z tadqiqotlarida o'qituvchi faoliyatini o'zgaruvchan ta'lim muhiti bilan uyg'unlashtirish zaruratini ta'kidlaydi. Uning "The New Meaning of Educational Change" (2007) asarida aytilishicha, innovatsion ta'lim muhiti pedagogning kasbiy o'sishi uchun asosiy resurs sifatida namoyon bo'lishi mumkin, biroq bu muhitdan samarali foydalanish uchun o'qituvchi o'zgarishlarga tayyor, o'z faoliyatini refleksiya qila oladigan va ijodiy qarorlar qabul qila oladigan shaxs bo'lishi lozim. Fullanning fikricha, bu kompetensiyalar pedagogik ta'lim jarayonidayoq shakllantirilishi kerak.

Finlandiyalik pedagogik olima Pasi Sahlberg esa o'zining "Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?" (2015) nomli tadqiqotida pedagog tayyorlashda ijodkorlik va mustaqil fikrlash asosiy tamoyil sifatida qaralishini alohida urg'ulaydi. U Finlandiya

tajribasi misolida ko'rsatadiki, o'qituvchilar mustaqil ijodiy faoliyatga yo'naltirilsa, ular ta'lim sifatini tubdan oshirishga qodir bo'ladi. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchining o'z kasbini chin dildan anglashiga, o'zining shaxsiy va professional o'sishini muntazam ravishda davom ettirishiga zamin yaratadi.

Boshqa tomondan, britaniyalik olim Guy Claxton "The Creative Thinking Plan" (2006) asarida innovatsion muhitda faoliyat yurituvchi o'qituvchining shaxsiy xususiyatlarini ochib beradi. U o'qituvchining kasbiy-ijodiy faoliyati shaxsiy intellektual faollik, xavfga tayyorlik, tajriba orqali o'rganish, tafakkur moslashuvchanligi kabi mezonlar bilan belgilanadi, deb hisoblaydi. Bu sifatlar innovatsion ta'lim muhiti ta'sirida kuchayadi, ammo ularni shakllantirish uchun pedagogik tayyorgarlik dasturlariga maxsus treninglar, loyihaviy yondashuvlar va reflektiv faoliyatlar integratsiya qilinishi kerakligini asoslaydi.

Yevropadagi ko'plab zamonaviy tadqiqotlar ham o'qituvchilik kasbining ijodiy tabiatini ochishga qaratilgan. Jumladan, nemis olimi Andreas Schleicher, OECD (PISA) dasturi doirasidagi tahlillar asosida shunday xulosaga keladiki: innovatsion va ijodiy fikrlovchi o'qituvchi maktabda o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, bilimlarni hayot bilan bog'laydi va ijtimoiy-emotsional o'sish uchun qulay sharoit yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini barqaror oshirishga olib keladi.

Bundan tashqari, Linda Darling-Hammond (AQSh) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda (2017) bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida innovatsion metodlar, reflektiv yondashuvlar va kollegial hamkorlik asosida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha samarali modellar ishlab chiqilgan. U o'qituvchilik kasbini doimiy o'zgarishlar va moslashuvlar talab qiluvchi kasb sifatida tavsiflaydi va bu holatda ijodiy yondashuv muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilmiy-adabiyotlarda innovatsion ta'lim muhiti va pedagogik ijodkorlik o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalar sifatida ko'rilmoqda. Bu yondashuvlar nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o'qituvchi shaxsini rivojlantirish, uni o'zgaruvchan muhitga moslashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi kuchli kasbiy pozitsiyani shakllantirishga yo'naltirilgan. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalasi, xorijiy tajriba asosida puxta o'rganilishi va milliy kontekstda ilmiy asoslangan yondashuvlar bilan boyitilishi zamon talabi hisoblanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan xorijiy manbalar bilan bir qatorda, innovatsion ta'lim muhiti va pedagogning kasbiy-ijodiy rivojlanishi masalalari Rossiya va O'zbekiston ilmiy maktablarida ham chuqur o'rganilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv va ijodiy salohiyatni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Avvalo, rus olimlari orasida bu sohaga katta hissa qo'shganlardan biri – V.V. Serikov bo'lib, u o'qituvchi shaxsining kasbiy shakllanishi va ijodiy faolligi pedagogik jarayonning markaziy nuqtasi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Serikovning shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida olib borgan izlanishlarida bo'lajak pedagog shaxsining erkin fikrlashi, innovatsion g'oyalarga ochiqligi, va o'zini o'zi rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji yetakchi kompetensiyalar sifatida belgilab beriladi. Bu jihatlar, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun muhim, chunki u ta'limning eng ilk va eng nozik bosqichida faoliyat yuritadi.

Shuningdek, E.V. Bondarevskaya o'z tadqiqotlarida pedagogning ijodiy faoliyatini uning kasbiy madaniyatining ajralmas qismi sifatida qaraydi. U "shaxsiy ma'naviy tajriba, axloqiy qadriyatlar va ijodiy tafakkur"ni pedagog kasbining poydevori deb hisoblaydi. Uning fikricha, ta'lim muhitida innovatsion elementlar aynan pedagog shaxsiyati orqali faol harakatga keladi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish ularni nazariy tayyorlash bilan bir qatorda, amaliy faoliyatga yo'naltirishni, shuningdek, mustaqil fikrlashni rag'batlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini qo'llashni talab etadi.

Yana bir muhim olim – A.K. Markova o'zining "Psixologiya professionalizma" (1996) asarida kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ijodkorlikning o'rni haqida fikr yuritadi. U pedagog kasbiyligini faqat bilim va ko'nikmalar majmui emas, balki shaxsiy pozitsiya, axloqiy mas'uliyat

va innovatsion fikrlash bilan uyg'unlashgan murakkab tizim sifatida ko'radi. Markova bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'zligini shakllantirishda reflektiv yondashuv, psixologik tayyorgarlik va ijtimoiy muhit bilan muloqot qilish qobiliyatini muhim hisoblaydi.

O'zbekistonda ham ushbu mavzu dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, ko'plab pedagog olimlar tomonidan chuqur o'rganib kelinmoqda. Jumladan, B.S. Qosimov va Z.A. Mavlonovalarning tadqiqotlari innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'qituvchilar tayyorlash jarayoniga joriy etish orqali ularning kasbiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Mavlonova o'z izlanishlarida ijodkor o'qituvchi – bu doimo yangilikka intiluvchi, shaxsiy metodikasiga ega va o'quvchini faol ishtirokchi sifatida ko'ruvchi shaxs ekanligini ta'kidlaydi.

Sh.S. Abdullayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa boshlang'ich ta'lim sohasida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodologik asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan. U o'z ishlarida ta'lim muhitini modernizatsiya qilish, interaktiv usullardan foydalanish va o'quvchini shaxs sifatida rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvlarni ilgari suradi. Bu yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy tayyorgarligini ta'minlashda o'zining dolzarbligini namoyon etadi.

Shuningdek, N.A. Musurmonovaning tadqiqotlarida innovatsion texnologiyalar asosida o'qituvchi shaxsini shakllantirishga doir nazariy asoslar yoritilgan. U innovatsion muhitda o'qituvchi faqat bilim uzatuvchi emas, balki shaxsiy namuna, madaniyat targ'ibotchisi va ijodkor bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Shu boisdan pedagogik ta'lim tizimida amaliyotga yo'naltirilgan, interfaol va ijodiy treninglar asosida tuzilgan o'quv dasturlariga alohida e'tibor qaratish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Umuman olganda, rus va o'zbek olimlarining ilmiy yondashuvlari o'zaro uyg'unlikda rivojlanib, innovatsion muhitda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy-ijodiy faoliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim metodologik va amaliy asoslarni taqdim etmoqda. Ularning tadqiqotlarida ko'tarilgan g'oyalar – ijodkorlikni ta'limning ustuvor tamoyili sifatida ko'rish, pedagog shaxsini yangilik tashabbuskori sifatida tarbiyalash va innovatsion metodlarni pedagogik faoliyatga integratsiya qilish – bugungi ta'lim islohotlari uchun alohida dolzarbdir.

Zamonaviy ta'lim tizimi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri bu – innovatsion ta'lim muhiti orqali shaxsga yo'naltirilgan, ijodkorlikka asoslangan pedagogik yondashuvlarni shakllantirishdir. Bunday yondashuvda boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki aynan boshlang'ich bosqichda o'quvchi shaxsining poydevori qo'yiladi. Shu bois, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik tayyorgarlik jarayonining, balki umuman ta'lim tizimidagi islohotlarning ham markaziy bo'g'ini hisoblanadi.

Innovatsion ta'lim muhiti – bu yangicha tafakkur, ilg'or texnologiyalar, axborot-kommunikatsion vositalar, reflektiv tahlil, ko'pkomponentli muloqot va erkin ijodiy fikrlashni qo'llab-quvvatlovchi didaktik-psixologik makondir. Bunday muhitda o'qituvchidan nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki yangilikka ochiqlik, tashabbuskorlik, muammoni yechish strategiyalarini mustaqil ishlab chiqish va har qanday noan'anaviy vaziyatlarga ijodiy yondashuvni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy rivojlanishi — bu faqat o'qituvchilik malakasini egallash emas, balki ijodkor shaxs sifatida shakllanish jarayonidir.

Muhokama etilayotgan mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ta'lim mazmunining yangilanishi, o'quvchilarning faoliyatga yo'naltirilganligini ta'minlash, o'qituvchining metodik arsenalini kengaytirish, shuningdek, individual yondashuv va moslashuvchanlik tamoyillariga tayangan o'quv muhiti yaratish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday sharoitda boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zining kasbiy faoliyatini innovatsion asoslarda tashkil eta olishi, interaktiv metodlardan samarali foydalana bilishi, darsni ijodiy dizaynlash, ta'limiy vaziyatni o'quvchilarning ehtiyojlari asosida modellashtirish kabi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimida ijodkorlik va innovatsion kompetensiyalar ko'pincha nazariy bilimlar bilan cheklanish holatida qolmoqda. Bu esa ularning real pedagogik faoliyatda moslashuvchanlik darajasini pasaytiradi. Shuning uchun ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlar, loyihaviy ishlar, reflektiv tahlillar, rol o'yinlari va ijodiy treninglar

orqali ularning kasbiy-ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuvlarni keng tatbiq etish muhimdir. Shu o'rinda xorijiy tajriba, xususan, Finlandiya, Kanada, Buyuk Britaniya va AQShdagi ilg'or pedagogik modellar mazkur yo'nalishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi uchun pedagog shaxsining uzluksiz o'sishi va ijodiy salohiyatining rivojlanishi strategik ahamiyatga ega. Zero, ijodiy fikrlovchi o'qituvchi o'z faoliyatini faqatgina bilim uzatishga emas, balki o'quvchida mustaqil qaror qabul qilish, muammoni yechish va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiradi. Bu esa butun ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga olib keladi. Ijodiy yondashuvlar, pedagogik refleksiya, eksperimentga tayyorlik, o'quvchi bilan hamkorlikka ochiqlik — bularning barchasi boshlang'ich ta'limda sifatli o'zgarishlarni ta'minlaydigan asosiy faktorlardir.

Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish — bu shunchaki kasbga tayyorlash emas, balki ijtimoiy-ma'naviy jihatdan yetuk, o'z faoliyatiga tanqidiy yondasha oladigan, o'zgaruvchan muhitda yo'nalishni yo'qotmaydigan va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsni shakllantirishdir. Shunday ekan, bu yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlar, pedagogik yondashuvlar va amaliyotlar har tomonlama chuqurlashtirilib, tizimli asosda amalga oshirilishi zarur.

Xulosa. Zamonaviy innovatsion ta'lim muhiti sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisidan nafaqat an'anaviy kasbiy bilim va ko'nikmalar, balki yuqori darajadagi ijodkorlik, yangilikka ochiqlik va reflektiv tafakkur talab qilinadi. Ta'lim mazmuni va shaklining doimiy o'zgarib borayotgani, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va ijtimoiy kontekstlarning murakkabligi o'qituvchini ijodiy yechimlar izlashi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llay olishi va o'z faoliyatini doimiy takomillashtirib borishini taqozo etadi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion muhitda mustaqil qaror qabul qilish, noan'anaviy vaziyatlarda pedagogik moslashuvchanlikni namoyon etish, ijodiy yondashuv orqali o'quvchilarning shaxsiy rivojini qo'llab-quvvatlash kabi kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to be Creative. London: Capstone Publishing. — 320 p.
2. Fullan, M. (2007). The New Meaning of Educational Change (4th ed.). New York: Teachers College Press. — 336 p.
3. Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? New York: Teachers College Press. — 264 p.
4. Darling-Hammond, L. (2006). Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. San Francisco: Jossey-Bass. — 368 p.
5. Claxton, G. (2006). Thinking at the Edge: Developing Students' Creativity and Learning Power. Bristol: The RSA. — 112 p.
6. Craft, A. (2005). Creativity in Schools: Tensions and Dilemmas. London: Routledge. — 208 p.
7. Sawyer, R. K. (2006). Explaining Creativity: The Science of Human Innovation. Oxford: Oxford University Press. — 384 p.
8. Abduqodirov, A. A. (2021). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: "Fan" nashriyoti. — 215 b.
9. To'raxo'jayev, E. (2020). Pedagogik innovatsiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: TDPU nashriyoti. — 196 b.
10. Jabborov, A. (2019). Ijodiy fikrlash asoslari va pedagogik yondashuvlar. Toshkent: "Yangi asr avlodi". — 172 b.
11. Бим-Бад, Б. М. (2008). Педагогика: словарь. Москва: Логос. — 430 с.

Yo'ldosheva Ma'mura Yo'lchiyevna
PROFI xususiy oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

MATEMATIKANI O'RGANISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING KOGNITIV QOBILIYATLARINI HISOBGA OLISH

Annotatsiya. *Maqolada matematika ta'limi bilan bog'liq ravishda kognitiv yondashuv, kognitik qobiliyatlar tushunchalariga aniqlik kiritilib, kognitik qobiliyatlar nimalarda o'z ifodasini topishi, boshlang'ich sinf matematika darsida o'quvchi o'qituvchi bergan ma'lumotlarni o'zlashtirish va qayta ishlash malakalari, matematik tafakkur bilan bog'lanadigan amallar mantiqiy fikr yuritishga undashi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *kognitiv, yondashuv, qobiliyat, malaka, xotira, diqqat, tasavvur, mantiqiy fikr yuritish.*

КОГНИТИВНЫЕ СПОСОБНОСТИ СТУДЕНТОВ-БУХГАЛТЕРОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ МАТЕМАТИКИ

Аннотация. *В статье разъясняются понятия когнитивного подхода и когнитивных способностей применительно к математическому образованию, обсуждается, как проявляются когнитивные способности, как учащиеся усваивают и перерабатывают информацию, предоставляемую учителем на уроках математики, и как действия, связанные с математическим мышлением, стимулируют логическое мышление.*

Ключевые слова: *когнитивный, подход, способность, компетентность, память, внимание, воображение, логическое мышление.*

ACCOUNTING STUDENTS' COGNITIVE ABILITIES IN THE PROCESS OF LEARNING MATHEMATICS

Annotation. *In the articles related to mathematics education, the concepts of the cognitive approach and cognitive abilities are clarified. It discusses how cognitive abilities are manifested, the skills of students in primary school mathematics lessons to absorb and process the information provided by the teacher, and how operations related to mathematical thinking encourage logical reasoning.*

Keywords: *cognitive, approach, ability, skill, memory, attention, imagination, logical reasoning.*

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari boshqa o'quv fanlarida (ona tili, o'qish va b.) bo'lganidek, matematika ta'limiga kognitiv yondashuv, o'quvchilarda kognitiv qobiliyatlarni shakllantirish kabi tushunchalarni qayta-qayta tilga oladilar. Bunda nima (ta'limning qaysi jihatlari) nazarda tutilayotgani aniq aytilmaydi. Natijada darslarda kognitiv yondashuv, o'quvchilarda kognitiv qobiliyatlarni shakllantirish yuzasidan qanday ishlarni amalga oshirish mumkinligi va kerakligi, nimada namoyon bo'lishi noma'lum bo'lib qolaveradi.

Metodist olima Jo Bouler kognitiv qobiliyatga shunday izoh beradi: «Kognitiv qobiliyatlar – bu miyaning atrofimizdagi olam haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish va qayta ishlash malakalari. Bularga xotira, diqqat, kognitiv qayishqoqlik, tasavvur, nutq, mantiqiy fikr yuritish va sezgilar orqali ma'lumotni idrok etish qobiliyati kiradi.

Diqqat – bu atrofingizda chalg'itadigan narsalar mavjud bo'lganda yoki siz ko'p vazifalarni bajarayotganda ham, uzoq vaqt davomida bir vazifaga diqqatni jamlash qobiliyatidir»[1].

[1] **Боуler Джо.** Matematicheskoye mishleniye. Kniga dlya roditeley I uchiteley/ Боуler Джо; perevod s angliyskogo Natalya Yatsyuk. — M.: Mann, Ivanov i Ferber, 2019.

Ma'lumki, bizning diqqatimiz faqat bir nuqtaga fokuslanadi, holbuki o'sha nuqta atrofidagi narsalar ham idrok etilganday bo'ladi. Buni K.M.Mavlonova psixolog O.K.Tixomirovning talqini asosilda tushuntirib o'tadi[1] O.Tixomirov diqqatning aniq bir narsaga qaratilishini figura va fon tushunchalari orqali izohlaydi: «Ularning fikrini shunday tushunmoq kerakki, idrok etish maydoni avval boshdanoq tarkibiy qismlarga bo'lingan bo'ladi: in'ikos paytida idrok etilayotgan predmetning nimasidir birinchi planga chiqadigan (figura deb nomlanadigan) va ikkinchi planga ko'chadigan (fon deb ataladigan) tomonlari o'zaro ajralib turadi. Figura va fon o'rtasidagi munosabatlar harakatchan bo'lib, o'zgarib turadi, ya'ni kishining nigohi ma'lum vaqtda nimada qaydlansa, shu figura bo'lib qoladi, boshqalari esa fonga ko'chadi»[2]. Matematika darsida o'quvchi o'qituvchini tinglaydi, qo'shish yoki ayirish bo'yicha misolni bajarish usulini eslab qolishga harakat qiladi, keltirilgan misollarga e'tibor beradi, lekin uning diqqati ko'proq misolni bajarish usuliga qaratilgan bo'ladi, shunga markazlashadi. O'qituvchining tushuntirishi, keltirilgan misollar fon sifatida idrok etiladi.

Matematika ta'limida xotira alohida o'rin tutadi: narsa-buyumlar miqdori raqam bilan ifodalangan sonni eslash, matematik tafakkurni ishga tushirish imkonini beradi. Misol va masalalarni ishlash jarayonida qisqa muddatli xotirada saqlanayotgan yoki uzoq muddatli xotiradan qisqa muddatli xotiraga o'tkazilgan matematik birliklar amal qiladi. Shubhasiz, bir-ikki marta tilga olingan vaziyatlar xotirada olib qolinmasligi mumkin. Ta'lim jarayoni matematik tafakkurni ishga tushirish orqali misol va masala ustida uzoqroq mushohada yuritish o'tilganlarni xotiraga ko'chirish imkoniyatini oshiradi. Odam miyasi bir tizimga birlashadigan matematik tushunchalarni siqish yo'li bilan ixchamlashtirib, birlashmaydiganlarini shu holda ayrim-ayrim xotiada joylashtiradi.

Aynan xotira misol va masalani yechish paytida ilgariroq o'rganilgan usullarini yodda tutgan holda ish olib borish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Inson aqli yangi narsani, yangi vaziyatni tadqiq etishga kirishuvchan, yangi usullarga moslashuvchan, vaziyatni tushunib yetish yo'lida noan'anaviy usullarni izlaydigan bo'ladi, muammoning yechimini muqobil yechimlar orasidan qidirishga moyillikni namoyon qiladi, faoliyatning bir turidan boshqasiga o'tish, qiyinchiliklarni yengish, yo'l qo'yilayotgan xatolarni tuzatish kabi fazilatlar yuzaga keltiradi.

Aql hammada bir xil tezlikda ishlamaydi. Ba'zi odamlar axborotni tez qabul qilib, tez qayta ishlaydi, kimdir uni sekinroq idrok etadi. Matematik muammolarni hal qilishda, misol va masalalarni yechishda ham shunday vaziyat kuzatiladi: ayrim o'quvchilar muammolarni hal qilishda jadallik namoyon qilsalar, ayrimlari sustkashlik ko'rsatadilar, misol va masalalarni ham biri tez sur'atda yechsa, boshqasi uzoq o'ylashga majbur bo'ladi. Ruhshunoslarning fikricha, bunday farqlanishlar odamlarning aqliy qobiliyatiga baho berish uchun asos bo'la olmaydi. Har bir odamning o'z hayot tarzi muayyan bir sur'atda kechadi. Shuning uchun bolaning o'qib-o'rganish, matematik hisoblash, mantiqiy fikr yuritish va qaror qabul qilish uchun har xil vaqt sarflashi tabiiy bir hol. Lekin sustkashlik hamma sohada birday bo'lmaydi. Bu o'rinda malakaning shakllanish darajasi o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazishi hal qiluvchi rol oy'naydi.

Bola asosan «Matematika» darsligi ustida ishlaydi: misol va masalalarni o'qiydi, topshirilgan amallarni bajaradi. U berilgan tushuntirishlarni o'qiydi, misol va masalalarni yechadi. Bu materiallar asosan amallarni o'zlashtirish, eslab qolishga qaratilgan bo'ladi. O'zlashtirishga o'xshash vaziyatlardagi ko'plab yechimlar ko'pincha eslab qolish yo'li bilan erishiladi. Matematik hisoblashlar pirovardida o'quvchilar tegishli ko'nikma va malakalarni egallaydi: ularda o'rganilayotgan matematik amallarni eslab qolganlik hissi paydo bo'ladi, bilimga ega bo'lganlik kayfiyati shakllanadi. Lekin matematik tafakkurni rivojlantirishdan yiroq ushbu egallangan bilim va malakalar aksar mustaqil mushohada yuritishni taqozo etmaydi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida bolalarning misol va masalalar bilan bog'liq ravishda fikr yuritishlariga ham raqamlar, ham real voqelik narsa-hodisalari o'zaro bog'liqlikda idrok etilib, hisoblashlar shular bilan, ular orqali hayot bilan bog'lanish orqali erishiladi. Raqamlarni shunchaki

[1] **Mavlonova K.M.** Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish: Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 87-b.

[2] **Tixomirov O.K.** Psixologiya: Uchebnik / Pod red. O.V.Gordeyevoy. – M.: Vissheye obrazovaniye, 2006. – st. 236.

yodda olib qolingan qo'shish, ayirish, ko'paytirish jadvallari yordamida xotiraga tushirish fikr yuritishni taqozo etmaydi, boshqacha aytganda, matematik tafakkurni ishga tushirish zaruriyatiga ega bo'lmaydi. Vaholanki, matematik tafakkur bilan bog'lanadigan amallar mantiqiy fikr yuritishga undaydi.

O'quvchining qaror qabul qilish faoliyati misol va masalalarni yechishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: u misolning yoki masalaning yechimini topadi, lekin o'z kuchiga ishonch yo'qligidan yozmay, og'zaki aytgan yechimini kattalarning ma'qullashini kutib turadi. Bu o'rinda yakuniy qarorga kela olmaslik o'zini ayon qiladi.

Kognitiv faoliyat ko'pincha (ko'rsatmalilik bo'lmaganda) bolalarning tasavvuri tarzida kechadi. Ular raqam aytilganda shu raqam miqdoridagi narsa-buyumlarni xayolidan o'tkazadi. O'quvchiarning voqelik bilan bog'liq tasavvurlarini boyitib borish matematik misol va masalalarni faqat raqamlarga tayangan holda yechishga o'tish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Misol va masalalarni yechishda, biror tushuncha haqida fikr yuritishda tasavvurga sezgilar orqali to'plangan ma'lumotlar (shirin, achchiq, qattiq, yumshoq va b.) ham ishga tushiriladi.

Matematika darslarida o'quvchilar tayanadigan protsessual bilimlar asosan harakatli jarayonlar bilan bog'liq. O'quvchi biror matematik amalni avtomatik tarzda bajara olsa-da, buni ba'zan so'z bilan ifodalay olmaydi, masalan, 6 + 2 = 8 ni o'qiy oladi, lekin 6 ga 2 ni qo'shsak, 8 bo'ladi, deb tushuntira olmaydi. Yoki: velosipedda muvozanatni qanday qilib saqlash kerakligini tushuntirib berish qiyin. Bu o'rinda onglilikka zaruriyat ham kerak emas: velosiped minishni mashq qilish jarayonoda bu bilim harakat orqali intuitiv tarda hosil bo'ladi.

O'quvchilar tayanadigan protsessual bilimlar misol va masalalarni bajarishda ilgari amaliyotida ish bergan biror usuldan foydalansa, yangi bilimni o'zlashtirishga qaratilgan amalni shunchaki bajaradi, lekin o'zi foydalangan usulni tushuntirib bera olmaydi. Biror ish turini ado etishga ro'yxush bermasdan, unga qiziqmay tursa, boshqa bir ishga, ayniqsa jumboqli masalaga, murakkab muammoni yechish so'ralgan amalga katta qiziqish namoyon qiladi. Lekin undan ushbu qiziqishning sababi so'ralsa, o'zida paydo bo'lgan ishtiyoqning sababini, erishilgan muvaffaqiyatni intuitiv anglasa-da, ba'zan so'z bilan ifodalashga qiynaladi.

Kognitiv qobiliyatlar (miyada atrof-muhitagi olam haqida ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash malakalari; bunda xotira, diqqat, kognitiv qayishqoqlik, tasavvur, nutq, mantiqiy fikr yuritish va sezgilar orqali ma'lumotni idrok etish layoqati) matematikani o'rgatish mazmunida o'quvchilarning imkoniyatlari tarzida hisobga olinadi, o'qib-o'rganishdan yuzaga keladigan kognitiv ta'lim natijasi sifatida kechadigan jarayonlarni ifoda etadi.

Ko'rinadiki, matematika darslarida kognitiv yondashuv emas, balki natijasi kognitiv qobiliyatlarni shakllantirish bo'lgan ta'limdir. Kognitiv yondashuv deganda qandaydir bilimlar, qandaydir ko'nikma va malakalar, maxsus yo'naltirilgan ish turlarini ajratish zarur bo'ladi. Lekin buning imkoniyatlari hanuz aniq ishlab chiqilgan emas, chunki bu ish o'ta qiyin yumush hisoblanadi.

Xullas, boshlang'ich sinf matematika darslarida ta'lim mazmuniga ko'ra o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish yo'nalishlari hisobga olinadi, qognitiv qobiliyatlarning o'zi esa har bir amal (qo'shash, ayirish va b.) bo'yicha oz-ozdan o'qitish natijasi sifatida shakllanib, izchil murakkablashib, sayqal topib boradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. Боулер Джо. Математическое мишление. Книга для родителей И учителей/ Боулер Джо; перевод с английского Наталя Ятсюк. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2019.

2. Mavlonova K.M. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish: Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 87-b.

3. Тихомиров О.К. Психология: Учебник / Под ред. О.В.Гордеевой. – М.: Висшее образование, 2006. – ст. 236.

Kalekeeva Tamara Turkmenbaevna
Nukus davlat pedagogika instituti
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BO'LAJAK MATEMATIKA O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KONTENT BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH: DIDAKTIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Maqolada bo'lajak matematika o'qituvchilarining pedagogik kontent bilimlarini (PCK) shakllantirishga qaratilgan didaktik yondashuvlar tahlil qilinadi. Avvalo, pedagogik kontent bilimlari konsepsiyasi va uning o'quv jarayonidagi roli — nazariy bilimlar va ularni dars metodikasiga integratsiya qilish kompetensiyasi — ta'riflanadi. Keyin, masala yechish va model-based learning, loyiha asosida o'qitish hamda interaktiv va raqamli vositalardan foydalanish orqali PCKni rivojlantirish usullari yoritiladi. Shuningdek, tajriba-o'rganuvchan yondashuv, reflektiv mashg'ulotlar va hamkasblar bilan hamkorlik asosida professional guruhlarda ta'lim seminarlari tashkil etish orqali bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirish mexanizmlari ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *bo'lajak matematika o'qituvchilari, pedagogik kontent bilimlari, didaktik yondashuvlar, masala yechish, loyiha asosida o'qitish, interaktiv o'qitish, raqamli vositalar, reflektiv mashg'ulotlar.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МАТЕМАТИКИ: ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. *В статье анализируются дидактические подходы к формированию педагогических контентных знаний (PCK) у будущих учителей математики. Сначала даётся определение концепции педагогических контентных знаний и их роли в учебном процессе как компетенции по интеграции теоретических знаний в методику преподавания. Затем рассматриваются методы развития PCK через решение задач и обучение на основе моделей, проектно-ориентированное обучение, а также использование интерактивных и цифровых инструментов. Кроме того, описываются механизмы превращения теоретических знаний в практические умения у будущих педагогов посредством опытно-экспериментального подхода, рефлексивных занятий и образовательных семинаров в рамках профессиональных групп на основе сотрудничества с коллегами.*

Ключевые слова: *будущие учителя математики, педагогические контентные знания, дидактические подходы, решение задач, обучение на основе проектов, интерактивное обучение, цифровые инструменты, рефлексивные занятия.*

DEVELOPING PEDAGOGICAL CONTENT KNOWLEDGE OF PROSPECTIVE MATHEMATICS TEACHERS: DIDACTIC APPROACHES

Annotation. *This article examines didactic approaches to developing pedagogical content knowledge (PCK) in prospective mathematics teachers. First, it defines the concept of PCK and its role in the learning process as the competency to integrate theoretical knowledge into instructional methods. Next, it explores methods for enhancing PCK through problem solving and model-based learning, project-based teaching, and the use of interactive and digital tools. It also outlines mechanisms for converting future teachers' theoretical knowledge into practical skills via an experiential-experimental approach, reflective activities, and professional group seminars based on peer collaboration.*

Keywords: *prospective mathematics teachers, pedagogical content knowledge, didactic approaches, problem solving, project-based learning, interactive teaching, digital tools, reflective activities.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida matematika fanini chuqur va samarali o'qitish pedagoglarning pedagogik kontent bilimlariga (PCK) bog'liq bo'lib, ayniqsa bo'lajak matematika o'qituvchilarida bu kompetensiya yetuk darajada shakllanishi muhimdir. PCK kontseptsiyasi professor Shulman tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u o'qituvchining nazariy matematik bilimlarni dars metodikasiga moslashtirish, murakkab kontseptsiyalarni o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazish va o'qitish jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatini anglatadi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida STEAM yondashuvi, raqamli transformatsiya va masala yechishga yo'naltirilgan o'quv metodlari kengayishi bilan birga, an'anaviy didaktik metodlardan tashqari innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj ortmoqda. Model-based learning, loyiha asosida o'qitish va interaktiv raqamli vositalardan foydalanish bo'lajak pedagoglarga o'z PCK darajasini yanada boyitish, o'quvchilarning matematika tushunchalarini mustahkamlash va dars samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda tajriba-o'rganuvchan yondashuv va reflektiv mashg'ulotlar katta ahamiyat kasb etadi. Ular o'z o'qitish strategiyalarini tahlil qilib, xatolarni aniqlash va takomillashtirish jarayonida PCKni mustahkamlaydi. Hamkasblar bilan professional guruh seminarlarini tashkil etish esa pedagoglarning o'zaro tajriba almashishi, yangicha yechimlar izlash va dars modellarini sinab ko'rishda yordam beradi.

Ushbu maqola bo'lajak matematika o'qituvchilarining PCKni shakllantirishga yo'naltirilgan asosiy didaktik yondashuvlarni ko'rib chiqadi. Maqsad — masala yechish, model-based learning, loyiha asosida o'qitish, interaktiv va raqamli vositalar, reflektiv mashg'ulotlar hamda hamkasblar bilan hamkorlik orqali pedagogik kontent bilimlarini rivojlantirish metodikasi va samaradorligini tahlil qilishdir.

Matematika o'qitish jarayonida PCK'ning asosiy vazifasi nafaqat mavzu maydonidagi bilimlarni egallash, balki ularni muayyan o'quv kontekstiga moslab, pedagogik jarayonda qo'llay olishdir. Bo'lajak o'qituvchilar shu bois dars mazmunini chuqur tushungan holda, murakkab matematik tushunchalarni turli yoshdagi, turli qobiliyat va tayyorgarlik darajasidagi o'quvchilarga aniq va qiziqarli usulda yetkazish mexanizmlarini o'zlashtirishi zarur. Bu qirra o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarini oldindan aniqlash, misol va vazifalarni darajalashtirish, hamda o'quv jarayonida yuzaga keladigan keng tarqalgan xatolarni bartaraf etish imkonini yaratadi.

Xalqaro tadqiqotlar (Ball, Thames & Phelps, 2008; Shulman, 1987) shuni ko'rsatadiki, kuchli PCK egasi bo'lgan o'qituvchilar o'z darslarini doimiy tahlil qilib, real amaliyotga moslab qayta tashkil etish orqali o'quvchilar natijalarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, milliy ta'lim tizimidagi o'quv dasturlari va baholash usullarining xususiyatlari PCK'ni rivojlantirish yondashuvlariga ham ta'sir ko'rsatadi: masalan, respublikamizda yangi o'quv rejalariga o'zgartirishlar kiritilayotgani, kompetensiyalarga yo'naltirilgan baholash tizimi joriy etilayotgani bo'lajak o'qituvchilardan yanada moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik kontent bilimlari (PCK) tushunchasi ilk bor Shulman (1986) tomonidan ilgari surilib, u o'qituvchining nazariy bilimlarni dars jarayonida amaliyotga moslashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Shulman'ning asarlari PCK'ni uch tarkibiy qismlarga – kontent bilimlari, pedagogik bilimlar va kontekstual bilimlarga ajratib ko'rsatadi, bu keyingi tadqiqotlarda matematika sohasiga moslashdi.

Matematika PCK'ini chuqurlashtirish maqsadida Ball, Thames va Phelps (2008) "Content Knowledge for Teaching" modelini ishlab chiqishdi. Ular matematika o'qituvchilari uchun kontent bilimlari to'rtta subsahifaga – matematika tili, talabalarning tushunchalari, vakillar modeli va matematik ma'nolarini ochish – bo'linishini taklif qiladi. Ma va Kishor (1997) esa o'qituvchilarda fundamental matematik tushunchalarni chuqur egallash masalasini o'rganib, PCK o'quvchilarning xatolarini oldindan aniqlash va bartaraf etishda hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi.

Didaktik yondashuvlar qatorida model-based learning (MBL) uslubi Lesh va Doerr (2003) tomonidan ilgari surildi. Ular MBL'ni murakkab real muammolarni model-chiqarish vazifalari orqali o'qituvchilarga ishlab chiqish va boshqarish mexanizmlarini o'rgatishga qaratadilar. Shuningdek,

Schoenfeld (1985) masala yechish yondashuvida o‘qituvchilarning problem-solving jarayonini namoyish etish va strategiyalarni modelling qilish zarurligini ko‘rsatdi.

Loyihaga asoslangan o‘qitish (Project-Based Learning, Thomas, 2000) va Papert (1980) ning “microworlds” kontseptualizatsiyalari raqamli vositalarni integratsiya qilish orqali PCKni boyitadi. Thomas loyiha davomida o‘qituvchilarning dars mazmunini real kontekstga bog‘lash orqali dars samaradorligini oshirishini dalillaydi.

Reflektiv mashg‘ulotlar va professional guruh seminarlari sohasida Schön (1983) “reflection-in-action” tushunchasi pedagoglarni o‘z amaliyotini tahlil qilishga undasa, Loughran (2002) hamkasblar bilan aloqa va tajriba almashish orqali PCK’ni chuqurlashtirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Vescio, Ross va Adams (2008) professional hamjamiyatlar (PLC) modeli ham pedagoglarning birgalikda o‘rganishi va PCKni rivojlantirishda samarali ekanini ta’kidlaydi.

Oxir-oqibat, adabiyotlar PCK shakllanishida nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar, texnologiya integratsiyasi, reflektiv amaliyot va hamkasblar bilan hamkorlik muhimligini ko‘rsatadi. Kelajak matematika o‘qituvchilarini tayyorlashda ushbu tadqiqotlar asosida kompleks didaktik strategiyalarni yaratish zarur.

Muhokama. Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik kontent bilimlarini shakllantirish (PCK) bo‘yicha didaktik yondashuvlarning samaradorligi ularning nazariy va amaliy komponentlarni uyg‘unlashtirish qobiliyatiga bog‘liq. Shulman (1986) ta’kidlaganidek, faqat matematik nazariy bilimlarga ega bo‘lish yetarli emas; o‘qituvchi ularni qanday qilib o‘quv jarayoniga moslab, murakkab konsepsiyalarni turli yosh va darajadagi o‘quvchilarga tushunarli qilib yetkazishini ham egallashi zarur.

Ball, Thames va Phelps (2008) modeli PCK tarkibiga matematik til, talabalarning tushunchalari, vakillar modeli va matematik ma’nolarni ochishni kiritib, kontent va pedagogika o‘rtasidagi bog‘liqlikni boyitdi. Ushbu yondashuv ta’lim-tadqiqot amaliyotida masala yechish strategiyalarini nafaqat namoyish etish, balki o‘quvchilarni o‘ylash jarayoniga jalb etishga ham imkon beradi. Schoenfeld (1985) masala yechish jarayonini modellash usullari PCKni o‘quvchilarning xatolarini oldindan aniqlash va bartaraf etish mexanizmini kuchaytirishini ko‘rsatadi.

Model-based learning (Lesh & Doerr, 2003) va loyiha asosida o‘qitish (Thomas, 2000; Papert, 1980) yondashuvlari o‘qituvchilarga real hayotiy vaziyatlarni matematik modellarga aylantirish jarayonida nazariy bilimlarni sinovdan o‘tkazish va moslashtirish imkonini beradi. Raqamli vositalar bilan birgalikda interaktiv o‘qitish masalan, dynamic geometry software yoki microworlds muhitida o‘quvchilarni kashfiyot va eksperimentga undaydi, bu esa PCKni amaliy ko‘nikmaga aylantirishning eng samarali shakli hisoblanadi.

Shuningdek, reflektiv mashg‘ulotlar (Schön, 1983) va professional o‘quvchi jamoalari (Vescio, Ross & Adams, 2008; Loughran, 2002) o‘qituvchilarning o‘z amaliyotini doimiy tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi hamda hamkasblar ta’limidan o‘rganishi orqali PCKni chuqurlashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu yondashuvlarning o‘zaro uzviyligi, ya’ni masalani modelga aylantirish, uning yechimini o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilish va natijalarni reflektiv tarzda ko‘rib chiqish — PCKni mustahkamlashda yetakchi mexanizmga aylanadi.

Biroq adabiyotlarda integrativ, uzoq muddatli tadqiqotlar yetishmasligi ham aniqlanadi. Ko‘pchilik yondashuvlar eksperimental laboratoriya sharoitida qisqa muddatli sinovlardan iborat, real sinf muhitidagi murakkab pedagogik kontekstni hisobga olmaydi. Shu ma’noda, kelajak tadqiqotlari PCK shakllanishini kuzatish uchun sinfdagi amaliy intervensiyalarni, raqamli va an’anaviy metodlarni birgalikda qo‘llovchi pilot dasturlarni va ularning ta’sirini uzoq muddat kuzatish dizaynlarini o‘z ichiga olishi muhim.

Umuman, bo‘lajak matematika o‘qituvchilarining PCKni shakllantirishda didaktik yondashuvlar: masala yechish strategiyalari, model-based learning, loyiha asosida o‘qitish, interaktiv raqamli vositalar, reflektiv mashg‘ulot va professional hamkorlikni uyg‘unlashtirish orqali eng yuqori samarani beradi. Kelajakda bu yondashuvlarni o‘zbek ta’lim tizimi kontekstida madaniy-lingvistik moslashuvni hisobga olgan holda eksperimental tadqiqotlar orqali tekshirish tavsiya etiladi.

1-jadval

Bosqich	Maqsad	Faoliyatlar	Vositalar	Tahlil usullari
1. Tayyorlov bosqichi	Nazariy–metodik asoslarni aniqlash	– Adabiyotlarni tahlil qilish (Shulman, Ball et al., Lesh & Doerr va b.) – Ekspertlar (mentor, metodist) bilan intervyu	– Bibliografik manbalar – Ekspert intervyu yo‘riqnomasi	– Sifatli kontent-tahlil
2. Diagnostika (pre-test)	Bo‘lajak o‘qituvchilarning hozirgi PCK darajasini aniqlash	– PCK’ni o‘lchovchi test va vazifa bajarish – Video-mikrota’lim sessiyasi (microteaching) kuzatuvi	– PCK testi – Kuzatuv formasi (rubrika) – Video yozuv	– Deskriptiv statistika (o‘rtacha, dispersiya)
3. Intervensiya	Didaktik yondashuvlarni sinash va qo‘llash	– Masala yechish mashg‘ulotlari – Model-based learning sessiyalari – Loyiha asosida o‘qitish – Raqamli vositalar (GeoGebra, microworlds) – Reflektiv mashg‘ulotlar – Hamkasblar bilan seminarlar	– Dars rejalari – GeoGebra, microworld muhitlari – Reflektiv jurnal	– Faoliyat qaydnomasi – Mashg‘ulot videolari tahlili
4. Yakuniy baholash (post-test)	Intervensiya ta’sirini o‘lchash	– Xuddi pre-testdagi PCK testi va microteaching sessiyasini takrorlash	– PCK testi – Kuzatuv rubrikasi – Video yozuv	– Paired t-test (pre vs post) – Effekt kattaligi (Cohen’s d)
5. Sifatli intervyu	Ishtirokchilarning tajribasi va idrokini chuqur o‘rganish	– Fokus-guruh intervyulari (6–8 nafar bo‘lajak o‘qituvchi)	– Fokus-guruh yo‘riqnomasi	– Tematik tahlil (NVivo yoki qo‘lbola kodlash)

Tavsiyalar:

1. Integratsiyalashgan PCK-modullarini joriy eting. Masala yechish, model-based learning, loyiha-asosida o‘qitish va raqamli vositalarni bitta modulga birlashtirib, amaliyotga yo‘naltirilgan trening dasturlari ishlab chiqing.
2. Micro-teaching sessiyalarini doimiy tashkil eting. Har bir o‘qituvchi o‘z darsini qisqa video qilib yozsin, keyin reflektiv mashg‘ulotlarda hamkasblar bilan tahlil qilsin.
3. Reflektiv jurnal yuritishni majburiy qiling. Har mashg‘ulotdan so‘ng o‘qituvchi o‘z pedagogik tanlovlarini, kuzatilgan xatolar va o‘rgangan saboqlarini yozib borsin.
4. Professional o‘quv jamoalarini (PLC) faol ishlating. Seminarlarda nazariy bilim almashish, yangi dars modellarini sinash va mentor-mentee uchrashuvlari orqali PCKni chuqurlashtiring.
5. Doimiy monitoring va baholash tizimini yo‘lga qo‘ying. Pre-post test natijalarini 6 oyda bir o‘tkazib, PCK o‘sishini statistik jihatdan kuzatib boring.
6. Raqamli platformalar va microworlds (GeoGebra, Cabri, Python-based microworlds) foydalanishni kengaytiring. Ular yordamida o‘quvchilarning tushunchalarini vizual va interaktiv tarzda mustahkamlang.

7. Madaniy-lingvistik moslashuvga e'tibor qarating. Yaratilayotgan didaktik material va vositalarni O'zbek maktablari sharoitiga moslab tarjima, lokalizatsiya va testlardan o'tkazing.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak matematika o'qituvchilarining pedagogik kontent bilimlarini shakllantirishda turli didaktik yondashuvlarni integrativ tarzda qo'llash eng samarali natijalar beradi. Masala yechish strategiyalari o'qituvchilarga mavzuni nazariy jihatdan chuqur tushunishga, model-based learning esa murakkab kontseptsiyalarni konkret modellarga aylantirib talabalarga ochiq tushuntirishga yordam beradi. Loyiha asosida o'qitish va interaktiv raqamli vositalar (GeoGebra, microworlds) o'quvchilarning kashfiyot va eksperiment imkoniyatlarini kengaytirib, PCKni amaliy ko'nikmaga aylantiradi. Reflektiv mashg'ulotlar va professional hamkorlik esa o'qituvchilarning doimiy o'zini tahlil qilishini rag'batlantirib, ularning pedagogik qarorlarini asoslash va takomillashtirish mexanizmlarini mustahkamlaydi. Ushbu yondashuvlarning uzviy uyg'unligi — nazariy bilim, amaliy mashg'ulot, raqamli integratsiya va hamkasblar bilan ishlash — PCKni rivojlantirishda yetakchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shulman, L. S. (1986). Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching. Educational Researcher, 15(2), 4–14.

2. Ball, D. L., Thames, M. H., & Phelps, G. (2008). Content Knowledge for Teaching: What Makes It Special? Journal of Teacher Education, 59(5), 389–407.

3. Ma, L., & Kishor, N. (1997). Assessing the Relationship Between Attitude Toward Mathematics and Achievement in Mathematics: A Meta-Analysis. Journal for Research in Mathematics Education, 28(1), 26–47.

4. Lesh, R., & Doerr, H. M. (2003). Foundations of the Development of Students' and Teachers' Thinking. In J. Kilpatrick, W. G. Martin, & D. Schifter (Eds.), A Research Companion to Principles and Standards for School Mathematics (pp. 39–70). Reston, VA: NCTM.

5. Schoenfeld, A. H. (1985). Mathematical Problem Solving. Orlando, FL: Academic Press.

6. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. Minneapolis, MN: The Autodesk Foundation.

7. Papert, S. (1980). Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. New York, NY: Basic Books.

8. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York, NY: Basic Books.

9. Loughran, J. (2002). Effective Reflective Practice: In Search of Meaning in Learning About Teaching. Journal of Teacher Education, 53(1), 33–43.

10. Vescio, V., Ross, D., & Adams, A. (2008). A Review of Research on the Impact of Professional Learning Communities on Teaching Practice and Student Learning. Teaching and Teacher Education, 24(1), 80–91.

Алламбергенова Бахаргуль Кудайбергеновна
Ассистент-преподаватель Нукусский филиал
Узбекского государственного университета физической культуры и спорта

ИГРОВЫЕ МЕТОДЫ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИКТ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Аннотация. *Статья посвящена анализу эффективности использования игровых методов обучения в сочетании с информационно-коммуникационными технологиями (ИКТ) на уроках иностранного языка в средней школе. Рассматриваются педагогические возможности игр как средства формирования коммуникативной компетенции, повышения мотивации и вовлечённости учащихся. Особое внимание уделяется тому, как ИКТ усиливают воздействие игровых форм, делают обучение более интерактивным, наглядным и индивидуализированным. Представлены выводы и методические рекомендации по внедрению таких методов в образовательный процесс.*

Ключевые слова: *игровые методы, ИКТ, иностранный язык, мотивация, коммуникативная компетенция, средняя школа, цифровое обучение.*

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA O'RTA MAKTABDAGI CHET TILI DARSLARIDA O'YINLI METODLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Maqolada o'rta maktabdagi chet tillari darslarida o'yinli metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) birgalikda qo'llashning samaradorligi tahlil qilinadi. O'yinlar o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, motivatsiyasini oshirish va faol ishtirokini ta'minlashdagi o'rni yoritiladi. Ayniqsa, AKT vositalarining o'yin elementlarini kuchaytirish, ta'limni yanada interaktiv, ko'rgazmali va shaxsiylashtirilgan qilishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada metodik tavsiyalar ham keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *o'yinli metodlar, AKT, chet tili, motivatsiya, kommunikativ kompetensiya, o'rta maktab, raqamli ta'lim.*

GAME-BASED METHODS USING ICT IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS AT SECONDARY SCHOOL

Abstract. *The article explores the effectiveness of integrating game-based methods and information and communication technologies (ICT) in foreign language teaching at the secondary school level. It highlights the pedagogical benefits of using games to develop communicative competence, increase student motivation, and promote active engagement. The study emphasizes how ICT enhances the impact of educational games by making learning more interactive, visual, and personalized. The article concludes with methodological recommendations for implementing such approaches in the classroom.*

Keywords: *game-based methods, ICT, foreign language, motivation, communicative competence, secondary school, digital learning.*

Введение. Современное образование находится в процессе активной трансформации под влиянием цифровизации и широкого внедрения информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Эти изменения особенно ярко проявляются в сфере преподавания иностранных языков, где актуальными становятся методы, ориентированные на повышение мотивации учащихся, развитие их коммуникативной компетенции и формирование устойчивого интереса к изучаемому предмету. В этом контексте особое значение приобретают игровые методы обучения, сочетающие в себе элементы развлечения, творчества и познавательной активности.

Игровые технологии в обучении иностранному языку позволяют создать условия для естественного речевого взаимодействия, развивать языковую догадку, стимулировать эмоциональное восприятие материала и формировать положительное отношение к учебному процессу. Однако в условиях цифровой эпохи эффективность этих методов многократно возрастает при их интеграции с ИКТ-средствами — такими как мультимедийные презентации, онлайн-квесты, обучающие платформы, интерактивные доски и специализированные приложения.

Использование ИКТ в игровых формах способствует индивидуализации обучения, повышает уровень визуализации и наглядности, обеспечивает интерактивность и обратную связь, что особенно важно в обучении школьников средней ступени. Кроме того, такие методы позволяют учителю создать динамичную, мотивирующую и коммуникативно-насыщенную учебную среду, в которой ученик становится активным участником, а не пассивным потребителем информации.

Таким образом, изучение вопроса о применении игровых методов с использованием ИКТ на уроках иностранного языка является своевременным и значимым. Оно открывает новые перспективы для повышения качества образования, совершенствования методик преподавания и формирования ключевых компетенций учащихся в условиях цифрового общества.

Анализ литератур.

Вопрос использования игровых методов в обучении иностранным языкам находит всё большее отражение в современной педагогической и методической литературе. Анализ работ отечественных и зарубежных исследователей свидетельствует о высокой эффективности игровых технологий, особенно в сочетании с информационно-коммуникационными технологиями (ИКТ), в развитии речевых и когнитивных навыков учащихся средней школы.

Среди российских исследователей, внёсших значительный вклад в разработку теоретических основ игровых методов обучения, следует отметить Е.А. Ямбург, Л.В. Громкову, Н.Д. Никандрова. Они подчёркивают, что игра не только способствует активизации познавательной деятельности учащихся, но и формирует их самостоятельность, инициативность и коммуникативную компетентность. По мнению Л.В. Громковой, игра в учебном процессе является «естественным механизмом социализации ребёнка», а её сочетание с ИКТ позволяет сделать обучение более наглядным, интерактивным и адаптивным к индивидуальным потребностям учащихся.

Научные труды О.С. Гребенюк и И.А. Зимней подчёркивают, что применение игровых методов особенно эффективно на уроках иностранного языка, так как способствует снятию психологических барьеров, активизации словарного запаса и развитию речевой инициативы. При этом ИКТ, по мнению исследователей, выступают как средство расширения границ языковой практики и создания мультимодальной обучающей среды.

Среди зарубежных исследователей следует отметить работы Джейн Уиллис, разработавшей концепцию task-based learning, в которой игровые элементы сочетаются с выполнением коммуникативных заданий, максимально приближённых к реальным жизненным ситуациям. Также стоит выделить исследования Дэвида Хатчинсона и Майкла Томлинсона, рассматривающих цифровые образовательные ресурсы как основу для реализации интерактивных языковых игр, квестов и симуляций, способствующих вовлечённости и языковому развитию учащихся.

Интерес представляют и исследования Кэтрин Чапелл, посвящённые компьютерному обучению иностранным языкам. Учёная подчёркивает, что цифровая игровая среда способствует повышению учебной мотивации и активному участию учащихся в коммуникативных процессах. Она доказывает, что языковые игры, реализованные с помощью ИКТ, обеспечивают высокий уровень взаимодействия, постоянную обратную связь и стимулируют обучение в сотрудничестве.

Кроме того, актуальность темы подтверждается международными образовательными стандартами, такими как CEFR (Общеевропейские компетенции владения иностранным язы-

ком), где подчёркивается важность создания коммуникативной среды, активизирующей учащегося. Использование игровых технологий с элементами ИКТ полностью соответствует этим требованиям, обеспечивая эффективное вовлечение учащихся в процесс изучения языка через моделирование реальных ситуаций общения.

Таким образом, анализ теоретических источников позволяет утверждать, что сочетание игровых методов и информационно-коммуникационных технологий открывает широкие дидактические возможности. Оно способствует реализации личностно-ориентированного подхода, повышает мотивацию и познавательный интерес учащихся, а также обеспечивает развитие всех видов речевой деятельности. В совокупности это делает данную методику особенно актуальной и перспективной в условиях современной школы.

Обсуждение.

Результаты теоретического анализа и практического наблюдения позволяют утверждать, что применение игровых методов с использованием ИКТ на уроках иностранного языка в средней школе обладает значительным педагогическим потенциалом. Игровая форма обучения обеспечивает высокий уровень вовлечённости учащихся, создаёт положительный эмоциональный фон и способствует формированию устойчивой учебной мотивации. При этом интеграция ИКТ значительно усиливает эффект игры, делая её более интерактивной, визуально насыщенной и приближённой к интересам современного школьника.

В средней школе учащиеся находятся на этапе активного формирования учебной самостоятельности, интересов и социальной идентичности. В этих условиях игра с элементами цифровых технологий становится мощным инструментом, способствующим развитию ключевых компетенций, таких как коммуникация, сотрудничество, критическое мышление и креативность. Например, при использовании онлайн-квестов, ролевых игр через цифровые платформы, языковых симуляторов или интерактивных викторин учащиеся не только осваивают грамматический и лексический материал, но и учатся применять его в условиях, приближённых к реальным коммуникативным ситуациям.

Одним из ключевых преимуществ игровых методов с применением ИКТ является возможность индивидуализации и дифференциации обучения. Благодаря цифровым инструментам учитель может адаптировать задания в зависимости от уровня подготовки учащихся, их стиля восприятия информации и интересов. Это особенно важно на уроках иностранного языка, где разный уровень владения материалом у учащихся может тормозить общий темп обучения. Интерактивные игры позволяют преодолеть эти различия, предоставляя каждому ученику возможность учиться в удобном для него темпе, с обратной связью и визуальной поддержкой.

Однако эффективность игровых методов напрямую зависит от продуманности их внедрения. Недостаточно просто использовать ИКТ и игровые элементы ради интереса — важно, чтобы каждая игра была методически обоснована и направлена на достижение конкретных учебных целей. Также необходимо учитывать возрастные особенности учащихся средней школы: несмотря на высокую вовлечённость в цифровую среду, подростки требуют чёткой структуры, логики и смысловой наполненности в учебной деятельности. Игровая активность должна не подменять обучение, а становиться его органичной частью.

Кроме того, нельзя не отметить и потенциальные трудности, с которыми может столкнуться педагог. Это и ограниченный технический ресурс школы, и необходимость повышения собственной цифровой компетентности, и проблемы с интернет-доступом или технической поддержкой. В некоторых случаях также наблюдается риск отвлечения внимания учащихся от содержания на форму — то есть чрезмерный интерес к самой игре может снижать концентрацию на учебной задаче. Поэтому важно соблюдать баланс между игровыми элементами и традиционными методами, а также регулярно анализировать эффективность применяемых подходов.

Игровые методы с использованием ИКТ при грамотном и целенаправленном применении становятся мощным ресурсом для повышения качества обучения иностранным языкам в

средней школе. Они способствуют созданию мотивирующей образовательной среды, активному вовлечению учащихся в учебный процесс, развитию коммуникативных и цифровых навыков. В условиях цифровизации образования такая методика приобретает не только педагогическую ценность, но и стратегическую значимость как инструмент формирования конкурентоспособного, языково подготовленного и технологически грамотного выпускника.

Заключение.

Таким образом, игровые методы с использованием информационно-коммуникационных технологий представляют собой эффективный педагогический инструмент, способствующий повышению мотивации учащихся, активизации их познавательной деятельности и формированию устойчивого интереса к изучению иностранного языка. Интеграция ИКТ в игровую форму обучения позволяет создать интерактивную, динамичную и коммуникативно насыщенную образовательную среду, ориентированную на индивидуальные особенности школьников. Такие подходы способствуют развитию речевых умений, коммуникативной компетенции, цифровой грамотности и креативного мышления. При этом успех их применения зависит от методической продуманности, педагогической целесообразности и технической обеспеченности учебного процесса. В условиях цифровой трансформации образования игровое обучение с ИКТ становится не только актуальным, но и необходимым элементом современной методики преподавания иностранных языков в средней школе.

Список литературы.

1. Громкова, Л.В. Методика преподавания иностранных языков в средней школе. — М.: Академия, 2019. — 256 с.
2. Зимняя, И.А. Педагогическая психология. — М.: Логос, 2006. — 384 с.
3. Гребенюк, О.С. Игровые технологии в обучении иностранному языку: теория и практика. — СПб.: КАРО, 2017. — 192 с.
4. Ямбург, Е.А. Информационные технологии в образовании: педагогический потенциал и риски. — М.: Педагогика, 2020. — 240 с.
5. Соловова, Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс. — М.: Просвещение, 2018. — 287 с.
6. Chapelle, C.A. Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing and Research. — Cambridge: Cambridge University Press, 2001. — 235 p.
7. Willis, J. A Framework for Task-Based Learning. — Harlow: Longman, 1996. — 183 p.
8. Hutchinson, D., & Waters, A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. — Cambridge: Cambridge University Press, 1987. — 183 p.
9. Tomlinson, B. Developing Materials for Language Teaching. — London: Bloomsbury Academic, 2013. — 528 p.
10. Махмудова, З.З. Использование ИКТ на уроках иностранного языка как средство повышения эффективности обучения // Молодой ученый. — 2022. — №4 (394). — С. 140–143.
11. Юрченко, С.А. Игровые технологии и ИКТ как средство формирования иноязычной коммуникативной компетенции // Педагогическое образование в России. — 2021. — №6. — С. 142–146.
12. Ахметова, Л.А. Влияние цифровых технологий на развитие мотивации к изучению иностранных языков у школьников // Современные проблемы науки и образования. — 2023. — №2. — С. 57–62.

Haydarov Anvar Askarovich
Buxoro davlat universiteti professori

Yodgorova Maftuna Ulug'bekovna
Buxoro xalqaro universiteti magistiranti

"MUHABBAT" VA "DO'STLIK" KONSEPTLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb hamda to'liq o'rganilmagan mavzularidan biri –konseptdir. Bu termin lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning eng muhim kategoriyalaridan biri bo'lib, bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lishiga qaramay ushbu lingvistik tushuncha hamon o'rganilmoqda. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida muhabbat hamda do'stlik konseptining milliy va madaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, barcha millatlarda asosiy tushunchalaridan biri hisoblangan muhabbat va do'stlik konseptining milliy o'ziga xoslik jihatlarini yoritishga ham e'tibor qaratilgan.*

Tayanch tushunchalar: *konsept, konseptual, kognitiv tilshunoslik, konseptsfera, lingvomadaniyat, milliy xarakter, muhabbat, do'stlik.*

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОНЯТИЙ «ЛЮБОВЬ» И «ДРУЖБА»

Аннотация. *Одной из актуальных и не до конца исследованных тем современного языкознания является концепт. Этот термин является одной из важнейших категорий языкознания и когнитивной лингвистики, и несмотря на то, что его изучают несколько ученых, данное лингвистическое понятие все еще изучается. Данная статья посвящена изучению национально-культурных особенностей концепта любви и дружбы в английском и узбекском языках. Также уделяется внимание выделению национальных особенностей понятия любви и дружбы, которое является одним из основных понятий у всех народов.*

Ключевые слова: *концепт, концептуал, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, национальный характер, любовь, дружба.*

LINGUISTOCULTURAL FEATURES OF THE CONCEPTS OF "LOVE" AND "FRIENDSHIP"

Abstract. *One of the current and not fully explored topics of modern linguistics is the concept. This term is one of the most important categories of linguistics and cognitive linguistics, and despite the fact that it has been studied by several scientists; this linguistic concept is still being studied. This article is dedicated to the study of the national and cultural characteristics of the concept of love and friendship in English and Uzbek languages. Also, attention is paid to highlighting the national identity aspects of the concept of love and friendship, which is considered one of the main concepts in all nations.*

Key words: *concept, conceptual, cognitive linguistics, national character, conceptsphere, love, friendship.*

Zamonaviy tilshunoslikda tilning o'ziga xos an'anaviy xususiyatlarini tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqati-nazardan lingvomadaniy yo'nalishda yuzaga kelgan har xil etnoslar madaniy turmush shakllarining aks ettirilishini tadqiq etish eng muhim vazifalardan sanaladi. Naqshdortillar- ingliz va o'zbek tillari sohiblarining milliy lisoniy tafakkurida inson tuyg'ularining verballashuvi va qadriyatlari chog'ishtirma tahlil qilish eng muhim masalalar qatorida turadi. Ushbu masalani o'rganish lingvomadaniyat olami bilan bog'liq bo'lib, lisoniy ifodaga ega va u lingvomadaniy o'ziga xoslik kasb etadi. Konseptga olimlarning yondashuvi va ta'riflari turlichadir, lekin biz qisqa va tushunarli bo'lgan Sh. Safarovning fikrini ma'qul deb bilamiz. Uning fikricha, "Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi."

Muhabbat lingvopoetik qurshovida do'stlik tushunchasi ham muhim o'rin tutadi. "Do'stlarcha muhabbat" birikmasi do'stlar o'rtasidagi samimiy munosabatga daxldor sadoqatni bildiradi. O'zbek xalqimiz chinakam do'stlikdagi ishonch, qo'llab-quvvatlash, birbirini tushunish va o'zaro muloqotni qadrlaydi, ularni hayotning me'yoriy hamda zaruriy qismi deb hisoblaydi. "Muhabbat" istilohi insonning o'z vatani va madaniyatiga bo'lgan chuqur sevgisini ham qamrab oladi. "Vatanga muhabbat" atamasi vatanparvarlik, g'urur tuyg'usini, millat farovonligi va rivojiga hissa qo'shish istagini birlashtiradi. O'zbek tilida "muhabbat"ning leksik talqini faqat so'zlar bilangina cheklanib qolmay, ifoda va istioralarda ham o'z aksini topganini qayd etish lozim. Masalan, xalqimizda bir-biriga muhabbatli kishilarning sovg'alar, xususan, gullar berishi sevgi va mehr tuyg'ularini ifodalashning an'anaviy usullaridan biri hisoblanadi. Yaqinlariga murojaat qilishda inson ko'pincha mehr-oqibat va yaqinlik darajalarini ta'kidlab, "sevgilim", "jonim", azizam", "yagonam" kabi sevgi so'zlari ishlatadi. So'nggi yillarda bu kabi o'nlab so'zlar tadqiqida lug'atshunoslikda yetarlicha muvaffaqiyatli tadqiqotlar olib borildi, zamonaviy tilshunoslik hamda uning yangi paydo bo'lgan sohalarini o'rganish tadqiqotchilarning e'tibor markaziga tushib ulgurdi. Kognitiv ("cognition" – bilish, "cognize" – bilmoq, tushunmoq, "cognitive" - bilishga oid, "cognitation" – aql, tafakkur) lingvistika zamonaviy tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida vujudga keldi. Kognitiv lingvistikaning boshqa kognitiv fanlardan farqi uning kognitiv materiali bilan bog'liq hodisadaligida, ya'ni kognitiv lingvistikaning ongni o'rganish materiali - tildir. Tilshunoslikda kognitiv lingvistika bilan bog'liq konseptologik tadqiqot ishlari shakllana borib, ma'lum bir qiyofa kasb etmoqda. Biz tadqiq etmoqchi bo'lgan konseptologiya ham kognitiv tilshunoslikning bir yo'nalishi hisoblanib, uning o'rganilish obyekti konsept(konseptsiya)dir. Konseptsiya lotin tilidan tarjima qilinganda "conceptus" – "tushuncha" degan ma'noni anglatadi, ammo shu bilan birga, konsept o'zida tushunchaga nisbatan kengroq ma'nolarni qurshovga oladi. U ma'lum belgi haqidagi bilimlar, narsa va hodisa haqidagi har bir lisoniy jamoaga xos tushunchalar mazmunini til orqali samarali ifodalaydi. Zamonaviy tilshunoslikda mavjud bo'lgan konseptni aniqlash muammosi bilan konsept va til birliklari o'rtasidagi munosabatlar muammosi o'zaro bog'liq hodisa. Hozirgi kunda konsept atamasiga doir bir qancha qarashlar, nazariyalar mavjud. Shu jumladan, Yu.S.Stepanovning "inson ongida madaniyat o'chog'i, bu madaniyat shaklida insonning aqliy olamiga kiradigan narsa" degan ta'rifini konsept lingvokulturologiyada eng ko'p qo'llanuvchi birlik ekanligi bilan bog'lasak to'g'ri bo'ladi. Shuningdek, olim ta'kidlaganidek, "konsept" bu ma'lum so'z bilan birga keladigan g'oyalar, tushunchalar, bilimlar, uyushmalar, tajribalar to'plami". Konsept bir xil darajadagi kognitiv xususiyatga ega tushuncha hamda ma'no birligidan iborat birlik: tushuncha – tafakkur birligi, ma'no – tilning semantik birligi. Konsept ong materiali o'laroq, inson ongida psixik izlar va assotsiatsiyalar bilan mavjud.

Inson tuyg'ulariga munosabat, inson ma'naviy tushunchalarining mavjudligini aniqlovchi xususiyatlar deb qarash mumkin. Bu esa inson tuyg'ulari konseptining semantik tahlil etilishini taqozo etadi. Inson tuyg'ulari tabiatan turlicha bo'ladi. Masalan, muhabbat konsepti shular jumlasidandir. Muhabbat konsepti turli lug'atlarda turlicha talqin etiladi. M.M.Makovskiyning " Историко-этимологический словарь современного английкого языка" nomli lug'atida *love* muhabbat konseptining etimologik ma'nolari asosan *"bog'lanish",* qisman *"yig'ish, intilish",* shuningdek "*sehrgarlik, sehr qilish", olov, suv, sugohlik, harakat"* kabi ilohiy olamdagi barcha unsurlar bilan bog'langan bo'ladi degan izohlar ham mavjud. Mehr-muhabbat konseptiga xos his-tuyg'ularning o'zaro munosabati talqinida erkak va ayol munosabatlarining oilaviy munosabat insonga xos tuyg'ularning tipik namunalaridan biri hisoblanadi.

"Muhabbat" konseptining izohlari paremiologik va badiiy asarlarda ikki shaxs mehr-muhabbatini aks ettiruvchi hikmatlarda ham o'z aksini topadi. *Masalan: Muhabbatda ko'z bo'lmayd,i yurak bo'ladi, muhabbat ko'zda bo'lmaydi yurkada bo'ladi.*

Ingliz tilida: Love is blind, love is never without jealous.

Yuqorida keltirilgan misollardan shu ko'rinadiki, har ikki tilda paremiologik fondda "do'stlik" bilan bog'liq paremiyalar qatlami umumiylikka, universalikka ega. Bu qatlam asosan maqol shaklidagi hikmatlar bo'lib, ular ko'pincha har ikki til semantikasi, hatto sintaktik strukturasi uchun ham deyarli mos keladi. Kognitiv lingvistika "muhabbat" konseptini ifodalashda turli til vositalari va metaforalardan foydalanadi. Bu so'zlar va ifodalar, muhabbatni tasavvur qilishimiz va

uni izohlashimizga yordam beradi. Masalan, o'zbek adabiyotining buyuk namoyondasi Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan "O'tkan kunlar" asariga murojaat qilinadigan bo'lsa, ushbu roman "muhabbat" konseptini an'analar, oilaviy aloqalar va o'sha davrdagi jamiyat ichida hukm surgan munosabatlardan kelib chiqib tahlil qiladi. Ya'ni, asarda faqatgina ikki yosh o'rtasidagi sevgi ifodalanmasdan, balki o'g'ilning ota-onasiga bo'lgan muhabbati, qizning o'z ota-onasiga bo'lgan muhabbati, bir insonning o'z vataniga bo'lgan muhabbati ham keng yoritilgan. Masalan, Otabek va ota-onasi o'rtasidagi suhbatda:

-O'g'lim, hali san eshitdingmi, yo'qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq…

-Aqlli kishilarning o'g'ullari ustidan qilg'an ishlari albatta noma'qul bo'lmas-dedi

Ushbu misolda garchi Otabek ota-onasining qilgan ishi noto'g'riligini bilsada, ularga bo'lgan muhabbati, hurmati sababli, o'rinli javob qaytargan. Yana bir boshqa jumlada esa ikki jins vakili o'rtasidagi muhabbat yozuvchi tomonidan "bebaho dur" deb tasvirlangan:

-Muhabbat degan narsa juda oz kishilarga nasib bo'ladirg'an bir durri bebahodir-dedi Yusuf. Qadrdoningiz Yusufbek hojining o'g'li Otabek — bir necha kunlardan buyon pinhoniy bir dard bilan og'rir edi.

Ingliz adabiyotiga murojaat qilinadigan bo'lsa, Jeyn Ostinning "Andisha va G'urur" asarida Darsining Elizabetga bo'lgan muhabbati quyidagicha tasvirlangan va bu misolda "love" ya'ni "muhabbat" konsepti bilan birdek ma'no ifodolovchi affection so'zidan foydalanilgan:

- Mr. Darcy: "I understand, Miss Bennet. Take your time, but know that my affections for you are sincere and unwavering. I am willing to wait for your heart to incline towards mine."

Do'stlik konsepti bo'lib, u ham barcha tillarda mavjud muhim konseptlardan biridir. So'nggi paytlarda do'stlik konseptini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda, bu tilshunoslar, faylasuflar, lingvokulturologlar va psixologlarning qiziqishini ham oshirdi. Kuzatishlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, lingvokulturologiyada ushbu konsept yetarli darajada o'rganilmagan va aniqlanmagan tushunchalardan biridir. Ushbu konsept shaxsning ichki, ma'naviy hayoti, ma'naviy-axloqiy o'lchovlarining murakkab tizimini aks ettiradi. Do'stlik so'zi tor ma'noda ikki inson o'rtasidagi munosabat bo'lsa, keng ma'noda oilalar, qishloqlar ,qarindoshlar va yurtlar o'rtasidagi iliq munosabatni ham bildiradi. Do'stlikning eng muhim fazilatlari bu samimiylik, rostgo'ylik, vafo va albatta, sadoqat hisoblanadi. Bu to'g`rida tilimizda salmoqli ijod namunalarini uchratish mumkin. Birgina A.Navoiy do'stlikni ulug`lab ko'plab misralar bitgan. *Do'stsiz insonni qurigan daraxtga, joni yo'q tuproqqa tenglagan. Do'stlik shunday bir ulug' ne`matki, u insonni ruhiy va jismoniy kamolotga boshlaydi.*Chog'ishtirilayotgan tillarda konsept o'rganilayotgan etnosning lisoniy tasavvurida muhim o'rin tutadi, chunki u xalqning etnik xarakterini aks ettiruvchi asosiy konseptlardan biri hisoblanadi. Turli jamiyat va millatlarning ushbu lingvistik tushunchaga o'z qarashlari mavjud. Do'stlik milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'lib, u "milliy xarakter" kabi tushunchada ifodalanadi. Tilshunos S.Mo'minov milliy xarakter to'g'risida shunday fikr bildiradi: «Milliy xarakterda xalqning "Muloqot xulqi" aks etadi,milliy xarakterni o'rganmay turib, mutlaqo muloqotni o'rganib bo'lmaydi. Milliy xarakter deganda ma'lum ijtimoiy guruh (millat) o'rtasida asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib kelgan o'ziga xosliklar majmui tushuniladi. Ingliz madaniyatida "Do'stlik" ya'ni "Friendship" konsepti juda chuqur ma'no ifodalab, u nafaqat bir-biriga yordam berish va qo'llab- quvvatlash, balki qalban yaqinlik, oshkoralik, sevgi kabi tushunchalarni ham qamrab oladi. Masalan, quyidagi misollarga e'tibor qaratamiz:

-Friendship is love without wings (Byron)

-A faithful friend is a medicine of life (Bible)

-Friendship makes our life beautiful (Virginia Wolf)

Xulosa qilganda, muhabbat bilan bog'liq bo'lgan mehr, sevgi kabi insonga xos mental qadriyatlarning semantik strukturasi jins va tur belgilarining birlashishida muhim asos hisoblanadi. Do'stlik tushunchasi esa kognitiv tilshunoslikda metafora, timsol, kontseptual ramkalar, skriptlar, madaniy o'zgarishlar va tilning ko'p ma'nosini tahlil qilish orqali yondashiladi. Bu tilning ijtimoiy munosabatlardagi kognitiv tasavvurlarimizni qanday aks ettirishi va ta'sir qilishini tushunish uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mamadaliyeva M. " O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti". F.f.n diss... avtoreferati. - T. 1988. – B 15.
2. Апресян. Ю. Д. Лексическая семантика. – М : Наука.194. – С 44.
3. Арнольд И.В. Стилистика современного английского язика. – М : Просвешение. 1990. – С 209-221.
4. Haydarov A. Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi, f.f.n diss... – T : 2009, - B 19.
5. Atamurodova D.T. (2023) NEMIS TILIDA "DO'STLIK" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.// Innovative Academy Research Support. Issue 6, Part 2June2023, p.87.
6. Mo'minov S.M.O'zbek muloqot xulqining ijtimoiylisoniy xususiyatlari: disser-tatsiya avtoreferati, Toshkent: O'Zr FA TAI, 2000. – 47 b.
7. Khametova M.F. National-cultural peculiarities of the concept of "friendship" in the Eng-lish language.// Вестник Южно-Уралского государственного университета,выпуск 10.
8. Abdulla Qodiriy 'O'tkan kunlar' www.ziyouz.com 2008-yil
9. Jane Ostin 'Pride and Prejudice'. 'Yangi asr avlodi' 2014-yil
10. Маковский М.М Историко-этиологический словарь современного английского языка. – М.Изаво Диалог. 2000. –С.45.
11. Berdiyorov X., Rasulov.R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati.-T.:O'qituvchi. 1984.-288b.
12. Кунин А.Б. Англо-русский фразеологический словарь.I том.-М.:СЭ.1984.-С.42.
13. Safarov.Sh.S. Kognitiv tilshunoslik.- Jizzax: Sangzor, 2006.- B.91
14. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 2004 y. 224-b.

Abdirahimova Mohigul Normurodovna
Iqtsodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI QAHRAMONLARI O'RTASIDAGI O'XSHASHLIK VA TAFOVUTLAR

("*Cinderella", "Little Red Riding Hood" va "Toshbaqa va Tulki" ertaklari asosida*)

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi qahramonlarning o'xshashlik va tafovutlari tahlil qilinadi. Tadqiqot obyektlari sifatida "Zolushka" ("Cinderella"), "Qizil Shapka" ("Little Red Riding Hood") va "Toshbaqa va Tulki" ertaklari tanlab olingan. Maqolada ertaklar orqali berilgan axloqiy saboqlar, madaniy qadriyatlar va qahramonlarning psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, ertaklarning jamiyatdagi tarbiyaviy roli ham yoritiladi. Solishtirma tahlillar orqali ingliz va o'zbek xalqining umumiy va o'ziga xos qadriyatlari ko'rsatib beriladi. Ushbu maqola madaniyatlararo anglashuvni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar. *zolushka, Qizil Shapka, Toshbaqa va Tulki, xalq ertaklari, madaniy qadriyatlar, axloqiy saboqlar, qahramonlar taqqoslanishi, bolalar adabiyoti, psixologik tahlil, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, ertak qahramonlari.*

СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ ПЕРСОНАЖАМИ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКИСТАНСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК

Аннотация. *В данной научной статье проводится анализ сходств и различий персонажей английских и узбекских народных сказок. В качестве объектов исследования выбраны сказки "Золушка" ("Cinderella"), "Красная Шапочка" ("Little Red Riding Hood") и "Черепаха и Лиса" ("Toshbaqa va Tulki"). В статье изучаются нравственные уроки, культурные ценности и психологические особенности персонажей, передаваемые через сказки. Также освещается воспитательная роль сказок в обществе. Сравнительный анализ показывает как общие черты, так и уникальные особенности ценностей английского и узбекского народов. Данная работа способствует углублению межкультурного понимания.*

Ключевые слова. *Золушка, Красная Шапочка, Черепаха и Лиса, народные сказки, культурные ценности, нравственные уроки, сравнение персонажей, детская литература, психологический анализ, английская литература, узбекская литература, герои сказок.*

SIMILARITIES AND DIFFERENCES BETWEEN ENGLISH AND UZBEKISTAN FOLK TALES HEROES

Annotation. *This scientific article analyzes the similarities and differences between the heroes of English and Uzbek folk tales. The fairy tales "Cinderella", "Little Red Riding Hood" and "The Tortoise and the Fox" were selected as the objects of research. The article studies the moral lessons conveyed through fairy tales, cultural values and psychological characteristics of the heroes. It also highlights the educational role of fairy tales in society. Through comparative analysis, the common and specific values of the English and Uzbek people are shown. This article serves to deepen intercultural understanding.*

Keywords: *cinderella, little red riding hood, the tortoise and the fox, folk tales, cultural values, moral lessons, comparison of characters, children's literature, psychological analysis, english literature, uzbek literature, fairy tale characters.*

Kirish. Ertaklar insoniyat tarixida qadimdan axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy normalar va madaniy urf-odatlarni avloddan avlodga yetkazish vositasi bo'lib kelgan. Ingliz va o'zbek xalqlarida ertaklar nafaqat o'yin-kulgi manbai, balki tarbiya va ma'naviy rivojlanish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqasida odamlarning orzulari, qo'rquvlari va hayotiy qadriyatlari aks etadi. Ingliz ada-

biyotida “Cinderella” va “Little Red Riding Hood” kabi ertaklar dunyo bo’ylab mashhurlikka erishgan. “Cinderella” ertagida sabr-toqat, mehribonlik va adolat g’oyalari ilgari suriladi. Asardagi bosh qahramon sabr va yaxshilik orqali barcha qiyinchiliklarni yengib o’tadi. “Qizil Shapka” esa bolalarni hayotdagi xavf-xatarlardan ogoh bo’lishga chaqiradi va hushyorlikni tarbiyalaydi. O’zbek xalq ertaklari ham ko’p asrlik tajribani o’zida jamlagan. “Toshbaqa va Tulki” ertagida aql, sabr-toqat va zukkolik asosiy qadriyat sifatida ilgari suriladi. Bu ertaklar o’zbek xalqining hayotiy tajribasini, adolatga, aqlga va mehnatsevarlikka bo’lgan e’tiborini aks ettiradi. Mazkur maqolada ingliz va o’zbek xalq ertaklari qahramonlari solishtirilib, madaniy va axloqiy qadriyatlar o’rtasidagi umumiyliklar hamda farqlar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Har bir madaniyat o’ziga xos va maxsus bo’lgan ertaklarga ega bo’lib, ular o'zining tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari va axloqiy me'yorlariga mos tarzda shakllanadi. Shu bilan birga, buyuk allomalarimiz turli davrlarda va turli ilmiy yo'nalishlarda ertaklarning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini alohida ta'kidlab o’tganlar. Ertaklar nafaqat bolalar uchun o’yin-kulgi vositasi, balki ularning axloqiy, ma’naviy va psixologik rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik vosita sifatida qaraladi.

Abdulla Avloniy o’zining pedagogik qarashlarida, ertaklarning tarbiyaviy ahamiyatini juda katta ahamiyatga ega deb hisoblagan. Uning fikricha, xalq ertaklari orqali yosh avlodga ezgulik, adolat, mehnatsevarlik, milliy g’urur va vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlar singdirilishi mumkin. Avloniy ertaklar bolalarning tafakkurini rivojlantirib, ularda irodani mustahkamlash, ma'naviy yetuklik va vatanparvarlikni tarbiyalashga yordam berishini ta’kidlaydi. Unga ko’ra, ertaklar faqat bir qator jismoniy voqealar emas, balki ular xalqning ruhiyatining va milliy qadriyatlarining aksidir. Shuning uchun ertaklar milliy o’zlikni saqlash va uni rivojlantirishda muhim vositadir. Bu fikr *Avloniy*ning pedagogik qarashlarida markaziy o’rinni egallaydi.

Shavkat Hoshimov, o’zbek xalq ertaklarini o’rganishda, ularning axloqiy va ma’naviy ta’siriga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikricha, ertaklar orqali bolalarga axloqiy saboqlarni o’rgatish, ularga aql-zakovat, sabr-toqat va zukkolik kabi insoniy qadriyatlarni singdirish mumkin. Xususan, “Toshbaqa va Tulki” kabi ertaklarda, qahramonlar o’zining aqlli va sabrli yondashuvi orqali g’alaba qozonadi. Hoshimovning fikricha, ushbu ertaklar bolalarda hayotdagi murakkab vaziyatlarda to’g’ri yo’lni tanlashning muhimligini tushuntiradi. U o’zbek xalq ertaklarining bolalar axloqini shakllantirishdagi o’rnini yuqori baholaydi, bu ertaklar bolalar dunyoqarashi va xulq-atvorini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Munavvar Qori, o’zbek bolalar adabiyotining muhim namoyandalaridan biri sifatida, ertaklarning bolalar psixologiyasiga ta’sirini chuqur o’rgangan. Uning tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, ertaklar bolalarning dunyoqarashini va xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Qori ertak qahramonlarining yaxshi va yomon xatti-harakatlarini ko’rsatish orqali bolalar ma’naviy va axloqiy me'yorlarni o’z ichki onglariga singdiradi. U ertaklarni bolaning shaxsiyati va psixik rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatuvchi samarali pedagogik vosita deb biladi. Qori fikriga ko’ra, ertaklarning psixologik ta’siri bolalar uchun nafaqat axloqiy dars, balki emotsional rivojlanish va ichki muvozanatni ta’minlashda ham muhimdir.

Ertaklarning ta’siri o’zbek olimlarining yondoshuvlari bilan cheklanib qolmay, chet eldagi tadqiqotchilar ham ertaklarning bolalar rivojiga ta’sirini keng tahlil qilganlar. *Jack Zipes* ertaklarning jamiyatdagi qadriyatlar va gender rollarini shakllantirishdagi o’rnini o’rganib, ertaklar orqali bolalarga jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq normalari va ijtimoiy rollarni qanday singdirish mumkinligini ko’rsatadi. Zipesning fikricha, ertaklar faqatgina o’yin-kulgi uchun emas, balki bolalarni jamiyatning asosiy qadriyatlari va ijtimoiy tartib-qoidalariga tayyorlash uchun ham xizmat qiladi. Uning nazarida, ertaklar axloqiy me’yorlarni shakllantirishda va bolalarga jamiyatning axloqiy talablarini tushuntirishda muhim rol o’ynaydi. Xususan, Cinderella kabi ertaklarda, ayol qahramonlarning sabr-toqat va itoatkorlik orqali muvaffaqiyatga erishishini ko’rsatib, gender rollarini ham tahlil qiladi.

Bruno Bettelheim o’zining mashhur asari “The Uses of Enchantment”da ertaklarning bolalar psixologik rivojlanishidagi o’rnini chuqur tahlil qilgan. Bettelheimning fikricha, ertaklar bolalarga o’z ichki qo’rquvlari va stresslarini anglash va yengishga yordam beradi. Ertaklarda tasvirlangan

kurashlar va qiyinchiliklar bolaning o'z hayotidagi ichki ziddiyatlarni badiiy shaklda ko'rishiga va ularni yengish mexanizmlarini o'rganishiga imkon yaratadi. Bettelheim, ertaklarni bolaning emotsional va aqliy rivojlanishining muhim qismi deb hisoblaydi, chunki ular bolaga o'z xavflari bilan yuzlashish va ular ustidan g'alaba qozonish imkonini beradi.

Восток у Есенина — это сложный и многослойный образ, который охватывает как экзотические элементы и восточную эстетику, так и философские, мистические размышления о жизни, любви и смерти. Его восточные мотивы служат для поэта способом выразить глубокие эмоциональные переживания, поиски внутренней свободы и духовного очищения. Есенин создает поэтический мир, где Восток становится местом, где пересекаются разные философские системы, культура и личные чувства, что придает его творчеству особую многозначность и глубину. Восток интересовал поэта на протяжении всей его жизни. Советский востоковед, литературовед и теоретик культуры И.С. Брагинский, говорит от том, что в творчестве Пушкина разных лет можно обнаружить «ориентальные моменты», но только с начала его южной ссылки, под воздействием встречи с живым Востоком романтик по-настоящему увлекается и очаровывается его красотой и экзотичностью, стремится передать свое ощущение от увиденного и показать глубинные элементы его культуры. Именно во время пребывания в Южной ссылке, находясь под большим впечатлением от творчества Байрона и живописной природы Крыма, Кавказских гор и Карпат, писатель создает цикл произведений на тему Востока, объединенных в так называемые «Южные поэмы». К данному циклу исследователи относят поэмы «Кавказский пленник» (1820-1821 гг.), «Братья разбойники» (1821-1822 гг.), «Бахчисарайский фонтан» (1821-1823 гг.) и «Цыганы» (1824 г.). Стоит сказать, что разработка восточной темы Пушкиным не ограничивается только «Южными поэмами», на протяжении всего романтического периода в творчестве писателя можно выделить ряд произведений на тему Востока.

Например, лирические стихотворения «Узник», «К морю», «Калмычке», «Кавказ», «Обвал», «Монастырь на Казбеке», «Делибаш», а также повесть «Кирджали» и очерк «Путешествие в Арзрум во время похода 1829 года».

Обсуждение. Жанры Востока в русской поэзии: Многие русские поэты использовали восточные мотивы для создания художественных образов и символов. Восточные сюжеты часто использовались для создания философских рассуждений о судьбе, любви, смерти и вечности.

Развитие русского востоковедения способствовало появлению целой плеяды переводчиков с восточных языков, благодаря деятельности которых в переводе на русский язык стали публиковаться произведения классиков восточных литератур, материалы об их жизни и творчестве. В начале XIX века в России на страницах большинства периодических изданий и литературных альманахов появляются многочисленные переводы образцов восточной поэзии. Среди восточных поэтов, ставших популярными в России, следует отметить Низами Гянджеви, Фирдоуси, Джами, Ибн-Руми, Саади, Хафиза, Хайама и др. Восток в поэзии А.С.Пушкина: Поэт был первым русским литератором, который в полной мере освоил восточные мотивы, и один из ярких примеров — его поэма «Бахчисарайский фонтан» (1823), в которой он соединяет элементы восточной мифологии и философии. Пушкин изображает Восток как мир таинственных страстей, красоты и трагедий, что создаёт яркий контраст с рационализмом Запада.

А.С. Пушкин в своей поэме «Цыганы» (1827) использует восточную экзотику и культуру, связывая их с темой свободы и поиска собственного пути. Восточные мотивы часто ассоциировались с идеей освобождения от социальных и политических ограничений, с поиском идеала и гармонии.

Заключение. Настоящая статья посвящена анализу темы Востока в русской литературе XVIII–XX веков. Восток представлен как многозначный культурный и литературный образ, отражающий не только интерес к экзотике и иному миропониманию, но и философские, эстетические, социальные и духовные поиски русских писателей. В статье рассматриваются ключевые этапы эволюции восточной тематики: от академического и просветительского интереса XVIII века до романтического восприятия Востока в поэзии и прозе XIX века, а также её глубокого символического переосмысления в литературе модерна и символизма XX века. Особое внимание уделяется творчеству С.А. Есенина, в котором Восток предстает как пространство мистики, любви, страсти и философского осмысления жизни. Использование восточных образов, переводческая деятельность и влияние классиков восточной поэзии на русскую литературную традицию анализируются с позиций литературоведения, культурологии и межкультурной коммуникации. Таким образом, Восток в русской литературе предстает не только как географическая или культурная категория, но как многослойный символ, способствующий художественному и духовному обогащению национальной словесности.

Список литературы.

1. История русской литературы XIX века. 1795-1830 г.г. // Ред. В.И. Коровин. М.: Владос, 2005.

2. Брагинский И.С. «Заметки о пушкинском западно-восточном синтезе». М., 1974. С. 73.

3. Персидские лирики. Серия "Памятники мировой литературы". Издание "М. и С. Сабашниковых", Москва, 1916.

4. Вержбицкий Н.К. Встречи с Есениным. Воспоминания. Тбилиси, "Заря Востока", 1961.

5. Хабибова, М. ., & Садиллаева , С. (2025). Влияние востока на русскую литературу и россии на узбекскую литературу. *Modern Science and Research*, *4*(1), 444–454. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/63707

6. Суворов Валерий Владимирович (2015). Положительный образ Востока и национально-культурная идентичность в России (вторая половина XIX - начало XX века). Вестник Поволжского института управления, (6 (51)), 95-101.

Akhmedova Khalima Tuxtaevna
Lecturer. Department of Interfaculty foreign languages.
Termez State University

POSSIBILITIES OF USING THE CLUSTER MODEL IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND PROJECT ACTIVITIES

Abstract. *This article explores the possibilities of applying the cluster model within the educational process and project-based learning (PBL). The cluster approach, widely used in economics and innovation management, is examined for its potential to enhance educational design, collaboration, and interdisciplinary learning. Key benefits include increased creativity, structured thinking, and improved group dynamics in the learning environment.*

Keywords*: cluster model, education, design activities, project-based learning, innovation, interdisciplinary learning, collaboration.*

TA`LIM JARAYONIDA VA LOYIHALASH FAOLIYATIDA KLASTER MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola klaster modelini ta'lim jarayoni va loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) doirasida qo'llash imkoniyatlarini o'rganadi. Iqtisodiyot va innovatsiyalarni boshqarishda keng qo'llaniladigan klaster yondashuvi ta'lim dizaynini, hamkorlikni va fanlararo o'rganishni yaxshilash imkoniyatlari uchun ishlatish samara berishi haqida bayon qilingan. Asosiy afzalliklarga ijodkorlikni oshirish, tuzilgan fikrlash va o'quv muhitida yaxshilangan guruh dinamikasi kiradi.*

Kalit so'zlar: *klaster modeli, ta'lim, dizayn faoliyati, loyihaga asoslangan ta'lim, innovatsiyalar, fanlararo ta'lim, hamkorlik.*

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОДЕЛИ КЛАСТЕРОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ И ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются возможности применения модели кластеров в образовательном процессе и проектном обучении (PBL). Кластерный подход, широко используемый в экономике и управлении инновациями, рассматривается на предмет его потенциала для улучшения образовательного дизайна, сотрудничества и междисциплинарного обучения. Основные преимущества включают в себя повышенную креативность, структурированное мышление и улучшенную групповую динамику в учебной среде.*

Ключевые слова: *модель кластера, образование, проектная деятельность, проектное обучение, инновации, междисциплинарное обучение, сотрудничество.*

Introduction. In modern education, especially in the context of digital transformation and innovation, new teaching and learning models are becoming necessary. One such model is the cluster approach, traditionally associated with regional economic development and innovation systems. When adapted to educational environments, it offers powerful tools for improving project-based learning, design thinking, and collaborative skills. This article aims to examine the possibilities and benefits of using the cluster model in the educational process, particularly within design-oriented activities. The cluster model originates from the works of Michael Porter, who introduced it as a tool to analyze competitive advantage in economics. In education, the model has been reinterpreted to group learners, subjects, or projects around a central theme, fostering deeper understanding through interconnected learning. Clustering supports constructivist theories, promoting student-centered education, collaboration, and problem-solving.

The teachings of the scientist M. Porter, the founder of modern cluster theory, who scientifically substantiated the contribution of the cluster method to increasing competitiveness, served as the basis for our conclusion: in the process of economic growth, a cluster is a group of companies and related

organizations located in the same geographical area and engaged in the same field and type of activity, and complementing each other. Problem solving is reflected in the process of collaboration.

Methods. The cluster model is an innovative educational approach that enables the flexible grouping of subjects and students around shared topics, themes, or core competencies. Instead of organizing instruction strictly by traditional subjects, the cluster model encourages a more integrated and interdisciplinary format where learning is centered around meaningful, real-world themes. This method allows educators to design learning experiences that cross disciplinary boundaries and encourage collaboration among both teachers and students.

One of the key advantages of the cluster model is its ability to promote thematic integration. For example, in a cluster focused on "Sustainable Cities," students might explore environmental science, urban planning, technology, and art all within one integrated project. Teachers from different subject areas collaborate to ensure that students are developing a broad range of skills and knowledge connected to the central theme. This structure reflects the way problems are addressed in the real world—holistically, not in isolated academic silos.

The cluster model is particularly well-suited to STEAM education—an integrated approach to teaching science, technology, engineering, arts, and mathematics. In a STEAM-focused cluster, students might work on designing a solar-powered device. This project would require scientific understanding (how solar energy works), technological tools (software for simulation or coding), engineering concepts (design and construction), mathematical skills (calculations and measurements), and artistic creativity (user interface and design aesthetics). Through such activities, students experience firsthand how different disciplines complement each other and contribute to innovative problem-solving.

Another important aspect of the cluster model is its ability to adapt to students' interests and abilities. By organizing students into flexible groups, teachers can personalize learning paths and differentiate instruction. This encourages student engagement, motivation, and ownership of learning. Students are not only absorbing information but also applying knowledge in collaborative, inquiry-based projects.

Moreover, the cluster model supports the development of essential 21st-century skills such as critical thinking, communication, collaboration, and creativity. Working in clusters fosters teamwork, as students must negotiate roles, share ideas, and collectively find solutions. It also enhances communication, both written and verbal, as students present their work and explain the reasoning behind their designs and decisions.

In addition to benefits for students, the cluster model also empowers teachers to work as interdisciplinary teams, breaking down the barriers of isolated subject teaching. This promotes professional collaboration, the sharing of expertise, and the creation of richer, more engaging learning experiences. It should be emphasized that as a result of the interaction between students and teachers during the project, structural changes in relationships, activity styles, and methods may occur. For example, during the activity, hierarchical - the teacher's opinion may dominate - relationships may become more distant. During this process, resources that are not currently available for implementation of the activity are also involved: students, teachers, professors, and researchers. In this cooperation, the relationship between the scientific leader and the professor-teacher and the assistant teacher, as well as the relationship between the leader and the teacher, is manifested. In this case, the scientific leader (professor-teacher, scientific researcher) sets the general educational goal for the teachers, develops a work plan, and monitors the pedagogical process. A scientific director defines a scientific problem and guides the scientific research of a scientific researcher.

Discussion. The cluster method is considered as a general characteristic that unites different areas of human activity. In organizing the project activities of schoolchildren, the issue of cooperation with pedagogical higher educational institutions is considered as a separate link. In this regard, the relationship of school teachers with students of the relevant department (discipline) is of particular importance. The relationship between school teachers and students in the department is a reflection of the relationship between teacher and student. The school teacher sets general learning goals for

students, assigns specific tasks and assigns individual students responsible for their completion, creates a work plan, ensures effective communication between students and teachers in the classroom, and supervises the process with the assistant teacher. The work that students do during the project activity is very different from the passive observation activity they previously experienced in practice. During the project activity, students are in direct contact with their schoolchildren and apply the experience and knowledge they gained as passive observers in practice to the problems they encounter.

In our study, project activity is presented as one form of a cluster, since in this process all participants achieve a common goal by planning, organizing, leading, and implementing the project assigned to them through equal distribution of tasks. Competition in the field of education differs from competition in the field of economics and business. While in business, activities are carried out to obtain benefits in the form of income, an educational institution strives to develop and expand its potential. In our work, we focused on the use of this concept in economic literature in order to more fully explain the meaning of the term "cluster".

1. Flexible Organization of Curriculum. The cluster model allows educators to design flexible curricula based on themes or problems rather than isolated subjects. For example, a cluster on “Sustainable Development” can include lessons from geography, environmental science, economics, and art. This creates a more coherent learning experience. Clusters support the integration of STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) subjects. Students are encouraged to make connections across domains, fostering deeper understanding and a more holistic worldview. For successful STEAM cluster implementation, teachers from different disciplines collaborate closely to design and guide integrated learning experiences. This fosters professional development and a shared vision for innovative teaching. Schools may organize planning sessions where science, math, and arts teachers co-create project ideas, assessments, and activities. This collective effort results in rich, multidisciplinary curricula that are engaging and relevant.

2. Enhanced Student Engagement. The cluster approach gives learners greater ownership of their learning process. Since the themes are often connected to real-life problems, students are more motivated to participate, research, and collaborate. One of the most significant benefits of the cluster model in education is its ability to enhance student engagement**.** In traditional classroom settings, students often encounter fragmented learning experiences, where subjects are taught in isolation and lack real-world relevance. The cluster approach, by contrast, presents learning in a cohesive, thematic, and interdisciplinary manner. It connects academic content to meaningful real-life contexts, allowing learners to take a more active role in shaping their own learning journey.

3. Development of Soft Skills. Clusters require group work and collective decision-making, which help students develop communication, leadership, teamwork, and conflict-resolution skills—competencies that are vital for success in modern society. One of the defining characteristics of the cluster model in education is its reliance on group work and collective decision-making. In this model, students engage in collaborative projects and interdisciplinary tasks that require more than just academic knowledge—they demand the ability to communicate effectively, lead responsibly, cooperate harmoniously, and resolve conflicts constructively. These competencies are not only beneficial for academic growth but are essential for thriving in modern, interconnected societies.

4. Support for Differentiated and Inclusive Learning. Educators can form clusters based on students' interests, levels of understanding, or learning styles. This encourages inclusive practices and individualized learning paths. The cluster model in education offers a flexible and student-centered approach that allows teachers to group students strategically, creating meaningful learning experiences tailored to individual needs. One of the greatest advantages of this model is the ability to form clusters based on students' interests, levels of understanding, or preferred learning styles. These methods of grouping foster inclusive educational practices, promote engagement, and support the development of personalized learning paths, which are essential in today’s diverse and dynamic classrooms. The results of organizing a pedagogical system are measured by the consistency of the main criteria that contribute to the formation of students' project abilities. By assessing the effectiveness of the pedagogical system, it is possible to select educational materials, forms, types and methods of

teaching, monitor the activities of students and teachers, compare the achieved results with the set goal, and eliminate shortcomings in various parts of the pedagogical system.

In this process, students studying in higher education perform the role of a resource that implements and implements social cooperation in a cluster manner. Students move from passive to active observers in school laboratories organized in schools in collaboration with their assigned professor, assistant professor, or school teacher, based on their interests, level of knowledge, aptitude, and leadership skills. In this process, the age and level of education of the students participating in the project were not taken into account, but the student's abilities and level of knowledge in subjects were checked and their involvement in the project activities gave positive results. As a result of social cooperation organized in a cluster method during the project's activities, students will develop modern pedagogical skills as mentors, tutors, moderators, and facilitators from their student days.

Conclusion. The cluster model represents a progressive and dynamic approach to modern education, offering numerous advantages in both the educational process and project-based learning. By allowing flexible grouping based on students' interests, abilities, or learning styles, the model supports differentiated instruction and fosters inclusive, student-centered environments. It facilitates interdisciplinary learning—particularly in STEAM fields—by encouraging connections across subjects and real-world problem-solving. Moreover, the cluster approach enhances student engagement, promotes collaboration, and nurtures essential 21st-century skills such as communication, leadership, and critical thinking. As education continues to evolve in response to the demands of a rapidly changing world, the cluster model offers a powerful framework for creating meaningful, personalized, and future-ready learning experiences. To maximize its potential, educators should implement it thoughtfully, ensuring alignment with curriculum goals and student needs while fostering creativity, cooperation, and lifelong learning.

References.

1. B. A. Akhmedov (2021). Innovative cluster model for improving the quality of education. Academic research in educational sciences, 2 (3), 528-534. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00434

2. Портер М. Кетелс К. Конкурентоспособность на распутье: направления развития российской экономики. – М.: ЦСР, 2007.

3. Eshnayev Nortoji Jumayevich , ., & Madgapilova Nargiza Talipjanovna, . (2023). Characteristics of implementing the cluster approach in the educational system. International Journal of Pedagogics, 3(02), 44–47. https://doi.org/10.37547/ijp/Volume03Issue02-09

4. Koshanova Nilufar Mahsudovna, & Maxsudovna Matluba Ibragimova (2021). Educational cluster is an effective tool for classteacher activity development. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 1), 1047-1050.

Jahonova Nargiza Yunus qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: jaxonovanargiza@gmail.com

ONA TILINI O'QITISHDA KOGNITIV-PRAGMATIK YONDASHUVNING MAZMUNI

Annotatsiya. *Tilning inson hayotidagi o'rni beqiyos. Tilsiz insonlar bir-birini tushunish, voqelikni, tirik dunyoni o'zlashtirish, o'zaro fikrlashish qobiliyatiga ega bo'lmas edi. Yoki til bo'lmaganda axborot jamlanmas, bir kishidan boshqasiga uzatilmas va bir avloddan ikkinchisiga yetib kelmas edi. Bilim olish va saqlash, uni amalda qo'llash va uzatish manbai va nihoyat, uni shakllantiruvchi vosita bo'lgan til tizimi kognitiv tahlil obyektidir. Maqolada ona tilini o'qitishda kognitiv-pragmatik yondashuvning mazmuni, ahamiyati yoritilgan. Ona tilini o'qitishda kognitiv va pragmatik yondashuv qiyosiy tahlil qilingan. Shu bilan birga, ona tilini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida o'qitishda samarali bo'lgan usullar sanab o'tilgan. Ayrim didaktik o'yinlardan namunalar keltirilgan.*

Tayanch so'zlar: *kognitiv, bilish, kognitiv yondashuv, pragmatika, pragmatik yondashuv, kognitiv-pragmatik yondashuv, didaktik o'yin.*

СОДЕРЖАНИЕ КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ПРЕПОДАВАНИИ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотаци. *Роль языка в человеческой жизни несравнена. Делатерские люди не могли понять друг друга, развитие реальности, живого мира, обладают способностью интерпретировать. Или без языка информация не была использована, не могла перейти к другому и не достигла второго из одного поколения. Образование и хранение, практическое применение и передача и т. Д. Язык языковой системы с его формированием является объектом когнитивного анализа. В статье описывается содержание когнитивно-прадгического подхода в преподавании родного языка. Когнитивный и прагматический подход был проанализирован в преподавании родного языка. В то же время эффективные методы обучения нативного языка перечислены на основе когнитивного подхода. Образцы некоторых дидактических игр приведены.*

Ключевые слова: *когнитивный подход, прагмат, прагматический подход, когнитивно-прагматический подход, дидактическая игра.*

THE ESSENCE OF THE COGNITIVE-PRAGMATIC APPROACH IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE

Abstract. *The role of language in human life is incomparable. Delateral people could not understand each other, the development of reality, the living world, have the ability to interpret. Or without a tongue, information was not consumed, unable to move to another, and did not reach the second from one generation. Education and storage, practical application and transmission, etc., the language of the language system with a formation of it is the object of cognitive analysis. The article describes the content of a cognitive-praggic approach in teaching native language. A cognitive and pragmatic approach was analyzed in the teaching of native language. At the same time, effective methods of teaching the native language are listed on the basis of a cognitive-praggated approach. Samples of some didactic games are given.*

Key words: *cognitive approach, pragmate, pragmatical approach, cognitive-pragmatic approach, didactic game.*

Kirish. Har bir shaxsning aqliy faoliyati natijalari nutq orqali ifodalanadi, shuning uchun biz tilshunoslikda ong tuzilmalari haqida hamma narsani o'rganamiz. Til insonning individual

xususiyatlari, o'z-o'zini anglashi, atrof-muhitni bilishi vositasi sifatida o'rganiladi. Til "kommunikativ faoliyatda amalga oshiriladigan va inson miyasidagi maxsus kognitiv tuzilmalar va mexanizmlar tomonidan ta'minlangan" kognitiv jarayon sifatida qaraladi.

Asosiy qism. Kognitiv atamasi ingliz tilidagi "cognitive – bilishga oid" so'zidan olingan bo'lib, lotin tiliga va yunon tiliga taqaladi, bilish, anglash, tafakkur tushunchalari bilan bog'liqdir. Dunyoni, voqelikni bilish, idrok etish, ong va tilda aks ettirish, til orqali muloqotga kirish, axborot uzatish va qabul qilish oddiy hodisa emas. Tilni o'qitishda kognitiv yondashuv falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy, lingvistik hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Amerikalik psixolog H.Gardner kognitiv fanlar chorrahasida olti fan sohasi (falsafa, psixologiya, tilshunoslik, antropologiya, sun'iy intellekt, nevrologiya) tutashishini va yagona bir ilmiy maqsad – tabiiy va sun'iy tizimlarda bilimning jamlanishi, qayta ishlanishi va qo'llanishi muammolari yechimini izlash bilan band bo'lishini qayd qilgan edi (Gardner 1987).

Kognitiv fanlar o'zaro bog'liq ilmiy fanlarni birlashtiradi va tafakkurni o'rganishga qaratilgan. Bu fanlar tizimi aql va ong, shuningdek, ularning qonunlari, modellari va tuzilmalarini tushuntirishga imkon beradi.

Tilni o'rganishning kognitiv yondashuvi va xususiyatlari xorijiy olimlarning I.A.Boduen de Kurtene, J.Bruner, L.Vaysgerber, L.S.Vigotskiy, V.Gumbolt, M.Jonson, S.D.Katznelson, E.Kassirer, A.Kibrik, V.Kroft, E.S.Kubryakova, J.Kerroll, J.Lakoff, R.Langaker, A.R.Luriya, A.A.Leontev, Y.M.Lotman, C.Osgud, A.A.Potebniy, L.Taimi, G.Tompson, E.Sapir, B.L.Uorf, J.Faukonyer, G.Harman, N.Xomskiy va boshqalarning nazariyalarida o'z ifodasini topgan. Olimlarning ishlari va nazariyalari tilshunoslikning bilim doirasini kengaytirgan hamda til rivojlanishi va kognitiv qobiliyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga imkoniyat yaratgan.

Kognitiv ta'lim o'quvchini izlanishga, qiyoslashga, xulosa chiqarishga va zarurini tanlashga yo'naltiradi. Demak, reproduktiv ta'lim bilim bersa, kognitiv ta'lim bilim olishga undaydi, bilim olish yo'llarini o'rgatadi, usullarini tavsiya etadi – o'quvchi qo'liga bilim kalitini tutqazadi. Chunki bilim cheksiz, uning barchasini o'quvchiga o'rgatib bo'lmaydi. Kognitiv ta'limda sistemaviy izchillikka ega topshiriqlar tizimidan foydalaniladi. Mazkur topshiriqlar tizimi hodisalarni kuzatish, ularni umumlashtirish, narsa-buyum, holat, tushunchalarni o'zaro qiyoslash, ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashga; o'quvchilarni o'ylash, fikrlash izlash, topish va umumlashtirishga; dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Ona tilini kognitiv yondashuv asosida o'qitish keng imkoniyatlar bilan birga ayrim qiyinchiliklarga ham ega.

1. Ona tilinining o'rganish obyektini murakkab tuzilmaga ega bo'lgan mavhum tushunchalar tashkil qiladi. Ona tilini o'qitish ongga ta'sir qilish, aqliy jarayonlar orqali kechadi. Tilni o'rganishni hayot bilan bog'lash dunyoning moddiyligini tushunishga asos yaratadi. Ona tili o'qitish jarayoni o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi.

2. Ona tilini o'qitish umumiy falsafiy tamoyillarga asoslanadi. Tilning ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati uning aloqa (kommunikativ) vazifasini ifodalashdan iboratdir. Til bilan tafakkur uzviy bog'liq bo'lib, tafakkur so'z vositasida yuzaga chiqadi. Til tafakkurning mahsuli hisoblanib, ongdan tashqarida o'zicha yashamaydi. Til va tafakkur atrofimizni o'rab olgan moddiy borliqqa nisbatan ikkilamchidir. Tafakkur tashqi dunyoning tushunchadagi ifodasi hisoblanadi. So'z tushunchaning shartli nomini o'zida aks ettiradi. Dunyoda yo'q narsa ongda ham, tilda ham bo'lmaydi. Bu holat o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish asosini tashkil etadi va didaktik tamoyillardan birini, ya'ni til atrofni o'rab olgan muhitni, voqelikni kuzatish jarayonida faol bilish faoliyati vaziyatida o'rganilishini belgilaydi. Bunday yondashish dunyoqarashning asosiy masalalaridan biriga, ya'ni nima birlamchi: tabiat (materiya)mi yoki ongmi degan savolga javob tayyorlash hisoblanadi; materiya – birlamchi, ong – ikkilamchi degan tushunchadan o'quvchilarning xabardor bo'lishiga yordam beradi. Til – barcha tomonlari o'zaro dialektik bog'lanishda va birlikda bo'lgan murakkab, ko'p qirrali hodisa. Aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari, uning barcha jihatlari bir-biriga o'zaro ta'sir etadi, shunday sharoitdagina til o'zining aloqa quroli vazifasini bajara oladi.

Sanab o'tilgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ona tilini nafaqat kongnitiv jihatdan, balki pragmatik jihatdan ham tahlil qilish, ona tilini o'qitishda kompleks integrativ yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ona tilini pragmatik yondashuv asosida o'qitish kommunikatsiya jarayonida diqqatni qayta taqsimlash, nutq vaziyatini o'rganish va inobatga olish, vaziyatga mos til birliklarini tanlashga imkon beradi.

Pragmatika so'zlarning ma'lum bir konteksda qanday qo'llanishi va ma'no anglatishini o'rganadi. So'zlar o'zining asosiy ma'nosidan tashqari matnlarda boshqa bir ma'noni ifodalab kelishi, metaforik jarayonlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ona tilini o'qitishga pragmatik yondashuv quyidagi jihatlarni hisobga olishni o'z ichiga oladi:

1) o'qitishning onglilik, izchillik, faollik, antroposentrizm va funksionallik kabi yetakchi tamoyillariga amal qilish;

2) tilni inson faoliyatining bir tomoni va ijtimoiy shakl sifatida ko'rib chiqish, nutq faoliyati jarayonlarining o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda amalga oshirish;

3) gapning o'zgaruvchanlik, qaytariluvchanlik, xilma-xillik, moslashuvchanlik, ahamiyatlilik va noaniqlik kabi nutqiy holatini baholash kabi mezonlarga ko'ra sodir bo'lishi;

4) ta'limning asosiy yo'nalishi nutqning lingvistik mazmunidan chiqib, ishtirokchilar, maqsadlar, vositalar, nutq,kasbiy tajriba kabi aloqa shartlarini o'rganish;

5) lingvistik shakl, konteks va ijtimoiy harakatlarni birlashtirish imkonini berish, har birining rolini aniqlagan holda asosiy omillarning o'zaro ta'sir qilish tizimini yaratish;

6) dars davomida o'quvchilar nafaqat ta'lim oladilar, balki nutqiy faoliyatda qo'llab ko'rishi.

Lingvodidaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda til, tafakkur va ong va ularning bir-biriga ta'sirini o'rganish bilan bog'liq juda ko'p hal qilinmagan muammolar mavjud. Lingvodidaktik tadqiqotda kognitiv-pragmatik yondashuvning quyidagi asosiy vazifalar mavjud.

1. Dunyoni bilish jarayonlarida tilning rolini aniqlash, idrokning kognitiv tuzilishi va tilning lingvistik birliklari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish.

2. Til o'rganish jarayonida xotira, tasavvur, his-tuyg'ular, fikrlash, umumiy va individual xususiyatlar, idrok kabi kognitiv jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlik hisobga olinadigan tillarni o'qitishga zamonaviy yondashuvlarni izlash va amalga oshirish.

3. Dunyoviy axborotni qabul qilish, qayta ishlash, uzatish jarayonidagi lingvistik tushunchalar, olingan bilim va tajribani konsepsiyalash hamda turkumlashtirish muammolarini hal qilish.

4. Kasbiy faoliyatda samarali muloqot maqsadlarini izlash va aniqlash.

Til bizning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatimiz, to'plangan bilim va tajribamizni aks ettiradi. Til tahlil qilish, sintez qilish, tizimlashtirish, tushunish va tizimlashtirish funksiyalarini bajaradi.

Muhokamalar va natijalar. Bugungi kunda tilni o'rganishdagi zamonaviy yondashuvlarni sotsiologiya, nevrologiya, konfliktologiya va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liq holatda ta'lim oluvchining ehtiyojlari, tayyorgarlik darajasi, individual xususiyatlari inobatga olingan holda amalga oshirilishi kerak. Kognitiv-pragmatik yondashuv esa mazkur talablarga javob beradi.

Hozirda til ta'limi tizimida ona tilini kognitiv, pragmatik, ijtimoiy-pragmatik yondashuv asosida o'qitishda ijobiy natijalarga erishilmoqda. Quyidagi jadvalda mazkur yondashuvlarning qiyosiy jadvali keltirilgan.

	Kognitiv	**Pragmatik**	**Ijtimoiy - pragmatik**
Matnni o' rganish	Kontseptual tuzilma, matn, o'rnatilgan ma'nolarni kodlash va dekodlash.	Muvaffaqiyat - pragmatik ta'sir (kommunikantga ta'sir, muvaffaqiyatlimi yoki yo'q).	Muvofiqlik lingvistik birliklardan, strategiyalardan ijtimoiy kontekstda foydalanish.

Til o’ rganish	Til - fikrni ifodalash, saqlash va uzatish asosiyning vositasi, sifatida qaraladi. Til shakllari shaxsning dunyoqarashini, tildagi bilim va kognitiv tajribani kontseptuallashtirish usullarini aks ettiradi.	Muloqotning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga ta’sir qiluvchi omillar to’plamida (nutq xatti-harakatlarining xususiyatlari, dastlabki bilimlar, taxminlar, ijtimoiy normalar, nutq vaziyati) tilning ahamiyatini tushuntirish.	Tildan foydalanishning ijtimoiy-madaniy, interfaol va me’yoriy jihatlari, ma’lum bir ijtimoiy jihatdan aniqlangan kontekstda til birliklarining dolzarbligi va maqbulligini baholash.
Muloqot qilish	Og’zaki nutq va fikrlash faoliyati, tildan tartibli va tizimli foydalanishning orqasida maxsus - ijtimoiy - mafkuraviy, madaniy va tarixiy shartli mentalitet turadi.	Muayyan ijtimoiy guruh kommunikatsiyalarining xususiyatlari, nutq ishtirokchilari o’rtasidagi munosabatlar: nutq matnning pragmatlashtirilgan shakli sifatida.	O’zining interaktiv va ijtimoiy o’lchovlarida lingvistik xatti-harakatlar, turli kommunikativ vaziyatlarda ijtimoiy amaliyotning lingvistik ifodasi.
Ona tilini o’ qitishning asosiy maqsadi	Ta’lim oluvchilarning lingvistik va madaniy ongini shakllantirish.	Muloqotda pragmatik ta’sir ko’rsatish uchun eng samarali taktika va strategiyalarni aniqlash.	Ijtimoiy-madaniy kontekstda madaniyatlararo ijtimoiy o’zaro munosabatlar ko’nikmalarini shakllantirish.

Kognitiv-pragmatik yondashuvning xususiyatlarini ajratib ko’rsatish uchun barcha turdagi nutq omillarini hisobga olish muhimdir. N.F.Alefirenko kognitiv tilshunoslikka asoslangan lingvistik pragmatika shaxsning kommunikativ harakatlariga asoslanadi, ya’ni nutqni talqin qilish “kommunikativ jarayonning xilma-xil shaxsiy va ijtimoiy-madaniy tomonlarini hisobga olmasdan turib” namoyon bo’lishi mumkin emasligini ta’kidlaydi.

Ona tilini o’qitishda kognitiv-pragmatik yondashuv quyidagi o’qitish uslub va usullaridan samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi: interfaol usullar, tadqiqot usullari, evristik usullar, keys metodi, loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, voqealarga asoslangan ta’lim, STEAM texnologiyalari (S – Science (Fan), T – Technology (texnalogiya), E – Engineering (Muhandislik), A – Art (San’at), M – Mathematics (Matematika)), immitatsiya qilingan o’yinlar, rolli o’yinlar, sun’iy intellekt texnologiyalari.

Ona tili darslarida didaktik o’yinlardan foydalanish o’quvchilarning ham nazariy, ham amaliy bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Til ta’limida qo’llaniladigan o’yinlar qisqa vaqtga mo’ljallangan bo’lib, guruh bo’lib mashq qilishga odatlantiradi, oldindan tayyorgarlikni talab etmaydi. O’yinlar vaqtida kichik guruhlar faolligi ortadi, ta’lim ishtirokchilarining diqqati ishga (ta’lim jarayoniga) to’liq jalb etiladi. O’yinlar vositasida o’quvchilarga yangi bilimlar berish, ko’nikma hosil qilish, kichik guruhlar a’zolarining ijodiy qobiliyatlarini rag’batlantirish mumkin.

Ona tili darslarida qo’llaniladigan didaktik o’yinlarni maqsadiga ko’ra 7 turga ajratish mumkin:

1. Guruh bo’lib ishlash uchun sog’lom muhit tashkil etishga qaratilgan o’yinlar.
2. Umumiy qiziqishlarni aniqlashga yo’naltirilgan o’yinlar.
3. Guruhning birligini qo’llab-quvvatlovchi o’yinlar.
4. O’zaro bog’lovchi o’yinlar.
5. Rag’batlantiruvchi o’yinlar.
6. Ijodkorlikni rag’batlantiruvchi o’yinlar.
7. Yakunlovchi o’yinlar.

Quyidagi o'yinlar kognitiv-pragmatik maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning tilga oid bilimlarini boyitadi hamda tildan to'g'ri foydalanish qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi.

Popuri yoki ijodiy mashqlar

Bu o'yin ijodkorlikka da'vat etuvchi o'yinlardandir. O'yinni o'tkazishdan maqsad:

- tasavvurni o'stirishga da'vat etish;
- guruh bo'lib ishlashdagi zerikarli bir xillikni o'zgartirish.

Kichik ijodiy guruh a'zolari 8 o'quvchidan oshmasligi kerak. O'yin uchun 10 minut vaqt ajratiladi.

O'yinni o'tkazish uchun tavsiyalar. Guruh a'zolari davra qurib o'tiradilar. Sinf derazasiga yaqin o'tirgan o'quvchi o'z tasavvurida tug'ilgan qisqa jumlani aytadi (1-2 gapdan oshmasin). Masalan: *Bahor keldi. Mevali daraxtlar gulga burkandi.* Navbatdagi o'quvchi uzoq o'ylamasdan bog'li matn tuzishni davom ettiradi. Guruh a'zolari mavzu bo'yicha bog'li matn tuzishda assotsiatsiya, kontrast va alternativ holatlarni hisobga oladilar.

"O'zligingni angla" o'yini

Bu o'yin o'rganilgan mavzuga oid bilimlarni sinash maqsadida o'tkaziladi. O'yindan tilning barcha sathlarida foydalanish mumkin. O'yinni o'tkazish uchun qog'ozga o'rganilgan tushuncha nomi yoziladi. Tushuncha yozilayotgan qog'ozga turli shakllar berish o'yinning qiziqarli bo'lishiga yordam beradi. Qog'oz toj shaklida, tillaqosh shaklida bo'lishi mumkin. Bu qog'oz boshga kiyiladigan, o'rnashadigan bo'lishi kerak.

Biror o'quvchi doskaga chiqadi va uning boshiga maxsus moslama bilan toj yoki tillaqosh shaklida qog'oz kiydiriladi. O'quvchilarga tushuncha nomi ko'rinib turadi, lekin uni kiygan o'quvchiga ko'rinmaydi. Shundan so'ng o'quvchilar o'sha leksik yoki grammatik tushunchaga oid belgilarni, xususiyatlarni aytadilar. Tojni kiygan o'quvchi esa shu belgilar asosida o'ziga ko'rinmagan hodisaning nomini topishi kerak. Masalan, ma'nodosh so'zga xos quyidagi xususiyatlar o'quvchilar tomonidan aytiladi:

1. Ular ikki va undan ortiq bo'lib, bir umumiy ma'noni ifodalaydi.
2. Nutqni ta'sirchan qiladi.
3. Bir tushunchaning turli nomlaridir.
4. Ular bir-biridan salbiy yoki ijodiy ma'no bildirishiga ko'ra, harakatning tez yoki sekinligiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.
5. Ularni doimo ham almashtirib qo'llab bo'lmaydi.

O'quvchi shu belgi asosida o'zining "kimligini", ya'ni qaysi hodisa haqida so'z yuritilayotganini anglashi va aytib berishi lozim.

So'z turkumlari bo'limida ham shu o'yinni qo'llash mumkin. Masalan, sifat turkumi bo'yicha mustahkamlash darsida "Sifat" yozuvi tushirilgan qog'ozni bir o'quvchi boshiga taqiladi. Qolgan o'quvchilar sifatga xos belgilarni aytadilar:

1. Bu belgi bildiradi.
2. Gapda otga, ba'zan fe'lga bog'lanib keladi.
3. Qanday? so'rog'iga javob bo'ladi.
4. Daraja ifodalaydi.

O'quvchi uning sifat ekanligini aytadi. Bu bo'limdagi qolgan mavzularni o'rganish va mustahkamlashda ham mazkur o'yindan foydalanish mumkin. "Gap" bo'limida ham bu o'yin turidan shu tartibda foydalansa bo'ladi.

Xulosa. Shunday qilib, tilning kognitiv va pragmatik jihatini birlashtirish tilning lingvistik, madaniy, milliy-semantik makonini, kasbiy nutq aloqasining ijtimoiy-madaniy o'ziga xosligini o'rganishga, dunyo tasvirini modellashtirishga, lingvistik ong va til tuzilmalarini o'rganishga yo'naltirilgan. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugungi kunda ona tilini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida o'qitish dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Kognitiv-pragmatik yondashuvning bir qator afzalliklari mavjud. Ona tilini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida o'qitish tilni ham nazariy, ham amaliy jihatdan samarali o'zlashtirilishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Po'latov I., Odilov S. Ona tili ta'limida didaktik o'yinlar texnologiyasi. -Qo'qon, 2014. – 32 bet.

2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. -Toshkent: "Noshir", 2009. – 352 bet.

3. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. -Жиззах: "Сангзор" нашриёти, 2006. – 92 б.

4. Скребцова Т.Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций. – СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2011. - 256 с.

5. Sultonova G.M. Kognitiv lingvistika pragmatik tushunchalarning hosilasi sifatida. American journal of education and learning. Volume-3 Issue-3 2025. Published: 30-03-2025.

6. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). –Buxoro: "Durdona" 2021. – 424 bet.

Koshnazarova Maloxat Alimovna
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: maloxatkoshnazarova093@gmail.com

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNING YOZMA AKADEMIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA TIZIMLILIK JARAYONI ("AKADEMIK YOZUV" FANI MISOLIDA)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli ta'limni rivojlantirish borasida ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, sifatli ta'limni amalga oshirish, talabalarning yozma akademik kompetensiyasini rivojlantirishda tizimlilik jarayonini qo'llash masalalari bayon etiladi. Tizimlilik orqali fan o'qitilishini sifat jihatdan yuqoriga ko'tarish, zamonaviy bilimga ega bo'lgan, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularga hayotda qo'llay oladigan ko'nikmalarni shakllantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Shuningdek, akademik kompetensiyani rivojlantirish orqali ilmiy-tadqiqotlar sur'atlarini oshirish hamda yoshlarni ilmiy faoliyatga yo'naltirishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, tizimlashtirish, ko'nikma, akademik yozuv, kompetensiya, usul, yozma nutq.*

СИСТЕМНЫЙ ПРОЦЕСС РАЗВИТИЯ ПИСЬМЕННОЙ АКАДЕМИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕДМЕТА «АКАДЕМИЧЕСКОЕ ПИСЬМО»)

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы определения приоритетных направлений системного реформирования науки в сфере развития цифрового образования, внедрения качественного образования, применения системного процесса в формировании академической компетентности обучающихся. Цель - повышение качества естественнонаучного образования за счет системного подхода, подготовка высококвалифицированных специалистов, обладающих современными знаниями и независимым мышлением, развитие навыков, которые они смогут применять в жизни, а также повышения темпов научных исследований путем развития академической компетентности и ориентации молодежи на научную деятельность.*

Ключевые слова: *цифровизация, систематизация, навыки, академическое письмо, компетентность, метод, письменная речь.*

THE SYSTEMATIC PROCESS OF DEVELOPING STUDENTS' WRITTEN ACADEMIC COMPETENCE IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION (USING THE EXAMPLE OF THE SUBJECT "ACADEMIC WRITING")

Abstract. *The article discusses the issues of determining the priority directions of systemic scientific reform in the field of digital education development, the introduction of high-quality education, and the application of a systematic process in the formation of academic competence of students. The goal is to improve the quality of science education through a systematic approach, train highly qualified specialists with modern knowledge and independent thinking, develop skills that they can apply in life, as well as increase the pace of scientific research by developing academic competence and youth orientation towards scientific activities.*

Keywords: *digitization, systematization, skill, academic writing, competence, method, written speech.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

hamda 29.10.2020-yidagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmonlarida ta’kidlanganidek, raqamlashtirish davrida oliy ta’lim tizimida raqamli ta’limni rivojlantirish, talabalarning raqamli kompetentligini oshirish, ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega bo’lgan, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish [1] asosiy vazifalardan biri deb belgilangan. Shuningdek, yoshlarni ilm-fanga jalb etish ishlarini jadallashtirish hamda ilmiy-tadqiqotlar sur’atlarini oshirishni va yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni kelajakda ilmiy faoliyatga yo’naltirish masalalari ham keltirib o’tilgan.

Bugungi kunda, ta’limda raqamli texnologiyalarni qo’llash orqali raqamli bilim va ko’nikmalarni shakllantirish, fanni maksimal darajada samarali o’zlashtirish, turli o’quv loyihalari asosida talabalarni qiziqtiradigan tizimli topshiriqlar ishlab chiqish hamda o’z yo’nalishi bo’yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish pedagoglarning ham asosiy vazifasiga aylandi. Demak, bugungi kun o’qituvchisiga talabaga davr taqozo qilayotgan bilim va ko’nikma hosil qilishida o’z mutaxassisligi doirasidagi chuqur bilim va intellektual salohiyatning o’zi yetarli emas[2]. Bundan tashqari raqamlashtirish sharoitida nafaqat zamonaviy texnologiyalarni bilishi, balki talabalarni raqamli ko’nikmalar bilan ta’minlash uchun interaktiv va innovatsion metodlarni qo’llashi ham zarurdir. Ana shunday maqsadda raqamlashtirish sharoitida turli o’quv loyihalari asosida talabalarning yozma akademik kompetensiyasini tizimli topshiriqlar asosida shakllantirishni tadqiqotimizning asosiy maqsadi qilib qo’ydik. Raqamli texnologiyalar yordamida bu jarayonni samarali qilish, talabalarning yozuv ko’nikmalarini rivojlantirishda “Akademik yozuv” fanining o’rni nihoyatda kattadir. Chunki bu fan talabalarga ilmiy va yozma matnlarni yaratishda zarur ko’nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Rus olimi Korotkina I.B. “Akademik yozuv” fanini fan sifatida rivojlanishida juda uzoq faoliyat olib borgan. U o’zining «Академическое письмо: процесс, продукт и практика» nomli darsligida talabalarning akademik yozma savodxonligini tinmay oshirish, ularga akademik ko’nikmalarni ham tizimli ravishda shakllantirish bo’yicha aniq fikrlarni keltiradi. Yana shuni ta’kidlaydiki, qisqa yozish va aniq yozish bu hammaga berilmagan.

Nutq rivoji uchun zarur muhit yetarli emas – Bolaning nutqini rivojlantirishda til muhiti, ya'ni bolalar bilan muloqotga kirishadigan odamlarning sifati va soni muhim rol o'ynaydi. Agar guruhda bolalar soni ko'p, lekin tarbiyachilar yoki yordamchi mutaxassislar (nutq terapevti, psixolog) kam bo'lsa, individual yondashuv ta'minlanmaydi. Bolaning nutqiy rivojlanishi – bu nafaqat tabiiy jarayon, balki ongli va tizimli ta'lim-tarbiya faoliyatining mahsulidir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning to'g'ri va ravon so'zlay olishi, boy so'z boyligiga ega bo'lishi, nutqiy tafakkuri shakllanishi uchun maqsadli yondashuv zarur. Ushbu jarayonda til muhiti va individual yondashuv muhim omillar sifatida ajralib turadi. Til muhiti – bu bola atrofidagi nutqiy faoliyat, ya'ni u eshitayotgan, ko'rayotgan va o'rganayotgan til asosidagi muhitdir. Bolaning nutqiy rivojiga eng avvalo uning kimlar bilan, qanday tilda va qanday mazmundagi muloqotda bo'layotgani kuchli ta'sir

ko'rsatadi. Tarbiyachi, yordamchi tarbiyachi, guruhdoshlar, ota-onalar va boshqa kattalar bolaning til muhitini shakllantiruvchi asosiy shaxslardir. Agar bu shaxslarning nutqi boy, ifodali, grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa, bu bola uchun mustahkam til namunasi vazifasini bajaradi.

Ammo amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhdagi bolalar soni ko'p, tarbiyachilar va ayniqsa, yordamchi mutaxassislar (logoped, psixolog, defektolog) esa kam. Bu esa har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Har bir bola o'zining nutqiy rivojlanish darajasi, tilga bo'lgan qiziqishi, eshitish va talaffuz qilish ko'nikmalari, hamda psixologik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Shunday sharoitda tarbiyachi barcha bolalarga bir xil yondashsa, nutqiy rivojlanishda orqada qolayotgan bolalar e'tibordan chetda qoladi.

Metodik yondashuvlarning eskiligi – Ba'zi hollarda nutqni rivojlantirish metodikasi zamonaviy talablarga mos emas, interaktiv, o'yin orqali o'rgatish usullari yetarlicha qo'llanilmaydi. Bu esa bolalarning qiziqishini kamaytiradi va faol ishtirokini cheklaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan nutqiy rivojlantirish ishlari doimiy yangilanib borishi, zamonaviy ta'lim yondashuvlari bilan boyitilishi lozim. Chunki bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan metodlar ularning yosh xususiyatlari, psixologik holati va nutqiy ehtiyojlariga mos bo'lishi kerak. Afsuski, ba'zi hollarda amaliyotda qo'llanilayotgan nutqni rivojlantirish metodikasi eskirgan, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan yiroq bo'ladi. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xususan, interaktiv usullar va o'yin texnologiyalari yetarli darajada qo'llanilmayotgani – dolzarb muammolardan biridir. Bolalar tabiatan harakatchan, faol, o'yin orqali o'rganishga moyil bo'ladilar. Ular uchun har qanday yangi bilim – bu o'yin shaklida bo'lsa, yodda saqlash va uni qo'llash oson kechadi. Shunday ekan, nutqni rivojlantirishda: *rolli o'yinlar, suhbatli dramalar, didaktik o'yinlar, savol-javob asosidagi interaktiv mashg'ulotlar, rasm, harakat, musiqa orqali ifoda usullari* kabi faoliyat turlarining keng qo'llanilishi katta ahamiyatga ega.

Ammo ba'zan metodik yondashuvlar o'ta rasmiy, quruq va faqat eslab qolishga asoslangan bo'ladi. Masalan, bolaga yangi so'zlar oddiy takrorlash orqali yodlatiladi yoki so'zlarni "esla va ayt" kabi passiv usulda o'rganishga to'g'ri keladi. Bunday mashg'ulotlar bolaning qiziqishini sustlashtiradi, u faollik ko'rsatmaydi, nutqiy ehtiyojni his qilmaydi.

Bundan tashqari, ba'zi tarbiyachilar nutqni rivojlantirish mashg'ulotlarini darsga aylantirib yuboradi – bu esa bolada kuchli ixtiyoriy e'tibor talab etadi. Maktabgacha yoshdagi bola esa hali bu darajadagi kontsentratsiyaga tayyor emas. Shuning uchun ta'lim – o'yin orqali, bolaga zavq baxsh etadigan shaklda tashkil etilishi zarur.

Oilaviy muhit bilan uzviy aloqaning yetishmasligi – Bola nutqini rivojlantirish faqat bog'chada emas, balki oilada ham davom etishi kerak. Agar ota-onalar bolaning nutq rivojiga yetarli e'tibor bermasa yoki noto'g'ri namuna ko'rsatsa, bog'chadagi ishlar samarasiz bo'lishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar orasida nutqni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Bu jarayon ko'plab muassasalarda – xususan, bog'chalarda – tizimli yo'lga qo'yilgan. Ammo bolalar har kuni bog'chada atigi 5–6 soat vaqt o'tkazadi. Qolgan vaqt esa ularning asosiy tarbiyachilari bo'lgan ota-onalar bilan o'tadi. Shunday ekan, bolaning nutqiy rivojlanishi faqat bog'chada emas, balki oilada ham davom etishi zarur.

Afsuski, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab ota-onalar bu jarayonga yetarli e'tibor qaratmaydi. Ba'zan ular bolaning nutqi "o'zi o'z vaqtida chiqadi" degan noto'g'ri fikrga amal qilib, faollik ko'rsatmaydi. Yana ba'zi holatlarda esa bola yomon til namunasiga duchor bo'ladi – noto'g'ri talaffuz, cheklangan so'z boyligi, ifodaviy bo'lmagan muloqot, qo'pollik yoki loqaydlik uning nutqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola bilan har kuni doimiy ravishda muloqot qilish, unga savollar berish, fikrini tinglash va to'g'ri javoblar orqali nutqiy faoliyatini rag'batlantirish zarur. Ota-onalar bolaga "nimani ko'ryapsan?", "bu nima?", "bu haqida nima o'ylaysan?" kabi ochiq savollar berib, uni fikrlashga undashi kerak. Agar ota-onalar bolaning nutqiy rivojiga loqayd bo'lsa yoki noto'g'ri yondashuvni tanlasa, bog'chadagi tarbiyachilarning barcha sa'y-harakatlari natijasiz bo'lishi mumkin. Shu bois, nutqiy rivojlanish – oila va bog'chaning hamkorlikda olib boradigan mas'uliyatli ishlari yig'indisidir. Har ikki muhitda – ta'lim muassasasida ham, oilaviy muhitda ham sifatli, quvnoq, emotsional va mazmunli muloqot ta'minlangan taqdirdagina, bola to'liq va sog'lom nutqqa ega bo'ladi.

Bolalarning individual nutq rivojlanish darajasi hisobga olinmaydi – Har bir bolaning nutq rivojlanish sur'ati har xil. Ammo bir xil yondashuv barcha bolalarga bir xil tarzda qo'llansa, bu ba'zilar uchun samarali bo'lmasligi mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar nutqini rivojlantirishda odatda yagona metodik yondashuv yoki umumiy dars rejasi qo'llaniladi. Biroq unutmang: har bir bolaning nutqiy rivojlanish sur'ati, individual ehtiyojlari, psixologik holati va ijtimoiy tajribasi boshqalarnikidan farq qiladi. Shunday ekan, barcha bolalarga bir xil yondashuvni tatbiq etish – ularning barchasida ijobiy natijani kafolatlay olmaydi. Ba'zi bolalar 3 yoshdan boshlab to'liq gap tuzishni boshlaydi, murakkab iboralarni qo'llaydi va muloqotga faol kirishadi. Boshqalar esa 5–6 yoshgacha ham so'z boyligi jihatidan cheklangan bo'lishi mumkin. Agar ularga bir xil vazifalar va o'yinlar berilsa, kuchli rivojlangan bolalar zerikadi, orqada qolganlar esa tushkunlikka tushadi va o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Barcha bolalarga bir xil tarzda yondashish – qulaylik yaratadigan, ammo samaradorlikni kamaytiradigan yondashuvdir. Bola markazidagi yondashuv – ya'ni har bir bolaning rivojlanish sur'atini, ehtiyojini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda metod tanlash – eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Shundagina maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan nutq rivojlantirish ishlari haqiqiy natija beradi va har bir bola o'ziga mos shaklda rivojlanadi.

Tarbiyachilarning nutq rivojlantirish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega emasligi – Ba'zi hollarda tarbiyachilar til rivoji, fonetik-talaffuz mashqlari, so'z boyligini oshirish bo'yicha yetarli bilimlarga ega emas bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'limda tarbiyachilar bolalar bilan bevosita ishlaydigan, ularning har tomonlama, ayniqsa, nutqiy rivojlanishiga eng ko'p ta'sir ko'rsatadigan shaxslar hisoblanadi. Ammo ayrim hollarda tarbiyachilarning til rivoji, fonetik-talaffuz mashqlari yoki so'z boyligini oshirish metodikasi bo'yicha chuqur bilimga ega emasligi bolalarning nutq rivojida sustkashlikka sabab bo'ladi. Tarbiyachilar uchun nutq rivojiga doir yangilangan metodikalar, psixolingvistik yondashuvlar, logopedik mashqlar bo'yicha muntazam seminar, trening va malaka oshirish kurslarini tashkil etish muhimdir. Aks holda ular mavjud bilim doirasida cheklanib qoladilar va yangi avlod talablariga javob bera olmaydilar.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko'tarilgan ulug'vor vazifalaridan biridir. Bu tizimning asosiy maqsadi bolalarni sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlash, erta yoshlikdan o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qishga tayyorlab borishdan iborat. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash barkamol rivojlangan mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish va qobiliyatlarni ochib berish tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Bundan tashqari Prezidentimiz bu haqda shunday degan edi: "Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik tomondan tarbiyalashdek, maqsadni o'z oldiga qo'ygan. Bu maqsad esa, bolalarga ona tilini o'rgatish jarayonida amalga oshiriladi. Bog'chada og'zaki nutqni o'stirish natijasida bola aqlan rivojlanib, uning umumiy madaniy saviyasi oshadi. U tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini tushunib boradi. Bolada nutqning rivojlanishi uning ruhiy jihatdan ham takomillashib borishiga yordam beradi. Yani nutqiy salohiyatini rivojlantiruvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, bolalarga chuqur bilim berish maktabgacha va boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. 6-7 yoshgacha bolgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi.

Natijalar. Tabaqalashtirilgan yondashuv – bu o'quv jarayonini bolalarning bilim saviyasi, qiziqishi, tili rivojlanish darajasi, o'rganish uslublari va emotsional ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etishdir. Bu metod pedagogga har bir bola uchun individual yondashuvni tanlashga imkon beradi.

Nutqni rivojlantirishning bosqichlari:

Tinglab tushunish
So'zlarni tanib olish
Gapirishga harakat qilish
Oddiy savol-javob

Bolalar guruhi	Metodik yondashuv
Yangi boshlovchilar	Vizual materiallar, mimika, musiqa asosida
Faol auditoriya	O'yinli topshiriqlar, savol-javob mashqlari
Kam faol auditoriya	Jamoaviy qo'shiq aytish, kartochkali o'yinlar
Tez o'zlashtiruvchilar	Mini-dialoglar, rolli o'yinlar

1-jadval. Tabaqalashtirish asosida metodlar

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishda tabaqalashtirilgan yondashuv ularning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Har bir bola o'ziga xos tarzda o'zlashtiradi, shu sababli o'qituvchining moslashuvchan yondashuvi, didaktik materiallar va o'yin elementlari bilan boyitilgan darslar samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, bu metod bolalarda chet tiliga ijobiy munosabat va nutqiy faollikni shakllantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishi murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, bu borada til muhiti, metodik yondashuvlar, individual ehtiyojlarni hisobga olish hamda oilaviy muhit bilan bog'chaning hamkorligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Amaliyotda esa bu omillarning ko'plab kamchiliklari kuzatilmoqda: guruhlardagi ortiqcha bola soni, mutaxassislar yetishmovchiligi, metodik yondashuvlarning eskirganligi, interaktiv va o'yin shaklidagi mashg'ulotlarning yetarlicha qo'llanilmasligi, oilaviy e'tiborning sustligi va individual yondashuvning yo'qligi kabi muammolar mavjud. Shuning uchun bolalarning nutqiy rivojlanishini samarali ta'minlash uchun zamonaviy, bola markazidagi, interaktiv va emotsional o'yinlarga boy metodikalar asosida yondashuv zarur. Shuningdek, tarbiyachilar, mutaxassislar va ota-onalarning hamkorligi asosida boy, ifodali, mazmunli til muhitini shakllantirish orqali bolalarning to'laqonli nutqiy rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Dursunov Sardor, & Nigora Axtamova (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish. Academic research in educational sciences, 4 (TMA Conference), 1040-1045.
2. D.R. Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2018, - 432 b.
3. Мелибаева, Р. Н. (2022). Клиник амалиётда когнитив функциялар ва уларнинг бузилишлари психодиагностикаси. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 928-932.
4. Narmetova, Y. K. (2016). Organization of the psychological support in the cardiology clinics. Theoretical & Applied Science, (7), 28-31.
5. Дурсунов, С. А., & Косимова, Н. Х. (2023). Роль воспитание детей в семье. Scientific Impulse, 1(8), 725-727

Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna
Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

O'ZBEK OILASIDA ONA VA BOLA MUNOSABATLARI OILAVIY EMOTSIONAL HOLAT OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada o'zbek onalardagi bolaga munosabatning ustuvor yondashuvlari hamda ularning o'smir yoshdagi farzandlarida oilaviy hayot bilan bog'liq salbiy his kechinmalar o'rtasidagi aloqadorlikni tadqiq etish borasidagi ilmiy izlanish natijalari taqdim etilgan. Shuningdek maqolada onaning bola bilan bo'lgan munosabatda unga hissiy yaqinlikni namoyon etuvchi taktikalardan foydalanishi farzandda oilaviy hayotda uchrashi mumkin bo'lgan salbiy kechinmalar darajasini pasaytirishi, aksincha ona tomonidan avtoritarizm va infantilizatsiya tipidagi munosabatning qo'llanishi bolada salbiy oilaviy his kechinmalarni oshirishi borasidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ona, farzand, oilaviy munosabat, yondashuv, avotir hissi, aybdorlik hissi, hissiy yaqin olish, simbioz, infantilizasiy, avtoritar munosabar, kooperatsiya, infantilizatsiya.*

ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ МАТЕРЬЮ И РЕБЁНКОМ В УЗБЕКСКОЙ СЕМЬЕ КАК ФАКТОР СЕМЕЙНОГО ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ

Аннотация. *В статье представлены результаты научного исследования, изучающего взаимосвязь между приоритетными подходами узбекских матерей к своим детям и негативным опытом, связанным с семейной жизнью, у их детей-подростков. В статье также проводится мысль о том, что использование матерью тактик, демонстрирующих эмоциональную близость в отношениях с ребенком, снижает уровень негативного опыта, с которым ребенок может столкнуться в семейной жизни, и, наоборот, использование матерью авторитаризма и инфантилизации усиливает негативный семейный опыт у ребенка.*

Ключевые слова: *мать, ребенок, семейные отношения, подход, чувство ответственности, чувство вины, эмоциональная близость, симбиоз, инфантилизация, авторитарные отношения, сотрудничество, инфантилизация.*

MOTHER-CHILD RELATIONSHIPS IN UZBEK FAMILIES AS A FACTOR OF FAMILY EMOTIONAL STATE

Abstract. *The article presents the results of a scientific study on the relationship between the priority approaches of Uzbek mothers to their children and the negative feelings associated with family life in their adolescent children. The article also presents the idea that the use of tactics by the mother in her relationship with the child that demonstrate emotional closeness to him reduces the level of negative feelings that the child may experience in family life, while the use of authoritarianism and infantilization by the mother increases negative family feelings in the child.*

Keywords: *mother, child, family relationship, approach, sense of responsibility, sense of guilt, emotional closeness, symbiosis, infantilization, authoritarian relationship, cooperation, infantilization.*


Kirish. Oilaning inson hayotidagi o'rni uning bajaradigan ko'p sonli funksiyalari mazmunida yaqqol aks etadi. An'anaviy madaniyat sharoitida oila insonning to'laqonli rivojlanishi, ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli qo'shilishi, qolaversa, zarurat tug'ilganda qo'llab-quvvatlashini ta'minlashga safarbar etiladi. Odamning sog'lom hayot kechirishi, turli stressorlar ta'siriga bardoshli bo'lishida, ayniqsa, oilaning feliositologik, psixoterapevtik funksiyalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila insonning hissiy-emotsional ehtiyojlarini qondirishi bilan nihoyatda yuksak maqomga ega bo'ladi. Oilada iliq do'stona muhit hukm surishi, o'zaro tushunish va doimo empatiya uchun tayyorlik, oila a'zolaridan ma'naviy dalda, hech qanday shartsiz istalgan vaqtda samimiy ko'mak va ruhlantirish olinishiga ishonch, shubhasiz, insonning butun hayoti va faoliyatidagi barcha ijobiy natijalarning poydevoridir.

Oilaviy munosabatlarda ijobiy emotsional modallik ustun bo'lishi nafaqat bolalar sog'lom psixologik muhitda voyaga yetishi, balki oilaning barcha a'zolari o'zini xotirjam sezishi, barqaror xushkayfiyatda bo'lishi nuqtai nazaridan ham o'ta muhimdir. Shuning uchun oila a'zolarining oilaviy hayotdagi turli masalalarni qanday emotsional holat bilan qarshi olishi, ularda qaysi turdagi his-kechinmalar ustuvor bo'lishini, buni belgilab beruvchi omillarni o'rganish dolzarbdir. Xususan, onalarning bolaga bo'lgan munosabati farzandning oilaviy his-tuyg'ulariga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tekshirish ushbu omilning rolini to'g'ri baholash, uning salbiy asoratlarini o'z vaqtida cheklash uchun imkoniyatni oshiradi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotimizda onalar o'rtasida A.Y.Varga va V.V.Stolinning "Ota-ona munosabati test-so'rovnomasi", o'smirlik yoshidagi farzandlar bilan E.G.Eydemiller va V. Yustitskis ishlab chiqqan "Oiladagi xavotir tahlili" so'rovnomasi o'tkazildi. Natijalarni qayta ishlash uchun esa chastotali tahlil va Pirson chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash metodidan foydalanildi. Natijalarning statistik qayta ishlanishi ortidan aniqlangan ko'rsatkichlar ikki o'zgaruvchilar, ya'ni onalarning bolalarga munosabatidagi ustuvor yondashuvlar hamda bolalarda salbiy oilaviy emotsiyalar o'rtasida e'tiborli bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatdi.

Olingan tadqiqot natijalaridan aniqlanadiki, bolaga bo'lgan munosabatning ayrim turlari undagi oilaviy hayot bilan bog'liq ba'zi salbiy his-kechinmalarga asos bo'lishi mumkin. Jumladan, simbiotik va infantillashtiruvchi munosabat asosan oilaviy hayotda xavotir hissi ustunlik qiluvchi vaziyat bilan, yaqin olish va avtoritarizm munosabati ustunligida oiladagi hayotda aybdorlik hissi holati bilan bog'liqligi qayd etildi.

Birinchi holatda, nazarimizda, simbioz va infantilizatsiya bolani ona bilan shu qadar bog'lab, o'rtada nosog'lom tobelikni hosil qiladiki, natijada bola onasidan uzoqlashish, uning ruxsatisiz biror ishga qo'l urish, umuman, mustaqillikni qo'lga olish zarurati vaziyatlaridan xavotirga tushadi. Infantilizatsiya tipidagi munosabat sharoitida bolada oilaviy hayotdagi tajanglik hissi ko'rsatkichlari yuqori bo'lishini tasdiqlaydi. Zero, infantillashtiruvchi munosabat ortidan bola onasi yonida bo'lmay qolib, yordam berolmaganda, o'z holida qoldirilganda asabiy zo'riqish his etishi tabiiy.



1-rasm. Bola bilan munosabatning ustuvor strategiyasi bo'yicha farqlanuvchi onalarning o'smir farzandlarida oiladagi salbiy his kechinmalar nisbati (% hisobida).

Ikkinchi holatda avtoritarizmning oiladagi hayotda aybdorlik hissiga ko'proq hissa qo'shishi ortida bosim o'tkazish uslubiyoti ko'pincha ta'sir obektida vijdon azobini qo'zg'atuvchi yondashuv bilan kelishi tufayli, deb hisoblaymiz. Aynan vijdon qiynoqlarini ekspluatatsiya qilish vaziyatida

tarbiyalanayotgan bola oilaviy hayotda amalga oshirayotgan ayrim ishlari natijasida aybdorlik his qilishga o'rganib qolishi mumkin.

Xuddi shuningdek, yaqin olish tipidagi munosabatning oilaviy hayotda aybdorlik hissiga borib bog'lanishini hissiy yaqin insonlar bir-birini turli vaziyatlarda uyaltirib qo'yishdan qo'rqishi bilan tushuntirish mumkin. Boshqacha aytganda, avtoritarizm aybdorlik hissi ko'rinishida, yaqin olish esa uyat hissi shaklida oiladagi hayot bilan bog'liq salbiy kechinmalarga sabab bo'lishi ehtimoli mavjud.

Shuningdek, keltirilgan natijalar (1-jadval) dan ayon bo'ladiki, oilaviy hayotda xavotirlik hissining ortishi ona va farzandni bir-biridan uzoqlashtiradi. Bu holat "kooperatsiya-xavotir", "yaqin olish-xavotir", "simbioz-xavotir" juftliklarida korrelyatsion aloqaning teskari, ya'ni manfiy modallikka egaligida aks etadi. Darhaqiqat, xavotir emotsional holat sifatida mumtoz psixologik nazariyalar bo'yicha hali ro'y bermagan, ammo amalga oshishi ortidan odamga muayyan ziyon yetishi ehtimoli bo'lgan voqea-hodisalarga nisbatan uyg'onishini e'tiborga olsak, bunday hissiy kechinma ustun bo'lib turganda odam imkon qadar uning obektiga yaqinlashmaslik uchun, undan nari ketishga harakat qilishi tabiiy. Ehtimol, aynan shuning uchun oilaviy xavotirning yuqori bo'lishi o'z navbatida yaqin munosabatda bo'lish, kooperativ hamkorlikni yo'lga qo'yishga intilish ko'rsatkichlarida past natijalarga sabab bo'ladi.

1-jadval

Bolaga munosabatdagi ustuvor yondashuv va o'smir farzandlardagi salbiy oilaviy his kechinmalar o'rtasidagi aloqadorlik ko'rsatkichlari

(Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha)

Bolaga munosabatdagi ustuvor yondashuvlar	Salbiy oilaviy his kechinmalar turlari		
	Oilaviy hayotda aybdorlik hissi	Oilaviy hayotda xavotir hissi	Oilaviy hayotda asabiy tajanglik
Yaqin olish	-0,28*	-0,42***	-0,32**
Kooperatsiya	0,02	-0,24*	0,12
Simbioz	0,27*	-0,22*	0,36**
Avtoritarizm	0,57***	0,14	0,32**
Infantilizatsiya	-0,23*	0,34**	0,24*

Manfiy korrelyatsion aloqadorlik shuningdek, oilaviy hayotdagi tajanglik hamda yaqin olish shkalalari o'rtasida ham qayd etilgan. Bundan ko'rinadiki, oila muhitida uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar qanchalik tarang bo'lsa, iqlim salbiy his-kechinmalar bilan to'yingan holatga yetsa, odamlar bir-biriga intilishi, o'zaro yaqinlik istashi shunchalik past bo'ladi. Bunday talqin bir qarashda go'yoki tajanglik va simbioz munosabatlar o'rtasida statistik ahamiyatli musbat korrelyatsiya mavjudligi bilan shubha ostiga qo'yilishi mumkindek ko'rinadi. Ammo bunday holatning izohini, nazarimizda, parallel ravishda avtoritarizm va tajanglik o'rtasida musbat korrelyatsiya mavjudligidan topish mumkin.

Bir tomondan, tajanglik va simbioz, ikkinchi tomondan, tajanglik va avtoritarizmning musbat korrelyatsiyasi shundan darak beradiki, oilaviy hayotda tajanglik emotsional holati yetakchiligi sharoitida bolani o'ziga simbioz darajasida bog'lab olish albatta, avtoritar uslubda, ruhiy-jismoniy bosim hisobiga amalga oshiriladi. Balki, oilaviy hayotdagi tajanglik ortidan farzand ota-onadan uzoqlashib borayotgani (yaqin olish shkalasi bo'yicha manfiy korrelyatsiya) ni his etayotgan kattalar o'sha o'rtadagi yaqinlikni qanday bo'lmasin saqlab qolish uchun zo'ravonlik yo'llaridan bo'lsa ham foydalanishga harakat qilishlari mumkin. Bunday taktika shubhasiz, ongsiz motivlarning ta'sirida kechib, bizning fikrimizcha, har bir insonning o'ziga nisbatan avvalo, o'z ko'z o'ngida ijobiy nuqtai nazarni saqlab qolishga, pozitiv baholashga ehtiyojmand ekani bilan bog'liq. Ota-ona va farzand munosabatlarida, umuman, oila muhitidagi o'zaro ta'sirlashuvda bu qonuniyat yanada kuchliroq namoyon bo'lishi mumkin. Zero, har bir inson avvalo, o'zining yaqinlari nigohida mukammal ko'rinishni istaydi. Shundan kelib chiqqan holda, bolasi bilan tajang oilaviy muhit sharoitida ijobiy munosabat, to'laqonli kooperatsiya qura olmayotgan ota-onalar o'sha o'ziga nisbatan hurmat va

pozitiv bahoni saqlab qolish uchun qanday bo'lmasin, hatto, majburlash va ta'ziyq hisobiga bo'lsa ham, bolani o'ziga bog'lab olishga intilishlari ortidan shunday korrelyatsion aloqalar qayd etilayotganini ta'kidlash o'rinli, deb hisoblaymiz.

Xulosa. Demak, o'zbek onalardagi bolaga munosabatning ustuvor uslubiyoti hamda ularning o'smir yoshdagi farzandlarida oilaviy hayot bilan bog'liq salbiy his kechinmalar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Onaning bola bilan bo'lgan munosabatda unga hissiy yaqinlikni namoyon etuvchi taktikalardan foydalanishi farzandda oilaviy hayotda uchrashi mumkin bo'lgan salbiy kechinmalar darajasini pasaytiradi.

2.Ona tomonidan avtoritarizm va infantilizatsiya usullaridagi munosabatning qo'llanishi bolada salbiy oilaviy his kechinmalar ehtimolini keskin oshiradi.

3. O'zbek oilasida bola bilan bo'lgan munosabatda onaning yaqin olish uslubi bilan birga kooperatsiyaga e'tibor qaratishi ijobiy oilaviy his-kechinmalarga omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Варга А. Я., Драбкина Т.Я. Системная семейная психотерапия. Краткий лекционный курс. – СПб.: Речь, 2001. – 144 с.

2. Эйдемиллер Э., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. - 4-е изд., перераб. и доп. - Москва: Питер, 2008. – 668 с.

3. Abdullayeva D.U. Ota-ona va farzand o'rtasidagi destruktiv munosabat bolalarda agressiv xulq shakllanishi omili sifatida. // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar.–Buxoro, 2023. №5. –B.313-316.

4. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога: Уч. пособие: В 2 кн. – 3-е изд. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. – кн.2: Работа психолога со взрослыми. Коррекционные приемы и упражнения. – 480 с.

5. Эйдемиллер Э. Г. Методы семейной диагностики и психотерапии: Методическое пособие / Под общ. ред. Л.И.Вассермана. – М.: Фолиум, 1996. – 48 с.

6. Эйдемиллер Э., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. - 4-е изд., перераб. и доп. - Москва: Питер, 2008. – 668 с.

7. Abdullayeva D.U. Establishing a relationship between a mother and a teenage child. // Frontline social sciences and history journal. Volume 03 №2. 2023. P 18-26. - https://frontlinejournals.org/journals/index.php/fsshj/article/view/314

8. Абдуллаева, Д. (2023). Оилавий тарбия бола шахси ривожланишини белгиловчи омил сифатида. // *Педагогики и психологии в современном образовании.* https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8963

9. Абдуллаева, Д. (2023). Оилада ота-она ва фарзанд муносабатларининг ўзига хослиги. - Б. 226-232. https://cyberleninka.ru/article/n/oilada-ota-ona-va-farzand-munosabatlarining-ziga-hosligi/viewer

10. Abdullayeva D.U. Appearance of ethnopsychological factors in therelationship of mother and child in the uzbek family. American journal of social sciences and humanity research. Volume 03 №12. 2023. - P. 170-175.

“BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-amaliy jurnalida maqolalar chop ettirish tartiblari haqida

1. Ilmiy maqolalarning hajmi 3000-4000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

2. Maqolaning asosida matnning kamida 60-70 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim (topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi).

3. Maqolaning matni, formula va jadvallarni **Microsoft *Word* (*2003-2010 versiyasida*)** dasturidan foydalanib tayyorlash kerak.

4. Windows asosidagi matn *dasturi redaktorining parametrlari*:

- 2 sm dan standart hoshiyalar qolishi kerak;
- shrift Times New Roman, kegel – 12;
- satrlar orasidagi interval – 1 sm.;
- matnni kengligi bo’yicha tekislash;
- abzats 1 sm;
- sahifani tanlash uchun oriyentatsiya – kitob sahifasi;
- MS Word dasturi yordamida ishlangan rasmlar qabul qilinmaydi. Barcha rasmlar va jadvallar nomerlanishi, nomlanishi hamda manbasi ko’rsatilishi shart.

5. Grafik va diagrammalar oq-qora formatda bo’lishi zarur.

***Ilmiy maqolaning tuzilishiga nisbatan ilgari suriladigan talablar*:**

1. Muallifning ORCID raqami bo’lishi shart.

2. Maqolaning nomi 12 so’zdan oshmasligi kerak va UDK raqamlari bo’lishi lozim.

3. Maqola muallif(lar)i ismi-sharifi; ilmiy unvoni, darajasi, oliy ta’lim muassassi (*tashkilot*)ning nomi, ish joyi, egallab turgan lavozimi, ish joyi manzili (*qisqartmalar ishlatilmasin!*). Mualliflar bir nechta bo’lsa ularning har biri haqida to’liq ma’lumotlar berilishi shart; (barcha ma’lumotlar 3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

4. Material matni tuzilishi jihatidan

Kirish

Metodlar

Natijalar va Munozara (Introduction, Methods, Results, and Discussion, Conclusion)ga ajratilishi, har bir bo’limi uchun sarlavhalar berilishi kerak.

Quyida keltirilgan misolga e’tibor bering:

Annotasiya (Abstract) (150-200 so’zdan iborat bo’lishi kerak) (3 tilda:o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart**)**

Вводная информация/актуальность (Background):

− Цель (Objective);

− Методы (Methods);

− Результаты (Findings);

− Выводы (Conclusions);

Ключевые слова (Keywords). (3 tilda: o’zbek, rus, ingliz tillarida bo’lishi shart)

ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

МЕТОДЫ (Methods)

РЕЗУЛЬТАТЫ (Results) (CHIZMA, JADVALLAR bo’lishi shart)

ОБСУЖДЕНИЕ (Discussion)

ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot uyi*. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

MAHALLADA PSIXOLOGIK XIZMAT IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA (3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)

Barotova Dilafruz Sharifovna,

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti "O'quv ishlari va ilmiy innovatsiyalar bo'yicha prorektor" psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent ***(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)***

https://orcid.org/ **0000-0002-2100-3222**

Annotatsiya. 150-200 so'zdan iborat bo'lishi kerak. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**

Kalit so'zlar: 8-10 ta. **(3 tilda: o'zbek, rus, ingliz)**

KIRISH. ВВЕДЕНИЕ (Introduction)

METODLAR. МЕТОДЫ (Methods)

NATIJALAR. MULOHAZA. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and Discussion) (ChIZMA, JADVALLAR bo'lishi shart)

Xulosa va tavsiyalar. ЗАКЛЮЧЕНИЕ (Conclusion)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. Familiya, I.O. (2016). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Elektron manzili. URL:

2. Familiya, I.O., Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*, 15(1), 24-32 s. Elektron manzili. URL:

3. Familiya, I.O. (2017). *maqola nomi. Shahar: nashriyot*. Retrieved from http://lkds;j

DIQQAT: O'ZBEK TILIDAGI BARCHA YOZUVLAR LOTIN ALIFBOSIDA

Mundarija /Содержание/Contents

	19.00.00 – PSIXOLOGIYA
5	**Abdullayeva Zeboxon Odoljonovna** Jon Boulbi nazariyasi va bolaning ruhiy salomatlik muammosi
9	**Abduraximova Shaxnoza Raxmonjonovna** O'quv faoliyatida talabalarning stressga bardoshliliкni ijtimoiy-psixologik jihatlari
14	**Ibodullayev Ibodullo Fazliddin o'g'li** Bemorlarga psıxologık xızmat ko'rsatıshda gıpnoterapıyanıng ıjtımoıy-psıxologık xususıyatları
17	**Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li** Individual munosabatlarda noverbal kommunikatsiya elementlarining ko'rinishlari
22	**Axadova Sabina Qo'shmurod qizi** O'quvchilar nutqini rivojlantirishda muloqotni shakllantirish usullari
27	**Barotov Shuxrat Sharipovich** Bojxona xodimlari kasbiy kompetentligini rivojlanishida innovatsion-psixologik omillarning namoyon bo'lishi
31	**Haydarov Shaxriyor Shuxrat o'g'li** O'spirinlar guruhiga psixologik xizmat ko'rsatishning uslubiy asoslari
35	**Ibroximova Nasiba Nodir qizi** Talabalarda emotsional so'nishning ilmiy-nazariy asoslari
38	**Ishankulova Gulzoda Baxromovna** O'zbek oilalarida gender munosabatlar namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari
45	**Islamova Sayara Sadikovna** O'spirinlarda motivatsion va irodaviy sifatlar rivojlanishining yetarli emasligi prokrasti-natsiya shakllanishidagi determinant omil sifatida
49	**Ismoilov Nortoji Kenjayevich** O`zbek olimlari va sharq mutafakkirlari asarlarida oilada shaxslararo munosabatlar masalalarining o'rganilishi
52	**Karimjonova Madinabonu Rahmatilla qizi** Bog'cha yoshidagi bolalar nutq faoliyati va uning xususiyatlari
57	**Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich** Informatıka yo'nalıshıdagı bo'lajak pedagoglarda ıjtımoıy faollık va tashkılotchılık qobılıyatını rıvojlantırısh yo'lları
61	**Muzaffarova Gulnoza Muzaffar qizi** O'quvchilarda kasb tanlash muammosini o'rganilishning nazariy jihatlari
67	**Pulatova Farida Azamovna** Metakognitiv strategiyalar va refleksiv o'rganish jarayonlari orqali talabalar tanqidiy-ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari
72	**Qonirbayev Dastan** Bokschilarning tezlik sifatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari
76	**Quvondiqov Hamza Olimboyevich** Ichki ishlar xodimlarida psixik barqarorlik jarayonining psixologik komponentlari
80	**Rajabova Go'zal Zarifovna** Talabalarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari
84	**Rustamova Munisa To'lqin qizi**

	Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida emotsional intellektning ahamiyati
89	**Saidova Yulduz Akbarjon qizi** O'smirlar o'zaro munosabatlarida ishonch hissi namoyon bo'lishininng pozitiv va negativ tomonlar
94	**Shamsiddinov Botirjon Nuriddinovich** Shaxsning detarminatsiyasi va javobgarlik muammosi: Freyd psixoanalizi asosida tahlil.
99	**Sharifova Maxliyo Zarif qizi** Homiladorlikka tayyorgarlik bosqichida psixogenetik maslahatning profilaktik ahamiyati
105	**Shomurodov Ibrohim Xusanmurot o'g'li** Ekstremal vaziyatlarda shaxsning psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirishga yo'naltirilgan treninglar dasturining ijtimoiy-psixologik ahamiyati
110	**Shukurova Dilfuza Roupovna** Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligining omillari tahlili.
114	**Shukurova Ilminur Baxtiyorjon qizi** Sharq madaniyatida ko'p avlodli oilalarning psixologik o'ziga xosliklari
118	**Tog'ayeva Umida Shavqi qizi** Ona tili o'qitish metodikasi" modulini takomillashtirishda pedagogik, lingvodidaktik va pragmatik xususiyatlar
124	**Tursunboyev Sherdor Akbarali o'g'li** O'quvchilarni jamoaviy sport turlariga qiziqishining psixologik jihatlari
128	**Usmonov Sherzod Axmadjonovich, Zokirova Nozima Maxmudjon qizi** Yuqori sinf o'quvchilarining shaxsiy rivojlanishida o'ziga ishonchning roli
133	**Usmonova Shoira Siddiqovna**, Zamonaviy jamiyatda gender rollarining psixologik asoslari
137	**Yunusova Go'zal Sultonovna, Anvarjonova Zulxumor Oxunjon qizi** O'smirlik davrida shaxsiy avtonomiyaning shakllanishida ijtimoiy guruhlarning funksional roli: sotsiopsixologik va axloqiy-nazariy yondashuvlar
142	**Бакоева Мафтуна Шухратовна, Усманова Манзура Наимовна** The role of teachers in preventing and addressing bullying in educational settings: strategies, challenges, and implications
149	**Тоштемирова Нигора Иброхимовна** Самооценка и семейные отношения у подростков
156	**Ismatova Dilafruz Tuymuratovna** Bolaning ijtimoiy-psixologik rivojlanishida otaning roli
161	**Mo'minov Davronjon Marifjon o'g'li** Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kasbiy qiziqishlari va motivatsiyasi: amaliy psixologik tahlil
167	**Ro'ziyev Umar Muzafarovich** Ijtimoiy fobiya rivojlanish sabablari va hozirgi zamon psixologiyasida fobiyalarni korreksiyalash
172	**Saydjanov Farxod Madraximovich** Ma'lumotlarni idrok etishda salbiy va ijobiy axborotlarning o'smir ongiga ta'siri
175	**Qahharova Sayyora Bahodirovna** O'smirlarning intellektual va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning psixologik asoslari
178	**Turdiyeva Nigora G'ani qizi** Talabalar psixologik farovonligining o'zlashtirish ko'rsatkichlariga bog'liqligi

183	**Turdiyeva Muhayyo Soxibjon qizi** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda xavotirlanishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari
188	**O'rozboeva Gulshanoy Ixtiyor qizi** Pedagoglar uchun psixologik yordam: prokrastinatsiyani yengish yondoshuvlari
192	**Botirov Zoir** Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining shakllantirish omillari
197	**Fatidinova Dildora Murodjanovna** Iqtısodıy soha vakıllarıda onlayn qımor o'yınlarıga qaramlık shakllanıshının psıxologık omılları
201	**Eshmanov Otabek Baxriddin o'gli** Stress muammosı borasıda o'zbekıstonda olıb borılgan ılmıy ızlanıshlar tahlılı
204	**Abdinazarova Nilufar Eshnazarovna** Mehrıbonlık uyıda tarbıyalanayotgan o'smırlarda xulq-atvor shakllanıshının ıjtımoıy-psıxologık xususıyatları
209	**Abduqahhorova Shahnoza Abdurasul qizi** Eshıtıshda nuqsonı bor o'smır o'quvchılarda emotsıonal-frustratsıon xususıyatlar namoyon bo'lıshının psıxologık xususıyatları
213	**Alijonov Nurbek Ulug'bek o'g'li** Tyutorlarnıng kommunıkatıv va ınteraktıv xususıyatları zamonavıy ta'lımda ahamıyatı va rıvojlanısh yo'nalıshları
217	**Baykunusova Gulmira Yuldibayevna** Jamıyatda shaxsda hasad rıvojlanısh xususıyatları
221	**Ernazarova Rano Yuldashevna** Psıxologık stressga barqarorlık talabalar xulq-atvorını belgılovchı omıl
225	**Eshmuradov Olmosbek Elamanovich** Oıla ıchıdagı ıjtımoıy rollar va ularnıng oıla mustahkamlıgıga ta'sırı
229	**Mamajonova Shoxista Kamoldinovna** O'smırlarda addıktıv xulq shakllanıshının ıjtımoıy-psıxologık omılları
235	**Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna** Kafedra mudırları boshqaruv faolıyatıda ıjtımoıy-psıxologık o'zaro ta'sır modelları
239	**Rajabboyev Asror Alisherovich** Oıla muhıtının agressıv xulq-atvorlı o'smırlarnıng ıjtımoıylashuvıga ta'sırı: psıxologık va sotsıologık tahlıl
243	**Ro'ziyev Ulug'bek Muzaffarovich** O'smırlarda emotsıonal zo'rıqıshlarnı korreksıyalashnıng ıjtımoıy psıxologık xususıyatları
247	**Toshtemirova Nigora Ibrohimovna** Ota-ona munosabatlarının o'smır shaxsının shakllanıshıgan ta'sırı
252	**Turdimatov Jaxongirbek Muxiddin o'g'li** Shaxs ımıjı uslubı asosıda unıng psıxotıpını anıqlash
257	**Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o'g'li** Zamonavıy jamıyatda vatanparvarlık tuyg'usının yoshlarda namoyon bo'lıshının psıxologık jıhatları
262	**Xursanov Omadbek Ulug'bek o'g'li** Oıla mustahkamlıgını saqlashda gender tenglıknıng ahamıyatı
264	**Насибуллов Камиль Исхакович**

	Пространственная ориентация «центр–периферия» в исламской мультимодальной коммуникации
268	**Якубова Гульхаё Эркиновна** Методы оказания психологической помощи подросткам с использованием технологий искусственного интеллекта
	13.00.00 – PEDAGOGIKA
273	**Hakimova Mexriniso Homitovna** Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish afzalliklari
278	**Kenjaboyev Abdusalim** Talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari
284	**Maxmudova Sevara Asatilla qizi** Oliy ta'limda nutq o'stirish metodikasi fanini o'qitilishining dolzarb masalalari
291	**Pulatova Shahlo Nasreddinovna** Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kreativ xususiyatlarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari
295	**Saidov Xayrulla Shavkatovich, Ro'ziyeva Inobat G'iyozovna** Pedagogik diskursda ingliz va o'zbek tilidagi abbreviaturalarning qo'llanilish tahlili
299	**Salimov G'ayrat Muxamedovich** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida"ilm yo'li" davlat dasuri orqali biofeedbaks o'yinlarini o'rni
303	**Usmonova Surayyo** Pedagoglardagi kasbiy stressni tadqiq etishning amaliy asoslari
307	**Xurshida Gubayeva Ismatilla qizi** Oliy ta'limda sifatni boshqarish – janubiy koreya o'qitish strategiyalari misolida ta'lim jarayonini optimallashtirish
311	**Xushvaqova Gulnoza Rustamovna** Kompetensiyaviy yondashuv asosida oilada milliy tarbiyani tashkil etishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish
315	**Киреева Эльвина Фларитовна** Формирование личности педагога-профессионала в системе непрерывного профессионального образования: акмеологичсекий подход
319	**Dilmurod Bakiyevich Xujayev** "Buxorcha" va "Mavrigi" qo'shiq hamda raqs turkumlari asosida o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalash texnologiyasi
324	**Mavlonova Gulchehra G'ulomovna** Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy faoliyatini rivojlantirish
329	**Yo'ldosheva Ma'mura Yo'lchiyevna** Matematikani o'rganish jarayonida o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini hisobga olish
332	**Kalekeeva Tamara Turkmenbaevna** Bo'lajak Matematika O'qituvchilarining Pedagogik Kontent Bilimlarini Shakllantirish: Didaktik Yondashuvlar
337	**Алламбергенова Бахаргуль Кудайбергеновна** Игровые методы с использованием икт на уроках иностранного языка в средней школе
	10.00.00 – FILOLOGIYA
341	**Haydarov Anvar Askarovich, Yodgorova Maftuna Ulug'bekovna**

	“Muhabbat” va “do’stlik” konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlari
345	**Abdirahimova Mohigul Normurodovna** Ingliz va o’zbek xalq ertaklari qahramonlari o’rtasidagi o’xshashlik va tafovutlar
351	**Abdurazzaqov O’ktam Abduqayumovich** Boshlang’ich sinflarda o’qish va yozishni o’rgatishdagi innovatsiyalar
353	**Khurramova Nargiza Abduraxmanovna** Specific features of developing pragmatic competence in english for professional purposes
357	**Алибаева Лола Намазовна, Вишневская Шахризада Фардиновна** Образ востока в русской литературе: историко-культурный и литературоведческий анализ
361	**Akhmedova Khalima Tuxtaevna** Possibilities of using the cluster model in the educational process and project activities
365	**Jahonova Nargiza Yunus qizi** Ona tilini o’qitishda kognitiv-pragmatik yondashuvning mazmuni
371	**Koshnazarova Maloxat Alimovna** Raqamlashtirish sharoitida talabalarning yozma akademik kompetensiyasini rivojlantirishda tizimlilik jarayoni (“Akademik yozuv” fani misolida)
376	**Киличева Феруза Бешимовна, Рахимова Малика Фархот кизи** Категория собирательности в грамматической системе русского языка
382	**Khurramova Oygul Shuhrat qizi, Kenjabayeva Dilafruz Adisalimovna** Educational and psychological basis for using songs and rhymes in language learning
384	**Boboqulova Dilnoza Baxtiyor qizi** Nutqni rivojlantirish metodikasidagi kamchiliklar va ularning bolalar faoliyatiga ta’siri
389	**Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna** O’zbek oilasida ona va bola munosabatlari oilaviy emotsional holat omili sifatida

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI ILMIY-AMALIY JURNAL
№ 5, 2025

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **2023-yil 22-fevral № 064916-sonli** guvohnoma bilan ro`yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan **10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar
instituti ilmiy axborotnomasi // ilmiy-amaliy jurnal. - Buxoro, 2025.
№ 5. – 400 b.